ISSN: (E) 2181-1784
SJIF 2023 = 6.131
ASI-Factor = 1.7

ORIENTAL RENAISSANCE:

Innovative, educational, natural and social sciences

www.oriens.uz

Exact sciences
Natural sciences
Engineering sciences
Pedagogical sciences
Social and Human sciences
Philological sciences
Philosophy sciences
Economic sciences

VOLUME 3
№4/2
2023

ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL

VOL. 3 / ISSUE 4/2
ISSN 2181-1784
Impact Factor: 6.131
ASI Factor = 1.7

April
2023

ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL

EDITOR-IN-CHIEF
Dr. KADIROV MUKHAMMADJON
Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of "Oriental philosophy and culture" of Tashkent state university of oriental studies

EDITORIAL BOARD

DSc. JUMANIYOZ S. RAMATOV
Doctor of Philosophy,
Head of the department of Philosophy and Political Science of Tashkent State Transport University

DSc. JAFAR M. KHOLMUMINOV
Doctor of Philosophy,
Associate professor of the department of "Source Studies and Hermeneutics of Sufism" of Tashkent State University of Oriental Studies.

Dr. DILAFRUZ Y.MAKHKAMOVA
Doctor of Philosophy in Biological Sciences (PhD), Associate Professor of the Department of Soil Science, National University of Uzbekistan

Dr. ABDUSAMAT A. KHAYDAROV
Doctor of Political Science. Professor of the Department of "Oriental Studies and Anthropology" of the Tashkent State University of Oriental Studies.

Dr. YAKHSHIMUROT KURAMBOEV
Doctor of Medical Sciences, Associate Professor of the 2nd Department of Medical Biological Sciences at the Termez branch of TTA

Prof. Dr. SAODAT A. NASIROVA
Doctor of Philological Sciences
Associate Professor, Director of the Uzbek-Chinese Institute named after Confucius at the Tashkent State University of Oriental Studies.

Dr. MATLYUBA A. KHADJIMUKHAMETOVA
Candidate of Technical Sciences, Associate Professor, Head of the correspondence department of the Tashkent State University of Transport.

Dr. DILRABO K. BAKHRONOVA
Doctor of sciences in philology (DSc), Associate Professor, Head of the Department of Spanish Applied Science at the Uzbek State University of World Languages

PhD. ERGASH O. SHARIPOV
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor of the Department of Higher Mathematics of the Karshi Engineering and Economic Institute

Dr. IMAM K. WAHYUDI
Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Head of Office of International Affairs and Faculty Member, Faculty of Teacher Training and Education of Universitas Islam Malang, Indonesia

Prof. Dr. SANAVAR B. SHADMANOVA
Doctor of Historical Sciences, Professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. CHANDER SHEKHAR
Doctor of Philological Sciences Director of the Lal Bahadur Shastri Indian Cultural Center under the Republic of India, Professor of Delhi University

Dr. SHIV KUMAR SINGH
Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor at the School of Arts and Humanities, University of Lisbon

Dr. LEYLA M. BURKHANOVA
Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Professor of the Department of Civil Law of the Tashkent State Law University

Dr. PHOOL BADAN
Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV
Candidate of Philological Sciences Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. METIN ORBAY
Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

Prof. PhD. SAO FEY
Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM
Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

Prof. YALCHIN KAYALI
Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Dr. EMINE M. IZZETOVA
Doctor of Philosophical Sciences Associate professor of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. SHONAZAR J. ERMAMATOV
Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.Head of the department of Economics of Foreign Countries of Tashkent State University of Oriental Studies

PhD. CHJAN KONG
School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

Dr. NAUMENKO A. OLEG
Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

ARTUR KONAN DOYLNING “YO’QOLGAN DUNYO” ASARIDA BOSH QAHRAMON TAQDIRI

Olimova Gulruh Shavkatovna
Buxoro davlat universiteti,
Ingliz adabiyoti yo’nalishi magistranti,
gulrukholimova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Taqdir tushunchasi badiiy adabiyotning markaziy masalalaridan hisoblanadi. Har bir ijod mahsuli yaralar ekan, undagi qahramonlar ma’lum bir taqdirni namoyish qiladi. Kitobxon ham aynan shu taqdirlar yozig’iga qiziqish bog’laydi. Qahramonlar taqdirini tasvirlashda har bir yozuvchining o’z uslubi, texnikasi bor. Qaysidir yozuvchi o’z qahramonlarini hayot kurashlarida sinasa, qaysidiri Allohning bitgan taqdiriga bo’ysunishlikka chorlaydi, yana biri esa hamma o’z taqdirini o’zi belgilaydi degan g’oyani ilgari suradi. Quyida biz Artur Konan Doylning “Yo’qolgan dunyo” asarida bosh qahramon taqdiri tasviri ustida tahlil olib bordik.

Kalit so’zlar: *taqdir, qahramon nutqi, ichki dialog, qahramonlik, “Yo’qolgan dunyo”.*

АННОТАЦИЯ

Понятие судьбы является одним из центральных вопросов художественной литературы. По мере создания каждого творческого продукта героям в нем предначертана определенная судьба. Читателя также интересуют эти судьбы. У каждого писателя свой стиль и техника в описании судеб героев. Одни писатели испытывают своих героев жизненными испытаниями, другие призывают их покориться окончательной судьбе Божией, третьи выдвигают мысль, что каждый сам определяет свою судьбу. Ниже мы проанализировали образ судьбы главного героя в романе Артура Конан Дойля “Затерянный мир”.

Ключевые слова: *судьба, речь героя, внутренний диалог, героизм, «Затерянный мир».*

ABSTRACT

The concept of fate is one of the central issues of fiction. As each creative product is created, a certain destiny is destined for the heroes in it. The reader is also interested in these destinies. Each writer has his own style and technique in describing the fate of the characters. Some writers test their heroes with life’s trials, others call on them to submit to the final fate of God, and still others put forward the idea that everyone determines his own destiny. Below we analyzed the image of the fate of the protagonist in Arthur Conan Doyle’s novel The Lost World.

Key words: *fate, hero's speech, internal dialogue, heroism, The Lost World.*

KIRISH

Artur Konan Doylning "Yo'qolgan dunyo" romani keng omma e'tiborini tortgan, ta'sir ko'lami keng asarlardan biri hisoblanadi. Bu roman ilmiy-fantastika janrining mahsuli bo'lib, adib asarda dinozavrlar va insoniyatning evolutsiyasini adabiyotdagi eng esda qolarli olimlardan biri bo'lgan professor Chellenjer sarguzashtlari orqali gavdalantiradi va bu o'z navbatida keyingi ko'plab ilmiy-fantastik asarlarning motiviga aylangan. Professor Chellenjer shunchaki evolutsion ilm-fan bo'yicha mutaxassis emas, balki o'zining topilmalarini amalda isbotlagan, Amazon tropik o'rmonlaridagi "yo'qolgan dunyo" ni izlab topishda jonbozlik ko'rsatgan qahramon hamdir. Ushbu asarni yozishga adibni o'z davrining qarashlari, zamonaviy ilmning paleontologiya, inson evolutsiyasi, darvinizm kabi nazariyalari, shuningdek, Sasseks yaqinidan topilgan qazilma manbalar ilhomlantiradi va yozuvchi bu g'oyalarni birlashtirib, o'zining mikrokosmosida qadim o'tmish va zamonaviy insonni birlashtiradi.[1]

ADABIYOTLAR SHARHI

Asar muqaddimasida berilishicha[2], Doyl "Yo'qolgan dunyo" asaridagi ko'p voqealar orqali Jyul Vern, Daniel Defoe, Jon Milton, Konrad Marlov asarlariga ishora qiladi va intertekstuallikdan samarali foydalanadi.

Asar boshlanmasida irlandiyalik yosh muharrir Edvard Meloun maftunkor Gledisni o'ziga jalb qilish maqsadida, o'z nashriyotidan unga "xavfliroq topshiriq" berishni so'raydi. Nashriyot bosh muharriri Makkardl unga mashhur va jurnalistlarni o'ta darajada yomon ko'radigan, o'ziga xos va g'ayrioddiy professor Jorj Chellenjerdan intervyu olishni taklif qiladi. Bu yerda asar qahramoni o'z taqdiri uchun kurashga ilk qadamni qo'yadi, ya'ni u o'z muhabbatiga erishish uchun hammani lol qoldiradigan qahramonlik qilishga kirishadi. Shu o'rinda Gledisning Melounni qahramonlikka undashi qahramonimizning taqdirida tub burilish yasaydi:

"But chances are all around you. It is the mark of the kind of man I mean that he makes his own chances. You can't hold him back. I've never met him, and yet I seem to know him so well. There are heroisms all round uswaiting to be done. It's for men to do them, and for women to reserve their love as a reward for such men. Look at that young Frenchman who went up last week in a balloon. It was blowing a gale of wind; but because he was announced to go he insisted on starting Think of the

[1] Lampadius, Stefan. "Evolutionary Ideas in Arthur Conan Doyle's The Lost World." Der andere Conan Doyle: Internationale Tagung am 20. und 21. Mai 2011 in Leipzig. Frankfurt: Peter Lang, 2012. P.68-97.
[2] Doyle A. C. The lost world. – Oxford Paperbacks, 1998. – P.4.

woman he loved, and how other women must have envied her! That's what I should like to be,—envied for my man."[3]

Yuqorida keltirilgan nutq alohida ahamiyat kasb etadi, chunki adib bu orqali jamiyatdagi ayollarning o'rnini ta'kidlab o'tadi go'yo: ayollarning asosiy vazifasi erkaklarni qahramonlikka undash, ularni ruhlantirish; erkaklar yordamida ular jamiyatda obro'-e'tibor qozona olishi; qahramonlikka da'vo ayollar uchun emasligi. Bunday g'oya adibning boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgani fikrimizning ayni dalilidir. Buni adabiyotshunoslar "masculinity"[4] tushunchasi bilan bog'lashadi.

Professor Chellenjerning portreti tasviri yuqoridagi keltirilgan fikrning uzviy davomi bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchi, bir tomondan, jismonan yetuk erkak portretini chizsa, ikkinchi tomondan, ilm insonining betartib hayoti, butun o'y-u xayolini izlanishlariga bag'ishlagan olimning haybatini gavdalantirishga harakat qiladi:

"His appearance made me gasp. I was prepared for something strange, but not for so overpowering a personality as this. It was his size which took one's breath away his size and his imposing presence. His head was enormous, the largest I have ever seen upon a human being. The eyes were blue-gray under great black tufts, very clear, very critical, and very masterful. A huge spread of shoulders and a chest like a barrel were the other parts of him which appeared above the table, save for two enormous hands covered with long black hair. This and a bellowing, roaring, rumbling voice made up my first impression of the notorious Professor Challenger."[5]

Professor Chellenjerning bunday qiyofada tasvirlanishiga sababni biografik omilga bog'lasak adashmagan bo'lamiz. Chunki Artur Konan Doylning o'zi ham, zamondoshlarining aytishicha, shunday jismonan baquvvat, haybati o'tkir, qarashlari teran va so'zlari keskir bo'lgan.[6] Bunga boshqa bir sabab asarda namoyon bo'ladi, ya'ni maymunsimon odamlar bilan to'qnash kelgan asar qahramonlari aynan professorning ularga o'xshash qiyofasi sababli omon qoladilar. Adib bunda qahramonlar taqdirida yuz beradigan har bir falokatni oldindan ko'rib, ularga yechimni ishonarli tarzda ifoda etishga muvaffaqq bo'lgan. Bundan tashqari, Doyl o'z davrining mashhur nazaraiyasi, Darvinizmni o'z asariga singdirishga harakat qiladi. Aynan o'sha davrda Yevropa Darvinizm g'oyalarini mafkura darajasiga olib chiqishga ulgurgan edi.

[3] Doyle A. C. The lost world. – Oxford Paperbacks, 1998. P.5.
[4] Barsham D. Arthur Conan Doyle and the Meaning of Masculinity. – Routledge, 2016.
[5] Doyle A. C. The lost world. – Oxford Paperbacks, 1998. - P.30.
[6] Lycett A. The Man Who Created Sherlock Holmes: The Life and Times of Sir Arthur Conan Doyle. – Simon and Schuster, 2007. – P. 27.

Asarni tahlil qilishda davom etarkanmiz, unda qahramonimiz Melounning o'z fikrida sobitligi, oldiga qo'ygan maqsadida bardavomligini ko'ramiz. Qaysar olim uning jurnalistligini bilib qolib, kaltaklab ko'chaga uloqtirsa-da, u politsiyaga shikoyat qilishdan ko'ra olimning diqqatini qozonishga harakat qiladi. Quyida muallif asar qahramonining taqdirida katta o'zgarish bo'lishida qahramonning o'zini jasoratga chorlaydi. Yozuvchi buni tasvirlashda ichki dialogdan foydalanadi:

"It is thus that the great crisis of a man's life springs out at him. Could I have imagined when I entered that hall that I was about to pledge myself to a wilder adventure than had ever come to me in my dreams? But Gladys— was it not the very opportunity of which she spoke? At the same time I was aware that a tall, thin man, with dark gingery hair, a few seats in front of me, was also upon his feet. He glared back at me with hard angry eyes, but I refused to give way."[7]

MUHOKAMA

Shu ondan boshlab Meloun va professor Challenjer taqdiri bir-biriga bog'lanib ketadi. Ular Amazon o'rmonlariga ekspeditsiya uyushtirib, u yerda ko'plab voqealarning guvohi bo'ladilar. Bu ekspeditsiyaga professor Chellenjer, olimlar uyushmasi faylasufi Sammerli, jurnalist Meloun va sarguzashtchi Jon Rokston turli maqsadlarni o'z oldilariga qo'yib otlanadilar va asar so'ngida har bir qahramon o'z izlaganini qo'lga kiritadi, ya'ni professor Chellenjer olimlarning kibor dunyosiga o'z so'zlarining isboti-ptereodaktilni namoyish qiladi; Sammerli dastavval professor Chellenjerni sharmanda qilishni niyat qilgan bo'lsa-da, so'ngra o'zining ilmiy izlanishlariga dalillarni qo'lga kiritishga harakat qiladi, Jon Rokston ko'zlagan boylikka va Meloun esa qahramonlikka ega bo'ladi.

Ekspeditsiya davomida qahramonlar taqdiri hayot va o'lim o'rtasidagi kurashda o'z ifodasini topadi. Buni biz manzilga qadar qahramonlarga hamroh bo'lgan yo'l mashaqqatida, qahramonlarimizning maymunsimon odamlarga asir tushganida, qora tanli Gomezning qasos olish maqsadida tepalikda ularni chorasiz qoldirganida, ptereodaktilning hujumidan omon qolganlarida, shuningdek, qabilalarning o'zaro kurash sahnalarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Eng e'tiborli jihati shundaki, yuqorida aytib o'tgan qahramonlarimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari ular uchun mayoq vazifasini bajaradi.

Asar so'ngida qahramonimiz Meloun Gledisning boshqa insonga turmushga chiqqanidan xabardor bo'ladi. Buni o'qigan kitobxon "Meloun hayotdagi maqsadidan ayrildi, uning shuncha harakati behuda ketdi" degan o'yga borishi tabiiy. Chunki uning barcha orzu xayollari bir zumda sarobga aylandi. Shuncha ter to'kib erishilgan qahramonlik oddiy kotibning boyligiga almashilindi. Lekin uning quyidagi so'zlari

[7] Doyle A. C. The lost world. – Oxford Paperbacks, 1998. - P.82.

mutlaqo boshqa taassurot uyg'otibgina qolmay, har qanday odamni olg'a yurishga undaydi:

"-I'll use my own, - said Lord John Roxton, in fitting a well-formed expedition and having another look at the dear old plateau. As to you, young fellah, you, of course, will spend yours in gettin' married.

-Not just yet, said I, with a rueful smile. I think, if you will have me, that I would rather go with you."[8]

Qahramonimizning yuqoridagi birgina gapi har bir odam o'z taqdirining muallifligiga, har qanday inson faqat o'zi xohlasagina oldiga qo'ygan maqsadga erisha olishiga, har qanday qahramonlikning uddasidan chiqa olishiga ishora qiladi. Uning tushkunlikka tushmay, yana sarguzashtga tayyorligini bildirishi Meloun ruhiy jihatdan barkamol shaxsligini anglatadi. Bu o'rinda adib yana erkak zotining har tomonlama ustunligi haqidagi qarashlarini uqtirishga urinadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, "Yo'qolgan dunyo" romani Artur Konan Doyl ijodidagi alohida e'tirofga sazovor asarlardan biridir. Ushbu asar ham siyosiy, ham ijtimoiy, ham madaniy unsurlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ilmiy-fantastik asar sifatida bashariyat ilm-fani uchun qimmatli ma'lumotlarni kashf etgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Undagi evolutsiya, paleontologiya, antropologiya fanlariga doir ma'lumotlar kuchli dalillanish asosida yozilgani bunga asos bo'lib xizmat qiladi. Asar qahramoni taqdiri, asosan, tashqi olamdagi mashaqqatlar va ruhiy olamdagi fikrlar qarama-qarshiliklarida ifoda etiladi. Adib qahramonining o'zini o'z taqdiri uchun mas'ul qilib qo'yadiki, uni har doim ichki motivatsiya, maqsad sari intilish olg'a qadam bosishga undaydi. "Inson o'z taqdirining muallifi" degan shior asar boshidan oxiriga qadar o'z kuchini yo'qotmaydi. Gledis boshqasiga turmushga chiqqaniga otasini sababchi qilib ko'rsatsa-da, pulni har nimadan ustun qo'yib, shu yo'lni tanlagani aynan o'zining qarori ekanligi kitobxonga yaqqol bilinib turadi. Chunki asar boshidagi qahramonimizni shon-shuhrat qozonishga undagan, barcha imkoniyatlardan boricha foydalanib qolishga chorlagan, o'zini faqat shunday baxtga loyiq ko'rgan qiz qanday qilib otasining qaroriga shunchaki taslim bo'ladi degan fikr hammani o'ylantirishi tabiiy. Demoqchimizki, adib Gledisning taqdiri shunday bo'lishiga uning o'zi, faqat o'zi sababchi ekanligiga ishora qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barsham D. Arthur Conan Doyle and the Meaning of Masculinity. – Routledge, 2016. – 124 p.

[8] Doyle A. C. The lost world. – Oxford Paperbacks, 1998. - P.352.

2. Doyle A. C. The lost world. – Oxford Paperbacks, 1998. – 353 p.
3. Lycett A. The Man Who Created Sherlock Holmes: The Life and Times of Sir Arthur Conan Doyle. – Simon and Schuster, 2007. – 241 p.
4. Stefan L. Evolutionary Ideas in Arthur Conan Doyle's The Lost World. Der andere Conan Doyle: Internationale Tagung am 20. und 21. Mai 2011 in Leipzig. Frankfurt: Peter Lang, 2012.- 68 p.
5. Williams R. Literature and sociology //Problems in Materialism and Culture: Selected Essays. London: Verso, 2001.– 19 p.

QISHLOQ YOSHLARINI SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA O‘RGATISHDA TRENERLARNING O‘RNI

Mirkobilov Xusanboy
Farg‘ona davlat universiteti
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada qishloq yoshlari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sport maktablari ya’ni BO‘SMlarning o‘rni hamda undagi murabbiy-o‘qituvchi (trener)larning faoliyat yoritildi.

Kalit so‘zlar: *sport, qishloq yoshlari, sport maktablari, BO‘SMlar, murabbiy-o‘qituvchi, trener, sog‘lom turmush tarzi.*

ABSTRACT

In the article, the role of sports schools, i.e. sports schools, and the activities of their trainers were highlighted in the formation of a healthy lifestyle among rural youth.

Key words: *sport, rural youth, sports schools, secondary schools, coach-teacher, trainer, healthy lifestyle.*

KIRISH

Mamlakatimizda kelajagimiz egalarini har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish borasida olib borilayotgan ibratli ishlar ko‘lami kundan-kunga salmoqli ko‘rinishga ega bo‘lib boryapti. Bu borada Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar misolida qaraydigan bo‘lsak, yurtimizda barpo etilayotgan muhtasham sport saroylari, ularda yaratilayotgan shart-sharoitlar yoshlarimiz qalbida jismoniy tarbiya va sportga nisbatan mehrni oshirishda muhim omil bo‘lyapti.

E’tiborli tomoni so‘nggi yillarda mamlakatimizning nafaqat markazlarida balki chekka-chekka tumanlari, qishloqlarida zamonaviy sport majmualarni qurib foydalanishga topshirilishi yaxshi an’anaga aylanib bormoqda.

Sog‘lomlashtirish maqsadidagi harakatlarni bajarish o‘zining xususiyatlariga ko‘ra vujudimiz a’zolarining funksional imkoniyati bilan bog‘liq. Chunki sog‘lom turmush tarzi (STT) jismoniy madaniyati sohibi o‘z organizmi a’zolarining xizmati xolatini, uning darajasini – shug‘ullanganligi (mashqlan ganligi)ni bilimay o‘ziga ortiqcha jismoniy talablar qo‘yishi holati o‘quvchini mashg‘ulotlardan bezdiradi.

Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlarida mashqlanganlikni aniqlash uchun jismoniy madaniyat amaliyotida yurak-tomir tizimi faoliyati ko‘rsatkichlarini aniqlash bilan amalga oshiriladi. Shug‘ullanganlik darajasi yurakni

qisqarishi sur'ati (YQS)si orqali namoyon bo‘ladi va unga oid bilimlar ta'lim tizimi o‘quv dasturlaridan joy olmagan.

Yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish maqsadida tashkil etilgan Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan to‘rt yil davomida juda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bugun mamlakatimizning qaysi hududiga bormang, jamg‘arma mablag‘lari hisobiga bunyod etilgan zamonaviy sport inshootlariga ko‘zingizga tushadi. Nafaqat shaharlaru-tumanlar markazlarida, qolaversa, uzoq qishloqlarda ham barcha sharoitlarga ega bo‘lgan sport majmualari bunyod etilmoqda. Agar o‘tgan yillar bilan taqqoslasak, 2018 yilda (106 tadan 75 tasi) 85 foiz qishloq joylarda qurilganligi; 2019 yilda (120 tadan 93 tasi) 88 foiz qishloq joylarda kurilganligi; 2021 yilda (153 tadan 128 tasi) 90 foiz qishloq joylarga qurilganligi; 2022 yilda (164 tadan 137 tasi) 95 foiz qishloq joylarga qurilganligi hamda ob'yektlardan 149 tasi ya'ni 86 foiz qishloq joylarda qurilishi ko‘zda tutilganligidan yildan-yilga qishloq joylarga e'tibor tobora ortib borayotganligi ko‘rinib turibdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolalar va o‘smirlar sport maktablari maktabdan tashqari o‘quv muassasalari sifatida o‘quvchi talab yoshlar tarkibidan sportga layoqati bolalardan yuqori sport mahoratiga ega bo‘lgan sportchilarni tayyorlash maqsadini qo‘yadi. Shu asnoda o‘quvchilarning sog‘ligini mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligini oshirish va yuqori sprot mahoratiga erishtirish bilan bog‘liq quyidagi qator vazifalarni hal qiladi.Ular:

a) o‘quvchilarni har tomonlama jismonny gayyorgarligini va salomat ligipi mustahkamlash uchun baza yaratish bilan yuqori malakaga ega bo‘lgan yosh sportchilarni tayyorlash;

b) shug‘ullanuvchilardan jamoatchi yuriqchilar va sport hakamlarini tarbiya lashni ta'minlash;

v) umumiy ta'lim maktablari, akademik-lisyeylar, kasb-hunar kollejlari, gimnaziyalarda o‘quvchi-talabalarni jismoniy mashqlar va sport bilan ommaviy shug‘ullanishlari uchun turtki tarzidagi yordamni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Bu vazifalar turli tipdagi, turli xildagi o‘quv guruhlarida, ta'lim olish yiliga qarab sport maktablari uchun konkretlashtiriladi, o‘quv dastur lari, sport tayyorgarligi e'tiborga olinib o‘quv muassalari shug‘ullanuv chilardan jamoatchi-yo‘riqchilar, jamoatchi sport hakam(sudya)lari tayyorlanadi, ommaviy-sport va sog‘lomlashtirish ishlarini tashkillashga yordam beradi.

Bolalar va o‘smirlar sport maktablari Respublika Xalq ta'limi, Kasa ba uyushmalari jismoniy tarbiya va sport qo‘mitalarining ko‘rsatmalari asosida umumiy

ta’lim maktablari, shahar va qishloq fuqarolari yig‘inla rining, yashash joylari, uy boshqarmalari, sport bazalari, sport inshoat lari, suv havzalari va boshqa idora, tashkilotlari qoshida tashkillanadi.

Sport maktablarini ochishning asosiy sharti o‘quv-trenirovka mashg‘u lotlarini o‘tkazish uchun maktab ochishni maqsad qiluvchi tashkilotning o‘z bazasi yoki ijaraga olingan sport bazasiga ega bo‘lishi, idoralari va yordamchi xo‘jaliklar uchun binolari, shuningdek, rahbar, murabbiy-o‘qituvchi kadrlar hamda moliyaviy ta’minlovga ega bo‘lishi kerak.

BSM va BO‘qishloq joylaridan sport maktablarining tarkibida*tayyorlov va boshlang‘ich*hamda *boshqa o‘quv mashg‘ulotlari guruhlari*tarkib toptiriladi. Bu bilan maktablarning sport ishlarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishi uchun zarur shartlarni hisobga olib mukammal o‘quv sport guruhlarini yuzaga keltirish imkoniyati yuzaga keltiriladi.

Qishloq joylaridagi sport maktablari hamda o‘smirlar olimpiya zahiralarini tayyorlashga ixtisoslashgan sport maktablari alohida yoki sport bazasi va *yuqori malakali* murabbiy-o‘qituvchilar (trenerlar) bilan ta’mnlangan, malakali sportchilar tayyorlash ishlarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari qoshida ham tashkillanishi mumkin.

Qishloq joylaridagi sport maktablarida hal qilinadigan vazifalar bilan bir qatorda olimpiya zahiralariga ixtisoslashgan sport maktablari oldiga aniq maqsad qilib – sportning u yoki bu turi bo‘yicha mamlakat terma jamoalariga yuqori malakali sportchilar tayyorlab berish maqsadi qo‘yiladi.

Belgilangan vazfalar qishloq joylaridagi sport maktablari, olimpiya zahiralariga ixtisoslashgan olimpiada zahiralari sport maktablari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bunday maktablar sportning bir yoki bir necha aralash turi uchun mo‘ljallanib ochilishi mumkin.

Sport maktablarida *boshlang‘ich, tayyorlov, o‘quv guruhlari va sport bo‘yicha belgilangan darajadagi mahoratga* ega bo‘lgan guruhlar tashkillanadi. Maktablarga rahbarlik faqat boy tajribaga ega bo‘lgan oliy ma’lumotli soha mutaxasisi (yoki soha bakalavri, magistri)-bolalar bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lgan *direktor tomonidanboshqariladi*.

Maktabdagi barcha ishlarni tashkillashga *direktormas’uldir*. Maktab direktoridan tashqari bu o‘quv muassasalarida quyidagi ish o‘rni:*o‘quv ishlar bo‘limi mudiri* (direktor o‘rinbosari), tarbiyaviy va uslu biy ishlarni boshqarish va takomillashtirish uchun *bosh yo‘riqchi, uslubi yotchi*, *yo‘riqchi-uslubiyotchi hamda murabbiy-o‘qituvchilarning ish shtati*bilan komplektlanadi.

Ularning faoliyati - ota-onalar qo‘mitasi, maktabni tashkillash uchun mas’ul o‘quv korxonasi yoki maktabni tashkillovchi tashkilotning kasaba uyushmasi vakilidan iborat maktabning *“Pedagoglari kengashi”* boshqaradi.

Pedagoglar kengashi tarkibida agar maktab bir necha sport turlari bo‘yi cha o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarini tashkillash uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, sport turlari bo‘yicha “murabbiylar kengashi” ham faoliyat ko‘rsatadi.

O‘quv guruhlarida sarkor (boshliq)lar saylanadi. Ular sarkorlar (boshliq, kapitanlar) kengashiga birlashtiriladi. Kengashlar (boshliq, kapitan)lar bilan o‘z-o‘zini boshqaruvchi organ bo‘lib, maktab ichidagi musoba qalar, bayram va kechalarni tashkil qilish va o‘tkazishda ishtirok etadi, devoriy gazeta chiqaradi, maktabda tartib-intizomni saqlashni nazorat qiladi.

Meditsina nazorati – vrachlik jismoniy tarbiya dispanserlari, ular bo‘lmagan taqdirda hududning poliklinikasi vrach nazorati bo‘limida amal ga oshiriladi. Maktabning har bir o‘quvchisi uchun belgilangan shakldagi tibbiy nazorat kartasi to‘ldiriladi va ular maktabning tibbiyot xodimi xonasida yoki vrachlik jismoniy tarbiya dispanserida (hududiy poliklinikalarda) saqlanadi.

Sport maktablarining tashkiliy – xo‘jalik ishlari xujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) tasischi tashkilotining tashkiliy, o‘quv, ommaviy, sport, tarbiyaviy, targ‘ibot - tashviqot ishlari, ishchilar malakasini oshirish, o‘quvchilarga tib biy yordam ko‘rsatish, ota-onalar va umumta’lim maktablari bilan ishlash, moliya-xo‘jalik faoliyati va o‘quv yili masalalarni o‘z ichiga olgan, tasdiq langan, *istiqbolli va yillik ish rejalari;*

2) murabbiy-o‘qituvchilar va maktab ishchilarining yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlangan *tarifikasiya ro‘yxati, ish haqi tabelllari*;

3) tashkilotlar, kroxonalar va boshqa tashqaridan kelgan va ularga chiqarilgan, yuborilgan *hujjat va xatlarni ro‘yxatga olish daftari;*

4) maktab jismoniy madaniyati va *sporti tarixi va sport rekordlarini ro‘yxatga olish daftari;*

5) sport mahorati darajalari(razryadi) va jamoatchi sport hakamlari, qatnashgan, o‘tkazilgan tadbirlar va musobaqalarning *bayonnomalari, ularni hisobotini olib borish* daftarlari;

6) maktab o‘quvchilari umumiy, *sport turlari va o‘quv guruhlar bo‘yicha ro‘yxatlari, ularning shaxsiy kartalari (o‘qishga qabul qilish haqidagi ariza, foto surati, shaxsiy kartochkalari, vrach nazorati kartasi);*

7)maktab *ishchi xodimlarining shaxsiy delolari;*

8) buyruqlar, pedagogika kengashi bayonnomalari, mehnat daftarcha larini ber ish, ishonch qog‘ozlari va boshqa hujjatlar yuritiladi.

O‘quvchilar kontingenti, o‘quv guruhlar soni va yillik dars soatlari har yili 1 oktyabrgacha tasdiqlanadi.

O‘quvchilarni *tayyorlov* shuningdek, *o‘quv-mashq qilish guruhlariga qabul qilish*ularning arizasi, ota-onasining, maktab va boshqa o‘quv muossasalarining rahbarlarini rozilik xati (yo‘llanmasi)ni talab qilish bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yashash joyidagi poliklinika vrach-pediatrining yozma ravishdagi ma’lumotnomasi talab qilinadi.

Sport maktablariga qabul qilinadigan o‘quvchilar “umumiy jismoniy” va “maxsus tayyorgarlik” bo‘yicha *belgilangan sinov me’yoriy normalarini topshiradilar*. Bundan tashqari, “o‘quv-trenirovka” guruhlariga va “yuqori sport mahorati guruh”lariga shug‘ullnish uchun qabul qilinayotganlar o‘z sport ixtisosligi bo‘yicha ham nazorat – tekshiruvidan o‘tadilar.

O‘quv-tarbiya jarayoni(trenirovkalar) jismoniy tarbiya va sport qo‘mi tasi, halq ta’limi boshqarmasi tomonidan tasdiq langan dasturlar asosida, sport maktablari uchun 46 haftalik (o‘zgarib turadi) o‘qitish, mashq qilish mashg‘ulotlari va sog‘lom lashtirish - sport lagerlarida, haftalik mashqla nish mashg‘ulot larini o‘tkazish hamda o‘quvchilarning aktiv dam olish davri dagi shaxsiy rejalarini hisobga olgan holda bajariladi.

Bolalar va o‘smirlar sport maktablari va ixtisoslashgan Olimpiya zahiralari sport maktablari (IOZSM)ning *o‘qitish, mashq qilish mashg‘u lotlarining asosiy shakllari* quyidagicha:

1. Nazariy mashg‘ulotlar: o‘quv kinofilmlari, kinogrammalar, kinokalsovka va boshqalarni ko‘rish;

2. Shaxsiy reja bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish: sport maktablarida o‘tkaziladigan lozim bo‘lgan tashkilot tomonidan tasdiqlangan kalendar rejadagi sport tadbirlariga muvofiq *musobaqalar va uchrashuv matchlari*da ishtirok etish;

3. Sog‘lomlashtirish-sport lagerlarida va o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlari yig‘inlarida shug‘ullanish jarayoni;

4. O‘quv-trenirovka guruhlarida, ixtisoslashgan sport va oliy sport mahorati mashg‘ulotlarini o‘tkazishda asosiy murabbiy-o‘qituvchidan tash qari umumiy jismoniy tarbiya, akrobatika, gimnastika va sportning boshqa turlari bo‘yicha murabbiy-o‘qituvchilarni jalb qilish mumkin. Bu mashg‘u lotlar ma’lum guruh uchun belgilangan rejimda, o‘quv-mashq qilish soati chegarasida o‘tkaziladi.

Sport maktablarida o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarini o‘tkazish guruh lari uchun quyidagi hujjatlar tuziladi:

1) sport turlari bo‘yicha o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari;

2) umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha qabul qilish me’yorlari, nazorat va bitirishda topshiriladigan yakuniy me’yor lar majmuasi, o‘tkazilgan sinov bayonnomalari va jadvallar;

3) o‘quvchilarni o‘quv-mashq qilish guruhlarida tayyorlash bo‘yicha istiqbolli reja, mahoratini takomillashtirish va oliy sport mahorat guruhlari o‘quvchilari-sportchilarning shaxsiy va ikki yillik muddatga tuzilgan o‘quv trayenirovka mashg‘ulotlarining rejalari(oylik, kvartal, yillik);

4) bo‘lim va guruhlarda o‘quv materiallarini o‘qitishjadvali;

5) o‘quv ishlarini hisobga olish jurnali;

6) haftalik mashg‘ulotlar jadvali.

Yosh *sportchilar bilan tarbiyaviy ishlar* maktab direktori tomonidan tasdiqlangan, yagona reja asosida tashkillanadi. Tarbi yaviy ishlar o‘quv-trenirovkalari, musobaqalar, mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqtlarida uzluksiz, taxminan quyidagi rejaga kiritilgan tarbiyaviy mavzular asosida olib borilishi mumkin:

- sport maktabi o‘quvchilarning tashabbuskor jamoalari;
- o‘zbek sportchisining ma’naviy qiyofasi;
- o‘zbek sportchisining shonli an’analari;
- yosh sportchilarni maktab ota-onalar qo‘mitasi ko‘magida jamoat uchun foydali ishga, shuningdek, moddiy-sport bazasini mustahkamlash (tamirlash,qurish) ishlariga jalb qilish;
- sport maktablari o‘quvchilarini o‘zi tahsil olayotgan umumta’lim maktablari va boshqa o‘quv yurtlarida ommaviy sport ishlarini tashkil etishga jalb etish.
- tarbiyaviy maqsadda sport maktablariga tantanali qabul qilish, sportchilikka bag‘ishlangan qasamyodni tashkillash, sport darajasining oshirilishiga bag‘ishlangan marosimlarni yo‘lga qo‘yish va boshqalar rejalashtirilishi mumkin .

Sport maktablari o‘quvchilari bilan olib boriladigan ma’naviy, tarbiyaviy ishlar salmog‘ini orttirish uchun nomdor, ko‘zga ko‘ringan sportchilar, Mehnat qahramonlari, mehnat va Ulug‘ Vatan urushi qatnashchilari bilan uchrashuvlarning tarbiyaviy ishlar rejasidan joy olishi qayd qilingan rejaning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Ko‘pchilik maktabdan tashqari muassasalar faoliyati *muassasa tasis chining nizomiga muvofiq* yo‘lga qo‘yadi.

Mamlakatimizda hozir amalda qo‘llanilayotgan «O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar sport maktablari uchun nizom» Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 23 sentyabrdagi 211-sonli qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi

Davlat byudjetidan moliyalashtirilgan Sport maktablari to‘g‘risidagi Nizom hozirgacha o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q.

Nizomda Bolalar-o‘smirlar sport maktablari - maktabdan tashqari ixti soslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasi bo‘lib, ularni Xalq ta’limi tizimi, mudofa, ichki ishlar, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash vazirliklari, aloqa, temir yo‘l transporti, Kasaba uyushmalari va boshqa muassasalar tomonidan turli xillarini tashkillash mumkinligi qayd qilingan. Ular:

A) kompleksli BO‘SMlari, ular bir necha sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yadi.

B)mutaxassislashtirilgan BSM va BO‘SM (olimpiada zahiralari-OZBO‘SMlari, oliy sport mahorati (OSM maktablari)lari, birnecha sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yadi. Ma’muriy boshqarilishi nuqtai nazaridan hamda o‘quvchilarni qabul qilishiga qarab tumanlar, shaharlar, viloyatlar va Respublika maktablari deb guruhlanadi.

OZBSM (SDYUSHOR) mavjud BO‘SMlari bazasida yuqori sport klassi fikasiyasiga erishgan sportchi bolalarni to‘plash evaziga tashkillanadi. Agar o‘zining bazasi, binosi bo‘lmasa tajribaga boy va yuqori malakali sport murab biylari mavjud bo‘lgan maktablar bazasi tashkillanadi. OZBSMning asosiy maqsadi-yuqori malakali, mahoratli sportchilarni viloyat respublika terma jamoalari uchun tayyorlashdan iborat. Bu maktablarda oliy mahorat guruhlarini, o‘quv guruhlarini esa BO‘SMlarda ochishga ruxsat berilishi mumkin. Respublika Madaniyat va sport ishlari Vazirligi va boshqa mahkamalarning, vazirliklari bilan kelishib va ularni tashabbusi bilan alohida «Oliy sport mahorati maktabi» OSMM ham tashkillash mumkin.

BO‘SMlariga qabul qilish qoida bo‘yicha umumiy ta’lim maktablarining jismoniy madaniyat o‘qituvchilari yoki shu maktabning jismoniy madaniyat jamoa sini yo‘llanmasi bilan amalga oshiriladi. Albatta o‘quvchini xohishi hisobga olinishi shart.

Qabul tibbiy ko‘rik natijalari, ota-onalarini hamda maktab direktorini ruxsatidan so‘ng, BO‘SMning nizomi hamda boshqa instruktiv xujjatlar asosida, jismoniy tayyorgarlik testi yoki sport turi testi testi normalarini baja rishdagi natijalariga ko‘ra tanlanadi.

Boshlang‘ich tanlov sport murabbiyi tomonidan bolani musobaqalardagi, ishtiroki, maktab sport seksiyalarining mashg‘ulotlari davomida, maktab jismoniy tarbiya darslarida ham yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Qabul haqida asosiy to‘xtamga kelish BO‘SMda o‘tkazilayotgan (qabuldan oldingi) o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarida hal qilinadi. Guruhlarga yakuniy qabul BO‘SM nizomida ko‘rsatilgan yo‘riqlar asosida amalga oshiriladi.

Guruhdan guruhga o‘tkazish ham dastur talab va normalarni bajargandan so‘ng, maktabni bitirish esa 17 yoshda, sport tayyorgarligi daftari va guvohnoma berish bilan tugallanadi.

Yuqorida qayd qilingan sport maktablarini jismoniy madaniyat yoki pedagogikadan oliy ma’lumotli, bolalar bilan ishlash ish tajribasiga ega bo‘lgan *direktor*boshqaradi va u barcha ishlarni tashkillashga ma’suldir.

Sport maktabidagi *o‘quv ishlari bo‘limi mudiri*(direktor o‘rinbosari) lavozimiga jismoniy tarbiyadan oliy ma’lumoti bo‘lgan malakali mutaxassis lardan tayinlanadi. U o‘quv jarayonini tashkil qilishga, murabbiy-o‘qituv chilarni malakasini oshirish, o‘quv gruppalarini komplektlash, o‘quv ishlarini rejalashtirish, o‘quv gruppalari mashg‘ulotlarining jadvalini, sport musoba qarining kalendarini tuzish, bo‘limga tegishli hujjatlarni tasdiqlash shifokorlar ko‘rigidan o‘z vaqtida o‘tkazish kabilarga mas’ul va qayd qilingan yo‘nalishlarga javob beradi.

Sportning ma’lum turi bo‘yicha tashkiliy, tarbiyaviy va metodik ish larni jismoniy tarbiyadan *oliy ma’lumotli yo‘riqchi – uslubchi* muntazam ravishda bajarib boradi.

Tasdiqlangan reja bo‘yicha o‘quvchilarni tarbiyalash yuzasidan tad birlar ishlab chiqish, umumiy ta’lim maktablarida sinfdan tashqari sport ishlarini tashkil qilish, murabbiy-o‘qituvchilar bilan bolalar va o‘smirlar sport maktabiga, olimpiya rezervlariga ixtisoslashgan sport maktablarida shug‘ullanish uchun nomzodlarni tanlab olish, murabbiy-o‘qituvchilar bilan ta’minlash, ular bilan metodik ishlarni olib borish yo‘riqchi-uslubchining vazifasiga kiradi.

Katta yo‘riqchi- uslubchi metodist jismoniy tarbiya bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lishi shart. Yo‘riqchi–uslubchi uslubchilar, murabbiylar ishiga rahbarlik qiladi va ularning faoliyati ustidan nazorat olib boradi, uslubiy kabinet ishiga javob beradi, bolalar va o‘smirlarning olimpiya zahiralariga ixtisoslashgan sport maktabi faoliyatini tumandagi (shahar dagi) metodik markaz rolini o‘ynaydi, o‘quvchilarni tarbiyalash bo‘yicha umumaktab tadbirlarini o‘tkazishga ma’suldir. Katta yo‘riqchi-uslubchi ish yuzasidan maktab direktorga va o‘quv ishlari bo‘yicha bo‘lim mudiri, direktor o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

Maktabdagi *murabbiy–o‘qituvchilar tarkibi* (trener) ham jismoniy tarbiya bo‘yicha oliy ma’lumotli mutaxassislardan iborat bo‘ladi.

Katta murabbiy-o‘qituvchilarni to‘g‘ri komplektlash va sport mahoratini oshirib borishga, bo‘lim (guruh)larda o‘quv jarayonini tashkil qilish va rejalash tirish qabul qilingan va nazorat sinovlarini amalga oshirish belgilangan muddatda o‘quvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish murabbiy-o‘qituvchilarnint ishlarini va malakasini oshirish bo‘yicha tadbirlar tashkil qilishni hisobga olishga ma’sul.

Murabbiy-o‘qituvchi (trener)lar o‘quv guruhlarini to‘g‘ri komplektlash, o‘quv dasturini bajarilishi malakali yosh sportchilar, jamoatchi-instruktorlar, sport bo‘yicha hakamlar tayyorlash, o‘quvchilar bilan tarbiyaviy va o‘quv-mashqlarini o‘tkazish ishlariga javob beradilar.

REFERENCES

1. Abdullayev A.va boshqalar. “Jismonan barkamol avlod orzusi”. Farg‘ona, 2003 y.
2. “Barkamol avlod tarbiyasida sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Farg‘ona, 2011.
3. Sh.Xonkeldiyev, A.Abdullayev va boshqalar. “Kasb-hunar kollejlari o‘quvchi yoshlarining sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati” o‘quv qo‘llanmasi. “Farg‘ona” nashriyoti, 2010.
4. Sh.Xonkeldiyev, A.Abdullayev va boshqalar. “Sog‘lom turmush tarzining jismoniy madaniyati” o‘quv qo‘llanmasi. “Farg‘ona” nashriyoti, 2010.
5. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(1), 537-544.
6. Hamrayeva, Oynisa Farxod Qizi (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (1), 537-544.
7. Sh, M. Z. The social role of folk traditions and rituals multinational people. *Pedagogical education and science.–2019*.
8. Shafoatovna, M. Z. (2021). Scientific and Theoretical Basis of Factors for Improving Family Education in a Multilingual Environment. *World Bulletin of Management and Law*, *1*(1), 15-16.
9. Shafoatovna, M. Z. Factors That Improve Family Education in a Multilingual Environment. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 55-57.

TEZKORLIK HARAKAT SIFATI VA UNGA OID QOBILIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASI

Sh. Xudoyqulov
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada sportchilarning tezkorlik harakat sifati va unga oid qobiliyatlarni tana a’zolarini shu qismidagi mushaklarning kuchi, tez qisqarib, tez bo‘shashishi ham tezkorlik namoyon qilish orqali tarbiyalash yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *tezkorlik harakat sifati, harakat reaksiyasi, harakat tezligi-kuch, sog‘lom turmush tarzi, tezkorli, tezlik, morfo-kuch omili, tezkor-kuch chidamkorligi, kompleks mashqlar.*

ABSTRACT

The article describes the quality of quickness of movement of athletes and the training of the related abilities of the body parts by showing the strength of the muscles in this part, fast contraction and fast relaxation.

Key words: *speed, movement quality, movement reaction, movement speed-power, healthy lifestyle, fast, speed, morpho-power factor, speed-power endurance, complex exercises.*

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 5 mart kuni qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvchi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va iste’dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida maktabgcha ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari, oliy ta’lim muassasalari ustuvor yo‘nalish etib belgilandi. Jumladan, o‘quvchilar orasida jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport turi bo‘yicha trener-murabbiylarni jalb qilgan holda iqtidorli yoshlarni saralash va ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport sprot maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy hamda respublika sport musobaqalarida ishtirok etish uchun olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha sinfdan tashqari sport to‘garaklari hamda seksiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 6 soatdan) lozimligi ta’kidlangan.

Mamalakatimiz kelajagi uchun sog‘lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga etkazishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati juda katta, so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy va ma’naviy salomatligini shakllantirishning ularga sog‘lom turmush tarziga intilish va sportga mehr muxabbatni singdirishning g‘oyat muxim sharti sifatida bolalar ommaviy sportni rivojlantirishni ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

Tezlik - namoyon qilish yoki unga oid faoliyatlaringiz tanangiz a'zolari yoki uning ayrim bo‘laklarini chegaralangan vaqt ichida tez harakatlantira olishngiz bilan bog‘liq qobiliyatidir. Masalan, son, tizza bo‘g‘imingiz, boldir, oyoq kafti qismlaringizni tez harakatlantira olish- yurish va yugurish tezligini yuzaga keltiradi. Albatta a'zolarimizni shu qismidagi mushaklarning kuchi, tez qisqarib, tez bo‘shashishi ham tezkorlik namoyon qilishda muhim ahamiyatga ega. Qayd qilingan sifatlar, qobiliyatlarning avlodimizdan – ota-onalar, bobolar, momolardan biz uchun qoldirgan “genetik merosi” ham bundan mustasno emas.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tezkorlik – umumiy va maxsus yo‘nalitirilgan deb ikkiga ajratiladi. Maxsus tezkorlik tanlangan ixtiyoriy harakat, gimnastika mashq, sport turi uchun zarur deb sanalgan tezkorlikdir. Sprint masofasi yoki qisqa masofaga - 30 m., 60 m., 200 m., 400 m.gacha tez yugurish va 110 m.ga, 200 m.ga, 400 m.ga to‘siqlar osha yugurishlar kiradi. Bu masofani yuguruvchilarni sprinterlar deb ataladi. Bu sifatni rivojlantirish uchun takroriy yugurishlardan foydalaniladi. Avvaliga kichik masofaga (masofani 25% ni) bir necha bor takrorlash bilan rivojlantiriladi. Masofani, bo‘laklarni tez yugurib mashq qilish yaxshi samara berishi hozirgi kun amaliyotida isbotlangan.

Sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mashg‘ulotlari chidamlilik va tezkorlikni meyorini yoshiga munosib holda rivojlanganligini uzoq vaqt ushlab turishga xizmat qiladi. Tezlikni rivojlantirishni eng sinalgan usuliyoti “o‘zgaruvchan tezlik” bilan bajariladigan mashqlardan foydalanish bo‘lib, odatda masofani 25, 50% ni qayta yugurib o‘tib, mashq qilish bilan rivojlantirish yaxshi samara beradi. Balandga – adirlar, do‘ngliklarga yugurish chidamlilik kuchini rivoj-lantiradi.

Pastga tomon yugurishda esa tezlik hosil bo‘ladi va “baryer” (to‘siqlar)ni buzishda qo‘llaniladi. Tezlik “baryeri” bu shug‘ullanuvchida ma'lum darajadagi tezlikga o‘rganib qolishga aytiladi. Shug‘ullanuvchi startdan chiqib faqat o‘sha o‘rganilgan tezlikda harakatlanadi. Oqibati qa-tor yillar tezlikni oshirish uchun qilingan mashqlar besamar ketadi. Undan farq bo‘lishining yagona usuli do‘nglikdan pastga qarab qiyalikda, ayrim holatlarda yelkaga yuk ko‘tarib yugurish tezlik to‘sig‘ini yo‘q qiladi. O‘rganib qolgan yugurish tezligini namoyon qiladigan mushaklar faoliyatida o‘zgarish yasashda ularni tezlik namoyon qiladigan organlarning ishlashiga majburlash, qiyaliklarda o‘zini inersiyasiga qo‘shimcha inersiya qo‘shib tezlanishni yuzaga keltirishni amaliyotda samarasi yuqori.

Tezlik sifati inson harakat qobiliyatlarining zaruriylaridan biridir. Uni namoyon bo‘lishi mushaklaringizni zo‘riqa olish tezligi bilan bog‘liq va zo‘riqa olish, zo‘riqtirish darajamiz ham har birimizda turlicha. Oxir oqibat tezlik namoyon qila olishimiz nerv jarayonlarini tezligi, mushak tolalarida kechadigan biokimyoviy reaksiyalarga borib taqaladi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi davringizdanoq o‘zingizni jismingizga oid bilimlar zahirasini boyitishga urinishingiz lozim. Bu

sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mashg‘ulotlari orqali boyishini unutmang. Yoshingiz o‘tgan sari tezkorlik qobiliyatingizni pasaya borishi qonuniyat. Uni ushlash formulasi sifatida – tezkorlik namoyon qilish harakteridagi takroriy yuklamalardan qochmasligingiz, tezlik talab qiladigan faoliyatlar bilan muntazam oshno bo‘lishingiz zaruriyatdir.

Tezkorligingiz, vujudingizni alohida bo‘laklari (qismlari)ni yoki ularni birgalashib bir butun bo‘lib, shu jihatingizni namoyon qila olishiga safargarlik bilan bog‘liq. Bu jarayon hammada turlicha kechadi. Tezkorlik ham sizni jismoniy jihatdan tayyorligingizni tarkibidagi harakat sifatlaringizdan biridir. Tezkorlik harakat reaksiyasi vaqti, harakat tezligining kuchi, bajarayotgan harakatlarimizni yo‘nalishini o‘zgartira olish tezligi, harakat-tayanch apparatimiz (oyoqlar va qo‘llarimiz) ning tezligi, mushaklarimizni qisqarish uchun qo‘zg‘alishi (harakatchan-lik dinamikasi) va boshqa qator holatlar tezlikni namoyon qilish uchun zarur. Tez harakatlanish uchun yana ham zaruri bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘idagi harakat markazi (yarim sharlar po‘stlog‘ida shunday markaz bor)dan harakatlarimizni ijrosi uchun berilgan buyruqni ijro organlariga yetkazib beradigan nerv tolalaridagi o‘tkazish qobiliyati bilan bog‘liq. Bunday qobiliyat signalini nerv tolalaridan tez o‘tishi, uni yarim sharlar po‘stlog‘ida yuzaga kelishi lozim bo‘ladigan vaqtli aloqa (signalni tahlil qilib unga javob reaksiyasida) tezligi bilan bog‘liq. Bu jarayon genlarimiz orqali ota-onalarimizdan merosligi, keyinchalik uni mashq qilish bilan trenirovkalardagi qayta takrorlashlar orqali rivojlantirishimiz yaxshi natija berishi mumkin. 1-chizmada tezlik namoyon qilishning tarkibiy elementlari berilgan.

Tezlik namoyon qilishning tarkibiy elementlari (1-chizma)



Tezkorlikni rivojlantirish yoki bu qobiliyatni individdagi mavjud holati (dasturi)ni bir ma'romda ushlash qarishni oldini oladi. Organizm-dagi mavjud tezkorlikni darajasini ushlash yoki rivojlantirish keskin harakatlar, "portlash kuchi" namoyon qiladigan, mashqlarni tez va harakat sur'atini susayishi sodir bo'lgungacha bajarish bilan mashq qilish orqali rivojlantiriladi. Tezkorlik sifati uchun mashqlarni bajarishdan so'ng takrorlashning samarasi bo'lmaydi. Mashg'ulotlarni tayyorlov qismidan so'ng tezlik talab qiladigan mashqlar bajariladi, mashq qilinadi. Bu harakat sifatini rivojlantirish mashqlarini mashg'ulotlar oxirida bajarishni foydasi yo'q.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir shug'ulla nuvchi harakatning o'zi uchun mos bo'lgan r a t s i o n a l texnikasini axtarishi, topish va uni egallashida faqat mexanika qonunlariga tayanish bilan cheklanmay, harakatning, materiyaning eng yuqori shakllariga, ulardan biri bo'lmish biologik qonuniyatlarga tayanishiga to'g'ri keladi.

Maktab o'quvchilarining jis-moniy tarbiyasi va uni tarkibida amalga oshiriladigan jismoniy tayyorgarlik jarayoni inson organizmidagi zaruriy harakat sifatlari haqidagi boshlang'ich bilimlar STT jismoniy madaniyatining amaliy malakalari va nazariy bilimlarining asosi hisoblanadi. Har bir shaxsning jismoniy qobiliyatlari darajasi haqida aniq belgilangan bilimga ega bo'lishi jismoniy madaniyat sohibligiga zamin tayyorlaydi.

Maktab yoshidagilar uchun tezkor kuch harakat sifatini rivojlantirish, tarbiyalash uchun mashg'ulotlarga tizimli qatnashishga ruxsat 14 yoshga to'lgandan so'ng beriladi. Odatda tanasi ko'rinishi, qaddi-qomatini chiroyli bo'lishini orzu qilgan o'smirlar, yoshlar, boshqachasiga aytganda kuch talab qiladigan mashqlar bilan shug'ullanishni xush ko'radiganlar - yoqtiradiganlar "atletlar gimnastikasi", "shtanga ko'taruvchilar klublari", "armreysling klubi", "atletizm" sport seksiyalari yoki sport klublariga a'zo bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3031-сонли қарори. Халқ сўзи газетаси, 4 июнь. 2-3 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентинингфармони Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Тошкент ш., 2018 йил 5 март,ПФ-5368-сон
3. Керимов Ф.А., Умаров М.Н. Спортда прогнозлаштириш ва моделлаштириш. - Т.: ЎзДЖТИ, 2005. - 279 б.
4. Никитушкин В.Г., Зеличенок В.Б., Губа В.П.Легкая атлетика: КритерII отбора. - М.: Терра-спорт, 2000. - 240 с.
5. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера. - М.: Астрель, 2003. - 672 с.

6. Селуянов В.Н. Подготовка бегуна на средние дистанцII. - М.: ТВТ Дивизион, 2007. - 112 с.
7. Умаров А.А. Основные аспекты техники бега. - Т., 2003. - 42 с.
8. Усмонхўжаев Т.С., Алиев М.Б., Сагдиев К.Х., Турдиев Ф.К., Акрамов Ж.А. /Болалар ва ўсмирлар спорти машғулотлари назарияси ва услубияти. - Тошкент, 2006. - Б. 66-72.
9. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(1), 537-544.
10. Hamrayeva, Oynisa Farxod Qizi (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (1), 537-544.
11. Khakimov, S. T. (2022). INCREASE IN THE LEVEL OF PHYSICAL TEXT CHAMPIONSHIP, DIFFERENTIATED BY YOUNG VOLLEYBALLS ACCORDING TO THE SPECIALTY OF THE GAME. *Academic research in educational sciences*, *3*(3), 549-556.
12. Khakimov, S. T. (2022). THE WAYS TO ENHANCE THE TRAINING PROCESS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, *2022*(2), 118-135.
13. Sh, M. Z. The social role of folk traditions and rituals multinational people. *Pedagogical education and science.–2019*.
14. Shafoatovna, M. Z. (2021). Scientific and Theoretical Basis of Factors for Improving Family Education in a Multilingual Environment. *World Bulletin of Management and Law*, *1*(1), 15-16.
15. Shafoatovna, M. Z. Factors That Improve Family Education in a Multilingual Environment. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 55-57.
16. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, *22*(12), 127.
17. Siddikov, B. S. (2020). The importance of sports and recreation activities for a harmoniously developed generation. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 107-111).
18. Tulanboevich, K. S., & Nishanbaevich, M. O. (2021). Improving physical fitness and training process in young volleyball players. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(5), 312-316.

19. Tulanboyevich, X. S., & Kamolaxon, U. (2022, October). GIMNASTIKA DARSIDA SNARYADLARDA BAJARILADIGAN MASHQLARNI O ‘RGATISH USULLARI. In *E Conference Zone* (pp. 68-73).
20. Yuldashev, M. (2021). INNOVATIVE ASPECTS FOR HEALTHY LIFESTYLE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SPORTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, *2*(05), 102-107.
21. Сиддиков, Б. (2014). УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ КОМПЛЕКСЫ: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 71-74.
22. Сиддиков, Б. С. (1994). Физическое воспитание школьников в условиях учебно-воспитательного комплекса (на материале сельских школ Узбекистана).
23. Сиддиков, Б. С. (2019). Физическое воспитание как фактор развития личности. *International scientific review*, (LXIV), 57-58.
24. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.
25. Хакимов, С. Т. (2021). Ёш волейболчилар жисмоний тайёгарлигини ўйин ихтисослиги бўйича такомиллаштириш. *Ташкилий қўмита*, *234*.

OILADA SPORTGA BO‘LGAN MUNOSOBATNI O‘ZGARTIRISHDA OTA-ONALARNING O‘RNI

Mirkobilov Xasanboy
Farg‘ona davlat universiteti
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ota-onalarga bolalarni hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va sog‘lom turmush tarzini tashkil qilish uchun kerakli maslahatlar berilgan. Ota-onalar bolalari uyda bo‘lgan vaqtda kun tartibini bolalar bog‘chasida yoki maktabdagi kun tartibiga mos ravishda bolalarning yoshiga qarab tuzishga tavsiya etilgan. Kun tartibining nafaqat bolaning balki, katta yoshdagi insonlar hayoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bolaning kun tartibini tuzishda pedagoglar, bolalar shifokorlarining maslahatiga amal qilish tavsiya qilinadi.

Kalit so‘zlar: *sport, adekvat, assimilyatsiya, sog‘lom turmush tarzi, rejim, ekologik, estetik, gigiena, sog‘lom ovqatlanish, altruistik, bioritm, stereotip, suzish, massaj, termoregulyatsiya, metabolizm, respirator, travma.*

ABSTRACT

In this article, parents are given the necessary advice to set their children's lives on the right track and organize a healthy lifestyle. When parents are at home, parents are advised to make a schedule based on the age of the children, in accordance with the schedule in kindergarten or school. The daily routine is important not only for children, but also for adults. Therefore, it is recommended to follow the advice of pedagogues and pediatricians when creating a child's schedule.

Key words: *sport, adequate, assimilation, healthy lifestyle, regime, environmental, aesthetic, hygiene, healthy nutrition, altruistic, biorhythm, stereotype, swimming, massage, thermoregulation, metabolism, respiratory, trauma.*

KIRISH

Bola organizmning jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan sog‘lom avlod bo‘lib yetishishida oilaning bola hayotida juda katta o‘rni va ahamiyati mavjud.

Jahonda COVID-19 koronavirus pandemiyasining yuzaga kelishi dunyo mamlakatlari qatori O‘zbekistonda ham aholining sog‘lig‘i, jismonan salomatligi, sog‘lom hayot kechirish darajasi zaif ekanligini ko‘rsatdi.

Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilgan holda zararli odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug‘ullanish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, xususan tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini me’yoridan ortiq iste’mol qilmaslikni, bir so‘z

bilan aytganda, sog‘lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo‘lishini ta’minlash, zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsad qilib olindi.

Bolalar rejimi - bu vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va bolaning tanasining asosiy fiziologik ehtiyojlarini qondirishda to‘g‘ri ketma-ketlikni tashkillash va vaqtida uxlash, mineral moddalarga boy oziq-ovqat iste’mol qilish hamdir.

Umuman olganda rejim - inson ichki organlarning normal holatda ishlashiga hissa qo‘shadigan organizm faoliyatidagi bioritmlarning asosidir. To‘g‘ri rejim bolaning muvozanatli, kuchli holatini ta’minlaydi, asab tizimini ortiqcha ishlardan himoya qiladi, bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun maqul sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Kundalik rejimni tuzishda bolaning yoshi va individual xususiyatlari hisobga olinadi. Ota-onalar bilishlari kerakki, bolalar bog‘chasida yoki maktabda kun tartibi bolalarning yoshiga qarab tuziladi, shuning uchun uyda, dam olish va bayram kunlarida yoki bola kasal bo‘lganda ham iloji boricha xuddi shu kun tartibiga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa bolaning sog‘lig‘ini saqlash uchundir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolaning to‘g‘ri rivojlanishi, sog‘lom hayot kechirishi, mustaxkam immunitetga erishishi va tarbiyasi uchun sog‘lom turmush tarzi muhim ahamiyatga ega. Bunda oilaning o‘rni katta va yetakchidir. Oilaning vazifasi bolada sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risida to‘g‘ri g‘oyani shakllantirish, unga bu uchun qulay shart-sharoitlarini, ya’ni kunning, ishning, dam olishning va uxlashning to‘g‘ri rejimini ta’minlashdir. Oilaning sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga ta’sirining bir nechta variantlari mavjud. Ma’lum bo‘lishicha, bolalar ota-onalarning turmush tarzini, odatlarini, hayotga munosabatini, shu jumladan jismoniy madaniyatni o‘rganadilar va jismoniy tarbiya, sport bilan shug‘ullanish istagini shakllantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mashg‘ulot shakllari har xil bo‘lishi mumkin – yurish, chang‘i, o‘yinlar, jamoaviy musobaqalarda ishtirok etish.

Bugungi kunda bolalar salomatligi muammosi juda dolzarbdir. O‘z-o‘zingizga savol berib ko‘ring. "Biz uchun nima muhimroq? - bolalarning jismoniy holati yoki ta’limi". Hatto German filosofi A.Sxopengauer ham shunday degan edi: “Salomatlik boshqa barcha ne’matlardan shunchalik ustunki, sog‘lom tilanchi kasal podshohdan

baxtliroqdir”. Salomatlikning yetakchi omili - bu oila shakllantirishi mumkin bo‘lgan turmush tarzidir. Pedagoglar holatni kuzatib boradilar, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazadilar va salomatlik haqida ma’lumot beradilar. Lekin bu juda oz. Har bir ota-ona o‘z farzandini sog‘lom va baxtli ko‘rishni xohlaydi, lekin hamma ham o‘z farzandining o‘zi bilan, atrofidagi dunyo bilan uyg‘unlikda yashashi haqida o‘ylamaydi. Ayni paytda, bu uyg‘unlikning siri oddiy - sog‘lom turmush tarzi. Bu jismoniy salomatlikni saqlash, yomon odatlarsiz, to‘g‘ri ovqatlanish, odamlarga altruistik munosabat, bu dunyoda o‘z mavjudligini quvonchli his qilish va unga muhtoj bo‘lganlarga yordam berish istagini o‘z ichiga oladi.

Qoida tariqasida, sog‘lom turmush tarzining natijasi bir biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan jismoniy va ma’naviy salomatlikdir. Xalqda bejiz aytilmagan: “Sog‘lom tanada sog‘lom aql”. Psixologlar va o‘qituvchilar uzoq vaqtdan beri yaxshi odatlarni shakllantirish uchun eng qulay yosh maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshi ekanligini aniqladilar. Bu davrda bola vaqtining katta qismini uyda, oilada, qarindoshlari orasida o‘tkazadi, ularning turmush tarzi, xulq-atvori stereotiplari ularning hayot haqidagi g‘oyalarini shakllantirishda eng kuchli omillarga aylanadi. Shuning uchun ham oilada insonning o‘ziga va o‘z salomatligiga, yaqinlari salomatligiga, odamlarga, mehnatga, tabiatga bo‘lgan xilma-xil munosabatlariga asos solinadi.

Oilada mehr-oqibat, kechirish va tushunishga tayyorlik, yordam berishga intilish, bir-birini xursand qilish, oila a’zolarining sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilishda namoyon bo‘ladigan qulay axloqiy muhitni yaratish bola ma’naviyatini rivojlanishida muhim ahamiyatlidir. Albatta, janjal tez-tez sodir bo‘ladigan, ota-onalardan biri spirtli ichimliklarni iste’mol qiladigan, zo‘ravonlik va qo‘pollik hukmronlik qiladigan oilalarda sog‘lom muhiti butunlay istisno qilinadi.

Oddiy qoidalarning afzalliklari haqida ham unutmasligimiz kerak, ularga rioya qilish salomatlikni saqlashga yordam beradi. Bu keksa oila a’zolari bilan ertalabki mashqlar, uy atrofida yugurish, birga yurish, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish va oilada qulay ma’naviy muhit va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ham bolalar va ota-onalarning turli tadbirlarda birgalikda ishtirok etishi orqali ta’minlanadi.

Bolalarda turmush tarzi haqida to‘g‘ri tasavvurlar hosil qilishda mehnat, uyda ekologik tozalik va estetika talablariga javob beradigan muhitni yaratish va saqlash kerak. Bolalar bilan birgalikda siz mebelni tartibga solish, narsalarni tartibga solish, tozalash, xonalarni ventilyatsiya qilishning eng mos variantini amalga oshirishingiz mumkin. Bundan tashqari, yer bilan faoliyat sohasi cheksizdir: butalar, gullarni, daraxtlarni birgalikda ekish, ularga g‘amxo‘rlik qilish; qushlarni qishki oziqlantirish,

uy hayvonlarini parvarish qilish. Bularning barchasi bola qalbida mas'uliyat, hamdardlik, yordam berishga intilish, ezgu ish bilan faxrlanishni shakllantiradi.

Shu bilan birga, asosiy ko'nikmalar shu jumladan sog'lom turmush tarzi ham bolalik davrida shakllanadi. Shaxsiy gigiena kundalik tartibni, ratsional ovqatlanish tizimini, sport va qattiqlashuvni, ko'rish va aqliy mehnat gigienasini, tana gigienasi (teri, tish, sochni parvarish qilish), kiyim-kechak, poyabzal va uy-joy gigienasini o'z ichiga oladi. Bola vaqtida ovqatlansa, yotsa, darsga o'tirsa uning tanasi kelgusi faoliyatga tayyorgarligiga juda yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bunday bola ishtaha bilan ovqatlanadi, tezda uxlab qoladi va darslarni normal holatda o'zlashtira oladi, ya'ni u hamma narsaga vaqtini tejaydi va kamroq charchaydi. Har bir oilada kundalik tartib boshqacha tarzda tashkil etilgan, ammo kun tartibining asosiy rejasi doimiy bo'lib qolishi kerak. Bu, birinchi navbatda, uyquga taalluqlidir.

Tizimli uyqusizlik markaziy asab tizimining samaradorligini buzadi, ortiqcha ish va nevrozlarga olib keladi. O'z vaqtida uxlash odatini faqat oila rivojlantirishi mumkin, eng yaxshisi, ota-onalarning o'zlari ma'lum bir vaqtda uxlab qolishidir, lekin televizor ekrani oldida uxlab qolish bolaning fikriga salbiy jihatdan ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pgina bolalar motorli faollikdan aziyat chekishadi, lekin bir kunda ular maktabda bo'lgan soatlarda yugurish, sakrash, taxminan 3-7 km yurishlari kerak. Chunki barcha organizm kislorodga muhtoj. Aks holda, bolalar shunchaki statik va psixo-emotsional stressga dosh berolmaydilar, boshqacha qilib aytganda, ular o'tira olmaydi, tinglay olmaydi, yodlay olmaydi. Ventilyatsiya qilingan xonada darslarni o'rgatishingiz tavsiya etiladi. Ayniqsa, ko'pchilik o'quvchilar toza havoda sayr qilish, sport bilan shug'ullanish o'rniga har kuni 2 soatdan ortiq televizor qarshisida o'tirishlari alohida tashvish uyg'otadi. Ota-onalarning o'rnini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Afsuski, kam sonli oilalar kunni gigiyenik mashqlar bilan boshlaydi, dam olish kunlarini tabiat qo'ynida o'tkazadi va sovuq mavsumda sport bilan shug'ullanadi. Masalan, oilada jismoniy tarbiya (sport) shakllariga yurish va piyoda yurish, suzish, chang'ida uchish, konkida uchish, velosipedda yurish va oddiy yugurish kiradi. Shu bilan birga suzishning inson tanasiga ta'siri foydali va xilma-xildir. Suzish paytida inson tanasi suv muhitida gorizontal holatda joylashgan va bu umurtqa pog'onasini tana vaznining yukidan ozod qiladi; to'g'ri holatni shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Suv ta'sirida terining tomirlarida qon aylanishi faollashadi, suv bilan yuviladi va massaj qilinadi. Suvda qolish tanani qattiqlashtiradi, uning termoregulyatsiyasini yaxshilaydi, sovuqqa, harorat o'zgarishiga qarshilikni oshiradi. Suzish vaqtida metabolizm faollashadi, butun asab tizimining faoliyati

faollashadi, ko‘plab mushak guruhlari, bo‘g‘inlar va ligamentlar mashq qilinadi va natijada bolada turli xil kasalliklarga qarshi immunitet hosil qiladi.

Immunitet bolalarni to‘g‘ri ovqatlanishi orqali ham paydo bo‘ladi. Bolalarga qancha va qanday ovqat eyish kerakligi haqidagi bilimlarni singdirish juda muhim, bu ham oilada ota-onalar tomonidan belgilanadi. Bolalikdanoq bola: sog‘lom bo‘lish uchun kuniga 500 gramm sabzavot, mevalar, qora non iste’mol qilish kerak lekin, yuqori sifatli undan tayyorlangan mahsulotlarni (oq non, bulka, vafli, pirog, keks) iloji boricha kamroq iste’mol qilish kerak, chunki ular salomatlikka salbiy ta’sir qiladi. Ota-onalar o‘z farzandlariga har kuni "tez tayyorlanadigan ovqatlar" ni iste’mol qilishlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak: chipslar, "kireshki", barcha turdagi shirinliklar, gazlangan ichimliklar shular jumlasidandir. Qish-bahor davrida bolalar vitaminlarni o‘z ichiga olgan oziq-ovqatlarni iste’mol qilishini ko‘paytirish kerak (sitrus mevalar, piyoz, sabzavotlar, sut maxsulotlari). Kun davomida iste’mol qiladigan tuz tarkibida ham yod moddasi bo‘lishi kerak.

Sog‘lom va chiroyli bo‘lish, ishda muvaffaqiyat qozonish istagi ham oilaviy qadriyatdir. Ota-onalar bu borada, eng avvalo, farzandlari bilan suhbatda o‘rnak bo‘lishadi. Bolalar qanday noto‘g‘ri xatti-harakatlar qilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, biz ular bilan muomala qilishda samarali muloqot qilish qoidalariga rioya qilishimiz kerak. Agar biz o‘zimizni nazorat qilishni bilsak, farzandlarimiz har qanday vaziyatda ham o‘z harakatlarining hisobini bera oladilar.

Jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘illanishga kelganda ko‘pincha bolada faqat sevimli mashqlarni bajarish istagi kuchli bo‘ladi, masalan, skuter minish, to‘p bilan o‘ynash, arqondan sakrash. Va bu mashg‘ulotlarda kattalarning roli bolaning faqat bunday jismoniy faoliyat bilan cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslik, ertalabki mashqlarni bajarish odatini shakllantirish kerak. Salomatlikni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan siklik, ya’ni chidamlilikni o‘rgatish va yaxshilashga qaratilgan uzoq, muntazam takrorlanadigan mashqlarni bajarishga odatlantirish zarur. Bu o‘tkir respirator kasalliklardan ishonchli himoyani ta’minlaydi va chidamlilikni ochiradi.

Oddiy siklik mashqlar soatiga 1,5-2 km tezlikda yugurishdir. Bunday mashqlarni hayotning 3-4-yillaridan boshlab (asosan o‘yin tarzida) amalga oshirish sog‘lomlashtiruvchi va umumiy rivojlantiruvchi ta’sirga ega. Yuklamalarni asta-sekin oshirib borish kerak lekin, masofani bosib o‘tishni uzaytirish orqali emas, balki uni bir darsda (2-3 marta) takrorlash kerak. Asta-sekin, to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar bilan maktab yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalarning chidamlilik darajasi stresssiz 3-5 km yugurishgacha oshadi. Uyda tashkil etilgan sport burchagi ota-onalarga bolalarining bo‘sh vaqtini oqilona tashkil etishga yordam beradi va ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Jismoniy mashqlarni

o‘yinlardan oldin bajarish maqsadga muvofiqdir. Chunki inson organizmida qizish jaryoni yuzaga keladi va jarohatlanishlarni oldini oladi.

XULOSA

Kechki sayrlar va yurishlarni tashkil qilish kerak, bu bolani quvnoq kayfiyatiga, bolalar tezda uxlab qolishiga va chuqurroq uxlashiga yordam beradi. Yurishning o‘zini to‘g‘ri tashkil etish juda muhimdir. Yilning istalgan vaqtida havoda bo‘lish paytida bola vaqti-vaqti bilan dam olishi kerak. Shu bilan birga, u ob-havo sharoitlariga mos ravishda kiyinishi kerak. Kun davomida siz bolaning qanday o‘tirishi, yurishi, yugurishi va hokazolarga e’tibor berishingiz kerak. Chunki nafaqat bolalar, balki barcha organizm uchun ham yaxshi kayfiyat kun davomidagi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

REFERENCES

1. Abdusmatova Sh.S. Burxanova M.B. (2020). Ko‘p farzandli ota-onalarni oiladagi munosabatlarining xususiyatlari.
2. Атаев А.К. Родителям о физическом воспитании детей в семье. М.: МГУ, 2013. 320 с.
3. Begmatova D. M. Oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. – Samarqand. SDCHTI. –B. 11-13.
4. Сёмина М.В. Фамилистическая компетентность в юношеском возрасте // Боловсрол судлал (ежемесячный науч./метод. журнал Академии образования Монголии). 2010/07/65. С.275-281.
5. Rashidov X.K., O‘rinov Sh.R. Oilada sog‘lom muhitni yaratishda sport bilan shug‘ullanishning ahamiyati // “Fan, ta’lim, madaniyat va innovatsiya”, Vol. 1 No. 1 (2022).
6. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(1), 537-544.
7. Hamrayeva, Oynisa Farxod Qizi (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (1), 537-544.
8. Sh, M. Z. The social role of folk traditions and rituals multinational people. *Pedagogical education and science.–2019*.

9. Shafoatovna, M. Z. (2021). Scientific and Theoretical Basis of Factors for Improving Family Education in a Multilingual Environment. *World Bulletin of Management and Law*, *1*(1), 15-16.
10. Norliev, R., & Ibragimova, O. (2021). Constitutional And Legal Basis Of The Institute Of Public Control In The Republic Of Uzbekistan (Theoretical Analysis). The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(04), 42-45.
11. Shafoatovna, M. Z. Factors That Improve Family Education in a Multilingual Environment. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 55-57.

TALABA XOTIN-QIZLARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Tursunova Dilnavoz To‘lqin qizi
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:tursunova@bk.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda talabalar, xususan talaba xotin-qizlar ijtimoiy himoyasi va intellektual faolligini oshirish zarurati va mazkur jarayonda ta’lim-tarbiya tizimi subyektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishning innovatsion omillari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy faollik, jamiyat taraqqiyoti, faollik, ta’lim, innovatsiya, omil.*

ABSTRACT

In this article, the need to increase the social protection and intellectual activity of students, especially female students, and the innovative factors of effective use of the possibilities of the subjects of the educational system in this process are analyzed.

Key words: *social activity, community development, activity, education, innovation, factor.*

KIRISH

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar jarayoniga jalb etish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashni keng ko‘lamda amalga oshirish obyektiv zaruriyatga aylandi. Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilish mushkul. Kelajagi buyuk davlat qurish borasida biz, eng avvalo, yosh avlodga tayanamiz. Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan boshlanadi. Oiladagi o‘g‘il-qizlarimizning qanday insonlar bo‘lib yetishishi hammadan burun ayollarimizga bog‘liq.

Respublikamiz BMTning “Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo‘q qilish haqida”gi konvensiyasiga, Xalqaro mehnat tashkilotining “Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, ”Mehnat va mashg‘ulotlar sohasidagi kamsitishlar to‘g‘risida”gi konvensiyalariga MDH davlatlari ichidan birinchilar qatorida qo‘shildi.Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish va ularning oiladagi va umuman jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan meyoriy - huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish,

intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmonining qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir.

Mazkur Farmon bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbek xotin-qizlarining zamonaviy va milliy fazilatlari, ularning ijtimoiy hayotdagi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o‘rni masalalari O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, falsafa fanlari doktori, professor X.O.Shayxova ilmiy izlanishlarida markaziy o‘rinda turadi. Uning mustaqillik yillarida chop ettirgan asarlari [1;2;3;4;5] xotin-qizlar masalasini milliy demokratik taraqqiyot nuqtai nazaridan o‘rganishga yordam beradi. Olima yozadi, mustaqillik tufayli “xotin-qizlarning tengligi va ozodligini to‘la ro‘yobga chiqarish, yangicha tafakkur, erkin fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy hayotda ayolga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish, Sharq ayoliga xos momo meros, axloqiy go‘zal qadriyat va fazilatlarni keng kamol toptirish zarurati mustaqil yurtimizda davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek ayollarining madaniy va ma’naviy, huquqiy-axloqiy, intellektual salohiyatini oshirish, oiladagi onalik burchi va mas’uliyatini milliy, umuminsoniy nuqtai nazardan chuqur anglab yetish va amaliyotga rioya qilishga odatlantirish mustaqillik tamoyilining asosiy vazifasidir. Ayollar jamiyatning eng e’zozga sazovor, hurmat-izzat, g‘amxo‘rlik va e’tiborga loyiq ijtimoiy toifasiga aylanmoqda... Demak, ayolni ulug‘lash – oilani, Vatanni, hayotni ulug‘lashdir.” Ushbu fikrlarini davom ettirib, o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan insoniy, ma’naviy fazilatlarni qayd etib, X.O.Shayxova zamonaviy ayollarning ijtimoiy faolligini ham ko‘rsatadi. “Biror soha yo‘qki, – deb yozadi u, – ayol o‘z bilimi, faolligi, iste’dodini namoyon qilmasin. Mulkdorlar sinfi vakili, tadbirkor, fermer, kichik va qo‘shma korxona sohibi, tijoratchi, biznes va menejer kabi kasb egalari yoki mudofaa va huquq-tartibot sohasida minglab iqtidorli, salohiyatli, aql-zakovatda o‘ktam ayollarning faoliyat ko‘rsatishi shakllanayotgan fuqarolik jamiyatimiz uchun oddiy holdir. Darhaqiqat, rahbarlik va boshqarish ishlarida ayollar soni ko‘payib bormoqda”[5, 88].

Zamonaviy sharoitda jahon amaliyotiga asoslangan mazkur dastlabki izlanishlar BMT taraqqiyot dasturi YUNESKO, «Ochiq jamiyat» Ko‘mak jamg‘armasi instituti tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Xususan, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, ularni jamiyatimizning teng huquqli bunyodkoriga aylantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Zamonaviy jamiyatda izchillik bilan va samarali tarzda ushbu tushunchaning ijtimoiy tahlili amalga oshirilib kelinmoqda. «Gender» tushunchasining mazmuni, avvalo, jinsni ijtimoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlar meyori tizimi vujudga keladi; tegishli tarzda ushbu jamiyatda «erkaklarga oid» va «ayollarga oid» bo‘lgan xususiyatlar borasida qat’iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo‘ladi. Gender tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig‘indisidir[6, 182].

Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o‘z ijtimoiymadaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Buning ustiga, jins faqat gender demakdir, ya’ni uning ijtimoiylashtirilishi natijasida jinsni tashkil etgan narsadir.

Hozirgi jamiyatda talaba-qizlarning ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan o‘zini oqlaydi. J.Stenli gender tafovutlarga nisbatan ilmiy nazariyani ilgari suradi. Genderdagi differensiatsiya shunday jarayonki, unda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik farqlar ijtimoiy mazmunga ega bo‘ladi va ijtimoiy tasniflash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Gender roli gender atrofidagi tushunchalardan kelib chiqadigan ijtimoiy umidlar, shuningdek, nutq, o‘zini tutish, kiyimlar va imo-ishoralar shaklidagi xattiharakatlardir. Erkaklar va ayollar g‘oyalari, insonlarning fikricha, bir-birini inkor etadi va ayrim madaniyatlarda rolga xos xatti-harakatlar qutblangan bo‘lishi mumkin: sustlik – ayollarga, faollik – erkaklarga xos.

Gender rollar bilan bog‘liq bo‘lgan xattiharakatga oid ko‘rsatmalar mehnatning erkaklar va xotin-qizlar mehnatiga bo‘linishida ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan talabaqizlarni mutaxassislik asosida tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatidan jamiyatimiz ma’naviyati va moddiy farovonligini yanada oshirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklari mavjuddir. Zamonaviy sharoitda oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiyijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli yondashuvlar asosidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo‘yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talaba- qizlarning

ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sohasi hamda yoshlar ma’naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilib aytganda: – tadqiqotlar asosida oliy ta’lim tizimida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ilmiy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish; – oliy ta’lim tizimida gender yondashuv asosida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shart- sharoitlarini o‘rganish va tahlil qilish yordamida talaba-yoshlar gender farqlarining ta’minlash modelini yaratish zarur.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Шайхова Х., Назаров Қ. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992;
2. Шайхова Х., Тиллаева Г. Соғлом турмуш тарзи ва ёшлар камолоти. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. нашр., 2008;
3. Шайхова Х. Ўзбек аёли – одоб тимсоли. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007;
4. Шайхова Х. Баркамол авлод – ахлоқий- қадриятлар қуршовида. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. нашр., 2010.
5. Шайхова Х. Маънавият – камолот кўзгуси. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. –Б.88.
6. Большой толковый социологический словарь. COLLINS. Т. 1. – М.: «АСТ», 1991. – С. 182.
7. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(1), 537-544.
8. Maksudov, U. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROMOTION OF STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE GENDER APPROACH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(3), 688-693.
9. Maqsudov, U. Q. (2020). Stages and forms of development of social activity of primary school students through people’s oral creativity. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, *10*(12), 1365-1368.
10. Muhammadjonovna, U. N., Makhmutovna, T. H., & Kurbonovich, M. U. (2020). IPROVING THE MECHANISM OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC AND LEGAL SOCIETY. *JCR*, *7*(12), 3133-3139.

11. Mukhammedovna, U. N., & Oyturaxonovna, I. S. (2019). IMPROVING SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN UZBEKISTAN AS THE DEMOCRACY AND DEVELOPMENT OF LEGAL SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *7*(12).
12. qizi Tursunova, D. T. (2021). Principal And Important Factors In The Formation Of Social Activity Student Women. *Current Research Journal Of Pedagogics*, *2*(05), 53-62.
13. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O ‘RNI. *Academic research in educational sciences*, *3*(1), 10-16.
14. Sobirjon, A. (2020). Socio–pedagogical factors of formation of activities of society and social involvement in students who have an active life position. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *8*(12).
15. Tursunova, D. (2021, December). THE CONCEPT OF SOCIAL ACTIVITY AND ITS IMPORTANCE IN SOCIAL DEVELOPMENT. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 84-87).
16. Tursunova, D. (2022). FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF SOCIAL ACTIVTY. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(12), 285-289.
17. Tursunova, D. (2022). PUBLIC ACTIVITIES AND ITS PERSONS. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 127-130.
18. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.
19. ugli Abdullaev, S. S. (2021). SOCIAL INVOLVEMENT IN STUDENTS RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE DEVELOPMENT OF VIRTUES.
20. ugli Abdullaev, S. S. (2021, July). SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL RELATIONSHIPS IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 168-170).
21. Urinova, N. M. (2018). Developing and Promoting Students’ Social Activity. *Eastern European Scientific Journal*, (6).

22. Urinova, N. SOCIAL EDUCATION OF STUDENTS AS AN IMPORTANT COMPONENT OF TEACHING ACTIVITIES.
23. Джалалов, Б. Б. (2016). Место и роль воздействия воспитания в повышении общественной активности учащихся. *Ученый XXI века*, (5-1 (18)), 38-41.
24. Джалалов, Б. Б. (2020). Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг назарий методологик асослари. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, *10*(3).
25. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). Задачи развития активности молодёжи с помощью педагогических тренингов. *Ученый XXI века*, (6-2).
26. Уринова, Н. М. (2018). Таджибоева ХМ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, SOCIOLOGY, HISTORY AND POLITICAL SCIENCE*, 29-33.
27. Уринова, Н. М., & Таджибоева, Х. М. (2018). Педагогические основы развития социальной активности учащейся молодежи. In *international scientific review of the problems of philosophy, sociology, history and political science* (pp. 29-33).

MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI

B.S.Siddikov
Candidate of Pedagogical Sciences, associate professor
Fergana State University
Sh.N.Mekhmonaliyev
PhD student of Fergana State University

ABSTRACT

Information is given about the positive influence of the works of the great thinker of the 15th century, Kamaluddin Husain, vaiz Koshifi, on the development of the system of spiritual and moral values of future teachers.

***Keywords**: spiritual moral value, philosophy, ethics, eloquent*

АННОТАЦИЯ

Приводится информация о положительном влиянии произведений великого мыслителя 15 века Камалуддина Хусейна, Ваиза Кошифи на формирование системы духовно-нравственных ценностей будущих учителей.

***Ключевые слова**: духовно-нравственная ценность, философия, этика, красноречие.*

INTRODUCTION

In the second half of the 15th century, Vaiz Koshifi is one of the famous and encyclopedic talents among scholars, poets and sages who gathered around Alisher Navoi in Khorasan. Husayn Vaiz Koshifi of Kamolid was born in Bayhaq town of Sabzavor city in Khurasan region in 1440. There is no exact information about his parents and childhood.

In our opinion, he received his primary education in Sabzavor. He had full knowledge of Arabic, Persian, Turkish, mathematics, astronomy, chemistry, music, literature, jurisprudence. From a young age, he was engaged in the art of preaching and speaking. Koshifi soon became known as a prominent preacher-orator in Sabzavor. Later, he lived in Nishapur and preached in Mashhad in 1455-1468. At the end of 1468, on the recommendation of Abdurrahman Jami, Husayn Vaiz Koshifi came to Khirot and spent the rest of his life in Khirot under the leadership of the Timurids. It is known that in the second half of the 15th century, Khirot was the cultural center of the East. Historian scientist Sayyid Nafisi says that there is almost no information about Koshifi's trip to India at the end of his life. Husayn Waiz Koshifi had two daughters and one son, and his son Fahriddin Ali al-Safi was a great poet, writer and scholar of his time (known for his work "Rashohoti ayn al-hayat"). have become drunk. Ali al-Safi has more than ten scientific and artistic works

dedicated to the history of Islam, the life of prophets, literature, Khoja Ahror, ethics, and chemistry. Husayn Vaiz Koshifi died in Khirat in 1505[1].

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

Kamoliddin Husayn is the name of the scholar, the preacher (orator) is his nickname, and Koshifi (to discover, create) is his literary nickname. Hossein Vaiz Koshifi wrote his works in the scientific language of his time - Persian, and many scientific and artistic translation works were also inherited from him. It is known from sources that he wrote more than 200 works on such subjects as philosophy, ethics, linguistics, literature, politics, history, chemistry, astronomy, mathematics, music, preaching, poetry, history of religion, jurisprudence, medicine. 197 manuscripts and 75 lithographic copies of Koshifi's works with 45 titles are stored in the Institutes of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni and Manuscripts named after H. Sulaymanov of the Academy of Sciences of Uzbekistan[2].

In addition, he was a prominent theological scholar of his time, knew the hadith, the Holy Qur'an by heart, and even wrote a four-book commentary on the Qur'an. Koshifi's more works such as "Akhloqi Muhsini", "Risolai Khotamiya", "Anvori Sukhaili", "Futuvvatnomai Sultani", "Tavsiri Husaynii", "Javahirnama" in Arabic, Tatar, old Uzbek, Urdu, Turkish, German, translated into English, French and other languages. Currently, Koshifi's works are stored in cities such as Paris, London, Berlin, St. Petersburg, Moscow, and in the libraries of Iraq, Turkey, Iran, Afghanistan, India, Bangladesh and other eastern countries. In foreign countries, interest in Koshifi's works was strong already in the 18th and 19th centuries. Famous scientists such as Levi, A. M. Shasteri tried to thoroughly study the history of the culture of Central Asia and Iran in the 14th-15th centuries and highly valued Koshifi's work and heritage.

Koshifi's work was described by Khondamir, a great historian of his time, in his work "Khulasat ul-Akhbar": "The gentleman also had great skill in astrology, so his interpretations were as safe as Qaza's arrow. His puberty and There are many and countless books of eloquence, most of them are decorated with the famous name of Alisher Navoi. The grace and favor of Amir Alisher fell on Mr. ul's hol page all the time..."he describes as". Alisher Navoi at the fourth session of Majalis un-nafois's:" Mawlana "Husayn Vaiz "Koshifiy "makes a pseudonym, is from Savzavor. For about twenty years, borkim, in the city, and Mavlono turned out to be peat and showy. In particular, preaching, essay and falakiyot, it is about him, and in each of them he has his famous works...", which he praised. Husayn Vaiz Koshifiy taught students in the khirot madrasas, preached from morals in the cities of Khurosan. In his works, Koshifiy devotes a great place to the issues of socio-moral life, spirituality, the

problems of politics, state management, the relationship between the king and citizens, the management of the community, the upbringing of a mature person occupy a huge place in his work. It promotes the ideals of humanism, popularism, high spirituality, cultural uplift. Among his works are "Axloqi Muhsiniy", "Risolai Hotamiya", "Anvori Sixayliy", "Axloqi Karim", "Javohirnoma", "Lubbo ul-ma'naviy fi-intixobi masna'viy", "Iskandar oynasi", "Tafsiri Husayniy", "Futuvvatnomai Sultoniy" . The works were used as a textbook for students in the country of Khorasan, in the madrasas of Khirot and other cities. In these works, The Thinker, on the basis of his exes, experiences from life, outlines his thoughts about folktale, humanity, social life, justice, salvation, purity, correctness, truthfulness with the help of educated, interesting stories, narratives. These works are of great educational value even today, since they are written on the basis of "Xikmati amaliy" in Koshifian[3].

Husayn Vaiz Koshifi considers man to be the highest Noble being in the world.

"The name of a person is eternal due to remembering with good, the harvest of the Ayyomi of Khayotlik is to make a good name," - says the author.

This preacher is the leading idea of Koshifian moral doctrine. He condemns negative moral qualities and shows with cathartic wisdom and narratives that they bring great harm to human life and society.

Husayn Vaiz Koshifiy also reflects comprehensively on the concepts of good and evil, justice, conscience, duty. The norm of morality is moral requirements that regulate the behavior, character of people. Koshifiy understands positive qualities as a human quality that must be present in people, and one by one describes such qualities as patience, admiration, chastity, purity, exaltation, generosity, Sahawat, truthfulness, shyness, humility, alertness, high humility, dionyism, fidelity to the covenant, andishness, knowledge of self-esteem, the ability to hide secrets. By a man of moral character, koshifius understood a man who was a man of enlightenment, a lover of truth and Justice, a fighter against injustice, a brave, mobile, Noble, sahitic, open heart.

DISCUSSION

In the coverage of ethics issues, Koshifiy's work "Axloqi Muxsiniy" (dedicated to Husayn Boyqar's son - Abdulmuhsin Mirza) is the most famous and important. In his works, Koshifiy also advances important points for his time on issues of politics, state management. He - " singled out the need to use politics in the righteous maintenance of the state.

Politics is necessary for the management of the country, it is not a personal business, but social work. If the policy is fair, the country, society will develop, the

people will live comfortably. Policy should be guided by Justice by the righteous Kings:[4]

It also attributes its progress, the decision-making of justice, to Koshifian politics. Thus, Husayn Vaiz Koshifiy was not only a poet, writer, scientist, but also a wise politician. His thoughts on the need to calm society, the state, peace, discord still retain their significance.

CONCLUSION

The Vaiz Koshifiy Alisher remained in history as one of the famous allomas who made a significant contribution to the development of the culture of Khurosan and Movarounnahr of the 15th century, being in the spiritual circle of Navoi, as well as having a great influence on the last generations with his works. He actively served on the path of the spiritual rise of his time with the work of qomusiy and significantly influenced the strengthening of the universal, cultural wealth of not only Central Asia, but today the East.

REFERENCES

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.. 1986; Nisoriy H.. Muzakkiri ahbob; T.. 1993.
3. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O ‘RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.
4. Khaitboevich, B. B. (2020). Some features of protection of students from the threat of harmful information in the educational process. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, *8*(10), 69-72.
5. Baydjanov, B. (2021, March). COMPATIBILITY OF NEW RENAISSANCE PEDAGOGY AND JADID ENLIGHTENERS’VIEWS ON EDUCATION AND INFORMATION SECURITY. In Конференции.
6. Abdullaev, S. S. (2021). SOCIAL INVOLVEMENT IN STUDENTS RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE DEVELOPMENT OF VIRTUES.
7. Abdullaev, S. S. (2021, July). SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL RELATIONSHIPS IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (pp.168-170).

ЛОГИКА ИНТЕРПРЕТАЦИИ В ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПИАНИСТА

Великанова Елена Юрьевна
Преподаватель кафедры Вокал и инструментального исполнительство
Ферганского государственного университета

АННОТАЦИЯ

К музыке нельзя относиться как к развлечению, а тем более при её исполнении. Исполнитель вкладывает столько труда, эмоций, технические возможности, и охватывает все определённо художественные задачи, которые должен донести до массы слушателей с помощью средств музыкальной выразительности. В данной статье описывается методы выше сказанных задач в исполнении.

***Ключевые слова**: Музыка, исполнительское мастерство, артикуляция, выразительные средства музыки, методы исполнения, исполнитель, звукоизвлечение.*

THE LOGIC OF INTERPRETATION IN THE PERFORMING ACTIVITY OF A PIANIST

Velikanova Elena Yurievna
Teacher of the Department of Vocal and instrumental performance
Fergana State University

ABSTRACT

Music cannot be treated as entertainment, and even more so when it is performed. The performer invests so much work, emotions, technical capabilities, and covers all definitely artistic tasks that he must convey to the masses of listeners with the help of musical expressiveness. This article describes the methods of the above tasks in execution.

***Key words:** Music, performance skills, articulation, expressive means of music, performance methods, performer, sound production.*

ВВЕДЕНИЕ

Исполнительские средства музыкальной выразительности охватывают все стороны воспроизведения музыки: это звукоизвлечение, музыкальный темп и ритм, динамику, звучание, артикуляцию и исполнительскую агогику, педализацию и т.д. Каждое из них связано с выполнением определенных художественных задач, каждое действие имеет свои основные функции. Исполнительские выразительные средства дают возможность исполнителю с

достаточной полнотой раскрыть содержание музыкального произведения и выявить его форму, создавая исполнительский художественный образ. Все эти средства, мера применения которых не фиксируется композитором в нотной записи и фиксирована относительно, количественно и определяются исполнителем и составляют основу специфики музыкального исполнительства. Своеобразие музыкально-исполнительских средств выразительности состоит в том, что многие из них связаны непосредственно с туше и звукоизвлечении, окраской звучания, с характером произведения[1;97]. Реальный звук – это только исполнительский звук. Если его высотная, ритмическая и динамическая стороны в той или иной мере определены автором, то в качественном отношении звук очень зависит от исполнителя. Один и тот же звук на одном и том же инструменте может звучать совершенно по-разному у одного и разных исполнителей в зависимости от приема звукоизвлечения и контекста интонации.

Красота звука – понятие не относительное. Критерием красоты здесь является соответствие типы звучания сущности создаваемого художественного образа. Современники, отмечали огромное тембровое разнообразие звуковой палитры Фридерика Шопена, Ференца Листа и Антона Рубинштейна[2;31].

Динамика музыкального произведения также приобретает в исполнении индивидуальные черты. Термины, обозначающие уровень в громкости относителен. Нет эталона звучаний *forte* или *piano*, степени *crescendo* или *diminuendo*, меры *sforzando* и т.п. Всякое «живое» исполнение становится как бы особой редакцией содержащихся в нотном тексте динамических обозначений. Творческое использование градаций громкости как выразительного средства проявляется у исполнителя прежде всего в создании эмоциональной и убедительной динамической линии развития произведения, не только способствующей наиболее полной передаче его содержания, но и учитывающей закономерности восприятия громкости звучаний человеческой психикой. Так существуют крайние градации, где *fortissimo* и *pianissimo* при частом их использовании теряют для слушателя значение особенного и приобретают значение обыкновенного.

МЕТОДОЛОГИЯ

Термин «динамика» впервые был введен в музыкальную теорию и практику швейцарским музыкальным педагогом Х.Г.Негеле в 1810 году, а первые динамические указания появляются в лютневой музыке в XVI веке. Указания *forte* и *piano* вошли в обиход с XVIII века и были редки в эпоху барокко. Наряду с *forte* и *piano* впервые начал применять знаки *crescendo*

и *diminuendo* итальянский композитор Доминико Мадзокки начиная с 1638 года. Применению переходного *crescendo* внутри больших построений положили начало представители мангеймской школы[3]. Исполнительскую динамику во многом определяет индивидуальный исполнительский стиль, характер интерпретации, эстетическая направленность исполнительских школ. Для одних характерны принципы волнообразной динамики дробных динамических оттенков, для других – терассообразной динамики и т.п.

В процессе звучаний, их смен, движения возникает реальный музыкальный образ. В силу этого, важным исполнительских выразительным средством, является темп (от латинского tempus- время), он является определяющим в степени скорости и характере звуковых последований всего музыкального движения.

Первоначально латинское слово tempus, как и греческое – хронос означало отрезок времени определенной величины, в средневековой мензуральной музыке темп определяется соотношениями длительностей и жанровыми признаками. До изобретения метронома в тактовой ритмике XVI – XVIII веков эталоном «правильного» темпа (итал. tempo giusto) служил ритм дыхания, сердцебиения или шага. Итальянские темповые обозначения presto, allegro, andante, adagio и др. вошли в практику со времени позднего барокко. Как указанные в нотах, так и не указанные в них нарушения равномерности лишают темповую единицу постоянной величины и позволяют говорить лишь об ее средней величине. В соответствие с этим указания метронома (изобретен Иоганном Непомуком Мельцелем (1772-1838) в 1815 г.), на первый взгляд определяющие длительность нот, в действительности означают их частоту. В метрономических обозначениях существенно число ударов в единицу времени, а не равенство промежутков между ними. Не все композиторы часто пользовались метрономическими указаниями: Шопен использовал их до ор. 27, ими почти не пользовались Лист и Брамс. С конца XIX века их используют все чаще из-за исполнительского произвола. В XX веке указания метронома часто преобладают над словесными определениями.

ОБСУЖДЕНИЕ

Понятие темпа содержит два значения в их единстве: определение скорости движения и определение характера движения, его внутренний динамичности. Но при равной скорости движение может быть более или менее энергичным или плавным, порывистым или спокойным, метричным или свободным и т.д. Практика исполнения выдающихся исполнителей показывает, что они далеко не всегда точно следуют метроному, так как конкретный

1. Modern methods in the teaching methodology of a foreign language. Z.Sanagulov, B.Zhurabayev. 2021. www.ares.uz

2. Teens English 7. Pupil's book.
3. English literature. Compiled & Edited by Bayu Al-Ghazali. PDF version by Solitude.
4. A History of English Literature Robert Huntington Fletcher. Preliminary. How to study and judge literature.
5. Maletina L., Karmanova Yu. Implication of interdisciplinary team teaching of an ESP course/Mediterranean Journal of Social sciences MCSER publishing, Rome-Italy vol.6 #5 R. 556-561.
6. Shirokikh A.Yu., Ganina E., Balandina L.A., Shvechkova L.A., Malugina N.M. Interdisciplinary approach to teaching ESP: Problem-based assignment and students' feedback. Eurasian Journal of analytical chemistry 2017, 12. R. 1582-1589.
7. Hilola Ferdinantovna Maksudova “Interdisciplinarity as the main principle of vocationally oriented foreign language teaching” Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 CSPI CONFERENCE 2 | 2021 p. 608
8. Jamal Jalolov “Methodology of foreign language teaching” textbook, “Teacher” Tashkent 2012 p. 15
9. Gretskaya T.V. Semantization of vocationally oriented foreign language vocabulary of students of medical universities (on the material of the German language): Author's abstract of Candidate of Pedagogical Sciences. St. Petersburg, 2005. p.18
10. Krupchenko A. K., Kuznetsov A. N. Fundamentals of professional lingua-didactics (monograph). Academia APK and PPRO-M., 2015. p. 232
11. Krupchenko A.K., Kuznetsov A.N. Origin of professional lingua-didactics: Monograph. Lambert Academic Publishing. - M., 2011. – p. 215

ZAMONAVIY PEDTEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABA YOSHLARNING MANTIQIY TAFAKURINI RIVOJLANTIRISH

Mamura Yo‘ldosheva Baxtiyarovna,
Toshkent davlat transport universiteti
Chet tillar kafedrasi assistenti
E-mail:mbaxtiyarovna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy pedtexnologiyalar vositasida talaba, yoshlarning mantiqiy tafakuriniini rivojlantirishda texnologiyalarning ta’lim jarayonini tashkil etishdagi axamiyati, pedagogik ta’sir yordamida ta’lim oluvchilarning fanlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini oshirish, pedagogik texnologiyaning asosiy vazifalari, ular vositasida yoshlarning tafakkurini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik texnologiyalarning ko‘rinishlari, pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari kabi masalalar to’xtalib ilmiy jixatdan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, pedagogik texnologiya, yoshlar tafakkuri, mantiqiy fikrlash, an’anaviy ta’lim, tasnifiy tavsif, tamoyillar, an’anaviy texnologiyasi, loyihalashtirilgan ta’lim.*

ABSTRACT

In this article, the importance of technology in the organization of the educational process in the development of the logical thinking of students and young people with the help of modern pedtechnologies, increasing the interest and aspirations of learners to master subjects with the help of pedagogical influence, the main tasks of pedagogical technology, the thinking of young people through them , development of logical thinking skills, aspects of pedagogical technologies, components of pedagogical technology are highlighted from a scientific point of view.

Key words: *Education, pedagogical technology, youth thinking, logical thinking, traditional education, classification description, principles, traditional technology, designed education.*

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach istiqbol yo‘limizni, milliy g‘oya va mafkuramiz aniq qilib belgilab olishimizni davr talab qilardi. Buning uchun avvalam bor o‘z ta’limi-tarbiyaviy maqsadimiz va vazifalarimiz, uni amalga oshirish dasturlarimizni belgilab olishimiz kerak edi. Birinchi Prezidentimizning ma’naviy mafkuraviy, barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida bir qator asarlarida ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosati ustivor masala ekanligi bir necha bor ta’kidlab o‘tkanlar.

Bobokalonlarimizning azaliy orzulari, milliy va umumbashariy qadriyatlari, ma‘naviy yodgorliklar zamonaviy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini shakllanishiga asos bo‘lmoqda. Davlatimiz tomonidan qabul qilinadigan “Kadrlar tayyorlashh Milliy dasturi”da ushbu maqsad yoritib berilgan. Zero, zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi ham yetuk, yuksak malakali, ma’naviyatli, ma’rifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashhdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarorida oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoniga e’tiborni kuchaytirish, ilmiy izlanishlar iqtisodiyot sohalarining real ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilishi lozimligi ta’kidlab o‘tilgan. Jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri – bu samarali innovatsion siyosatni amalga oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan yangi, ilg‘or texnologiyalar, mehnatni tashkil etish va boshqarish yangi shakllari hamda yirik ixtirolar natijalarini joriy qilishdan iboratdir. Avvalombor, yosh avlod ongini yanada yuksaltirishda har bir pedagog o’qituv-chining eng muhim vazifalaridan biri bu – yosh avlodning dunyoqarashlarini hisob-ga olgan holda u bilan to’g’ri yondashish hamda kasbga bo’lgan muhabbat, yurtga bo’lgan mehr tushunchalarini uyg’unlashtirib, ular bilimini yanada takomillashti-rish, tashkil etish va rag’batlantirish masalasidir. Hozirgi kunda talaba yoshlarda kerakli bilim va ko’nikmalarni mustahkamlash bilan bir qatorda ularni kasbga bo’lgan faoliyatini to’g’ri yo’naltirish maqsadida ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bu tushunchalarni uyg’unlashtirib borish maqsadga muvofiqdir.Xususan tarix, milliy istiqlol g’oyasi va ma`naviyat asoslari, O’zbekiston tarixi va boshqa darsliklar kesimida vatanimiz tarixini hamda uning naqadar yuksak poydevorga ega ekanligi yaqqol namoyon etib berilganligi hamda uning boshqa fanlar uyg’unligida olib borilishi yoshlar ongida salmoqli dunyoqarashlarning kelib chiqishiga turtki bo’ladi desak mubolag`a bo’lmas edi.

Tobora ulg`ayib borayotgan yosh avlodning ertangi kunini tariximiz zarvaraqlaridagi milliy qadriyatlarimiz asosida shakllantirish, ularning yurtga nisbatan faxrlanish tuyg’usini keltirib chiqarishi barchamizga sir emas. Shunday ekan buyuk ma`naviyatimiz asoschilaridan bo’lgan tariximiz, o`zbek elining dong`ini dunyoga tanitgan buyuk bobokalonlarimizning vatanimizga qo`shgan hissasini eslatish hamda biz kimning avlodi ekanligimizni yosh avlodga to’g’ri yo’sinda singdirish vatanimiz kelajagini, uning ertangi kunini belgilab beruvchi yosh avlodimizni yanada o`ziga bo`lgan ishonch, ertangi kunga bo`lgan ishtiyoq ruhida tarbiyalaydi, desak fikrimizning yorqin dalili bo`lar edi.

Pedagogik texnologiya ilmiy bilimlar tizimi sifatida ta’lim jarayonini optimallashtirishi va ta’minlashi kerak. Ta’lim – bu jamiyatda sodir bo‘ladigan ob’yektiv jarayon bo‘lib, u rivojlanuvchi xarakterga ega. Tarbiyaning maqsadi esa rivojlanish jarayonida o‘z hayotini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishdir. Ko‘rinib turibdiki, hayotni tartibga solishning turli xil variantlari bilan tanishish ta’lim muammosining yechimini topmaydi, shunday qilib: bolaning rivojlanishi uning o‘zi faollik ko‘rsatganda, hayotda o‘zaro munosabatda bo‘lganda sodir bo‘ladi, bu faoliyatning xarakteri shaxsning sub’yektiv erkin munosabati bilan belgilanadi, pedagogik ta’sir yoshni ijtimoiy qadriyatlarga ma’lum munosabatga yo‘naltiradi, o‘qituvchining o‘zaro ta’siri va bola bilan o‘zaro munosabatning butun jarayoni zamonaviy madaniyat darajasida va ta’lim maqsadiga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash uchun bir qator savollarga javob berish kerak:

1) pedagogik texnologiya qanday elementlardan iborat;

2) ularning zaruriy va yetarli darajada mavjudligi nima;

3) ular qanday munosabatda; 4) har bir elementning umumiy va xususiy vazifalari nimadan iborat.

Pedagogva talabalarning o‘zaro munosabati yuqori ma’noda bir-biriga o‘zaro ta’sir qilishdan ko‘ra ko‘proq ma’noni anglatadi. O‘zaro aloqani amalga oshirish uchun suhbatdoshlar bir-birlarini ushbu muloqotning teng sub’yektlari sifatida qabul qilishlari kerak, bu amalda “o‘qituvchi-shogird” tizimida unchalik keng tarqalgan emas. Pedagogik ta’sir qisqa muddatli muloqot yoki uzoq muddatli ta’sir sifatida harakat qilib, ta’lim maqsadiga muvofiq funksiyalarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Pedagogik ta’sirni tahlil qilganda, pedagogva talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning dastlabki momenti sifatida uning maqsadidan kelib chiqish kerak. pedagogik ta’sirning asosiy maqsadi yoshni o‘z hayotidan xabardor sub’yekt pozitsiyasiga o‘tkazishdir. Pedagogik ta’sirning ushbu funktsiyalarini amalga oshirish pedagogik texnologiya bilan ta’minlanadi, u o‘qituvchining hayot bilan o‘zaro munosabatida bolaga ta’sirini ilmiy asoslaydi, uning munosabatini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaning mohiyati o‘zaro bog’langan, ichki mantiqqa ega bo‘lgan zarur va yetarli elementlar tizimi orqali ochib beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarning ta’lim yutuqlarini baholash texnologiyasi pedagogik tajribalar doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, texnologiyaning maqsadi – nazorat bosqichida yoshga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish tamoyillarini amalga oshirishni ta’minlashda xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy vazifalari: - yoshlar bilimdan foydalanish ko`nikmalarini qanday egallashini, ya`ni tayyorlashning zamonaviy ta`lim maqsadlariga qanchalik mos kelishini aniqlash; - yoshning o‘z harakatlari natijasini mustaqil baholash, o‘zini nazorat qilish, o‘z xatolarini topish va tuzatish qobiliyatini rivojlantirish; - yoshni muvaffaqiyatga undash, uni maktab nazorati va baholash qo‘rquvidan xalos qilish, qulay muhit yaratish, yoshlarning psixologik salomatligini saqlash.Bunday texnologiyalar ta’limning sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tish imkonini beradi. Pedagogdars mavzusi, maqsadlari haqida ma’lumot beradi, bu esa talabalarda kognitiv qiziqishning paydo bo‘lishiga hech qanday hissa qo‘shmaydi. Yechimni izlash tayyor bilimlarni taqdim etishga qisqartiriladi, ya’ni ko‘pchilik sinf tomonidan materialni tushunishni kafolatlamaydigan materialning tushuntirishlaridan iborat.

Bugungi kunda pedagogyoshga yetkazishga harakat qilayotgan “ob’yektiv bilim” tashuvchisining asosiy vazifasi – yoshlarni yangi bilimlarni ochishda tashabbuskorlik va mustaqillik ko‘rsatishga undash, bu bilimlarni turli muammoli masalalarni yechishda qo‘llash yo‘llarini izlashdan iborat. Yechimni topish bosqichida pedagogtalabalarni gipotezalarni ilgari surishga va sinab ko‘rishga undaydi, ya’ni bilimning “kashfiyotini” ta’minlaydi. Shunday qilib, yangi rivojlanayotgan ta’lim muhitini yaratish muammosini hal qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar katta ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi bilan uning an’anaviy usullardan qanday farq qilishini aniqlash muammosi paydo bo‘ladi. Bu masala bo‘yicha bir nechta fikrlar ko;rsatib o’tilgan:

1. Texnologiya – bu erishish mumkin bo‘lgan qattiq kodlangan natijaga ega bo‘lgan texnika va bu natijaga erishish uchun mo‘ljallangan muayyan vositalar.

2. Texnologiya va metodika ekvivalent tushunchalardir, lekin ikkinchisida talaba va pedagogshaxsiga, ularning o‘zaro ta’sir qilish usullariga ko‘proq e’tibor beriladi.

3. Metodologiya kengroq tushuncha bo‘lib, u bir nechta texnologiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday holda, ko‘pincha metodologiya yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraladi.

4. Metodika va texnologiya deyarli bir xil.

5. Texnologiya – o‘rganishning ma’lum bir usuli bo‘lib, unda o‘quv funksiyasini amalga oshirish uchun asosiy yukni shaxsning nazorati ostidagi o‘quv quroli bajaradi.

Bunda pedagog texnologiyalar yordamisiz o`qitish vazifasini bajaradigan o`qitish vositalariga etakchi rol beriladi.

Pedagog mashg'ulot davomida, balki yoshlar faoliyatini rag'batlantirish, tashkil etish va muvofiqlashtirish funksiyalarini bajaradi. Pedagogik nazariya va amaliyotning hozirgi holati ko‘rib chiqilgan variantlardan birinchisini eng to‘g'ri va to‘liq aks ettiradi. Texnologiyaning tarkibi – bu usullar majmui emas, balki pedagogik jarayon tomonlarining ob'yektiv barqaror aloqalariga (qonunlariga) tayanganda mumkin bo‘lgan istalgan natijaga olib keladigan faoliyatning belgilangan bosqichlari. Texnologiya inson tarbiyasi jarayonini ilmiy bilish natijasida ta'lim jarayoni qonuniyatlariga asoslanadi. Metodika empirik tajribaga, o‘qituvchining mahoratiga asoslanadi, uning badiiyligiga, san'atiga yaqinroqdir. Texnologiya – bu ramka, metodika – bu qobiq, pedagogfaoliyatining shakli. Berilgan natijani ta'minlovchi o‘quv jarayonini qurishda texnologiyaning vazifasi.

Bu texnologiyaning yana bir muhim funktsiyasini – tajribani uzatish, uni boshqalar tomonidan qo‘llashni amalga oshirishga imkon beradi, shuning uchun u dastlab shaxsiy ma'nosini yo‘qotishi kerak. Muhim takrorlash darajasidagi pedagogik ta'lim noyob bo‘lgan yoki ularni rasmiy takrorlashni talab qiladigan usullarga emas, balki texnologiyalarga asoslanishi kerak. “Pedagogik texnologiya” konsepsiyasining muhim belgisi sifatida ta'limga tizimli yondashish YuNESKO ta'rifida o‘z aksini topgan bo‘lib, unga ko‘ra pedagogik texnologiya o‘qitish va o‘qitishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli usuli bo‘lib, ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan texnik va inson resurslari va ularning o‘zaro ta'sirini hisobga olishni ifodalaydi .

Har qanday pedagogik texnologiya asosiy uslubiy talablarga javob berishi kerak. Kontseptuallik – har bir pedagogik texnologiya ma'lum bir ilmiy konsepsiyaga, jumladan, ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslanishiga yo‘naltirilishi kerak. Muvofiqlik – pedagogik texnologiya tizimning barcha xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha qismlarining o‘zaro bog'liqligi, yaxlitligi . Boshqarish qobiliyati diagnostik maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, o‘quv jarayonini loyihalash, bosqichma-bosqich diagnostika, natijalarni tuzatish uchun vositalar va usullarni o‘zgartirish imkoniyatini nazarda tutadi. Samaradorlik – zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobat sharoitida mavjud bo‘lib, natijalar jihatidan samarali va xarajatlar bo‘yicha optimal bo‘lishi, ma'lum bir ta'lim standartiga erishishni kafolatlashi kerak.

Qayta ishlab chiqarish pedagogik texnologiyani bir xil turdagi boshqa ta'lim muassasalarida, boshqa fanlar tomonidan qo‘llash (takrorlash) imkoniyatini nazarda tutadi. Bugungi kunda ta'lim nazariyasi va amaliyotida ta'lim jarayonining ko‘plab variantlari mavjud. Har bir muallif va ijrochi pedagogik jarayonga o‘ziga xos, individual yondashuvlarni olib keladi, shu munosabat bilan ular har bir o‘ziga xos

texnologiya mualliflik huquqi bilan himoyalangan deb aytishadi. Bu fikrga qo‘shilish mumkin. Biroq, ko‘pgina texnologiyalar o‘zlarining maqsadlari, mazmuni, qo‘llaniladigan usullari va vositalarida juda ko‘p o‘xshashliklarga ega va umumiy xususiyatlarga ko‘ra ularni bir nechta umumlashtirilgan guruhlarga ajratish mumkin. Aslida, faqat bitta omil, usul, prinsipdan foydalanadigan bunday monotexnologiyalar mavjud emas – pedagogik texnologiya har doim murakkab bo‘ladi. Pedagogik texnologiyalarning sinflari qo‘llash darajasiga ko‘ra umumiy pedagogik, alohida uslubiy (predmetli) va mahalliy (modulli) texnologiyalarga ajratiladi .

Falsafiy asosga ko‘ra: materialistik va idealistik, dialektik va metafizik, ilmiy va diniy, gumanistik va g’ayriinsoniy, antroposofik va teosofik, pragmatik va ekzistensial, erkin ta’lim, majburlash va boshqalar. Aqliy rivojlanishning yetakchi omiliga ko‘ra: biogen, sotsiogen, psixogen va idealistik texnologiyalar. Bugungi kunda shaxsiyat biogen, sotsiogen va psixogen omillarning yig’indisi ta’sirining natijasi ekanligi umumiy qabul qilinadi, ammo ma’lum bir texnologiya ulardan birortasini hisobga olishi yoki tayanishi mumkin, uni asosiy deb hisoblashi mumkin.

Biz neyrolingvistik dasturlashning kamroq tarqalgan texnologiyalarini va taklif qiluvchi texnologiyalarni ham eslatib o‘tishimiz mumkin: shaxsiy tuzilmalarga e’tibor qaratish orqali: axborot (maktab bilimlarini, fanlar bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish); operatsion (aqliy harakatlar usullarini shakllantirish); hissiy-badiiy va hissiy-axloqiy (estetik va axloqiy munosabatlar sohasini shakllantirish); o‘z-o‘zini rivojlantirish texnologiyalari (shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini shakllantirish); evristik (ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish) va amaliy (samarali-amaliy sohani shakllantirish). Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mazmun va tuzilish xususiyatiga ko‘ra texnologiyalar quyidagilarga ajratiladi: o‘qitish va tarbiyalash, dunyoviy va diniy, umumiy ta’lim va kasbiy yo‘naltirilgan, gumanitar va texnokratik, turli sanoat, xususiy mavzu, shuningdek monotexnologiyalar, kompleks (politexnologiyalar), kirib boradigan texnologiyalar

Mazmun va tuzilish xususiyatiga ko‘ra texnologiyalar guruhi Monotexnologiyalarda butun o‘quv jarayoni har qanday ustuvor, ustun g’oya, tamoyil, konsepsiyaga asoslanadi, murakkablarida u turli xil monotexnologiyalar elementlaridan birlashtiriladi. Kognitiv faoliyatni tashkil etish va boshqarish turiga ko‘ra, V.P.Bespalko pedagogik tizimlarning (texnologiyalarning) quyidagi tasnifini taklif qildi:

pedagogning talaba bilan o‘zaro munosabati ochiq (talabalarning nazoratsiz va tuzatib bo‘lmaydigan faoliyati), siklik (nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘zaro nazorat bilan), tarqoq (frontal) yoki yo‘naltirilgan (individual) va nihoyat, qo‘lda bo‘lishi mumkin. (og’zaki) yoki avtomatlashtirilgan (o‘quv qurollari yordamida).

Ushbu xususiyatlarning kombinatsiyasi quyidagi texnologiyalar turlarini belgilaydi: - klassik ma’ruza asosidagi o‘qitish (nazorat - ochiq, tarqoq, qo‘lda); - audiovizual texnik vositalar yordamida o‘qitish (ochiq, tarqoq, avtomatlashtirilgan); - “maslahatchi” tizimi (ochiq, yo‘naltirilgan, qo‘llanma); - darslik yordamida o‘rganish (ochiq, yo‘naltirilgan, avtomatlashtirilgan) – mustaqil ish; - “kichik guruhlar” tizimi (siklik, tarqoq, qo‘llanma) – o‘qitishning guruhli, tabaqalashtirilgan usullari; - kompyuterni o‘qitish (siklik, tarqoq, avtomatlashtirilgan); - “repetitor” tizimi (siklik, yo‘naltirilgan, qo‘llanma) – individual o‘qitish; - oldindan dasturlashtirilgan dastur mavjud bo‘lgan “dasturlashtirilgan o‘rganish” (siklik, boshqariladigan, avtomatlashtirilgan). Pedagogik texnologiyaning prinsipial muhim tomoni – bu talabaning ta’lim jarayonida tutgan o‘rni, kattalarning bolaga munosabati. Bu yerda bir necha turdagi texnologiyalar mavjud: a) avtoritar texnologiyalar, unda pedagogta’lim jarayonining yagona sub’yekti, talaba esa faqat “ob’yekt”, “tishli”. Ular maktab hayotining qat’iy tashkil etilishi, yoshlarning tashabbusi va mustaqilligini bostirish, talab va majburlashni qo‘llash bilan ajralib turadi; b) talabaning shaxsiyatiga yuqori darajada e’tibor bermaslik didaktik texnologiyalar bilan ajralib turadi, bunda pedagogva yoshning sub’yekt-ob’yekt munosabatlari ham ustunlik qiladi, o‘qitishning ta’limdan ustunligi va didaktik vositalar eng muhimi hisoblanadi. shaxsni shakllantirish omillari. v) yoshlarga yo‘naltirilgan texnologiyalar bolaning shaxsiyatini butun maktab ta’lim tizimining markaziga qo‘yadi, uning rivojlanishi, tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay, ziddiyatli va xavfsiz sharoitlarni ta’minlaydi. Ushbu texnologiyada bolaning shaxsiyati nafaqat mavzu, balki ustuvor mavzudir, bu qandaydir mavhum maqsadga erishish vositasi emas, balki ta’lim tizimining maqsadidir (avtoritar va didaktosentrik texnologiyalarda shunday). Bunday texnologiyalar antroposentrik deb ham ataladi . Shunday qilib, shaxsiyatga yo‘naltirilgan texnologiyalar antroposentrizm, gumanistik va psixoterapevtik yo‘nalish bilan ajralib turadi va talabaning ko‘p qirrali, erkin va ijodiy rivojlanishiga qaratilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar, insoniy-shaxsiy texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari doirasida mustaqil yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi.

XULOSA

Xulosa qilib Pedagogik texnologiya va ta’lim texnologiyasi ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi, chunki “ta’lim” atamasining zamonaviy talqini shaxsiyatni tarbiyalashni ham o‘z ichiga oladi, unga ma’lum bir qiyofani beradi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash kerakki, umumiy ma’noda pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish uning rivojlanish tendensiyasi bo‘lib, u o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan, yoshlarning rejalashtirilgan ta’lim natijalariga

erishishini kafolatlaydi. O‘qitish texnologiyasi o‘rganish nazariyasi va uni amaliy amalga oshirish o‘rtasidagi bog’lovchiga o‘xshaydi. Nazariyadan o‘quv jarayonida foydalanish uchun ilmiy bilimlarni texnologiyalashtirish, pedagogik muammolarni hal qilish vositasiga aylantirish kerak.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarori.
2. Афанасьева И.В. Вопросы интеграции науки и образования. Таълим технологиялари. – № 4. Тошкент, 2007. – С. 24-25.
3. Йенш E.P. Zur Eidetik und Integration Typologie, 1941. Философский энцклопедический словарь ред.-сост. Е.Ф. Губский и др, 2003. – С.128.
4. Bakhtiyarovna, Y. M., Shukhratovna, S. I., Izatullaevna, I. I., Muydinjanovna, Y. D., Yurevna, F. L., & Mamadjanovna, K. M. (2022). INDEPENDENT EXTRACURRICULAR WORK OF STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF A CREDIT MODULAR SYSTEM. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3302-3305.
5. Mamura Bakhtiyarovna Yuldosheva (2022). THE STYLISTIC SIGNIFICANCE OF TRANSLATING PORTRAITS UZBEK NOVELS INTO ENGLISH. Academic research in educational sciences, 3 (2), 224-228. doi: 10.24412/2181-1385-2022-2-224-228
6. Yuldasheva, M. B. (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. Theoretical & Applied Science, (3), 11-14.
7. Yuldasheva Ma’Mura Bahtiyarovna (2020). The organization of the mental lexicon. Наука, образование и культура, (1 (45)), 44-45.
8. Bakhtiyarovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY
9. Bakhtiyarovna, Y. M. THE ROLE OF CULTURAL AND STYLISTIC ASPECTS IN LITERARY TRANSLATION.
10. Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). TALABALARNI ILM-FANGA JALB ETISHDA TA’LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASI. PEDAGOGS jurnali, 25(2), 118-121.
11. Saidbaxromovna, S. B., & Baxtiyarovna, Y. M. (2023). ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. World scientific research journal, 11(1), 60-65.

SHAHARLARNI KO‘KALAMZORLASHTIRISHDA KATALPA DARAXTINING AHAMIYATI

Sayfullayev Asilbek Farhod o‘g‘li
Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya kafedrasi o`qituvchisi
asilbek.sayfullayev.92@mail.ru

ANNOTATSIYA

Shaharlarda aholini yashash sharoitlarini qulay darajaga ko’tarish, dam olishini ta’minlash, shahardagi sanitar holatni yaxshilash, mikroiqlimni yuzaga keltirish va sog’lomlashtinivchi yashil hududlar maydonlarini kengaytirishda manzarali yashil daraxtzorlarning roli baland. Ko’kalamzorlashtirish uchun qo’llanilayotgan manzarali daraxt-buta turlari sonini boyitish ham muhim ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: *Bignoniyadoshlar (Bignoniaceae) — ikki pallali o‘simliklar oilasi, go’zal katalpa, manzaraviy daraxt, morfologiya, ekologiya, manzarli bog’dorchilik, urug’, parvarishlash usullar.*

АННОТАЦИЯ

Высока роль декоративных зеленых насаждений в повышении до комфортного уровня условий жизни населения в городах, обеспечении их отдыхом, улучшении санитарно-бытовых условий в городе, создании микроклимата, расширении площадей здоровых зеленых насаждений. Также важно обогатить количество декоративных деревьев и кустарников, используемых для озеленения.

Ключевые слова: *Бигнониевые - семейство двудольных растений, катальпа красивая, декоративное дерево, морфология, экология, озеленение, семена, корневища, способы ухода.*

ABSTRACT

The role of ornamental green groves is high in raising the living conditions of the population to a comfortable level in cities, providing them with rest, improving sanitary conditions in the city, creating a microclimate, and expanding the areas of healthy green areas. It is also important to enrich the number of ornamental trees and shrubs used for landscaping.

Keywords: *Bignoniaceae - a family of dicotyledonous plants, beautiful catalpa, ornamental tree, morphology, ecology, landscape gardening, seeds, rhizomes, care methods.*

KIRISH

Shaharlarda aholini yashash sharoitlarini qulay darajaga ko'tarish, dam olishini ta'minlash, shahardagi sanitar holatni yaxshilash, mikroiqlimni yuzaga keltirish va sog'lomlashtinivchi yashil hududlar maydonlarini kengaytirishda manzarali yashil daraxtzorlarning roli juda katta jisoblanadi. Ko'kalamzorlashtirish uchun qo'llanilayotgan manzarali daraxt, buta turlari sonini boyitish ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarida aholi yashash hududlarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'kalamzorlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri inson hayoti uchun sog'lom va to'laqonli estetik tabiiy muhit yaratishdir. Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdagi 59-son qarori bilan "Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari tasdiqlangan, 2013 yil 13 avgustdagi 223-son qarori bilan esa "O'zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish Dasturi" qabul qilingan va unda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Bizning sharoitga mos keladigan va quruq iqlim sharoitlarida bemalol o'sib rivojlanadigan, yoshligidan shakl berib parvarishlangan manzarali yaproq va ninabargli daraxt ko'chatlarini yetishtirish kerak bo'ladi. Buning uchun yuqori dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan manzarali ko'chatzorlar tarmog'ini kengaytirish, hamda innovatsion g'oyalar va ilg'or tajribalar asosida yetishtirilgan manzarali daraxt-buta turlarining ko'chatlari miqdorini va sifatini oshirish lozim.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Go'zal katalpa (Catalpa speciosa) katta daraxt bo'lib, balandligi 30 m, diametri 1,5m ga yetadi. Tashqi ko'rinishining o'ziga xos xususiyatlari uchun o'simlik mashhur taxalluslarni oldi. Dunyoning turli burchaklarida uni uzun po'stlog'ining ko'pligi uchun "makaron daraxti", barglar shakli uchun "fil quloqlari" deb atashadi.

Tanasi tik o'sadi, shox-shabbasi piramida shaklda yoki keng yoyilgan. Tanasi va shoxlarining po'stlog'i qizil-qo'ng'ir rangda, po'stlog'i bo'yiga enli yorilgan. Barglari keng oval shaklda, ba'zan cho'ziq, uzunligi 15-30 sm ga yetadi, uchi o'tkir, tubi to'mtoq, cheti tishchali, yuz tomoni tiniq yashil, tuksiz, orqa tomoni sertuk hidsiz. Barg bandi 10-15 sm uzunlikda bo'lib gullari kam gulli ro'vak hosil qiladi. Ro'vagining uzunligi 20 sm ga yetadi. Ko'sakchasining uzunligi 45 sm eni 1,5 sm po'sti juda qalin, urug'lari yumaloq, kalta tukli. Go'zal katalpaning yog'ochi oq, yengil, nihoyatda pishiq, namda chirimaydi, shu sababli undan shpal va telegraf stolbalari tayyorlanadi.

Tadqiqot davomida quiydagi metodlardan foydalanildi: Katalpa oilasiga mansub manzarali turlarini generativ va vegetativ ko‘paytirishning eng maqbul usullarini tanlash va ularni manzarali bog‘dorchilikka tavsiya etish maqsadida Navoiy shahridagi Alisher bog‘i va I.Karimov shoh ko`chasida fenologik kuzatishlar G F Gizatullinaning metodologiyasi bo'yicha o'tkazildi.

O‘simliklarni o‘rganishda biometrik o‘lchovlar umume’tirof etilgan usullar yordamida amalga oshirildi.

TADQIQOT NATIJALARI

O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini o‘rganishda fenologik kuzatishlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, turli fazalarning davomiyligini, o‘simlik rivojlanishiga tashqi muhit omillarining ta’sirini, o‘simliklardagi o‘zgarishlarni aniqlashga yordam beradi.

Navoiy shahrida o‘tkazilgan biometrik o‘lchovlarga ko‘ra, *Catalpa speciosa Walder ex Engelm* daraxtining balandligi 20 metrgacha (ba’zi turlari 25 metr), diametri 0,2 metrga etadi. va daraxtlar balandligi 7 m gacha va diametri 0,25 m gacha bo‘lgan katta daraxtlar ekanligi aniqlandi. Fenalogik tadqiqotlar davomida shuni kuzatdikki daraxtning tanasi tik, shoxlari piramidasimon, tanasi va shoxlari po‘stlog‘i qizg‘ish-jigarrang, bo‘yni yorilib ketgan.

1-rasm. Katalpa (Catalpa speciosa Walder ex Engelm) barglari.

Daraxtning barglari kengligi 15-27 sm gacha, uzunligi 20-30 sm gacha, oddiy, novdada bir qatorda joylashgan bo‘lib, yirik bargli daraxtlar turiga kiradi. Kuzatish vaqtida ayrim barglarning kattaligi juda katta ekanligi qayd etildi, kengligi 26-27 sm

va bandining uzunligi 9-18 sm gacha bo‘lganligi aniqlandi. Barglari keng, yirik, oval, ba‘zan cho‘zilgan, balandligi 15-30 sm ga yetadi, uchi o‘tkir. Yuzi och yashil, tuksiz orqa qismi qattiq va hidsiz.

Fenalogik kuzatish davomida mart oyining 17 sanasidan boshlab darxt barg kurtaklarini chiqara boshladi. May-iyun oyidan boshlab, shoxlarda ajoyib kurtaklar gullab-yashnagan paytdan boshlab manzarali ko’rinish beradi. Katalpa juda xushmanzara daraxt bo’lganligi uchun u parklarga va ko’chalarga ko’plab ekiladi.

2-rasm Go’zal katalpa daraxtining ko’rinishi

Shimoliy Amerikada Missisipi va Missuri Ogayo daryolari bir-biriga qo‘shiladigan hududlarda, Tennesi shtatida va Shimoliy Arkanzasning g‘arbiy hududlarida tarqalgan. O’zbekistonga introduksiya qilinganiga 100 yildan oshdi. Chiroyli daraxt bo’lganidan ko’kalamzorlashtirishda ko’p ekiladi. Go’zal katalpa urug’idan ekilganda yani qulay sharoitlada yiliga 35 sm dan oshadi bazi bir turlari 1 metrgacha bo’ladi.

Go’zal katalpa quyoshni yaxshi ko’radi va termofil turlariga tegishli. Yetarli yorug’lik, uzoq vaqt davomida katalpaning kurtaklari va po’stlog’i sovuq ob-havodan oldin pishishiga vaqt topadi, bu esa daraxtni yaxshi qishlashiga imkon beradi. Issiqlikni yaxshi ko’radigan daraxtning 30-35°C dan yuqori sovuqlarga bardosh beradi.

Go’zal katalpani barglari va gullari unung manzarviyligi uchun bog’bonlar va landshaft dizaynerlari uchun ajoyib xushmanzara daraxt hisoblanadi. Go’zal katalpa daraxtini yakka holda, xiyobonlarda guruhlab ekishlari uchun tavsiya etiladi. Shahar markazlari, ofis binolari, turar-joy binolari va do’konlarning oldidagi maydonlarni bezab turadi, balki piyodalar yo’llarini yoki avtomobil yo’l yoqalarini ham bezashga imkon beradi.

XULOSA

O‘zbekistonning turli hududlarining tuproq-iqlim sharoitida manzarali mahalliy o‘simliklar bilan bir qatorda yurtimizga introduksiya qilingan daraxt turlaridan ham keng foydalanish o‘z samarasini berishi shubhasiz. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Katalpa turlarini ko‘kalamzorlashtirishda foydalanishda ularning bioekologik xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Har xil turdagi bir nechta daraxt turlaridan har xil soyalarga chidamli gullar va buta o’simliklarni ekish, butun yil davomida manzarali kompozitsiyasini ko’rinishini oshiradi.

REFERENCES

1. Khaitovna PM, Faksriddinovich MS Technology of growing cauliflower // Texas Journal of Interdisciplinary Research. - 2022. - T. 6. - S. 8-10.
2. Ya. X. Yuldashov, “Ko’chatchilik va gulchilik ishlish” Kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma Toshkent «Davr nashriyoti» 2013
3. Kurbaniyazov, B., Berdimuratov, G., Kholova, S. H., Safarov, A., & Safarov, K. (2021). Importance of catalpa groups in cultural city greening in the case of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 258, p. 03026). EDP Sciences.
4. Zolgharnein, J., Shariatmanesh, T., Asanjarani, N., & Zolanvari, A. (2015). Doehlert design as optimization approach for the removal of Pb (II) from aqueous solution by Catalpa Speciosa tree leaves: adsorption characterization. *Desalination and Water Treatment*, *53*(2), 430-445.
5. Rukhsora, R., & Mukhabbat, R. (2022). Ways To Activate The Cognitive Activity Of Students In The Process Of Teaching" Genetics" Using The Case Method. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *8*, 64-67.
6. Rukhsora, R., & Mukhabbat, R. (2022). Ways To Activate The Cognitive Activity Of Students In The Process Of Teaching" Genetics" Using The Case Method. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *8*, 64-67.
7. Рахмонова, Р. Б., & Бахриддинова, Г. О. (2021). Формирование структуры хлопкового волокна. *Academic research in educational sciences*, *2*(7), 72-80.

8. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.
9. Altievich, K. S., Khudargonovich, Y. M., Farhod ogli, S. A., & Komiljonovna, U. G. (2022). ADVANTAGES OF PREPARATION AND USE OF BIOFERTILIZERS FROM BIOMASS OF HIGHER AQUATIC PLANTS. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, *8*(1), 21-25.
10. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of" Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *10*(3), 144-149.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BOTANIKANI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLI DARSLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Malikova Ayzada Raxmatovna
Navoiy davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Maqolada didaktik o`yin texnologiyalarining o`quvchilar faoliyatini faollashtirishdagi o`rni, botanika fanini o`qitishda didaktik o`yinlardan foydalanish yo`li va 6-sinfda botanika fanidan o`qitiladigan 1 soatlik dars ishlanmasi berilgan.

***Kalit so`zlar:*** *tabiat, biologik ta`lim, didaktik o`yin, Qoqio'tdoshlar (Murakkabguldoshlar) oilasi, qoqio't, sachratqi, bo'ymadoron, pista-kungaboqar, shuvoq, tirnoqgul.*

АННОТАЦИЯ

В статье приведены роль дидактических игровых технологий в активизации деятельности учащихся, способы использования дидактических игр в обучении ботанике, разработка 1-часового урока ботаники в 6-м классе.

Ключевые слова: *природа, биологическое воспитание, дидактическая игра, семейство Какиотдош (Мурккабгулдош), какиот, сачартки, боймадорон, фисташково-подсолнуховая, полынная, бархатцы.*

ABSTRACT

The article presents the role of didactic game technologies in activating the activity of students, ways to use didactic games in teaching botany, the development of a 1-hour lesson in botany in the 6th grade.

Key words: *nature, biological education, didactic game, Kakiotdosh (Murkkabguldosh) family, kakiot, sachartki, boymadoron, pistachio-sunflower, wormwood, marigolds.*

KIRISH

Tabiatni sevish – murakkab insoniy tuyg`udir. Bu tuyg`u yuksak qalb va aql doiralarini qamrab oladi hamda insonning ongli ma`naviy hayotini asosiy negizini tashkil etadi. Bu hissiyot ko`p jihatdan vatanni sevish g`oyalariga mos keladi. Tabiatga bo`lgan muhabbat bilan birga yosh avlodda o`z o`lkasiga, sevimli diyoriga qo`ygan mehri yanada ortadi. Bu muhabbat esa bevosita bolalikda, maktab yillarida tug`iladi.

Ta`lim muassasalarida biologik ta`lim butun yosh avlodni tabiatga to`g`ri munosabatda bo`lishga, unga nisbatan mehr muhabbatni tarbiyalaydi, tabiatning

chiroyini idrok etishdan tashqari uni muhofaza qilish, asrash, tabiat boyliklarini o`z qo`llari bilan yaratish va ko`paytirishga o`rgatadi. Bularning barchasiga biologik qonuniyatlarni chuqur va ongli ravishda o`zlashtirgandagina erishish mumkin. [1]

Biologiyani o`qitishda foydalaniladigan didaktik o‘yin texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro’yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o’yinli texnologiya asosida tashkil etilgan har qanday dars shu dars jarayonida mavzuga mos o’yinlarni to’g’ri tanlab o’tishga asoslanadi.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: Intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat qilish ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.[3]

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bizga ma`lumki 5-6 sinf o’quvchilari boshlang’ich sinflarni tugatgan bo’lishiga qaramay hali ham ularda o’yinqaroqlik, qiziquvchanlikka moyillik yuqori darajada kuchli bo’ladi. Botanika darslarini o’qitishda 5-6 sinf o’quvchilarini shu fanga bo’lgan qiziqishlarini inobatga olgan holda didaktik o’yinli darslarni turli holatlarda tashkil qilish mumkin.

Biz quyida Qoqio’tdoshlar (Murakkabguldoshlar) oilasi mavzusini didaktik o’yinli texnologiyalardan foydalangan holdagi o’qitish metodikasi keltirib o`tmoqchimiz.

Mavzu: Qoqio`tdoshlar (Murakkabguldoshlar) oilasi.

1. Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: o’quvchilarni qoqio’tdoshlar oilasi vakillarining tuzilishi, dorivor vakillari xossalari ularni tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirish, estetik dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy tarbiya berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: darslik ustida mustaqil ishlashni o’rgatish, sistematikaga oid bilimlarni va nutq, muloqotni rivojlantirish.

2. Dars jihozlari: Mavzuga oid ko’rgazmali qurollar, tabiiy qoqio’t, sachratqi, bo’ymadoron, pista-kungaboqar, shuvoq, tirnoqgulni gerbariysi, pista, test kartochkalari, savolli kartochkalar, rasmli kartochkalar, shu oilaga oid jadvallar.

3. Metod: Didaktik o’yinli texnologiya (syujetli-rolli o’yinlar)

4. Kutilayotgan natija:

a) zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samaradorligini namoyon etish, o`quvchilarni fanga bo`lgan qiziqishini uyg'otish.

b) qoqio'tdoshlar oilasi haqida to'liq ma'lumot olish.

5. Yangi mavzu bayoni.

Sinfga Ibn Sino kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib ularga o'zi ishlatgan dorivor o'simliklarni olib kelgani va bolalar bularni tanishi lozimligini aytadi.

1-o'quvchi (qoqio't) - doskaga chiqib, o'zi haqida malumotlar aytib beradi: Qoqio't o'simligi yer kurrasining turli xil ob-havo va iqlim sharoitlarida keng tarqalgan. Gullari savatcha to'pgulda o'rnashgan. Gullari ancha takomillashgan bo'lib, bajaradigan biologik xususiyatiga qarab bir necha turga bo'linadi. Masalan: bunda bitta gul mevaga aylangan bo'lsa, ikkinchi gul boshqa barcha gullar uchun gultojlik vazifasini bajaradi. Savatcha to'pgullarning o'rama ikki qator bargchalardan iborat ichki qatordagi bargchalar guliga yopishib joylashgan. Muhim texnik, oziq-ovqat va yem-xashak o'simlik hisoblanadi.

Qoqio`t

O'quvchi berolmagan ma'lumotlar o'qituvchi va Ibn Sino tomonidan to'ldiriladi.

Tarkibdagi kauchuk rezina borligi sababli bu o`simlik o'z o'zini davolash xususiyatiga ega ekanligi, ildizi, bargidan tayyorlangan damlama, xalq tabobatida buyrak kasalliklarida siydik haydovchi, jigar o't pufagida o't haydovchi, qon tozalovchi surgi, ildizi sut shirasi bilan so'gallar yuqotiladi. Ibn Sino chayon chaqqan joyga quritilmagan yer ustki qismini ezib bog'lashni tavsiya qiladi.

2-o'quvchi (Zangori sachratqi) – Sachratqi ham o`zi haqida ko'plab ajoyib malumotlarni keltirib o'tadi: Sachratqi – yozning o'rtalaridan boshlab, vohadagi ekinlar orasida, yo'l yoqalari va ariqlar bo'yida uchraydi. O'zbekistonda yagona turi

bor. Gullari zangori ikki jinsli, tilsimon. Dorivorlik xususiyati: ildizi, barglari, gullagan vaqtdagi poyasidan tayyorlangan dorilar oshqozon-ichak kasalliklarida foydalaniladi.



Ermon shuvog`i **Zangori sachratqi**

3-o’quvchi esa (Ermon shuvog’i) - bo’lib, u o’simlik haqida ma’lumot aytadi: Shuvoqlar bebaho shifobaxsh o’simliklar hisoblanib, bargi, poyasi, to’pgulidan tayyorlangan dorilar tabobatda ko’pgina kasalliklarda qo’llaniladi.



Shundan so’ng o`qituvchi aytib o’tilgan o’simliklar haqida o’quvchilar yana qanaqa ma`lumotlar topib kelgani haqida so`rab, qo`shimcha ma`lumotlar beradi. O’simliklar haqida ko’p ma’lumot bergan o’quvchilar ko’proq rag’bat kartochkasiga ega bo`lib, ularga ball beriladi va ballar e’lon qilinadi.

6. Mustahkamlash:

Oila nomi	**Tarqalishi**		**Oila vakillari**
	O’zbekistonda	Yer yuzida	
Qoqio’tdoshlar			
Madaniy vakillari			
Yovvoyi vakillari			
Dorivor vakillari			

Ushbu jadvalni to’ldirish uchun darsda qatnashmagan o’quvchilar doskaga chiqib jadvalni to’ldiradi. Qolgan o`quvchilar o’simliklarni rasmiga qarab va gerbariylar asosida tuzilishini tushuntirib beradilar.

Ibni Sino: - Aziz bolajonlarim! Tabiatdagi har bir giyoh siz uchun kerakligini, uni asrab avaylash barchangizni burchingiz ekanini unutmang. Keyingi darsda uchrashguncha xayr!

7.Uyga vazifa.

Botanika darslarida o`qituvchi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o`quvchilarda o`simliklarning asosiy guruhlari, ularning tabiatda tarqalishi, gul va organlari tuzilishlari, turlar soni, madaniy va yovvoyi turlari, O`zbekiston "Qizil kitobi", va unga kiritilgan o`simlik turlari haqidagi tushunchalarni shakllantirish, ko`nikmalarini tarkib toptirishga imkon beradigan gerbariylar, o`simtalaridan foydalanishi lozim.

TADQIQOT NATIJALARI

Botanika darslarida asosan didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan 5-6 sinf o'quvchilarda ta'lim olishni, ularning turli yo'nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan, tegishli kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli kabi turlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim – tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, botanikani o`qitishda didaktik o'yinli texnologiyalardan foydalanib darslarni olib borish o'quvchilarni fanni ham nazariy, ham amaliy jihatdan egallab olishlariga yordam beradi. Bu metodlar o`quvchilarning botanikadan o`zlashtirgan bilimlari, kuzatish va jismoniy mehnat ko`nikmalarini qamrab olib, o`quvchilarni qishloq xo`jaligi mehnati asoslarini egallash va kasbga yo`llash, ekologik va iqtisodiy tarbiya berishda hamda botanika faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishida muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Tolipova J. O. Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma.Nizomiy njmidagi TDPU. 1-qism. Toshkent. 2004y . 47-57 b
2. Tolipova J. O. Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma.Nizomiy njmidagi TDPU. 2-qism. Toshkent. 2004y.117-123 b.
3. Tolipova J. O. va boshqalar „Botanika o'qitish metodikasi" (6-sinf uchun) Toshkent „O'zbekiston" 2003 yil. 29-32 b.

4. Ibodova M.N. Биология дарсларини ташкил этиш технологияси. Услубий қўлланма. Навоий давлат педагогика институти илмий Кенгаши 2021 йил 31 август. 77-86 b.
5. Хужжиев, С. (2022). ФИТОРЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЁННЫХ ТЯЖЁЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ. *ЭКОЛОГИЯ (БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ)*.
6. 6.Shomurodov, H. F., Saribaeva, S. U., Abduraimov, O. S., Khayitov, R. S., & Sayfullaev, A. F. (2021). The Current State of Iris Hippolyti's (Vved.) Kamelin Population in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6589-6597.
7. Sayfullayev, A. (2020). MICROALGAE AND CYAN BACTERIA AS BIO FERTILIZERS. *SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT# 26*.
8. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.
9. Altievich, K. S., Khudargonovich, Y. M., Farhod ogli, S. A., & Komiljonovna, U. G. (2022). ADVANTAGES OF PREPARATION AND USE OF BIOFERTILIZERS FROM BIOMASS OF HIGHER AQUATIC PLANTS. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, *8*(1), 21-25.
10. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of" Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *10*(3), 144-149.8.

БИОЛОГИК МАРКЕТИНГНИНГ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАМОЙИЛЛАРИ ВА БОШ ҚОИДАСИ

Шамсидинова Гулчехра Дўстмуродовна
Навоий давлат педагогика институти Биология кафедраси доценти
gulchikhra.shamsiddinova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Мақолада мамлакатимизда аҳолининг турмуш фаровонлигини таъминлаш мақсадида биологик соҳадаги маркетингнинг ўрни, корхонани ривожлантириш, рақобатбардошлигини таъминлашда маркетинг стратегиясидан фойдаланиш йўналишлари, шу билан бирга, соҳани ривожлантришда эришилаётган натижалардан унумли фойдаланган ҳолда маркетинг стратегиясини ишлаб чиқиш уларнинг истиқболлари ҳақида тўхталиб ўтилган ва тегишли тарзда илмий асосланган хулоса ва таклифлар берилган.

Калит сўзлар: *маркетинг, стратегия, экологик, рақамли технологиялар, рақамли воситалар, геномика, биоинформатика, биологик, тадбиркорлик, рақамли иқтисодиёт, корхона, бозор.*

АННОТАЦИЯ

В статье в целях обеспечения благосостояния населения в нашей стране показано направление использования картографической стратегии для обеспечения развития и конкурентоспособности картографической стратегии в биологической сфере и, таким образом, развития картографической стратегии с использованием результатов, достигнутых в развитии области, обсуждаются, и делаются соответствующие научные выводы и предложения.

Ключевые слова: *картографирование, стратегия, экология, цифровые технологии, цифровые инструменты, геномика, биоинформатика, биологическая, индустриальная, цифровая экономика, жилье, рынок.*

ABSTRACT

In the state and in order to ensure the well-being of the population in our country, the implementation of the cartographic strategy for the development and competitiveness of the cartographic strategy in the biological sphere is shown, in this way, the development of the cartographic strategy and the use of the results achieved

in the development area are discussed and delayutsya sootvetstvuyushchie nauchnye i predlogenia.

Keywords: *cartography, strategy, ecology, digital technologies, digital instruments, genomics, bioinformatics, biological, industrial, digital economy, technology, market.*

Бугунги кунда биология соҳасида маркетинг сифатини ошириш стратегияси, мамлакатда бозор иқтисодиётини янада ривожлантириш, барча тармоқлар бўйича ишлаб чикариш жараёнларининг сифатини ошириш натижасида биология соҳасида эришилаётган муваффақиятлар муҳим аҳамият касб этади.

Шавкат Мирзиёев.

КИРИШ

“Ҳаракатлар стратегиясидан — Тараққиёт стратегияси сари” тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси қабул қилинди. Мазкур стратегияга асосан қуйидаги ишларни амалга ошириш режалаштирилди.

- Мамлакатимизда адолат ва қонун устуворлиги тамойилларини тараққиётнинг энг асосий ва зарур шартига айлантириш;
- Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш;
- Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш;
- Маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш;
- Миллий манфаатлардан келиб чиққан ҳолда умумбашарий муаммоларга ёндашиш;
- Мамлакатимиз хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш, очиқ, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб бориш.

Тараққиёт стратегиясида инсон қадрини улуғлашга йўналтирилган ижтимоий ҳимоя сиёсати бўйича белгиланган вазифалар доирасида 2026-йилга қадар эҳтиёжманд аҳоли ижтимоий нафақа ва моддий ёрдам билан тўлиқ қамраб олиш масалалари кўриб чиқилди.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, таълим муассасалапида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга ошипилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича бир қатор қонун ва қарорлари билан танишиб чиқилди.

Маркетинг тушунчаси - бозор соҳасини ҳар қандай фаолияти билан боғлиқ булиб, (маркет сўзи – бозор, инг – фаол, фаолият, ҳаракат маъносини англатади). Тадбиркорлик фаолиятида қарор қабул қилиш ва уни ишлаб чиқишда тадбиркорликнинг самарали воситаси ҳамда асоси маркетинг ҳисобланиб, тадбиркорлик фаолиятини бошқариш, ташкил этиш, режалаштириш ва назорат қилишда муҳим аҳамият касб этади. «Ау-si-ау» концерни бошқаруви раиси Djon Harvi Djons тадбиркорликда маркетингни ўрнини тавсифлаб, «Маркетинг тадбиркорликнинг таянч омили, нафақат ёқилғи, балки кема командасидир» дейди. Маркетинг мазмуни ва терминологияси янгиланиб бориб, айирбошлаш жараёни, товар-пул муносабатлари пайдо бўлиши, сотиш шаклларини ривожланиши ҳамда истеъмолчиларни товар ва хизматлар билан ўзаро ҳаракати билан боғланади.

Ҳозирги вақтда жаҳонда кенг тарқалган “маркетинг” тушунчаси бозорни эгаллаш билан боғлиқ фаолиятни англатади. Маркетинг товарларни сотиш билан боғланиб, сотиш тизимининг вазифаси харидорни ишлаб чиқарилган маҳсулотни харид қилиш лозимлигига ишонтиришдан иборат бўлса, маркетинг фаолияти истеъмолчига нафақат бугун, балки эртага ҳам керак бўлган товарларни ишлаб чиқариш ва сотиш ҳамда хизматларни кўрсатишни назарда тутади.

Маркетингнинг бош қоидаси – истеъмолчига амалда зарур бўлган маҳсулотни ишлаб чиқариш, унга ўз эҳтиёжларини аниқлашга ёрдам бериш, истеъмолчини тўлақонли қондирадиган маҳсулот ва хизматларга талабни шакллантиришдан иборатдир. Маркетинг - бозорнинг барча субъектларини қамраб олади, унинг методлари комплекс қўлланилган ҳолда самара беради ва ягона стратегик мўлжалга эга бўлади. Маркетинг – бозор фаолиятини пухта ўйлаб ташкил этиш орқали унинг асосий йўналишлари ташкил этилади (1-расм).

1-расм. Маркетинг фаолиятининг асосий йўналишлари.

Маркетинг – эҳтиёж ва муҳтожликни айирбошлаш орқали қондиришга қаратилган инсон фаолиятининг туридир. Маркетинг вужудга келишининг асосий сабабларидан бири, бу Маркетингни асосий категориялари: товар ёки хизмат, қондирилганлик, айирбошлаш, бозор, еҳтиёж чиқариш ҳажмининг ортиб бориши, янги тармоқларнинг вужудга келиши, товар турларининг кўпайиши ва тадбиркорлар ўртасида маҳсулотни сотиш муаммосининг вужудга келишидир.

Талаб билан таклифни ўзаро таъсири - бу алоҳида шахслар ёки гуруҳнинг ҳоҳиш - эҳтиёжларини узлуксиз қондириш жараёни бўлиб ҳисобланиб, мазкур жараён ижтимоий-иқтисодий категорияларни ўзаро таъсирига асосланади. Маркетингни асосий категориялари, унинг тушунчаси, моҳиятини аниқлашга имкон беради:

Маркетингни моҳияти -товарни ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва талаб имкониятларини мўлжаллашдан иборат булиб, унинг вазифаси талабни қондириш ва таклифга мос келишдан иборатдир.

МУАММОНИНГ ЎРГАНИЛГАНЛИК ДАРАЖАСИ.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда хизмат кўрсатиш ва ижтимоий соҳа корхоналарида маркетинг стратегиясидан фойдаланиш масалаларига бағишланган илмий ишлар Қ.Х.Абдураҳмонов, Г.Н.Ахунова, А.Ш.Бекмуродов, М.Р.Болтабаев, М.А.Икрамов, М.М.Зияева, Д.Х.Набиев, Ш.Дж.Эргашходжаева, М.С.Қосимова, М.Юсупов ва бошқаларнинг илмий тадқиқотларида ўз аксини топган.

Шу билан бирга таъкидлаш лозимки, республикамизда ижтимоий вазифаларни ҳал этишда, аҳолини иш билан таъминлаш, камбағалликдан чиқариш, тобора ўсиб бораётган моддий ва маънавий эҳтиёжлар, озиқ -овқат эҳтиёжларини қондиришда хизматларни тизимли йўлга қўйиш, унинг маркетинг стратегиясини ишлаб чиқиш билан боғлиқ масалаларга мутахассислар ва олимлар томонидан етарлича эътибор берилмаган. Бу ҳолат мазкур йўналишда илмий изланишлар олиб бориш зарурлигини белгилайди

ТАДҚИҚОТНИНГ УСУЛЛАРИ.

Тадқиқотда абстракт-мантиқий фикрлаш, монографик, таққослаш, солиштирма таҳлил, эксперт баҳолаш, иқтисодий-математик, статистик, кластер таҳлил усулларидан фойдаланилган.

ТАҲЛИЛЛАР ВА НАТИЖАЛАР.

биологик маркетингнинг ташкил этиш тамойиллари ва бош қоидасини ишлаб чиқилишида маркетинг тадқиқотларини ўтказилиши муҳим ўрин эгаллайди. Айниқса, рақамли иқтисодиёт даврида камчилик маркетинг тадқиқотлари тезкор ва самарали ўтказилган ҳолда тадбиркорлик фаолиятининг натижадорлиги ҳамда истеъмолчиларнинг қониқиш даражаси юқори бўлади. Биология соҳасида эришилган тадқиқот натижалари яратилган янги маҳсулотлар, тиббий, биологик, экологик ва бошқа хизматлар соҳасини ривожлантириш стратегияси маркетингининг асосий мақсади ва вазифалари ҳам истеъмолчиларга унинг хизматларини муносиб баҳолашга ёрдам беришдан иборатдир.

Президентимиз Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида асосий вазифалардан бири сифатида «..барқарор иқтисодий ўсишнинг энг муҳим гарови – рақобатдош маҳсулотлар ишлаб чиқариш, улар учун янги халқаро бозорлар топиш ва экспортни кўпайтириш, транзит салоҳиятидан тўлиқ фойдаланиш»,– деб таъкидлаб ўтган [1]. Ушбу вазифани бажаришда, албатта, маркетинг тадқиқотларининг ўрни беқиёсдир. Маркетинг тадқиқотларининг ялпи маркетинг фаолиятини ташкил этишда, уни бошқаришда, режалаштиришда ва назорат этишда муҳим аҳамиятга эга бўлиши замонавий маркетинг назариясининг асосий хусусиятларидан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Биология соҳасида маркетинг стратегиясини амалга ошириш масалалари:

✓ Биология соҳасида эришилган тадқиқот натижалари яратилган янги маҳсулотлар, тиббий, биологик, экологик ва бошқа хизматлар соҳасини ривожлантириш стратегияси ҳар қандай ривожланган давлатнинг салоҳиятини белгилаб берувчи кўрсаткичларидан биридир.

✓ Бугунги кунда мамлакатимизда ҳам шу соҳада катта ютуқларга эришилиб, Илғор технологиялар маркази, Геномика ва биоинформатика маркази ва Республика илмий тадқиқот институтлари ҳамда Олий таълим муассасаларининг биология соҳасидаги олиб тадқиқотларни амалиётга жорий қилиш бўйича кенг кўламли ислоҳотлар олиб борилмоқда.

✓ Биологик объект ёки хизматлар маркетингини йўлга қўйиш бўйича Президент қарорлари асосида, кўплаб хусусий корхоналар, Венчур компаниялари ташкил қилиш, бугунги кунда биология соҳасида ҳам маркетинг стратегияси бўйича муҳим ечимларидан бири бўлиб ҳисобланади.

1-диаграмма. Маркетинг стратегиясини амалга ошириш алгоритми.

Ҳозирги вақтда фирма, корхона компаниялар аввалги даврларда учратилмаган жуда қаттиқ рақобат курашига тўқнашмоқдалар. Бу курашда ғолиб чиқиш учун, улар истеъмолчиларни эгаллаши ва ўзларининг рақобатчиларидан устун келишлари зарур. Бунинг учун улар ўз фаолиятида товар ва сотиш фалсафасини эмас, балки маркетинг ва истеъмолчи фалсафасини қўллашлари керак. Бугунги куннинг замонавий бозорларида муваффақиятларга эришаётган фирмалар товарларни яратувчи эмас, балки истеъмолчиларни яратувчи стратегиясини ишлаб чиқувчи ва фойдаланувчи ҳақиқий усталардир. Замонавий фирмалар фаолияти бозорга йўналтирилган бўлиши керак, яъни улар бир вақтнинг ўзида диққат билан ўзининг истеъмолчиларини ва шунингдек, рақобатчиларини кузатиб боришлари керак.

Замонавий маркетинг –истеъмолчиларни қидирувчи, яратувчи ва ушлаб қолувчи фан ҳамда санъат булиб, бозор рақобати шароитида уни комплекс тадқиқ этиш орқали, истеъмолчиларни реал талаб, эҳтиёжларини максимал қондиришга қаратилган, хўжалик фаолиятини бошқаришни ташкил этиш тизимидир. Маркетингнинг асосий мақсади – истеъмолчини, яъни харидорни вужудга келтиришдир. Маркетинг асосида бозорни ҳар тарафлама ўрганиш йўналишларининг асосийларидан қуйидагиларни кўрсатиб ўтиш зарур:

талабни ўрганиш, бозор таркибини аниқлаш, товарни ўрганиш;

рақобат шароитлари, сотиш шакли ва услубларини таҳлил этиш.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, кичик корхоналар фаолиятини қўллаб-қувватлаш, уларга давлат томонидан турли имтиёзлар ажратиш,

фаолият турини кенгайтириш орқали корхоналарнинг инновацион ривожланишига кўмаклашиш лозим. Мамлакатда биологик соҳасини ривожлантиришда ҳар бир хизмат кўрсатувчи корхона ёки тадқиқотни амалга оширишда холистик маркетинг концепциясига таянган ҳолда истеъмолчининг хоҳиш ва истакларини қондиришга эътибор қаратиши ҳамда хизматлар сифатини ошириб бориши лозим.

Биология соҳасини ривожланишининг қонуниятлари ва хусусиятлари, назарияси ва амалиёт фаолияти таҳлил қилиниб, ушбу соҳага таъсир этувчи омиллар тизимлаштирилди. Биологик маркетингнинг ташкил этиш тамойиллари ва бош қоидаси аниқланиб, асосий эътиборни қайси йўналишларга қаратилиши лозимлиги кўрсатилган.

REFERENCES

1. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида хизмат кўрсатиш ва ички туризм соҳаларини ривожлантириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди // Халқ сўзи, 2020 йил 16 июнь. - https://xs.uz
2. “2022 - 2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тасдиқлаш тўғрисида”ги Президент Фармони (2022 йил 28 январь)
3. Рахматова, С. (2022). РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА КИЧИК КОРХОНАЛАР МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Экономика и образование*, *23*(4), 184-189.
4. Fayziyev, T. R. R., & Xolmo‘minov, M. Z. O. L. (2022). IJTIMOIY SOHADA MARKETING XIZMATLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI. *Oriental Art and Culture*, *3*(2), 32-40.
5. Расулмухамедов, М., Кочкаров, Б., & Шукурова, Ш. (2022). Ta’lim xizmatlari sohasida marketing tadqiqotlari. *Актуальные вопросы развития инновационно-информационных технологий на транспорте*, *2*(2), 55-66.
6. Белобородова, О. Г. (2019). Особенности маркетинга в здравоохранении. In *Менеджмент и маркетинг: вызовы XXI века* (pp. 34-37).
7. Sayfullayev, A. (2020). MICROALGAE AND CYAN BACTERIA AS BIO FERTILIZERS. *SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT# 26*.
8. Shomurodov, H. F., Saribaeva, S. U., Abduraimov, O. S., Khayitov, R. S., & Sayfullaev, A. F. (2021). The Current State of Iris Hippolyti’s (Vved.) Kamelin Population in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6589-6597.
9. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of" Education for sustainable ecological

development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *10*(3), 144-149.

10. Nabieva, N. M. (2022). ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА МАРКЕТИНГ ТАДҚИҚОТЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, *2*(4), 59-74.

THE AMELIORATIVE STATE OF IRRIGATED LIGHT AND DARK BROWN SOILS IN THE PASTURE AND DESERT OF ZARAFSHAN OASIS

Kushakov Abduvali Jabborovich
Navoi State Pedagogical Institute Associate Professor of the Department of Biology
kushakovabduvali0@gmail.com
Abralov Olim Sobirovich
Teacher of biology department of Navoi State Pedagogical Institute

ABSTRACT

In the number of studies we investigated the rise of groundwater and the occurrence of salinization processes in the light and dark brown gypsum soils in the pasture and desert of Zarafshan oasis under the influence of various natural factors. In the research analysis, we determined the level of nutrient supply (elements) of soil and have developed a number of recommendations to prevent salinization processes, radically improve the reclamation of lands and increase soil fertility.

Keys words: *Amelioration, soil, geomorphology, salinity, humus, phosphorus, light and dark brown, pasture, pasture-desert, lithology, gypsum, agro technical, oasis, groundwater.*

АННОТАЦИЯ

Под влиянием различных природных факторов процессы засоления происходят в серо-буро-луговых гипсовых почвах предгорьях пустынных районов. В данной статье указывается необходимость предотвращения и изучения процессов засоления почв, для того чтобы улучшить мелиорацию земель, повысить плодородие почв и разработать методы их рационального использования.

Ключевые слова: *Мелиоративность, почва, геоморфология, засоленность почвы, гумус, фосфор, серо-буро-луговых, литология, гипс, агротехник, оазис, грунтовые воды.*

АННОТАЦИЯ

Тадқиқотларда Зарафшон ҳавзаси сур тусли қўнғир ўтлоқи ва чўл ўтлоқи гипслашган тупроқларда турли табиий омиллар таъсирида ер ости сувлари кўтарилиши ва тупроқларда шўрланиш жараёнларининг пайдо бўлиши ўрганилди. Тадқиқотлар таҳлилида тупроқларнинг озиқ элементлари билан

таъминланиш даражаси аниқланди. Тупроқлардаги шўрланиш жараёнларининг олдини олиш ва уларни тадқиқ этиш, ерларнинг мелиоратив ҳолатини тубдан яхшилаш, тупроқларнинг унумдорлигини ошириш бўйича, тавсиялар ишлаб чиқилди.

Калит сўзлар: *Мелиорация, тупроқ, геоморфология, шўрланиш, гумус, фосфор, сур тусли қўнғир, ўтлоқи, чўл-ўтлоқи, литология, гипс, агротехник, ҳавза, ер ости суви.*

INTRODUCTION

The area of saline soils in the irrigated lands of the Republic of Uzbekistan is 2 million 48 thousand hectares, 1 million 743.6 thousand hectares of which (72.1%) consists of saline soils of different levels. Particularly, in the total area of 96.8 hectares of irrigated agriculture in Navoi region, 62.4 thousand hectares (64.5%) of saline soils have been affected by various levels of salinization (The state of irrigated lands of the Republic of Uzbekistan and their improvement.- Tashkent: “University”, 2018) [1].

In the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 10, 2014 № PD-2125 “On improving the activities of the Agricultural Research and Production Center of Uzbekistan”, a number of issues such as rational use of land resources, research on irrigated lands, problem solution of existing challenges through science-based methods, improving soil fertility and its reclamation status, increasing the scope and quality of scientific research etc. are identified as top priorities [6]

Studies have shown that hot weather, evaporation of groundwater in alluvial, agro irrigational and lyoss rocks and the accumulation of easily soluble salts in the soil surface layers are one of the main reasons for the development of secondary salinization processes. Also, today in the composition of light and dark brown soil of the pasture and desert of Zarafshan oasis, the level of groundwater has approached the surface of the ground (1-3 m) under the influence of natural anthropogenic factors, and, as the result, their mineralization has exceeded to 3-5 g/l. and accumulated in the upper and middle parts of the soil profile, forming secondary salinization processes [3].

The results of the study will be important for the implementation of the State Land Cadastre and monitoring of land reclamation and fertility in the foothills of the desert.

The main purpose of the research is to develop some recommendations for improving the reclamation of irrigated lands, identification of salinization processes

and their causes, prevention of soil salinization on the basis of the analysis of soil samples obtained during the study.

RESEARCH CONDUCTED AREA AND IMPLEMENTATION METHODS.

The irrigated lands of Konimeh, the district of Navoi region, located in the desert zone of Zarafshan oasis were selected as the object of study.

In the research the salinity level of soil and groundwater was determined on the basis of the results of chemical analysis of groundwater and drainage water samples taken from irrigated soils. The research was carried out on the basis of the standard method adopted in the country [2,3].

RESEARCH RESULTS AND DISCUSSION.

The total irrigated area of Konimeh, located in Zarafshan oasis is 4827.0 hectares. According to its geographical location, it belongs to the arid continental climate region of Central Asia. The soils of irrigated lands are distributed in the geomorphological region of the foothills, consisting of alluvial and proluvial deposits of the subtropical desert and semi-desert zone, and they have been developed in different lithological, hydrogeological and soil-climatic conditions [3,4].

The climate in this territory is characterized by a sharp continental aridity, a decrease in air temperature, especially in hypsometric foothills, solar radiation, daily, monthly, annual and seasonal fluctuations in temperature, and uneven distribution of atmospheric precipitation throughout the year [3].

The region consists of wide undulating plains, and from a geomorphological point of view it descends to the south in the foothill plains formed by lyoss and alluvial-proluvial deposits of the Nurata mountain ranges. The area is located 400-550 m above the sea level [5].

The soils of this area mainly consist of irrigated light and dark brown desert-pasture soils. On the base of our observations we can say that the soil of this area is prone to wind and water erosion and salinization. Also the amount of humus and other nutrients is low, the level of groundwater is high and there is moderate mineralization of soils in the area.

The soil of this territory consists of light mechanical composition and the amount of physical clay fractions (<0.01mm) equals to 22–28%. The average amount of humus in the topsoil is 0.82-1.05%, the average amount of mobile phosphorus is 15.3-35.8 mg / kg and the exchangeable potassium is 157-249 mg / kg. These soils form a group of soils with low humus, low and moderate amounts of mobile

phosphorus, and low, sometimes moderately supplied soils in terms of exchangeable potassium.

According to the results of water absorption, the soils are sorted out into two groups: unsalted and weakly saline, so the total amount of water-soluble salts in weakly saline soils is 0.342-0.549% on average, and in moderately saline soils it is 1.224-1.865%. According to the chemistry behaviour of salinity, it consists of sulfate, and in some cases chloride-sulfate salinity types.

The role of groundwater in the process of soil formation is enormous and it has a multifaceted effect on the formation of saline soils. In the soil profile, groundwater is usually observed at different depths in the soils of the region, for example, in the upper parts of dry streams it reaches 5-6 m, in the middle it is usually at 3-4 m and in the lower parts it is observed at 2-3 m, and even 1-1.5 m. According to the data analysis of laboratory-analytical studies, they belong to the groups of weak (1-3 g/l) and moderate (3-10 g/l) mineralized groundwater according to their salinity. Gypsum layers appear 30, 50, 70, 100 cm in different depths, but some soil separations can be seen in the depth of 120 cm.

The total amount of easily soluble salts in the groundwater of district farms consists of 2,525-6,480 g/l, of which chloride ion comprises 0.161-0.780 g/l, and sulfates (SO_4) equal to 1.390-3.270 g/l (Table 1). According to salinity chemistry behaviour, the groundwater consists of chloride-sulfate and sulfate salinity types. Consistent with the chemical (qualitative) composition of salts, $Ca(HCO_3)_2$, Na_2SO_4, $MgSO_4$, $CaSO_4$ salts occupy the leading position in sulphate and some chloride-sulphate salinity types of water, while in water with relatively high chlorine ions (0.490-0.780 g/l). $MgCl_2$ and NaCl salts predominate in the water samples.

Table 1

Depth, mineralization and salinity chemistry of groundwater, ditches and irrigation water in the irrigated lands of Konimeh located in Zarafshan oasis

Sample №	Depth, cm	Salts (ions)				Salinization	
		Dry elements	HCO_3	Cl	SO_4	Level	Type
“Shurkul” massif							
18	120	4,440	0,244	0,280	2,386	on average	Ch-S
39	170	5,570	0,305	0,700	2,796	on average	Ch-S
77	170	3,640	0,366	0,420	1,958	on average	Ch-S

“Qaraq-ata”massif							
2	180	6,135	0,311	0,780	3,004	on average	Ch-S
“Choradara” massif							
8	80	6,480	0,500	0,378	3,270	on average	Ch
23	120	4,570	0,306	0,202	2,386	on average	Ch
33	160	4,780	0,324	0,266	2,406	on average	Ch
Kh. Olimjon massif							
12	130	1,335	0,372	0,105	0,564	weak	Ch-S
76	210	2,525	0,329	0,161	1,390	weak	Ch-S
80	170	2,785	0,439	0,210	1,485	weak	
90	200	3,085	0,256	0,238	1,765	on average	S
96	120	2,890	0,421	0,259	1,497	weak	Ch-S
Ditches[x)]							
47		2,525	0,329	0,161	1,390	weak	S
97		2,650	0,354	0,182	1,456	weak	S
33		4,050	0,274	0,140	2,020	on average	S
98		3,725	0,256	0,490	1,686	on average	Ch-S
Irrigation water[xx)]							
1[a]		2,905	0,144	0,560	1,128	weak	Ch-S
1[б]		4,115	0,488	0,870	1,428	on average	CH-S
1[в]		3,625	0,335	0,560	1,786	on average	Ch-S

Note: Ch-S - chloride-sulfate; S - sulfate. [x]) - Drainage water is taken from the indicated samples. [xx]) - Irrigation water was obtained from artesian wells in the Madaniyat (1[a]), Qaraq-ata (1[b]) and Konimeh (1[v]) massifs.

Relatively highly mineralized groundwater (4.440-6.480 g /l) is observed in the irrigated soils of Shurkul, Qaraq-ota and Chordara farms, while weakly mineralized (1-3 g/l) groundwater is observed in Kh. Olimjon farm lands.

As a result of dynamic changes of the hydrogeological conditions of the region throughout the year and irrigation-related measures, various levels of salinization processes have occurred in the area. There are 4,827.0 hectares of irrigated agricultural land in the region, including 392.7 hectares of non-saline soils which comprises 8.14% of irrigated land. Low-salinity area in the region comprises 2900.8 hectares which makes up 60.10% of the total area. Average saline area is 1470.9 hectares, which is 30.47% of the total area and strong saline area consists of 62.6 hectares (1.3%) (Figure 1). On the basis of this fact it can be claimed that the reclamation condition of the soil in this area is not so good, i.e. it needs thorough investigation, saline leaching processes and also systematic reclamation measures etc.



The areas of irrigated lands in Konimeh according to the degree of salinity (in percentage)

In summer, when groundwater evaporates through soil capillaries, the salts are retained in the upper layers and the surface of the ground, in autumn and winter, the salts in the upper layers melt under the influence of atmospheric precipitation and reach the lower layers that is the groundwater, as a result of the recurrence of seasonal evaporation over many years, the accumulation of salts increases in the upper layers of the soil. Also natural processes such as irrigation, reclamation and agro technics greatly influence in the course of such salinity genesis and salt migration.

According to the chemistry behavoiur the light and dark brown soils of pasture and desert of the studied area consist of chloride-sulphate and sulphate salinity types. On the whole, studies have shown that the condition of groundwater in the region's irrigated lands is seasonal. It was proved that with the end of the vegetation period all irrigated areas fall to 2.5-3.0 meters; however, during the vegetation irrigation period it is usually 1-2 meters.

CONCLUSION

The irrigated lands of Konimeh, a district in Zarafshan oasis consist of different levels of salinity, and the state of soil reclamation is more severe than in a number of other desert areas. There is a great demand to develop a number of measures to solve several problems in the area such as prevention of salinization process and increase of soil fertility to combat soil salinity in the main irrigated areas, reduce of groundwater levels, increase crop yields etc.

1) in order to prevent the rise of groundwater and secondary salinization processes in the area, we have to take into account the correct use of irrigation water, the determination of moderate use of irrigation water, soil and climatic conditions, crop type, growing season, depth of groundwater and other factors to determine irrigation times, number and norms of irrigation correctly;

2) we have to ensure the operation of the existing collector-drainage network system, and also change hydromorphic water regime (groundwater at 1.5-2.5 m), to semi-hydromorphic water regime (at 2.5-3.0 m), taking into account the forms of salinity accumulation in soils transfer; [6]

3) we have to keep the groundwater level below the “critical depth” (2.5-3.0 m);

4) it is expedient to strengthen research and various practical activities to determine the timing and norms of saline leaching, depending on the parent rock, its mechanical composition, gypsum and layer thickness, as well as the depth and the level of mineralization of saline soils of Zarafshan oasis.

REFERENCES

1. *O’zbekiston sug’oriladigan yerlarining meliorativ holati va ularni yaxshilash* (Reclamation of irrigated lands of Uzbekistan and their improvement) –Tashkent: “Universitet”, 2018. p 89.

2. *O’zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo’mitasi // Sug’riladigan yerlarda xaritalashtirish ishlarini utkazish, shurlangan tuproqlarni khisobga olish va shur yuvish me’yorlarini aniqlash buyicha uslubiy kursatmalar* (State Committee of the Republic of Uzbekistan for Land Resources, Geodesy, Cartography and State Cadastre // Guidelines for mapping of irrigated lands, accounting of saline soils and determination of standards for saline leaching).

3. O.K. Komilov, A.U. Akhmedov. *Tuproq shurlanganligi darajasini tuz zakhiralari miqdori buyicha aniqlash va bakholash klassifikatsiyasi* (Classification for determining and estimating the level of soil salinity by the amount of salt reserves)

Pochvi Khorezmskoy oblasti (Soils of Khorezm region) Book 1 and 2. – Tashkent: «IPA AN RUz» Publication House 1998. – p 108 – 103.

4. Kh.T. Artikova. *Pochvi Bukharskogo oazisa i izmeneniye pod vliyaniyem orosheniya* (Soils of Bukhara oasis and its change under the influence of irrigation) Abstract of dissertation of candidate of biological science – Tashkent: GosNIIPA, 2005. – p 25.

5. A.J. Kushakov. *Malikchul tog oldi tekisliklarining sugoriladigan sur tusli qungir tuproqlaridagi shurlanish jarayonlari va shakllari* (Processes and forms of salinization in irrigated light and dark brown soils of the Malikchol foothills). Abstract of dissertation of candidate of biological science – Tashkent: TAITDI, 2007. – p 28.

6. A.J. Kushakov. *Uzbekiston Respublikasi chul zonasi sur tusli qungir tuproqlarining shurlanish jarayonlari va shakllari* (Processes and forms of salinization of light and dark brown soils of the desert zone of the Republic of Uzbekistan) Monograph -Navoi: NSPI, 2017. – p 136.

7. Kushakov, A. (2022). NUROTA TOGVA TOGOLDI TEKSILIKLARI TUPROQLARINING QIYOSIY TAVSIFI. *Ozbekiston zamini*.

8. Shomurodov, H. F., Saribaeva, S. U., Abduraimov, O. S., Khayitov, R. S., & Sayfullaev, A. F. (2021). The Current State of Iris Hippolyti's (Vved.) Kamelin Population in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6589-6597.

9. Sayfullayev, A. (2020). MICROALGAE AND CYAN BACTERIA AS BIO FERTILIZERS. *SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT# 26*.

10. Sayfullayev, A. (2021). UZLUKSIZ TALIM VOSITASIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH TEXNOLOGIYASI. *Uzluksiz talim*.

11. Altievich, K. S., Khudargonovich, Y. M., Farhod ogli, S. A., & Komiljonovna, U. G. (2022). ADVANTAGES OF PREPARATION AND USE OF BIOFERTILIZERS FROM BIOMASS OF HIGHER AQUATIC PLANTS. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, *8*(1), 21-25.

12. Shamsidinova, G. D., Sayfullaev, A. F., Achilova, N. R., & Baratov, U. D. (2021). Prospects for the development of" Education for sustainable ecological development" on the basis of the declaration of Uzbekistan. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *10*(3), 144-149.

13. Хужжиев, С. (2022). ФИТОРЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЁННЫХ ТЯЖЁЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ. *ЭКОЛОГИЯ (БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ)*.

ҒЎЗА ДУРАГАЙЛАРИДА ТУКЛАНИШ ТИПИ БЕЛГИСИНИНГ ИРСИЯТГА УЗАТИЛИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Умарова Жумагул Қўзиевна
Навоий давлат педагогика институти
“Биология” кафедраси доценти, биология фанлари номзоди
e-mail: Jumagul2464@navdpi.uz1

АННОТАЦИЯ

Ғўзанинг турлараро дурагайларидан ҳамда G.hirsutum L. турига мансуб тизмаларда авлодларда зараркунандаларга бардошлиликни таъминловчи ғўза баргидаги тукланиш типи белгисининг генетик таҳлили ёритилган.

Калит сўзлар: *G.tomentosum Nutt. ex Seem. ва G.hirsutum L., дурагайлаш, тукланиш типи, “оддий” ва “бурама” типлар.*

АННОТАЦИЯ

Освещен генетический анализ маркера типа ворса листьев хлопчатника, обеспечивающего устойчивость к вредителям в поколениях от межвидовых гибридов хлопчатника и линий, относящихся к виду G. hirsutum L.

Ключевые слова: *G. tomentosum Nutt. экс кажется. и G. hirsutum L., гибридизация, опушенный тип, «простой» и «скрученный» типы.*

ABSTRACT

The genetic analysis of a marker of the cotton leaf pile type, which provides resistance to pests in generations from interspecific hybrids of cotton and lines belonging to the species G. hirsutum L., is highlighted.

Keywords: *G. tomentosum Nutt. ex it seems. and G. hirsutum L., hybridization, hairy type, "simple" and "twisted" types.*

КИРИШ

Амалий селекция учун миқдорий белгиларнинг ирсийланиш даражасини ўрганиш алоҳида аҳамият касб этади. Айниқса генларнинг ўзаро таъсири ва ташқи муҳит таъсирида миқдорий белгиларнинг фенотипик кўринишини аниқлаш муҳимдир.

Маълумки, пахта етиштиришдан олинадиган самарадорликни оширишнинг энг асосий омилларидан бири - пахта майдонларига хўжалик жиҳатдан қимматли хусусиятларга эга бўлган навларни экишдир. Бундай

хусусиятлар, жумладан ҳосилдорлик, тезпишарлик, бир дона кўсак вазни, тола чиқими, тола сифати, ҳар хил касаллик ва зараркунандаларга чидамлилик экиладиган навнинг асосий кўрсаткичларидир.

Селекция фанининг бугунги кунгача эришган ютуғи шундан иборатки, ҳозирги кунда экилаётган ғўза навларини бундан 30-40 йил олдинги навлар билан қиёслаб бўлмайди. Бироқ селекция жараёни узлуксиз бўлиб, ғўза навларига бўлган талаб йилдан-йилга ошиб бораётганлиги муносабати билан селекционер олимлар олдига ҳам янгидан-янги вазифалар қўйилмоқда. Хўжалик белгилари бўйича мавжуд навлардан устун бўлган, ҳар хил касаллик ва зараркунандалар ҳамда экстремал шароитлар - қурғоқчилик, шўрга чидамли навларни етиштириш шу жумладандир. Бундай белгилар ғўзанинг турли тур ва шаклларида мавжуд бўлиб, уларни маълум бир навда жамлаш, кучайтириш ва унинг барқарорлашувига эришиш бугунги кун селекция ишида ўзига хос бир йўналишни белгилаб беради.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Гавайя оролларида ўсувчи ёввойи полиплоид тури *G.tomentosum Nutt. ex Seem.* ва *G.hirsutum L*. турига мансуб тизмалар ўртасида дурагайлаш ўтказилиб олинган турлараро дурагайларидан якка танлов натижасида ажратиб олинган тизмалар ҳамда *G.hirsutum L.* турига мансуб Л-001 анализатор тизма орқали дурагайлаш ишларини олиб борилиб, авлодларда зараркунандаларга бардошлиликни таъминловчи айрим морфологик белгилар, яъни дурагайлар баргида тукланиш типининг ирсийланиш табиатини ўрганиш, уларнинг ўзгарувчанлигини генетик таҳлил қилишдан иборат.

Адабиётларда келтирилишича, ғўзанинг зараркунандаларга нисбатан чидамлилиги асосан унинг анатомик хусусиятларига боғлиқдир. Сўрувчи зараркунандалардан ўргимчаккана, трипс, жизилдоқларга чидамлилиги барг пластинкасининг ҳар хил даражада тукланиш характерига қараб бўлади. Сўрувчи ҳашаротларга чидамли барча формалар тук билан қопланган бўлади, бироқ ҳамма тукли формалар ҳам зараркунандаларга чидамли бўлавермайди. Бунда тукчаларнинг узунлиги, зичлиги ҳамда барг пластинкасининг қалинлиги аҳамиятга эга. Барглари туксиз ва силлиқ бўлган навлар одатда кўп зарарланади. Америкалик олимларнинг кўрсатишича, жизилдоқларга чидамлилик барглар томирининг тук билан қопланишига боғлиқ бўлиб, у иккита ген билан тартибланади. Бу иккала доминант тукланиш генини ташувчи ёввойи ғўза G. tomentosum бўлиб, у бўғинларда баргнинг духобага ўхшаш зич тукланишини таъмин этади. Эски дунё диплоид ғўзаси, масалан, anomalum баргларнинг тукланишини ва зараркунандаларга чидамлиликни тамъин этувчи яхши манба

ҳисобланади. Тукланиш бир нечта доминант ген билан тартибланади. Маълум бўлишича, қизил баргли формаларда тукланишнинг ҳар иккала гени бўлиб, бу белгилар ўзаро боғлангандир.

G.H.Saundersнинг қайд этишича, ғўза ўсимлиги органларининг тукланганлик белгиси туксизлик гени аллелларига нисбатан доминант ёки эпистатик ирсийланиш табиатига эга.

Х.Сайдалиев ва М.Халиковалар томонидан *G.tomentosum ва G.hirsutum* турларини дурагайлаб олинган манбалар ичидан ўсимликнинг барглари ва тана қисмидаги туклари ўзига хос шаклда бўлган тизмалар ажратиб олинган, аммо бу тукланиш типининг генетик назорати, ирсиятга узатилиши тўғрисида адабиётларда бирор бир далил келтирилмаган.

Демак, юқорида келтирилган тадқиқотчилар томонидан мазкур белгининг ирсийланиш табиати яхши ўрганилмаган.

Ғўзанинг Гавайя оролларида ўсувчи ёввойи полиплоид тури *G.tomentosum Nutt. ex Seem.* ва *G.hirsutum L.* турига мансуб тизмалар ўртасида дурагайлаш ўтказиб олинган турлараро дурагайлардан якка танлов натижасида ажратиб олинган тизмалар ҳамда *G.hirsutum L.* турига мансуб тизма ўртасида дурагайлаш ишларини олиб бориб, авлодларда зараркунандаларга бардошлиликни таъминловчи морфологик белгилардан бири бўлган барг пластинкасидаги тукланиш типининг ирсийланиш табиати ўрганилди ва генетик таҳлил қилинди.

Биз тажрибаларимизда ёввойи полиплоид тур *G.tomentosum Nutt. ex Seem.* турига хос бўлган тукланиш типининг ирсийланиш табиатини ўрганишни мақсад қилган ҳолда олинган бошланғич ота-она шакллар ва дурагайларда барг пластинкасининг 1мм^2 сатҳидаги туклар сони ва тукланиш типини аниқладик.

Бошланғич тизмалар ва биринчи авлод дурагайларида барг пластинкасидаги туклар сони ва тукланиш типи ўсимликларнинг шоналаш-гуллаш даврида ҳар бир дурагай комбинация бўйича барча ўсимликларда якка тартибда аниқланди.

Ўрганилган ота-она шаклларни тукланиш типи бўйича икки фенотипик синф (“оддий” ва “бурама”) га ажратиш мумкин бўлди. Олинган далилларга қараганда барг сатҳидаги тукланиш типи бўйича фақат бир тизма Л-001 “оддий” тукланиш типида бўлиб, бу белгини шартли равишда гомозигот деб белгиладик. Бошқа тизмалар Т-5/8, Т-21/24, Т-25/27 ва Т-26 даги тукланиш типи бўйича иккинчи альтернатив фенотипини “бурама” типда деб белгиладик.

F_1 ўсимликларида барг сатҳидаги тукланиш типи “бурама” типда бўлиб, бу тип дурагайлашни йўналишидан қатъий назар фенотип бўйича тўлиқ

устунлик қилганидан ва бу ген ядро хромосомасида жойлашганидан далолат бераётганлиги кузатилди.

Олиб борилган илмий тажрибалар асосида дурагай ўсимликларнинг F_2 авлодида қуйидаги натижалар олинди. Дурагай ўсимликларни F_2 авлодида ҳамма ўрганилган комбинацияларимизда тукланиш типи бўйича икки фенотипик синфга ажратиш мумкин бўлди:

1. “Бурама” тип;
2. “Оддий” тип.

F_1 ўсимликларини ўз-ўзига чанглатиш натижасида олинган “Бурама” х “Оддий” фенотипик гуруҳлар F_2 дурагай комбинацияларида 3:1 нисбатда ажралиш берди.

1-жадвал

F_2 ўсимликларида “Бурама” ва “оддий” тизмаларни барг пластинкасидаги тукланиш типининг ирсийланиши

	Ота-она шакл ва F_2	n	Бурама	Оддий	Назарий кутилган нисбатлар
1.	F_2Л-001 х Т-5/8	125	98	27	3:1
2.	F_B(Л-001 х Т-5/8)хЛ-001	80	49	31	1:1
3.	F_2Л-001 х Т-21/24	116	80	36	3:1
4.	F_B(Л-001 х Т-21/24)хЛ-001	74	28	46	1:1
5.	F_2Л-001 х Т-25/27	118	91	27	3:1
6.	F_B(Л-001 х Т-25/27)хЛ-001	95	44	51	1:1
7.	F_2Л-001 х Т-26	120	89	31	3 :1
8.	F_B(Л-001 х Т-26)хЛ-001	62	25	37	1:1
9.	F_2Т-5/8 х Л-001	111	85	26	3:1
10.	F_B (Т-5/8 х Л-001)хЛ-001	67	38	29	1:1
11.	F2Т-21/24 х Л-001	118	90	28	3 :1
12.	FВ(Т-21/24х Л-001)хЛ-001	71	30	41	1:1
13.	F2Т-25/27 х Л-001	110	81	29	3 :1
14.	FВ(Т-25/27х Л-001)хЛ-001	68	29	39	1:1
15.	F2Т-26 х Л-001	133	101	32	3 :1
16.	FВ(Т-26 х Л-001)хЛ-001	80	43	37	1:1

Жадвал далилларига диққатни қаратсак, бу фенотипик гуруҳлар ота-она шакллар белги бўйича бир генни аллел ҳолатлари билан фарқланишидан

далолат бериб, тажрибадан олинган далиллар кузатиладиган 3:1 назарий нисбатга жуда ҳам мос келганидан далолат бермоқда.

Бу фикримизни F_1 дурагай ўсимликлари билан Л-001 тизма қайта дурагайлаб олинган, яъни беккросс дурагайлари исботлаб, олинган натижалар 1:1 нисбатга яқинлиги яна ҳам фикримизни ойдинлаштирди. Ўрганилган дурагай комбинацияларда ота-она шакллар ҳақиқатдан моноген фарқланиши ва F_1 ўсимликлар моногетерозиготлигини исботлай олди.

“Бурама” х “Бурама” иккинчи авлод ўсимликларида Т-5/8, Т-21/24, Т-25/27 ва Т-26 тизмаларни дурагай коминацияларида асосан бурама фенотип, айрим комбинацияларда эса оддий тукланиш учради. Яъни ушбу дурагайларнинг бир қисмида белги бўйича ажралиш кузатилмади. Бу эса ушбу тизмаларда Т-5/8, Т-21/24, Т-25/27 белгини таъмин этувчи геннинг бир серияга мансублигини ва гомозигота ҳолатдалигини кўрсатади.

F_2 ўсимликлари ичидан “Бурама” х “Бурама” дурагай комбинацияларни айримларида оз миқдорда барг сатҳидаги тукланиш типи рецессив- “оддий” тукланиш типига оид ўсимликлар аниқланди. Бу комбинация ўсимликларини 15:1 қисми “оддий” тукланишда бўлиб, қолган 15/16 қисми “бурама” типдаги фенотипга хос ўсимликлар эди.

F_2 да ажралиш берган “Бурама” х “Бурама” дурагай комбинацияларда иштирок этган тизмалар - Т-26, Т-5/8, Т-21/24, Т-25/27 барг сатҳидаги тукланиш типини назорат қилувчи генларнинг ҳар хил аллел бўлмаган ҳолатлари билан фарқланганликлари туфайли улар иштирокида олинган F_1 ўсимликлари белгини назорат қилувчи генларнинг H_A ва H_D локуслари бўйича фарқланиши ушбу ўсимликлар дигетерозигот $H_A h_A$ $H_D h_D$ бўлганлиги учун F_2 да белги бўйича 15 “бурама”, 1 “оддий” типга ажралиш кўрсата олишга популяцияни имкони бўлган.

2-жадвал

F_2 ўсимликларида “Бурама” ва “бурама” тизмаларни барг пластинкасидаги тукланиш типининг ирсийланиши

	Ота-она шакл ва F_2	n	Бурама	Оддий	Назарий кутилган нисбатлар
1.	Т-5/8 х Т-21/24	145	145	-	-
2.	Т-26 хТ-5/8	134	134	-	-
3.	Т-5/8 х Т-25/27	131	131	-	-
4.	Т-25/27 х Т-5/8	152	152	-	-
5.	Т-5/8 х Т-26	124	114	10	15:1
6.	Т-26 х Т-5/8	119	110	9	15:1

7.	T-21/24 x T-25/27	121	121	-	-
8.	T-25/27 x T-21/24	128	128	-	-
9.	T-21/24 x T-26	115	106	9	15:1
10.	T-26 x T-21/24	158	147	11	15:1
11.	T-25/27 x T-26	136	126	10	15:1
12.	T-26 x T-25/27	122	113	9	15:1

F_1 ва F_2 ўсимликлар учун уларнинг генотип ва фенотипларини қуйидагича ёзиш мумкин:

P T-5/8, T-21/24, T-25/27 (бурама) x T-26 (бурама)

$H^S_A H^S_A h^s_D h^s_D$ x $h^s_A h^s_A H^S_D H^S_D$

F_1 $H^S_A h^s_A H^s_D h^s_D$ - бурама

	Генотипик синф	фенотип	фенотипик синф
F_2	1. $H^S_A H^S_A H^S_D H^S_D$ - 1	бурама 1	
	2. $H^S_A H^S_A H^S_D h^s_D$ - 2	бурама 2	
	3. $H^S_A h^s_A H^S_D H^S_D$ - 2	бурама 2	
	4. $H^S_A h^s_A H^S_D h^s_D$ - 4	бурама 4	15 бурама
	5. $H^S_A H^S_A h^s_D h^s_D$ - 1	бурама 1	
	6. $H^S_A h^s_A h^s_D h^s_D$ - 2	бурама 2	
	7. $h^s_A h^s_A H^S_D H^S_D$ - 1	бурама 1	
	8. $h^s_A h^s_A H^S_D h^s_D$ - 2	бурама 2	
	9. $h^s_A h^s_A h^s_D h^s_D$ - 1	оддий 1	1 оддий

ХУЛОСА

Тукланишнинг “бурама” типи геннинг гетерозигота ҳамда доминант гомозигота ҳолатида намоён бўлади. Белги бўйича оралиқ ирсийланиш кузатилмади.

F_2 ўсимликларни моно ёки дигетерозигота бўлишларига қараб ажралиш 3:1 ёки 15:1 нисбатдаги фенотипда, генотиплари бўйича 1:2:1 ҳамда 1:2 : 2: 4: 1: 2: 1: 2:1 кузатилди. Шу билан бир қаторда “Бурама” х “Бурама” комбинацияларда ҳам F_1 ўсимликлар барг сатҳидаги туклари “Бурама” фенотипда бўлганлиги, F_2 да эса айрим комбинацияларда ҳамма ўсимликларда бурама тип, айримларида эса ажралиш кузатилиб ўсимликларни икки фенотипик груҳга бурама ва оддий типда бўлиб “Бурама” х “Оддий” F_2 да 3:1 нисбатдан ўлароқ 15:1 нисбатда ажралиш кузатилиши ўз исботини топиб, тизмаларда тук типини таъминловчи генларнинг доминант аллеллари билан фарқланишини кўрсатди.

Юқорида таҳлил қилинган тукланишнинг “бурама-оддий” тукли типи фенотипда намоён бўлганига шоҳид бўлдик ва бу фенотипик хилма-хиллик икки аллел бўлмаган генни ҳолатлари билан аниқланиши ўз исботини топди. Бу фенотиплар белгини сифат даражасидаги генетик таҳлилидир.

REFERENCES

1. Abzalov M.F. Genetic basis of evalution of some cotton (G.hirsutum L.) morphological traits. //J. Cotton science. –China, 2001. –V.13. №3. PP.177-182.
2. Абзалов М.Ф. Gossypium hirsutum L. ғўзада генларнинг ўзаро таъсири.- Тошкент: Фан, 2010. -141 б.
3. Ruhsora, R., & Muhabbat, R. (2021). The nature of inheritance of the colored cotton fiber trait. *JournalNX*, *7*(05), 229-232.
4. Рахмонова, Р. Б., Бахриддинова, Г. О. Формирование структуры хлопкового волокна. Academic research in educational sciences, (2021). 2(7), 72-80.
5. Rukhsora, R., & Mukhabbat, R. (2022). Ways To Activate The Cognitive Activity Of Students In The Process Of Teaching" Genetics" Using The Case Method. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, *8*, 64-67.
6. Сайдалиев Х., Халикова М.Б. Устойчивость к сосущим вредителям беккросс гибридов с участием *G.tomentosum*. //Агромеридиан. –Алматы, 2006. -1(2). -С.49-53.
7. Сайдалиев Х., Халикова М.Б., Умарова Ж.К. *G.tomentosum Nutt. ex Seem.* – эндемичный вид рода Gossypium L. в Гавайских островах. //Ўзбекистон биология журнали. -2007. -№6. –Б.10-13.
8. Халикова М.Б. Ғўза барги хусусиятларининг ўргимчаккана билан зарарланишга таъсири. //Ўзбекистон аграр фани хабарномаси. Тошкент, 2005. -№5 (19). –Б.31-33.
9. Умарова Ж.Қ. G.tomentosum nutt. ex seem ishtirokidagi g‘o‘za duragaylarida ba’zi morfoxo‘jalik belgilarning ko‘rsatkichlari. Монография. 2019 й.
10. SHODIYEVA, O., & RAXMONOVA, R. (2021). Variability levels of morpho-economic traits of genotypes of upland cotton in different climatic conditions. *Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology*, 65-73.

KAMALAK GULBALIQ – (*ONCORHYNCHUS MYKISS*)NING AKVAKULTURA OB'YEKTI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

Ummatova Muxayyo Egamberdiyevna
Navoiy davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasi dotsenti, b.f.f.d.(PhD)
Yusupov Doston Faxridin o`g`li
Navoiy davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasi o`qituvchisi
Umarov Husan Laziz o'g'li
Navoiy davlat pedagogika instituti Biologiya ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Kamalak gulbaliq – (Oncorhynchus mykiss) – qadimgi lososssimon baliqlarning vakili bo'lib global akvakulturaning muhim ob'ekti hisoblanadi. Forel tanasi va suzgichlari mayda rangli dog`lar bilan qoplangan. Gulmoyi urchish davrida urg`ochisi tanasining yon tomoni kumushrang, qorin tomoni to`q qo`ng`ir rangda bo`ladi. Forel balig`i yashaydigan havzalar kislarod bilan to`yingan bo`lishi talab qilinadi. Forel balig`i dunyodagi sovuq suvli baliqchilikning asosiy obyekti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *forel, suv ombori, ko'l, chavoq, tabiiy ozuqa, akvakultura, ikra, lichinka, zooplankton, sanoat baliqchiligi, chuchuk suv baliqchiligi*

ХАРАКТЕРИСТИКА ONCORHYNCHUS MYKISS КАК ОБЪЕКТА АКВАКУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ

Радужная форель - (Oncorhynchus mykiss) - представитель древних лососевых рыб и является важным объектом мировой аквакультуры. Тело и плавники форели покрыты мелкими цветными пятнами. В период размножения бок тела самки серебристый, а брюшко темно-коричневое. Требуется, чтобы пруды, где обитает форель, были насыщены кислородом. Форель – основной объект холодноводной рыбалки в мире.

Ключевые слова: *форель, водохранилище, озеро, натуральные корма, аквакультура, лосось, личинки, зоопланктон, промышленный лов, пресноводный лов.*

CHARACTERISTICS OF ONCORHYNCHUS MYKISS AS AQUACULTURAL OBJECT

ABSTRACT

Rainbow trout - (Oncorhynchus mykiss) - is a representative of ancient salmon fish and is an important object of world aquaculture. The body and fins of the trout are covered with small colored spots. During the breeding season, the side of the body of the female is silver, and the abdomen is dark brown. It is required that the ponds where trout live are saturated with oxygen. Trout is the main object of cold-water fishing in the world.

Keywords: *trout, reservoir, lake, natural food, aquaculture, salmon, larvae, zooplankton, industrial fishing, freshwater fishing*

KIRISH

Baliq inson hayotida muhim ahamiyatga ega ozuqa turlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon baliqchilik sanoatida baliqning barcha qismlari – go'shti, yog'i, uvildirig'i(ikrasi), terisi, tangachalari, hattoki suyaklari ham ishlatiladi. Iste'molcholarga toza baliq muzlatilgan, konservalangan, tuzlangan, tuzlangan, dudlangan shaklda yetkazib berilmoqda. Baliq go'shtining 1 kgida 1200 – 1400 kkal energiya mavjud.

Hozirda dunyo baliqchiligining rivojlanishiga nazar soladigan bo'lsak, baliqchilik asosan ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Birinchisi bu – tabiiy suv havzalaridan (okean, dengiz, ko'l, daryo va boshqalar) baliq ovlash bo'lsa, ikkinchisi akvakultura, ya'ni nazorat qilinadigan sharoitlarda baliq yetishtirishdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Kamalak gulbaliq – (*Oncorhynchus mykiss*) – qadimgi lososimon baliqlarning vakili bo'lib global akvakulturaning muhim ob'ekti hisoblanadi va ushbu turning moslashuvchanlik potenцiali ularni chuchuk suvlarda sanoat usulida yetishtirish imkoniyatini beradi bu esa suv zahiralari juda kam bo'lgan kontinental iqlimli O'zbekiston uchun juda muhimdir. Bu tur sovuq suv ob'ekti, O'zbekiston esa iliq suv baliqchiligi hududida joylashgan, Orol dengizi havzasida baland tog' tizmalarining mavjudligi respublikaning bir qismida bu turni etishtirish imkonini beradi. Respublikamiz mazkur tur arealiga kirmaganligi tufayli uni introduktsiya qilish va mahalliy sharoitga moslashish xususiyatlarini o'rganish juda muhim. Mahalliy sharoitda sanoat usulida etishtirish texnologiyasini rivojlantirish uchun ob'ektning respublikamiz tog' oldi va tog' hududlari sharoitida turning moslashuvchanlik xususiyatlari to'g'risidagi tizimli ma'lumotlar zarur.

Lososimonlarni orqa yuzasida 17 tagacha nurlari bo`ladi. Lososlar uzun tanasining orqa tomonida va dum suzgich qanotlari orasida teridan iborat skeletsiz yog` suzgich qanotlari yoki yog` suzgichi deb ataluvchi yumshoq teri qatlamining

bo`lishi bilan xarakterlanadi. Bosh skeleti va o`q skeleti suyakdan iborat. Forel tanasi va suzgichlari mayda rangli dog`lar bilan qoplangan.

Forel-Gulmoyini 2 ta kenja: Ko`l gulmoyisi va Daryo gulmoyisi kabi turlari farq qilinadi. Ko`l gulmoyisi Rossiyaning shimoli-sharqida,Finlandiya, Shvetsiya, Norvegiya hamda Kaspiy va Qora dengiz havzalaridagi ko`llarda tarqalgan. Og`irligi 8-10kg gacha bo`ladi. Ko`l gulmoyisi daryoga o`tib uvildiriq tashlaydi. Tuxumdan chiqqan chavoqlarining bir qismi ko`lga o`tadi, qolgan qismi daryoda qolib daryo aylanadi. Daryo gulmoyisi ancha mayda, og`irligi 200-250g, bazan 2kg gacha bo`ladi. Tanasi rangdor, orqasi qora, qorni pq yoki sarg`ish-tillarang bo`ladi, tanasi-suzgichlari qora, qizil vz alvon rangli dog`lar bilan qoplangan. Daryo gulmoyisi Yevropa va Osiyoda, jumladan Sirdaryo, Amudaryo va boshqa daryolarning yuqori oqimida ko`p uchraydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gulmoyi urchish davrida urg`ochisi tanasining yon tomoni kumushrang, qorin tomoni to`q qo`ng`ir rangda bo`ladi; erkagining yon tomonida alvon rang chiziq ko`zga tashlanadi, terisidagi dog`lari guldor bo`lib qoladi, orqa suxgichi qorayib qorin suzgichi qizg`ish yoki alvon tusga kiradi. Urg`ochi baliqlarda jinsiy yetuklik 3-4 yoshligida boshlanadi. erkak baliqlar urg`ochi baliqlardan bir yil oldin balog`atga yetadi. Urug` sochish davri mart oyidan oyidan to may oyigacha davom etadi. Urg`ochisida tuxum yullari yaxshi rivojlanmagan, yetilgan uvildiriqlari tana bo`shlig`iga tushadi. Urg`ochi baliq 500 dan 2500 tagacha urug` sochadi. Urug`i yirik, diametri 4-6,5mm. Urug`inig rivojlanish davri 1,5-2 oy davom etadi. Urug`ining rivojlanishi uchun zarur harorat +6 +12 daraja, uvildiriq va mayda baliqchalarni parvarish qilish uchun +14 +16 daraja, katta, tovar baliqlarni yetishtirish uchun +14 +18 daraja issiq bo`lishi talab qilinadi.

Baliq chavoqlari uchun tirik zooplankton, qaynatilgan tuxum sarig`i elakdan o`tkazilib beriladi. Mayda baliqchalar uchun pastasimon yem ozuqalari ham taklif qilinadi. Uning tarkibida quyidagilar mavjud: taloq-85%, go`sht-suyak uni, baliq go`shti uni-14%,baliq yog`i-1%. Chavoq va mayda baliqlarni iloji boricha har 30-60 daqiqada, bir sutkada 12 soat davomida oziqlantirib turish kerak. Mayda baliqlarni oziqlanishi asosan suv haroratiga bog`liq. Harorat +20 +22 darajadan yuqori bo`lganda oziqlanishni to`xtadi. baliq qanchalik tez kattalashadigan bo`lsa, sutkalik ozuqa normasi shuncha ko`paytiriladi. Shuning uchun har 10 kunda nazorat ishlari olib borilishi kerak.

Forel balig`i yashaydigan havzalar kislarod bilan to`yingan bo`lishi talab qilinadi. Forel suvda erigan kislarod bilan 90-100% ga to`yinganda, ya`ni tarkibida 7-8 mg/l bo`lganda o`zini yaxshi his qiladi. Aralashgan kislorod 3,5-6mg/l bo`lganda

o`zini yomon his qiladi. Suvda erigan kislorod miqdori 1,5mg/l bo`lganda hobud bo`ladi. Muhitning faol reaksiyasi(pH) neytralga yaqin bo`lishi, meyori(6,5-8)dan chiqib ketmasligi kerak. Forel balig`i yuqori yorqin quyoshni hush ko`rmaydi, imkoni boricha soyaga, toshlar va ildizlar ostiga yashirinadi, chuqur joylarni hush ko`radi. Biz forel balig`ini yetishtirish jarayonida bularni asosiy inobatga olishimiz kerak.

Forel balig`ini yetishtirishning o`ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Uni hamma yerda ham ko`paytirib bo`lmaydi. Chunki u salqin sevu vchi baliq hisoblanadi. Forel +25 darajagacha bo`lgan suv havzalarida yashay oladi. Norin daryosi suvining yillik mo`tadil 10-12 daraja orasida bo`lishini hisobga olsak, bu qaliq yetishtirish uchun juda qulay va tejamkordir.

Forel balig`ini yetishtirish bosqichlari:

Dastlab uvildiriqlar maxsus laboratoriyalardagi inkubatsiya sexida 2-2,5 oy davomida lichinka holatiga kelgunicha boqiladi. Undan keyin 1-2sm li baliqchalar quyosh nuri tushmaydigan maxsus qorong`u suv havzalarida 3-4 oy mobaynida 8-10sm ga yetgunga qadar saqlanadi. 8-10 sm ga yetgach, ular ochiq suv havzalariga qo`yib yuboriladi. Daryodan kirib kelgan suv, eng avvalo maxsus suv havzasida tindiriladi. Undan so`ng baliqlar baseynlarga oqib tushadi. Forel tez katta bo`ladigan baliqlardan biri bo`lganligi uchun, u 1-1,5 yilda istemol uchun tayyor bo`ladi.

XULOSA

Forel tez moslashuvchanligi, ozuqani faol istemol qilishi, tez o`sishi tufayli, shuningdek forel balig`i go`shtining mazali tamga egaligi bilan ajralib turadi. Forel balig`i dunyodagi sovuq suvli baliqchilikning asosiy obyekti hisoblanadi.

Baliq istemol qilishning minimal miqdori bir yilda bir kishi uchun 12 kg ni tashkil etadi. Respublikadagi 36 milliondan ziyot aholining baliq istemol qilish meyori yiliga 433ming tonnani tashkil etadi.

Barcha baliqlar shu jumladan, forel balig`i inson organizmini tozalovchi, suyak va tishlarni mustahkamlovchi shifobaxsh taom sifatida qadimdan istemol qilinadi. Baliq go`shti tarkibida juda ko`p vitamin va mikroelementlar saqlanishi tufayli biologik qiymati ham mol va qo`y go`shtidan yuqori turadi. Baliq go`shtining 100 gramida inson salomatligi uchun kerak bo`ladigan bir kunlik - 0,2mg yod saqlanadi. Baliq o`zida juda ko`p foydali moddalarni oqsil, vitaminlar, minerallar, ayniqsa, temir,yod, magniy, fosfor, ruhni saqlaydi va organizmni semirtirmagan holatda unga kerakli quvvatni bera oladi.

Baliq moyi ham inson organizmi uchun katta ahamiyatga ega. Baliq moyi tarkibidagi D vitamini organizmda kalsiy fosfor almashinuvini taminlaydi, “Raxit” kasalligini, suyaklarni deformatsiyaga uchrashini, tetaniyani oldini oladi. Baliq moyidagi retinol yiringlagan yarani davolaydi.

Baliq – allergik xastaliklari bor insonlarga, qonda kalsiy miqdori yuqori bo`lgan insonlarga, buyragi tez-tez og`riydigan bemorlarga, o`pka sili bilan og`rigan bemorlarga tavsiya etilmaydi.

REFERENCES

1. Laxanov J.L. “Umurtqalilar zoologiyasi”. T.: «O’AJBNT» markazi 2005 y.
2. S.Q.Husenov, D.S.Niyozov, G’M.Sayfullayev “Baliqchilik asoslari” “Buxoro” nashriyoti 2010y
3. Власов В.А. Рыбоводство, учебное пособие Санкт-Петербург, изд.Лань. – 2012. – С.234-236с.
4. Мирошникова, Е.П. Основы аквакультуры: учебное пособие - Оренбург: ОГУ, 2010.– С.127-128.
5. Khalimova, N. T., Kanatbaeva, T. S., Ummatova, M. E., Yuldashov, M. A., & Kamilov, B. G. (2023, March). Morphological characteristics of carp (Carassius Gibelio) in the conditions of pond fish farming in Uzbekistan. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1142, No. 1, p. 012072). IOP Publishing.
6. Egamberdiyevna, U. M. (2022). KARP (CYPRINUS CARPIO L.) BALIG’INING AKVAKULTURA OB’EKTI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, *1*(D2), 113-118.
7. Kanatbayeva, T. S. (2022). DEVELOPMENT OF PROPERTY FEATURES OF PISCES IN TUDAKUL WATER RESERVOIR. Eurasian Journal of Academic Research, 2(3), 124-127.
8. Shomurodov, H. F., Saribaeva, S. U., Abduraimov, O. S., Khayitov, R. S., & Sayfullaev, A. F. (2021). The Current State of Iris Hippolyti’s (Vved.) Kamelin Population in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6589-6597.
9. Хужжиев, С. (2022). ФИТОРЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЁННЫХ ТЯЖЁЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ. *ЭКОЛОГИЯ (БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ)*.
10. www.ZiyoNET.uz

НАСЛЕДОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕННЫХ КАЧЕСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ ХЛОПЧАТНИКА

Умарова Ж.К.
Доц. (НавДПИ),
Рахмонова Р.Б.
(НавДПИ)

АННОТАЦИЯ

Мақолада ғуза ўсимлигида тола рангининг ирсийланиши, ғўзанинг сўрувчи зараркунадаларга чидамлилиги кўриб чиқилади. G.tomentosum и G.hirsutum. турлар гибридларида поя ва баргларинг тукланиш типларининг генетик назорати келтирилган.

8. SOBIROV, M., & Yuldashev, N. K. (1984). THEORY OF TRANSFER OF POLARIZED RADIATION IN CUBIC-CRYSTALS LOCATED IN A LONGITUDINAL MAGNETIC-FIELD IN THE REGION OF EXCITON RESONANCE. *ZHURNAL EKSPERIMENTALNOI I TEORETICHESKOI FIZIKI*, *87*(2), 677-690.
9. Ахмедов, Б. Б. (2020). МЕТОД КР-ВОЗМУЩЕНИЙ С УЧЕТОМ ВЫРОЖДЕНИЯ. In *Наука и современное общество: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 21-25).
10. Akhmedov, B., Rozikov, J., Muminov, I., & Ruziboev, V. (2018). ABOUT WAVEFUNCTIONS IN LOW-DIMENSIONAL SEMICONDUCTORS. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, *3*(4), 51-57.

11. Полвонов, Б. З., Насиров, М., Мирзаев, В., & Разиков, Ж. (2019). Диагностика полупроводниковых материалов методом поляритонной люминесценции. In *General question of world science* (pp. 39-42).
12. Akhmedov, B. B., Rozikov, J. Y., & Muminov, I. A. MATERIAL'S ELECTRONIC STRUCTURE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, *78*.
13. Rozikov, J., Akhmedov, B., Muminov, I., & Ruziboev, V. (2019). DIMENSIONALLY QUANTIZED SEMICONDUCTOR STRUCTURES. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(6), 58-63.
14. РАСУЛОВ, В., РАЗИКОВ, Ж., КАРИМОВА, Г., АБДУБАНАНОВ, А., & ЭШБОЛТАЕВ, И. (2017). Расчет коэффициента прохождения электронов через многослойной полупроводниковой структуры, состоящей из прямоугольных потенциальных ям и барьеров. *Современные научные исследования и разработки*, (2), 183-185.
15. Собиров, М. М. (2021). ИЗМЕРЕНИЕ ПОЛЯРИЗАЦИЯ СВЕТА В ЧИСТОЙ АТМОСФЕРЕ. *EDITOR COORDINATOR*, 308.
16. Расулов, Р. Я., Мамадалиева, Н., Ахмедов, Б., & Разиков, Ж. К теории зонной структуры халькогенидов свинца. *Ilmiy xabarnoma*, *6*(1), 18.
17. Собиров, М., Розиков, Ж., Рузибоев, В., & Ходиев, И. (2021). ПОЛЯРИЗАЦИЯ СВЕТА В ЧИСТОЙ АТМОСФЕРЕ НА БОЛЬШОЙ ВЫСОТЕ. *InterConf*, 249-253.
18. Sobirov, M. M., & Rozikov, J. Y. (2020). SPECIFIC FEATURES IN POLARIZATION OF DIFFUSELY REFLECTED AND TRANSMITTED RADIATION IN A MEDIUM WITH FINITE OPTICAL THICKNESS. *Scientific-technical journal*, *24*(5), 85-89.
19. Sobirov, M. M., & Rozikov, J. Y. (2020). SOME QUESTIONS OF THE THEORY OF POLARIZED RADIATION TRANSFER IN AN ISOTROPIC MEDIUM WITH A FINITE OPTICAL THICKNESS. *Scientific-technical journal*, *3*(4), 16-22.
20. Маматова, М. А., & Мансурова, Г. А. (2020). МЕТОД КР-ВОЗМУЩЕНИЙ. In *ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ТЕОРИЯ, МЕТОДОЛОГИЯ, ПРАКТИКА* (pp. 14-18).
21. Bakhodir, A. Rozikov Jurabek Lecturer, Fergana State University Muminov Islomjon, Lecturer, Fergana State University Ruziboev Valijon. ACTUAL PROBLEMS OF MATHEMATICS, PHYSICS AND MECANICS 7 MATYOKUBOV H. SH., BABAJANOV DB SOLITON MECHANISM OF CHARGE TRANSPORT IN BRANCHED CONDUCTING POLYMERS AND VERIFICATION OF CONSERVATION LAWS.. 7, 51.

SPIRITUAL AND MORAL FOUNDATIONS OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPORTANCE IN THE EDUCATION OF THE YOUNGER GENERATION.

Orzigul Fattoeva,
Master of the National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan.

ABSTRACT

With our basic law, all citizens are obliged to comply with the Constitution and laws, to respect the rights, freedoms, honor and value of others. The formation of legal consciousness and legal culture in society, the upbringing of the younger generation, first of all, is directly related to upbringing and the environment. It is indicated in our Constitution that the life of the state and society, the guarantee of its sustainable development, the unity and harmony of the nation, the rights and duties of each citizen, the basis for the construction of a humane legal democratic state and civil society. The Constitution determines the structure of the state, the system of authorities and governing bodies, their competence and formation procedures, the electoral system, the freedoms of citizens, the relationship of society and the individual, as well as the relationship between the court, the state and society.

Keywords: *student's personality, problem of humanity, motivation.*

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫЕ ОСНОВЫ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ.

Орзигул Фаттоева,
Магистр Национального Университета Узбекистана
Ташкент, Узбекистан.

АННОТАЦИЯ

Нашим основным законом все граждане обязаны соблюдать Конституцию и законы, уважать права, свободы, честь и ценность других. Формирование правосознания и правовой культуры в обществе, воспитание подрастающего поколения, прежде всего, напрямую связано с воспитанием и окружающей средой. В нашей Конституции указано, что жизнь государства и общества, залог его устойчивого развития, единства и согласия нации, права и

обязанности каждого гражданина, основа построения гуманного правового демократического государства и гражданское общество. Конституция определяет устройство государства, систему органов власти и управления, их компетенцию и порядок формирования, избирательную систему, свободы граждан, отношения общества и личности, а также отношения между судом, государством и обществом.

Ключевые слова: *личность студента, проблема человечности, мотивация.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING MA'NAVIY-AXLOQIY NEGIZLARI VA ULARNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Orzigul Fattoeva,
O'zbekiston Milliy universiteti magistri
Toshkent, O'zbekiston.

ANNOTATSIYA

Asosiy qonunimiz bilan barcha fuqarolar zimmasiga Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr qimmatini hurmat qilish majburiyati yuklatilgan. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, yosh avlod tarbiyasi, avvalambor, tarbiya va muhit bilan bevosita bog'liqdir"[9]*. Davlat va jamiyat hayoti, uning barqaror taraqqiyot kafolati, millat birligi va hamjihatligi, har bir fuqaroning haq-huquqlari hamda burch va majburiyatlari, insonparvar huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish asosi ekanligi Konstitutsiyamizda ko'rsatilgan. Konstitutsiya davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartiblarni, saylov tizimi, fuqarolarning huquq erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini, shuningdek, sud, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.*

Kalit so'zlar: *talaba shaxsi, insoniylik muammosi, motivatsiya.*

INTRODUCTION

On the way from the construction of an independent humanitarian democratic path and civil society, Uzbekistan is taking measures to ensure the rights and

[9] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasi

freedoms of each person, strengthen the legislative and organizational and legal framework for the protection of human rights, implement international standards for Human Rights in our national legislation and fulfill international obligations, as well as expand cooperation with international organizations Today, the greatest goal of Uzbekistan is important, first of all, because it is aimed at implementing reforms aimed at the interests of our people.

Each item of our headcount is a guideline for us, a rule of our lives, in which spiritual and moral foundations are also reflected. If we first clarify the concept of the spiritual and moral foundation. Our First President I.A.While Karimov defines the spiritual and moral foundations of the development of Uzbekistan in his work "Uzbekistan is striving for the 21st century"[1], they are formed by:

- loyalty to universal values;
- strengthening and developing the spiritual heritage of our people;
- the free manifestation of a person's own capabilities;
- patriotism.

From this it is known that all these foundations are reflected in our Constitution. And the universal value, containing the ideas of justice, peace, equality, close neighborliness and humanity, begins with the Preamble of our Constitution. The preamble is defined by the sentences” establishing a humane democratic legal state“,”ensuring the peace and national harmony of citizens". According to Article 13 of our basic law, “a person, his life, freedom, honor, dignity and other inviolable rights are the highest value.” This constitutional principle is programmable in all aspects of our life. After All, Our First President I.A.As Karimov said “ " the source of power of independent Uzbekistan is our people's commitment to universal values. Our Constitution meets the high requirements for democratic constitutions, guarantees all citizens and fundamental freedoms of Man and citizen”[2].

DISCUSSION AND RESULTS

The fifth direction of”New Uzbekistan: from the strategy of action - the strategy of development " is also envisaged to carry out reforms in the spiritual and educational spheres. That is, Article 18 of our Constitution provides the basis for educating young people in the spirit of respect for the national identity, native language and culture, religion, traditions and traditions of representatives of all nationalities and nationalities. Today, more than 130 nationalities and nationalities live in our country. This substance is aimed at educating young people in the spirit of tolerance.

Our Constitution is an example of the spiritual, cultural heritage of our people, national thinking, sacred Islamic values and the experience of centuries-old Uzbek

statehood. Article 1 also underlies the recognition of" Uzbekistan as a Democratic Republic " as a matter of freedom, equality and promotes this development, social equality, equality in elections, equality in public office achievement, equality in education, ownership of property, equality of opportunities are manifested here.

According to Article 49 of our law "citizens are obliged to preserve the historical, spiritual, cultural heritage of the people of Uzbekistan. Cultural monuments are under state protection." It is our duty to protect our historical, spiritual, cultural heritage, monuments, historical objects. These served for the centuries-old understanding of the identity of our people, the recognition of our native land to the world. Each of us is responsible for bringing these to the next generation. When the laws are said, before our eyes is not only the expression of politics or the strengthening, regulation of social relations in the life of society and the state, but also a great spiritual wealth that performs an incomparable creative and educational function.

Instilling a sense of patriotism in the spiritual and moral foundation and education of the younger generation, it is literally the responsibility of every citizen of the Republic of Uzbekistan "in Article 52 of our Constitution to educate him the qualities of courage and fortitude, to serve the motherland faithfully. Every article and every paragraph of our basic law has educational significance. It is no coincidence that the family plays an important role in the upbringing of a person in particular, a separate chapter 14 in the Constitution is devoted to the institution of the family. "The family is the main link in society and has the right to be under the protection of society and the state" (Part 1 of Article 63). The rule on the protection of the family from society is also spelled out in the Universal Declaration of Human Rights, in which the family is the main subordinate unit of society, the opinion is noted on the education of children, the creation of the necessary material assistance to mothers and incapacitated family members, and the strengthening of the family, and this is Our First President I.A.Karimov argued that" family is the hearth of upbringing, which ensures the eternity of life, the continuity of generations, directly affects what kind of person future generations will become." Our basic law also establishes that the family - the main task in the formation of high moral and spiritual values-performs.

President Shavkat Mirziyoyev in his congratulatory speeches on the 29th anniversary of the adoption of our Constitution listed the objective factors of the need to update our Constitution. And it also emphasized the need to pay special attention to the spiritual and moral aspects. In particular:

– It is necessary to change the principle of “State – Society – man”, which was previously practiced, as “Man – society-state”, to strengthen it in our national legislation and legal practice;

- In the process of economic reforms, the main criterion should be the provision of human interests. This is the most important condition for the establishment of a nationalistic state;

- Constitutional strengthening of the role and status of civil society institutions in our basic law within the framework of the noble idea “Society is the initiator of reforms " is also a requirement of the period;

- It is necessary for us to establish constitutional foundations for the development of the institution of the family in the General Assembly, the delivery of our noble human values to future generations, further strengthening of interethnic harmony;

- State policy in the field of youth, the issue of comprehensive support of our sons and daughters, their rights and duties should be reflected at the constitutional level in order to fully ensure the rights and interests of young people in our Constitution today, when our children are emerging as new Uzbek bunkers; - At present, Uzbekistan is building a social state and a fair society. Therefore, the time has come to seal the principle of "New Uzbekistan-a social state" as a constitutional rule;

- In order to increase the effectiveness of the current system for the protection of human rights, it is necessary that our Constitution also reflects the issues of preventing child labor, reliably protecting the rights of people with disabilities, the elderly;

- Currently, many developed countries, taking into account global changes in nature, are introducing special chapters on ecology into their constitution. The Constitution of Uzbekistan should also prioritize legal norms on this urgent issue;

- It is also worthwhile to strengthen the issues of the development of kindergarten, school, higher education and science at the constitutional level, which are four integral rings of the third Renaissance,” [3] they emphasized in their opinion the adoption of these issues at the 30-year celebration of our Constitution.

At this point, it is important that the Constitution is introduced as a science in the education system. Consciousness of the Constitution to students from the 1st grade-he consciousness the settlement is prevented not only by the reform of the education and upbringing system, but also by offenses in society. We consider the Constitution – the foundation of our happiness, but we cannot accurately and fluently deliver it to the creators of the future. The norms in our Constitution regulate

important social issues in our society and their foundations. Teaching the Constitution in the educational process is its importance, function, function, legal nature, state structure, legal status of an individual, state, society and civil relations are taught. This in turn serves as a great force for the development of legal consciousness and legal culture, in which a solution is sought today when young people pass in the upper class.

The manners, spiritual maturity of young people are perfected when they fully realize their direct rights and duties. In this case, the task of not simply memorizing the Articles of our Constitution to students, but to be able to explain the meaning and meaning, to educate students in the spirit of respect for the law, the constitutional system, other citizens should be understood by today's educators and lawyers. Only through a deep knowledge of the Constitution, loyalty to the motherland, respect for society appear, and the desire arises to fulfill the duties assigned in articles not necessarily, but voluntarily. The points above are we “Why should we study the Constitution?", "it is also possible for us to find the answer to the question. Yes, today many of us know what the Constitution is from older adults to younger ones, but we cannot answer questions about its meaning-meaning importance, what directs us, why we need to bring it to life. It is important for us to implement its implementation in practice with the reform of the educational system, that is, the method of conducting lessons in a simplified form of constipation, in preschool institutions, in schools as a separate subject. It is important not only that we do explanatory and spiritual and educational work about the Constitution only on December 8, but also that throughout the year we apply the use of new technologies to practice, to be able to apply our master's word to life, to introduce teaching methodology. If we mean the essence of our Constitution in primary, secondary education, and only then the consolidation in higher education is taught as a special course, it will be able to influence the legal consciousness, legal culture and spirituality in young people.

CONCLUSION

It turns out that Winston Churchill, a prominent statesman and politician, “to be good – you need to change, and to be the best of the good, you need to change even more.” In short, we need to make changes, teach and aim to learn using the most effective methods to increase the impact of our headcount on youth spirituality. As President Shavkat Mirziyoyev noted: "on the basis of our Constitution, the national legislative system, state bodies, the Institute of civil society were formed in our country. Today, large-scale reforms are being carried out on all fronts. Our social, economic, political and military potential is growing and the outlook of our citizens is

growing. Our main law is that universal ideas serve great ideas such as peace, equality, freedom, brotherhood, peoples and interethnic friendship, stability of the country and the world. All this is, first of all, the result of the life – giving power of our Chief.”

REFERENCES

1. Karimov I.A."Uzbekistan is striving for the 21st century."
2. Karimov I.A. Legal guarantee of a great future.
3. President Of The Republic Of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev's report on the 26th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАРКАЗИЙ САЙЛОВ КОМИССИЯСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Жуманиязов Санжарбек Матрасулович
Қорақалпоқ давлат университети
Давлат бошқарув ҳуқуқи 2 босқич магистри

АННОТАЦИЯ

Мақолада Ўзбекистонда олиб борилаётган ислоҳотлар ва унинг жамият ҳаётида туб бурилиш даври Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг ҳуқуқий ҳолати ва ривожланган бир қатор давларларнинг сайлов идораларининг ташкил етилиши ва уларнинг ҳуқуқ ва ваколатларини кўриб чиқдик. Бугунги кунда давлат ўз миллий ҳуқуқий тизимини ва унинг учун мақбул қонунчилик базасини яратар экан, ўзи танлаган йўлнинг истиқболини жаҳоннинг глобаллашув жараёни билан уйғунликда кўрмаслиги мумкин эмас.

Калит сўзлар: *Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг ҳуқуқий ҳолати, сайлов ҳуқуқи, халқаро-ҳуқуқ, Таълим ва тарбия, ёш авлод, демократик давлат, ёшлар.*

ABSTRACT

In the article, we examined the legal status of the Central Election Commission of the Republic of Uzbekistan and the organization of electoral bodies in a number of established periods, as well as their rights and powers. Today, when the state creates its own national legal system and the legal base corresponding to it, it is impossible not to see the prospects of the chosen path in harmony with the world processes of globalization.

Keywords: *legal status of the Central Election Commission of the Republic of Uzbekistan, voting rights, international law, education and training, young generation, democratic state, youth.*

КИРИШ

Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг ҳуқуқий ҳолати ва ривожланган бир қатор давларларнинг сайлов идораларининг ташкил етилиши ва уларнинг ҳуқуқ ва ваколатларини кўриб чиқдик. Бугунги кунда давлат ўз миллий ҳуқуқий тизимини ва унинг учун мақбул қонунчилик базасини яратар экан, ўзи танлаган йўлнинг истиқболини жаҳоннинг

глобаллашув жараёни билан уйғунликда кўрмаслиги мумкин эмас. Халқаро ҳуқуқнинг миллий ҳуқуққа нисбатан таъсири анча сезиларли бўлиб, улар ўзаро боғлиқдир. Ижобий нуқтаи назардан, халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар даражасида бошқа мамлакатларнинг умумлаштирилган тажрибаси миллий ҳуқуқ ва қонунчилик тизимини қўллаш самарали моделларини кўриб чиқиш чоғида кенг тарқалган хатоларни такрорламаслик имконини беради.

Ҳар қандай демократик давлатда сайловлар энг муҳим сиёсий воқеа ҳисобланиб, у давлатнинг истиқболга мўлжалланган танлови ва стратегиясини белгилайди. Давлат ҳокимияти органларини сайлов орқали шакллантириш йўли мамлакатдаги конституциявий тузумнинг демократия тамойилларига асосланганлигини намоён этувчи кўрсаткичларидан бири ҳисобланади [10] . Замонавий давлатларда сайлов ҳуқуқи, ўрнатилган сайлов тартиби турли сиёсий институтлар ўртасида мувозанатга эришиш ва давлат яхлитлигини сақлаш эҳтиёжидан келиб чиқиб, умумий принцип ва чегаралар ўрнатиш учун зарур самарали воситалар йиғиндисини ифодалайди. Бироқ, дунёдаги сиёсий тизимларнинг турли-туманлиги ва ўзгарувчанлиги, уларнинг электорал тажрибасининг хилма-хиллигидан қатъий назар, ҳар бир давлат охир-оқибат ўз сайлов моделини яратади, демак ўз халқининг анъаналари ва менталитетига таянади десак, асло муболаға бўлмайди.

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, мамлакатимизнинг сайлов билан боғлиқ ташкилий ҳуқуқий механизмларини халқаро стандартларига мослаштириш ва сайлов қонунчилигини такомиллаштиришда ривожланган демократик давлатлар тажрибаларига мурожаат қилиш ҳаққоний ва адолатли демократик сайловларни ташкил этиш ва ўтказишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг ҳуқуқий мақомини ошириш, сайлов тизими ва сайловларни ташкил қилишнинг демоктратик даражасини ошиш, мақсадида Марказий сайлов комиссиясининг турли республика ва халқаро ташкилотлар ривожланган хорижий давлатлар билан ҳамкорликларини ёритиб ўтишимиз лозим.

Жумладан, 2019-йилнинг 22-декабр куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Халқ депутатлари маҳаллий кенгашларига бўлиб ўтган сайловларнинг натижалари бўйича қатор халқаро ташкилотларнинг миссиялари ва хорижий мамлакатларнинг делегациялари кузатувларининг дастлабки хулосаларига доир баёнотлар билан чиқди.

[10] Абдусаломов М. Марказий сайлов комиссиясининг Ўзбекистонда демократик сайловларга тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказишдаги ўрни ва аҳамияти // Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси Ахборотномаси, 2014. №1, – Тошкент ―O‘zbekiston НМИУ. –Б.5.

Марказий сайлов комиссияси Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотининг Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси, ЕХҲТнинг Парламент Ассамблеяси Миссиясига, ЧҲТ, МДҲ, Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик Кенгаши миссияларига ва барча халқаро кузатувчиларга Ўзбекистон Республикасига сайловларни адолатли, ҳалол ва шаффоф, умуметироф этилган стандартлар ва енг мақбул амалиётлар, мамлакатимизнинг сайловлар соҳасидаги мажбуриятларига биноан ўтказишда кўрсатган ғоят улкан ёрдами учун самимий миннатдорлик билдиради. Ўзбекистон Республикасидаги сайловларга биринчи марта мисли кўрилмаган даражада кўп халқаро кузатувчилар ва хорижий давлатларнинг кузатувчилари, чет мамлакатларнинг оммавий ахборот воситаларининг вакиллари таклиф етилди. Сайловларда жами 50дан ортиқ хорижий давлатлардан ва 10та халқаро ташкилотлардан 800дан зиёд кузатувчилар, шунингдек, чет мамлакатларнинг 130дан ортиқ оммавий ахборот воситалари вакиллари мониторинг ва ёритиш ишларини олиб борди. Буларнинг барчаси Ўзбекистон Республикасининг сайловларни чинакам демократик тамойиллар асосида ўтказишга, фуқароларнинг ўз хоҳиш-иродасини еркин билдириши учун барча шароитларни таъминлашга қатъий амал қилаётганининг ёрқин далилидир[11]. Марказий сайлов комиссияси халқаро кузатувчиларга ва хорижий давлатларнинг кузатувчиларига Ўзбекистонда демократик-ҳуқуқий давлат ва кучли фуқаролик жамиятини мустаҳкамлаш ёълида муҳим босқич бўлган парламент сайловларига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш борасида мамлакатимиз томонидан амалга оширилган кенг кўламли ишларни холис еътироф етганлари учун чуқур миннатдорлик изҳор етади. Сайловларнинг Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан 2017-йили бошланган ва Ўзбекистоннинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий ҳаётини босқичма-босқич ўзгартириш ва юксалтиришга ёъналтирилган кенг кўламли ислоҳотлар жараёнида ўтказилгани халқаро кузатувчиларнинг миссиялари ва делегацияларининг баёнотларида ҳақли равишда алоҳида таъкидланган. Айни пайтда “Олий Мажлисга “Янги Ўзбекистон – янги сайловлар” шиори остида бўлиб ўтган сайловлар ортга қайтмас характер касб этган модернизатсия ва демократлаштириш жараёнларидаги муҳим босқич екани” ҳақли равишда алоҳида таъкидланган. Марказий сайлов комиссиясининг ва бошқа ташкилотларнинг мамлакатимиз сайлов қонунчилигини янгилаш, сайлов жараёнини бошқариш ахборот тизимини жорий этиш, сайловолди ташвиқотини янги форматда ташкил қилиш ва ўтказиш, кўп сонли халқаро ва маҳаллий кузатувчиларнинг, жумладан,

[11] https://www.saylov.uz/oz

сиёсий партиялар ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари кузатувчиларининг, оммавий ахборот воситалари вакилларининг сайловларда тўсқинликларсиз иштирок этишини таъминлаш, сайлов жараёни иштирокчиларининг сайловларни ташкил қилиш ва ўтказиш борасидаги билим ва кўникмаларини мустаҳкамлаш каби ёъналишларда амалга оширган ишларига юқори баҳо берилган.

Мамлакатимизда барча фуқароларнинг, шу жумладан ногиронлиги бўлган шахсларнинг сайлов ҳуқуқларини таъминлашнинг ҳуқуқий-ташкилий асосларлари ва самарали механизмлари умумеътироф этилган халқаро норма ва стандартлар асосида шакллантирилган. Бу жорий йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Сайлов кодексида ҳам мустаҳкамланган. Сайлов кодексида ногиронлиги бўлган фуқаролар ўзининг барча конституциявий ҳуқуқларини, жумладан сайлов ҳуқуқини бошқа фуқаролар билан тенг ва еркин амалга ошириши учун зарур шароит ҳамда имкониятлар яратишга алоҳида еътибор қаратилган.

Шу билан бирга, овоз бериш хоналарига олиб борувчи кўрсаткичлар кўринарли жойга ўрнатилиши, участка сайлов комиссияси биносида сайлов куни малакали тиббиёт ходимларининг навбатчилиги ташкил етилишига ҳам еътибор қаратилади. Депутатликка номзоди кўрсатилган ижтимоий фаол ногиронлиги бўлган шахслар ўз сайловолди дастурини тузиши ва уни сайловчилар ўртасида тарғиб қилишида ҳар томонлама кўмаклашилади.

Тадбирда Марказий сайлов комиссияси билан мазкур жамиятлар ўртасида имзоланган келишувлар ногиронлиги бўлган сайловчиларнинг сайлов ҳуқуқларини самарали таъминлашга хизмат қилиши таъкидланди.

2021-йил 29-декабр куни Марказий сайлов комиссиясининг навбатдаги йиғилиши бўлиб ўтди. Мажлисни Комиссия Раиси З.Низамходжаев олиб борди.

Мажлисда Марказий сайлов комиссиясининг 2021-йил иккинчи ярим йиллигида амалга оширилган ишлари юзасидан ахбороти ва Марказий сайлов комиссиясининг 2022-йил биринчи ярим йиллигига мўлжалланган иш режаси тўғрисидаги масалалар кўриб чиқилди. Комиссия аъзолари дастлаб Марказий сайлов комиссиясининг 2021-йил иккинчи ярим йиллигида амалга оширилган ишлари юзасидан ахборотини кўриб чиқдилар. Қайд этилганидек, Марказий сайлов комиссиясининг 2021-йил иккинчи ярим йилликдаги фаолияти Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Сайлов кодекси, Марказий сайлов комиссиясининг 2021-йил иккинчи ярим йиллигига мўлжалланган иш режаси, Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловига тайёргарлик кўриш бўйича асосий тадбирлар дастури ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти

сайловини ўтказиш бўйича календар режага мувофиқ ташкил етилди ва амалга оширди. 2021-йил иккинчи ярим йиллигида Марказий сайлов комиссияси фаолияти асосан Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказишга қаратилди.

Сайловни миллий қонунчилик ва умумеътироф этилган халқаро стандартларга мувофиқ, еркин ва демократик, очиқ ва ошкора тарзда ўтказиш учун Марказий сайлов комиссияси томонидан барча ташкилий чоралар кўрилди. Белгиланган тадбирларни муддатида ва юқори даражада бажарилиши таъминланди. Сайлов участкаларида пандемия шароитида аҳоли саломатлигини ишончли муҳофаза қилиш, сайловчилар ва сайлов жараёни бошқа иштирокчиларининг хавфсизлиги таъминлаш мақсадида махсус ёриқнома ишлаб чиқилди.

Сайлов комиссиялари аъзоларининг малакасини оширишни ташкил этиш ҳақидаги консепсияга мувофиқ, сайлов комиссиялари аъзоларининг сайлов қонунчилиги ва амалиёти бўйича назарий билим ва амалий кўникмаларини янада юксалтириш мақсадида каскад усулида ўқув-семинарлари ташкил етилди. Шунингдек, сайлов комиссиялари фаолиятида замонавий ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш, сайловчиларнинг ягона електрон рўйхати билан ишлашда хато-камчиликларга ёл қўймаслик ҳамда “Бир сайловчи – бир овоз” тамойилини таъминлаш мақсадида Сайлов жараёнини бошқариш ахборот тизими операторларини тайёрлаш бўйича каскад усулидаги ўқувлар ўтказилди.

Сайлов кампанияси даврида сайловчиларга ўз сайлов участкасини аниқлаш ва ўзгартириш бўйича интерфаол хизмат кўрсатиш ёлга қўйилди[12]. Ушбу ҳизмат шакли хатто ривожланган давлатлар тажрибасида ҳам камдан кам учрайди. Бунда мамлакатимиз сайлов жараёнида сайловчилар учун ахборотнинг очиқлиги ва уни олишда кенг имконият яратилганидан далолат беради.

Марказий сайлов комиссиясининг янгиланган расмий веб-сайти ҳамда Ўзбекистон Респбликаси Президенти сайловига бағишланган сайлов2021.уз ахборот веб-портали ишга туширилди. Сайлов комиссиялари аъзолари ва сайловчилар учун қулайлик яратиш мақсадида сайловга оид барча маълумотларни ўз ичига қамраб олган махсус Сайлов 2021 мобил иловаси ишлаб чиқилди. Сайловчиларнинг сайлов тўғрисида хабардор қилиш, уларнинг електорал маданиятини юксалтириш мақсадида Марказий сайлов комиссияси томонидан республика бўйича кенг кўламли ахборот-тушунтириш ишлари олиб

[12] https://www.saylov.uz/oz

борилди. Ахборот материаллари бир неча тилларда чоп етилиши, шунингдек расмий веб-сайтга жойлаштирилиши таъминланди.

Имконияти чекланган сайловчиларни сайловда тўлақонли иштирок этишини таъминлаш мақсадида қатор ташкилий тадбирлар амалга оширилди.

Сайлов жараёнларида оммавий ахборот воситалари ва кузатувчилар фаолияти учун барча шароитлар яратилди. Сайлов кампанияси даврида Марказий сайлов комиссиясининг Матбуот маркази ва унинг минтақавий бўлинмаларида малакали журналистлар ва експертлар фаолият юритди.

Сайловни кузатган ЕХҲТ ДИИҲБ ўзининг дастлабки хулосасида СОВИД-19 пандемияси билан боғлиқ муаммоларга қарамай, Марказий сайлов комиссияси ўз фаолиятини қонун ҳужжатларида белгиланган муддатларда профессионал ва самарали амалга оширди, илк бор очиқ мажлислар ўтказиб, қарорларини ўз вақтида еълон қилди, бу билан еса, у сайлов жараёнининг ошкора бўлаётганлигини кўрсатиб берди деб таъкидлади. Бу еътироф бўлиб ўтган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловига мамлакат миқёсида кўрилган тайёргарликка берилган муносиб баҳо бўлди. Мажлисда Марказий сайлов комиссиясининг 2021-йил иккинчи ярим йиллигида амалга оширилган ишлари юзасидан тайёрланган ахборот кенг муҳокама қилиниб, Комиссия аъзолари томонидан маъқулланди. Мажлисда Марказий сайлов комиссиясининг 2022-йилдаги устувор вазифалари белгилаб олинди ҳамда 2022-йилнинг биринчи ярим йиллигига мўлжалланган иш режаси тасдиқланди.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг 2023-йил 10-мартдаги ҳамда Олий Мажлиси Сенатининг 14-мартдаги қарорларига мувофиқ “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий Қонуни лойиҳаси бўйича Ўзбекистон Республикасининг референдуми 2023-йил 30-апрел – якшанба куни ўтказилиши белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг юқоридаги қарорлари ҳамда “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий Қонуни лойиҳаси 15-март куни матбуотда ва бошқа оммавий ахборот воситаларида еълон қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва “Ўзбекистон Республикасининг референдуми тўғрисида”ги Қонунга биноан Ўзбекистон Республикасининг референдумини ташкил этиш ва ўтказиш Марказий сайлов комиссияси зиммасига юклатилган. Шу боис, **2023-йил 16-март куни** Марказий сайлов комиссиясининг Ўзбекистон Республикаси референдумига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш билан боғлиқ ташкилий

масалаларга бағишланган мажлиси бўлиб ўтди. Мажлисда референдумга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш **календар режасини** тасдиқлаш, референдум **округларини** тузиш, референдум **харажатлар сметасини** тасдиқлаш, референдум ўтказувчи **комиссиялар** аъзоларининг **малака оширишини** ташкил этиш, Марказий сайлов комиссиясининг **Матбуот маркази** фаолиятини ташкил этиш каби масалалар кўриб чиқилди.

1.Жорий йил 30-апрелда бўлиб ўтадиган референдумни ўтказиш билан боғлиқ тадбирларни қонунчиликда белгиланган муддатларда босқичма-босқич амалга оширилишини таъминлаш муҳим аҳамият касб етади. Шу мақсадда мажлисда Ўзбекистон Республикаси референдумига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш **календар режаси** тасдиқланди.

Календар режа референдум жараёнини қонун талабларига риоя қилган ҳолда тўғри ва самарали ташкил этиш, мавжуд куч ва имкониятларни оқилона тақсимлаш ва сафарбар этишни таъминлайди.

Календар режанинг яна бир муҳим вазифаси – референдумга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича ҳаракатларни барча референдум ташкилотчилари томонидан сифатли бажарилишини таъминлаш ҳисобланади.

2. Мажлис кун тартибига мувофиқ, “**Ўзбекистон Республикасининг референдуми округларини тузиш тўғрисида**” қарор қабул қилинди. Унга кўра, **Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар** ва **Тошкент шаҳар** ҳудудлари чегаралари доирасида **14 та округлар** ташкил етилди.

3. Кун тартибидаги навбатдаги масала – референдумга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш билан боғлиқ **харажатлар сметаси** ҳам муҳокама етилди.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, 2019-йилда вакиллик органлари сайлови учун **230,5 млрд сўм** маблағ ажратилган.

Жорий йилда ўтказиладиган **референдумни молиялаштириш** учун Давлат бюджетидан **182,4 млрд сўм** маблағ ажратилиши режалаштирилган.

4.Ўзбекистон Республикаси референдумининг миллий қонунчиликка мос тарзда, уюшқоқлик билан ташкил этиш учун референдум комиссиялари аъзолари ҳамда референдум жараёни иштирокчиларининг билими ва кўникмаси юқори даражада бўлишини тақозо етади.

Таъкидлаш жоизки, 2022-йилда Марказий сайлов комиссияси Референдум ўтказувчи комиссиялар аъзоларининг малакасини оширишни ташкил этиш консепсиясини тасдиқлаган еди. Мазкур ҳужжат асосида республикамизнинг барча ҳудудларида референдум жараёни

иштирокчиларининг малакасини оширишга қаратилган семинар-тренинглар бўлиб ўтди.

Мажлисда референдум ўтказувчи комиссиялар аъзоларининг малакасини оширишга қаратилган **ўқитиш жараёнларининг навбатдаги босқичини** амалга ошириш юзасидан қарор қабул қилинди.

5. Сиёсий тадбирга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш даврида қонунийлик, мустақиллик, холислик, очиқлик, ошкоралик ҳамда шаффофлик тамойилларига тўла амал қилган ҳолда ташкил этиш, ОАВлар билан ҳамкорликни кучайтириш муҳим аҳамият касб етади.

Шу мақсадда Марказий сайлов комиссияси **Матбуот маркази** ва унинг **ҳудудий бўлинмаларини** ташкил этиш тўғрисида қарор қабул қилинди ҳамда мазкур **Марказнинг низоми** тасдиқланди. Матбуот марказида тажрибали журналистлар, ҳуқуқшунослар, таржимонлар, експертлар ва бошқа мутахассислардан иборат ихтисослаштирилган гуруҳлар фаолият олиб боради.

Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг, сайлов комиссияларининг, референдум ўтказувчи комиссияларнинг фаолиятига аралашиш, худди шунингдек уларнинг ишига тўсиқларни юзага келтириш, —

мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан ўн беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.

Бизнинг фикримизча ушбу моддада назарда тутилган ҳуқуқбузарлик учун маъмурий жазо миқдорини ўн беҳс баробардан йигрма баробаргача миқдорда жаримага солишга сабаб бўлишини белгилаш мақсадга мувофиқ бўлар еди.

Хулоса килиб айтганда, Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг ҳаққоний, адолатли, демократик сайловларни ташкил этиш ва ўтказишдаги ролининг янада оширилиши демократик тараққиёт учун хизмат қилади.

REFERENCES

1. https://www.saylov.uz/oz
2. Абдусаломов М. Марказий сайлов комиссиясининг Ўзбекистонда демократик сайловларга тайёргарлик кўриш ва уларни ўтказишдаги ўрни ва аҳамияти // Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси Ахборотномаси, 2014. №1, – Тошкент —O‘zbekiston НМИУ. –Б.5.
3. Рахимова Машхура Иномжановна, & Хасанов Миршод Нумонович (2020). Роль среднеазиатской философии в развитии мировой и европейской науки. Вестник науки и образования, (4-1 (82)), 38-41.

4. Раматов, Ж.С., Ҳасанов, М.Н., & Жуманиёзова, Н.С. (2022). ТАЛАБА-ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 866-874.
5. Эрниёзов, У., РАМАТОВ, Ж., Тухтабоев, Э., Валиев, Л., Жуманиёзова, Н., & Хасанов, М. (2022). ШРИ АУРОБИНДО ҚАРАШЛАРИДА ИНСОН ВА УНИНГ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШ ЗАРУРАТИ. World scientific research journal, 9(1), 197-202.
6. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Х., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА КАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. World scientific research journal, 8(1), 102-108.
7. Раматов, Ж. С., Эрниёзов, У. К., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АХАМИЯТИ. World scientific research journal, 9(2), 65-70.
8. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
9. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. Academic research in educational sciences, 3 (10), 591-597.
10. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. У., Султанов, С. Х., Муратова, Д. А., Хасанов, М. Н., & Эрниёзов, У. К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ КИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ КАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОХДЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 376-386.
11. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. World scientific research journal, 8(1), 102-108.
12. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.
13. Джуманиёз Раматов, Розигуль Умарова, Рашид Баратов, Миршод Хасанов, Сиродж Султонов, Файзулла Кушаков ПРОБЛЕМЫ ВЛИЯНИЯ ИСЛАМА НА

ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЗНАНИЯ // Академические исследования в области педагогическихнаук. 2022. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problems-of-influence-of-islam-on-coding-transformation (дата обращения: 31.01.2023).
14. Hasanov M., Tuhtaboev E. THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS) //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 1-6.
15. М.Н.Ҳасанов, Д.А.Ҳафизов, Р.Х.Тоиров, & Х.Қ.Болтабоев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 137–140. Retrieved from http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/627
16. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 582-586.
17. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 969-976.
18. Раматов, Ж.С., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). XIX АСРДА ҲИНДИСТОНДАГИ ИЖТИМОИЙ – ФАЛСАФИЙ ЖАРАЁНЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1070-1078.
19. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. World scientific research journal, 9(2), 37-42.
20. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhakim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1453-1458.
21. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Sultanov, S., & Khasanov, M. (2022). METHODS AND MEANS OF FORMATION OF SPIRITUAL MORAL CONSCIOUSNESS IN STUDENTS AND YOUTH OF UZBEKISTAN. World scientific research journal, 10(1), 257-262.
22. Абдурашидова, Нилуфар Абдурашидовна, & Ҳасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗАРО МУТАНОСИБЛИГИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 1226-1235.

23. Бобошев, З. Н., Ҳасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.
24. Эрниёзов, У. К., Ҳасанов, М. Н., & Машарипов, Х. С. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.
25. Журабоев, Носир Юсупович, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ СОҲА РИВОЖИ: ИСЛОҲОТ ВА ИСТИҚБОЛ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1274-1283.
26. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1345-1354.
27. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 969-976.
28. Нилуфар Жўраевна Назарова, & Миршод Нўъмонович Ҳасанов (2022). ТАЛАБАЛАРДА БЎШ ВАҚТДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 752-758.
29. Миршод Нўмонович Ҳасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ТАЪЛИМОТИ АСОСИДА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (10), 393-398.
30. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). ОНТОЛОГИЧЕСКИХ И ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ АЛЬ-ФАРАБИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (6), 537-546.
31. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 973-979.
32. Ф. А. Кушаков, М. Н. Ҳасанов, Р. Ў. Баратов, Ж. С. Раматов, С. Ҳ. Султанов ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ // Academic research in educational sciences. 2022. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekistonda-inson-u-u-lari-va-s-z-erkinligi (дата обращения: 15.02.2023).
33. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3(6), 984-988.
34. Миршод Нўмонович Хасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИНСОННИ АХЛОҚИЙ КАМОЛОТИ ТЎҒРИСИДАГИ ҚАРАШЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ИЖТИМОИЙТАРИХИЙ МАНБАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 776-784.
35. Ж. С. Раматов, Миршод Нўмонович Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ШАРҚ УЙҒОНИШ ДАВРИ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАРИ (АБУ НАСР ФОРОБИЙ, АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙИНГ СИЁСИЙҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАРИ АСОСИДА). Academic research in educational sciences, 3 (6), 705-712.
36. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 925-930.

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
(E)ISSN:2181-1784
www.oriens.uz
3(4/2), April, 2023

ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ОБРАЗ ЯРАТИШ МАҲОРАТИ

Гўзалхон Муҳаммаджонова
филология фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон, ФарДУ
Guzalfayz76@.ru

АННОТАЦИЯ

Мақолада Ғафур Ғуломнинг образ яратиш маҳорати тадқиқ этилган. Анъанавий тимсоллар ва лирик образлар талқинидаги ўзига хослик адабий-эстетик тафаккур ва бадиий идрок контекстида ўрганилган. Хусусан, шоир яратган ота тимсолининг бадиий тасвирида миллий ва умуминсоний қадриятлар ифодаси, шоир қўллаган поэтик усуллар тавсифланади, ижодкорнинг ғоявий-бадиий концепцияси ҳақида хулосалар берилади.

Калит сўзлар: *образ ва образлилик, адабий анъана, ворислик, адабий таъсир, Ғафур Ғулом шеърияти, ота образи, бадиий концепция, бадиий идрок, адабий-эстетик тафаккур, бадиий-эстетик функция, мумтоз адабиёт, тасвир усуллари, услуб.*

ABSTRACT

The article examines Ghafur Ghulam's image creation skills. The originality in the interpretation of traditional symbols and lyrical images is studied in the context of literary-aesthetic thinking and artistic perception. In particular, the expression of national and universal values, the poetic methods used by the poet are described in the artistic image of the father image created by the poet, and conclusions are given about the ideological and artistic concept of the creator.

Key words: *image and imagery, literary tradition, inheritance, literary influence, Gafur Ghulam's poetry, father image, artistic concept, artistic perception, literary-aesthetic thinking, artistic-aesthetic function, classical literature, image methods, style.*

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются навыки создания имиджа Гафура Гулама. Исследуется своеобразие трактовки традиционных символов и лирических образов в контексте литературно-эстетического мышления и художественного восприятия. В частности, описывается выражение национальных и общечеловеческих ценностей, поэтические приемы, используемые поэтом, в созданном поэтом художественном образе образа отца, даются выводы об идейно-художественной концепции творца.

Ключевые слова: *образ и образность, литературная традиция, наследственность, литературное влияние, поэзия Гафура Гулама, образ отца, художественная концепция, художественное восприятие, литературно-эстетическое мышление, художественно-эстетическая функция, классическая литература, образные приемы, стиль.*

КИРИШ

Анъанавий тимсоллардан фойдаланиш шоирга поэтик фикрни таъсирчан ва образли ифодалаш имконини беради. Мумтоз лирикада *гул ва булбул, ошиқ ва маъшуқа, рақиб* каби тимсоллар воситасида лирик қаҳрамон, шоирнинг кечинмалари ифодаланиб, уларда ишқи илоҳий ва ишқий ом ўз маъносида ҳамда рамзий маънода куйланади. Мумтоз адабиётнинг ғазал жанрида ва қатор шеърий шаклларда мазкур лирик образлар мотив сифатида яшаб келмоқда. Жадид адабиёти даврида шеърият ижтимоий фикрларни ифодалашнинг асосий ва таъсирчан воситаларидан бири бўлиб қолди. Бу ҳолат шеъриятдаги лирик образлар сирасини янгилари билан бойитди. Биргина Чўлпоннинг мисолида оладиган бўлсак, *йўл, йўлчи, юлдуз* поэтик образлари шоирнинг маърифатпарварлик, эрк ва озодлик ғояларини, муаллифнинг бадиий концепциясини ифодалашда *(йўл – кураш, йўлчи– курашчи, юлдуз – мақсад)* муҳим бадиий-эстетик вазифа бажарди.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ғафур Ғулом ижодида ҳам лирик образлар сираси янгича шакллантирилганини кўриш мумкин. Шоир мумтоз тимсолларни ўз замонасига шундоққина кўчириб қўя қолмайди, балки анъанавий поэтик образларга қўшимча маъно юклаб, замонавийлаштиради, янгича талқин этади. Жумладан, *маъшуқа – ватан, ошиқ – лирик қаҳрамон, соқий – ҳаёт, Яратувчи, қуёш – ҳаётийликни таъминловчи омил, барҳаётлик, кун ва тун – ўтмиш ва бугун, тонг, тонготар – нурли келажакнинг бошланиши.*

Шоирнинг лирик меросида соқийнома мазмунидаги мисралар учрайди. Уларда соқийга мурожаат, май, шароб талқинлари ҳам учрайдики, бу баъзи ўринларда ўз маъносида, баъзан эса рамзий маънони ифода этади:

Ҳаёт шаробидан бир қултум ютай,
Дамлар ғаниматдир, умрзоқ соқий.
Қуёш-ку фалакда кезиб юрибди,
Умримиз боқийдир, умримиз боқий.

Ҳайёмона битилган ушбу мисралар соқийнома жанрининг анъаналарига хос равишда Аллоҳ ва комил инсон, ҳаёт ва умр ҳақидаги фалсафий

мушоҳадани акс эттирган. Бу тазод, такрир санъати ёрдамида янада таъсирли ифодаланган.

Аёнки, ҳар бир бадиий асар муаллифнинг муайян бадиий-концепциясини ўзида ифода этади. Унда ҳаёт ҳақидаги фалсафий умумлашмалар образлилик асосида ўз аксини топади. Ғафур Ғулом шеърияти нафақат бир миллат, бир халқ доирасида балки бутун инсониятга дахлдор ҳаёт фалсафасини ўзида мужассамлайди. Фольклор, мумтоз адабиёт ва асрлар оша доимий долзарб бўлиб келган умр мазмуни, инсон ҳаётининг шарҳи қисқа ва лўнда тарзда сўз санъати ҳамда мусиқий тафаккур синтезидаги қарашларда бадиий талқин этилади. “Киши кўргилиги” тўртлиги лирик тавсиф ва изоҳлардан иборат бўлиб, руҳий-психологик ҳолатлар талқинда ҳикмат, афоризмга хос маъни касб этади:

Онадан туғилмоқ:
Мусиқий оҳанг каби аввал “тарона”дан бошланади.
Яшамоқ:
Чолғуда “даромад”дай кучли ўйлар-ла чимиртар қошлар.
Бизни севмак:
У “авж” пардаси янглиғ кўнгилни эркалатганга ўхшар.
Лекин ўлмак:
Аламли “савт”дирки, барча тингловчининг кўзин ёшлар.

Ушбу сатрларда шоирнинг мусиқага муҳаббати ва мусиқа илмидан бохабарлиги сезилади. Инсон умрининг даврлари мусиқадаги куйлар мазмун-моҳиятига кўра тавсифланган ушбу мисраларда илми мусиқийга оид атамалар қўлланган. Умр фасллари “тарона”, “даромад”, “авж”, “савт” каби куй ва қўшиқ ижросининг босқичларидаги руҳий-ҳиссий таъсирланишлар ҳолатларига қиёслаб шарҳланадики, бу сўз ва мусиқа санъати уйғунлигидаги синтезлашувни юзага келтирган. Шоир мумтоз ва тасаввуфий анъаналарга монанд ҳолда инсон умрини туғилиш ҳамда ўлим орасидаги имконият, бир неъмат деб билади. Ибтидо (туғилиш) интиҳодан(ўлим)дан даракчидир. Умрнинг чин маънода яшаб ўтилгани эса севмоқ ва севилмоқ билан ўлчанади. Қалбида муҳаббати бор инсонгина ҳақиқий маънода ҳаётни яшаб ўтган ҳисобланади. Севги кучли руҳий-ҳиссий эврилишларга бой, инсонни буткул ўзгартириб юбора олиш қудратига эга туйғу. Шоир ана шу қудратли туйғуни тирикликнинг, умрнинг мазмуни деган ғояни илгари суради. Ҳаётни севмоқ, оламни меҳр-муҳаббат кўзлари билан идрок этмоқ, инсонларни севиб ардоқламоқ, яратувчанликни, ижодни юракдан туймоқ ва унга ўзни бағишламоқ, умуман, жўшқин севги оламида яшамоқ бу шоир ижодининг асосий концепциясидир. Ана шундай бебаҳо ҳаётнинг ҳар бир лаҳзаси, сонияси қадрлидир.

Ғафур Ғулом анъанавий лирикада яққол акс этмаган образларни кашф эта олди. Жумладан, ишчи, деҳқон, меҳнаткаш тимсоллари. Ушбу тимсоллари мавжуд мафкуранинг тинимсиз меҳнат қилиш сиёсатини тарғиб қилиш учун таъсирли восита, асосий мақсад бўлган бўлса-да, меҳнатсеварликни, яратувчанликни улуғлаш концепцияси замонавий қарашлар билан уйғунлашиб кетган. Тўғри, мазкур мавзудаги ҳамма шеърларни ҳам поэтик мукаммал деб бўлмайди, аммо меҳнатсеварликнинг анъанавий талқини шоир ижодида услубий сайқалланган. Айниқса, мумтоз шеърий шаклларга мурожаат воситасида мазкур образлар орқали анъанавий гуманистик концепциянинг илгари сурилиши шоир ижодидаги услубий янгиланишларни намоён этади.

Ғафур Ғулом лирикаси миллий шеъриятда ўзбек отаси тимсолини ёрқин намоён этгани билан алоҳида эътирофга лойиқ. Бу образ шоир ижодининг марказида туради ва деярли барча шеърларида кенг мушоҳадали, ҳаётсевар, оила ва ватан тақдирига қайғурган *ота*нинг теран нигоҳи сезилиб туради. Мазкур йўл билан шоир шеъриятда лирик образ характерини ифодалашнинг ноанъанавий усулларини кашф этди. Лириканинг имкониятлари доирасида нафақат лирик ҳиссий-кечинмаларни бериш, балки портрет чизгилари, монолог каби усуллар воситасида лирик асарда ҳам эпик асарлардан кам бўлмаган ҳолда тўлақонли характер ярата олиш мумкинлигини исботлади. Ғафур Ғулом лирикасида Ота сиймоси ўзининг мукаммал салобати билан намоён бўлади.

Шоир бу борада бадиий нутқнинг монолог усулидан унумли фойдаланган. Отанинг нутқида оталарча меҳр, дуогўйлик, насиҳат, келажакка умид, бахтиёрликдан масрурлик, оила ва жамият олдидаги масъулиятни чуқур ҳис этиш, кенгфеъл ва вазминлик, мушоҳадакорлик каби сифатлар яққол акс этиб туради. “Кузатиш” шеърида урушга кузатилаётган фарзандга эзгу тилаклар, дуо билан биргаликда насиҳат мазмуни етакчилик қилади. Шунинг баробарида отанинг урушга, босқинчиларга қарши чексиз нафрати, қаҳри ҳам акс этади. Бу туйғулар ва уларнинг халқона ифодасида бутун оталарнинг умумлашма образини тасаввур этиш мумкин:

Сафлар олдида бўл, мард бўл, ботир бўл,
Дўстларга ҳамоҳанг жўра бўл, жўр бўл,
Она юрт ҳурмати, Ватан ҳурмати
Халқимнинг ҳурмати ғолиб бўл, зўр бўл. (“Кузатиш” Б.37)

“Соғиниш” шеъри ўзбек лирикасида ота сиймосини лиро-эпик талқинда ёрқин ифодалаб бера олган ноёб дурдонадир. Унда отанинг ички руҳий оламидаги соғинч, хавотир, васвасалар оғир вазминлик, сабот билан уйғун тасвирланади. Одатда шеърда портрет кўп учрамайди. Лекин ушбу шеърда

тўлақонли миллийлик билан суғорилган тасвирларда ўзбек отаси умумлашма образ даражасига кўтарилган.

Зўр карвон йўлида етим бўтадек,
Интизор кўзларда ҳалқа-ҳалқа ёш.
Энг кичик заррадан Юпитергача
Ўзинг мураббийсан, хабар бер, Қуёш! (“Соғиниш”)

Карвон ва бўталоқ образи мумтоз адабиётда иложсизликнинг кўҳна тасвирлардан биридир. Гулханийнинг “Зарбулмасал” асарида “Туя ва бўталоқ” масалида ушбу руҳий ҳолат ғоят таъсирчан ифодаланган. Шоир ана шу тасвирни ижтимоий кўламдорлик бағишлаб, уруш давридаги бутун халқнинг руҳиятини ўзи ва фронтга йўл олган фарзанди мисолида ёритиб беради. Урушга сафарбарликдаги карвон дарҳақиқат, халқ дардини, фарёдини, соғинчини, умидини, айрилиқ ва изтиробларини гарданига олган карвон эканлиги “зўр” сўзи билан тавсифланган. “Зўр” сўзи турк тилида “қийин, оғир” маъноларини ифодалайди. Ўзбек тилида эса “яхши, улкан, катта” маъноларини беради. Шоир ушбу сатрда айнан туркий тилдаги ифодасига урғу қаратган дейиш мумкин. Лирик қаҳрамон – ота, ўз фарзандини урушга (катта карвон сафига қўшар экан)кузатар экан, юрагида васваса, хавотир ва изтироб билан унинг ортидан эргашади. Бу тасвир бугунги шеъриятда тез-тез учраб турган сўз ва кино санъатидаги бадиий синтезга хос талқинни эслатади. Ўз фарзандини кузатаётган ота ва кўплаб шундай ота-оналар сиймоси коинот тасвири кенгликлари билан уйғунлашади. Гўёки, кинооператор бир ота ва ўғил қисматини бутун олам, коинот, башар қисмати билан боғлайди.

Унда етук эди мерос мард ғурур,
Остонани ўпиб, қасамёд қилди.
Укаларин эркалаб ўзимдай мағрур,
Яъни обод уйимни у дилшод қилди (“Соғиниш”).

“Ватан – остонадан бошланади”, – дейди доно халқимиз. Остона кичик ватан – оилага, меҳр ва муҳаббат ошиёнига кириш ўрни. У айни жиҳатга кўра ҳам муқаддасдир. Шунинг баробарида катта олам (жамият, ижтимоий муҳит) ва кичик олам(оила, инсон)нинг ҳудудий боғланиш ва фарқланиш жойи. Остона – кутиб олиш ва кузатиб қўйиш манзили. Остона – дахлсизлик, эркинлик ва холиснинг бошланиш ўрни. Остонани ўпиб қасамёд қилинишида оила ва қондошлар ҳаққи тинчлик йўлида фидокорона курашчи бўлишга онт ичмоқни ифодалайди. Айни шу руҳий ҳолатда “укаларни мағрур эркалаш” отанинг муносиб вориси эканлигига таъкидни, ота ва ўғил ўртасидаги руҳий-маънавий яқинлик, меҳр-оқибатни акс эттирган.

Не қилса отамен, мерос ҳиссиёт...
Жондан соғинишга унинг ҳаққи бор.
Кутаман узоқдан кўринса бир от,
Келаяпти дейман, кўринса ғубор.

Кечқурун ош сузсак, бир насиба кам,
Қўмсайман бировни – аллакимимни.
Доимо умидим бардам бўлса ҳам
Баъзан васвасалар босар дилимни...

Кечки таомланишда бутун оиланинг бир дастурхон атрофида жаъм бўлиши, айниқса, шарқона менталитетда жуда гўзал қадрият. У оиланинг бирдамлигини, бир-бирига бўлган меҳр-муҳаббатининг ифодасидир. Шоир ана шу реалия орқали отанинг очиқ-ошкор ифодаланмас, қалбида сақлайдиган меҳрини, оталарча хавотирини таъсирчан ифодалашга эришган.

Шеърга танланган вазн лирик қаҳрамон руҳиятини теран ёритишга хизмат қилган. 11 бўғиндан ташкил топган шеърий мисралар 6+5 тарзида туроқланган бўлиб, ундаги оҳанг оқими ота образининг руҳий оламига ниҳоятда мос келган. *Соғинмоқ, кутмоқ, қўмсамоқ, васваса босмоқ* каби руҳий ҳолатларда лирик қаҳрамоннинг ботиний дунёси янада аниқроқ акс этади. Аммо *умиди бардам* отанинг тушкунликка бўй беришга ҳаққи йўқ. Чунки унга суянган бутун оила, ўғлининг суйгани – “қўшни қиз” бор. Ота эътиқоддда собит, уларга далда бериб, ёруғ кунлар келишига қадар мададкор бўлмоғи лозим. Шеърда энг нозик, нафис туйғулар моҳирлик билан ифодаланган:

Асалдан ажраган мумдек сарғариб,
Ини йўқ аридек тўзғиганим йўқ.
Улуғ эътиқодда ўларман қариб,
Абаддир мендаги падарий ҳуқуқ.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, лирикада Ғафур Ғулом ўзбек отаси, ишчи, деҳқон, замона ёшлари образини давр билан ҳамнафас яратди. Мазкур образлар замонавий ўзбек лирикаси образлари галереясини бойитди. Хусусан, ўзбек отаси тимсоли ҳам зоҳиран, ҳам ботинан юксак даражада кашф этилди. Отанинг руҳий кечинмалари, оталик масъулияти, ватан ва оила олдидаги бурчи масалалари образли тасвирланди. Динамик портрет чизгилари асосида отанинг зоҳирий қиёфаси ёркин ва аниқ рангларда тасвирланди.

REFERENCES

1. Ўзбек адабий танқиди. Антология. (2011). Тошкент: Турон-Иқбол.
2. СУВОН МЕЛИ. (2013). Ғафур Ғулом: вақт фалсафаси.// Ўзбек тили ва адабиёти.
3. ҒАФУР ҒУЛОМ. (1983-1984) Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. 1-2 том. Тошкент: Фан.
4. ҒАФУР ҒУЛОМ. (2003).Танланган асарлар. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги МНИУ.
5. МАМАЖОНОВ С. (1963). Шоир ва замонавийлик. Тошкент: Фан.
6. МАМАЖОНОВ С. (1966). Ғафур Ғулом прозаси. Тошкент: Фан.
7. МАМАЖОНОВ С. (1972). Услуб жилолари. Тошкент: Адабиёт ва санъат.

БИОХИМИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЦИНКА В НЕКОТОРЫХ КЛЕТКАХ ЧЕЛОВЕКА.

Нуриддинова Ш.О.
студентка Ташкентского Педиатрического Медицинского Института
Цой.А.В.
студентка Ташкентского Педиатрического Медицинского Института
Султанбаева А.С.
студентка Ташкентского Педиатрического Медицинского Института
Научный руководитель: Акбарходжаева Х.Н.
доцент кафедры медицинская и биологическая химия, медицинская биология, общая генетика

АННОТАЦИЯ

Цинк занимает второе место в списке самых распространенных микроэлементов в теле человека, после железа и цинка. Он входит в состав более чем 3000 ферментов: гидролаз, трансфераз и лигаз [1]. Примерно 70 % всех ферментов, входящих в состав цинка, являются каталитическими. Помимо этого, он является субстратом, или регулятором активности ферментов [2]. Такое большое количество ферментов объясняется необходимостью цинка в синтезе ДНК, белков, липидов и жиров. Он необходим, чтобы нормализовать геном [2]. Также цинк обладает антиоксидантными свойствами при повреждении ДНК, а также в процессе синтеза биологически активных веществ, таких как метионин, который нужен для репарации ДНК [3].

Ключевые слова: *ДНК, пища, альбумин, ЖКТ, ферменты, конформация, ЦНС, рецептор, нейроны, везикулы, гипергликемия, эякулят, антиоксидант.*

ABSTRACT

Zinc is the second most abundant micronutrient in the human body, after iron and zinc. It is part of more than 3000 enzymes: hydrolases, transferases, and ligases [1]. Approximately 70% of all enzymes that make up zinc are catalytic. In addition, it is a substrate or regulator of enzyme activity [2]. Such a large number of enzymes is explained by the need for zinc in the synthesis of DNA, proteins, lipids and fats. It is necessary to normalize the genome [2]. Zinc also has antioxidant properties in DNA damage, as well as in the process of synthesis of biologically active substances, such as methionine, which is needed for DNA repair [3].

Key words: *DNA, food, albumin, gastrointestinal tract, enzymes, conformation, CNS, receptor, neurons, vesicles, hyperglycemia, ejaculate, antioxidant.*

ВВЕДЕНИЕ

Больные с мальнутрицией, алкоголизмом, воспалительными заболеваниями желудочно-кишечного тракта, мальдигистией, мальабсорбции и других патологических состояний, приводящих к снижению усвоения цинка, имеют тенденцию к повышенной недостаточности данного микроэлемента. Симптомы недостаточности цинка являются неспецифическими, можно отметить наиболее часто встречающиеся патологические изменения как задержка роста, диарея, алопеция, глоссит, дистрофия, снижение иммунитета, гипогонадизм у мужчин, снижение скорости регенерации и быстрое старение.

Общее количество цинка 1,4-2,3 г данные значения корректны как для мужского, так и для женского пола. В плазме содержания цинка относительно постоянна 1 мкг/л и находится в связанном состоянии с альбуминами и альфа 2-макроглобулином. Так же он содержится в мышцах, костях, сперматозоидах, предстательной железе, эритроцитах и тканях глаза. Потребность в цинке тела человека в максимальных значениях достигает в день 20 мг. Из-за отсутствия какого-либо его места хранения приводит к быстрому снижению при проблемах с пищей или с ЖКТ. Основной путь выведения цинка – ЖКТ. Фекальный цинк является с одной стороны неабсорбированным из пищевых ресурсов экзогенный, а с другой стороны секретируемый эндогенный цинк [6]. Кроме того, почки ежедневного экскретируют цинк в пределах 400-600 мкг, и довольно большое количество, а именно в день до 1,5 мг расходуется на рост волос, десквамацию кожи и эякуляцию [4,5].

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Различные пищевые продукты содержат разное количество цинка. Например, в яичном белке содержится 0,02 мг цинка на 100 г продукта, в легкоусвояемом мясе - 1 мг, а в устрицах - 75 мг. Красное мясо, печень, яйца и дары моря являются хорошими источниками цинка из-за отсутствия химических составных частей, которые могут препятствовать его усвоению, и наличия определенных аминокислот, которые улучшают его растворимость. Цинк также содержится в хлебных злаках из цельного зерна, причем больше всего его содержится в отрубях и зародышевых частях зерна. Однако продукты из цельных зерен и белки растений содержат цинк в менее доступной форме из-за наличия фитиновой кислоты, которая может препятствовать его усвоению. Орехи и бобы являются относительно хорошими растительными источниками

цинка. Концентрация цинка в растениях увеличивается, если они выращиваются на почвах, богатых цинком или обработанных удобрениями. Диеты, состоящие в основном из молока, яиц, домашней птицы и рыбы, содержат меньше цинка и белка, чем диеты, состоящие из морепродуктов, говядины и другого красного мяса. Вегетарианские диеты, содержащие много бобов, цельного зерна, орехов и сыра, богаты цинком и белком. Цинк является важным элементом питания, который необходим для многих функций в организме, включая рост и развитие, иммунную функцию и здоровье кожи. Недостаток цинка может привести к различным проблемам со здоровьем, включая задержку роста и развития, повреждение иммунной системы и проблемы со зрением. Поэтому важно убедиться, что ваша диета содержит достаточное количество цинка [5].

Цинк является отличной кислотой Льюиса, то есть акцептором электронной пары, благодаря чему он полезен как катализатор в ферментативных реакциях [7]. Ион также имеет изменчивую координационную геометрию, которая используется белками для быстрого изменения конформации для выполнения биологических реакций [8]. Как пример можно привести карбоангидразу и карбоксипептидазу. Первый в крови превращает CO в H2CO3, и он же катализирует обратную реакцию. Без данного фермента реакция требовала б в миллионы раз больше времени или высокую щелочную среду с pH 10 и даже выше. Второй ферментирует расщепление пептидных связей во время переваривания белков. Между концевым пептидом и C=O группу присоединенной к цинку, образуется координатная ковалентная связь, которая придает углероду положительный заряд. Это способствует создать гидрофобный карман на ферменте рядом с цинком, который притягивает неполярную часть перевариваемого белка [9].

Цинковые пальцы – это структурный мотив белка, который характеризуется координацией одного или двух ионов цинка для стабилизации складки. Белки цинковых пальцев подразделяются на различные группы и семейства исходя из трехмерной структуры. Так же их разделяют относительно идентичности лигандов и первичной структуры белка. Но, несмотря на огромное разнообразие белков с цинковым пальцем почти все они функционируют как модули взаимодействия с ДНК, РНК. Подсчитано, что до 1% генома человека кодируют белки с цинковым пальцем. Различия в них заключается для изменения специфичности для связывания конкретного белка [10]. Сам цинковый палец состоит около из 20 аминокислот, ионов цинка. Zn2+ связывает 2 гистидина и 2 цистеина. Znf-это домен содержащий множество

пальцевидных выступов, образующие контакты с молекулой-мишенью. Некоторые связывают цинк, а некоторые связывают другие металлы, например, железо или даже процесс может проходить без металлов. Мотивы Znf могут находиться в нескольких неродственных супер семействах белков, различных по последовательности и структуре. Они показывают значительную универсальность в связывании, так между представителями одного класса одни связывают ДНК, другие белок. К примеру, Znf мотивные белки могут участвовать в развитии эпителия, клеточной адгезии, сворачивании белка, ремоделировании хроматина, в транскрипции, трансляции, транспортировке нуклеиновых кислот. Сами мотивы являются стабильными и не претерпевают конформационным изменениям при связывании с молекулой мишенью.

Цинксодержащие нейроны – это клетки, которые имеют везикулы с Zn2+ в пресинаптических утолениях, работают вместе с кальцием в проведении импульсов. Такие нейроны входят в подкласс глутаминергических нейронов. Цинксодержащие нейроны были обнаружены во всей нервной системе даже в гиппокампе, миндалевидном теле и неокортиксе. Ионы цинка являются мощными модуляторами аминокислотных рецепторов особенно рецептора N-метил-D-аспартата (NMDA). По одной из теорий цинк секретируемый из пресинаптической щели способен контролировать «окно» постсинаптической возбудимости, подавляя повышенное возбуждения путем угнетения в NMDA-рецепторов. При этом он практически не влияет на физиологическую частоту возбуждений [12].

Цинк участвует в нескольких клеточных процессах, включая апоптоз или запрограммированную гибель клеток. Во время апоптоза цинк играет двойную роль как незаменимого, так и токсического элемента. Он действует как проапоптотический фактор, активируя каспазы, семейство протеазных ферментов, играющих решающую роль в апоптозе, и способствуя высвобождению цитохрома с из митохондрий. С другой стороны, цинк также играет антиапоптотическую роль, предотвращая чрезмерную активацию каспаз и снижая выработку активных форм кислорода (АФК), которые могут повредить клетку. Баланс между этими двумя ролями цинка определяет, подвергается ли клетка апоптозу или выживает [13].

У больных с сахарным диабетом и недостатком цинка при его введении наблюдалось повышение секреции цинка и улучшения состояния. Это привело к большим количеством исследованиям. Так на сегодняшний день достоверным считается информация о том, что Zn2+ и Ca2+. В β-клетках островковой системы пре-проинсулин образует проинсулин путем отщепления специальной

сигнальной последовательности. Далее проинсулин транспортируется в комплекс Гольджи, где секвестрируется в Zn2+ и Ca2+, обогащенные секреторные везикулы в форме агрегированных Zn2+ и Ca2+ содержащих гексамерных комплексов, обозначаются как (Zn2+)2(Ca2+) (Proin)6. В последующем в везикулах после отщепления С-пептида трипсин- и карбоксипептидаза подобными ферментами комплекс (Zn2+)2(Ca2+) (Proin)6 превращается в (Zn2+)2(Ca2+) (In)6 [14]. Удаление С-пептида приводит к сильному снижению растворимости из-за чего этот комплекс кристаллизируется. Такая форма является специальной неактивной формой хранения гормона инсулина, который должен сначала превратиться в мономер инсулина [15]. Перед образованием мономера из гексамера образуются димеры инсулина, два димера комбинируясь образуют тетрамер (Zn2+)2(In)4 который при обогощении еще одним димером образует гексамер [15]. Таким образом и проинсулиновые гранулы и инсулиновые гранулы связаны с Zn2+, кроме того Zn2+ необходим для образования из проинсулиновых гексамер нерастворимых инсулиновыъ кристаллов [16,17]. Следовательно, для корректной гексамеризации и процессинга инсулина в β-клетке необходим Zn2+, это и объясняет экспрессию большого количества Zn-транспортных белков в β-клетках [18]. Следующим этапом кристаллический инсулин секретируется из β-клеток, кристаллы растворяются и гексамер диссоциирует на активные мономеры инсулина и ионы Zn2+, приводящее к быстрому снижению осмотического давления ионов Zn2+ и изменение pH с кислой 5,5 до 7,4. При этом при гипергликемии повышенное содержание Zn2+ могут играть весомую роль при гибели клеток по паракринному механизму и приводить к развитию сахарного диабета 2 типа [17].

Согласно ВОЗ по исследованию и обработке эякулята предполагает референсное значение нормы Zn ≥2,4 мкмоль/эякулят [19]. В семенную жидкость цинк поступает главным образом из предстательной железы в виде комплекса с цитратом. Интересно подметить что в предстательной железе цинка больше в 87 раз чем в плазме крови [20]. Так же в больших значениях можно обнаружить в клетках Лейдига, в сперматогониях типа В и сперматозоидах [21]. Именно сперматозоид служит носителем запаса Zn для нормального течения дробления и даже фиксации бластулы в полость матки.

Стоит упомянуть о важной непрямой, но очень сильном антиоксидантной функции этого иона. Цинк являясь активатором металлотионеинов – белков с низкой молекулярной массой, способных препятствовать окислительному стрессу и регялтором супероксиддисмутазы-фермента, разрушающего

супероксидный радикал, сохраняет клетку от излишней кислородной агрессии, проявляя непрямое мощное антиоксидантное влияние.

ВЫВОД

Микроэлемент, не имеющий депо хранения в организме человека. Который при нехватке в пищевом рационе быстро снижается может иметь огромную биохимическую и физиологическую роль. В данном обзоре было продемонстрированы некоторые из функций цинка, в здоровом организме человека. Так среди основных действий Zn2+ можно подметить его специфический способ соединения пептидами с образованием цинковых пальцев, его активирующее влияние на ферменты, его роль в передаче импульсов в ЦНС, важное значение в репродуктивной системе мужчин и многое другое.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)

1. The role of zinc in genomic stability / R. Sharif [et al.] // Mutat Res. — 2012. — Vol. 733. — P. 111–121.
2. Andreini, C. A bioinformatics view of zinc enzymes / C. Andreini, I. Bertini // J. Inorg. Biochem. — 2012. — Vol. 111. — P. 150– 156.
3. Bitanihirwe, B. K. Zinc: the brain’s dark horse / B. K. Bitanihirwe, M. G. Cunningham // Synapse. — 2009. — Vol. 63. — P. 1029–1049.
4. Лифляндский, Владислав Геннадьевич. *Новейшая энциклопедия незаменимых веществ: витамины, минералы и другие биологически активные вещества*. ОЛМА Медиа Групп, 2004.
5. Барановский, А. Ю. "Диетология." (2012).
6. Шейбак, В. М. Биологическая роль цинка и перспективы медицинского применения цинк-содержащих препаратов / В. М. Шейбак, Л. Н. Шейбак. — Гродно, 2003. — 82 стр
7. Institute of Medicine (US) Panel on Micronutrients. Dietary Reference Intakes for Vitamin A, Vitamin K, Arsenic, Boron, Chromium, Copper, Iodine, Iron, Manganese, Molybdenum, Nickel, Silicon, Vanadium, and Zinc. Washington (DC): National Academies Press (US); 2001. PMID: 25057538.
8. *Стипанук, Марта Х. (2006). Биохимические, физиологические и молекулярные аспекты питания человека. W. B. Saunders Company. Стр. 1043-1067*
9. Гринвуд и Эрншоу, 1997, стр. 1224-1225

10. Берг Дж.М. (апрель 1990). "Цинковые пальцы и другие домены, связывающие металлы. Элементы для взаимодействия между макромолекулами". Журнал биологической химии. ***265*** *(12): 6513-6.*

11. Laity JH, Lee BM, Wright PE. Zinc finger proteins: new insights into structural and functional diversity. Curr Opin Struct Biol. 2001 Feb;11(1):39-46. doi: 10.1016/s0959-440x(00)00167-6. PMID: 11179890.

12. Frederickson CJ, Moncrieff DW. Zinc-containing neurons. Biol Signals. 1994 May-Jun;3(3):127-39. doi: 10.1159/000109536. PMID: 7531563.

13. Perry DK, Smyth MJ, Stennicke HR, Salvesen GS, Duriez P, Poirier GG, Hannun YA. Zinc is a potent inhibitor of the apoptotic protease, caspase-3. A novel target for zinc in the inhibition of apoptosis. J Biol Chem. 1997 Jul 25;272(30):18530-3. doi: 10.1074/jbc.272.30.18530. PMID: 9228015.

14. Cadmium-113 nuclear magnetic resonance studies of bovine insulin: two-zinc insulin hexamer specifically binds calcium / J. L. Sudmeier [et al.] // Science – 2001. – Vol.212. – P.560–562.

15. Chausmer, A. B. Zinc, insulin and diabetes / A.B. Chausmer //J. Am Coll Nutr – 1998. – Vol.17. – P.109– 115

16. Dunn, M. F. Zinc–ligand interactions modulate assembly and stability of the insulin hexamer – a review / M. F. Dunn // Biometals – 2005. - Vol.18. – P.295–303

17. Zinc homeostasis in metabolic syndrome and diabetes / X. Miao [et al.] // Front. Med. – 2013. – Vol.7. – P.31-52.

18. Wijesekara, N. Zinc, a regulator of islet function and glucose homeostasis/ N. Wijesekara, F. Chimienti, M. B. Wheeler // Diabetes Obes Metab – 2009. – Vol.11. – P.202–214.

19. WHO laboratory manual for the examination and processing of human semen. World Health Organization. 2010. Geneva (Switzerland): WHO Press

20. Favier A.E. The role of zinc in reproduction. Hormonal mechanisms. Biol Trace Elem Res. 1992;32:363–382. Doi: 10.1007/BF02784623.

21. Kambe T., Tsuji T., Hashimoto A., Itsumura N. The physiological, biochemical, and molecular roles of zinc transporters in zinc homeostasis and metabolism. Physiol Rev. 2015;95(3):749–784. Doi: 10.1152/ physrev.00035.2014

INGLIZ VA O'ZBEK MADANIYATLARIDA “MEHMONDO’STLIK” NING SEMIOTIK TAVSIFI.

Sanakulova Maftuna Qaxramon qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti
magistranti
e-mail:mizrobovamaftuna@mail.ru

ANNOTATSIYA

Mehmondo'stlik lingvistik-madaniy tushuncha sifatida turli xil semiotik (emblematik, allegorik va ramziy) belgilarga ega. Emblematic xususiyatlar kommunikativ va og'zaki tavsifga asoslanib, tillarning leksikasida xulq-atvorning namoyon bo'lishi xususiyatlari, allegorik xususiyatlar – ko'rib chiqilayotgan tillarda ushbu hodisaning xorijiy ma'nosi, ramziy xususiyatlar - ushbu hodisani ko'rib chiqilayotgan lingvokulturalarda badiiy tushunishni tavsiflash xususiyatlari.

Kalit so`zlar. *Emblematic, lingvistik-madaniy semiotic, allegorik, kommunikativ, xulq-atvor, lingvokultura.*

SEMIOTIC DESCRIPTION OF "HOSPITALITY" IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES.

ABSTRACT

Hospitality as a linguistic-cultural concept has various semiotic (emblematic, allegorical and symbolic) signs. Emblematic features are based on communicative and verbal description, features of the manifestation of behavior in the lexicon of languages, allegorical features - the foreign meaning of this phenomenon in the languages under consideration, symbolic features - features describing the artistic understanding of this phenomenon in the linguistic cultures under consideration .

Key words. *Emblematic, linguistic-cultural semiotic, allegorical, communicative, behavioral, linguoculture.*

KIRISH

Hozirgi zamon tilshunosligida lingvomadaniy va konseptual yo‘nalishlar universal va milliy o‘ziga xos qirralarni aniqlash va ochib berish nuqtai nazaridan dolzarblik kasb etmoqda. Ko‘plab taniqli tilshunoslarning fikriga ko‘ra, konsept olam manzarasining bir bo‘lagi, butun lingvistik jamoaning qadr-qiymat tushunchalarini aks ettiradi, madaniyatni yaratadi va undan paydo bo‘ladi. Til xalqning madaniyati va milliy mentalitetini o‘zida aks ettiradi. Mentalitet birliklari esa madaniy va milliy

konseptlar orqali anglashiladi.[13] O‘zbek xalqi mentalitetiga xos ham madaniy, ham milliy konseptlardan biri bo‘lgan “mehmondo‘stlik” ingliz millatida ham qadrli bo‘lib, ushbu tushuncha ikki xalq o‘rtasidagi “universal konsept” hisoblanadi. Mehmondo‘stlik tushunchasini konsept sifatida o‘rganilishiga sabab u bevosita xalq madaniyati, uning urf–odatlari, qadriyatlari bilan bog‘likligidir. Madaniyat qanchalik chuqur bo‘lsa u tilda shunchalik chuqur iz qoldiradi. Ana shu “izlar” tilning leksik qatlamidagi so‘z va so‘z birikmalari, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, iboralarida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mehmondo‘stlik tushunchasini konsept sifatida o‘rganilishiga sabab u bevosita xalq madaniyati, uning urf–odatlari, qadriyatlari bilan bog‘likligidir. Madaniyat qanchalik chuqur bo‘lsa u tilda shunchalik chuqur iz qoldiradi. Ana shu “izlar” tilning leksik qatlamidagi so‘z va so‘z birikmalari, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, iboralarida namoyon bo‘ladi.

Tahlil ingliz va o‘zbek yozuvchilarining roman janridagi asarlaridan yig‘ilgan misollar asosida olib borildi. *Abdulla Qodiriyning ”O‘tgan kunlar*” va *Sharlotta Brontening “Jane Eyre”* hamda *Somerset Maugxamning “The moon and sixpence”* nomli romanlaridan yig‘ilgan misollar orqali “mehmondo‘stlik” konseptning til sur’atida qanday namoyon bo‘lishi tahlil qilindi.

1) Mehmondo'stlik milliy muhitida qo'llanuvchi leksik birliklar
2) Mehmondo'stlik ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatning muvofiqligini ifodalovchi leksik birliklar
3) Mehmon va mezbonni tasvirlovchi leksik birliklar
4) Mehmonni kutib olish va ular bilan xayrlashish odatlari
5) Mehmonxonaning tasvirlanishi.

Birinchi xususiyatga kelsak, noyob leksemalar va iboralar milliy tilda ishlatiladigan mehmondo'stlik janridagi so'zlarni anglatib, boshqa til tizimlarida semantik o'xshashlikka ega emas. Ruzmetova N.B. taklif etgan klassifikatsiyaga asosan esa ushbu leksemalar *mehmondo'stlik milliy muhitida qo'llanuvchi leksik birliklar* sirasiga kiradi. Bunday leksemalar mezbonning mehmonga bo'lgan munosabatini ham bildirib, o'zbek tilida quyidagi noyob leksemalar aniqlandi:[14]

- *Ulug'lab qarshilash*;
- *Yuqoridan joy ko'rsatish*;
- *Tancha* (oyoqlarni isitish uchun pastki tomonda ko'mir yoqiladigan stol)

[13] Kibrik A. YE. Modelirovaniye yazыkovoy deyatelnosti v intellektualnыx sistemax. – M., 1987. (280 s.) – S.
[14] Qodiriy A. ”O‘tgan kunlar” roman. T. : Sharq, 2009. 400 b.

NATIJALAR

O'zbek tilida «mehmondo'stlik» tushunchasi - shaxsning, shuningdek oilaning, odamlar guruhining yoki butun bir xalqni o'z uyida mehmon qilishni anglatadi. Mehmon kutish stereotip sifatida ingliz va o‘zbek halqlarining oilaviy an’analarida o‘z ifodasini topgan. Maqollar va idiomalarni tahlil qilib aytish mumkinki, o‘zbeklarda mehmonni fahr va hursandchilik bilan kutib olish qoidasi borligini sezish mumkin. Masalan, *Ochiq chehra bilan; Hush ko‘rdik* idiomalari va «*ochiq yuz – ne’matdan yahshi»; «Oshing oz bo‘lsa ham, fe’ling soz bo‘lsin»*. Mehmonni kutib olish o‘zbek madaniyata uni uyning eng yahshi joyiga o‘tkazish bilan ham belgilanadi. Mehmonni ranjitib qo‘ymaslik uchun, uni qulay, toza, chiroyli joyga o‘tkazish maqsadida mezbon shoshib qoladi. Odatda mehmon uyning “to‘ri” siga taklif qilinadi, bu mezbonni mehmonga ko‘rsagan hurmati deb tushuniladi. Bularning barchasi mehmondo'stlikning emblematik xususiyatlariga kiradi.

Ingliz tilida «*hospitable / hospitality*» tushunchasining nominativ ma'nosi bu begonalarga, mehmonlarga xayrixoh, do'stona munosabatda ifodalanadi: *“They said we should stay another night, but I didn’t want to take advantage of their hospitality”.* «*Hospitable*» tushunchasining metaforik ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri, fikrlar va harakatlarning ochiqligini umumiy ma'no bilan belgilashdan iborat: *«open to suggestions», «receptive, open, ready or willing favouribly, receptive to the proposals»: “hospitable to new ideas”*[15]

Ushbu lingvokulturalarda «mehmondo'stlik» konsepsiyasining emblematik belgisi bu turli xil gastronomik belgilardan foydalanishdir. Shunday qilib, «choy» dominanti mehmonga taklif qilishning emblematik formulasi hisoblanadi. O'zbeklarda «choyga marhamat», « keling choy ichamiz», « bir piyola choy ustida», inglizlarda «come and have some tea», «Will you come to tea tomorrow? kabi etiket ifodalar tushunchalari mavjud. Choy marosimi mehmondo'stlikning elementi sifatida hayotda muhim o'rin tutadi. Va choy tayyorlash va uni mehmonlarga ulashish mezbonning mutlaq vakolati hisoblanadi. O'zbek madaniyatida mehmonga tortishdan oldin, issiq choy idishda 3 marta chayqatiladi va to‘rtinchi marta toza piyolada mehmonga uzatiladi. Bunga ajablanmaslik kerak. Birinchidan, buning natijasida choy yanada mazaliroq bo‘ladi, mehmonga choy quyilgan toza idish esa chuqur hurmat va munosabatlar pokligining belgisidir.[16]

O'zbek va ingliz tilshunosliklarida «choy» tushunchasi iliqlik hissi bilan bog'liq bo'lgan oilaviy va do'stona uchrashuvlar, tinchlik va tartib ramzidir. *«Tea over and*

[15] Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. Oxford: Russian Langauge Oxford University, 2007
[16] Ундрицова М.В. Глюттонический дискурс: лингвокультурологические, когнитивно-прагматические и переводические аспекты. Дисс.канд. филол. наук. – М.: 2015 – С. 13

the tray removed, she again summoned us to the fire; we sat one on each side of her, and now a conversation followed between her and Helen, which it was indeed a privilege to be admitted to hear».

O'zbek tilshunosligida mehmondo'stlikning allegorik belgisi *non* va *to'kin dasturxon yozish, rizq va baraka* hamda *osh tayyorlash jarayoni* bilan ifodalanadi. Mehmon kim bo'lishidan qat'iy nazar unga albatta choy va non taklif qilinadi. O'zbek millati mehmonning kelishini rizq va baraka bilan bog'lashi quyidagi misollarda ifodalanadi: «Mehmon kelsa eshikdan rizqi kelar teshikdan», «Mehmon kelgan uydan baraka arimaydi», «Mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan yonadi». “Odat bo‘yicha o‘zbekning xonadoniga kelgan kishi (tanishmi yoki notanishmi) dasturxonga, bir piyola choyga yoki non-tuz totishga taklif qilinadi.

Ingliz tilida «mehmondo'stlik»ning semantik maydonida inglizlarning milliy xarakterining o'ziga xos xususiyatlari kamroq ifodalangan (ularning his-tuyg'ulari va harakatlarini boshqarish). S. G. Ter-Minasovaning fikricha, «ingliz idiomatikasida mehmondo'stlik ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyat sifatida umuman ijobiy yoki salbiy tarzda taqdim etilmaydi» . Biroq, uning ingliz tilshunosligidagi semantikasi «uy» konsepti va uning tarkibiy qismlari orqali tushuniladi, masalan:«*make yourself at home», «make smb free of one’s house», «keep open doors».*[17]

XULOSA

Mehmondo'stlik lingvistik-madaniy tushuncha sifatida turli xil semiotik (emblematik, allegorik va ramziy) belgilarga ega bo'lib, solishtirilayotgan lingvokulturalarda «mehmondo'stlik» konsepsiyasining emblematik belgisi bu turli xil gastronomik belgilardan foydalanishdir. Idioetnik belgilar - semiotik belgilarga aloqa sohasini, tonalligini va mos yozuvlar tasnifini tavsiflovchi belgilar kiradi. Ingliz madaniyatida aloqalar, maqom bilan bog'liq odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilish kabi ramziy shakllar ko'proq ustunlik qilsa, o'zbek madaniyatida muloqotning taqdimot modeli ustunlik qilib, mehmondo'stlik qoidalari odatdagi muhit me'yorlariga mos keladi: mehmon o'z xohishiga ko'ra qachon kelish va ketishi, va tashrif sababini tushuntirmaslik huquqiga ega. Mehmondo'stlikning allegorik belgisiga to'xtaladigan bo'lsak, o'zbeklarda u «choy» va «to'kin dasturxon yozish» tushunchalari bilan ifodalansa, ingliz tilshunosligida «uy» konsepti va uning tarkibiy qismlari orqali tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Кибрик А.Ю. Моделирование языковой деятельности в интеллектуальных системах max. – М., 1987. (280 с.)

[17] Тер-Минасова С.Т. Язык и межкультурная коммуникация. М.: Слово / Слово, 2000. – 624 с.

2. Qodiriy A.”O‘tgan kunlar” roman. T: Sharq, 2009. 400 b.
3. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. Oxford: Russian Langauge Oxford University, 2007
4. Ундрицова М.В. Глюттонический дискурс: лингвокультурологические, когнитивно-прагматические и переводические аспекты. Дисс.канд. филол. наук. – М.: 2015 – С. 13
5. Тер-Минасова С.Т. Язык и межкультурная коммуникация. М.: Слово / Слово, 2000. – 624 с.

O`SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Matgafurova Dilfuzaxon Oxunovna
QDPI, fakultetlararo pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Abdusalomova Moxinur Muzaffar qizi
QDPI, 1-bosqich xorijiy tillar fakulteti, ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada O`smirlik davri haqida tushuncha, o`smirlarning anatomik fiziologik xususiyatlari va o`smirlarning bilish jarayonlarining xususiyatlari taxlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *O`smirlik davri, fiziologik xususiyatlari, o`smirlarning bilish jarayonlar, bolalarning psixik rivojlanishi, ta’lim va tarbiya.*

АННОТАЦИЯ

В статье проанализировано понятие подросткового возраста, анатомо-физиологические особенности подростков и особенности познавательных процессов подростков.

Ключевые слова: *Подростковый возраст, физиологические особенности, познавательные процессы подростков, психическое развитие детей, обучение и воспитание.*

ABSTRACT

The article analyzed the concept of adolescence, the anatomical and physiological characteristics of adolescents and the characteristics of cognitive processes of adolescents.

Key words: *Adolescence, physiological characteristics, cognitive processes of adolescents, mental development of children, education and training.*

KIRISH

O`qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o`smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o`tish davri ham deb ataymiz. O`smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o`z ichiga qamrab oladi, ya’ni 5-8 sinf o`quvchilarini.

O`smir o`quvchilarni ta’lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba’zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta

yoshdagi maktab o`quvchilariga qaraganda o`smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko`p qiyinchiliklar bo`ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o`smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo`lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o`zgarishi, hamda hayot sharoitining o`zgarishi bilan bog`liqdir.Bu davrda o`smirlarning o`z shaxsiy fikrlari paydo bo`ladi. Ularda o`z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo`yicha o`smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug`iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o`rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdar. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o`tiladi.sana shu nuqtai nazardan o`smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang`ich sinfni tugatadi. Bolaning o`rta maktabda o`qishga o`tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi.

O`smirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi. Shunday qilib, o`smirlarga ta’lim-tarbiya berishning yangi to`g`ri usullari hamda vositalarni topishi uchun o`smirlik yoshining o`ziga xos hususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak.

O`smirlik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt o`tishi bilan o`zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o`zgaradi. Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o`smirlar ongiga og`ir, ba’zan kuchi yetmaydigan bo`lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o`smirlar uchun xarakterli bo`lgan norozilik, qo`pollik, qaysarlik, o`z-o`zini analiz qilishga moyillik sub’ektiv olamga va shunga o`xshash hislatlarni keltiradigan jinsiy etilishga nihoyatda katta ahamiyat beradilar. Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo bo`ladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar go’yo o’smirlar ongida hukmron bo`ladi. Ularning xulqi atvorini belgilaydi. Mana shu tariqa oqibat natijada o`smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg`iz sof biologik omil deb qaraladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg`iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo`lmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o`zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo`lishi natijasida o`smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta’lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o`smirlarning

konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo`lmaydi. Bu davrda yurak qon tomirlari sitsemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisasi kuchlaniladi. Bu paytda yurak xajmi jihatidan ancha kattalashadi, ancha kuchli ishlay boshlaydi. Ko`pincha qon aylanishining vaqtincha bo`zilishida qok bosimining yoshga bog`liq xolda ko`tarilishiga, yurak faoliyatining zo`r berilishiga olib keladi. Natijada o`smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak urishi, bosh og`rig`i paydo bo`ladi.

O`smirlarning yoshi ham jismoniy psixik xususiyatga egadir, organizm Pavlov ta'limotiga ko`ra, bir butun sitsemadan iborat bo`lib, bunda barcha to`qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog`langan bo`ladi. Lekin bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan bog`langan yuqori qismi I.P.Pavlov so`zi bilan aytganda organizmda sodir bo`ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po`tsi asosiy yetakchi rolni o`ynaydi. O`smirlik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o`sa boshlaydi va miya ichki tuzilishining murakkablashishga o`tadi. Katta yarim sharda nerv hujayralarning etilishi tugallanadi.

O`smir organizmining jismoniy taraqqiyoti uning organlari va to`qimalarining rivojlanishi bosh miya po`tsining boshqaruvchanlik roli otsida amalga oshadi,ammo o`sib borayotgan to`qimalar va organlar o`z navbatida nerv sitsmasining o`sishiga ta'sir ko`rsatadi. O`smirlik yoshida o`pkaning xajmi kattalashadi nafas olish ancha miqdorda tezlashgan va sayoz bladi. O`smirlik yoshida bola qancha toza havoda yursa shuncha foydalidir.Bu davrda ichki sekretsiya bezlarining qayta qurishiga bog`liq bo`lgan jinsiy etilish davridir. Bu bezlarning yetilishi kishi organizm faoliyatida xizmati juda kattadir. O`smirlik yoshining xarakterli xususiyatlaridan biri jinsiy etilish jarayonidir.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki jinsiy yetilishning boshlanish davri o`g`il bolalarda 12-13 yoshda, qiz bolalarda 11-12 yoshda boshlanadi. Ko`pchilik o`g`il bolalar hozirgi vaqtda jinsiy yetilish 15-16 yoshda, qiz bolalarda 13-14 yoshlarda kuzatiladi. O`qituvchilar sinf rahbarlari datsavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta'sir qilishdan ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta'sir kursatadi.

O`smirlarda jinsiy etilish bilan birga shu paytgacha ularga noma'lum bo`lgan qandaydir xislar, kechinmalar qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish noma'lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bulishi tabiiydir. O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligini oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa voqea va hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks zttirilishi bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlandi Aynan o'smirlik davridan boshlab, inson aynan nutq bilish

jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi o'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari - "qanday qilib to'g`ri yozish kerak?", "qanday qilib yaxshiroq aytish mumkni?" kabi savollar juda qiziqtiradi.

O'smirlar maktabdaga o'qituvchilar. kattalar ota-onalar nutqidagi kamchiliklarga kitob, gazeta radio va televideniе diktorlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat qilish o'rgatsa, ikkinchi tomondai kattalar ham nutq, qoidalari bu'zilishi mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi. U endi o'z mutqida yosh bola singari emas, bolki katta odamlardan so'zlarni tanlashga harakat qiladi. Nutq madaniyatnii egallash borasida o'smir uchui o'qituvchi, albatta, namuna bo'lishi shartdir.

Aynan maktab talimi o'smir bilshi jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishdi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq ham oshadi, ham yozma mavjud bo'lishi bilan ham kuchli vosita xisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g`ri tashkil etiliishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g`ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi

Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirniig muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishi ehtiyoj va intilish hisoblanadi. O'smirlik davrida o'qish va yozma monologik nutq jadal rivojlanadi. 5 sinfdan boshlab to 9-sinfgacha o'qish to'g`ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monilogik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, ogzaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o'zgaradi. Yozma nutq ham yaxshilangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar.

O'smirlarning nutqi tula tafakkur bilan bog`liq holatida amalga oishriladi. 5-6 sinflardagi o'quvchilar ogzaxi va yoama matn uchun reja to'zib, unga omal qila oladalar. O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi boglanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalilar bilan fikrlash qobilyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi.Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat kiladi

J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy xayot uch narsaning ta'siri - til, mazmun, koidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar

o’z-o’zidan tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi.11-12 yoshdan boshlab o’smir endi mantiqiy fikrlab harakat kila boshlaydi.

O’smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o‘rgana boshlaydi. O’smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko’tarila olishi, o’quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi.

O’smir tafakkur ko’pincha umumlashtirishga moyil bo’ladi. O‘smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo’lishi qimmatli va obro‘li xisoblanadi O’smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o’zgarishlar o’zaro bog’liq bo’ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o’smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o’zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkuriy rivojlanishi bilan belgalanadi. O’smirlik davrida diqqat, xotira, tasavvur to’la mustaqillik kasb etib, endi ularni o’z ifodasiga ko’ra boshqara oladigan bo’ladi. Bu davrda qaysi yetakchi funksiya (diqqatni, xotirani yoki tasavvur) ustunlik qilayotgani yaqqol namoyon bo’lib, har bir o’smir o’zi uchun ahamiyatliroq bo’lgan funktsiyani e’tiborga olish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Ushbu funktsiyalarning rivojlanish xususiyatlarini ko’rib chiqamiz. Diqqat:Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilsa, o’smirlik davrida bola o’z diqqatini o’zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat xollarda o‘quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O’smir o’z diqqatini to’la ravishda o’zi uchun axamiyatli bo’lgan va yuqori natajalarga erishishi mumkin bo’lgan faoliyatlarga qarata oladi. O‘smirni diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo’lishi mumkin.

Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o’qituvchi tomonidan doimo qo’llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko’tgarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan, shuningdek, o’smirning dars jarayonida o’z tengdoshlari orasida o’zini ko’rsatashi uchun sharoitni yaratilishi ham o‘smirdagi diqqatni ixtiyorsizlak ixtayoriga aylanishida zamin bo’lib xizmat qilishi mumkin. Lekin o’smirlik davrida juda qattiq charchash xolatlari xam bo’ladi, aynan 13-14 hamda 16 yoshlarda charchash chiziga keskin ko’tariladi. Bunday holatlarda o’smir atrofdagi narsa va voqealarga to’liq diqqatini qarata olmaydi, diqqatini ko’rnishlariga o‘smirlik erishish va yo’qotish bo’yicha to‘la qarama-qarshi bo’lgan davr hisoblanadi.

Taraqqiyotning bu tiklangan tipi o`smirni yangi yosh bosqichi katta maktab yoshiga o`tishga tayyorlaydi. O`smirlik yoshi kishi shaxsining tarkib topish jarayonida alohida o`rin to`tadi. Bu davr asosiy davr hisoblanadi. Chunki bu yoshda g`oyat muhim psixologik o`zgarishlar paydo bo`ladi.

Har xil psixologiya o`zgarishlar va shaxsning taraqqiyoti, eng avvalo, mana shu shaxsning faoliyat xarakteriga bog`liqdir. O`smirning faoliyati o`qish mehnat va o`yin jarayonlarini o`z ichiga oladi. Mana shu jarayonga to`xtalib o`tamiz.

1. O`smir kichik maktab o`quvchilaridan farq qilgan xolda birinchi bo`lib ilmiy bilishda ishtirok etadi. Uning oldida birinchi faqat ayrim narsa va hodisani emas, barcha narsa va hodisalar uchun umumiy bo`lgan qonuniyatlarni tushunish bo`lib olish uchun ishlatiladi. Agar kimki maktab yoshi asosan narsalar,tabiat va jamiyathodisalari to`g`risida gasvirlar to`plash yoshdan iborat bo`lsa,o`smirlik yoshida ana shu tabiat va jamiyat hodisalar to`g`risida sistsematik tushunchalar paydo bo`ladi. Beshinchi sinfdayoq ayniqsa oltinchi sinfga kelib fizika, algebra, geometriya, tarix fanlari o`tila boshlanadi. Abtsrakt tafakkur tez o`sa boshlaydi. O`quvchilar hodisalarning sabablarini tushunishga hodisalarni ma’lum qonuniyatlar doirasida ifodalashga bu qonuniyatlarda foydalanishga intiladilar.

2. O`smirlik yoshining rivojlanishiga ko`proq mehnat faoliyati ta’sir ko`rsatadi.O`smirlik yoshida mehnat ancha uyushqoqlik xarakterida bo`ladi.

3. O`smirlik shaxsning tarkib etishida o`yin ahamiyatini yo`qotmaydi.O`yin o`smirlik yoshida yuksak ahloqiy tuyog`ularning irodaviy xarakter xislatlarning o`sishiga yordam beradi. O`yin o`smirni intizomli bo`lishga o`rgatadi,o`yin o`ylashga,fahimlashga eslab qolishga biror narsani qilishdan oldin planlashtirishga va diqqatli bo`lishga da’vat etadi. O`smirlik kollektivi boshlang`ich sinf o`quvchilari kollektiviga qaraganda maktabda ham uyda ham, butunlay boshqa o`rin to`tadi. Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarning qiziqishi va faoliyatlari asosan sinf ishlari bilan cheklangan bo`ladi. O`smirlik yoshida va o`quvchilar pioner drujinasining barcha ishlarida esa ishtirok bo`ladilar.Bularning hammasi o`quvchilarni aloqasini tobora murakkablashtirib boradi.Bu yerda eng asosiy narsa shundaki,bu narsalar o`quvchilar kollektivining ko`p qirrali ijtimoiy hayoti bilan yashay boshlaydilar va bu hayotdan o`z o`rinlarini topishga harakat qiladilar.

O`smir shu yoshning datslabki davrlarida oldin o`zlashtirib bilimlari asosida yangi bilim ola boshlaydi. Bu bilim boshlang`ich maktabda ham o`qituvchi ham tarbiyachi bo`lgan o`qituvchi emas. U endi bir qator o`qituvchiga ko`nikish har biriga o`ziga yarasha muomala qilishi ularning talablariga ko`nikishi va shunga qarab o`zini tutish kerak. Shu sababli o`quvchi o`smirlar bir xil to`la sezmaydilar ular kattalarning shaxsiy xulqlari faoliyatlari va munosabatlarini quradilar. Ularning kattalar tomonidan o`zlariga shaxslarga berilgan har xil baholarni eshita boshlaydilar.

O`smirlik yoshiga yetgan bolalarda burch va javobgarlik tuyg`ulari yetarli darajada o`sgan bo`ladi. Bolalar o`zlari ongli ravishda tanlagan qobil bo`lib qoladi. Mana shu davrda kattalar bolalarga «bemalol ish topshirishni ishonadilar»o`smirlarni

oilada «kichkina» deb hisoblamay ulardan ho`jalik ishlariga yordam berish topshirilgan ishga javob berishni talab qiladilar. Ular bilan maslahatlashadilar ba'zi o`smilar ayniqsa ular o`rta maktab yoshining oxiriga borganda hatto o`ziga yaqinlarini qo`llovchi va tayanchi bo`lib qoladilar.

XULOSA

O`smirda bosh miya po`tsining po`tsi otsida qismlari utsidan kontrolligi ortib boradi po`st va po`st otsida qismlari doimiy ravishda birga harakat qiladi. Ayrim xollarda po`tsloq osti qismining faoliyatini nazorat qilmay qoladi. Bu o`smirning betayinligi, jizzakiligi va emotsional xislariga berilganligidan dalolat beradi. Tormozlash reaktsiyasini paydo qilish xarakteri turg`un bo`lmay qoladi. Qo`zg`alish jarayonlari ba'zan shu qadar kuchli bo`ladiki, o`smir yoqimsiz xarakterlarini tormozlay olmay o`zini to`ta olmay qoladi.

Qo`zg`alish jarayonlari jo`shqin, lekin tez o`sadi. Ikkinchi tomondan o`smir kuchli hayajonlanish paytida ayniqsa tegishli ijtimoiy sabablari asosida hayajonlanganda o`z hatti-harakatlarini idora etaolmaydi. O`smirlik yoshida ikkinchi signal sitsemasining roli kuchaya boradi. Qo`zg`ovchi vazifasini bajaruvchi so`z bilish jarayonida bashqa kishilar bilin munosabatda bo`lishda va o`z hatti-harakatlariga baho berishda ko`proq rol o`ynay bashlaydi. Shu bilan bir qatorda o`smirning nerv sitsemasining o`sishi hali tug`ilmagan bo`lib, tarkib topish bosqichida bo`ladi. U uzoq vaqt davom etadigan kuchli qo`zg`aluvchiga bardosh bera olmaydi. Ba'zan shu sababli ancha tez qo`zg`alish holatiga o`tib ketadi. Bu esa o`smir nerv sistsemasining ma'lum darajada bo`shligidan dalolat beradi.

O`smirning nerv sitsemasining tarkib topayotgan munosabatlari tarkibiy natijasida kuchayadi va mutsahkamlanadi. O`smirni ish o`qish hamda sport mashg`ulotlari paytida to`g`ri va chuqur nafas olishga o`rgatish zarurdir. Bu narsa shuning uchun ham muhimdirki, bo`yning tez o`sishi organizmda modda almashishining jadallashishi bilan o`smir ko`p miqdorda kislorodga muhtoj bo`ladi. Bu yoshda o`smirning toza havoda bo`lishi ayniqsa muhimdir. O`smirlik yoshida yurak ikki baravardan ko`proq o`sadi, gavda esabir yarim barobar o`sadi. Arteriyalari diametrining o`sishi yurakning o`sishidan orqada qoladi. Qon tomirining yo`li yurak hajmiga nisbatan kamayadi va bu nerv qalqonsimon bezlari faoliyatining kuchli darajada tezlashuvi bilan birgalikda qon bosimining ortishiga va yurak faoliyatining kuchayishiga olib keladi.

REFERENCES

1. G'oziyev E.G'.. Mamedov K.K.."Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003.
2. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.

3. Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari, sabab va yechimlari. Maqolalar to'plami. Toshkent. 2020.

XALQARO TIJORAT ARBITRAJDA XARAJATLAR

Rahmatillayev Elnur Anvar o`g`li
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik huquqi”fakulteti 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Biznes egasi sifatida siz boshqa kompaniyalar bilan nizolarni hal qilish usuli sifatida arbitraj haqida eshitgan bo'lishingiz mumkin. Ammo arbitraj aniq nima va uning narxi qancha? Xalqaro tijorat arbitraji ham tomonlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal qilishning alternativ usuli, bundan tashqari yuqori xarajatlaridan qochish uchun mexanizm hisoblanadi. Ushbu maqolada xalqaro savdo arbitrajining xarajatlarga ta’siri o‘rganiladi va xarajatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rganiladi,shu bilan birga ushbu maqolada men xalqaro tijorat arbitraji bilan bog'liq xarajatlarni, bu xarajatlar nima uchun zarurligini va arbitraj jarayoni samaradorligini maksimal darajada oshirish bilan birga xarajatlarn minimallashtirishni o'rganib chiqaman.

Kalit so`zlar: *abitraj, arbitr, ICC, LCIA, xarajat, sud, taraflar, nizo, minimallashtirish, samaradorlik.*

ABSTRACT

As a business owner, you may have heard of arbitration as a way to resolve disputes with other companies. But what exactly is arbitrage and how much does it cost? International commercial arbitration is also an alternative method of resolving disputes that may arise between the parties, as well as a mechanism to avoid high costs. This article examines the cost implications of international commercial arbitration and examines the factors that influence costs, while in this article I examine the costs associated with international commercial arbitration, why these costs are necessary, and how to minimize costs while maximizing the efficiency of the arbitration process.

Key words: *arbitration, arbitrator, ICC, LCIA, cost, court, parties, dispute, minimization, efficiency.*

KIRISH

Arbitraj alternativ nizolarni hal qilishning bir turi (ADR) bo'lib, unda nizoning taraflari o'z ishini sudga olib borish o'rniga bittagina uchinchi tomon arbitri (lar) ko'rib chiqishga rozi bo'lishadi. Qolgan sud jarayonlaridan ko`ra aynan arbitraj ko`p tanlanadigan sud jarayoni hisoblanadi, chunki u odatda tezroq, kamroq rasmiy va

maxfiyroq bo'ladi. Arbitr yoki arbitrlar tomonlarning da`vosini eshitadi hamda dalillarni o`rganadi va so`ngida ikkala tomon uchun ham majburiy bo`lgan arbitraj hal qiluv qarorini chiqaradi.[18]

Arbitraj juda ko`p sohalarda qo`llanilishi mumkin bo`lgan sud jarayaonidir,shu o`rinda xalqaro tijoratda ham arbitraj keng ko`lamda afzal ko`rilgan sud jarayoning bir turidir. Xalqaro tijorada arbitrajni afzaligi shundaki, u turli mamlakatlardan kelgan tomonlarga turli huquqiy tizimlar bo`lganligi uchun ularga bog`liq bo`lmagan holda nizolarni hal qilish imkonini beradi.Shu bilan birga yuqori narxdagi xarajatlardan qochgan holda nizoni tez hal qilish imkoni bo`lganligi ham arbitrajning bir yutug`dir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umumiy qilganda arbitraj sudga arzon alternativa bo'lishi mumkin bo'lsada, u bepul emas. Arbitraj xarajatlari bir qator omillarga qarab turlicha bo'lishi mumkin, jumladan ishning murakkabligi, arbitrlar soni va arbitraj joylashgan joyi.Bundan tashqari, Xalqaro tijorat arbitraji tomonlar tomonidan qilingan xarajatlarni o'z ichiga oladi, bunga arbitraj xizmatlari uchun ma'muriy to'lovlar, advokat to'lovlari, hujjatlarni tayyorlash va tarjima to'lovlari, guvohlarning to'lovlari va arbitrlarning to'lovlarini to'lash kabi boshqa tegishli xarajatlar kiradi. Arbitraj xarajatlari ikki toifaga bo'linishi mumkin:

-ma'muriy to'lovlar;

- arbitr gonorari(to`lovi). Ma'muriy to'lovlar arbitraj sudi tomonidan, masalan, Xalqaro savdo palatasi (ICC) yoki London xalqaro arbitraj sudi (LCIA) tomonidan olinadi[19]. Ushbu to'lovlar ishlarni ko`rish,arbitr tayinlash va arbitraj tinglovi uchun joy kabi narsalarni qamrab oladi.Arbitr gonorari(to`lovi)arbitrlarning o`zlari tomonidan sarflagan vaqti hamda tajribasidan kelib chiqqan holda olinadi. Ushbu to'lovlar arbitr (larning) tajribasi va obro'siga, shuningdek ishning murakkabligiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Xalqaro savdo palatasining (ICC) hisobotiga ko'ra, arbitraj va nizolarni hal qilish xarajatlari arbitraj ishlari olib borilayotgan mintaqa yoki mamlakatga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Bu xarajat malakali arbitrlar nisbati yuqori bo‘lgan rivojlangan mamlakatlarda yuqori bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ishning murakkabligi va talab qilinadigan dalillar miqdori ham yuqori xarajatlarga sabab bo'ladi[20]. Bir tizimga soladigan bo`lsak, Xalqaro tijorat arbitrajining xarajatiga bir nechta omillar sabab bo'ladi, jumladan:

1. Ishning murakkabligi. Murakkab ishlar tayyorlash uchun ko'proq vaqt talab qiladi, ko'proq arbitrlar ishtirok etishi kerak va rezolyutsiyaga kirishish uchun ko'proq eshittirishlar talab etiladi, bu esa yuqori xarajatlarga olib keladi.

[18] https://uz.wikipedia.org/wiki/Arbitraj
[19] LCIA arbitration rules
[20] https://iccwbo.org/

2. Arbitraj joyi: Arbitraj o'rni xalqaro tijorat arbitraj narxini belgilaydi. Masalan, rivojlangan mamlakatda ishlarni ko`rish rivojlanmagan mamlaktlarga nisbatan qimmatroq bo`ladi.

3. Arbitrlarning soni: Bir ish uchun tayinlangan arbitrlar soni ham arbitraj ishlarining narxiga ta'sir qiladi. Arbitrlar soni ko'p bo'lgan nizolarni hal qilish guruhi yuqori to'lovlarni talab qiladi.

4. Dalillar: Tomonlar talab qiladigan dalillar miqdori ham arbitraj narxini oshiradi. Umuman olganda, talab qilinadigan dalillar qanchalik ko'p bo'lsa, tarjima, guvohlarning to'lovlari, boshqalar orasida hujjatlarni tayyorlash kabi yuqori xarajatlarga olib keladi.

5. Vaqt chegarasi: Arbitraj jarayonining uzunligi xarajatni belgilaydi. Uzoqroq tartib-taomillar ko'proq tinglovlarni talab qiladi va to'lovlarni oshiradi.[21]

Arbitraj bilan bog‘liq xarajatlar jarayonning ishtirok etgan barcha taraflar uchun adolatli va samarali bo‘lishini ta’minlash uchun zarurdir.Shu o`rinda,alohida ta`kidlashim kerakki, arbitr gonorari(to`lovi)ancha muhim hisoblanadi,chunki arbitr ishni ko`rish uchun avvalo,yetarli bilima va tajribaga ega bo`lishi zarur,ya`ni o`z sohasining mutaxasisi bo`lishi zarur misol uchun,xalqaro tijorat huquqi bo`yicha va bu bilmi bilan arbitr ishni mukkamal ko`rishi hamda ikkala tomon uchun adolatli hal qiluv qarori chiqarishga qodir bo`ladi.

Arbitraj xarajatlarini minimallashtirish va samaradorlikni oshirish yo`llarini tahlil qiladigan bo`lsak, arbitraj qimmatga tushishi mumkin bo'lsada, bu xarajatlarni minimallashtirish va arbitraj jarayoni samaradorligini maksimal darajada oshirish yo'llari mavjud.

Birinchidan, to'g'ri arbitraj institutini tanlash muhimdir. Turli muassasalarda turli xil to'lov tuzilmalari va xizmat ko'rsatish darajalari mavjud, shuning uchun sizning ehtiyojlaringizga moslashtirilgan xizmatni tanlash muhimdir. Masalan, ICC murakkab xalqaro nizolar bo'yicha yuqori sifatli xizmati va tajribasi bilan tanilgan bo'lsa[22], LCIA o'zining samaradorligi va narx-navo pasligi bilan tanilgan.[23]

Ikkinchidan,to`g`ri arbitrni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.Adolatli qaror chiqaruvchi bilim va tajribaga ega bo`lgan arbitrni tanlash asosiy hisoblanadi,shu bilan birga ishni tez va samarali hal qiluvchi arbitrni ham tanlash zarur.

Uchinchidan, arbitraj jarayonini samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Bu dalillar va dalillarni taqdim etish uchun aniq muddatlarni belgilash, keraksiz kechikishlardan qochish demakdir. Jarayonning barqaror ishlashini ta'minlash uchun boshqa taraf va arbitrlar bilan samarali muloqot qilish ham muhimdir.

[21] Darslik: Международный коммерческий арбитраж;С.В.Николюкин
[22] https://iccwbo.org/
[23] https://www.lcia.org/

Nihoyat, arbitraj jarayonini soddalashtirish uchun texnologiyadan foydalanish muhimdir. Bunga ishni onlayn olib borish, videokonferensiya aloqa va elektron hujjat almashinuvi kabilarni kiritish mumkin. Ushbu texnologiyalar xarajatlarni kamaytirishga va foydali jihatlarini oshirishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, arbitraj xalqaro tijorat bilan bog'liq nizolarni hal qilishning xarajatli va samarali usuli bo'lishi mumkin. Arbitraj bilan bog'liq xarajatlar mavjud bo'lsada, bu xarajatlar jarayonning barcha taraflar uchun adolatli va samarali bo'lishini ta'minlash uchun zarur. To'g'ri arbitraj institutini, arbitrlarni tanlash va arbitraj jarayonini samarali boshqarish orqali tomonlarning xarajatlarini minimallashtirish va arbitraj jarayonining samaradorligini maksimal darajada oshirishi mumkin. Agar siz xalqaro tijorat bilan bog'liq nizolarni hal qilishning samarali usulini izlayotgan bo'lsangiz, arbitrajdan foydalanishni o'ylab ko'ring.

REFERENCES

1. https://www.wikipedia.org/
2. https://www.lcia.org/Dispute_Resolution_Services/lcia-arbitration-rules-2020.aspx
3. https://iccwbo.org/
4. Darslik: Международный коммерческий арбитраж;С.В.Николюкин;2009.
5. https://www.lcia.org/

TABIIY FANLARNING RIVOJLANISHI VA BUGUNGI SCINCE FANINING TA'LIMDAGI O'RNI

Boboqulova Nodira Nurmat qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Tabiiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi
bnodira7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda tabiiy fanlarning o'rni va yutuqlari beqiyosdir. Inson hayoti tabiat bilan uzviy bog'liq va bu bog'liqlik sayyorada muvozanat bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada tabiiy fanlar, uning rivojlanish tarixi, maqsadi, vazifalari, bugungi kundagi oliy ta'limda va xalq ta'limidagi o'rni, bog'liqligi va fanning kelajak istiqbollari haqida ma'limot berilgan. Maqolada science fani va uning bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari egallashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalari haqida ham ma'limotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *tabiiy fanlar, tabiat, science, rivojlanish tarixi, boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar, biologiya, fizika, astronomiya, geografiya, kimyo, kompleks fanlar.*

РАЗВИТИЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК И РОЛЬ НАУКИ В ОБРАЗОВАНИИ СЕГОДНЯ

АННОТАЦИЯ

В наш бурно развивающийся век место и достижения естествознания несравнимы. Жизнь человека неразрывно связана с природой, и эта связь обеспечивает равновесие на планете. В данной статье представлены сведения о естественных науках, истории их развития, цели, задачах, месте в современном высшем и народном образовании, связи и перспективах развития науки. В статье также представлена информация о науке и ее навыках и квалификации, которыми должны овладеть будущие учителя начальных классов.

Ключевые слова: *естествознание, природа, наука, история развития, естествознание в начальном образовании, биология, физика, астрономия, география, химия, комплексные науки.*

THE DEVELOPMENT OF NATURAL SCIENCES AND THE ROLE OF SCIENCE IN EDUCATION TODAY

ABSTRACT

In our rapidly developing age, the place and achievements of natural sciences are incomparable. Human life is inextricably linked with nature, and this connection ensures balance on the planet. This article provides information about natural sciences, the history of its development, its purpose, tasks, its place in today's higher education and public education, its connection, and the future prospects of science. The article also provides information about science and its skills and qualifications that future primary education teachers should acquire.

Key words: *natural sciences, nature, science, history of development, natural sciences in primary education, biology, physics, astronomy, geography, chemistry, complex sciences.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.08.2020 yildagi 4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq maktablarda tabiiy fanlarga yo‘naltirilgan variativ o‘quv rejalari joriy etilishi belgilandi. Ya’ni maktablarda asosiy o‘quv rejasidan tashqari, kimyo va biologiyaga qiziqqan yigit-qizlar bitta sinfga jamlanib, ularga ushbu fanlarni ko‘proq o‘qitishga maktablarga imkoniyat berildi. Ikkinchisi, maktablarda kimyo-biologiya fanlarini o‘qitish dasturi ko‘rib chiqildi. Lekin birinchi bosqichdagi eng asosiy ish bu — birinchi va oltinchi sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishning yo‘lga qo‘yilganidir. Tabiiy fanlar yagona bir jamlanmaga olinadi, yagona science yoki “tabiiy fan” degan fan doirasida umumlashtiriladi, mantiqiy ketma-ketlik ta’minlanadi. Tabiiy fanlar 6-sinfgacha yagona, ya’ni bitta fan doirasida o‘qitiladi. 7 sinfdan keyin esa biologiya, kimyo, fizika, geografiya fanlari alohida ajratilib o‘qitiladi.

Qarorda ko‘zda tutilgan ikki asosiy jihatdan biri — maktablarda tabiiy fanlarga yo‘naltirilgan variativ o‘quv rejalari joriy etilishi belgilandi. Yangi fan o‘quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o‘qishga rag‘batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Buning bilan bola fizika-kimyo qiyin emas, qiziq fan ekanini anglaydi va uni o‘rganishga o‘zida rag‘bat sezadi. SCIENCE fani (tabiiy fanlar) qaysidir fandan voz kechish yoki qaysidir fanning o‘rniga joriy etilayotgani yo‘q. Aksincha, ta’lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integratsion tarzda o‘qitilishini ta’minlaydi. Masalan, hashoratlar haqida o‘rganish jarayonida bola hayvonot olamida bu sinfni qiziq bir usulda tasavvur qilib o’rganadiki bunda mavzuni o’zlashtirmaslikni iloji yo’q. SCIENCE fani 1-2-sinfda “Atrofimizdagi olam”, 3-4 sinfda “Tabiatshunoslik”, yuqori sinflarda esa 4ta alohida

fan, geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7 sinfdan boshlab) fanlarini o‘zida birlashtiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tabiiy fanlarning o’rni bugungi ilm-fanning yuragi desak mubolag’a bo’lmaydi. Chunki tabiat qonuniyatlarni bilish genetika, evolyusion ta’limot, matematika, fizika, kimyo, o’simlik va hayvonot olami sistematikasi, antropologiya, geologiya, geofizika singari fanlar oldiga qo’yilgan muammolar tirik va o’lik tabiatni o’zaro munosabati masalalarini yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiat bilan inson o’rtasidagi munosabat eng og’ir, yechimi mushkul muammo. Inson faoliyati ta’sirida qurg’oqchilikning kuchaya borayotganligi, cho’llanish, suv zahiralari kamayib, tabiiy muhitni ifloslanishi kuchayib, suv, havo va ayniqsa oziq-ovqatning tansiqligi, yer yuzi aholisini to’rtdan bir bo’lagida ocharchilik mavjudligi va uni oldini olish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan ekanligi ko’pchilikka ma’lum.

Mazkur fan hozirgi zamon taraqqiyotining eng yuqori pog’onasiga ko’tarilgan biologiya, fizika, ximiya, geologiya, biofizika singari fanlar va miqdoriy analiz uslublaridan foydalanib, ilmiy texnik taraqqiyotning barcha sohalarini o’z manfaatlarini amalga oshirish uchun safarbar qildi va uning oldingi qatoriga o’tishga erishdi.

Bu fanning kelgusi rivoji uning kelgusida quyidagi muhim, global vazifalarni yechishi lozimligida ko’radi: 1. Yer kurrasida sodir bo’layotgan demografik muammolar, aholini son jihatidan ko’payishidagi sifat o’zgarish va ularni jamiyat strukturasi tuzilishi bilan bog’liqligi. 2. Yadro energiyasini energetik zahira sifatida halq xo’jaligida qo’llash muammosi va ayniqsa idora qilish imkoni bo’lgan termoyadro sistemasini bunyodga keltirish. 3. Tabiat zahiralarini yopiq zanjir sikllari va ayniqsa agrotexnikaning zanjir sikllarini yaratish. 4. Tabiiy muhitning beqiyos darajada ifloslanayotganligi tufayli yer kurrasining issiqlik balansini o’rganish muammolari. 5. Yer kurrasida sodir bo’lishi kutilayotgan falokat (inson naslini buzilayotganligi)ni oldini olish va hokazo. Bu muammolarni yechish uchun yuksak intellektual kuchlar va juda katta mablag’ talab qilinadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot ishlari halqaro masshtabda olib borilishi lozim bo’ladi.

Mazkur fanning asl maqsadi tabiatshunoslik ilmi, uning predmeti, maqsadi, vazifasi o’qitish uslublari, tabiat va tabiiy muhitda mavjud tirik mavjudotlarining o’zaro uyg’unlik qonuniyatlari, koinotning planetar shaklda ko’rinishi, quyosh, oy va yer sayyorasi, ularning umumiy tavsifi; yer kurrasining fizikaviy, kimyoviy tuzilishi, unda sodir bo’lgan va bo’layotgan global o’zgarishlar; yerda hayotning paydo bo’lishi; yer kurrasi tirik va o’lik qismini o’zaro uyg’unligi; modda va energiya

almashinuvi qonuni; ularning tuzilishidagi uyg'unlik, unda sodir bo'ladigan fiziologik jarayon, moslanish (adaptasiya) va o'zgaruvchanlik; yer kurrasi tirik mavjudotlari, ularning o'zaro munosabati va bir butunligi (o'simliklar, hayvonot olami va mikroorganizmlarning o'zaro uyg'unligi); O'simliklar va hayvonot olamining eng sodda turlaridan tortib, eng yuksak taraqqiy etgan turlariga qadar tuzilishidagi umumiylik qonuniyatlari; viruslar, bakteriyalar, suvo'tlari va quruqlikda tarqalgan o'simliklar va hayvonot olami; hozirgi zamon antropologiya, paleantologiya, biorganik ximiya, molekulyar biologiya, biosfera haqidagi ta'limot; insonning tarixiy taraqqiyoti jarayonida tabiat va jamiyatning o'zaro almashinuvida sodir bo'lgan va bo'layotgan o'zgarishlar; antropogen ta'sir tufayli sodir bo'layotgan global o'zgarishlar va hokazolarni o'zida mujassamlantiradi.

Tabiiy fanlarning zamonaviy kosepsiyasi fani o'z xususiyatiga ko'ra kompleks bilimlar majmuidan iborat. U organizmlarning tuzilishi, o'sish va rivojlanish qonuniyatlari, ularning ekologiyasi, genetika, biofizika, ximiya, evolyusion taraqqiyot tarixi mikrobiologiya va immunologiya fanlarini o'zida mujassamlantiradi. Yer kurrasining o'lik qismi haqidagi fanlar tuproqshunoslik, gidrologiya, geologiya, gidrosfera uning tirik qismi haqidagi ma'lumotlarga tayangan va u bilan uzviy bog'liq holda ish ko'radi.

Evolyusion ta'limot tarixi esa chog'ishtirma morfologiya, paleontologiya va barcha tirik mavjudotlarning tuzilishi, tarqalishi va rivoj topishi haqidagi fanlarga tayangan holda ish ko'radi.

Insonlar qadim zamondan tabiatga, undagi hodisalarga qiziqish bilan qarashgan. Tarixiy manablarning guvohlik berishicha ibtidoiy jamoa davrida ham ular oddiy tabiiy hodisalarni yaxshi anglashgan (1-rasm). 2000 yillik rivojlanish tarixiga ega bo'lgan bu fan elementlari qadimiy Misr, Xitoy, Movarounnahr, Hindiston singari mamlakatlarda vujudga kelgan bo'lsada, u o'z xususiyatiga ko'ra keskin qarama-qarshiliklarga uchragan va uning taraqqiy topishi uchun bir butun mifologik sistemalarni parchalanishiga sabab bo'lgan.

Tabiiy fanlarning taraqqiyot tarixi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, uning asosini qadimiy Gretsiyada siyosiy arbobi Fales yaratgan. Falesan keyin Aristotel, Empedokl, Evklid, Ptolemey, Teofrast kabi buyuk allomalar bu fanni rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

XV asrda Mirzo Ulug'bek Ulug'bek akademiyasida mashhur olimlar - Qozizoda Rumiy, Fiyosiddin Jamshid al-Koshiy va Ali Qushchi xizmat qilgan. Bu akademiyada turli fan sohalari bo'yicha ilmiy ishlar olib borilgan.



1-rasm. Chauvet g'oridagi hayvonlarning aniq nisbati bilan tasvirlangan tasviri (Fransiya. miloddan avvalgi 32 ming yil).

Alisher Navoiy , Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abul Abbos al-Farg'oniy , Abu Nasr al-Forobiy , Abu Ali Husayn ibn Abdullo Ibn Sino , Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy , Nasriddin Tusiy kabi buyuk olimlar o'z davrida tabiiy fanlar rivojiga o'z ishlari, qo'lyozmalari bilan xissa qo'shganlar.

Yaqin o'tmishda ham bu fanning rivojlanishida o'zbek olimlaridan Qori Niyoziy Toshmuhammad, Abdullayev Habib, Zokirov Qodir Zokirovich, Habibullayev Po'lat, Oripov Ubay, Salohiddinov Mahmud, Zohidov Tesha Zohidovich, Muzaffarov Axror Muzaffarovichlarning xiisasi beqiyos.

Bugungi kunda tabiiy fanlar 1-11-sinflar kesimida o'qitilmoqda. 1-6-sinfda tabiiy fanlar alohida alohida emas balki yaxlit SCIENCE fani sifatida o'qitiladi. Oliy ta'limda "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" fan dasturi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi ta'labalari uchun ishlab chiqilgan va u barcha mavzularni qamarab olgan. Mavzular ketma ketligi boshlang'ich ta'lim maktab o'quvchisi tushuna oladigan sodda tilda yozilgan bo'lib bu bolada shu fanga bo'lgan qiziqish ortishiga turtki bo'ladi. "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" fan dasturida biologiya, fizika, astronomiya, geografiya kabi fanlar mavzulari tabiat, o'simliklar, hayvonlar, odam, yashash joyi, bizning sayyora, ob-havo, tabiiy boyliklar, quyosh sistemasi, yil fasllari, energiya, issiqlik, yorug'lik, tovush va harakat kabi ketma ketlkda keltirilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki tabiiy fanlar bir necha ming yillik tarixi davomida insoniyat hayotida katta ahamiyat kasb etgan. Bugungi sience fanining joriy etilishi yosh o'quvchini fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Alohida biologiya,

fizika, astronomiya, geografiya, kimyo fanlaridagi eng zaruriy va elementar bilimlar atrof-muhitni yanada oson anglashiga, bilimni hayotda qo'llab o'rganishiga turtki beradi. Endilikda kimyo fani qiyin emas, biologiya yanada qiziqarli, fizika esa oson bo'lib qoladi. Darslikda keltirilgan amaliy mashg'ulotlar esa nazariyani mustahkamlaydi. Yangi 1-4- sinfda joriy qilingan raqamli darsliklar dasturi esa bu fanning eng sevimli bo'lishini kafolatlaydi. "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" o'quv dasturining oliy ta'limda joriy etilishi esa bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining tabiiy fanlar fani, uning barcha bo'limlari, quyosh sistemasi, geografik, biologik, fizik, kimyoviy tushunchalar; o'simlik va hayvonot olami sistematikasi; geografiya, fizika, biologiya kabi tabiiy-ilmiy fanlar va ular bilan uzviy bog'lab o'qitishmetodikasi qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Bahromov A. va boshqalar. Tabiiyot. 5 sinf uchun darslik. Toshkent, 1995 y.
2. Gorelov A.A. Konsepsii sovremennogo yestestvoznaniya. Moskva, 1999 y.
3. Mamatazimov M. Astronomiya. 11 sinf darslik. Toshkent, 2005 y.
4. Solopov Ye.F. Konsepsii sovremennogo yestestvoznaniya. Moskva, 1999 y.
5. To'raqulov Yo.H. va boshqalar. Umumiy biologiya. Toshkent, 1996 y.
6. Hamdamov I.H. Tabiat ilmining zamonaviy konsepsiyasi. Ma'ruza matni. Samarqand, 2000y
7. Hamdamov I.H. va boshqalar. Табиий фанлар zamonaviy konsepsiyasi. Тошкент, 2007 y.
8. D.Sharipova, D.Xodiyeva, M.Shirinov "Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi" darslik. 2018 yil.
9. M.Nuritdinova. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. T.:O'qituvchi 2005.
10. Suyarov K. [va boshq.] Tabiiy fanlar: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.- 88b
11. Suyarov K. [va boshq.] Tabiiy fanlar: 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.- 120b
12. Sangirova Z. [va boshq.] Tabiiy fanlar: 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.- 136b

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Mahliyo Dehqonova Shuhrat qizi
Farg’ona davlat universiteti
Boshlang’ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammolari tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so’zlar*: metodik tayyorgarlik, komponentlar, qobiliyat. individual qobiliyat, fikrini ilgari surish, kompetentsiya.*

ABSTRACT

This article explores the scientific and pedagogical problems of improving the methodological training and advanced training of primary school teachers. it summarizes the opinions of foreign and domestic researchers. the principles, theoretical and pedagogical aspects of the professional development of primary school teachers are scientifically substantiated.

Keywords: *methodical preparation, components, skill. individual abilities, promotion of opinion, competence.*

KIRISH

Olib borayotgan ilmiy tadqiqotimizning asosiy maqsadi - O'zbekistonda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini, o'quvchilarini intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirib, didaktik imkoniyatlarini, metodlarini aniqlab uni pedagogik jarayonga tatbiq etishdan iborat. Hozirgi vaqtda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog'liq. Bu, ayniqsa, matematika fanini o'qitish jarayonida juda zarur. O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy

kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy jamiyatdagi tub o'zgarishlar oliy ta'limni sezilarli darajada qayta yo'naltirishni, ta'lim shakllari, vositalari va usullarini optimallashtirishni, mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning yangi usullarini izlashni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIYEW).

Dars o'tish metodini tanlash juda muhim va ahamiyatli, zamonaviy axborot vositalari(kompyuter, proyektor..) ni qo'llash darsni a'lo darajada o'tishni xar doim xam ta'minlamaydi. Ammo ushbu vositalarsiz dars samarali bo'lmaydi degani emas, agar boshlang'ich sinf o'qituvchi dars o'tish metodikasini to'g'ri tanlasa bitta mel bilan ham samarali dars o'tishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi shunday bo'lishi kerakki, qo'lidagi bor narsalardan foydalanib zo'r qilib darsni tashkil qila oladigan bo'lishi lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy ishlar tahlili quyidagi vazifalarni bajarilishini o'z ichiga oladi.

Tavsiyalar:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning individual qobiliyatlari va imkoniyatlariga yo'nalganlik hisobiga matematika fanini o'qitishning ijtimoiylashuv jihatlarini amalga oshirishni yo'lga qo'yish;
- ham mazmuni, ham faoliyat metodlariga ko'ra oliy ta'lim muassassalari matematika o'qitish metodikasi fanini o'qitishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish xamda boshlang'ich sinf matematika fanini o'qitish kursi o'rtasida o'zaro chambarchas aloqani shakllantirish.
- metodika kursini amaliy yo'nalganligiga e'tiborni kuchaytirib, pedagogik va metodik amaliyotdagi aloqalar, qisman qidirish, qidirish va tadqiq qilish tusidagi topshiriqlarni joriy qilish hisobiga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning matematika o'qitish metodikasini o'rganish samaradorligini oshirish;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik o'rganishida uzviylikni amalga oshirishga bo'lajak

boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash, bu boshlang'ich matematika kursidagi masalalarni rivojlantirishni ko'rsatadi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini, o'quvchilarni intellektual rivojlanishga tayyorlash;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini to'garak, olimpiada, musobaqlar kabi faoliyat shakllarini yo'lga qo'yishga layoqatli shaxs darajasiga yetkazish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun yuqorida qayd etib o'tilgan barcha nazariy asoslar, fikrlarni inobatga olib, ta'lim jarayonida ta'lim mazmuni, o'rgatish, o'rganish bir-biri bilan uzviy aloqada shuning uchun ulardan hech birini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR(ANALYSIS AND RESULTS)

Bugungi kunda innovatsion axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga qiziqish ortib bormoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilarga o'rganayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topib, mustaqil bajarib-o'rganib, xulosa chiqarish va tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Bunday pedagogik jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida bilim olishiga texnologiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor bermog'i lozim. Mazkur mulohazalar albatta bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy yondashgan holda o'quvchilarni tayyorlashga o'rgatishda o'z samarasini beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishda albatta fanlararo integratsiyaga alohida e'tibor qaratish aloxida axamiyatga ega. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik tayyorgariligi ustida ishlash jarayonida talabalarga nafaqat ilmiy bilimlar berish bilan cheklanib qolmay o'rganilgan bilimlarni amaliy jarayonda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini ham shakllantirib borilishiga aloxida axamiyat berish lozim.

Xususan, boshlang'ich ta'lim fanlarini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, turli xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash orqali bajarish kabi o'z ustida ishlovchi amaliy vazifalarni bajarish orqali singdirib borish muhim xisoblanadi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha o'quv fani dasturidagi mavzularni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o'z fikrini ilgari surish, uni dalillash, umumlashtirish va xulosalashga o'rgatish, o'qituvchining til materialidan foydalanishga qiziqish

uyg'otish, unda amalda foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirish hozirgi kun talabi sifatida o'rganilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

Bir tomondan, pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi fakulteti talabalarining umuminsoniy qadriyat sifatidagi matematik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira oladigan, jamiyat ehtiyojlarini qondira oladigan ta’lim tizimini yaratish zarur. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ob'ektlarni birlashtirish va almashtirish qobiliyatini rivojlantirish boshlang'ich maktabdan boshlash ancha samaralidir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanlarni o'qitish jarayonidagi vazifalari quyidagilar:

- fan-o'quvchini fikr yurita olishga undashi kerak;

-o'zgalar fikrini anglashga o'rgata olishi muxim;

- o'z fikrini og'zaki hamda yozma ravishda ravon bayon qila olishga yo'naltirishi;

- ta'lim falsafasi va tarixi tomonlama kompetentli bo'lishi va fan doirasida mustahkamlangan bilim, ko'nikma, malaka tushunchalariga izoh bera olish zarur.

Mazkur vazifalarni boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shakllantirilishi bevosita o'quvchilarni kelajakda bilimli va intellektual rivojlangan kadrlar bo'lib yetishida o'z samarasini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari xar bir o'quvchilarni psixologiyasini bilishi zarur, chunki asosiy ob'ekt bu o'quvchi. O'qituvchi darsga kirganda bu o'quvchi bilan qanday gaplashish zarurligini, qaysi metoddan foydalanib ta'lim berish yo'lini, ta'limni qanday berganimizda o'quvchi yengil qabul qila oladi degan bir nechta savollarga javob olish uchun xam bo'lajak o'qituvchilar bola psixologiyasini bilishi lozim.Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq bo'ladi, bu vaziyatda boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars o'tish metodikasini tanlaganda turli xil o'yinlarni tanlashi, o'yin qandaydir ta'lim berishi lozim, shuning uchun ham ta'limiy o'yinlardan foydalanib darsni tashkil qilishb, o'quvchilarni darsga qiziqtirishi lozim. Yuqori sinf o'quvchilari jamiyatga kirishishga tayyorlanayotgan jarayonda, bu jarayonda o'quvchilarni guruhda ishlatib ta'lim beriladigan bo'lsa, o'quvchilar bir-biriga qiziqib rivojlanadi. Yuqori sinfda dars metodikasini tanlashda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga qaratilgan usullardan foydalanish lozim.

XULOSAVA TAKLIFLAR(CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosining dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida quyidagilar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligi bilan bog'liq:

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kichik yoshdagi o'quvchilarning dastlabki tasavvurlarini shakllantirish metodikasi bilan ta'minlash zarurati va bu muammoning etarli darajada rivojlanmaganligi.

Biz ushbu qarama-qarshiliklarni hal qilishni tadqiqot muammosini hal qilish kontekstida ko'rib chiqamiz: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishning nazariy va uslubiy shartlarini aniqlash.

Zamonaviy maktabning ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun bo'lajak o'qituvchi o'quvchilarga matematik bilimlarni o'rgatish jarayonida faktlar, qonunlar, usullar va ma'lumotlar tuzilmalarini tushunishni kafolatlaydigan etarli miqdordagi matematik bilimga ega bo'lishi kerak. Matematika bo`limlari, amaliy masalalarni malakali yechish imkonini beruvchi yuqori darajada shakllangan ko`nikma va malakalar. Topshiriqlar va shu bilan bir qatorda boshqa fanlarni o'zlashtirishda matematik savodxonlik bilimining muhim ahamiyatga ega:

- amaliyotda qo'llash, turdosh fanlarni o'rganish, uzluksiz ta'lim uchun zarur bo'lgan fan bo'yicha bilimlarni shakllantirish;
- talabalarga mavhum xarakterdagi bilimlarni o'zlashtirishdan aniq ko'rinish shakllariga o'tishni ta'minlaydigan faoliyatni amalga oshirish usullarini o'rgatish;
- talabalarning ilmiy nazariyalarni qurish tamoyillari, dunyoning ilmiy manzarasi, zamonaviy fan, texnika va iqtisodiyotdagi o'rni haqida g'oyalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgariligini takomillashtirish jamiyat rivojining zaruriy sharti hisoblanadi.

REFERENCES

1. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *6*, 267-271.
2. Qizi, DMS va Qizi, RGX (2022). IKKI RAQAMLI SONLARNI QO‘SHISH VA AYIRISHNI O‘RGANISH USULLARI MAKTABDA. *Gospodarka va Innovacje.* , *22* , 61-67.
3. Qizi, D. M. S., & Qizi, R. G. X. (2022). МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ СЛОЖЕНИЯ И ВЫЧИТАНИЯ ДВУЗНАЧНЫХ ЧИСЕЛ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Gospodarka i Innowacje.*, *22*, 61-67.
4. Qizi, DMS va Qizi, RGX (2022). IKKI RAQAMLI SONLARNI QO‘SHISH VA AYIRISHNI O‘RGANISH USULLARI MAKTABDA. *Gospodarka va Innovacje.* , *22* , 61-67.
5. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *6*, 267-271.

6. Тоджимаматович, Дж. В. (2023). Понятие и сущность информационной безопасности - Concept and Essence of Information Security. *Сеть синергии: Международный междисциплинарный исследовательский журнал*, *2*(4), 643-647.
7. Акмалджоновна, А. З. (2021). Методы формирования навыков самостоятельного чтения у учащихся начальной школы. *ACADEMICIA: Международный междисциплинарный исследовательский журнал*, *11*(3), 1425-1428.
8. Кизи, S. G. G. O. (2022). ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОСНОВА И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СЛОВА УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. *Европейский международный журнал междисциплинарных исследований и управленческих исследований*, *2*(12), 117-123.
9. Dehqonova M.Sh, Axmedova U.Y., Preparation for mathematical literacy in the process of training future primary school teachers, Vol №11 pp. 714-722, https://doi.org/10.5281/zenodo.7824388
10. Ahmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2021). Vatanim Surati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 877-883.
11. Axmedova, U. (2022). On Certain Conditions Of Striking Coefficients Of Fourier Series To Zero. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 3(3), 3-8.
12. Qizi, A. U. Y., & Qizi, A. M. U. B. (2021). Research On Hydronyms and Their Importance.
13. Axmedov, O. U. B. O. G., & Qizi, A. U. Y. (2022). STEREOMETRIYA BO'LIMI VA UNING BA'ZI AKSIOMALARIDAN KELIB CHIQADIGAN NATIJALAR. International scientific journal of Biruni, 1(2), 127-133.
14. Axmedova, U. Y. Q., & Axmedova, M. U. B. Q. (2022). XALQ OG'ZAKI IJOD NAMUNALARINING BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARIDA QO'LLANISHI VA ULARNING MAZMUNIY GURUHLANISHI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 345-351.
15. Samatov, B. T. (2020). The strategy of parallel pursuit for differential game of the first order with Gronwall-Bellman constraints. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *2*(4), 15-20.
16. Тажиахматович, С. Б. (2021). ЗАДАЧА УБЕГАНИЯ ДЛЯ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ ИГР ПЕРВОГО ПОРЯДКА С ОГРАНИЧЕНИЕМ ГРОНУОЛЛА-БЕЛЛМАНА. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, *2*(6), 1-5.

17. Ne'matov, I., & Axmedov, O. (2021). BOULE FUNCTION AND ITS INTERPRETATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *3*(3), 8-12.
18. Axmedov, O. U., & Abdumannopov, M. M. (2022). GRONUOLL-BELLMAN CHEGARALANISHLI BIRINCHI TARTIBLI DIFFERENSIAL O'YIN UCHUN PARALLEL QUVISH STRATEGIYASI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 1(10), 324-326.
19. Abdumannopov, M. M., Akhmedov, O. U., & Tokhtasinov, T. (2022). ESSENTIAL MODES FOR ACTIVATING MASTERING SUBJECTS AT SCHOOLS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, *3*(12), 1-4.
20. Abdumannopov, M. M., Axmedov, O. U., To'Lqinboyev, T., & Azizov, M. (2022). MAKTAB O'QUVCHILARINING DARS MASHG'ULOTLARINI O'ZLASHTIRISHINI FAOLLASHTIRUVCHI MUHIM OMILLAR. *International scientific journal of Biruni*, *1*(2), 165-169.
21. Muhammadsodiq, A. (2022). Game Theory as a Theory of Conflicts. *International Journal of Culture and Modernity*, *17*, 123-126.
22. Axmedov, O. U. B. O. G., & Qizi, A. U. Y. (2022). STEREOMETRIYA BO'LIMI VA UNING BA'ZI AKSIOMALARIDAN KELIB CHIQADIGAN NATIJALAR. *International scientific journal of Biruni*, *1*(2), 127-133.
23. Axmedova, U. Y. Q. (2023). O'QUVCHILARNING FAOLLIK DARAJASIGA KO'RA FARQLANUVCHI METODLAR, O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(4), 336-343.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA ULARNING TAFAKKURI, QOBILIYATI VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISH.

Mahliyo Dehqonova Shuhrat qizi
Farg’ona davlat universiteti
Boshlang’ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi o’qituvchisi
Umida Axmedova Yodgorjon qizi
Farg’ona davlat universiteti
Boshlang’ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalar kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammolari tadqiq qilingan.

***Kalit so’zlar**: PISA, matematik savodxonlik, matematik mulohaza, fikrlash qobilyati, ko’nikma, kompitensiya.*

ABSTRACT

This article discusses the scientific and pedagogical problems of improving the methodological training of primary school teachers and mathematical reflections on various life situations and human issues, the ability to express a given problem with the help of mathematics, be able to use mathematics in the study of problem solving and professional development of the results obtained.

***Keywords:** PISA, mathematical literacy, mathematical thinking, mental abilities, skill, competence.*

KIRISH

PISA (programme for international student assessment) talabalarning ta’lim yutuqlarini baholashga mo‘ljallangan xalqaro dasturdir. Bu dunyoning turli mamlakatlaridagi maktab o‘quvchilarining savodxonligi va bilimlarini amalda qo‘llash qobiliyatini baholovchi testdir. Har uch yilda bir marta o'tkaziladi. Sinovda 15 yoshli o'smirlar ishtirok etadi. PISA maktabida ta’lim sifati monitoringi uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi: o‘qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar savodxonligi. Matematik savodxonlik barcha fanlarni,

ayniqsa aniq fanlarni o‘zlashtirishda muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayonda matematika fanining ahamiyati beqiyosdir. Matematika – fan va texnika taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lib, fan, madaniyat va kundalik hayotimizda alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatida keng ko‘lamdagi matematika bilan shug‘ullanishlar bo‘lishi kerak. Bunda matematikaga xos go‘zallik va jozibadorlikdan foydalanib har bir o‘quvchiga mos ravishda rivojlantiruvchi mantiqiy faoliyat bilan shug‘ullanish tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qilish kerak bo‘ladi. Matematik savodxonlik va bu tildan unumli foydalana olish (gapning aniq mazmunini, gaplar orasidagi mantiqiy bog‘lanishni bilish) fikrlashning aniqligi va tartibliligini ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIYEW).

O‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi harakati natijasida nimaga erishilganiga emas, balki bu natija qaysi yo‘l bilan erishilganiga asosiy e’tiborni qaratish kerak. Matematikani tabiiy fanlar bilan uyg‘unlashgan xolda ixtisoslashgan kengaytirilgan fan yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish bu fanni o‘rganish insonning ilmga bo‘lgan qiziqishini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirib, boshqa fanlarning o‘qitilishiga ta’sir ko‘rsatadi va ta’limda asosiy vazifani o‘taydi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda namoyon bo‘ladigan matematik tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirish, matematik fikr yuritishga tayyor bo‘lish, masala va muammolarni yecha olish, matematik tilda bemalol ish yurita olish ko‘rinishidagi samarali natijalarni ta’lim stilini o‘zgartiribgina erishish mumkin. Bunda izlanuvchanlik asosiy o‘rin tutadi. Masalan, muammoli o‘qitishda o‘quvchilar nazariy va amaliy ko‘rinishdagi turli muammolarni yechish orqali yangi bilim va malakalarni egallaydi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, qiziqarli muammolarni qo‘yish va ularning yechilishiga yordam berish o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirib, bu fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR(ANALYSIS AND RESULTS)

Natijada o‘quvchilar olgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalanishni o‘rganishadi va o‘zlarining ijodiy imkoniyatlari va aniq fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishadi. O‘qitishning zamonaviy kompetentsiyaviy yondashuvga o‘tilishi ta’lim jarayoniga qor ko‘chkisi kabi ta’sir ko‘rsatadi va misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarga olib keladi. Bunda yangiliklarni ta’lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o‘qituvchisining vazifasiga aylanadi. Bilimli yuqori malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlargina jamiyatning ta’lim oldiga qo‘ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo‘ladilar. O‘qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o‘z-o‘zini tarbiyalashi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi, zamonaviy pedagogik

texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirishi va ularni ta’lim jarayonida qo‘llashi ta’lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish esa ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Matematikani o‘qitish jarayonining eng asosiy yo‘nalishlari quyidagi to‘rt qismdan iborat:

– matematik tushunchalar to‘plamini bilish;
– matematik mulohaza yurita olish;
– matematik masala va muammolarni yechish;
– matematik tilni egallash.

Matematika darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o‘qituvchiga matematik mavzuning to‘liq o‘zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning o‘zlari faol ishtirok etishlarini ham ta’minlaydi. Bunda matematika fani o‘quvchilar yoqtirmaydigan quruq, faqat tasdiqlovchi fan bo‘lmasdan, aksincha, harakatchan, tushunarli va shuning uchun qiziqarli bo‘lib qoladi. Bu esa matematika fanini o‘qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo‘lib xizmat qiladi. Menimcha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik kompetensiyasi jamiyatning doimiy o‘zgarib turadigan ehtiyojlariga mos ravishda matematik savodxonligini oshirish qobiliyatidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

O‘qitishga qo‘yilgan maqsad va rejalashtirilgan natijalarni, asosan, didaktik texnologiyalarning to‘g‘ri tanlanishi, o‘quv jarayonini va o‘quv faoliyatini uyushtirish usullarini mulohaza qilib tanlanganligini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonining qiziqarli bo‘lishi turli didaktik sistemalar majmuining qanday tanlanishiga bog‘liq. Masalan, quyidagi didaktik printsiplar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin:

– yuqori qiyinchilik darajasida o‘qitish;
– nazariy bilimlarning ustuvorligi;
– katta tezlikda bilim berilishi;
– o‘quvchilarning ta’lim olish jarayonini tushunib yetishi;
– hammaning rivojlanishi ustida sistemali ishlash;
– har bir fuqaro va kasb egasida matematik kompetentlikning bo‘lishi;
– matematik ta’limga aktlarning tatbiq etilishi jahon miqyosidagi ilg‘orlik garovidir;

–matematik ta’limning barcha sigment, qatlam va darajalarining o‘zaro bog‘liqligi
(o‘qitishning bog‘cha bolalaridan to ilg‘or matematika o‘qituvchilarigacha, maktabgacha
muassasa xodimlari va ota-onalargacha qamrab olish);
–maktab va pedagog faoliyatining sifatini faqat bitiruvchilar va pedagoglarning absolyut natijalari darajasi bilangina emas, matematik kompetentlikni qay darajada egallaganligi bilan o‘lchash.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, matematik savodxonlik bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. Bu hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. Bu insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr yoshlariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

“Tyutorlikka ilk qadam” moduli tyutorlik faoliyatni endigina boshlagan o‘qituvchilar uchun amalga oshiriladi, mazkur kursda tyutorlik faoliyatini asosiy jihatlari, o‘quv-tarbiyaviy ishlari samarali olib borish, individual va guruhli o‘quv konsultatsialarni tashkil etish, individual ta'lim traektoriyasini loyihalash va amalga oshirishga oid bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu modul doirasida tyutorlar va yosh mutaxassislarga guruh mashg‘ulotlarini tashkil etish usullari bo‘yicha master-klass, o‘quv jarayoniga o‘qitish usullarini joriy etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, o‘quv tyutorlik seminarlari (tyutorial)ni tashkil etishga oid treninglar o‘tkaziladi.

Ushbu o‘quv seminarlari quyidagi tuzilishga ega bo‘ladi: maqsad, vazifalarni taqdim etish; kutishlarni aniqlash; muammoni aktuallashtirish, motivatsiya; ma'lumot bilan ishlash; interaktiv rejimda mustaqil ishlash; natijalar muhokamasi.

“Tyutorlikka ilk qadam”oquv seminari taqvim rejasi

№	Seminar mavzulari	Ajratilgan soat

1	Pedagogik faoliyatni loyihalash. Tyutor – pedagogik faoliyat subyekti sifatida	4
2	Talaba shaxsini diagnostika qilish metodikalari. Individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash.	4
3	Individual va guruhli konsultatsiyalarni tashkil etish	4
4	Tyutorial va uni tashkil etish metodikasi	4
5	Treninglarni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar	4
6	Tyutorlik faoliyatini analiz qilish metodikalari	4

O‘quv seminari doirasida "mustaqil ish"ni bajarish bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayorlashning zaruriy shartidir. Bu egallangan faoliyat usullarini qo‘llashga, so‘ngra ularning samaradorligini tyutor bilan birgalikda tekshirishga yordam beradigan muhim shartdir. O‘quv tyutorlik seminarlarini o‘tkazish vaqtida tajribali va yosh tyutorlarning o‘zaro hamkorlikda fikr almashishlari ta’minlanadi.

“Mahoratli tyutor” maxsus o‘quv-seminarlari bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga oid kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratiladi. Modul doirasida tyutorlar bilan o‘qitish va faoliyatni tashkil etishning eng yaxshi usullari va texnologiyalarini izlash va tanlash amalga oshiriladi, ular o‘z ish uslubini shakllantiradilar, pedagogik tajribalari rivojlantiriladi. “Mahoratli tyutor” o‘quv seminarlarida yosh va tajribali o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish traektoriyasini loyihalash va amalga oshirishga qaratilgan individual ishlar amalga oshiriladi, shu jumladan:

- "Mening hozirgi imkoniyatlarim” (OTDTS doirasida bilim va kompetensiyalar) asosida (loyihalar, seminar, konferensiya va turli tanlovlarda) olingan natijalarni tahlil qilish;

- Davlat ta'lim standartini amalga oshirishda pedagogika kasbiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq kasbiy faoliyatda "Mening kelajakdagi obrazim” loyihasini ishlab chiqish;

- "Men-hozirda, men-kelajakda" o‘z kasbiy rivojlanish traektoriyasi loyihasini ishlab chiqish.

XULOSA

O‘quv-seminarlarining yakuniy natijasi sifatida innovatsion pedagogik usullar o‘zlashtiriladi, o‘z-o‘zini rivojlantirish usullari takomillashtiriladi va o‘z ish tajribasi umumlashtiriladi. “Mahoratli tyutor” o‘quv-seminarining oxirgi mashg‘uloti “Uslubiy kun” sifatida o‘tkaziladi bunda tyutorlik faoliyatida erishilgan kasbiy yutuqlar namoyish etiladi. “Uslubiy kun” dasturi mahorat darslari, uslubiy intensivlar,

o‘quv treklari, uslubiy mashg‘ulotlar, ochiq darslar taqdimoti, yosh tyutorlarning kasbiy rivojlanish ko‘rgazmasini o‘z ichiga oladi.

4. Natijaviy- baholovchi blok. Tyutorlik faoliyatining refleksiv bosqichi bo‘lib, bu bosqichda mezon ko‘rsatkichlari va darajalarini diagnostika qilish vositalari kompleksini o‘z ichiga oladi, tajriba-sinov ishlari dinamikasini aniqlash, bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayorgarlik holati samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, modelning tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayorlash jarayonini amalga oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. http://manaviyat.tstu.uz/wp-content/uploads/2021/10/Tyutorlik-faoliyatini-tashkil-etish-boyicha-Nizom.pdf
2. Суханова Е. А. Тьюторское сопровождение формирования образовательного заказа // Открытое образование и региональное развитие: способы построения образовательного пространства: сб. науч. тр. Томск: Томский ЦНТИ, 2004. 154 с.
3. Ковалева Т. М. О деятельности тьютора в современном образовательном учреждении // Организация тьюторского сопровождения в образовательном учреждении: содержание, нормирование и стандартизация деятельности тьютора: материалы Всероссийского научно-метод. семинара (Москва, 18–19 мая 2009 г.). М.: АПКиППРО, 2009. 188 с.
4. Елькина О. Ю. Теоретическая модель подготовки будущего учителя к формированию продуктивного опыта младших школьников // Вестник Томского гос. пед. (TDPU axborotnomasi). 2007. Вып. 7 (70). С. 23–27.
5. Muhammadovna, O. R. N. (2022). TALABA SHAXSINI INDIVIDUAL RIVOJLANTIRISHDA TYUTORLIK FAOLIYATINING ASOSIY KONSEPTSIYALARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(12), 144-149.
6. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(3), 2344-2348.
7. Urinova Nilufar Mukhammadovna. (2023). IMPLEMENTATION OF TUTOR'S SUPPORT MODEL IN HIGHER EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(03), 58–64. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-03-12

8. O‘rinova, N. M., & Muminova, N. J. (2022). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA O ‘QUV-KVEST TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *Academic research in educational sciences*, *3*(5), 460-472.
9. Ўринова, Н. М., & Абдуллаева, Х. (2022). ТЬЮТОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ, УНИНГ ТАРИХИЙ ВА ЗАМОНАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, *3*(1), 387-395.

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Turdiyeva Gulbahor Toxirovna
Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fanida qo`llaniladigan va o`quvchilarni faolligini oshiradigan turli xil metodlar, didaktik materiallar va enerjayzerlar aks ettirilgan.

Kalit so’zlar: *metodlar, innovatsion, o’quvchi, dars, interfaol, samarali, mavzu*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены различные методики, дидактические материалы и энергетические средства, применяемые в науке о родном языке и литературе и повышающие активность учащихся.

Ключевые слова: *методы, инновационные, студент, урок, интерактив, эффективный, тема*

ABSTRACT

This article presents various methods, didactic materials and energizers used in the science of mother tongue and literature, which increase students' activity.

Keywords: *methods, innovative, student, lesson, interactive, effective, topic*

KIRISH

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o‘qituvchini izlanishga va o‘quvchini o‘z ustida ishlashga erkin

fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki unda o‘quvchi o‘zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o‘zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo’lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o’tib, yaxshi natija bergan. Keng qo’llaniladigan usullar – «Klaster», «Aqliy hujum», «Davom ettir», «Taqdimot», «Blits-so’rov», «Muammoli vaziyat» kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o’tilgan mavzuni so’rash qismida «Sinkveyn», «Teskari test», «Aql charxi» metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida «Insert», «Pinbord», «Zinama-zina», «Bumerang» texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida «Venn diagrammasi», “Baliq skeleti”, «Nima uchun? », «Qanday? », « Konseptual jadval», « Nilufar guli» kabi grafik tashkil etuvchilar hamda «Tushunchalar tahlili», «T-jadval», «Rezyume»,«Kungaboqar», «Charxpalak» metodlarini, uyga vazifa berishda «FSMU», «Klaster», «Bo‘g‘inlar zanjiri», «BBB» metodlarini qo’llash dars samaradorligini ta’minlab, o’quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o’tilgan interfaol metodlardan tashqari «Ha… yo’q», «Ta’rif egasini top», «Men kimman?», «Domino», «Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha», «Sirli sandiqcha metodi»,«Harfni his qilish» metodlari kabi didaktik o’yinlardan foydalanish mumkin. O’yin vaqtida o’quvchilar o’zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o’quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo’ladi. Munozaraga kirishishni o’rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o’quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. O‘quvchilarga har darsda bir xil dars o‘tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo‘lgan e’tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg‘ulotlari jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini oshiradi. Masalan o‘quvchilarga «Bo‘g‘in» mavzusini o‘tayoygan o‘qituvchi «Bo‘g‘inlar zanjiri» metodidan foydalanishi mumkin. Bunda birinchi aytilgan so‘zning oxirgi bo‘g‘ini keying so‘zning birinchi bo‘g‘iniga to‘g‘ri kelishi kerak bo‘ladi. Namuna: maktab – tabrik; rassom – somsa va shu kabi zayilda davom etadi. Bu metoddan o‘quvchilarda o‘tilayotgan yangi mavzuni mustahkamlash bilan birga ularning tezkor fikrlashlari, so‘z boyligini aniqlash maqsadida ham foydalansa bo‘ladi.

MUHOKAMA.

«Klaster» metodi. Klaster” grafik organayzeri “Fikrlarning tarmoqlanishi” degan ma’noni anglatadi. Bu metod turi o‘quvchilarning biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi. “Fikrlarning

tarmoqlanishi” quyidagicha tashkil etiladi: 1.Xayolga kelgan har qanday fikr bir so‘z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi; 2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi; 3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o‘zaro bog‘liqlik ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilinishi lozim. Ona tili darslarida “So‘z turkumlari” mavzusini yoritishda “Klaster” usuli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod orqali o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalar ustida ishlaydi. Masalan, sifat so‘z turkumiga oid tushunchalarni ular quyidagi tartibda tarmoqlarga ajratishlari mumkin. “Klaster” usulida so‘z turkumlari tushuntirilganda o‘quvchining diqqatini shu mavzuga qaratish maqsadida markazga so‘z turkumlariga oid tushunchalar yoziladi. O‘quvchilarlar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so‘ng har bir fikr yoki so‘zni toifalarga ajratib chiqadilar. “Klaster” usuli quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi:1.O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish; 2.Yozma nutqni takomillashtirish; 3.Fikrlash qobiliyatini shakllantirish; 4.Toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi. «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o’rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo’llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to’rtta va taalluqli bo’lmagan (ortiqcha) bitta so’z (tushuncha, fikr) beriladi. O’quvchilar ana shu so’zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar. Yozuv ekranda ko’rsatiladi. O’quvchilar ortiqcha so’zni aniqlashadi. Uy hayvonlari: sigir, qo’y, toshbaqa, ot, it. So’ng bu so’zlar ishtirokida gap tuzish topshirig’i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi. Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do’sti. O’quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o’quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg’otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo’lishga o’rgatiladi.

«Sirli sandiqcha» metodi. Sirli sandiqcha metodi ham o`quvchining mantiqiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu metoddan foydalanish uchun o`quvchilar guruhlarga bo`linadi.O`qituvchi doskaga 4 ta mavzu nomini ilib ular haqida hech qanday ma`lumot yozmaydi. Masalan, So`z turkumlari‖ mavzusi o`tilganda Ot, Sifat, Son, Fe`l kabi. Sirli sandiqcha‖da esa so`z turkumlariga oid ma`lumotlar, misollar yozilgan bo`ladi. O`quvchilar bu ma`lumotlar qaysi so`z turkumiga tegishli bo`lsa qog`ozni shu so`z turkumi tagiga qistirib boradi.O`qituvchi bajarilgan ishni tahlil qiladi va rag`bat kartochkalari beradi.Eng ko`p rag`bat kartochkasi to`plagan guruh g`olib bo`ladi.

Ot	Sifat	Son	Fe`l

«Tushunchalar tahlili» metodi. Bu metod quyidagicha mulohaza qilinadi. Nazorat ishi yakunlanib, baholar e‘lon qilingandan so‘ng, har bir o‘quvchi nazorat daftarida o‘qituvchi tomonidan tekshirilgan va kamchiligi tuzatilgan so‘zlarni ko‘chirib yozadi. Bu metod ham o‘quvchini hushyorlikka chorlash bilan bir qatorda o‘z xatosini o‘z vaqtida tushunishga va bu xatoni boshqa takrorlamaslikka olib keladi.

«Harfni his qilish» metodi. “Harfn yoki so`zni his qilish” metodida o`quvchilar tik turgan holatda bo`ladi.Eng oxirida turgan o`quvchi orqasiga o`qituvchi tomonidan ruchkaning orqa tomoni bilan harf yoki so`z yoziladi. Keyingi o`quvchi oldingi o`quvchi orqasiga yozadi. Va shu tariqa davom etadi. Birinchi partadagi o`quvchi o`zining orqasiga yozilgan harfni his qilib sinf yozuv taxtasiga kelib yozadi. Bu metodni ko`pincha nafaqat harf shaklida 4-5 sinf o`quvchilarida qo`llash mumin, balki 5-6 sinf o`quvchilariga ikki uch harfli so`z shaklida ham qo`llash mumkin. Bu metodni kichik yoshdagi o`quvchilarga darslarda dam olish daqiqasi sifatida qo`llash mumkin. Darslarda bu kabi enerjayzer metodlarni qo`llash o`quvchilarning faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Darslarni samarali tashkil etishda quyidagi o`yinlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. «Baliq ovi», «Kim hakam», «Taqdimot-tadqiqot», «Piramida», «Matn tuzib ko’r, aqling bo’lar zo’r», «Raketa», «To`g`ri noto`g`ri», «Xatosini top», «Xotira mashiqi», «Bo`g`in», «Mo`jizalar maydonchasi», «Maqol», «So`zdan so`z yasash» o`yinlaridir.

**«Baliq ovi» o`yini.** Doskaning bir tomoniga dengiz rasimi, ikkinchi tomoniga akvarium rasimi tushiriladi. Dengizda baliqlar bo`ladi. O`quvchi dengizdagi baliqlardan birini tutib uni orqa qismidagi savollarga javob beradi. Javob to`g`rib o`lsa baliqni akvariumga , noto`g`rib bo`lsa dengizga qo`yib yuboradi.

“Kim hakam” o’yini. O’tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Kim hakam” o’yini olib boriladi. Bunda o’quvchilardan diqqat, tezkorlik, hozirjavoblik talab etiladi, O’quvchi fikrini jamlashga harakat qiladi. O’qituvchi tomonidan ma’lumotlar tezkorlik bilan o’qiladi. Bunda har bir guruh a’zolari to’g’ri ma’lumotlar uchun- “qizil kartochka”, noto’g’ri ma’lumotlar uchun-“sariq kartochka”larini ko’tarishadi.

Natijalarni aniqlab borish uchun har bir guruhga nazoratchilar biriktiriladi.

“Taqdimot-tadqiqot” usuli. Bu bosqichda har bir guruhdan bir nafar o’quvchi yangi mavzu va yangi mavzuni o’tilgan mavzular bilan bog’lash maqsadida doskada taqdimot qilishadi. O’qituvchi tomonidan yangi mavzu bo’yicha qo’shimcha ma’lumotlar berib o’tiladi.

“Piramida” o’yini. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Piramida” o’yini olib boriladi. Bunda To’rtala guruhgaalohida mavzular beriladi, guruh a’zolari berilgan mavzu bo’yicha barcha ma’lumotlarni maxsus kartochkalarga yozishadi va piramida tasvirlangan ko’rgazmaga yopishtirib chiqadilar. Natijalar tekshiriladi noto’g’ri va takrorlangan ma’lumotlar olib tashlanadi va qolgan natijalar hisoblanadi.Eng ko’p ma’lumot yozgan guruhlar taqdirlanadi.Bunda o’quvchilar o’tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo’yicha tushunchalarni o’zlashtirib olganlik darajasi aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish , o’zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish , safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash , shuningdek o’z bilimlarini bir tizimga solishga o’rgatadi.

“Matn tuzib ko’r, aqling bo’lar zo’r”. O’quvchilar monitordan uzatilgan rasm asosida, berilgan muddatda matn tuzishadi. Tuzilgan matnda undov, modal, taqlid so’zlar ishlatilishi kerak. Mazmunli va undov, modal, taqlid so’zlardan ko’p ishlatgan matn egalari g’olib bo’lishadi.

**«Raketa» o`yini.** Doskaga raketa rasimi chiziladi , yoki , uchta raketa yasab savollar yoziladi kartochkalar ilinadi, Raketa o`zga sayyoraga uchish uchun yuklardan xoli bo`lishi kerak o`quvchila uch guruhga bo`linadi, qaysi guruh a`zolarisavollarga to`g`ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi, to`g`ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u ucha olmaydi.

«So`zdan so`z yasash» o’yini. Bu o’yin o’quvchilarni so’z boyligini oshirishga, qayta xotirlashga va mantiqan fikrlashni kengaytirishga undaydi. Bu usul orqali bir so`zdan bir necha so`z tuzish o`yini o`quvchilarni ziyraklikka, hozirjavoblikka undaydi. Yozuv taxtasiga o’qituvchi tomonidan bir so’z yozib qo’yiladi.Masalan: O`zbekiston, Zanjir… Shundan so’ng o’qituvchi ma’lum vaqt davomida ana shu so’z harflaridan foydalangan holda boshqa so’z yasashlarini aytadi..Masalan, O`zbekiston – o`z, ek, bek, o`zbek, on, Zanjir – zar, zira, arz, ariza, jar, ranj kabilar.

“Xotira mashqi” o‘yini. Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida , ayniqsa birinchi tanishuv darsida qo`llash mumkin bo`lgan o`yin. O`quvchi o`z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib ismini aytadi.Adham -Alisher Navoiy, Bahodir- Zahiriddin Muhammad Bobur, Gavhar-Gulhaniy. O‘yin shartiga ko‘ra o‘qituvchi bir nechta imlosi qiyin yoki o‘quvchilarga o‘zlashtirilishi

rejalashtirilgan so‘zlarni aytadi, o‘quvchilar esa bu so‘zlarni eslab qolib, daftarlariga imlo qoidalari asosida yozadilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda,innovatsion metodlar o‘quvchilarning savodxon bo‘lishiga, DTS talablariga qo‘yilgan bilim va ko‘nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o‘ynaydi. Dars mashg‘ulotlari davomida shu va shu kabi metodlardan foydalanish o‘tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o‘quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o‘zining samarasini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, o‘zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o‘zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida.-T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010,- 400 b.
2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O‘qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
3. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish. T. : Musiqa. 2009.
4. N.A. Muslimov, M. Usmonboeva, M. Mirsoliyeva — Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik —O‘UM Toshkent -2016
5. O.U. Avlayev, S.N. Jo’rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o’quv-uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017.
6. G`ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta`lim samaradorligini oshirish usullari// Innovatsiya o`quv jarayonida(tezislar to`plami). -T. 2009.
7. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta‘lim talabalari uchun darslik. –T.: —Nosir 2009y.

PEDAGOGIK JARAYONLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATLI TOMONI (MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA)

Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi
Tel: +99 888 151 02 30
Tog'ayeva Munisa Muhammadiyevna
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
Tel: +99 893 068 99 08

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish natijasida ta'limning samaradorligini oshirish ko'zda tutiladi. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan biri muammoli ta'lim texnologiyasidir. Muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi ta'lim tizimida samarador o'qitish texnologiyasi - bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Quyida ushbu ta'lim texnologiyalarining afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: *ta'lim, jarayon, loyiha, afzallik, muammoli ta'lim, modelli ta'lim, texnologiya.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья предусматривает повышение эффективности обучения в результате использования в образовательном процессе развивающих образовательных технологий. Одной из технологий развивающего обучения является технология проблемного обучения. Проблемное обучение-это усовершенствованная технология обучения. В современной системе образования эффективной технологией обучения является проблемное обучение. Его задача-побудить к активному познавательному процессу и сформировать в мышлении исследовательский стиль. Проблемное обучение соответствует целям воспитания творческой, активной личности. Ниже мы рассмотрим преимущества и недостатки этих образовательных технологий.

Ключевые слова*: образование, процесс, проект, предпочтение, проблемное обучение*

ABSTRACT

This article will focus on improving the effectiveness of education as a result of the use of educational technologies that develop in the educational process. One of the developing educational technologies is problematic educational technology. Problem teaching is an improved teaching technology. In the current education system, effective teaching technology is problematic teaching. Its task is to encourage an active cognitive process and form a research style in thinking. Problem training is consistent with the goals of creative, active personality training. Below we will consider the advantages and disadvantages of these educational technologies.

Keywords: *education, process, project, advantage, problem Education, Model Education, Technology.*

KIRISH

Muammoli o’qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o’qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o’sib boradi. Ma’lumki, o’qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati darajasini, mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob’ektiv qonuniyatlari didaktik tamoyillarga tayanadi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik «vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o’ziga xos o’qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o’rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o’qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo’lidagi kutilmagan to’siq» bilan bog’langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o’zlashtirilgan bilim izlari hamda ayni vaqtda ifodalangan fikrlar umumlashtiriladi. Bunda har qanday aqliy tafakkur orqali erishilgan mashaqqat muammoli vaziyat bilan bogliq bo’lmasligini ta’kidlash o’rinli bo’ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog’lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo’lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob’ekt (tushuncha, fakt) ning unga avval va ayni vaqtda ma’lum bo’lgan vazifa, masala bo’yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi.

An’anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o‘quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko‘nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o‘zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O‘zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog‘liq

bo‘lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi. Agar inson muntazam tayyor bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga o‘rgatilgan bo‘lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so‘ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a’lo darajada namoyon bo‘ladi va rivojlanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli ta’lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Grestiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta’limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894-yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo’llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo’nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli ta’limning asosiy g’oyasi bilimlarni o’quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo’yicha o’quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o’zlashtirilishini ta’minlashdan iborat. O’zbekistonda muammoli ta’limni qo’llash bo’yicha bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o’quvchilarda ziyraklik, hozirjavoblik sifatlari hamda go’zal nutq tarkib toptirilgan. Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta’lim usullaridan biri sifatida qo’llaniladi. Bunda o’quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to’g’ri so’zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o’rgatilgan. Masalan, suqrotona suhbatlar deganda o’qituvchining o’quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto’g’ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda ularni tuzatish yo’liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi. Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o’qitishning turli ta’rif va tavsiflar bor. Bizningcha, nisbatan to’liq va aniq ta’rif M.I. Maxmudova tomonidan berilgan bo’lib, unda muammoli o’qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirsh) hisobga olingan o’rgatish va dars berish usullarini qo’llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo’lgan qiziqish va talab...) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o’qitishning mohiyatini o’qituvchi tomonidan talabalarning o’quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o’quv vazifalarini, muammolariii va savollarini hal qilish orkali yangi bilimlarni o’zlashtirish bo’yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil atadi. Bu esa bilimlarni o’zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli vaziyatning fikriy tahlil qiladigan bo’lsak, mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga

kirish, muammoni so’z bilan ifodalash, ya’ni faol fikr yuritishni belgilashga olib ksladi. Bu urinda izchillik yorqin ko’rinadi avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so’ng o’quv muammosi shakllanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda, muammoli o‘qitish mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o‘quvchilar kasbiy bilimlarga, ko‘nikmalarga, malakalarga ega bo‘ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs sub’ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir.

Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tug‘iladi. O‘quvchi noma’lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo‘luvchi, sub’ekt-ob’ekt-sub’ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o‘zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o‘quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi. O‘quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o‘quvchilar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ularni yechimining yo‘llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o‘zi yo‘lga boshlaydi. Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tug‘iladi.

Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi. Muamoli o'qitishning o'ziga xos jihatlari majudki, bu jihatlarni tadqiqotchi B.Aysmontas quyidagicha izohlaydi.

B.Aysmontas bo'yicha muammoli ta'limning yutuq va kamchiliklari:

Yutuqlari	**Kamchiliklari**
1.Bilimlarni o'zlashtirishdagi yuqori darajadagi mustaqillik, ta'lim oluvchilarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi . 2.Talabaning shaxsiy motivatsiya-lari, bilishga doir qiziqishlarini shakllantiradi . 3.Talabalarning fikrlash qobiliya-tini rivojlantiradi 4.Talabalarning dialektik tafak-kurining shakllanishi va rivoj-lanishiga yordam beradi, ular tomo-nidan o'rganilayotgan hodisalar va qonuniyatlardagi yangi aloqadorlikni yuzaga chiqarilishini ta'minlaydi.	1.Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllanishda boshqa ta'lim tiplariga qaraganda kam darajada qo'llaniladi. 2.Boshqa ta'lim turlariga qaraganda bir xil hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun ko'p vaqt talab etiladi.

Muammo o'qitishning mohiyati shundaki, u talabaga tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Ziddiyat ma'lum bilimlarni o'zlashtiruvchi kuchdir.

XULOSA

Muammoli ta'lim bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. U talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu esa bugungi axborotlar oqimi davri uchun o'ta muhim. Fikrlash refleksni, ijodkorlikni va qiziqishni rivojlantiradi. O'zlashtirilgan bilimlarni puxta bo'lishiga yordam beradi. Talabalarni faollashtiradi va kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi. Ammo bu ta'limning bir muncha chegaralanganlik tomonlari ham yo'q deb bo'lmaydi.

Muammoli ta’limni tashkil etish va o‘tkazish bir muncha ko‘proq vaqt talab etadi. Barcha mavzularni bu usuldan foydalangan holda tashkil etib bo‘lmaydi. Talabalar soni chegaralanadi. O‘qituvchi differensial va individual yondashuvni ishlab chiqmasa, ba’zi passiv talabalar chetda qolib ketadi. Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo‘nalishlar ko‘rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko‘rsatilsa u muammoli masala hisoblanadi.

Har qanday muammoli topshiriq ma’lum muammoni demak muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta’kidlanganidek barcha muammoli vaziyat muammo bo‘la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo‘lsa uni muammoli masalaga aylantiradi, ya’ni uning yechimi uchun o‘zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma’lum ko‘rsatishlarni belgilab oladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. qizi Saydillayeva M.B. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida faoliyat markazlarining ahamiyati // Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 420–424.
2. Сайдуллаева М.Б., Маьруфжонова Р.Л. Эффективные способы организации обязательного однолетнего обучения детей 6-7 лет // Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 180–183.
3. Mehrinaz Bahodir qizi Saydillayeva Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations 121-127 – 2022/11/5.
4. Мехриназ Сайдиллаева “Общество и инновации” https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=18280486685528119765&btnI=1&hl=ru 2023/2/20. 4 161-165

SPORTCHILARNING O'Q OTISH BO'YICHA AVTOGEN TRENING TA'SIRI OSTIDA SPORT NATIJALARI DINAMIKASI

Seydaliyeva L.D.
Xayrullayeva N.D.
O'zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya va Sport universiteti
E-mail: nodira0728@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sportchilarning o'q otish bo'yicha avtogen trening ta'siri ostida sport natijalari dinamikasining tahlili muhokama qilingan.

***Kalit so'zlar**: Sportchi, sport, o'q otish, avtogen, trening, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik test, pedagogik eksperiment va matematik statistika.*

ABSTRACT

This article discusses the analysis of sports performance dynamics under the influence of autogenic shooting training of athletes.

***Key words:** Athlete, sport, shooting, autogenic, training, analysis of scientific and methodical literature, pedagogical test, pedagogical experiment and mathematical statistics.*

KIRISH

Sportchidan yuqori sport natijalari, birinchi navbatda, jismoniy sifatlarning tegishli darajada rivojlanishini, texnik va taktik mahoratini talab qiladi. Biroq, agar sportchi zarur psixofiziologik fazilatlarga ega bo'lmasa, bu muhim musobaqalarda yuqori natijalarni kafolatlamaydi. Ko'pincha aqliy jarayonlar va ular bilan tartibga solinadigan harakatlardagi keskin o'zgarishlar o'ziga ishonchni yo'qotish, mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizlikdan tashvish va haddan tashqari hayajon bilan namoyon bo'ladigan noqulay sharoitlar yuzaga kelganda sodir bo'ladi.

Salbiy his-tuyg'ularning paydo bo'lishi muammosini hal qilish va o'q otish kabi sport turlarida ularning oldini olish vositalarini tanlash dolzarbdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnik sport turlarida turli xil his-tuyg'ularning faoliyat natijasiga salbiy ta'siri suzish va yugurishdan ko'ra ko'proq seziladi. Salbiy his-tuyg'ular to'pponchadan yuqori tezlikda o'q otish jarayoniga salbiy ta'sir qiladi va otish samaradorligini pasayishining muhim sabablaridan biridir. Otishma mahoratini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri psixologik tayyorgarlik bo'lib, unda

hissiy holatlarni, shu jumladan musobaqa davridagi ataylab tartibga solish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Sportchi uchun og'ir jismoniy zo'riqishlardan keyin ishlashni tiklashga qaratilgan usullarni bilish bir xil darajada muhimdir. Ushbu sohada tegishli psixofiziologik usullarni ishlab chiqish o'z vaqtida va dolzarbdir. Ushbu maqsadlar uchun sport amaliyotida tobora ko'proq qo'llaniladigan avtojenik tayyorgarlik usulini tavsiya qilish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotning maqsadi o'q otish bo'yicha musobaqa davrida avtojenik tayyorgarlik usulidan foydalangan holda yuqori malakali o'q otuvchilarning sport natijalarini yaxshilash. Belgilangan maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat .

1) sportchining o'q otishidan oldingi holati va otishga tayyorgarligining dastlabki darajasini aniqlash; 2) O'q otish bo'yicha raqobat davrida avtogen mashg'ulotlar metodologiyasini ishlab chiqish; 3) o'q otish bo'yicha raqobat davrida ishlab chiqilgan avtogenik tayyorgarlik metodologiyasining otishmalarning samaradorligiga ta'sirini aniqlash.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik test, pedagogik eksperiment va matematik statistika usullari.

Tadqiqot 2022-yil noyabrdan 2023-yil dekabrgacha bo'lgan davrda 18-24 yoshdagi 1-toifali 20 nafar malakali sportchi- o'q otuvchilar o'rtasida o'tkazildi. Tajriba davomida nazorat sinovlari o'tkazildi (PP-2 otish mashqlari), shuningdek, boshlanishidan 10-15 daqiqa oldin, o'q otishdan oldingi holatni aniqlash uchun sinovlar o'tkazildi: a) qisqa vaqt oralig'ini o'lchash usuli; b) yurak urish tezligini o'lchash (boshlashdan oldingi holatni tartibga solish uchun avtogenik mashg'ulotlar majmuasidan foydalanish zarurati uchun).

Eksperimental guruh maxsus ishlab chiqilgan kompleks bo'yicha tayyorlantirilgan. Bu usullarga quyidagilar kiradi: umumiy tayyorgarlik bosqichida, mashg'ulotlar oralig'ida avtogen tiklanish mashg'ulotlari, maxsus tayyorgarlik bosqichida otishmalarning boshlanishidan oldingi sharoitlarini va avtogen kompleksini aniqlash uchun testlardan foydalanilgan. Ishga tushirishdan oldingi holatni tartibga solish uchun. Birinchi bosqichda, ya'ni boshlanishidan bir oy oldin, haftada uch marta ikkinchi mashg'ulotdan oldin sportchilar tomonidan autogenik usullar qo'llanilgan. Ikkinchi bosqichda, start oldidan, ishga tushirishdan oldingi holatni aniqlash va ishga tushirishdan oldingi holatni tartibga solish kompleksi uchun sinovlar o'tkazildi.

Nazorat guruhi bu vaqt ichida standart tizim bo'yicha, autogenik treningdan foydalanmasdan mashq qildi. Har oyning oxirida har ikki guruh sportchilari nazorat mashg‘ulotlarini o‘tkazdilar, ularda PP-2 mashqida kredit uchun otish, shuningdek, kalendar rejasi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi. Tajribadan so'ng biz guruhlardagi otishmalarning o'rtacha ko'rsatkichlarini hisoblab chiqdik.

O’q otilishidan oldingi holatini o'lchash uchun sinovlar o'tkazildi. Sinovlar shuni ko'rsatdiki, eksperimental va nazorat guruhidagi sportchilarning aksariyati ishga tushirishdan oldin kuchli hayajonli holatni boshdan kechirishdi. Shunday qilib, 4 nafar sportchining o'rtacha yurak urish tezligi 69,0±2,1 zarba/daq va o'rtacha vaqt oralig'i 10,1±0,2 soniya bo'lgan hissiy qo'zg'alishning optimal darajasini (jangovar tayyorgarligini) boshdan kechirdi va 16 nafar sportchi haddan tashqari kuchli hissiy qo'zg'alishni boshdan kechirdi, pulsning o'rtacha qiymati 85,3±7,3/min va o'rtacha vaqt oralig'i 7,9±0,8 sek bo'lgan boshlang'ichdan oldingi isitma holati.

Sportchilarning otishga tayyorgarligining dastlabki natijalarini olish uchun tajriba va nazorat guruhlari uchun nazorat otishmalari o‘tkazildi. Otishma natijalariga ko‘ra, 20 nafardan 2 nafari 361 balldan 366 ballgacha, 12 nafari 346 balldan 360 ballgacha, 6 nafari 340 balldan 345 ballgacha yakunlaganini aniqladik. Keyinchalik, eksperimental guruhning mashg'ulot jarayonida avtogen ta'lim usuli qo'llanildi.

Sinovlar natijalariga ko'ra, eksperimental guruh sportchilarining aksariyati ijobiy hissiy holatni ko'rsatganligi, 7 nafar sportchi o'rtacha yurak urish tezligi 68,0±3,1 zarba/daq va o'rtacha jangovar tayyorgarlik holatini boshdan kechirganligi aniqlandi. vaqt oralig'i 9,9 ± 0,3 sek, qolganlari esa o'rtacha yurak urish tezligi 84,2 ± 4,7 urish /daq va o'rtacha vaqt oralig'i 7,4 ± 0,7 sek bo'lgan ishga tushirishdan oldingi "isitma" holatini boshdan kechirdilar. Otishma natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida 5 nafar sportchi sport ustaligiga nomzod (368-372 ball) talablarini bajargan bo‘lsa, nazorat guruhida natijalar 344 balldan 368 ballgacha o‘zgarib borayotganini aniqladik.

Eksperimentni o'tkazganimizdan so'ng, avtogen kompleksdan foydalangan eksperimental guruh sportchilari (3.1-rasm) orasida hech qanday regressiya yo'qligini, natijalarning o'zgarishi kichik ekanligini payqadik. Ushbu guruhdagi sportchilarning aksariyati natijalarning o'sishini ko'rsatadi.



Guruch. Nazorat va eksperimental guruhlar natijalarining o'rtacha o'sishi

Tajribadan so'ng otishni o'rganish natijalarini olganimiz va guruhlardagi o'q otuvchilarning o'rtacha ishlash ko'rsatkichlarini hisoblab chiqqanimizdan so'ng, biz eksperimental guruhda natijalarning o'sishi o'rtacha 16,6 ± 2,4 ballni, nazorat guruhida esa 4,2 ± 0,3 ballni tashkil etganini aniqladik (P>). 0 .05).

XULOSA

Olingan natijalarga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki, ishlab chiqilgan metodologiya jismoniy ko'rsatkichlarni (umumiy tayyorgarlik bosqichida) tiklashga qaratilgan avtogen va nafas olish mashqlari to'plamini, shuningdek, ishga tushirishdan oldingi holatni aniqlashga qaratilgan testlarni o'z ichiga oladi. Sportchilar uchun musobaqalar davridagi maxsus tayyorgarlik bosqichida start oldidan ortib borayotgan emotsional holatni kamaytirishga qaratilgan avtogen mashg'ulotlar to'plami o'q otish sportida avtogen mashg'ulotlardan foydalanishning eng maqbul usulini tavsiflaydi. Sportchilar- uchun avtogenik tayyorgarlikning ishlab chiqilgan usuli sportchilar natijalarining barqarorligiga va mashg'ulot jarayonining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Babushkin G.D., Melnikova V.M. Umumiy va sport psixologiyasi. - Omsk, 2000. - 192 b.
2. Bekhterev V.M. Ruhiy o'zini o'zi boshqarish - M., 2004. - 194 p.
3. Vaynshteyn L.M. O'q otishda psixologiya - M., 1981. - 198 b.
4. Voropaeva E.V. O'q otishda ishlash dinamikasi - M., 2002. - 356 b.
5. Svetlichnaya N.K. Sport fiziologiyasi. – Toshkent, 2007. – 196 b.
6. . KHAYRULLAEVA, Nodira. Use of Information and Communication And 3D Technologies with Elements of Healthcare in Biology Lessons. **International Journal of Progressive Sciences and Technologies**, [S.l.], v. 18, n. 1, p. 165-167, jan. 2020. ISSN 2509-0119. Available at: <https://ijpsat.org/index.php/ijpsat/article/view/1519/796>. Date accessed: 13 apr. 2023. doi:http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v18.1.1519.
7. Хайдаров, М., Алламуратов, М., & Хайруллаева, Н. (2021). Сравнительная оценка физического состояния подростков 11-16 лет с нарушением интеллекта. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1),287-293.
8. Сейдалиева, Л. Д., & Хайруллаева, Н. Д. (2022). БАДИИЙ ГИМНАСТИКА БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ СПОРТЧИЛАР ОРГАНИЗМИДА МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИДА КАРДИО РЕСПИРАТОР ТИЗИМИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(3), 1248-1256.

9. Сейдалиева, Л. Д., & Хайруллаева, Н. Д. (2022). РИВОЖЛАНИШНИНГ БОШЛАНҒИЧ ДАВРИДАГИ 6-7 ЁШЛИ ГИМНАСТИКАЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ВЕСТИБУЛЯР АППАРАТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. Innovations in Technology and Science Education, 1(5), 110-119.
10. Seydalieva, L. D., & Khairullaeva, N. D. (2023). Development of the Vestibular Apparatus of 6-7-Year-Old Gymnasts. *Scholastic: Journal of Natural and Medical Education*, *2*(3),152–157. Retrieved from https://univerpubl.com/index.php/scholastic/article/view/839
11. Xayrullayeva N.D. Improvement of Students' Methodical Training Based on Virtual Technologies in the Process of Biology EducationWEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue
4, Year 2023 ISSN: 2835-3013 https://univerpubl.com/index.php/synergy https://univerpubl.com/index.php/synergy/article/view/977
12. N.D. Xayrullayeva BIOLOGIYA TA'LIMI JARAYONIDA VIRTUAL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARNING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 2 | 2023
13. N.D. Xayrullayeva. B.H. Mavlonova. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 2 | 2023

РАЗРАБОТКИ МЕТОДОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Мухайё Муталлиевна Дедаханова
Самостоятельный соискатель НамГУ

АННОТАЦИЯ

Изучая иностранный язык в школе нужно больше уделять внимание на разработки методов обучении иностранного языка для лучшего освоения учеников среднего класса. В особенности систематическое развитии речевой деятельности в применении практических занятий.

Ключевые слова: *иностранный язык, методы изучение, общение, письмо, говорение.*

CHET TILINI O'RGANISHDA METODLARNI ISHLAB CHIQISH

Mukhayo Mutallievna Dedaxanov
Namangan davlat universitetining mustaqil izlanuvchi

ANNOTATSIYA

Maktabda chet tilini o'rganishda o'rta sinf o'quvchilarini yaxshiroq o'zlashtirish uchun chet tilini o'qitish usullarini ishlab chiqishga ko'proq e'tibor berish kerak. Xususan, amaliy mashg'ulotlarni qo'llashda nutq faolligini tizimli rivojlantirish.

Kalit so'zlar: *chet tili, o'rganish usullari, muloqot, yozish, nutq.*

DEVELOPMENT OF METHODS IN THE STUDY OF A FOREIGN LANGUAGE

Mukhayo Mutallievna Dedakhanova
Independent applicant of Namangan State University

ABSTRACT

When studying a foreign language at school, more attention should be paid to the development of methods for teaching a foreign language for better mastering of middle class students. In particular, the systematic development of speech activity in the application of practical exercises.

Key words: *foreign language, study methods, communication, writing, speaking*

ВВЕДЕНИЕ

При изучении иностранного языка на средней ступени в основной школе главной целью обучения школьников в подростковом возрасте является последовательное и систематическое развитие речевой деятельности, а именно: говорения, письма, чтения и аудирования.

Речевая деятельность - это активный, целенаправленный процесс передачи и приема сообщений, выраженный через языковую систему и зависимый от ситуации общения.

При практической направленности обучения речевая деятельность рассматривается в качестве ведущего аспекта.

Форма речи делится на устную и письменную. Развитие видов речевой деятельности также отличаются по характеру - продуктивный/рецептивный.

Соответственно выделяют 4 основные вида речевой деятельности:[27]

- говорение - продуктивный вид речевой деятельности, посредством которого осуществляется устное вербальное общение;
- аудирование - рецептивный вид речевой деятельности, связанный с восприятием и пониманием устного сообщения;
- чтение - рецептивный вид речевой деятельности, связанный с восприятием и пониманием письменного текста;
- письмо - продуктивный вид речевой деятельности, обеспечивающий выражение мысли в графической форме.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Каждый метод изучения иностранного языка нацелен на решение конкретной задачи - улучшение навыков чтения, коммуникации или письма. Такая привязка позволяет определиться с тем, какого именно результата хочется достичь и выбрать самый оптимальный вариант обучения. И в данной работе сделана попытка найти пропорциональное соотношение методов, помогающих детям усвоить иностранный язык и их практическое применение.

Существует много методик, которые помогают улучшить уровень владения иностранным языком. Среди них есть те, которые зарекомендовали себя как эффективные. Сегодня их используют для обучения языку в учебных заведениях и на языковых курсах.

Грамматико-переводной метод. Грамматико-переводной метод основывается на понимании языка как системы и опирается на когнитивный подход к обучению. Был широко распространен при обучении греческому и латыни. согласно данному методу, владение языком – это владение

[27] Маклаков А. Г. «Общая психология», издательство «Питер» , 2002г

грамматикой и словарем. Диана Ларсен-Фриман в своей книге «Методы и принципы обучения языку» (TechniquesandPrinciplesinLanguageTeaching, 1986)[28] описывает типичные задания грамматико-переводного метода, которые используются по сей день и некоторые их модификации:

1) перевод с изучаемого языка на родной

2) вопросы на понимание

Этот метод основан в XVIII веке, а сейчас всё чаще применяется для самостоятельного изучения иностранного языка. Он заключается в следующем: выбирается последовательность изучения грамматических конструкций, и соответственно, подбираются тексты для перевода[29]. Ученики с помощью словарей находят перевод каждого незнакомого слова и запоминают новый материал. Они переводят сначала с иностранного на свой родной язык, затем наоборот, чтение данного текста несколько раз.

У традиционной методики есть свои достоинства: на высоком уровне изучается грамматика, особенно хорошо усваивают материал обучающиеся с развитой логикой. В будущем они с легкостью подставляют любые слова под известные конструкции. Впрочем, многие не могут улучшить из-за этого метода свой разговорный уровень, у них появляется языковый барьер. Для тех, кто начинает, такое обучение помогает накопить словарный запас и изучить базовые грамматические конструкции.

Аудиолингвальный метод (АЛМО) — это метод обучения языку, предусматривающий многократное прослушивание в магнито-записи и проговаривание языковых структур и речевых образцов, что ведет к их автоматизации. Для метода, как видно из его названия, характерна опора на слуховой канал восприятия.

Работа над речью ученика средних классов, есть принцип аудиолингвального метода. Многие преподаватели уверены, что без работы речевого аппарата нельзя учить иностранный язык, что говорить нужно постоянно, даже делая письменные задания (вычитка написанного текста). Учитель произносит каждое новое слово, ученики повторяют за ним вслух несколько раз, и эти задания нужно закрепить, как домашнее задание ввиде составлении 2-3 предложений на изучаемом языке.

Главным атрибутом обучения иностранному языку является прослушивание аудиозаписей. Ученики развивают восприятие речи носителей

[28] Диана Ларсен-Фриман в своей книге «Методы и принципы обучения языку» (TechniquesandPrinciplesinLanguageTeaching, 1986)
[29] Гез Н.И., Ляховицкий М.В., Миролюбов А.А. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. М., 1982.

языка, стараются выделить суть. После им предлагают сделать письменные задания, например, воспроизвести какие-то предложения из прослушанного, вспомнить даты, имена из текста или высказать свое мнение на данную тему. Улучшить владение иностранным языком помогает просмотр фильмов на языке оригинала. Таким образом пополняется словарный запас, улучшается произношение и восприятие на слух речи разного темпа, эмоциональной окраски и скрытого смысла сказанного.

Метод заучивание слов. Каждый день ученик должен учить 10-15 слов изучаемого языка, составление диалогов со своими родителями.

Метод погружения в языковую среду. Самый лучший способ выучить язык - это общаться с носителями языка. Если невозможно поехать в иноязычную страну, можно создать ее кусочек у себя на родине.

Как работает метод погружения в языковую среду? Обычно его используют при обучении детей раннего возраста. Для них создают билингвальную, то есть двуязычную среду. Предметы вначале называются только на иностранном, и учителя также говорят на чужом языке.

Метод погружения в языковую среду создает экстремальные условия, заставляя активизироваться и приспосабливаться к новым обстоятельствам. На курсах обучения языку часто используют подобную тактику. Учителя предлагают выбрать себе иностранное имя с выдуманной биографией, вообразить себя в чужой стране. Подобные игры помогают лучше вжиться в ситуацию. Учащиеся развивают, во-первых, коммуникативные навыки, во-вторых, пополняют свой лексический запас.

Метод погружения в иноязычную среду нужно использовать аккуратно и вводить постепенно, всё более сокращая объем родной речи на занятиях. Только в этом случае уроки будут эффективными, а учащиеся будут наслаждаться общением на иностранном языке, с удовольствием посещая каждое занятие.

Коммуникативный метод[30]. Основная задача коммуникативного метода обучения иностранным языкам — помочь учащемуся избавиться от пресловутого языкового барьера.

Главенствующая цель обучения предмету "Иностранный язык" - это формирование коммуникативной компетенции, которая включает в себя несколько компонентов:

коммуникативные умения в говорении, аудировании, чтении и письме;

[30] Пассов, Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. — М.: Просвещение, 1991. — 223 с.

языковые знания и навыки владения этим языковым стройматериалом для порождения и распознавания информации;

лингвострановедческие и страноведческие знания для обеспечения вторичной социализации, социально-культурного фона, без которого невозможно формирование коммуникативной компетенции.

Чтобы обеспечить усвоение учащимися особенностей другой страны, её национальной культуры, расширить их общий кругозор, в целевую установку обучения и в содержание образования вводятся страноведческие знания как коммуникативный элемент, что усиливает интерес к изучаемому иностранному языку и способствует устойчивой мотивации.

Языковая среда является основным средством обучения иностранному языку, а все остальные средства только помогают, их предназначение - создать иллюзию приобщения учащихся к естественной языковой среде. Именно поэтому столь важно, чтобы обучение проходило с помощью аутентичных учебных средств.

Самый распространенный в современных школах и высших учебных заведениях - это коммуникативный метод. Его цель - комплексное развитие всех навыков - умений читать, писать и общаться, но больше всего внимания уделяется именно коммуникации. Постоянный контакт преподавателя с обучающимися помогает гораздо лучше усвоить материал. Естественное обучение идет в процессе интересных занятий. Студенты строят диалоги с письменной подготовкой или спонтанно, создают небольшие монологи, придумывают истории на заданные темы.

Парная работа помогает быстро ориентироваться по ситуации. Надо отвечать на вопросы, на ходу придумывать свои. Часто предлагается разыграть какую-либо сценку в ролях. Активно используется метод дискуссий, в которых участвует все обучающиеся. Так создается иллюзия пребывания в естественной языковой среде. Преподаватель является скорее наставником и советчиком, который мягко указывает на ошибки и их причину.

Благодаря своей спонтанности и целенаправленности, коммуникативный метод очень эффективен. Учащийся никогда не знает, как ответит его собеседник на заданный вопрос. Словарный запас используется активно, улучшается восприятие речи. Ученик старается излагать свои мысли более понятно, заменять те или иные слова на синонимы. Часто используется такой метод обучения, как мозговой штурм, где даётся проблема, которая на выходе должна получить свое решение. Обсуждение чаще всего ведётся в малых группах. Каждый может изложить свое мнение. Обучение иностранному языку в

основной школе направлено на изучение языка как средства общения в международном масштабе. У школьников должны быть сформированы и развиты основные коммуникативные умения в различных видах речевой деятельности. Ученики должны знать не только язык, но и традиции, и обычаи страны изучаемого языка. Чаще всего это происходит путем вживания в иноязычную среду при помощи диалогов, монологических высказываний и решения различных ситуативных задач. Также социокультурное развитие школьников происходит путем изучения страноведческого и культуроведческого материала. На данном этапе школьники знакомятся с понятием "внеклассная работа", что позволяет им самостоятельно изучать культуру и историю страны, а также развивать умение видеть свою страну в условиях межкультурного общения.

ВЫВОД

Работая с учениками средних классов надо учитывать, не только изучения русского языка на уроках, какую методику применить, учитывать их возрастное развитие, перебороть барьер между языком родным и изучаемым. В средних классах ученики более бурно реагируют на замечание учителя. Поэтому надо выработать атмосферу в классе дружелюбное, нестандартный подход к ученику.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Дедаханова, М. М. (2021). НЕЙРОЛИНГВИСТИКА В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧЕНИКОВ С 12-15 ЛЕТ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(5), 333-341.
2. Дедаханова, М. М. (2022). МЕТОДЫ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ЯДЕРНО-МАГНИТНОГО РЕЗОНЕНСА ПРИ ОБРАБАТЫВАНИИ ЯЗЫКОВОЙ ИНФОРМАЦИИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 4-2), 418-425.
3. Дедаханова, М. М. (2021). ПЕРВЫЕ ЗАДАТКИ РЕЧИ У РЕБЁНКА ПОД ВОЗДЕЙСТВИЕМ ОПРЕДЕЛЁННОЙ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 976-981.

ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТОКА ОДНОФОТОННОГО ПОЛЯРИЗАЦИОННОГО ФОТОГАЛЬВАНИЧЕСКОГО ЭФФЕКТА

В.Р. Расулов,
Р.Я. Расулов,
Г.А.Каримова

АННОТАЦИЯ

Проанализирована феноменологическая теория поляризационного фотоэлектрического эффекта (ФГЭ) с акцентом на линейное разложение токового выражения для фотогальванического эффекта возбуждающего света. Разложение производится по степеням волнового вектора света с учетом симметризованного и антисимметричного произведений и псевдовектора для круговой поляризации. Обсуждаются вещественные тензоры, в том числе тензор четвертого ранга для увлечения носителей тока, тензор третьего ранга, аналогичный пьезотензору, и псевдотензор второго ранга, аналогичный тензору гирации. Круговой и линейный ФГЭ различаются по поляризации возбуждающего света, при этом круговой ФГЭ связан с диссипацией и описывается собственными энергетическими функциями, а линейный ФГЭ связан с сохранением энергии и описывается -функциями. Рассмотрено сравнение с эффектом Фарадея, эффектами оптического выпрямления и дополнительными членами в тензорах ФГЭ. Подчеркнута важность учета тонких моментов с использованием диаграммной техники для неравновесных систем при микроскопическом описании ФГЭ в кристаллах без центра симметрии, с использованием в дальнейших расчетах аппроксимации времени релаксации для импульса носителей тока.

Ключевые слова: *феноменологическая теория, поляризационный фотовольтаический эффект, возбуждающий свет, интенсивность, линейная по интенсивности, волновой вектор света, симметризованные произведения, антисимметричные произведения, круговая поляризация, поперечная электромагнитная волна, действительные тензоры, увлечение носителей тока фотонами, пьезотензор, гиротропные полупроводники, фототок.*

ABSTRACT

The phenomenological theory of the polarization photoelectric effect (PGE) is analyzed with emphasis on the linear expansion of the current expression for the photovoltaic effect of exciting light. The expansion is performed in powers of the wave vector of light, taking into account the symmetrized and antisymmetric products

and the pseudovector for circular polarization. Real tensors are discussed, including the fourth rank tensor for current carrier drag, the third rank tensor similar to the piezotensor, and the second rank pseudotensor similar to the gyration tensor. Circular and linear PGE differ in the polarization of the exciting light, while the circular PGE is associated with dissipation and is described by energy eigenfunctions, while the linear PGE is associated with energy conservation and is described by -functions. A comparison with the Faraday effect, optical rectification effects, and additional terms in PGE tensors is considered. The importance of taking into account subtle moments using the diagram technique for nonequilibrium systems in the microscopic description of the PGE in crystals without a center of symmetry is emphasized, with the use in further calculations of the relaxation time approximation for the momentum of current carriers.

***Keywords**: phenomenological theory, polarization photovoltaic effect, exciting light, intensity linear in intensity, wave vector of light, symmetrized products, antisymmetric products, circular polarization, transverse electromagnetic wave, real tensors, drag of current carriers by photons, piezotensor, gyrotropic semiconductors, photocurrent .*

ВВЕДЕНИЕ

Сначала проанализируем некоторые общие вопросы феноменологической теории поляризационного фотогальванического эффекта. Для этого разложим выражение для тока фотогальванического эффекта линейного по интенсивности I возбуждающего света (т.е. квадратичного по амплитуде световой волны) в ряд по степеням волнового вектора света [1]

$$J_{фг}^{\lambda} = I\left\{\chi_{\lambda\mu м}\frac{e_m e_\nu^* + e_r e_m^*}{2} + \gamma_{\lambda м} i(\vec{e}^* \times \vec{e})_\mu + T_{\lambda\mu\nu\eta}\frac{e_n e_\nu^* + e_\nu e_n^*}{2} q_м + R_{\lambda\mu,} i(\vec{e}^* \times \vec{e})_\mu q_\nu + \ldots\right\}. \quad (1)$$

где учтены, что симметризованные и антисимметризованные произведения

$$[e_m e_\nu^*] = (e_m e_\nu^* + e_\nu e_m^*)/2, \{e_m e_\nu^*\} = (e_m e_\nu^* - e_m e_\nu^*)/2 \qquad (2)$$

преобразуются независимо, а также псевдовектор $i(\vec{e}^* \times \vec{e})$ определяет степень циркулярной поляризации излучения $P_{цирк}$. В частности для поперечной электромагнитной волны выполняется соотношение $i(\vec{e}^* \times \vec{e}) = P_{цирк}\,\vec{q}/q$.

Так как величины $[e_m e_\nu^*]$, $i(\vec{e}^* \times \vec{e})$ и стационарный ток $\vec{j}_{PhG}$ вещественны, поэтому $\chi_{\lambda\mu\nu}$ и $\gamma_{\lambda\mu}$, $T_{\lambda\mu\nu\eta}$ и $R_{\lambda\mu\nu}$ являются вещественными тензорами. Тензор четвертого ранга $T_{\alpha\beta\gamma\delta}$ описывает эффект увлечения носителей тока фотонами и

он имеет отличные от нуля компоненты в полупроводниках произвольной симметрии [4].

$\chi_{\lambda\mu\upsilon}$ тензор третьего ранга аналогичен пьезотензору и симметричен по двум последним индексам и отличен от нуля лишь в пьезоэлектриках, т.е. в любых кристаллах без центра симметрии.

Псевдотензор второго ранга подобен тензору гирации γ (см. (1)) и отличен от нуля лишь в гиротропных полупроводниках.

Фототок, связанный со вторым слагаемым (1), отличен от нуля лишь для эллиптически поляризованного света и не возникает как при освещении линейно поляризованным, так и при освещении неполяризованным светом. Поэтому фотогальванический эффект, описываемый тензором $\gamma_{\lambda\mu}$, получил название циркулярный фотогальванический эффект. Фотогальванический эффект, описываемый тензором $\chi_{\alpha\beta\gamma}$, обычно наблюдается при линейно поляризованном возбуждении. Его называют тензором линейного фотогальванического эффекта.

Тензор $R_{\lambda\mu\upsilon}$ в отличии от тензоров $\chi_{\alpha\beta\gamma}$ и $\gamma_{\lambda\mu}$, имеет отличные от нуля компоненты в полупроводниках с центром симметрии. ФГЭ, связанный с этим тензором, удобно называть циркулярным ФГЭ. Симметрия тензоров $\chi_{\alpha\beta\gamma}$, $\gamma_{\lambda\mu}$, $T_{\lambda\mu\upsilon\eta}$ и $R_{\lambda\mu\upsilon}$, по отношению к операции инверсии времени описывает, связаны ли эффекты, описываемые ими, процессами диссипации. Поэтому уместно отметить, что линейный фотогальванический эффект связан с процессами диссипации, а циркулярный ФГЭ-нет, т.е. Линейный ФГЭ описывается δ - функциями, соответствующими закону сохранения энергии, а циркулярный ФГЭ-собственно энергетическими функциями (или полюсами функции Грина). При этом учтено, что при инверсии времени ток $\boldsymbol{j}$, волновой вектор света $\vec{q}$ и величина $i(\vec{e}^{*}\times\vec{e})$ не меняют своего знака.

Судя по феноменологической теории поляризационного фотогальванического эффекта, описываемый тензором $\gamma_{\lambda\mu}$, получил название циркулярный фотогальванический эффект, эффект, описываемый тензором $\chi_{\alpha\beta\gamma}$ линейным фотогальваническим эффектом. Если геометрия опыта допускает линейный по интенсивности света фототок для циркулярного поляризованного света, то этот ток не зависит от знака циркулярной поляризации, совпадает с фототоком при неполяризованном возбуждении.

Представляет интерес сравнивание фотогальванического эффекта, описываемый формулой (1), с эффектом Фарадея-появления стационарной

намагниченности $\vec{M}$ образца при его освещении циркулярно поля-ризованным светом. Эти эффекты описываются следующими феноме-нологическими соотношениями:

$$P_\lambda = I\grave{A}_{\lambda i\, \upsilon}[e_\lambda e_i] \qquad \grave{I}_{\ \lambda} = IB_{\lambda\mu} i\left(\vec{e}^{\,*} \times \vec{e}\right)_\mu \qquad (3)$$

Свойства тензоров $A_{\lambda\mu\upsilon}$ и $B_{\lambda\mu}$ указаны в таблице 1. В случае, когда интенсив-ность излучения меняется во времени, за счет эффекта оптического выпрямления в образце возникает нестационарный ток, пропорциональный величине $\frac{\partial \vec{P}}{\partial t}$, где $\vec{P}$ - вектор поляризации среды под действием внешнего электрического поля [7].

Если поместить образец в катушку и освещать его периодически изменяющимся по времени циркулярно поляризованным светом, то за счет об-ратного эффекта Фарадея в катушке будет наводится нестационарная ЭДС. Эта ЭДС пропорциональна производной $\partial\vec{M}/\partial t$, где $\vec{M}$ магнитный момент, наводимый внешним магнитным полем. К выражениям для P_λ и M_λ в (1) можно дописать дополнительные слагаемые

$$P_\lambda = Ia_{\lambda\mu} i\left(\vec{e}^{\,*} \times \vec{e}\right)_\mu, \qquad \grave{I}_{\ \lambda} = Ib_{\lambda\mu\upsilon}[e_\mu e_\upsilon^*] \qquad (4)$$

Тензоры $a_{\lambda\mu}$ и $b_{\lambda\mu\nu}$ нечетны относительно инверсии времени и соответ-ствующие явления обусловлены процессами диссипации. Далее рассмотрим ряд общих вопросов микроскопического описания ФГЭ. При исследовании механизмов ФГЭ в кристаллах без центра симметрии имеются ряд тонких моментов, игнорирование которых может привести к ошибочным результатам. Поэтому надо исходить из первых принципов и использовать диаграммную технику для неравновесных систем, развиты Келдышем [11].

В дальнейших расчетах будем считать, что время релаксации по импульсу (Γ_p) и по энергии (Γ_e) свободных электронов много меньше чем их время жизни по отношению к рекомбинационным процессам и будем использовать приближение времени релаксации по импульсу носителей тока.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Расулов, Р. Я., Расулов, В. Р., & Эшболтаев, И. М. (2017). Линейно-циркулярный дихроизм в полупроводнике со сложной валентной зоной с учетом четырехфотонного поглощения света. Физика твердого тела, 59(3), 453-457.

2. Rasulov, R. Y., Rasulov, V. R., Kuchkarov, M. K., & Eshboltaev, I. M. (2023). Interband Multiphoton Absorption of Polarized Radiation and Its Linear Circular Dichroism in Semiconductors in the Kane Approximation. Russian Physics Journal, 65(10), 1746-1754.
3. Расулов, Р. Я., Расулов, В. Р., & Эшболтаев, И. (2018). К теории поглощения поляризованного излучения в полупроводниковой квантовой яме (001). Известия высших учебных заведений. Физика, 61(3), 57-61.
4. Rasulov, R. Y., Rasulov, V. R., Kuchkarov, M. K., & Eshboltaev, I. M. (2023). Interband Multiphoton Absorption of Polarized Radiation and Its Linear Circular Dichroism in Semiconductors in the Kane Approximation. Russian Physics Journal, 65(10), 1746-1754.
5. Расулов, Р. Я., Расулов, В. Р., & Эшболтаев, И. (2017). Линейный фотогальванический эффект в полупроводнике с горбообразной зонной структурой с учетом эффекта когерентного насыщения. Известия высших учебных заведений. Физика, 60(4), 147-151.
6. Rustamovich, R. V., Yavkachovich, R. R., & Mamadaliyeva, N. Z. (2018). A Single-quantum shift photocurrent in piezosemiconductors. European science review, (7-8), 286-287.
7. Rasulov, V. R., Rasulov, R. Y., Mamatova, M. A., & Qosimov, F. (2022, December). Semiclassical theory of electronic states in multilayer semiconductors. Part 2. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2388, No. 1, p. 012158). IOP Publishing.
8. Rasulov, V. R., Rasulov, R. Y., Sultonov, R. R., & Akhmedov, B. B. (2020). Two-and Three-Photon Linear-Circular Dichroism in Cubic-Symmetry Semiconductors. Semiconductors, 54, 1381-1387.
9. Rasulov, R. Y., Rasulov, V. R., Mamadalieva, N. Z., & Sultanov, R. R. (2020). ONE-PHOTON ABSORPTION OF POLARIZED RADIATION IN p-Te (ACCOUNTING FOR THE COHERENT SATURATION EFFECT). Russian Physics Journal, 63(1), 86-94.
10. Rasulov, R. Y., Rasulov, V. R., Eshboltaev, I., & Mamadalieva, N. Z. (2019). PHOTON-DRAG EFFECT IN p-TYPE TELLURIUM. Russian Physics Journal, 62(6), 1082-1090.
11. Rasulov, V. R., Rasulov, R. Y., Mamatova, M. A., & Qosimov, F. (2022, December). Semiclassical theory of electronic states in multilayer semiconductors. Part 1. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2388, No. 1, p. 012156). IOP Publishing.

12. Расулов, В. Р., & Ўғли, Ҳ. Д. Қ. (2022). Қўрғошин халькогениди кристалларининг зонавий тузилиши. Ta'lim fidoyilari, 13(7), 211-215.
13. Расулов, В. Р., Расулов, Р. Я., Маматова, М. А., Исомаддинова, У. М., & Касимов, Ф. (2022). КЛАССИФИКАЦИЯ МАТРИЧНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ДВУХФОТОННЫХ МЕЖЗОННЫХ ОПТИЧЕСКИХ ПЕРЕХОДОВ В КРИСТАЛЛАХ. УЧЕТ ВКЛАДА ЭФФЕКТА КОГЕРЕНТНОГО НАСЫЩЕНИЯ. EDITORIAL BOARD, 262.
14. Расулов, В. Р., Расулов, Р. Я., Маматова, М. А., Исомаддинова, У. М., & Кодиров, Н. У. О. (2022, October). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КОЭФФИЦИЕНТА ДВУХФОТОННОГО ПОГЛОЩЕНИЯ СВЕТА И ЕГО ЛИНЕЙНО-ЦИРКУЛЯРНОГО ДИХРОИЗМА В КРИСТАЛЛАХ. УЧЕТ ВКЛАДА ЭФФЕКТА КОГЕРЕНТНОГО НАСЫЩЕНИЯ. In The 15 th International scientific and practical conference "Innovations and prospects of world science"(October 12-14, 2022) Perfect Publishing, Vancouver, Canada. 2022. 454 p. (p. 126).
15. Расулов, В. Р., Расулов, Р. Я., Исомаддинова, У. М., & Кодиров, Н. У. О. (2022, December). УГЛОВАЯ ЗАВИСИМОСТЬ ОДНОФОТОННЫХ МЕЖЗОННЫХ ЛИНЕЙНО-ЦИРКУЛЯРНЫХ ДИХРОИЗМОВ В КРИСТАЛЛАХ. In The 12 th International scientific and practical conference "Eurasian scientific discussions"(December 18-20, 2022) Barca Academy Publishing, Barcelona, Spain. 2022. 542 p. (p. 232).
16. Расулов, Р. Я., Расулов, В. Р., Эшболтаев, И. М., & Мамадалиева, Н. З. (2019). ПОВЕРХНОСТНАЯ ФОТОПРОВОДИМОСТЬ МНОГОДОЛИННОГО ПОЛУБЕСКОНЕЧНОГО ПОЛУПРОВОДНИКА. «Узбекский физический журнал», 21(1), 1-8.
17. Расулов, В. Р., Расулов, Р. Я., Ахмедов, Б. Б., & Муминов, И. А. (2022). Межзонный двухфотонный линейно-циркулярный дихроизм в полупроводниках в приближении Кейна. Физика и техника полупроводников, 56(1).
18. Rasulov, V. R., Rasulov, R. Y., Eshboltaev, I. M., & Qo'chqorov, M. X. (2022). Polarization-Spectral Dependences of the Three-Photon Interband Absorption of Light and Linear-Circular Dichroism in Semiconductors with Cubic Symmetry. Semiconductors, 1-6.
19. Расулов, В. Р., Расулов, Р. Я., Муминов, И. А., & Неъматов, Х. М. О. (2021). К ТЕОРИИ МЕЖДУЗОННОГО ДВУХФОТОННОГО ПОГЛОЩЕНИЯ ПОЛЯРИЗОВАННОГО ИЗЛУЧЕНИЯ В УЗКОЗОННОМ КРИСТАЛЛЕ. EDITOR COORDINATOR, 962.

20. Расулов, В. Р., Расулов, Р. Я., Маматова, М. А., & Исомаддинова, У. М. (2022). К ТЕОРИИ ЭЛЕКТРОННЫХ СОСТОЯНИЙ В МНОГОСЛОЙНОЙ ПОЛУПРОВОДНИКОВОЙ СТРУКТУРЕ. КВАЗИКЛАССИЧЕСКОЕ ПРИБЛИЖЕНИЕ. Universum: технические науки, (10-5 (103)), 24-31.

“SUDXO‘RNING O‘LIMI” ASARIDAGI AYRIM NOMLAR HAQIDA

Odinayeva Mohinur
Buxoro davlat universiteti
Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti
m.odinayeva@buxdu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida qo‘llangan geografik obyektlar nomi tahlil etilgan. Bunda ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda uslubiy o‘ziga xosliklariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Sadriddin Ayniy, “Sudxo‘rning o‘limi”, qissa, geografik nom, leksik-semantik, uslub, uslubiyat, etimologiya.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются название географических объектов использованные в повести «Смерть ростовщика» Садриддина Айни. В тексте статьи дано информация об этимологии некоторых названии, уделяя особое внимание на их лексико-семантических и стилистических особенностям.

Ключевые слова: *Садриддин Айний, «Смерть ростовщика», повесть, географический объект, лексико-семантический, стиль, стилистика, этимология.*

ABSTRACT

This article analyzes the name of geographical objects used in the story "Death of the usurer" by Sadriddin Ayniy. The text of the article provides information about the etymology of some names, paying special attention to their lexical-semantic and stylistic features.

Keywords: *Sadriddin Ayniy, "Death of the usurer", story, geographical feature, lexical-semantic, style, stylistics, etymology.*

KIRISH

Badiiy asar tilidagi geografik joy nomlarini o‘rganish, avvalo, toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo‘lsa, so‘ngra yozuvchi uslubi manerasini belgilash uchun ham ahamiyatlidir. Shu sababli Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasida yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan toponimlarni o‘rganish toponimiya sohasi uchun bir hissa bo‘lib xizmat qiladi.

Mohir adib Sadriddin Ayniy davr voqealarini hikoya qilar ekan, bevosita tasvirlanayotgan holatlar yuzaga kelgan joy, sharoit bilan kitobxonni to‘liq tanishtirishga harakat qiladi.

“Sudxo‘rning o‘limi” asarida ham turli xil onomastik birliklar qo‘llanilgan. Bular sirasiga toponim, antroponim, gidronim, nekronim kabilar kiradi. Ayniqsa, asarda qo‘llangan toponimlar o‘ziga xos o‘ringa egadir. Ular turlicha geografik obyektni, geografik joyni atashga xizmat qiladi. Shu sababli ularni bir necha guruhlarga bo‘lib tasniflash maqsadga muvofiqdir. Asardagi atoqli otlarni guruhlash ularning qanday obyektni atash uchun qo‘llangani bilan bevosita aloqador. Asardagi barcha nomlar tarixiy bo‘lib, ular Buxoro tarixini o‘zida aks ettiruvchi muhim manba sanaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asardagi nomlarni tahlil etish natijasida shunga amin bo‘lindiki, muallif nomlarning tarixi, etimologiyasi, qanday obyektni atagani, mazkur obyekt o‘rnashgan joy borasida chuqur ma’lumotga ega bo‘lgan. Jumladan, quyidagi parchada fikrimizga dalil bo‘ladi: *Labi hovuzi Devonbegini aylanib, xonoqohning janub tomonidan boshlanadigan bazzozlik rastasiga tushdim. Bazzozlik do‘konlari oldida o‘tirgan odamlarni bir-bir ko‘zdan kechirib, bu rastaning g‘arb tomondagi adag‘ida bo‘lgan Sesuvga chiqdim* [1, 4].

Asarda quyidagicha guruhlarga mansub nomlar uchraydi:

1. Me’moriy ansambl. Labi hovuz: *U yerdan Labi hovuz Devonbegi tomonga qarab yo‘naldim* (14-bet).

2. Shahar nomi. Buxoro, Peterburg, Balx: *Azizullo, – dedi Rahimi Qand,- asli Balxdan bo‘lib, Buxoroga tahsili ilm uchun kelgan* (11-bet)

3. Qishloq nomi. Istamziy, Shirbadan, Bo‘lmaxo‘ron, Sangsabz, Azizobod, Xargo‘sh, Xitoyon, *Bu odamning tug‘ilgan yeri Shofirkon rayonining “Istamziy” qishlog‘i* (8-bet). Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, muallif ...*shaharga yaqin “Shirbadan” degan qishloq...* (16-bet.) deya qayd etgan. Bizningcha, bu qishloq *Sherbudun* shaklida aytilishi va yozilishi kerak. Tadqiqotchi N.Adizova ham *o‘zbeklarning saroy, qirg‘izlarning saru qabilasi tarkibida sher, sherbachcha shaxobchalari bo‘lganligi, Sherobod, Sherkent, Shertepa kabi oykonimlar o‘sha sher etnonimi im’ikosidir* [2, 84], degan. Shundan kelib chiqib, S.Ayniy qayd etgan Shirbadan toponimini Sherbudun tarzida ifodalsh o‘rinli bo‘ladi.

4. Qo‘rg‘on nomi. Denov. *U Amir Muzaffarning Denov qo‘rg‘oni oldida hisorliklarning boshi…*(11-bet). Denov qadimgi va keng tarqalgan nomlardan biri hisoblanadi. Uning Denov, Dehnov, Denav, Dehnav kabi shakllari mavjud. Bu nom forscha deh (qishloq) va nav (yangi) so‘zlaridan tashkil topib, *yangi qishloq* ma’nosiga ega.

5. Mahalla nomi. Kemuxtgaron, Govkushon, Pushtizsig‘on. *Buxorodagi Govkushon mahallasida “Govkushon” nomli bir madrasa bor* (62-bet).

6. Masjid nomi. Shayxshona, Masjidi Xoja, Mag‘oq. *Madrasa bilan Shayxshona machitining orasidagi ko‘cha bilan shimol tomonga qarab burildik* (19-bet).

7. Madrasa nomi. Mirarab, Devonbegi, Ko‘kaldosh. *Ko‘kaldosh madrasasining sahni ajab xushhavo joy-da* (15-bet).

8. Xonaqoh nomi. Devonbegi. *Peshin namozi vaqtida Devonbegi xonaqohining sahnida hozir bo‘laman* (3-bet).

9. Chorbog‘ nomi. Dilkusho. *Endi o‘ng tomonimizda amirning “Dilkusho” degan chorbog‘ining devori cho‘zilib borar edi* (51-bet).

10. Guzar nomi. Kemuxtgaron, Poyi ostona. *Biz Poyi ostona guzariga boradigan ranguborfurushlik rastasining burchagiga kelganimizda, mirshab bizga yaqinlashayozgan edi* (19-bet).

11. Tuman nomi. Shafrikon, G‘ijduvon, Kogon, Galaosiyo. *To‘plangan pulni yana Kogonga olib boradigan bo‘ldilar* (57-bet).

12. Hammom nomi. Sarrofon. *Bu tor ko‘cha keyingi rastadan boshlanib “Sarrofon” hammomining go‘lohi oldidan o‘tib ketardi* (56-bet).

13. Rasta nomi. Sesuv. *Bir kun men Buxoroning “Sesuv” degan usti yopiq rastasidan o‘tib borardim* (58-bet). Sesuv aslida Sesu yoki Sesuy shaklida berilishi lozim. Ko‘pincha Sesuv – uch suv, uch tomondan keladigan (ketadigan) suv – ariq tarzida sharhlashga guvoh bo‘lish mumkin. Bu o‘rindagi suv – chorsu so‘zidagi *su* komponenti bilan bir xildir. Chorsu – shahar markazida usti gumbaz qilib yopilgan bozordan shahar ichki qismiga va rabot, mahallalarga, to‘rt tomonga, asosan, shaharning to‘rt darvozasiga qarab ketadigan yo‘l boshlanadigan joy [3, 311], deb izohlanadi. Demak, shunday izohni Sesu nomiga ham berish mumkin. Bunda uch tomonga ketadigan yo‘l boshi deb sharhlash o‘rinli bo‘ladi.

14. Stansiya nomi: 1ta, Murg‘ak. *Faqat askarlarning kichkina bir to‘dasi shaharning janubida “Murg‘ak” stansiyasiga yaqin bir yerda shubhali notanish uch kishiga duch keldilar* (57-bet).

15. Darvoza nomi. Samarqand, Salloxxona. *...xilvat bir mahalla bilan shaharning “Salloxxona” nomli darvozasidan chiqib ketardi* (56-bet).

16. Saroy nomi. Jannatmakoniy, Kavkaz. *U “Kavkaz” saroyining saroyboni edi* (23-bet).

17. Ko‘l nomi. Sho‘rko‘l. *Bulardan bir to‘dasi shaharning shimoli-sharqida; shahardan o‘n olti kilometr keladigan “Sho‘rko‘l” degan ko‘l bo‘yida bankning pul soladigan qopchalarini bo‘sh holda topdilar* (57-bet).

Ushbu guruhlanishdan shu narsa ma’lumki, yozuvchi asosan, asar voqealari yuz bergan va uning atrofidagi hududlarni to‘laqonli ravishda o‘rgangan.

Muallif qissa matnida ko‘plab joy nomlarini, xususan, shahar, tuman, qishloq, mahalla, guzar kabilarni tilga olgan. Bu nomlar asardagi tasvirni, voqealar bayonini yanada jozibali qilisahga xizmat qilgan.

Voqea-hodisalar sodir bo‘lgan toponimlarni yozuvchi juda yaxshi bilganligi asarda joy nomlari haqida bergan ma’lumotlaridan sezilib turadi. Tasvirda keltirilgan har bir toponimni yozuvchi asar davomida izohlab berishga harakat qilgan. Bunday real toponimik nomlar tasvirning jonli va badiiy chiqishini ta’minlash uchun xizmat qilgan.

Yana shuni ham ta’kidlash lozimki, asarda qo‘llanilgan toponimlarning qayerda joylashgani bilan ham shu toponimga nom qo‘yilgan: *“Bu rastaning g‘arb tomondagi adog‘ida bo‘lgan Sesuvga chiqdim-da, u yerdan shimol tomonga qarab burildim”* kabi.

Ma’lumki, narsa va hodisalarni chuqur o‘rganish uni tasnif etishdan, ya’ni uning boshqa narsa va hodisalar sistemasida tutgan o‘rnini, ular bilan o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashdan boshlanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, atoqli otlarning ko‘rinishi bo‘lgan toponimlar ifodalagan ma’noni o‘zaro bir-biriga qiyoslash toponimlarning til lug‘at tarkibidagi o‘rnini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. Toponimlar ma’lum obyektni ifodalovchi manzil, uni ko‘rsatuvchi element va ayni vaqtda shu obyekt haqida ma’lumot beruvchi birlik. Asarda uchraydigan toponimlar ham ma’lum bir joy manzilini, shu joyga tegishli bo‘lgan elementni va shu ikki jihatni birlashtirib turuvchi obyektni ifodalaydi. Toponimlar obyektning shakli, xarakteri, katta-kichikligi, uzoq-yaqinligi, rang-tusi hamda boshqa xususiyatini ko‘rsatadi. Bunga misol qilib Sangsabz nomi obyektning rang-tusiga nisbatan qo‘yilganligidadir. Bu kabi joy nomlari lug‘at boyligining yanada rivojlanib talqin etishiga yordam beradi va ayni paytda tariximizni anglash, kelajak avlodga yetkazish yo‘lidagi amaliy dasturdir.

Yuqorida sanab o‘tganimizdek, asarda faqat yirik joy nomlari, balki eng kichik mahalla, rasta, guzar nomlari ham uchraydi. Ana shunday kichik obyektlar mikrotoponimiyada o‘rganiladi.

Asardagi Galaosiyo toponimi e’tiborga loyiq. *“Qori Ishkamba Hamrohrafiq bilan qilgan suhbatining ertasiga erta bilan shahardan chiqib, Gala Osiyo tomonga qarab piyoda yo‘lga tushdi* (26-bet). Bu toponim asarda besh marta qo‘llangan. Barcha holatda ham ushbu nom Gala Osiyo tarzida yozilgan. Nomning bu tarzda yozilishi O‘rta Osiyo, Markaziy Osiyo kabilardagidek [sifat+atoqli ot] qolipiga asoslangan. Bizningcha, asardagi mazkur nom Galaosiyo shaklida qo‘shib yozilishi maqsadga muvofiq. Chunki bu nom [sifat+atoqli ot] qolipi asosida emas, balki [sifat+turdosh ot] qolipida shakllangan. Tadqiqotchi N.Adizova Galaosiyo toponimi

haqida quyidagilarni bayon etgan: Zarafshon daryosining quyi tarmoqlari – Kangav, Jo‘yzar, Varvadun ariqlarida suv doimo to‘lib oqqan. Ajdodlarimiz kuchi, aql-u idroki bilan ko‘pdan-ko‘p tegirmonlar shu ariqlarning ustida qurilgan. “Galaosiyo” nomi ham shundan kelib chiqib qo‘yilgan. “G‘allaosiyo”, ya’ni “G‘alla tegirmoni” degan fikrlar manbalarda tez-tez uchraydi. Bu yerda tegirmonlar ko‘pligidan shu nom qo‘yilgani ehtimoli ko‘proq. Shu bilan birga, prof.T.Nafasov o‘zbek xalqining **gala** degan urug‘i borligini, mang‘itlarning oqmang‘it bo‘limiga qarashli urug‘ ham **gala** deb atalishini, gala so‘zli qo‘shma urug‘, urug‘ tarmoqlari *galakal, galatentak, galabek, galaso‘fi, galaxo‘ja, galabotir, galamulla* kabilarga ajralishini hamda gala so‘zining ma’nosi – to‘p, avlod, bo‘lim, qavm, to‘da ekanligini qayd etgan. Gala so‘zidagi to‘p, to‘da ma’nolari Galaosiyo – bir nechta osiyo (tegirmon) uchun asos bo‘lganligi ehtimoli katta [2, 29].

“Sudxo‘rning o‘limi” asarida toponimlar o‘zining sodda tili, kitobxonlarga tushunarlilik tomoni bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qissada qo‘llangan qo‘shma otdan tashkil topgan joy nomlari hamma uchun birdek sodda o‘qilishi bilan ajralib turadi. Bularga misol qilib ko‘l nomlarini hamda qishloq nomlarini olishimiz mumkin. Chunki shu yerda yashovchi aholi tomonidan beriluvchi nomlar shu yerda joylashgan toponimlarning faqatgina o‘zida xos bo‘lgan xususiyati, xarakteriga qarab belgilanadi. *“Biz chaqirilganlar o‘zaro kengashib, Sho‘rko‘lga piyoda borishni, lekin kunning issiqligidan azob tortmaslik uchun tong vaqti Buxoro shahr darvozasi ochilgan vaqtda yo‘lga tushishga qaror qildik”* (51-bet). Keltirilgan ushbu misolda Sho‘rko‘l ko‘l nomi shu yerning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatiga qarab nomlangan.

XULOSA

Asarda qo‘llangan toponimlar haqida shuni aytishimiz mumkinki, toponimlarda pozitivlik, geografik reallik aks etadi. Bulardagi informatsion potensiallik kuchli bo‘ladi. Qissadagi joy nomlari o‘sha davrga xos bo‘lgan ma’lum bir voqelikdagi geografik reallikni ifodalab keladi. Buning sababi shundan iboratki, asar voqealari yuz bergan toponimlar tariximizda sodir bo‘lgan muhim voqealani yoritishga xizmat qiladi. Asarda o‘rgangan toponimlarimiz ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi deb o‘ylaymiz. Toponimlar til tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, uni alohida o‘rganish lozim. Ayniqsa, qissadagi nomlar xalqimiz tarixining ayrim jihatlarini ochib berishga xizmat qilish bilan birga bugun mavjud bo‘lgan nomlarning uzoq tarixga egaligidan ham dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Айний С. Судхўрнинг ўлими. Қисса. –Тошкент, Ўқитувчи, 1982. –Б.4.

2. Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –Toshkent, Navro‘z, 2020. –B.84.
3. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. –Тошкент, Муҳаррир, 2009. –Б.311.
4. Kilichev, B., & Shabonova, G. (2023). “BOBURNOMA” ASARIDAGI AYRIM TOPONIMLARNING ETIMOLOGIYASI HAQIDA. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(18).
5. qizi Safarova, M. Z., & Kilichev, B. E. (2022). The Concept of Totemism and Ethnonym. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *3*(5), 121-124.
6. Kilichev, B. (2021). AYRIM TOPONIMLARNING TARKIBI VA SEMANTIKASI HAQIDA: Bayramali Kilichev BuxDU o ‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti. Intizora Axmatova BuxDU o ‘zbek tilshunosligi kafedrasi o ‘qituvchisi. In *Научно-практическая конференция*.
7. Kilichev, B. E., Khojaoglu, T., & Adizova, N. (2022). Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region). *International Journal of Culture and Modernity ISSN*, 2697-2131.
8. Киличев Байрамали Тизим тушунчасининг фанлар кесимида намоён бўлиши/ “Интернаука”, ISSN: 2542-0348 7-3 (11) 2017. –С. 80-82.

JEK LONDON ASARLARINING O'ZBEKCHA MUQOBILI VA FARQLI JIHATLARI

Isakova Barchinoy Ne'matovna
Farg'ona Davlat Universiteti
Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi magistranti
O'zbekiston Respublikasi IIV Farg'ona akademik litseyi
ingliz tili fani o'qituvchisi
barchinoyisakova89@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada realist yozuvchilardan biri bo'lgan Jek London asarlarining o'zbek yozuvchilari tomonidan yozilgan muqobil varianti va ularning farqli tomonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *obraz, hikoya, ertak, afsona, eskimoslar, ekspozitsiya, kulminatsiya, nihoya, tugun, yechim.*

ABSTRACT

The article describes the alternative versions of the works of Jack London, one of the realist writers, written by Uzbek writers and their differences.

Key words: *image, story, fairy tale, legend, Eskimos, exposition, climax, ending, knot, solution.*

KIRISH

XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'z faoliyati va asarlari bilan butun afkor ommaning diqqatini tortgan amerikalik adib Jek London ijodi va hayotiy biografiyasi adib bilan zamon nuqtayi nazaridan deyarli ketma-ket yashagan, ijtimoiy kelib chiqishi va hayot yo'li ma'lum ma'noda yaqin bo'lgan Abdulla Qahhor e'tiborini ham qozongan. Abdulla Qahhor, o'zi e'tirof etganidek, Jek London asarlari bilan tanish bo'lgan. Adabiyotshunoslarning kuzatishiga ko'ra, u Jek London adabiy maktabidan bevosita ta'sirlangan. Abdulla Qahhor o'zining bir qator hikoyalarini, "Sarob" romanini yaratishda amerikalik adibning "Martin Iden" romani syujeti skeletidan, shuningdek, yozuvchining biografiyasidan foydalangan.

Jek London hayotning butun mashaqqatlari, ziddiyatlari, miqyoslari bilan to'qnash keladi va keyinchalik bularning barini o'z asarlarida badiiy qayta gavdalantiradi. Mana shu hayotiyligi sabab adib romanlari, qator povest va hikoyalari, pyesalari butun jahon kitobxonlarining sevimli mulkiga aylangan.

Jek London hikoyalarida hamisha qahramonning rang-barang ruhiy holati tasviriga duch kelamiz. Jek London ko'p hollarda qahramonning ichidan turib uning ichki olamini kashf qiladi. Abdulla Qahhor hikoyalari qisqaligi, asosan, qahramon

ruhiy holatining uning qiyofasidagi aksi tasviri, qahramon nutqi va detallarga asoslangani bilan ajralib turadi. Abdulla Qahhor Jek London singari bir yoki bir necha voqeani batafsil, barcha ikir-chikirlari bilan qalamga olmaydi. Adibning hikoyalari voqelikning bir momentini qayd etgan fotosuratlarga o'xshaydi. Ularda har bir so'z, detal yoki tafsilot Sharq mumtoz lirikasidagi singari kuchli ramziy yukka ega va mana shular orqali qahramonning ichki olami kashf etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har ikkala adib ijodida badiiy psixologizm kompozitsion asos darajasiga ko'tarilgan hikoya bor. Bu – Jek Londonning "Buyuk sehrgar" hamda Abdulla Qahhorning "Ko'r ko'zning ochilishi" hikoyalaridir. Har ikki hikoyada ham qahramonlar inson psixologiyasidan foydalanib o'z maqsadlariga erishadilar. Bu ikki hikoya psixologik motivning kompozitsion asos darajasiga ko'tarilishi, syujeti bilan bir-biriga yaqin bo'lsa, "Hayotga muhabbat" hamda "Ming bir jon" hikoyalari g'oyaviy jihatdan mushtarak. Har ikkala hikoyada ham hayot va o'lim oralig'ida turib, tirik qolish uchun kurash olib borgan qahramonlar tasvirlanadi.

Jek Londonning "Kish haqida qissa" hikoyasi qahramonlikka asoslangan hikoya bo'lib, bu o'smir yigitlarning qanday qilib yuksak natijalarga erisha olishi va xalqining ishonchli vakili bo'lishi ko'rsatadigan asardir. O'zbek adabiyotida o'smirlarning bunday matonatini ko'rsatadigan qissalar ko'p. Lekin ularning aksari Xalq og'zaki ijodiga mansub hikoyalardir. Misol uchun Uch og'a-ini botirlar. Bu hikoyada kenja uka huddi Kish singari matonat ko'rsatadi va aka-ukalarini turli balolardan saqlab qoladi. Yoki "Alpomish" dostonini olsak; unda olti yoshga yetgan Alpomish o'zining dovyurakligi va kamon otish mahorati bilan elda ardoq topadi. Va keyinchalik ulg'aygandan so'ng u o'z qavmini dushmanlardan ozod qilishga erishadi. Lekin zamonaviy o'zbek adabiyotida Jek Londonning "Kish haqida qissa" asariga o'qxshash qahramonlik hikoyasi deyarli uchramaydi. Lekin uning xarakteri va obrazi nuqtai-nazaridan uni turli asarlar bilan solishtirish mumkin. Masalar: Kishning xarakter xususiyatlari, o'zidan kattalarga haq nuqtai nazaridan ters gapira olishi G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidagi Qorajon obraziga yaqindir.

Masalan: *" – Ug-Gluk, sening xotining bor, - dedi Kish, - xotiningni nomidan gapirasan. Sening ham Messuk, yana onang ham bor, sen shular nomidan gapirasan. Mening oyimning esa mendan bo'lak hech kimi yo'q. Shuning uchun ham men gapiryapman"* kabi nutqlardagi qat'iylik, o'zidan katta inson bilan ham bevosita so'zlasha olish "Shum bola" qissasidagi Qorajonning quyidagi so'zlari bilan taqqoslash mumkin:

"- Xo'jayin, - deyman, - o'zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da! Butun boshlik o'likning arvohiga sham yoqmay, lampa yoqiladimi? Kelgan arvoh

nimaning shulasi bilan o'ynashadi. Axir, kosaga suv quyib, ustiga olma shoxi qo'yiladi. Kelgan arvoh avval shoxga qo'nib o'tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirpirab turgan shulasi bilan o'ynashadi."

Bu ikki asar bir biridan syujet va obraz jihatidan farq qilsada, ikki asar ham bir davrda yozilgan va obrazlardagi qat'iylik va o'ziga ishonch bir-biriga yaqin.

Bundan tashqari tarjimonning mahorati bilan ochib beriluvchi qismalar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, "Kish haqidagi qissa" hikoyasida bosh qahramon Kish: *" – Ey, Klosh Kvan! – dedi u. – Yosh bola joduni qayoqdan bilsin? Jodugarlik bolalarning ishimi?* deya qishloq oqsoqolining shubhasi noo'rin ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Shunday epizod "Shum bola" asarida ham uchratish mumkin:

"- Axir, boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay xo'jayin, har zamonda bir yolg'on gapiraman, deb.

- Bu o'sha yolg'oningmi?

- Lekin hammasi emas edi.

- Agar hammasi bo'lmasa, butun yolg'on qilsang, men xonavayron bo'lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la'nat seni, qorning oshga to'ymasin, juvonmarg bo'l! Haydang bu kazzobni!"

Albatta ikkala obrazdagi bola ham o'smirlik yoshidagi va qoni qaynoq, adolatsizlikka chiday olmaydigan xarakterga ega. Lekin birida qahramonlik obrazi bo'lganligi bois, bosiqlik, vazminlik va dadillik bor. Ikkinchisida esa xazilga monandlik, aldoqchilik xarakteri va hislatlariga ega

Bundan shu narsa kelib chiqadiki, tarjimon asarni tarjima qilishdan avval muallifning uslubini aniqlashi kerak. Aks holda, muallif uslubining kaliti topilmas ekan, ayni bir asarni eng iste'dodli ijodkor tarjima qilgani bilan ham chinakam san'at asari bunyod etilmay qolaveradi. Ikki ijodkor: yozuvchi va tarjimon bir-birlarini tushungan taqdirda esa yuksak so'z san'ati namunasidan yana bir san'at asari tug'iladi. Har bir badiiy asar muayyan bir davrda bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlaydi. Chunonchi, tarixiy mavzuda yozilgan asar hozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi, uni o'tmishga yetaklaydi. Tarjimada davr ruhi, davr nafasi, davrning adabiy tili tushunchasi bilan bog'liq yetakchi mayllarni aks ettirish jiddiy murakkab va kompleksdir. U shuning uchun ham kompleks xarakterga egaki, bu yerda masalani faqat bir davr, muayyan yozuvchining ijodidan qilingan tarjimalar, bir tarjimon qo'llagan tajriba, va nihoyat, alohida olingan bir adabiy janr doirasida qilingan tarjimalar bilan chegaralangan holda tahlil qilib bo'lmaydi. Badiiy asar tilining yuqorida qayd etilgan xususiyatlari unda ko'pgina til vositalariming ishlatilishi natijasida yuzaga keladi. Tarjimon ana shu vositalarni o'rganadi va ularni

mukammallashtiradi, ayrim hollarda yangi til vositalarini kashf etib, xalq tilini boyitadi.

XULOSA

O'quvchilar va ba'zi adabiyotshunoslar orasida, badiiy adabiyotning alohida tili bor, degan fikr yuradi. Bu noto'g'ri. Badiiy adabiyotning xalq tilidan ajralib turuvchi alohida tili bo'hshi mumkn emas. Agar shunday bo'lgan taqdirda, badiiy adabiyot keng omma tomonidan tushunilmas edi. Badiiy adabiyotning alohida tili bor, degan fikr badiiy tilning o'ziga xos xususiyatlarining ahamiyatini xaddan oshirib baholash natijasida kelib chiqqan. Yozuvchi xalq tilining boy xazinasidan istaganicha material oladi.

Asarning badiiy to'qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, turli -iboralar, gaplar, qochirimlar, so'z o'yinlari tovlanadi. Ana shular tilni jonli, obrazli bir tilga aylantiradi. Badiiy asar tilini jonli va obrazli qiladigan vositalar badiiy til vositalari deb ataladi. Ba'zan muallif voqeani bamaylixotir, jiddiy holda hikoya qiladi-yu, ammo so'zlarning asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llab, biror kishi yoki hodisa ustidan kesatiq bilan, masxaromuz yashirin kuladi. So'zlar va iboralaraing kesatiq va piching bilan o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi ironiya (kinoya) usuli deyiladi. Jek London ijodida kapitalistik jamiyatdagi, o'sha davr turmushidagi salbiy voqea-hodisalar va salbiy harakterlarga qarshi kurashda ironiya va sarkazmlardan keng foydalanadi. Haqiqatan ham, ironiya shunday usulki, yuzaki qaraganda, so'zlovchi jiddiy gapirayotganga o'xshaydi, ammo uning tagida haqiqiy ma'noga qarshi bo'lgan yashirin kulgi yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Sulaymonov M. Avlodlar estafetasi. "Tarjima sanati" akolalar tuplami. T .: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976, 214-betlar.
2. Oltin sarob. T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972
3. Y. Федеров А.В. Введение теорию перевода, М., 1953 стр. 139.
4. Влахов С, Флорин С. Непереводимое в переводе. М., 1980, стр.439-440
5. Pulatov Yu. Baddiy asarda nomlar tarjimasi. T .: Fan, 1967, 37-bet
6. Быков В., На родине Джека Лондона, М., 1962.
7. Jek London. Kish haqida qissa. – Toshkent.: Yosh Gvardiya, 1979. – 59 b
8. www.ziyouz.com kutubxonasi.

TA’LIM TIZIMI ORQALI YOSHLARNI ERKIN FIKRLASHGA YO‘NALTIRISH

Tulaboyeva Gulorom Tulaboyevna,
Toshkent davlat transport universiteti
Chet tillar kafedrasi assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarda erkin muloqotni yo’lga qo’yish, Yoshlarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yoshlar-yoshlarning tanqidiy fikrlashi va o’z faoliyatiga munosabatlarini o’zgartirish masalasi o’ta muhimdir. Chunki bu masala bevosita yoshlarimiz ruhiyatiga, ongiga, tafakkuriga ta’sir etish yo’li bilan amalga oshiriladi. dars jarayonida faol qatnashish va yoshlar shaxsini shakllantirishda individual ta’limning ahamiyati ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, yoshlar shaxsini shakllantirishda individual ta’lim usullari aniq misollar bilan ifodalangan.

Kalit so’zlar: *individual ta’lim, tarbiya, shaxs, individ, temperament, konsorsium, vaqt, tanqidiy fikrlash, usul, rivojlanish, xususiyat.*

ABSTRACT

In this article, it is very important to establish free communication among young people, to change the critical thinking of young people and to change their attitude to their work in forming the ability of independent creative thinking in young people. Because this issue is implemented by directly affecting the psyche, mind, and thinking of our youth. The importance of individual education in active participation in the lesson process and the formation of the personality of young people is scientifically explained. Also, the methods of individual education in the formation of the personality of young people are expressed with specific examples.

Key words: *individual education, upbringing, person, individual, temperament, consortium, time, critical thinking, method, development, characteristic.*

KIRISH

Bugungi kunda shaxs tushunchasi psixologiya fanida juda keng mazmunga ega hisoblanadi. Shaxs mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan. Jamiyatda rivojlanuvchi til yordami bilan boshqa kishilar bilan (muloqot) muomalaga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Jjtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi. Shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning individualligi, ya’ni yakkaholligidir. Shaxs avvalo, shaxs bo’lib yetishishida 3 xislat namoyon bo’lishi kerak. Fikrlaydigan, tafakkur qiladigan ongi, so’zlasha oladigan nutqi va ijtimoiylashuvi hisoblaqnadi.

Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining takrorsiz birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga inson dunyoqarashi, qobiliyati, ichki kechinmalari, irodasi va shu kabilar kiradi. Inson tug'ilganida individ bo'lib tug'iladi. So'ngra undagi xislatlar, xususiyatlarga qarab shaxs sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Asosan individ shaxs sifatida 3 yoshida tanila boshlaydi. Shaxsni komil inson sifatida tarbiyalash juda murakkab jarayon hisoblanadi. Idnividal ta'lim o'qituvchining yoshlarga pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri. Pedagogning yoshlar bilan sinfdan tashqari olib boradigan ishlari individual ishlar sirasiga kiradi. Bu jarayon pedagogga o'zlashtirishi sust bo'lgan yoshlarni shaxsini shakllantishirishga juda qo'l keladi. Individual ta'lim O'zekiston tarixida keng qo'llanilib kelingan.

Ta'lim dargohlarida, bog'cha, maktab, litsey va Oliy o'quv yurtlarida aynan individual ta'lim orqali yoshlar shaxsini shakllantirish yo'lga qo'yilgan. Negaki, aynan shu yoshdagi yoshlar va yoshlarda shaxs tushunchasi to'liq shakllanmagan bo'ladi va bu ularni kelajakda komil inson bo'lib yetishishiga yordam beradi. Uni shakllantirish esa pedagogga yuklatiladi. Buning uchun har bir yoshlar bilan alohida shug'ullanib, uning xarakteri, temperamenti va muomala layoqatini tekshirish lozim bo'ladi.

Individuallashtirish - bizning tushunishimizcha - bu yoshlarda mavjud yoki o‘zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o‘ziga xosligini ta'minlab turish va rivojlantirish bo‘yicha kattalarning hamda yoshlarning o‘zining faoliyatlaridir.

Individuallashtirish, birinchidan, birlamchi asosiy ehtiyojlarini individual yo‘naltirilgan yordam ko‘rsatishni ko‘zda tutadi. Busiz tabiiy "o‘zligini" his etish mumkin emas. Ikkinchidan, aynan mana shu individ uchun xos bo‘lgan tarbiya bergan (meros bo‘lib o‘tgan) jismoniy, intellektual, emotsional qobiliyatlar imkoniyatlarni maksimal, erkin amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi. Va nihoyat, individuallashtirishning uchinchi belgisi, asosiy xislati - avtonom ma'naviy o‘zini qurishda, o‘zini ijodiy gavdalantirishda, "moslashuvchan bo‘lmagan faollik", hayotiy o‘z yo‘lini tanlashdagi qobiliyatini rivojlantirishda insonga yordam ko‘rsatishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shaxsni individuallashtirish uning "o‘zligini" rivojlantirish, keng ma'noda insonparvarlik tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi, yoshlarga, ularning "sub'ektiv mavjudliklarini" tashkil etishda yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda, insonga o‘zini anglash va o‘zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab

O‘zbek mumtoz adabiyotida ayollarni madh etish orqali ko‘plab asarlarning jozibadorligi oshishini guvohi bo‘lganmiz. Jumladan Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Atoiy, Sayfi Saroiy ijodida bir qator ayollar obrazi uchraydi. Abdurahmon Jomiyning “Layli va Majnun“ dostonida Layli obrazi sevgi-muhabbat bobida vafodorligi bilan ulug‘lansada, ijtimoiy hayotda passivligini sezishimiz mumkin. Chunki u otasining taz’yiqiga , kaltak yeb jazolanishiga qarshi chiqa olmaydi, sevgi bobida ham Majnunning pok sevgisiga ishonmasdan tez xulosa chiqarishi, uning dunyoqarshi sustligidan dalolat beradi. Navoiy asaridagi Layli bilimli qiz va u o‘z atrofida o‘qiydigan dugonalari bilan maktab ta’limini oladi. Sevgi bobida ham mulohazali, Majnunni boshqa qizga unashtirilganini toza qalb bilan qabul qilib,o’z sevgisiga ishonadi, uning mustaqil fikri bor.Bu bilan u ijtimoiy faol qiz hisoblanadi. Lutfiyning “Gul va Navroz” asarida Gulining faolligi sezilarli darajada berilgan bo’lsada, ijtimoiy hayotdagi o‘rni madh etilmagan. Bu bilan biz yuqoridagi shoirlarning asarlarini kamsitishdan yiroqmiz. Navoiyning tarixiy-badiiy asarlarida ijtimoiy faol ayollarni ko’plab uchratishimiz diqqatga sazovordir. Shoirning Xamsa asaridagi Layli, Mehinbonu, Shirin, Dilorom, Ravshanak kabi xotin-qizlar obrazlari o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilgan va bir necha bor tahlil qilingan. Lekin asarlardagi ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faolligi to ‘g ‘risida manbaalar kam uchraydi. Alisher Navoiyning “Xamsa”, ”Tarixi mulki Ajam” kabi asarlarida ijtimoiy faol bo‘lgan 20 dan ortiq ayollar obrazini uchratishimiz mumkin. Ushbu obrazlar orqali xotin-qizlarning jamiyatda davlatni boshqarishi, ilm olishi, kasb-hunar egallashi, adabiyot va musiqa san’atini sevishi bilan ijtimoiy hayotda faolligidan voqif bo‘lamiz. Ular ijtimoiy hayotda xalq farovonligini o‘ylaydigan, davlat mustaqilligi uchun kurasha oladigan, farzandlarini el-yurt g’amida fidoyi tarbiyalaydigan hamda ilm-fan sohasida yetuk bo‘lgan xotin-qizlar timsolidirlar. Jahon va rus adabiyotida ayol obrazi o‘ziga xos xarakterga egadir. Qadimiy Yunoniston afsonalarida Afrotida, Afina, Gera kabi obrazlar ham yaratilgan. Rus adabiyotida podshoh qizi, singlisi va boshqa ayollar obrazi ko‘proq sevgi, rashk, yomonlik va yaxshilik haqida gapiriladi, bahs yuritishadi, ammo Navoiy shoh qizlarini yoki podshoh xotinlarini ijtimoiy faol ayollar timsolida yaratib, ularni xalq farovonligi , yurt tinchligi, vatan mustaqilligi hamda xotin-qizlarni ilm-ma’rifatli bo‘lishida faolligini ko ‘rsatadi. Ana shu ezgu niyatlari, odobi bilan Sharq ayollari G’arb ayollaridan farqli ravishda ko‘rinadi.Shekspering “Qirol Lir” asarida 3 ta malika: Gonerilya, Regana, Kordeliya kabi obrazlari bo‘lib, ularning 2 nafari Kordeliyaning opalar, o‘ta xudbin, boylikka uch, bemehr qizlarning ko‘rinishlaridir. Shekpir dramalarida ayol obrazlari zamon va makonga nisbatan gavdalantirilgan.

Bundan tashqari Shekspirda Yuliya, Dezdemona, Kordeliya , Imodjena, Marina kabi ayollari bor. Ular sevgi, rashk, muhabbat tuyg‘usi bilan xatti-harakatlar qiladi. Sheksper ham barkamol xarakterlar yaratadi, ammo bu ayollar ijtimoiy hayotdagi faolligi sezilmaydi. Shundek, Duma asarlarida Anna Avstriyskaya, Margo, de Monsaro xonim va gersogenenya de Shevrez kabi ayollar ham shunga o‘xshash obrazlardir. Turkiy xalqlar hayotida mamlakat va yurtda tinchlik o‘rnatish, yaxshiliklarni amalga oshirish maqsadida Navoiy asarlaridagi ayollar obrazi ham muhim rol o‘ynaydi. Uning Mehinbonu, Shirin, Layli kabi malikalari, Xumoy, Turonduxt, Ozarmdo‘xt kabi hukmdor ayollari shular jumlasidandir. “Tarixi mulki Ajam” asarida 3 nafar hukmdor ayollar obrazi yaratilgan bo ‘lib, ularning davlatni boshqaruvida ijtimoiy faolligini guvohi bo‘lamiz. Asardagi hukmdor ayollar Sharq odobi, islomiy tarbiya olgan obrazlardir. Sharq xalqlari va islom davlatlarida hukmdor ayollar obrazi kam uchrasada, Navoiy bunday ayollar obrazini yaratib, ularni xalqning ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun kurashuvchi faol shaxs sifatida namoyon etadi. Bu kabi hukmdor ayollarning davlatni boshqarishida erkaklar bilan tenglasha olganini anglaymiz. Ma’lumki, ” Tarixi mulki Ajam ”asarida 3 nafar hukmdor ayollar haqida zikr qilingan bo’lib, ularning har birining ismi, nasabi, podshohlik davri tilga olingan. Navoiy har bir hukmdor ayol haqida juda qisqa va aniq ma’lumotlarni lo‘nda qilib beradi. Asarda ikkinchi tabaqa kayoniylar davrining podshohi Barahmanning uch qizi: Xumon(Xumoy), Farang, Barahmando‘xt ismli qizlari haqida fikr yuritiladi. Barahman podshohdan keyin davlatni boshqarish Xumoyga o‘tadi. Xumoy Erondan askar yig’ib, Rumni farh etish uchun kurashadi. Davlatni o’g’li Dorobqa bilan birga 32 yil boshqaradi. Navoiy Xumoy obrazi orqali hukmdor ayolning podshohlik qilishi, xalqni boshqarishi bilan bog’liq nozik masalalarni yoritgan. Xumoyni ham podshoh, ham ona obrazi orqali kitobxonga ayolning kuch-qudratini, jamiyatdagi o’rnini ko‘rsatib bergan va tarixiy jarayonning faol a’zosiga aylantirgan. Hukmdor ayolning xalqiga rahnamolik qilishi, farzandiga onalik qilish uchun bir vaqtda kuch topa olishini yorqin namoyon etgan. Asarda to‘rtinchi tabaqa sosoniylar davri hukmdori Parvezshohning qizlari Turondo‘xt va Ozarmdo‘xtlar ham tilga olingan. Bu ayollar davlat boshqaruvini puxta egallagan, ijtimoiy hayotda xalq dardini biladigan faol ayollar obrazidir. Turon zaminida bu ayollar podshohlik taxtiga o‘tiradi. Mol-dunyo unga ham vafo qilmasligini biladi.Turondo‘xt bag’oyat oqila hukmdor ayol edi. Aql va adl bilan davlatni boshqargan. Xalq undan minnatdor bo’lgan. Turondo‘xt bir yilu, 4 oy podshohlik qilgan. O’zidan oldingi davrdagi soliq tizimi, shariat qonunlaridagi kamchiliklarni bartaraf etishda bosh-qosh bo’ladi. Xalqni boshqarishda donoligi uchun xaloyiq undan minnatdor bo’ladi. Navoiy hukmdor ayolning xalqparvarligi va

tinchliksevarligini madh etar ekan, bu charxi dunyo bevafoligini biladi. Ammo xalq dardi bilan yashash, vatan himoyasini saqlashda ayollarning ijtimoiy faolligini ulug ‘laydi.

Chu Turon sarir uzra topti sukun,
Anga ham vafo qilmadi charxi dun.
Ul etti vafo,charx qildi sitam,
Anga yo‘qki yolg’iz yana birga ham.

Ozarmdo‘xt obrazi ham hukmdor ayolning matonatli ko’rinishi. U Turondo‘xtning singlisi bo‘lib, opasidanda sohibjamol edi. Davlat siyosatini odilona boshqaradi, qo’shinlarni, sarkardalarni muntazam o‘z nazoratida ushlaydi.U mulk ishini o ‘z tadbiri bilan boshqarishi ila Turonduxtdan farq qiladi. Aksar hollarda opsidanda tez hukm chiqarishi, qo‘shinlarining vatan osoyishtaligi yo ‘lida doimo nazoratda ushlashi bilan ajralib turadi. Ozarmdo‘xt sipohsalori Firuz Hurmuzning ishqiy munosabatini qabul qilmaydi va uni qatl ettiradi. Taxtni boshqarish bilan birga o‘zining or-nomusi uchun kurashgan ayoldir. Albatta ayollarga past nazar bilan qarash o‘sha davr uchun oddiy hol edi. Ammo Navoiy xotin-qizlar obrazini sharqona odob bilan yaratib, ayollarga nisbatan salbiy qarashlarga qarshi Ozarmdo’xt obrazi va uning harakatini yorqin ko‘rsatib beradi. Ammo Firuz Hurmuzning o’g’li Rustam otasining qasosini oladi. Bu bilan ayolning taz’yiqqa uchragani usha davrda jamiyatning illatlaridan biri ekanini aks ettiradi.

Chu Ozarmdo‘xt o‘ldi masnad nishin,
Bas oshufta quldi yana mulk ishin.
Qotil uldi dag’I topmay darang,
Vale kelturub mulk holig ‘a nang. [2]

Navoiy Ozarmdo‘xt obrazi orqali nafaqat tashqi go ‘zalligi va husni, balki uning aqi-farosati, hukmdor ayolligi, davlatni odilona boshqarganligini ulug‘laydi. Ozarmdo‘xt millatning ehtiyoji va manfaatlarini himoya qiladigan, ijtimoiy muhitni yarata oladigan dunyoqarashi shakllangan va ijobiy natijalarga erishishgan hukmdor ayol obrazi. Navoiy yaratgan hukmdor ayollar obrazi janglarda latofatini namoyish etish uchun emas, jasoratlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiligan. Bundan tashqari Navoiy ayollatni ojizalar deb kamsitilishiga yo‘l qoymagan va bu nozik xilqat egalari-ayollarni janglardagi matonatini madh etgan.

Navoiyning Xamsa asaridagi ijtimoiy faol ayollar tinchlik, sulh va ezgulik elchisi sifatida ko ‘rsatilib, jahon siyosatini yurgizishda rahbarlik qilishgan. Bir so‘z bilan aytganda , hazrati Navoiy qamragan ijtimoiy mavzularni boshqalar bunday darajada ko‘rsatib berolmagan. Xuroson davlatining vaziri sifatida ne-ne buyuk

tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, xususan, qancha shogirdlarga ustoz , siyosat va davlat arbobi sifatida xalqning ijtimoiy hayotini qo'llab-quvvatlaganlar. Shuning uchun "Farhod va Shirin" dostonida Mehinbonu, Shirin kabi hukmdor ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faolligini, jamiyat va millatning taraqqiyotini, ilm va ma'rifatni targ'ib etishdagi homiyligini ma'rifatli jamiyat ko'zgusi deb e'tirif etganlar. Shuningdek ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilab, Mehinbonuni ta'riflaganda davlat arbobi, jiddiy aql sohibasi deb izohlaydi:

Mehbonu donishparvar erdi,
Bilik ahliga shohi sarvar erdi.[3]

Mehinbonu yosh va iqtidorli yuzlab qizlarga yo 'lboshchi, shuningdek xalq farovonligi, obodonchiligi yo'lida kuchli siyosat o'rnatadi. Mehinbonu xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlaydi. O'z atrofida iste'dodli va iqtidorli faol qizlarni jamlab, 400 nafar qizlarni kasb-hunarga o'qitadi, 10 nafar Shirinnnig xos xizmatchi kanizaklarini ilm-fan sohasi bo'yicha olima ayollar qilib tarbiyalaydi. Navoiy o'z orzusidagi ma'rifatli ayollarni hayotning ilg'or darajasida bo'lishini, orqasidan xalqning yuzlab qizlarni ergashtirib, ijtimoiy hayotning faol xotin-qizlari bo'lishini istaydi.

Ul o 'n qizkim o 'n ishda erdi mohir,
Tutib har qaysi bir xonu javohir [4]

Bu qizlar ayollarning ulishi past bo'lgan aniq fanlar, huquqshunoslik fani yo'nalishida ham talablarni qondiradi. Ayollarning ilm egallashi XV asr uchun katta matonat va shov-shuvli edi,lekin Navoiy ayollarni, kasb-hunarli va iqtidorli qizlarni qo'llab-quvvatlashi orqali jamiyatda ayol va erkaklar bu sohalarda tengligini isbotlayd. Bu fanlardan ularning har biri o'z ishiga usta, shu fandagi yuzlab kishilarga bittasi tatir edi. Demak o'nta qiz yuzlab qizga yetakchi bo'lsa, minglab qizlar ilm egasi bo'lishgan. Bu bilan Navoiy jamiyatda qancha qizlar faol bo'lsa, ijtimoiy qatlamdagi xotin-qizlarning savodini chiqarish mumkin deb o'ylaydi. Mehinbonu Shirinning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi, ta'limga, ilm olishga, ma'rifatli bo'lishga intilgan qizlarga sharoit yaratadi. Arman malikasi atrofidagi qizlar ijtimoiy hayotda faol bo'lib, ularning barchasini Shirin liderlik qobiliyati bilan boshqaradi. Chunki jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarni bilimli, kasb-hunarli bo'lishi ham oila, ham bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Bu bilan Navoiy Shirinda rahbarlik qobiliyatini, liderlik faoliyatini, tashabbuskorlik xislatlarini yorqin ko'rsatadi. Ariq qazib suv chiqarish, xalqning suvga bo'lgan talabini qondirish, muhandislar ishini boshqarish va tushuna olishi darajasidagi teran fikrlovchi malikani gavdalantiradi. Arman xalqini yot dushmanlardan odilona tadbirlari bilan himoya qiladi, asraydi.

Navoiy Shirinni malikaga xos ravishda unga mos keladigan va o‘zi orzu qilgan, xalq farovonligini o’ylaydigan, xotin-qizlarni boshqara oladigan rahbar ayol qilib yaratadi. Shoir jamiyat, millat, madaniyat, odob-axloq,ilm-fan va kasb-hunarda faol bo‘lgan ayollar obrazini mukammal ta’riflaydi. Navoiy Mehinbonuni Xisrav Parvez elchilarini diplomatik munosabatda kutib olishini siyosatdon va g’oyatda bilimdon ayol timsoli sifatida gavdalantiradi. Bu bilan Mehinbonuni huquqiy bilim egasi va insonparvar faol ayolligini namoyon etadi:

Ko ‘ray e’zoz ilakim mehmondur,
Ulug’ yerdin yetishgan kordondur.

Bundan tashqari Mehinbonu Shirinning rad javobini Xusravning elchiga yetkazar ekan, ikki davlat o ‘rtasidagi munosabatga putur yetkazmaslikka harakat qiladi.

Tuzub man tongla jashni xisravona,
Qilay elchini uzre deb ravona.

Elchilar Bonuning shohona taxt va bu taxtga loyiq dabdaba, hushyorlik va odoblarni ko ‘rib, chindan ham toju taxt Bonuga loyiq deb topishadi. Demak, Navoiy yaratgan ayol davlatlararo munosabatlarni ham o‘z o‘rniga qo‘ya olishi bilan boshqa hukmdor ayollardan farqlanib turadi.

Ko ‘rib ul xusravona taxtu avrang,
Anga loyiq shukuhu hushu farhang [5]

Navoiy bu obraz orqali davlatni boshqarishda o‘z fikrga ega, jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiluvchi , teran fikrlovchi ijtimoiy faol ayol timsolini gavdalantiradi. Chunki Navoiy jamiyatda shu kabi faol ayollar bo’lishini xohlaydi.

Navoiyning “Saddi Iskandariy”dostonida ham shu kabi ijtimoiy hayotning faol ayollari obrazini uchratishimiz mumkin. Asarda Doroning qizi Ravshanak obrazi, Chin go’zali o’zining maftunkorligi , oqila, hushyor, davlat va jamiyatga qo’shgan hissasi bilan ajralib turadi. Ravshanak – Doroning ko‘z gavhari, Iskandarning xotini. O’sha davr rasm-rusumlariga muvofiq Ravshanak saroydagi barcha ayollar, shu jumladan, shoh haramidagi barcha malikalarga ham farmonravolik madhi ulyo vazifasiga tayinlangan edi. Alisher Navoiy o’zi yashagan davrda do ‘sti Husayn Boyqaroning xotini Xadichabegimga “madhi ulyo”(oliy yo’lboshchi) unvoni berilganini bildirgan. [6] Demak, Ravshanakni barcha ayollarning oliy yo‘lboshchisi sifatida talqin etadi. U saroy ayollarining ijtimoiy hayoti, sharqona odobi, farzandini islomiy tarbiyasida uquvli va hunarli bo ‘lishini, ilm va san’atda faol bo’lishiga rahnamolik qiladigan obraz sifatida gavdalantiradi. Navoiyning bu asarida bir qancha olimu fuzalolar tilga olinadi. Masalan Arastu, Suqrot, Faylaqus kabi olimu donishmandlari bor jamiyatda , albatta ayollar ham ilmparvar bo’lishi tabiiy holdir.

Chunki Iskandarning ilmiy salohiyati yuqori bo'lganligi, ilmlilarni hurmat qilib e'zozlagani, uning saroyidagi ayollarni ham ilmda faol bo'lishga chorlaydi. Biz Iskandarning Onasi – Bonu obrazida zamonasining oqilasi, aql bobida xaloyiqning ustozi degan ta'riflni uchratamiz. Bilamizki, buyuk zotlar aqlli Onalardan dunyoga keladi.[7] Ona zotida kibr va manmanlik yo'qligini yetti iqlim shohi Iskandarning onasida uchratamiz. Bonuning farzand tarbiyasini boshqa onalarga namuna qilish mumkin. Bundan tashqari ijtimoiy faol bo'lgan ayol o'z farzandini xalqqa rahnamo qilib tarbiyalaganini ushbu obraz orqali ham ko'rishimiz mumkin,albatta. Asarda Navoiy xotin-qizlarning jang san'atini ham mukammal egallay olishi ko'zda tutgan. Dostonda Chin go'zali obrazi bo'lib, u kuy va ovozi bilan barchani maftun etadi. Navoiy ayollarning ilm-ma'rifatda, san'atda mohirligini madh etsada, bu obrazi orqali ularning jangda ham mislsiz ekanligiga yuqori baho beradi. Chin go 'zali urushlarda ishtirok etsa, hamma raqibidan ustun keladi. Bunday bahodir qizni jahon tarixida hech kim eslolmaydi, deb ta'rif beradi.

Ki: Husn ichra xurshidi tobon erur,
Yana Zuxra yanglig' xushilhon erur.

U jangda shijoatli sipoh bo'lib, jangda dushmanlarni asir etadi. Biz bilamizki, buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur askarlarining ichida ham huddi shunday minglab jangchi ayollar bo'lgan. Ular vatanni, xalqini qo'riqlashda mardlarcha jang qilishgan.[8] Navoiy shu jihatdan ayollarning jangda ham erkaklardek bo'lishini Chin go'zali obrazi orqali ko'rsatib beradi. Ayollarrning janglarda dovyurak, kuch-quvvatda erkaklardan qolishmasligiga ishora qiladi. Faollik - "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik deb ta'riflanadi. [9] Demak bu obrazlar mumtoz adabiyotimizda ijtimoiy hayotning faol ayollari hisoblanadi. Ona tabiatda ham urg'ochi hayvonlar o 'rtasida to 'dani boshqarish borligi bizni qiziqtirdi. Zotan, bo'ri, shoqol va fillarlarni ularning urg'ochisi boshqarib borar ekan. Bo'ri, shoqolning ovda urg'ochisi yetakchilik qilsa, fillarda eng keksa urg'ochi fil yo'l boshlar ekan. To'daning tilini bilib, xavf va xatardan ogoh etarkan. Hatto Ona tabiatda ham ayol jinsi boshqaradigan holatlarni uchratishimiz mumkin ekan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy yashagan davrda ayollarga sharqona munosabatlarga ko'ra, ularning haq-huquqlariga e'tibor kam bo'lib, ularni ojiza deb hisoblashgan. Do'sti Amir Husayn Boyqaro saroyidagi haramda ham ko'p ayollar bor edi. Xadicha begim hukmdor ko'ngliga yo'l topa olgani uchun tez orada malikai kiromga aylanadi.U farzandi valiahd bo'lishini

xohlaydi. Kundoshlik hissi yuqori bo'lgan malika boshqa xotinlarni mensimaydi. Husayn Boyqaroning suyukli xotini Xadichabegimning salbiy xislatlariga qarshi Navoiy Ravshanak va Nozmehr kabi ijtimoiy faol ayollar obrazini misol tariqasida keltiradi. Ular kundosh bo'lsada bir-birini hurmat qiladi.Bu bilan oilada ahillik, farzandlarning bir-biriga hurmatda bo 'lishi, mehr-oqibat rishtalarining mustahkam bo'lishini istaydi. Chunki shoh haramlaridagi ayollar o'rtasidagi kelishmovchiliklar ko'pgina salbiy oqibatlarga olib kelishini nazarda tutadi. Shuning uchun Navoiy asarlarida yaratilgan hukmdor ayollar ijtimoiy faolligi bilan jamiyat taraqqiyoti, mamlakat tinchligi uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari hukmdor ayollar, malikalarning har bir xotin-qizning ma'rifatli bo'lishiga homiylik qilishi, rahnamolik ko'rsatishiini xohlaydi. Navoiy " Tarixi mulki Ajam", "Xamsa" asarlarida hukmdor, rahbar, lider ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ochib berar ekan, erkak va ayol o 'rtasidagi gender tenglik masalasini ilgari suradi. Bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, Navoiy o'z zamonasida ijtimoiy faol bo'lgan ayollarni qo'llab-quvvatlaganiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek hukmdor ayollar siymosini yorqin ochib bergan shoir sifatida uning asarlari bebaho ekanligiga yana bir karra ishonch bildiramiz. Ijtimoiy hayotda ijtimoiy- siyosiy jihatdan yetuk hukmdor ayollar obrazi Navoiy davrining buyuk kashfiyotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Jahon adiblari adabiyoti haqida.-T:O 'zbekiston.2010.
2. Tarixi mulki Ajam 179-180-b
3. A.Navoiy. Farhod va Shirin. .8-tom, 272 b.
4. A.Navoiy. Farhod va Shirin. 1989 y.199-b G'.Gulom nashriyoti
5. A.Navoiy. Farhod va Shirin. 1989 y.209-211--b G'.Gulom nashriyoti
6. Alisher Navoiy .Sab'ai sayyor.Ziyo.com.kutubxonasi.X-325-b.
7. Alisher Navoiy Saddi Iskandariy T-1991.G".G 'ulom nashriyoti 366-367-376-b
8. Jahon adabiyoti" adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal.2021.80-81b
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 90-326-b.

XX ASR BOSHLARI O'ZBEK SHE'RIYATIDA YARATILGAN "SABZAZOR" TO'PLAMI MUNDARIJASI, G'OYAVIY YO'NALISHI

Do'salova Xusniya Rustam qizi
TerDU magistranti
Tel: 998940167797
e-mail: dosalovahusniya@gmail

ANNOTATSIYA

XX asr boshlari jadid ma'rifatparvarlari jasorati bilan chop etilgan "Sadoyi Turkiston" gazetasi soyasida jamlangan, "Sabzazor" to'plamidan o'rin olgan she'rlarda elgari surilgan g'oyalar, davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy muhiti haqida so'z yuritiladi.

***Kalit so'zlar**: "Sabzazor", bayoz, to'plam, ash'or, she'r, ma'rifat, ma'naviyat, milliy ruh, millat, uslub, aruz, barmoq, vazn, ilm – fan, taraqqiyot.*

ABSTRACT

The ideas put forward in the poems from the "Sabzazor" collection, collected under the shadow of the "Sadoyi Turkistan" newspaper published with the courage of the modern enlighteners of the early 20th century, the social-political, spiritual-educational issues of the time environment is discussed.

***Key words:** "Sabzazor", bayaz, collection, poetry, poetry, enlightenment, spirituality, national spirit, nation, style, aruz, finger, weight, science, development.*

KIRISH

"Jahondagi turli xalqlar adabiyoti evolutsiyasi ko'rsatadiki, muayyan davrlarga kelib adabiyot yangilanishga ehtiyoj sezadi".[37] Shunday ekan XX asr boshlariga kelib o'zbek she'riyati ham yangilana boshladi. Aruz vaznidan barmoq vazniga o'ta boshlandi. Shakl kabi mazmun va mohiyat ham o'zgara boshladi. "Sabzazor"da jamlangan she'rlar ham shu davr mahsulidir. To'plamdan o'rin olgan she'rlarda ma'lum darajada ananaviy shakl saqlangan bo'lsada, mazmun va mohiyat o'zgardi. Bu davrga kelib yaratilgan she'rlar ishqiy mavzuda emas, yoinki, ma'rifatparvarlik ruhida bitila boshlandi. She'rlarda yor vasfi emas, ilm va tarbiyaning ahamiyati haqida kuylandi. Taraqqiyot va rivojlanishga undovchi "ruh" ustuvor vazifa kasb eta boshladi. "H. Boltaboyev yangilanish mumtoz adabiyot negizida sodir bo'ldi desa, N. Afoqova 20-30-yillar she'riyatiga an'ana va yangilik yuzma-yuz kelgan davr sifatida

[37] Afoqova N. Jadid she'riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – B.38.

yondashadi”.[38] Mana shu davr mahsuli bo’lgan, “Sadoyi Turkiston” gazetasi soyasida jamlangan “Sabzazor” bayozi ham yangilanish va yangi bosqich she’riyatidir.

To’plam quyidagi 47 she’rdan tashkil topgan; (“Bismillahir Rohmanir Rohim”, “Tashakkur”, “O’qunglar onalar!”, “(Ahvolimiz)”, “(Ulomolarimiz)”, “(Boylarimiz)”, “(Bechoralarimiz)”, “(Jahlda qolganlarimiz)”, “Qolganlarimiz”, “Biz nalar qilamiz”, “Ikki sado”, “Tarixi xislat”, “Ayzan”, “Jarida muhiblarina”, “Yongi g’ozitamizga xitob”, “Qanday ahvoldamiz”, “Ibrat bog’inda”, “Tabrik”, “Adabiyot”, “Namuna ta’surotim”, “Shoir ila to’ti”, “O’z holimizga bir nazar”, “Iffatli insonlar”, “Bor so’zlar”, “Gapurmanglar”, “Adabiyot”, “Dunyo ketishiga bir nazar”, “Sadoyi bulbul”, “Tabriknoma”, “Muxotibim Qalam”, “Millato bil bu sado Haqni biza ihsonidir”, “G’alat”, “Talonmak”, "Istariz”, “Muxammas”, “Diqqatman”, “Jahli dushing millat irfoning kerogomozmi sanga”, “Ey jaholat nozi birla yondi jism pokimiz”, “Boshqa millatlar va biz”, “O’z maishatimizdan”, “Millatim”, “Bizim millat na holda”, “Ohista-ohista”, “Ahvolimizdan bir lavha”, “Musaddas”, “Nima kimniki”, “Safohat”) [39] ba’zilarining sarlavhasi mavjud emas shu sa’babli sarlavhasiz she’rlarning birinchi misrasini sarlavha o’rnida berib o’tdim. Quyida she’rlarning g’oyaviy yo’nalishini tahlil qilishga harakat qilamiz.

“Sabzazor” to’plamiga kiritilgan she’rlarning barchasi “Sadoyi Turkiston” gazetasining sahifalarida “ash’or” deb, so’ngra she’rning nomi berilib nashr etib borilgan. She’rning oxirida esa muallifning nomi keltirilgan. To’plamga kiritilgan she’rlar, asosan, davr mohiyatini ochib berishga asoslangan. Shu o’rinda gazetaning bosilib chiqarilishi ham jamiyat uchun juda keng miqyosdagi yutuq hisoblangan. Aynan, shu singari nashrdan chiqayotgan gazetalar millatni ma’naviy yuksaltirishga qaratilgan edi. “Sadoyi Turkiston” gazetasi ham atigi bir yil faoliyat yuritdi-yu, o’zidan juda ko’plab manbalarni meros qoldirdi. “Sabzazor” ham shular sirasiga kiradi. To’plam odatiy hamd va na’d “Bismillahir Rohmanir Rohim” she’ri bilan boshlangan, undan so’ng esa gazetaning bosilib chiqishiga bag’ishlangan “Tashakkur” nomli she’r bilan davom etadi. Bu she’r “ST” gazetasining 5-sonida chop etilgan. Shundan ko’rinadiki, bayozdan o’rin olgan she’rlar gazetada bosilib chiqishi ketma-ketligida emas, balki, g’oyaviy tomonlariga muvofiq to’plamga kiritilgan. She’rlarda ko’tarilgan muommolar va mavzular ularning ketma-ketlik tartibini belgilab bergan desak yanglishmaymiz.

Hali hamon bizni qiynayotgan muommoga bag’ishlangan ash’or esa to’plamning bosh sahifalaridan o’rin olgan bo’lib, So’fizodaning mashhur “O’qunglar

[38] Boltaboyev H. XX asr boshlari o’zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi: fil.fan.dok…diss. – Toshkent, 1996. – B.30. Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 7-8.

[39] Сабзазор. Баёз. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Мунаввар қори. – Тошкент: Ильин босмахонаси, 1914. – 49 б.ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Шарқ қўлёзмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв №12891. Ўлчами 21x13,5. Матн ўлчами 11x18. Муқоваси оч яшил тусли картондан

onalar” musaddasidir. Bu musaddas “ST” gazetasining 10-sonida chop etilgan. Shunga qaramay davrning eng dolzarb mavzusini yoritganligi sababli ham to’plamning bosh sahifalaridan o’rin olgan. She’rning har bir misrasi onalarimizni o’qib ilm olishga, bid’at va hurofotlardan yiroq bo’lishga undaydi. Ammo, bu davrda ayollarni o’qitishga emas, ularni o’z nafslari yo’lida qurbon qilishga tayyor insonlar ham yo’q emas edi;

Rasmu rush shul eysa nisvo niyat,
Kulsa kerak olama islomiyat,
Qoyida shariat qoni haqqoniyat,
Qildi sizi johila nafsoniyat,
Qumri bilan bulbulu bedonalar,
Yaxshi o’qur, siz ham oqing onalar.[40]

Bu misralardan ko’rinib turibdiki, udum va odatlar ayollarni o’qirtishga to’sqinlik qilibgina qolmay, shariatni o’zicha anglagan ulomolar va avom xalq nazdida ayollarni joriyalarga aylantirish, o’z shahvoniy nafslari yo’lida ularni o’qimishsiz johila onalarga aylantirishgan. Bilamizki, har bir xonadonda farzand tarbiyasi va ta’limida onalarning o’rni beqiyos, shu sababli so’fizoda onalarni o’qimoqqa undaydi:

Boy dodangiz ozgina pul bersa ham,
Daftar oling, siz onga yo bir qalam,
Bo’lmasangiz fozila oyim o cham,
Qoida bo’lur o’ylaringiz muntazim,
Qumri bilan bulbulu bedonalar,
Yaxshi o’qur, siz ham oqing onalar.[41]

Bu misralar orqali xalq ichida boylarning ham borligi, ammo o’qish uchun pul sarf etmasliklarini anglaysiz. Shu o’rinda ayollarga xitob ham qilinib agar otalari pul bersa ham o’zlari o’qishga harakat qilishlari ta’kidlanmoqda. Agar o’qimishli bo’lishsa barcha orzu va umidlari (*Qoida bo’lur o’ylaringiz muntazim*) amalga oshishi ham ko’ylab o’tilgan.

Bayozdan o’rin olgan keyingi she’rlar esa, Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub bo’lib, “Ahvolimiz”, “Ulomolarimiz”, “Boylarimiz”, “Bechoralarimiz”, “Jahlda qolganlarimiz” va “Qolganlarimiz” nomi bilan “ST” gazetasining 9-sonida bosilib chiqqan. “Qolganlarimiz” she’ridan boshqa barcha she’rlarining sarlavhasi

[40] So’fizoda Muhammadsharif. O’qunglar onalar. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 3.
[41] So’fizoda Muhammadsharif. O’qunglar onalar. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 3.

qo’shtirnoq ichida berilgan. Sarlavhalarning qo’shtirnoq ichida berilishi ham bejiz emas:

Chiqdi haq so’z uchun achchig’larimiz!
Qoraga yopushib sarig’larimiz!
Bizdami? Ayb yoki dehqonda!
Sho’ra bo’lg’ay chiqib tarig’larimiz!
Qadiming rasmini tutub sunnat!
Bed’at o’ldi barcha qilig’larimiz![42]

Har bir davrda bo’lgani kabi bu davrda ham insonlar haq so’zni qabul qilisha olmagan. Buni oddiygina shu davrda yaratilgan Behbudiyning mashhur dramasi “Padarkush” orqali ham bilib olishimiz mumkin. Yana bir davrning dolzarb muommosi ham ko’tarilgan bu she’rda, ya’ni *qoraga yopushib sarig’larimiz* irqparastlik haqida ham so’z boradi. Barcha bu nohaqliklar uchun aybni ziyolilar o’zlaridanmi? Yoki dehqonlardan izlashlarini ham bila olishmaydi. Ayni vaqtda o’tgan ota-bobolarimizdan qolgan urf-odatlarni o’zlari uchun sunnat amal qilib olishgan. Shu sabab ham barcha qilgan ishlarining bed’at va xurofotga yo’g’rilganini ko’yib -pishib kuylashgan. “Ulomolarimiz” nomli she’rida ham “nafs” va “jahl” turiga tushsin deb, ilm dengizidagi balig’larga qiyoslashadi xalqni.

Chiqodur qoshlik va uponi qo’yib!
Burnidin bexabar yerig’larimiz![43]

Yuqoridagi misralardan ham anglashiladiki, o’zlari yasan-tusan qilib yurishgani bilan dunyodan bexabar, ilmsiz va ma’naviy qoloq ekanliklarini Hamza “yerig’larimiz” so’zi orqali ochib bergan.

Hamzaning quyidagi she’riga e’tibor beraylik:

Har kuni bir qabat tushar etidin!
Semiz o’lmay hamon arig’larimiz![44]

Har doim ham og’ir davrlar kambag’allarni yana ham og’ir va tushkun holga tushuradi. Bu she’rdan ham ko’rinib turibdiki, barcha yuk va qiyinchiliklar yana kambag’allar zimmasiga tushgani, soliqlar va mehnat ularni kundan kunga ham ma’nan ham jismonan ozdirib yuborgani anglashiladi.

“XX asr boshlari o’zbek adabiyotining g’oyaviy -mavzuviy va poetik jihatdan yangilanishida Avloniyning ham o’rni beqiyos. Uning sheriyatisiz, ehtimol, yangi

[42] Hamza Hakimzoda Niyoziy. Ahvolimiz. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 5.
[43] Hamza Hakimzoda Niyoziy. Ulomolarimiz. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 5.
[44] Hamza Hakimzoda Niyoziy. Bechoralarimiz. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 6.

o’zbek she’riyati yuzaga chiqmagan bo’lar edi”. [45] Bayozdan Avloniyning juda ko’plab she’rlari o’rin egallagan. Bayozning keyingi sahifasidan esa, G’oyaviy jihatidan yuqorida tahlil qilganimiz Hamzaning she’rlariga yaqin ma’no kasb etuvchi Avloniyning *“Biz nalar qilamiz?”* nomli g’azali o’rin egallagan. Quyida g’azalning ba’zi baytlari ma’nosini tahlil qilamiz:

Xayol aylamakim, xayri beriyo qilamiz,
Ilum hosil edub o’zni peshvo qilamiz.
Xolus niyat ila hech isha kirishmaymiz,
Yetushsa bir amali, daf’atan o’zni peshvo qilamiz.[46]

Qarangki, yaxshi ishlarni ikkiyuzlamachilik qilmasdan, riyosiz qilyapmiz deb xayol qilamiz. Ammo ozgina ilmimiz ziyodalashsa, o’zimizni “peshvo” (rahbar, ustoz, rahnomo) deb bilamiz. Biron ishni yaxshi, ezgu niyat bilan boshlamaymiz va biror amalga erishsak, daf’atan o’zimizni rahnamo qilamiz deb keltiradi baytlarida. Keyingi baytlarga ham yuzlanib o’tamiz; *hamisha oldanamiz, oldamoqdir niyatimiz,* o’zgalarning gaplariga va amallariga aldanamiz, o’zimiz ham aldash va yolg’on bilan niyatlarimizni amalga oshirishga harakat qilamiz degan ma’no bor deb olishimiz mumkin. *Tushunmay ish tubiga jangu mojoro qilamiz.* Qilayotgan ishimizning nima ekanligini va qanday foyda yoki zarar berishini, oxiri nima ekanini tushunmasdan janjal qilamiz. Qolgan baytlarda ilgari surilgan g’oyalar ham o’sha davrning eng dolzarb muommolarini kuylab chiqadi. Ilm va fanga yondashuv, tijorat va sarmoya, ta’lim va tarbiyada orqada qoloq ekanliklari haqida kuylaydi. Agarda farzandlari biror aytganini qilishmasa, “juvonmarg yuqol” deb yomon duo qilamiz deydi. Ilm va hunar o’rganish o’rniga kayf -safo qilamiz deydi. Boshqa millatlar “hikmatli kimyogarlik” qilishsa, biz “gardkam” (nard o’yini) deb “misni kimyo qilamiz” degan jumlalarni keltiradi. So’nggi misralarda:

Yetar bu damg’acha (hijron)lig’ , ey musulmonlar,
Keling, hayotimiza ilmni rahnamo qilamiz.[47]

Shu damgacha barcha narsalardan yiroqlik yetadi, endi hayotimizga ilmni ustoz, rahnamo qilaylik degan bayt bilan yakunladi. Bu she’r xalq ichidagi kamchilik va qusurlarni, millatning qaysi jabhalarda qoloq ekanliklarini yaqqol ochib bergandir. Bundan tashqari to’plamdan Avloniyning “Ikki sado”, “Jarida muhiblarina”, “Shoir ila to’ti”, “Iffatli insonlar”, “Gapurmanglar”, “Sadoyi bulbul”, “Muhotibim qalam”, “G’alat”, “Diqqatman”, “Ey jaholat nozi birla yondi jism pokimiz”, “O’z maishatimizdan”, “Nima kimniki”, “Safohat” singari she’rlari o’rin egallagan. Bu

[45] Nazarova Sh. XX asr boshlari... – Toshkent, 2023. – B.31
[46] Abdulla Avloniy. Biz nalar qilamiz. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 7.
[47] Shu manba. – B. 7.

she’rlarning barchasi mushtarak bir g’oyani ilgari suradi. Ya’ni ilm-fan taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya ahamiyati, ma’naviy va madaniy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va bed’at va xurofotdan chikinish kabi g’oylarni targ’ib etadi. Birgina “Jarida muhiblarina” she’ri esa, gazetaning mushtariylariga bag’ishlangan:

Dundi fasli bahori xoriston,
Gul ochildi bo’ib bahoriston,
Qundi bulbul chaman ochub bo’ston,
Eshiting aylayur siza doston,
Chiqdi boshlab “Sadoyi Turkiston”,
O’qingiz shavq birla, ey do’ston.[48]

Bu misralardan ma’lumki, gazeta chiqishi millatning bir yutug’i bo’lib, xoristonlarga bahor keldi va gullar ochildi deyish orqali, xalqni ma’naviyatga va taraqqiyotga yetaklovchi bahorga qiyoslanmoqda gazeta. Gazeta millatning holidan va jahon yangiliklaridan xabar beradi. Shu sabab ham xalqqa gazetaning qancha vaqtda chiqishi va qancha pul ekani haqida aytib olib zavq bilan o’qishlari aytiladi. “Shoir ila to’ti” sherida esa, shoir to’tiga yuzlanib u bilan yangiliklar va kizgan yurtlaridagi o’zgarishlarni so’raydi:

Kel ey, to’ti ikkovlon suylashaylik hol millatdin,
Eshitdim kam emassan, baxabar ahvol millatdin.
Ko’rib Makka, Madina, Misr, Istanbulu eroni’
Nelar ko’rding, eshitding so’yla jonim sarvatdin.
Kezub Fosu Yaman, Afg’onu Hindiston jazirasini,
Ridodin, xirqadin, tasbehdin so’yla ibodatdin.[49]

Islom mamalakatlarida qanday diniy yangiliklar borligi va Yevropada ilm-fan doirasida qanday yangiliklar borligi, ziroat, sanoat, hunar va ilm fan haqida so’raydi. To’ti esa javob berib, xo’roz hamma joyda berdik qichqirayotgani va islom mamlakatlari va boshqa mamlakatlar ham hali hamon g’aflatda ekanliklarini aytadi.

To’plamga kiritilgan she’rlarning yana bir katta qismini Tavalloning she’rlari egallaydi. “Ibrat bog’inda”, “Bor so’zlar”, “Dunyo ketishiga bir nazar”, “Millato bil bu sado haqni bizga ihsonidir”, “Talonmak”, “Muxammas”, “Boshqa millatlar va biz” singari she’rlari to’plamga kiritilgan. Tavallo she’rlaridagi ilgari so’rilgan g’oyalar ham boshqa she’rlar singari ilm-fan va taraqqiyothaqida kuylaydi. Xalqning urf-odat va bed’atlarga berilib qolganini, bekor bo’lsa choyxonama – choyxona

[48] Abdulla A. Jarida muhiblarina! Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 7.
[49] Abdulla A. Shoir ila to’ti. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 7.

yurishlari haqida aytib o'tadi. Boshqa millatlar taraqqiyotidan xabar beradi. Quyida "Muxammas"idan bir parcha keltiramiz:

Ko'ro'ldi ko'r sahro rahm edub ko'zimiz och,
Duosin aylama sen kam bu darda yo'qtur iloj,
Bedinga bomayurim yo'qtur qonimda rivoj,
Zamona ko'rmadi chun ilma bizga bir muhtoj,
Edub bu bed'at amallar ko'ring oqardi soch.[50]

Ko'rinib turganidik, Allohdan rahm qilishini va ilm yo'liga kiritishi, yomon amallarning hech qanday naf bermayotgani va bu amallarni bajaraman deb tez qariyotganini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari to'plamdan Sayid Hibbatulloh Xo'ja Xislatning "Tarixi xislat" nomli she'ri "ST" gazetasining 6-sonida bosilib chiqqan. She'rda gazetaning chiqishini orziqib kutilgani haqida kuylanadi. M. Rasuliyning "Ayzan" nomli she'ri gazetaning 3-sonida bosilib chiqadi. Mo'minjon Toshkandiyning "Yangi g'ozetamizga xitob" nomli she'ri gazetaning 8-sonida nashr etiladi. Bu she'r ham Xislat she'ri singari gazeta gazetaning bosilib chiqishiga bag'ishlanadi:

Chiqding emdi: (Sadoyi Turkiston),
Har quloqqa tovush yetar bu on.
(Uxlamang emdi bas) debon qichqir,
Qo'rqmayin qichqirishga yetdi zamon. [51]

Ash'orda barcha mavzuga to'xtalib o'tiladi. Gazetaning chiqishi millatning ozgina bo'lsada erkinlikka erishganidan darak beradi. Shu sababli ham endi g'aflatda yotmasdan, o'qish va izlanishga harakat qilish kerakligi haqida aytiladi. Eng kerakli ishlar bu, albatta, ilm-fan va tarbiya, taraqqiyot shulardan boshlaylik deydi. Bundan tashqari bir oilada ham ota-ona o'qimishli bo'lishi kerakligi aytib o'tiladi. Hamma ishlarni og'zaki gapirib emas amalda bajarishga undaydi. Oldin o'qishga shariyat qo'ymagan bo'lsa, endi keng yo'llar ochdi. Har bir mahallaning boy odamlari yig'ilib ikki xil maktab ochinglar deydi. Ta'lim olish uchun qizlarga alohida, o'g'il bolalarga alohida o'qituvchi yollab o'qiting deydi. Chunki, o'qigan yigitga o'qimagan tarbiyasiz nodon qiz kerak emas deb ta'kidlaydi. Ayol uyning ziynati, uyning ustuni shu sabab ham ayollar ham o'qigan bo'lishi kerakligini aytadi. So'zlarni tugatgandan yana ko'zlaringiz uyquga ketgan. Borib turt, uyg'ot ko'p zamonlarsdan beri o'zga millatlarning mustamlakasi bo'lib keldik endi o'z erking uchun uyg'on degan ma'no bor.

[50] Muxammas. Sabzazor. Birinchi tab' (noshir va to'plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 7.
[51] Yangi g'ozetamizga xitob. Sabzazor. Birinchi tab' (noshir va to'plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 13.

Axtariyning “Qanay ahvoldabiz”, “Ohista-ohista” nomli she’rlari ham millatga murojat va shikoyat tarzida bitilgan.

Gazeta nashriga bag’ishlangan yana bir ash’or Sidqiyning “Tabrik” nomli she’ridir. Bu she’rda forsiy va usmonli turk so’zlaridan juda ko’p foydalanilgan. Bu she’rda ham gazeta orqali barcha yangiliklardan xabardor bo’lishlari va gazeta yordamida ozgina bo’lsada xalq boshqa millatlardan o’rnak olib taraqqiy eta boshlashadi degan ma’no bor.

Mir Mullo Shermuhammad O’g’lining “Adabiyot” beb nomlangan she’ri “ST” gazetasining birinchi sonida chop etilgan. Bu she’r ham g’oyaviy mazmun jihatidan to’plamdan o’rin olgan boshqa she’rlar singari millatning hol-ahvolini yozadi va bu jaholat ko’chasidan boshqa millatlar singari qachon ma’rifat ko’chasiga kirasan deb millatga yuzlanadi:

Olib ibrat, san ey millat, hama obod millatdan,
Qachon ko’z ochmaki g’ayrat qilursan xuvob g’aflatdin. [52]

Xolid Said(Hayoli)ning “Namuna ta’surotim” nomli she’ri “ST” gazetasining sakkizinchi sonida chop etilgan. Jamiyat va millatning holidan olgan ta’surotlari bilan tanishtirib; yig’la millat “xor” va “zor” bo’lding, “jahl” va “g’aflat”dan “toru mor” bo’lding deydi. O’zga millatlar ilm bilan hashamatga erishdi, jahlning orqasidan “hokisor” bo’lding degan murojaat va shikoyatlar bilan davom etadi.

Mulla Qo’shoq(Miskin)ning “O’z holimizga bir nazar” nomli musaddasi “ST” gazetasining ikkinchi sonida chop etilgan. Bundan tashqari to’plamdan “Istariz” nomli va “Musaddas” nomli musaddaslari o’rin olgan. Bu she’rlar ham g’oyaviy jihatdan yuqoridagi she’rlarga yaqin. Xalqni ma’naviyatga chorlash va o’zlarining holidan xabar mazmunida bitilgan. To’plamdan yana Afandixonning “Adabiyot”, laylixonimning forscha “Tabriknoma” nomli she’rlari o’rin olgan. Bundan tashqari “Jahli dushing millat irfoning kerogomozmi sanga”, “Bizim millat na holda” va “millatim” nomli she’rlar o’rin olgan.

To’plamga kiritilgan barcha she’rlarning janri bir xil bo’lmasada, ularda qalamga olingan mavzu g’oyaviy jihatdan bir-biriga juda yaqin. Barchasida millatning holi bayon qilinib, ularni taraqqiyotga boshlash, ilm va fanga yo’naltirish g’oyasi ustuvor vazifa kasb etgan.

XULOSA

Aynan mustaqillikka erishganimiz O’zbekistonliklarga, o’zbek adiblari oldiga yangidan – yangi vazifalar qo’ydi,. Badiiy ijodda qalam tebratayotgan ijodkorlarning

[52] Mir Mullo Shermuhammad O’g’li. Adabiyot. Sabzazor. Birinchi tab’ (noshir va to‘plovchi Munavvarqori). – Toshkent: Ilin tipo-litografiyasi, 1914. – B. 17.

va olimlarning jadidlar asarlarini o’rganishi millatning ijtimoiy-siyosiy ongini, ma’naviy, axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Sabzazor” boshdan oxir millatgamurojaatdan iborat bo’lib, u millatni ilmga targ’ib qiladi. Eski oyoqlarda kishan bo’lib qolgan urf-odatlardan xalos bo’lishga da’vat etuvchi asarligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – B.38.
2. Boltaboyev H. XX asr boshlari o’zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi: fil.fan.dok…diss. – Toshkent, 1996. – B.30. Afoqova N. Jadid she’riyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 7-8.
3. Nazarova Sh. XX asr boshlari... – Toshkent, 2023. – B.31
4. Сабзазор. Баёз. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: Мунаввар қори. – Тошкент: Ильин босмахонаси, 1914. – 49 б.ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Шарқ қўлёзмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв №12891. Ўлчами 21х13,5. Матн ўлчами 11х18. Муқоваси оч яшил тусли картондан

MULOQOT DAROMAD BOSQICHINING YOSH BILAN BOG'LIQ XUSUSIYATLARI

Barno Muxtorova
Farg'ona Davlat universiteti o'qituvchisi
Raxmonkulova Maftuna
Farg'ona Davlat universiteti (ingliz tili) yo'nalishi magistranti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muloqot va uning turlari hamda muloqot daromad bosqichining kasblar doirasida bir biridan farqi va o'xshash taraflari haqida so'z borgan. Muloqotning kompazitsion bosqichlaridan adresant faoliyatidagi muloqot daromad bosqichiga alohida urg'u berilgan.

***Kalit so'zlar**: Muloqot bosqichlari, muloqot daromad bosqichi, til va jamiyat.*

ABSTRACT

This article talks about communication and its types, as well as the differences and similarities of the income stage of communication within professions. Of the compositional stages of communication, special emphasis is placed on the income stage of communication in the activity of the addressee.

***Key words:** Communication stages, communication income stage, language and society.*

KIRISH

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq xususiyatni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir. Muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.

Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, orttirgan obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Muloqotning turli shakllari yoki bosqichlari mavjud bo'lib, dastlabki bosqich – odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T.Shibutani "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: "Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera

oladi”- deb to’g’ri yozgan edi. Odamning o’z-o’zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi.

Agar odam o’z-o’zi bilan hadeb muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o’zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak, o’zgalar bilan muloqot – muloqotning ikkinchi bosqichi va ko’rinishidir.

A.N.Leontev o’zining “Psixika taraqqiyotidan ocherklar” kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o’rtasidagi muloqotning ahamiyati to’g’risida shunday deb yozadi: “Agar barcha katta avlod o’lib ketganda, insoniyat turi yo’q bo’lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo’qolib ham ketishi mumkin edi”. Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o’z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo’ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg’or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta’lim tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Olimlarning e’tirof etishlariga ko’ra “...nutqiy muloqotning to’g’ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo’lishi, umumiy vaziyat bilan bog’liq muayyan bilim va xabardorlikka ega bo’lishlari lozim. Ayni shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozisiya nomi bilan umumlashtiriladi”.

Jumladan, kimgadir nimadir demoqchi bo’lgan kishi, eng avvalo, adresantning u aytmoqchi bo’lgan gap presuppozitsiyasi bilan aloqadorligini inobatga oladi. Ya’ni, aytiladigan gapga aloqador voqelik bilan oldindan tanish bo’lgan adresat uchun adresantning asosiy fikrni bir yoki bir necha so’z orqali bayon etishi kifoya qiladi. Masalan, noma’lum sababga ko’ra biror yerdan kelishi kechikayotgan o’g’lini xavotirlik bilan kutayotgan ona uchun undan xabar olgani chiqib ketgan kishining “keldi” degan so’zining o’zi o’g’lining (boshqa birovning emas) kutilayotgan yerdan kelganligi haqidagi xabarni beradi.

Ammo adresat prosuppozitsiyadan mutlaqo bexabar, buning ustiga adresantning o’zi bilan ham notanish bo’lsa, u holda muloqotning to’g’ri va real amalga oshishi uchun adresantning gapni uzoqdan boshlashiga to’g’ri keladi. Shuning uchun “...inson o’z ijodiy faoliyatining barcha sohasida kompozitsiya to’g’risidagi muayyan printsiplarga amal qilishi ham bejiz emas.

Kishilar bunga ko’p vaqt ongda o’rnashib qolgan an’analar asosida, ongli ravishda, bazan esa go’zallik tuyg’usi ta’sirida beixtiyor amal qiladilar.... Jumladan,

mutaxassislardan va musiqadan xabardor kishilardan boshqalar u qadar e'tibor bermaydigan kuyni bastakor "daromad", "dunasr", "miyonxat", "avj", "siporish" kabi pardalar orqali tinglovchi qalbi va shuuriga yetkazishga harakat qiladi.

Muloqotda adresant va adresatlar faoliyati funktsional farqlangani kabi kompozitsion jihatdan ham farqlanadi.S.Mo'minovning"O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xusisiyatlari" monografiyasida adresant va adresatlar faoliyatini kompozitsion jihatdan alohida – alohida tahlil etib quyidagi bosqichlarga ajratadi.

1. Adresant faoliyati bosqichlari:
1. Salomlashuv va murojaat bosqichi.
2. Tanishuv bosqichi.
3. Daromad bosqichi.
4. Muddao bosqichi.
5. Xotima yoki xayrlashuv bosqichi.

Adresat faoliyati bosqichlari:
1. Tinglash bosqichi.
2. Munosabat bildirish bosqichi.

Daromad bosqichi. "Daromad" fors-tojikcha so'z bo'lib, foyda ma'nosidan tashqari muqaddima, kirish tushunchalarini ham bildiradi va biror maqsadni anglatish uchun shu maqsad atrofida uzoqdan boshlangan gapni ifodalaydi. Masalan: "Shunaqa qilib, Narzini ham yubormoqchimisiz?" – dedi kampir, darrov gapning daromadini payqab". (H. Nazir, Mayoq sari)

O'zbeklar nutqida "Berdisini aytguncha shoshmay tur", "Tomdan tarasha tushganday gapirma" kabi naqllar qo'llanadi. Bu shundan dalolat beradiki, esini tanigan aksariyat o'zbek kommunikanti adresatga biror jiddiyroq fikrni aytishdan oldin uni suhbat mavzuiga ruhiy jihatdan tayyorlab olishga harakat qiladi.

A. Qahhorning " Muhabbat " qissasida ham Naimjon bu vaziyatda hech qanday daromadga o'rin yo'qligini ko'rib gapning po'stkallasini aytdi. Daromad shu matnda kirish so'zga yoki tayyorlovga ma'nolarida kelyapti. Sherali gapning daromadini topa olmay, Shahrinsoning qo'lini ushladi.

Daromad bosqichi nafaqat nutqda balki tasvirlanayotgan matnda ham bo'lishi mumkin bunda tasvirlanayotgan vaziyat biron bir tayyorgarlikni ochib beradi. Marg'uba taqinchoqlarini titib ko'rgani odamlar chiqib ketishini kutar edi,Buni sezib barcha chiqib ketdi. Komolxonov iltimosiga binoan "xo'p" degan javobni kutib,savol alomatiday gajak bo'lib turganda telefoni jiringlab qoldi.

Bu kabi tasvirlarni ingliz adabiyotida ham kuzatish mumkin xususan O. Genrining " The count and the wedding guest" nomli hikoyasida ham daromad bosqichi mavjud " All in black and that sad far away look and the golden hair shining

under the black veil" matnda kitobxonni o'lim vaziyatiga tayyorlash bosqichini ko'rishimiz mumkin. Muloqotdagi bu xususiyati deyarli barcha davlatlar uchun xos bo'lib , ma'lum bir mavzuda gapirganda tinglovchini gapning mag'ziga tayyorlab olish aytilgan gaplar tushuniladi.

Misol uchun insonga yomon xabarni yetkazish uchun aynan shu gapni o'zidan oldin ana shu insonni shu xabarga tayyorlab olinadi bunga misol qilib xalqimizda biror kimning yaqining o'limi haqidagi xabardan oldin aytiladigan ' Alloh sabr bersin' yoki ' Bu narsa har bir insonni boshida bor' kabi so'zlar tinglovchini ruhan bundan keyingi so'z nima haqida ekanligiga tahmin qilishga yordam beradi.

Misol uchun A. Qodiriyning 'O'tkan kunlar' romanida Yusufbek hojining Otabekga aytgan so'zlaridan parcha keltiradigan bo'lsak, " O'g'lim, hali sen eshitdingmi, yo'qmi haytovur biz sanining ustingdan bir ish qilib qo'ydiq….." Aynan shu jumla orqali Yusufbek hoji o'g'lini diqqatini muhim bir masalaga qaratmoqchi bo'ladi.

A. Qahhorning " Muhabbat" qissasida Marg'uba dalda berish uchun " Hammaning ham ota va onasi o'ladi " shu jumla bilan tinglovchiga xabarga qisman tayyorlaydi va tasali beradi.Ingliz adabiyotida esa O. Genrining " Girl" hikoyasida " I have something to tell you" said Hartley to the girl. Men senga bir narsa aytmoqchiman, shu jumla orqali Hartey qizni jiddiy bir mavzuga tayyorlayapti.

Muloqot - odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zoro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab , keng qamrovli jarayondir.

A. Qahhorning " Mahalla" nomli hikoyasida otaxonga cho'tkachi " Xafa bo'lmay yuribsizmi otaxon, Kampir onam alomat odam edilar" deb aytdi.

Bundan tashqari Abdulla Qahhorning yana bir mashhur qissalaridan xisoblanadigan "Sinchalak"qissasini oladigan bo'lsak, undagi berilgan ba'zi bir jumlalar bor, Nosirov Saidaga "Bo'ston" partiya tashkilotining sekretarligiga tavsiya qilinganligini aytish uchun gapni uzundan uzoq daromaddan boshlaydi, ya'ni Qalandarov haqidagi ma'lumotlar va uning fe'lidagi o'ziga xosliklardan gapira ketadi. Saida endi xonadan chiqib ketmoqchi bo'lib turganda esa unga " Men sizga aytmoqchi bo'lgan gapimni hali aytganim yo'q, bu gaplar hammasi daromad edi deb aytadi.Bu orqali esa Saidaga muhim bir gapni aytish oldidan unni aynan shu vaziyatga tayyorlaydi.

XULOSA

Umuman badiiy asarlarda ham kundalik hayotda ham daromad bosqichiga ko'plab misollarni ham topish mumkin. Saida o'zining mansabga ko'tarilganligini

aytish uchun To‘tinsoga aytgan gaplarini misol qilish mumkin. Saida daftarni yopib, uzun daromaddan keyin voqeani aytib berdi ya’ni daromad keyin bu degani xolasiga bo‘lib o‘tgan voqeani aytib bergandan so‘ng.Saida va Qalandarov suhbat paytida Saidaga ikki qo‘chqorning kallasi bitta qozonda qaynamasligini aytadi shunda Saida darrov gapning daromadini payqab “ meni ketgin demoqchimisiz “ deb aytadi aynan shu gap ham daromad bosqichiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Odatda yoshlar kattalarga dalda berganda ishlatiladigan so‘zlari ham qisqa va lo‘nda bo‘ladi, bunga misol qilib P.Tursunning “O‘qituvchi” romanidagi shu matini keltiraman.” Bandalikda opa.Eringiz shu choyxonada bir kechayu kunduz inqillab yotdi. Raxm qilib, eshigimga olib ketdim. Ayvonga joy qilib yotqizib qo‘ydim. Achchiqina xo‘rda qildirib berdim. Ajali yetgan ekan. Bir kun yotib,ertasi kechasi qazo qildi” . Bu kabi misollarni ko‘plab kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

Farabi saw the method of scientific knowledge in logic. Logic serves to determine whether a thought process is right or wrong and deals with categories, that is, essences that are understood by the mind. "Logic," Farabi writes, "when used in one or another part of philosophy, is essentially a weapon, with the help of which one achieves reliable knowledge about all that is covered by theoretical art"[55]. He also made a great contribution to the development of logical terms. He tried to find a connection between logic and grammar, logical thought and its verbal expression. For example, defining the object of logic, it shows the following: 1) Having a talent and with its help a person thinks through concepts, acquires science and art; 2) categories that appear in the human soul and are called inner speech; 3) the interpretation of the interaction of grammar that the expression that appeared in the mind is an external speech is still relevant today.

A lot of attention is paid to looking at logical forms such as logical concepts, judgments and conclusions, various relationships, divisions and descriptions and symbols of different forms of concepts, as well as the characteristics of scientific concepts - their difference from ordinary concepts, their expression in language, that is, to the issue of scientific terms. Analyzing the sentences, Farabi looks at the relationship between the subject (owner) and the predicate (section) based on the volume and content. Farabi's attempt to separate judgments depending on the predicables appearing in them as predicates deserves special attention.

However, Farabi's greatest interest is in the conclusion. His doctrine of real discussions, which can be derived from deductive generalizations to particulars as a starting point, is excellent. These truths, which constitute the first discussion of qiyas (syllogism) and the proofs in arguments, are four: maqbulot (determination), mashurot (generally accepted), azhazaot (private perception, emotional knowledge), maquloti first (primary concepts; accepted truths without proof - axioms)[56]. In Farabi's works, there are a number of valuable ideas about the structure and forms of comparison, the causes of logical errors, non-contradiction laws, the sufficiency of the basis, and so on.

CONCLUSION

To sum up, the classification of sciences, philosophical-epistemological ideas created by our great scholar Farabi made great changes in the development of science

[55] Alper Umar. Philosophy of mind-revelation-religion relations in Islamic philosophy. - Istanbul: Moonlight Bookstore, 2000. - P.143.
[56] Ali Yasin Cafer. Al-Farobiy fi hududihi va rusumihi. - Bayrut, 1985. -P.121.

in the Middle Ages. Farabi introduced Greek philosophical ideas into the philosophy of the Muslim East by studying Greek science in depth and writing commentaries on the works of Greek philosophers. This, in turn, gave a great impetus to the further development of Muslim philosophy. In the Muslim East, a new philosophical school created the foundation for the formation of the "Eastern Aristocracy" school and enriched it with new materialistic ideas. The ideas put forward by Farabi were studied with great interest by scholars of Muslim countries in the 16th-20th centuries. The legacy left by the thinker is only the East not only in their countries, but also in Europe spread and in the development of socio-philosophical thought had a significant impact.

REFERENCES

1. Abu Nasr Farabi. About the essence of Plato's laws. -T.: People's heritage, 1993. - 180 p.
2. Abu Nasr Farabi. Aristotle's philosophy. // Farabi. City of virtuous people.-T. People's heritage. 1993.-330 p.
3. Adamson, Peter. In the age of Al-Farabi, Arabic Philosophy in the Fourth/Tenth Century//Journal of Islamic Studies 22 (no. 2)-L.: Press, 2011. – 247 p.
4. Ali Yasin Cafer. Al-Farobiy fi hududihi va rusumihi. - Bayrut, 1985. -143p.
5. Alper Umar. Philosophy of mind-revelation-religion relations in Islamic philosophy. - Istanbul: Moonlight Bookstore, 2000. - 326 p.
6. Arneldez Roger. The soul and the universe in the philosophical system of Farabi. AU Journal of Theological Faculty (XXIII), 1978. - p. 349-358.
7. Atay Hussein. Farabi's theory of creation. - Istanbul: Dionet magazine. XVI/3, 1977. - pp. 56-64.
8. Mahdi, Muhsin. Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago:The University of Chicago Press, 2011.-298 p.
9. Rashed, Marwan. On the Authorship of the Treatise *On the Harmonization of the Opinions of the Two Sages* Attributed to al-Farabi, *Arabic Sciences and Philosophy*, 2009.19(1): 43–82. doi:10.1017/S0957423909000587.
10. Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования и переводы. – Т.: Фан, 1986. – 200 с.

BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA MATEMATIKA VA MANTIQ FANLARINING ELEMENTLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Nasridinova Gulshoda
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti
Mamadaliyev Komiljon
Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari ta’lim muassasalarida matematika va mantiq fani elementlaridan foydalanishning ahamiyati haqida muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: *matematika, mantiq, metodika, masala, taraqqiyot, “logika”, termin, qonun.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важность использования элементов математики и логики в учебных заведениях для будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: *математика, логика, методология, проблема, разработка, «логика», термин, закон.*

ABSTRACT

This article discusses the importance of using the elements of mathematics and logic in educational institutions for future elementary school teachers.

Key words: *mathematics, logic, methodology, problem, development, "logic", term, law.*

KIRISH

Insoniyat azaldan muayyan qonuniyatlar doirasida harakat qilgan. Nafaqat inson, balki butun borliq, xoh u tabiat hodisalari, xoh inson anglay olmaydigan sirli olam bo‘lsin, doimo o‘ziga xos mantiqiylikka ega bo‘lgan. Hech bo‘lmaganda insonning o‘zi bu hodisalar taraqqiyotiga mantiqiy izohni topishga harakat qilgan. Xullas, inson va uning atrofida sodir bo‘layotgan barcha hodisa, jarayonlar ham, inson tafakkurining taraqqiyoti ham hamisha muayyan mantiqiylikka bo‘ysungan. Shu o‘rinda, ko‘p yillardan buyon mantiq ilmini o‘zining darslik va o‘quv qo‘llanmalarida targ‘ib qilib kelayotgan olimlardan biri V. I. Kirillov tabiat, jamiyat va inson munosabatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarda obyektiv va subyektiv mantiqiylik borligini to‘g‘ri ajratib berganligini alohida e’tirof etishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunki haqiqatan ham atrofimizda sodir bo‘layotgan hodisalar, qolaversa

tafakkurimizda kechayotgan jarayonlar ham ma’lum bir mantiqiylikka ega ekanligini doimo his qilib turamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga matematika va mantiq fani samarali ta’lim berilishi uchun o’qituvchi boshlang’ich sinflarda matematika hamda mantiq fanini o’qitish metodikasini egallab, chuqur o’zlashtirib olmog’i lozim.

Mantiq fan sifatida miloddan avvalgi IV asrda Qadimgi Gretsiyada vujudga kelgan bo‘lib, «logika» nomi bilan yuritilgan. Dastlab «logika» grekcha – «logos», ya’ni «so‘z», «fikr», «aql», «qonuniyat» degan ma’nolarini anglatgan. Ayrim manbalarda ta’kidlanishicha, «Logika» tushunchasini birinchi bor ilmiy termin sifatida Demokrit o‘zining «Mantiq to‘g‘risida» yoki «Qonun» asarida muomalaga kiritgan3 . «Mantiq» so‘zi esa arab tilidan olingan bo‘lib, «tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan»4 degan ma’noni anglatadi. Hozirgi zamon ilmiy muloqotida «mantiq» terminining mazmuni ancha boyigan bo‘lib, u turli ma’nolarda ishlatiladi.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bug’ini jamiyatdagi demokratik o’zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta’lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta’lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta’lim tizimi hisoblanadi. Ta’lim tizimining har bir bo’g’ini alohida o’ringa ega.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, Shu bilan birga odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O’qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o’quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimini tez topa olishi uchun bu soxada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo’lishi talab etiladi.

Hozirgi kunda boshlang’ich ta’lim metodikasi o’qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o’yinlar mantiq ilmi va matematik nuqtai nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o’yinlardan foydalaniladi va o’rganilgan materialni faqat mustaxkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Matematika boshlang’ich ta’lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1.Matematika o’qitishdan ko’zda tutilgan maqsadni aniqlab asoslash (nima uchun matematika o’qitiladi, o’rgatiladi)

2. Matematika o’qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o’rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o’quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o’rganishda izchillik ta’minlanadi,

o’quv ishlariga o’quv mashg’ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta’lim mazmuni o’quvchilarning aniq bilim olish imkoniyatlariga mos keladi.

3.O’qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o’qitish kerak) ya’ni, o’quvchilar hozirgi kunda zarur bo’lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko’nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o’quv ishlari metodikasi qanday bo’lishi kerak?

4.O’qitish vositalari-darsliklar, didaktik materiallar, ko’rgazmali qo’llanmalar va o’quv- texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o’qitish)

5.Ta’limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta’limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish). [1]

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi matematika fanidan tuzilgan dasturga binoan o’quvchilarga quyidagi bilimlarni berishni nazarda tutadi:

· Butun nomanfiy sonlarni raqamlash;
· Asosiy miqdorlar va ularning o’lchov birliklari;
· Arifmetik amallar;
· Matnli masalalar;
· Algebraik material(tenglik, tengsizlik va b.q.)
· Geometrik material;

Maktabda matematika hamda mantiq o’qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko’p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir. Matematikaning eng qadimgi davrlaridan hozirgi kungacha bo’lgan ko’p asrlik rivojlanish tarixida uning to’rt rivojlanish davri qayd etiladi:

1.Dastlabki omillarning jamlanishi bilan bog’liq matematikaning paydo bo’lish davri.Bu davrda matematika hali alohida fan tariqasida o’zining predmeti va metodiga ega bo’lmay, balki matematikadan faqat ayrim faktlar to’planadi. Bunga misol qilib qadimgi Misr, Bobil, Xitoy va Hind matematikasini ko’rsatish mumkin.

2.Elementar matematika davri. Bu davrga qadimgi Yunon matematiklari asos soldilar va uni O’rta Osiyodagi O’rta Sharq olimlari jumladan Al-Farg’oniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Ulug’beklar davom ettirdilar.

3.O’zgaruvchan miqdorlar matematikasi davri.

4.Klassik oliy matematika davri. [2]

O’quvchilaning matematik va mantiq bilimlarni o’zlashtrishi faqat o’quv ishida to’g’ri metod tanlashga bog’liq bo’lmasdan, balki o’quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog’liqdir. Dars deb dastur bo’yicha belgilangan, aniq jadval asosida , aniq vaqt mobaynida o’qituvchi rahbarligida o’quvchilarning o’zgarmas soni bilan tashkil etilgan o’quv ishiga aytiladi.

Dars vaqtida o’quvchilar matematikadan nazariy malumotga, hisoblash malakasiga, masala yechish, har xil o’lchashlarni bajarishga o’rganadilar, ya’ni darsda hamma o’quv ishlari bajariladi.

Matematika darsining o’ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o’quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra geometriya elementlari ham o’rganiladi.Matematika boshlang’ich kursining boshqa o’ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun xar bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o’quv malakalar sngdiriladi. Taniqli olim J.Ikromov o’zining “Язык обучения математики” kitobida "Maktab o’quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bo’linadi",-deb ta’kidlaydi. Birinchi navbatda ular ob’yektiv tushunchalarning birgalikda tashkil etadigan mazmuni —matematik reallikni aniqlab oladilar. Bunda ob’yektlarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o’rtasidagi bog’liqlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu yerda matematik reallik jumlasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak ushbu reallikni o’quvchilar matematik hisob kitoblarning turmush jarayonidagi ahamiyatini bevosita bilganlarida ya’ni kundalik turmush bilan bog’liq misol va masalalarni bevosita bajarganlaridagina his qiladilar. Demak kundalik turmush bilan bog’liq holda matematika o’qitishni tashkil etish o’quvchi faoliyatida muhim ahamiyatga egadir. Kundalik turmush bilan bog’liq misollar yechish asosida o’quvchi matematik bilimlar shunchaki o’zlashtiriladigan bilimlar emas balki hayotiy zaruriyat sifatida o’zlashtirilishi lozimligi to’g’risida xulosa qiladilar.

Odatda darsda bir necha didakik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni utish; o’tilgan materialni mustaxkamlash; bilmilarni mustaxkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustaxkam o’quv va malakalar xosil qilish va xokazo. Matematika darslarining o’ziga xos yana bir tomoni Shundaki, bu-o’quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko’rgazmali vositalar, o’qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash,o’quvchilarning faolligi, sinf o’quvchilarining o’zlashtirish darajasi, kabilarga ham bog’liq.

Matematika darsida turli tuman tarbyaiviy vazifalar ham hal qilinadi. O’quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas’uliyatni va sof vijdonlilikni, to’g’ri va aniq so’zlashni, hisoblash, o’lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbyailaydi.

O’quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.
2. O’quvchilar bilan yakka va guruh mashg’ulotlari.

3. Matematikaga qobiliyatli o’quvchilar bilan o’tkaziladigan mashg’ulotlar.
4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg’ulotlar.
5. O’quvchilar bilan ishlab shiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu yerda sanab o’tilgan ish shakllari va dars bir birini to’ldiradi. Asosiy masala darsga taalluqlidir. Darsda hamma ishlarga bevosita o’qituvchi rahbarlik qiladi. Qo’shimcha mashg’ulotlarda esa ish o’qituvchining o’zi tomonidan yoki o’qituvchi rahbarligida o’quvchilar tomonidan badjariladi.

Bugungi kunda asoslanishi lozim bo’lgan holat-o’quvchiga pedagogik yordam ko’rsatish va o’quv biluv jarayonida uni pedagogik qo’llab quvvatlashning qulay shakl va imkoniyatlarini izlab topishdan iboratdir. [3]

O’quvchilar bilan har bir darsda bir nechta tushunchalar bilan ish olib boriladi. har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olib borish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O’qitish jarayonida har bir o’quv materiali rivojlantirlgan holda olib boriladi, bu o’quv materiali o’zidan keyin o’qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo’ladi. Boshqa tushunchaning o’zlashtirilish jarayonini qarasak, u bir nechta darslarning o’zaro bog’liqligi o’qitilishi natijasida hosil bo’ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarni hosil qilish birgina darsning o’zida hosil qilinmasdan, balki o’zaro aloqada bo’lgan bir qancha darslarni o’tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz.Shuning uchun o’qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma ketlikda joylashtirishi kerak.Eng katta talab darsning o’quv tarbiyaviy maqsadini e’tiborga olish, o’qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo’yicha yaxshi o’ylangan darslar tizimining o’quv vaqtini mavzularga to’g’ri taqsimlashga bog’liq.Unda o’quvchilarning mustaqilligini hosil qilish, xususiy misollarni qarash, xususiy xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Bu bilimlar darslar tizimida hosil qilinib, mustaxkamlangandan keyin misol va masalalar yechishni ta’minlashi kerak. Undan keyin mashqlar yordamida malakalarni qayta ishlashi, shuningdek hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimda keltirish va umumlashtirishni ham ta’minlash kerak.

Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini aniqlashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya’ni bilimlarni o’zlashtirishga quyidagi asosiy bosqichlar qaraladi:

1.Yangi materialni o’qitishga tayyorlash.
2.Yangi o’quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.
3.Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlar orqali malakalarni hosil qilish.
4.Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish.

5.Bilim va malakalarni tekshirish.

Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va matematikaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirsh omillaridan biri o'quvchilar bilan olib boriladaigan mustaqil ishlardir.

Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik ko'rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilim, uquv va malakalarni mustahkamlashda, shuningdek bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

O'qitishni tashkil qilish.

O'qitish shakli- bu o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini uni turli sharoitlarda (sinfda, ishlab shiqarishda va h.k.)o'tkazilishiga muvofiq ravishda o'qiutuvchi tomonidan tarbiyaviy o'qitish jarayonida foydalanialadigan qilib tashkil etilishidir.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o'quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo'lib ishlashalri, ekskursiyalar, sinfdan tashqari ishlardan iborat.

O'quv dasturi DTS asosida tasdiqlangan davlat hujjati bo'lib, uning bajarilishi majburiydir. Boshlang'ich sinflar tabiiy matematik ta'lim davlat standartlari talablarining o'quvchilar tomonidan bajarilishi ularning zarur bilimlar, malaka va ko'nikmalarini egallashlariga , bilim olishga ijobiy munosabatda bo'lishlarining shakllanishiga yordam beradi:

a) o'quvchilarni tevarak atrofdagi tabiiy muhitga moslashtirish, yangi ijtimoiy maqomdagi o'quvchini shakllantirish;

b) faoliyatning har xil turlarini: o'quv, mehnat, muloqotni egallash;

v) o'z-o'zini nazorat qilish hamda baholash reytingini aniqlashga o'rgatish;

g) muayyan umumiy tabiiy-ilmiy iqtidorning belgilangan darajasi va uning keyingi taraqqiyoti tavsifi.

XULOSA

Shunday qilib, boshlang'ich sinflar tabiiy matematik ta'lim davlat standartining o'quv-biluv jarayoniga joriy etilishi o'quv fanlariga doir tabiiy-ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarnigina emas, balki shaxsning muayyan asosiy faoliyati majmuasi mehnat, o'quv-biluv, kommunikativ-axloqiy va jismoniy tuzilishiga mos keladigan fazilatlarning shakllanishini ham ta'minlaydi.

Kundan kunga ma'lumot oshib borayotgan bilan tushunarli bo'ladiki bugungi o'quvchilarga kerak bo'ladigan narsalarni hammasini o'rgatib bo'lmaydi. O'zlashtirilgan ma'lumot juda tez eskirib qolmoqda, chunki har kuni yangi ma'lumotlar chiqmoqda. Fanda o'qitish nazariyasi ushbu fanni o'qitish bo'yicha

metodik tizimlarning faoliyat qonunini ochib beradi. Metodika ularni tadbiqini, texnologiya esa ushbu modelni amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi.

Tushuntirsh quyidagi usullarda tahlil qilinib olib boriladi:

1)dogmatik usul.

2)evristik usul;

3) tadqiqot usuli (muammoli usul);

Birgalikda ishlash bilish faoliyatining faollashuviga yordam beradi, o'quvchilarda o'zaro nazorat qilish va o'zaro yordam berish sifatlarini shakllantiradi, tarbiyaviy vazifani ado etadi.

Tarbiyaviy vazifalarning hal etilishida darsning ayrim tarbiyaviy o'rinlari emas, balki butun o'quv jarayoni ta'lim mazmuni, o'quv ishi usullari, darsni puxta tashkil etilishi yordam berishini unutmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Бикбаева Н.И., Левенберг Л.Ш. "2-синфда математика" Т-"Укитувчи" 1988-й 343- бетлар
2. Бабанский Ю.К "Хозирги замон умумий таълим мактабида укитиш методлари" Т-Укитувчи 1990 й. 227 бет
3. Jumayev M. va b.q. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" T-2005-y. 312 b
4. M.X. Turdiqulova "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning zamonaviy tarzda amalga oshirish imkoniyatlari" Наука XXI века №8 2018

TOPISHMOQLARDA MA’NO KO‘CHISH TURLARI

Mahmudova Nargiza Ravshanovna
Farg’ona davlat universiteti
Ingliz tili kafedrasi katta o’qituvchisi

Xoshimova Mashxuraxon Shuxratjon qizi
Farg’ona davlat unioversiteti
Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi magistranti
E-mail: mashkhurakhoshimova909420gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o’zbek xalq topishmoqlarida ma’no ko’chish turlari, topishmoqlarning struktur semantik jihatlari hamda ularning uslubi haqida so’z boradi. Xalq og’zaki ijodining eng ixcham va quvnoq janrlaridan biri bo’lgan topishmoq janri azal-azaldan barcha xalqlarda ham donolik, zukkolikni aniqlovchi hamda aqlni charxlovchi va insonlarda xushyorlikni oshirishga xizmat qiluvchi eng asosiy vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ular inson kamolotida muhim o’rin tutuvchi unsurlardan biridir.

Kalit so’zlar. *Topishmoq, jumboq, xalq og’zaki ijodi, metafora, istiora, ko’chma ma’no, shakl va mazmun, obrazlilik, badiiy tasvir, jonlantirish.*

ABSTRACT

In this article we try to give some information about types of transferring the meaning in Uzbek folk riddles, the structural semantic aspects and the style of riddles. The riddles which is one of the most concise and funny genres of folk art, has been recognized as one of the main tools for determining wisdom, ingenuity, and increasing people’s vigilance in all nations since time immemorial. They are one of the elements that play an important role in human development.

Key words. *Riddle, folk literature, metaphor, transferring the meaning, structure and meaning, characterization, literary exposition.*

KIRISH

O’zbek xalq topishmoqlarini ilmiy asosda o’rganish jarayonida ushbu xalqning milliy o’ziga xosligi, qadriyatlari, mentaliteti bilan bog’liq holda, yaratilgan topishmoqlarni tadqiq qilishga harakat qildik va xalqimiz folklorining boshqa xalqlar folklori bilan o’zaro mushtarak hamda o’ziga xos bo’lgan farqli jihatlari mavjudligiga guvoh bo’ldik. Bu maqolamizda biz ushbu ishimizdagi asosiy tadqiqot obyektimiz bo’lgan topishmoqlarning tuzilishi, mazmuni hamda ularga xos bo’lgan leksik, sintaktik va grammatik hodisalarni tahlil qilamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Topishmoqlar shakl va mazmun jihatdan xilma-xildir. Ularga nazar tashlaydigan bo'lsak bir qatorli darak gap shaklidagi, bir qatorli so'roq gap shaklidagi, to'rt qatorli, so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lgan she'r shaklidagi, o'zaro savol javob-javob asosiga qurilgan aytishuv shaklidagi, va hattoki topishmoq asosiga qurilgan ertak va dostonlarni ham uchratishimiz mumkin.

Masalan: *"Yer tagida oltin qoziq –*

U hammaga bo'lar oziq". (Sabzi)

Mazkur ikki misrali she'r shaklidagi topishmoq o'zbek xalqi orasida mashhur bo'lib, uning javobi sabzi ekanligi ko'pchilikka ma'lum. Yuqoridagi topishmoq ham boshqa ko'plab topishmoqlar singari metafora asosiga qurilgan bo'lib, "oltin qoziq" o'xshatishi orqali sabzining tus jihatidan oltin rangiga yaqinligi, shaklan qoziqqa o'xshash bo'lib, uning asosiy qismi tuproq ostida bitishi va tanovul qilish mumkinligiga ishora qilinadi. Shu asnoda topishmoqni topishi kerak bo'lgan tinglovchilar aytilgan belgilarga tayangan holda topishmoqning javobini topishga harakat qiladilar.

Topishmoqlar shaklan nihoyatda ixcham, muxtasar bo'lishiga qaramay, badiiy tasvir vositalariga juda boydir. Topishmoqlarning uslubi metafora (istiora), ko'chim, kinoya, qochirma yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatish orqali, yashirilayotgan narsa va hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa-hodisalarning belgilarini qiyoslash, o'sha belgilarga imo-ishora qilishdan iboratdir.

O'zbek xalq topishmoqlarining asosiy qismini metaforaga asoslangan topishmoqlar tashkil etadi. Metafora bu – muayyan bir narsa yoki hodisaning tashqi ko'rinishi jihatidan boshqa bir narsaga o'xshashligi asosida ma'no ko'chish turi bo'lib, u topishmoqlarda tasvirdagi obrazlilikni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan: "*Atrofi chakalakzor, o'rtasi yorug' yulduz*", bu topishmoqda jumboqlanayotgan narsalardan birinchisi *kipriklar*, ko'chim esa "*chakalakzor*", ikkinchi jumboq *ko'z* bo'lib, unga nisbatan "*yorug' yulduz*" ko'chimi mohirona ishlatilgan. Ya'ni "Atrofi chakalakzor" ta'rifi bilan ko'z atrofidagi kipriklar ko'zni xuddi chakalakzordek o'rab turishiga ishora qilinsa, "o'rtasi yorug' yulduz" deya, kipriklar o'rtasida chaqnab turguvchi ko'z nazarda tutiladi.

Yoki: "Yer tagida qizil ximich", bunda jumboqlanayotgan narsa *chuvalchang*, ko'chim esa *ximich*.

Metaforaga asoslangan topishmoqlarning ancha murakkab, savol-javob tarzida tuzilgan turlari ham uchraydi. Masalan:

U nimadir quv yog'ochdan og'zi bor,

U nimadir o'rtasida mag'zi bor,

U nimadir yelkasida og'zi bor,
U nimadir suv ostida qimirlar?

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi topishmoqning har bir qatorida bittadan savol tarzidagi jumboq yashirilgan. Bu topishmoqning javobi ham xuddi qo'yilgan savol kabi she'riy shaklda, ko'p tarkibli bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

U tandirdir, quv yog'ochdan og'zi bor,
Bug'doy bo'lar, o'rtasida mag'zi bor,
Tegirmondir, yelkasida og'zi bor,
Baliq bo'lar, suv ostida qimirlar.

Bu xildagi savol-javobga asoslangan topishmoqlar anchayin murakkab bo'lib, ulardagi jumboqlanayotgan narsani topish tinglovchidan topqirlik va ziyraklikni talab qiladi.

Ba'zi bir topishmoqlarda metafora jonlantirish usuli bilan namoyon bo'ladi. Masalan:

Qora botir otdan tushdi,
Askarlari o'rab olishdi.

Ushbu topishmoqda metafora jonlantirish usuli bilan namoyon bo'lgan. Topishmoqning javobi qozon va kosalar bo'lib, "qora botir" birikmasi metafora asosiga qurilgan bo'lib, u orqali qora qozon nazarda tutiladi. "Otdan tushdi" birikmasi esa jonlantirishga yaqqol misol bo'la oladi, ya'ni topishmoqning birinchi misrasida qozonning o'choqdan olinishini "qora botirning otdan tushishi" misolida obrazli ifodalanyapti. Ikkinchi misrada ham xuddi shunday ham metafora ham jonlantirish usuli qo'llangan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, topishmoqlarning aksariyati o'xshatish san'ati asosiga qurilgan. Buning sababi topishmoqlarda ikki yoki undan ortiq tushunchani farqli jihatlarini qiyoslash, taqqoslash orqali jumboqlangan predmetni topishga ishora qilinadi. Odatda qiyosning ikki turi farqlanadi, bunda qiyoslashning maqsadidan kelib chiqiladi. Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o'rtasidagi farqni ko'rsatish maqsadida qiyoslangan bo'lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi.

Masalan: *Otdan baland, itdan past. (Egar)*

Qiyoslash, o'xshatish maqsadini ko'zda tutganda esa o'xshatish konstruksiyasi shakllanadi.

Masalan: *Po'sti qalin, qovoqday,*
Beli bog'li tanobday,
Mevasi sarig' yog'day. (Yong'oq)

Yoki:

Oqligi sutday,
Ko'kligi nilday,
O'tirishi bekday. (Zag'izg'on)

Ba'zi topishmoqlar narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganligiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin.

Masalan: *"Qo'li yo'q, oyog'i yo'q, uy poylar" (qulf).*

Mubolag'a yo'li bilan yaratilgan topishmoqlar ham anchagina bo'lib, ularda ma'no ko'chish xodisasi bo'rttirish orqali sodir bo'ladi.

Masalan: *"Bir chuqurda ming chuqur" (angishvona).*

Yoki, *"O'zi bir qarich, soqoli ming qarich" (igna-ip)* kabi.

Ba'zi topishmoqlar so'zlarning ohangdosh bo'lib kelishiga ya'ni qofiyadoshligiga asoslanadi. Bunday turdagi topishmoqlar shaklan she'rga o'xshash bo'lib, ularni aytilishi ham eshitilishi ham ayniqsa bolalar uchun qiziqarlidir.

Masalan: *"Zuv-zuv borar,*
Zuv-zuv kelar,
Doston o'qir,
G'alvir to'qir" (ari).

Yoki, *"Osti tosh, usti tosh,*
O'rtasida jonli bosh" (toshbaqa).

Ko'rinib turganidek, topishmoqlar shakl va mazmun jihatidan rangbarang bo'lishi bilan birga, ularning yaratilish usuli va maqsadi ham farq qiladi. Shu bilan birga topishmoqlarni tadqiq qilish ham tilshunoslikning eng qiziqarli va dolzarb masalalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Z.Husainova. O'zbek topishmoqlari. Toshkent, Fan. 1966
2. Topishmoqlar. O'zbek xalq ijodi, ko'p tomlik, T.,1983.
3. M.Jo'rayev, G'.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent, Turon-Iqbol 2018.
4. M.Saparniyozova. O'zbek xalq topishmoqlarida gap bo'laklari tartibi /"O'zbek tili va adabiyoti"/ 2005, 3s.
5. Umida Qobulova. Topishmoqlarning struktur tahlili /O'zbek tili va adabiyoti/, 2005, 4-son.
6. Nargiza Maxmudova, Khoshimova Mashkhura, The meaning of riddle in folklore.

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI QARINDOSHLIK HAQIDAGI MAQOLLARNING QIYOSIY TAHLILI

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna
Farg'ona davlat universiteti,
Chet tillari fakulteti Ingliz tili kafedrasi mudiri,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
Qayumova Sayyora Topvoldi qizi
Farg'ona davlat universiteti,
Lingvistika (ingliz tili) mutaxassiligi magistranti
Email: shohrux771ja@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola yaxshilik va yaxshi hulq haqidagi ba'zi ingliz va o'zbek maqollarining semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ayrim maqollarning boshqa tildagi ekvivalentlari tarjimaning bir qancha muhim innovatsion usullarini aniqlash va ingliz va o'zbek tillaridagi o'ziga xosliklarini qarama-qarshi qo'yish maqsadida ularni boshqa tilda izohlash uchun berilgan. Ushbu ishning natijalari va misollari qarindoshlik va mehr-muhabbat haqidagi ingliz va o'zbek maqollarining ma'nolaridagi ba'zi farqlarni ajratish va ularning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *maqol, lingvokulturologiya, madaniyat, pragmatika, sinonimiya, antonimiya, ekvivalent, kontekst.*

ABSTRACT

This paper is devoted to the analysis of semantic and linguocultural features of some English and Uzbek proverbs about good quallitiesof people. The equivalents of some proverbs in a target language are given for interpreting them in the other language to find out several important innovative ways of translation and contrasting their peculiarities in the English and Uzbek languages. The results and examples of this paper can help to distinguish some differences in the meanings of the English and Uzbek proverbs and other different proverbs and to learn linguocultural peculiarities of them.

Keywords: *proverb, linguoculturology, cultureme, pragmatics, synonymy, antonymy, equivalent, context, component.*

KIRISH

Ushbu qismda ingliz va o'zbek maqollarida eng ko'p uchrovchi yaxshilik va yomonlik, do'stlik va qavm qarindoshlik mavzusiga oid ayrim maqollarning ingliz va o'zbekcha variantlarini tahlil qilgan holda, maqollarning har ikkala tilda uchrovchi

o’xshash va farqli jihatlarini ko’rib chiqamiz. Kundalik hayotimizda uchrovchi turli xil narsalarni hamisha ikki xil, ya’ni bir-biriga qarama- qarshi jihatlari orqali bilamiz. Bular ichida eng ko’p uchrovchi hodisalardan yaxshilik va yomonlik xislatlaridir. Yoki tilimizda bularni ijobiy bo’yoqdor so’zlar va salbiy bo’yoqdor so’zlarga ajratamiz. Yaxshilik va yomonlik leksemalarining maqollarda keng ko’lamda uchrashi tabiiy holdir. Chunki maqollar xalqning hayotiy haqiqatga nisbatan qarashlarini va munosabatlarini ko’rsatuvchi hodisadir. Shu o’rinda ingliz va o’zbek maqollarida uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusidagi maqollar xalqning ushbu tushunchalarga bo’lgan munosabatlarini yaqqol ifoda etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Keltirilgan fikrlarimizni isbotlash maqsadida quyida bir qator yaxshilik va yomonlik mavzusidagi ayrim o’zbek va ingliz maqollarining semantik tahlillarini keltirib o’tamiz.

Inglizcha: **A bad excuse is better than none**

O’zbekcha**: Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,**
Yomon gap bilan musulmon dinidan.

Inglizcha**: A bad beginning makes a bad ending**

O’zbekcha: **Yomonchilik bo’lganda, qor ustiga muz yog’ar**.

Inglizcha**: A good beginning makes a good ending.**

O’zbekcha: **Yaxshi yil — bahoridan,**
Yomon kun — saharidan ma’lum

Ushbu maqollar eng ommabop maqollar sirasiga kiradi. Biror ishning natijasi qanday bo’lishi, uning qanday boshlanishiga bog’liq ekanligi maqollarda ham o’z aksini topa olgan. Odatda boshlagan ishimizning yakuni uni qanday ruhiyatda boshlashimizga va yon- atrofimizdagilarni bunga bo’lgan munosabatiga bog’liq bo’ladi. Shuning uchun ham ishni yaxshi boshlasak yaxshi, aksincha yomon boshlasak yomon yakun topishi maqollarda ifodalangan. Bu kabi maqollar har ikki xalqda ham batafsil aks etgan. Maqollardan yana shuni ko’rish mumkinki, inglizlar ham o’zbeklar ham yaxshi bilan yomonni qarama- qarshi qo’yish orqali ichki ma’noni ifodalashga harakat qilgan. Bunga qo’shimcha qilib quyidagi maqolni ham keltirib o’tsak bo’ladi.

Inglizcha: **In every beginning think of the end**.

O’zbekcha**: Yaxshi yerga yotsang,**
Yaxshi tush ko’rasan.
Yomon yerga yotsang,
Yomon tush ko’rasan.

Demak, har bir boshlamoqchi bo'lgan ishimizning yakuni uni qanday boshlashimizga bo'g'liq ekanligi yuqorida keltirib o'tgan maqollarimizda ifodalangan. Ushbu maqollarning tahlilidan kelib chiqib, har ikki tildagi variant bir xil ma'no-mazmun anglatayotganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek va ingliz tillaridagi maqollarda o'zining g'oyat mazmunga boy ekanligi bilan ajralib turuvchi maqollardan yana biri **"Every cloud has a silver lining" va maqolning o'zbekcha varianti qilib:**

"Har yaxshida bir "ammo" bor,
Har yomonda — bir "lekin" olingan.

Inglizcha keltirilgan "Every cloud has a silver lining" aslida o'zbek tiliga – **"Har bir bulutning kumush hoshiyasi bor"-** deb tarjima qilinadi.

Semantik maydon, leksikaning yana bir muhim tashkiloti sifatida, ma'lum bir faoliyatga yoki mutaxassislarning bilim sohasiga tegishli leksemalar guruhi sifatida tavsiflanadi, masalan, ovqat pishirish, suzib yurish atamalari yoki shifokorlar, ko'mir qazib oluvchilar yoki tog 'alpinistlari tomonidan ishlatiladigan so'zlar . Turli xil sohalarning semantik maydoni, hech qanday tarzda, bir xil darajada katta yoki kichik bo'lishni anglatmaydi, ya'ni teng miqdordagi so'zlarga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qarindoshlikning semantik maydoni, boshqa semantik maydonlardan anchagina katta. Qarindoshlik haqidagi o`zbek maqollarida ko'p uchraydigan yana bir badiiy tasviriy vositalardan biri metaforadir. U badiiy adabiyotlarda qisqacha o'xshatish deb ham yuritiladi. Maqollarda istioraviy ko'chimlar asosan yetakchi semantik vazifani bajaradilar. Masalan: "Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas" maqolidagi "et va tirnoq" so'zlari yaqin qarindosh-urug', og'a-ini o'rtasidagi yaqinlikka ishora qiladi. Bundan tashqari "er – xotinning urishi, doka- ro`mol qurishi" maqoli ham shular jumlasidandir. Tilimizda bu kabi maqollar juda ko`pchilikni tashkil qiladi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, har bir xalq o'z turmush tarzi va muhitdan kelib chiqib maqollarni yaratadi bu narsa o'zbek tilidagi ayrim maqollarda juda yorqin aks etadi. Ayrim o'zbek maqollaridagi so'zlar va ma'nolar boshqa xalq maqollarida uchramaydi. Masalan, "Onangni boshingda tutsang, singlingni kaftingda tut" maqolida onalarga va singillarga mehr oqibatli bo'lish ularni ardoqlash nazarda tutilgan. "Quda andalik joyingdan qulunli biyangni ayama" ushbu maqolda xalqimizga xos bo'lgan noyob urf odatni guvohi bo'lishimiz mumkin. Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, "qaynona" va "kelin" obrazlari faqatgina o'zbek maqollariga xosdir. Ya'ni, ingliz xalq maqollariga nisbatan aynan o'zbek maqollarida bu mavzu ko'proq yoritiladi. Buning sababi o'zbek xalqi bu munosabatlarga ancha jiddiyroq yondashganidadir. Masalan:

• Kelin bo’ldim — qaynonamga yoqmadim, qaynona bo’ldim — kelinimga yoqmadim.

• Qaynonaga tosh otsang tosh olasan, qaynonaga osh bersang osh olasan.

Aynan o’zbek xalqida quda-anda va ular o’rtasidagi aloqa, oldi berdi munosabatlari juda muhimligini maqolda aks ettirgan lekin bu maqolni ingliz xalqiga yetkazib berish bir muncha mushkilroq buning sababi shundaki ingliz tilida va madaniyatida bu maqolni ifodalash va ularga tushuntirish uchun ekvivalent maqol topib bo’lmaydi. Bundan tashqari inglizlar quda- anda bilan aloqalarga umuman olganda unchalik etibor qaratmaydi. Shu o’rinda yana bir qancha maqollarga e’tiboringizni qaratadigan bo’lsak, o’zbek xalqi ovsin, qaynona, qaynog’a, qaynisingil singari so’zlardan foydalanib turli xil maqollarda hayot haqida so’z ochishni maqsad qilgan lekin bunday holat ingliz xalqida umuman uchramaydi va ularga bu maqollar ozgina noodatiy tuyulishi mumkin. Misol uchun,

- Qaynisingil – yarim kundosh.
- Qaynisingil- yarim qaynona,
- Qaynegachi- butun qaynona.
- Ovsinim- ajinim,Ko’rganda kelar g’ijinim.
- Kelinning tili yo’q,Qaynonaning- iymoni.
- Kelin kimhob kiyar,qaynona qarg’ab kuyar.
- Kelining yaxshi bo’lsa, berdi hudo,Kelining yomon bo’lsa, urdi hudo.

Bu maqollarda kelin kelishi, qaynona va kelin munosabati, o’zbek xalqiga xos bo’lgan va boshqa xalqlarda ayniqsa ingliz xalqida umuman uchramaydigan qaynisingil,ovsin va shu kabi qarindosh urug’chilik munosabatlari chuqur ma’no orqali ochib berilgan. . Uyat, andisha, hayo kabi mavzular ham faqat o’zbek maqollarida ko’proq uchraydi desak yanglishmaymiz. Chunki asrlar davomida ota bobolarimizdan kelayotgan bu kabi fazilatlar o’zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Isbot uchun quyidagi maqollarni keltiramiz: • Andishaning oti qo’rqoq. • Sharmsizlik – sharmandalik nishoni. Endi ingliz xalqi tomonidan yaratilgan ayrim maqollarni ko’rib chiqsak, ularda oilaviy aloqalar va ularning hayotdagi ahamiyati ochib berilgan lekin aynan qarindoshlarga ahamiyat berilmagan.

Demak, xalqning tilida mavjud bo’lgan har bir so’z tilda ifodalanar ekan, ma’lum xalqning maqollari o’sha xalq tilida keltirilgan so’zlardan shu xalq vakillari tomonidan shu xalqning o’ziga xos xususiyatlari bilan, yasalish usuli bilangina ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abdullaeva N.E., SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK PROVEBRS WITH CONCEPT OF FRIENDSHIP. January 2017.
2. Teliya V.N. Phraseology in the context of culture. Languages of Russian culture. Moscow, 1999. P. 17-20.
3. Honeck, R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA.: Lawrence Erlbaum, 1997.
4. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.: Mehnat, –2000
5. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA METAFORALAR LINGVOKULTUROLOGIYASI

Umarova Nargizaxon Rustamovna
Farg‘ona davlat universiteti
nargizaxonumarova1971@gmail.com
Xojiyeva Sevaraxon Dilshodjon qizi
Lingvistika (Ingliz tili) mutaxassisligi magistranti
sevara.xojiyeva.95@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola metaforaga asoslangan lingvokulturologiya (lingvistik madaniyat) haqida keng fikr yuritib, batafsil ma’lumot beradi. Maqola lingvokulturologiya so’zining izohli lug’ati bilan ham tanishtirib, o’zbek tilidagi bir nechta lingvokulturologiyaga asoslangan metoforik terminlarni tahlil qiladi. Shuningdek, “metafora”ning aynan bizning madaniyatdagi o’ziga xos xususiyatlarini va ma’nolarini yoritib o’tadi va bu bo’yicha turli namunalar keltiriladi. Nazariyalar misollar orqali yoritiladi.

***Kalit so’zlar**: metafora, lingvokulturologiya, lingvistik madanyat, metoforik birlik, metoforizatsiya, lingvokulturologik jihat, ko’chim.*

ABSTRACT

This article provides detailed information about metaphor-based linguoculturology (linguistic culture). The article introduces the explanatory dictionary of the word linguoculturalism and analyzes several metaphorical terms based on linguoculturalism in the Uzbek language. It also sheds light on the specific features and meanings of "metaphor" in our culture and provides various examples. Theories are illustrated through examples.

***Keywords:** metaphor, linguoculturalism, linguistic culture, metaphoric unit, metaphorization, linguocultural aspect, migration.*

KIRISH

Lingvokulturologiya atamasining etimologiyasi ingiliz va lotin tillariga borib taqaladi. “Lingvo” so’zi til, tilga oid degani bo‘lib, kultra madaniyat ma’nosini anglatadi. “Logos” so’zi esa yunoncha “ta’limot” demakdir. Demak lingvokutralogiya til va madaniyat aloqadorligining hosilasidir.

V.V.Vorobyev “lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo’lib, u madaniyat va til o’rtasidagi o’zaro aloqalar va ta’sirlashuvlarni o’rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy

ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadryatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi", - deb ko'rsatadi. Ushbu tushunchalarning o'zaro farqli jihatlarini professor O'. Yusupov quydagicha izohlaydi. "Lingvokulturema - o'z semantikasida (ma'nosida) madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi.

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi"[57].

Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-o'zini anglash xususiyatini o'rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlashish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XVIII asrdan boshlab "madaniyat" atamasi inson faoliyatining mahsuli bo'lgan barcha narsalarga nisbatan qo'llanila boshlagan. Bu ma'nolarning barchasi "madaniyat" so'zining qo'llanilishida saqlanib qolgan, ammo aslida bu so'z "insonning tabiatiga maqsadli ta'siri, tabiatning inson manfaatlari uchun o'zgartirilishi manosini anglatgan.

Mualliflarning madaniyatga bergan ta'riflari umumlashtirilsa, madaniyatga butun tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomononidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi" deb ta'rif berish mumkin. Shunga asosan madaniyatning ikki turi farqlanadi: 1) moddiy madaniyat; 2) ma'naviy madaniyat; Moddiy madaniyat inson faoliyati tufayli yaratilgan "ikkinchi tabiat", ya'ni ishlab chiqarilish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ko'nikmalari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan hayot uchun hizmat qiladigan

[57]Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.

barcha boyliklarni anglatadi. Ma’naviy madaniyatning qamrovi behad keng bo’lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari, ya’ni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, ta’lim-tarbiya, maktab, o’rta va oliy ta’lim, fan, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari, san’at, xalq ma’naviy ijodiyotning barcha turlarini qamrab oladi. Moddiy va ma’naviy madaniyat bir biri bilan uzviy bog’liq bo’lib, biri ikkinchisini to’ldiradi. Masalan, moddiy boylikning biror turini inson aql-zakovatisiz, tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo’lmaydi. Demak, moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ma’naviy madaniyat ham yotadi. Har qanday moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma’naviy ma’daniyat voqealikni badiiy aks ettirish va o’zlashtirish vositasidir. Moddiy madaniyat dunyo va insonlarning moddiy hayot sharoitlari bilan, ma’naviy madaniyat esa urf-odat, rasm-rusm, an’ana, marosim va milliy qadriyatlar bilan chambarchars bog’liqdir.

Metafora ancha murakkab ma’no ko’chish hodisasi hisoblanib, ayni zamonda ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar diqqatini o’ziga jalb etib keladi. Bu ma’no ko’chishga tilshunoslar ko’p ma’noli so’zlardagi semema va semalarning xarakterli xususiyatlarini ochish, ko’chma ma’no hosil qiluvchi hodisalar tahlili nuqtai nazaridan yondoshsalar, adabiyotshunoslar esa polisemantik so’zlardagi tasvirning turli vositalar (o’xshatish, sifatlash, majoz istiora)ni yuzaga keltiruvchi omillar deb biladilar. Har ikkala yo’nalishda ham maqsad bitta, u ham bo’lsa, so’zning ko’p ma’noligi va undagi uslubiy imkoniyatlarni o’rganishdir.

Metaforik va ko’p ma’noli so’z ikki farqli hodisa bo’lib, tur-jins munosabatida turmaydi. Nom ko’chishining alohida bir turi sifatida baholanuvchi funksiyadoshlik mohiyatiga nazar tashlash uni aslida metaforaning o’zi ekanligini ko’rsatadi. Bizga ma‘lumki, metafora o’xshashlikni nazarda tutadi, o’xshashlik qay asosda (shaklan, tabiatan, vazifasiga ko’ra ...) bo’lishi ahamiyatsiz. Shuning uchun biz funksiyadoshlikni metafora ko’rinishlaridan biri sifatida baholadik.

Metonimiya (uning ko’rinishlaridan biri bo’lgan sindekdoxa) metaforaga ancha yaqin keladi. Farq shundaki, metafora o’xshashlikni, metonimiya bog’liqlikni nazarda tutadi. O’xshashlik va bog’liqlik farqi metafora va metonimiya yana bir farqni yuzaga keltiradi: bog’liqlik obyektiv ravishda haqiqatan mavjud, o’xshashlik esa obyektiv ham, subyektiv ham bo’la oladi. Demak, metonimiya metaforaga nisbatan obyektivroqdir. O’xshatish va metafora munosabati metafora nazariyasining eng munozarali masalalaridandir. Ular bir-biriga nihoyatda yaqin kelishi bilan birga, tubdan farq ham qilishi mumkin:

a) shaklan;

b) mazmunan;

v) usluban;

So’zning ko’p ma‘noliligini o’rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o’ynaydi. Chunki, bir so’zning o’zida turli xil ma‘noning bo’lishi uchun og’zaki va yozma nutqda qo’llashda uslubiy bo’yog’iga, ma‘nosiga e‘tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma‘no ko’chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so’z o’yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so’zning to’g’ri va ko’chma ma‘nosi to’qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma‘no hosil bo’ladi.

Sczlarning ana shu nozik ma‘no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo’llanadi

Madaniyat qanchalik chuqur va tafsilotlari bilan o’rganilsa, uning inson fikrlashi bilan bog’liq ekanligi yakdil seziladi. Shunday ekan, inson ko’z o’ngida aks etgan voqea-hodisalarni madaniyati orqali ongiga singdirishga hamisha intiladi. Ma’lumki, insonlar ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaydilar, u yoki bu milliy tilda so’zlashadilar va ular muayyan milliy ma’naviyat va madaniyatga ega. Milliy ma’naviyat, uni ro’yobga chiqishida muhim o’rin tutadigan til madaniyati va nutq ma’naviyatining o’ziga xos xususiyatlari insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o’z aksini topadi. Buni metoforik misollarda ko’rib chiqamiz.

Umri chinor kabi uzun

Chinor daraxti kabi umriz uzun bo'lib tanasi kabi baquvvat bo'lib yurishizi tilakdoshiman(Amirxon Umarov)

Qo’li gul

Kitob qurti

Qishning qahri

Nondek aziz

Charos ko’z

Qoshlari qaldirg’ochning qanotidek

Suv quygandek jim jit

Yuqoridagi iboralarni metaforik jihatlarini tahlil qilb ko’ramiz.

Misol uchun: *buxoroda **qo’li gul** ustalar qurgan memori obidalar bor*. bu gapda “qo’li gul” iborasi ustalar mahoratini ifodalash va ular yaratga tarixiy oidalar qanchalar go’zaligini ifodalab kelmoqda.

“kitob qurti” iborasi inglizlar orasida keg tarqalgan iboralardan. Bu ibora kitobsevarlarga nisbatan qo’llaniladi.

Misol uchun: “*bu yil qish judda sovuq keldi**. Qishning qahridan** qishlog’imiz chetidagi ko’l **oynadek muz** bilan qoplandi*”. Bu gaplarimizda qishning qattiq sovug’i, “qishning qahri”ga, muzlagan ko’l esa, “oynaga”o’xshatilgan.

“nondek aziz bo’l” iborasi xalqimiz orasida keng qo’llaniladi. Non xalqimiz orasda aziz nemat, rizq hisoblanadi. Bu iborani ko’pincha duolar orasida qo’llaniladi.

“charos ko’z”, ko’rganda ko’zni quvnatib turuvchi charos uzum donasidan ilhomlanib olingan bu ibora chiroyli ko’zlarga nisbatan ishlatiladi. Bunday jumlalar so’zamon xalqimiz orasida juda ko’p va keng qo’laniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Filip Chesterfild. Hikmatlar. Ziyouz.uz
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. Пособие. – М.: Академия, 2001-208с.
3. Mahmudov N. – Tilning mukammal tadqiqi yo’llarini izlab…// O’zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2012.-№5.-B. 3-16.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа «Язики русской культуры», 1196- С.222.
5. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.

METAFORANING MOHIYATI VA TURLARI

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna
Farg'ona davlat universiteti
Ingliz tili kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent

Xojiyeva Sevaraxon Dilshodjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi magistranti
sevara.xojiyeva.95@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola metaforaning mohiyati va turlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqola metaforik so'zining izohli lug'ati bilan ham tanishtirib, o'zbek tilidagi bir nechta metaforik terminlarni tahlil qiladi. Va albatta, uning gaplarda qullanilishi, qo'llaniganda gaplarga qanday badiiy bo'yoqdorlik berganini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, "metafora"ning aynan bizning madanyatdagi o'ziga xos xususiyatlarini va ma'nolarini yoritib o'tadi.

***Kalit so'zlar**: metafora, metoforik birlik,semalar,lisoniy,sintagmatika, ekspressiv metafora.*

ABSTRACT

This article provides detailed information about the nature and types of metaphor. The article introduces the explanatory dictionary of the word metaphorical and analyzes several metaphorical terms in the Uzbek language. And, of course, we will see how it is used in sentences, what artistic color it gives to sentences when it is used. It also sheds light on the specific features and meanings of "metaphor" in our culture.

***Keywords**: metaphor, metaphoric unity, themes, linguistic, syntagmatic, expressive metaphor*

KIRISH

Metaforaga asosan uch guruhga ajratish mumkinligini ko'ramiz:

1. Metafora nom ko'chishning (deyarli) har qanday usuli (Arastu, E.Kassirer).
2. Metafora qisqargan o'xshatish (Potebnya va uning izdoshlari).
3. Metafora nom ko'chishning alohida bir turi (A.Vejbitskaya, N.D.Arutyunova va o'zbek tilshunoslari).

Metafora nom ko'chishi bilan bog'liq (ya'ni nom ko'chish turlaridan biri yoki hammasi) ekanligini shu soha bilan shug'ullanganlardan hech biri rad etmaydi, biroq nom ko'chish turlarini noto'g'ri talqin etish yoki, yanada to'g'rirog'i, e'tibordan

chetda qoldirish natijasida metafora nom ko'chish bilan aloqador bo'lmagan hodisalar (simvol, metamorfoza, ...) ham qamrab olinadi. Nom ko'chish deganda, odatda so'zlarning o'zaro munosabati natijasida semantik qurilishning o'zgarishi, semantik vazifalarning o'z so'z birikmasi a'zolari o'rtasida qayta taqsimoti, assotsiativ yoki sintagmatik qatorda munosabatda turuvchi til birliklarining o'zaro ta'sirlashuvi natijasida so'z birikmasi unsurlaridan biriga yangi ma'no berilishi tushuniladi. Demak, nom ko'chishi so'z birikmasi a'zolaridan birining assotsiativ yoki sintagmatik munosabatlar natijasida yangi semantik qurilish kasb etish ekan.

Komponent tahlil nazariyasisiz metaforaga yondoshish metaforani sof nutqiy tasodifiy hodisa sifatida ko'rsatadi. Biroq nutqiy hodisalarning hammasida ham lisoniy asoslar mavjud va mana shu asoslarni biz komponent tahlil etish natijasida qo'lga kiritamiz. Metaforik ma'no nutqiy hosila bo'lsa-da, u lisoniy imkoniyat va qonuniyatlarga tayanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'noviy qurilishda bu semalarning, asosan ifoda semalarining bo'rttirilishi darajasiga ko'ra so'zlar ichki ifodali (ingred konnotatsiyali) so'zlarga, (chunonchi, qiblagoh, padar, volida, tashrif buyurmoq) va mo'tadil ifodali (atrend konnotatsiyali) so'zlarga (ota-ona, kelmoq, qizil, yetim) bo'linadi. Ichki ifodali so'zlarda uslubiy bo'yoq so'zning ma'noviy tarkibida bo'ladi. Mo'tadil ifodali so'zlarda uslubiy bo'yoq mo''tadil befarq bo'ladi va nutqda ko'chma okkazional qo'llanishda hosil bo'lishi mumkin. Shuning uchun ichki ifodali so'zdan nominativ semalar ajratilsa, ichki lisoniy uslubiy ma'no qoladi. So'zlarning ma'noviy tuzilishini har taraflama o'rganish shuni ko'rsatadiki, leksemaning ma'noviy tarkibi atash va ifodalash semalari bilan cheklanmaydi. Leksemalarda, ayniqsa, jamiyat a'zolari orasida keng qo'llanadigan, muhim ahamiyat kasb etadigan narsa, buyum, belgi, harakat, holatlarni ifodalovchi leksemalarda atash va ifoda semalaridan tashqari qo'shimcha yoki ijtimoiy shartlangan semalar ham mavjud. Bu semalar ma'lum bir narsa – buyum, belgi – xususiyat, harakat – holat shu jamiyat a'zolari orasida qanday yodosh (assotsiativ) qo'shimcha ma'lumotlarga aloqadorligi bilan bog'lanadi. Chunonchi, o'zbek tilida —qo'y – mo''tadil ifodali so'z bo'lib, uy hayvonlarining bir turini atab, nomlab keladi. Lekin shu bilan birga, bu so'zda yuvoshlik go'llik, semalari ham mavjudki, bular qo'shimcha ijtimoiy shartlangan semalar sifatida qaralishi kerak. Yoki sariq rang – o'zbeklarda xastalik, zaiflik, ayriliq belgisi. Metaforik ma'no denotativ ma'no semalari va qo'shimcha ma'no semalari asosida yaratiladi. Qo'shimcha ma'no hosil qilish qonuniyati va usuli birdan amal qiladi. Ma'lumki, so'zning ma'nosi nutqiy hosilalar – so'z birikmalari va gaplar tarkibida voqelanadi. Shunga ko'ra, to'g'ri (uzual) qo'llanishda leksemaning bizning ongimizdagi

ma’noviy qurilishi nutqiy voqelanishidagi ma’nosiga semalar jihatidan mutanosib bo’ladi. Chunonchi, oltin – nodir ma’dan, oltin soat, oltin uzuk.

1. Obyektiv yoki subyektiv borliqdagi narsalar orasida (keng ma’noda) o’xshashlik.

2. Shu o’xshashlikning lisoniy aksi bo’lgan mutanosib semalar.

3. Narsalardan birining nomi nutqiy sharoit uchun yo’qligi.

Ana shu unsurlar ta’minlaganda, nomning metaforik ko’chishi yuzaga keladi. Demak, - Metafora – obyektiv (yoki subyektiv) borliqdagi o’xshashlikning lisoniy aksi bo’lmish mutanosib semalar asosida bir narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi o’rnida qo’llanishi‖. Metaforani nom ko’chishining boshqa usullaridan farqlovchi ―obyektiv va subyektiv o’xshashlik‖ ka asoslanish belgisi bir qarashda juda yaqqoldek tuyulsa-da, uning nazar mohiyatiga nazar tashlash bu ancha murakkab hodisa ekanligini ko’rsatadi. Bu ikki omil bilan belgilanadi.

1. Metaforada ko’chimning ko’chish bazasi doim ham to’la, aniq bo’lavermaydi. Masalan, oltin bosh, ko’chayotgan so’z ―oltin‖ aynan qaysi so’z o’rinda kelayapti – noaniq.

2. Balki qimmatli, aqlli, dono va hokazo so’zlardir. Ammo bu noaniq. Sanab o’tilgan so’zlarning har birida ―oltin bilan mutanosib sema bor.

Metaforik ko’chayotgan nom va uning bazasi (ko’chish o’rni) orasidagi munosabatlar turli-tuman bo’lishi mumkin.

Metafora gapiruvchining quyidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi. ―...birinchidan, bir narsani nomlash, ikkinchidan, nomlanganda ham nomning ―gapiradigan bo’lish zaruriyati. Bu yerda nomlash atamasi ostida bir-biridan mohiyatan farq qiluvchi ikki xil hodisa nazarda tutiladi:

1. Nomsiz narsani nomlash.

2. Nomli narsaga qayta nom berish (ikkilamchi nominatsiya).

Nomsiz narsani nomlash zaruriyatini tushuntirib o’tirishga hojat yo’q. Chunki nom inson bilimi faoliyatining eng zaruriy uzvidir. Ammo ikkilamchi nomlash zaruriyati nimadan kelib chiqadi? Bu zaruriyat mavjud bo’lgan nom so’zlovchi nuqtai nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta’minlay olmay qolganda yuzaga keladi. Ikkilamchi nomlash quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir.

Metaforani tanish: Matnda uchragan hukm uning obyektiv borliqdagi bilimlari asosidagi hukmlardan farq qila boshlasa, bu uning qandaydir ko’chimni uchratganidan darak beradi.

Valixon so’fi – muloyim supurgi ... Valixon so’fi – odam, binobarin, u supurgi bo’la olmaydi.

Qayta qurish. Bu jumboq (odamni supurgiga tenglashtirish) ni yechish jumlani ko'proq tushunarli shaklga solib qayta qurishni talab qiladi. Valixon so'fi xuddi muloyim supurgi kabi tabiatan egilib-bukuluvchan, harom-xarishdan hazar qilmaydigan kishi.

Tahlil qilish. Bu bosqichda ko'chim ostida nima turganligi jihatidan o'rganiladi. Masalan, Valixon so'fida quyidagi motivlar ajratiladi: 1-shaxs, 2-moslashuvchanlik, 3-yumshoq so'z, 4-laganbardor, 5-harom-xarishdan hazar qilmaydi.

Supurgi-narsa, yumshoq, harom-xarishni tozalaydi.

Valixon so'figa xos 3- va 5-semalar ―supurgi‖ so'ziga xos 2-3-semalar bilan mutanosib o'xshash. Demak, bu yerda tinglovchi (o'quvchi) metaforani uchratgan.

Bu uchala bosqichni hozirgi (balki boshqacharoq) holatda tiklash ochuvchi-tilshunos-tadqiqotchiga xos. Tushunuvchi ongida bu bosqichlar stixiyali ravishda kechadi.

Metafora nihoyatda murakkab hodisa bo'lib, uning tasnifi bir necha xil belgiga ko'ra, bir necha xil bosqichda olib boriladi.

Metafora unsurlarining o'zaro munosabatiga ko'ra turlari. Bizga ma'lumki, metafora uch unsur – tema, ifoda vositasi va qiyos uchun asosdan tuziladi. Masalan, ...Qishloqning bo'risi ham yuzboshi, tulkisi ham yuzboshi (A.Qahhor) gapida quyidagi metaforalar amal qiladi: ―yuzboshi - bo'ri‖, ―yuzboshi - tulki metaforasida bo'ri va tulki so'zlarida, ―Bo'ri so'zi shavqatsiz, ochko'z, yulg'ich ma'nolarini ifodalaydi, ―tulki – ifoda vositasi, ayyor, yulg'ich – tema. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, metaforada nom ko'chish odatda miqdoran tenglik asosiga qurilavermaydi. Faqat mazmuniy tenglik zaruriy hisoblanadi. Shuningdek, bu tenglik ham nisbiy aniqlanadi. Ya'ni metaforik qo'llangan bir so'z aynan bitta so'zning o'rnida kelgan deb bo'lmaydi. Yuqoridagi misolda qiyoslang: bo'ri – shavqatsiz, ochko'z...

Demak, bu yerda miqdoriy emas, mazmuniy tenglik nazarda tutiladi va bu tenglik ham nisbiydir. Chunki ―bo'ri‖ so'zida qiyoslash uchun asos bo'lgan semalar bilan mutanosib motivlar nutqiy sharoit talabiga ko'ra turlicha bo'la oladi: xarakter jihati, tabiiy jihatlar, tashqi ko'rinish va hokazo. Metaforaga xos bo'lgan ana shu xususiyat haqida fikr yuritib, Dj. Miller metafora yaratuvchi ―...aniq so'zlarni nazarda tutgan ham, tutmagan ham bo'lishi mumkin, ular ishlatilmagani tufayli biz buni hech qachon aniqlay olmaymiz... deydi. Metafora unsurlarining bu xil munosabati yanada chuqurlashtirilishi mumkin. Ya'ni temagina emas, ifoda vositasi ham konkret so'zlar bilan ifodalanmaydi: …―chiqdi - chiqdi‖ degan gap o'rmaladi (A.Qahhor).

O’rmalash gapga xos xususiyat emas, demak, bu yerda metafora bor. Ammo gap nima deb tasavvur qilinayapti? Konkret javob yo’q. Shugina ma’lumki, u qandaydir o’rmalay oladigan jonzodga qiyoslanmoqda, ya’ni metafora yaratuvchi o’z ifoda vositasini konkret aytmaydi, balki metafora qabul qiluvchini ―yo’llaydi‖. Metaforani oxirigacha yechish adresat ixtiyorida qoladi. Kelib chiqadiki, metafora unsurlari munosabatining mutanosiblik va konkterlik tabiatiga ko’ra ikki xil ekan:

1. Ifoda vositasi tema bilan mazmunan mutanosib va konkret ifodalangan (ya’ni metaforaning asosiy unsurlari mavjud) – asos metafora.

2. Ifoda vositasi konkret ifodalanmaganligi sababli mazmuniy mutanosiblik ham qisman noaniqlashgan. Biroq uni aniqlashtirish uchun yo’llanma komponent mavjud – yo’llovchi metafora. Bu o’rinda shunga e’tibor qaratish lozimki, yo’llovchi metaforaning murakkab lisoniy tabiati mutlaqo ularning keng tarqalishiga to’siq bo’lmaydi. Yo’llovchi metafora turlari bo’lmish jonlantirish yoki shaxslantirish haqida olib borilgan tadqiqotlar uning eng ko’p tarqalgan metafora turlaridan biri ekanligini ko’rsatadi.

Metaforaning sintagmatik qatordagi munosabat belgisiga ko’ra turlari. Metaforik qo’llangan so’z sintagmatik munosabatga kirishuvchi so’zni shartli ravishda metaforalanayotgan so’z deb ataymiz.

Masalan, ...*Ular mardikorlikka yuborilgan yurt - sovuq do’zax‖ deyishibdi*... (A.Qahhor). Bu yerda metaforik so’z – sovuq do’zax (aniqrog’i, do’zax). Metaforalanayotgan so’z yurt. Metaforalanayotgan va metaforik so’z o’zaro sintagmatik munosabatda turadi. Ammo bu sintagmatik munosabat ikki xil bo’la oladi:

1. Tor – bir jumla doirasida: ...Valixon so’fi muloyim supurgi bo’lib ...(A.Qahhor).

2. Keng matn (kontekst) doirasida yoki sharoit (konsituatsiya) doirasida: Ayamning odam zavodida tuqqani og’izga tushib ketdi. (A.Qahhor). Odam zavodi (aniqrog’i, zavod) metafrik so’z bog’lanadigan so’z ―tug’ruqxona‖ (ancha keng matndan ma’lum bo’ladi). Arslonim uyatga qolmasin deb, ikki savat uzum berib yuboruvdim (―Shu kunlar shiddati, 118-bet). ―Arslonim sintagmatik bog’lanuvchi so’z ―er situativ sintagma (agar shunday ta’bir mumkin bo’lsa, assotsiativ sintagma) da munosabatda turuvchi metaforalarni shu sintagmatik munosabatlarning aniqligi hisobiga ―ochiq‖, keng sintagmatik munosabatda turuvchi metaforalarni esa ―yopiq deb ataymiz.

Metaforaning nomlash jarayoni tabiatiga ko’ra turlari.Metaforani asosan poetik figura deb qarovchi tadqiqotchilar ham unda ekspressivlik belgisining muntazam emasligini tan olib kelganlar. Shunga ko’ra metaforaning ikki turi:

1. Ekspressiya mavjud bo’lmagan (o’lik tilga xos, nopoetik) metafora.

2. Ekspressiya mavjud (tirik, nutqiy, badiiy, poetik) bo’lgan metafora.

Turli olimlarning qarashlari jamlanganda, ularning hammasi ham yuqorida qayd etilgan holatni metaforaning ekspressiv, noekspressiv bo’la olishini nazarda tutganini ko’rsatadi.

Ekspressiv metaforalar keng holda (istiqlol yo’li, Turkiston – umumiy uyimiz), noekspressiv metafora shaxsiy bo’lib qolishi ham mumkin. (Bola choynak jo’mragini ―choynakning burni‖ deb atashi, xatto shu bola uchun ham bir martalik akt bo’lishi mumkin). Bu misollar bir martalik va ko’p martalilik belgisining ham muntazam emasligini ko’rsatadi. Ekspressivlik, metaforaning nome’yoriyligi haqidagi qarashlar esa har qanday metafora asosida lisoniy me’yorlar yotishini nazardan chetda qoldirish natijasidir.

Quyidagi misollarga e’tibor qiling:

Ekspressiv metafora - hammaning nazarida hurriyatning chashmasi. Men qishloqqa ilm-ma’rifat urug’ini sochgani kelganman. (A.Qahhor).

Noekspressiv metafora - ...eshik og’zida qo’l bog’lab turgan ..., ayam o’choq boshida yig’lab o’tiribdi. (A.Qahhor).

Eshik og’zi yoki o’choq boshi noekspressiv metaforalarni hurriyatning chashmasi ilm-ma’rifat urug’i ekspressiv metaforalari bilan qiyoslasak, ular noekspressiv bo’lib qolgan emas, aslida ham hech qachon noekspressiv bo’lmagan.

Zamonaviy mualif ―rux parvozi atamasini o’z nutqiga olib kirar ekan, maqsad ko’tarinki uslubni ta’minlash bo’ladi, diniy qarashlarni isbotlash emas. Noekspressivlikni isbotlash uchun tilga xos bo’lgan asos qidirish lozim. Bizningcha, bu asos juda sodda bo’lib, nomlash jarayonida yotadi. Noekspressiv metafora shunchaki nomlashni, ekspressiv metafora nomlash va baholashni nazarda tutadi. Shuning uchun ham metaforaning ekspressiv va noekspressiv turlarini biz metaforaning nomlash jarayoni tabiatiga ko’ra turlari deb atadik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Арутюнова Н.Д. Языковая метафора (синт. и лексика). // Лингвистика и поэтика. – М., 1979. – С. 170.

2. Тоҳиров З. Метафора лексема-сememасининг прагматик семаси. // Ўзбек тили ва адабиѐти. – 1983. - № 1. – Б. 74-77.

3. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: Ўқитувчи,1995.

4. Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва дабиѐти. – 1964. - № 4. – Б. 34-36.

UO'K - 632
KBK – 44.6
A - 13

INGICHKA TOLALI G'O'ZA NAVLARIDA O'SIMLIKXO'R QANDALALARNING ZARARLILIK DARAJASI

Abduraxmonov Shuxrat Mamatmurotovich
Botirov Sodiq Axmad o'g'li
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti assistentlari
Xo'jaxonov Abror Nurqobil o'g'li
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti magistranti.

ANNOTATSIYA

Maqolada o'simlikxo'r qandalalarning ingichka tolali g'o'zada hosildorlikka yetkazadigan zararini o'rganish bo'yicha maxsus sadoklarda olib borilgan tadqiqotlar natijasi yoritilgan. Bunda beda, dala va g'o'za qandalalarining 100 tup g'o'zaga nisbatan turli nisbatlarda uchraganda yetkazadigan zarari o'rganilgan.

Kalit so'zlar – *Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Lygus pratensis L., Creontiadas pallidus Rambur, hasharot, sadok (qafas).*

АННОТАЦИЯ

В стате отражены результаты исследований проведённых по изучению вредоносности растителноядных клопов на урожайност тонковолокнистого хлопчатника на спесиалных садках. При этом изучен приносимый вред люсерновых, хлопковых и полевых клопов по отношению к 100 штук растений.

Ключевые слова *- Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Lygus pratensis L., Creontiadas pallidus Rambur, nasekomoe, sadok (sadok).*

ABSTRACT

The article reflects the results of studies conducted to study the harmfulness of herbivorous bugs on the yield of fine-staple cotton in special cages. At the same time, the damage caused by alfalfa, cotton and field bugs in relation to 100 pieces of plants was studied.

Keywords *- Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Lygus pratensis L., Creontiadas pallidus Rambur, insect, cage (cage).*

KIRISH

Qishloq ho'jaligida nafaqat g'o'za ekini balki barcha ekinlardan ko'zlangan hosilni olishda butun vegetatsiya davomida agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish muhim hisoblanadi. Yuksak agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli amalga oshirish evaziga yetishtirilgan hosilni zararli organizmlardan himoya qilish ham juda

muhim tadbirlardan hisoblanadi. Xuddi shunday zararkunandalardan biri bu o‘simlikxo‘r qandalalardir. Qandala bilan zararlangan joyda tolalarning sarg‘ayishi, chigitning esa qalinlanishi kuzatiladi. Vaqt o‘tishi bilan, ko‘sak ichidagi o‘simtalar kattalashib, agarda ko‘proq shikastlangan bo‘lsa, ko‘sak yorilib, ichidan quyqa oqib chiqadi. Bular esa o‘z navbatida turli mikroorganizmlar uchun ozuqa muhiti bo‘lib qoladi. Sanchish soniga qarab, ko‘saklarda qora dog‘lar paydo bo‘lishi, ko‘sakni yorilib, 1-2 bo‘lagi boshqalaridan erta ochilishi, ko‘sak ichidagi chigit va tolani qotib qolishi, sifati va miqdori pasayishi kuzatilishi mumkin (Xo‘jaev va b., 2018). Beda qandalasining g‘o‘za hosiliga yetkazadigan zarari, g‘o‘zani undan samarali himoya qilish bo‘yicha olimlar bir qancha tadqiqotlar olib borishgan (Alimuhamedov va b., 1984). Yuqoridagilarni e’tiborga olib o‘simlikxo‘r qandalalarning g‘o‘za hosiliga yetkazadigan zarari bo‘yicha tadqiqotlar olib bordik.

TADQIQOT NATIJALARI

Biz 2022 yil mavsumida Surxondaryo viloyati sharoitida g‘o‘zada tarqalgan har uchala (beda, dala, g‘o‘za) qandala turlarining g‘o‘za hosiliga keltiradigan zararini chuqur o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib bordik.

Surxondaryo viloyati Angor tumanida joylashgan O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutining Surxondaryo filiali tajriba dalasida 0,2 gektar g‘o‘za dalasida olib borildi. Tajribalar 90 sm qator orasida ekilgan g‘o‘zaning ingichka tolali “SP 1607” navlarida o‘tkazildi, Tajribalar o‘tkazish uchun dastlab balandligi va eni 120 smdan bo‘lgan mahsus sadoklar tayyorlab olindi. Sadoklar g‘o‘za dalasiga qandalalarning tashqaridan ko‘chib o‘tish (migratsiya) davridan avval g‘o‘za hosil elementlari shakllanish vaqtida ikki qatorga o‘rnatib chiqildi. Barcha sadoklarning ichida ikki qatorda 5 tadan jami 10 tup g‘o‘za qoldirib, atrofi qandala kira olmaydigan mayda ko‘zli kapron setka bilan o‘rab chiqildi. Sadoklarning bir tarafida qandalalarni maxsus kiritish va g‘o‘za hosilining zararlanish darajalarini kuzatish maqsadida ochib yopiladigan maxsus joy qoldirildi (1-rasm).

1-rasm. Tajriba o‘tkazish uchun g‘o‘za dalasiga o‘rnatilgan qafas (sadok) lar.

So‘nggi yillarda Surxondaryo viloyatida ingichka tolali g‘o‘za maydonlarini kengayib borayotgani uchun g‘o‘za qandalasining bunday nav g‘o‘za hosiliga keltirishi mumkin bo‘lgan zararini ham o‘rgandik.

G‘o‘za qandalasining ingichka tolali g‘o‘za hosiliga zararini o‘rganish ikki 1:1 (10 ta o‘simlikda 10 ta qandala) va 1:1,5 (10 ta o‘simlikda 15 ta qandala) nisbatlarda olib borildi.

Tajriba uchun olingan maydonda (sadoklar ichida) g‘o‘za ko‘chat qalinligi, har gektar hisobidan, 55 000 tupni tashkil qildi. Sadoklarga qandala turlarini (g‘o‘za, beda va dala qandalalari) g‘o‘zaning har tupiga 1,0-1,5 dona nisbatda (10 tup g‘o‘zaga mos sonda qandala) janubiy va shimoliy tumanlarda g‘o‘zada qandalalar turli vaqtlarda tarqalishini inobatga olib tajribalarimizni erta va kechroq davrlarda olib bordik. Tajribada har bir sadok alohida ahamiyatga ega bo‘lib, shuning uchun har bir sadok raqamlanib, ichiga qo‘yilgan tajriba tasnifi yozib qo‘yildi. Tajribalarda har bir variant 3 qaytariqda amalga oshirilib, nazorat variantidagi o‘simliklar toza (zararkunandasiz) qoldirildi. Mavsum mobaynida har o‘n kunlikda o‘simlikda hosillarning paydo bo‘lishi, zararlanishi, to‘kilishi hamda ko‘sak paydo bo‘lib ochilishi hisob-kitob qilinib, biologik hosildorlik bilan yakun yasaldi.

Qandalalarining g‘o‘za hosiliga keltiradigan zararini o‘rganish ustida olib borilgan tadqiqot natijalarini jadvalda keltirdi.

Ingichka tolali g‘o‘zaning **beda qandalasi, dala qandalasi va g‘o‘za qandalasi** bilan zararlanganida olingan biologik hosildorlik.

Sadoklarda bajarilgan tajriba, Surxondaryo vil,, Angor tumani, O‘KHITI tajriba dalasi, g‘o‘za navi-“SP 1607”, *2022 yil.*

Blok	O‘Qning qafasdagi o‘simliklar soniga nisbati	**Beda qandalasi**			**Dala qandalasi**			**G‘o‘za qandalasi**		
		Jami hosil-dorlik, s/*ga*	Nazoratdan farqi		Jami hosil-dorlik, s/*ga*	Nazoratdan farqi		Jami hosil-dorlik, s/*ga*	Nazoratdan farqi	
			s/ga (+ ko‘p - kam)	*%* (+ ko‘p - kam)		*s/ga* (+ ko‘p - kam)	*s/ga* (+ ko‘p - kam)		*s/ga* (+ ko‘p - kam)	*%* (+ ko‘p - kam)
23.06.22 da zararlantirilgan	1:1	**25,4**	**-4,1**	**-13,9**	**26,2**	**-2,7**	**-9,3**	**12,0**	**-15,0**	**-55,5**
	1:1,5	**21,6**	**-7,9**	**-26,7**	**24,4**	**-4,5**	**-15,6**	**9,0**	**-18,0**	**-66,6**

Nazorat(qandalasiz)	0	**29,5**	-	-	**28,9**	-	-	**27,0**	-	-

Tajriba maydonida ko‘chat qalinligi - 55 000 ko‘chat/ga bo‘lgan,

Jadvaldan ko‘rinib turganidek yakunda birinchi va ikkinchi terimdan olingan biologik hosildorlik 1/ga sentnerda nazoratga nisbatan hisob qilinganda 1:1 nisbatdagi tajribada - 4,1 s/ga (-13,9 % ga), 1:1,5 nisbatda qo‘yilgan tajribadan olingan hosil esa nazoratga variantlardan olingan hosilga nisbatan -7,9 s/ga yoki -26,7 % ga kam bo‘ldi.

Xuddi shu tajriba bir vaqtning o‘zida dala qandalasida ham amalga oshirildi. Yakunda birinchi va ikkinchi terimdan olingan biologik hosildorlik 1/ga sentnerda nazoratga nisbatan hisob qilinganda 1:1 nisbatdagi tajribada -2,7 s/ga (-9,3 % ga), 1:1,5 nisbatda qo‘yilgan tajribadan olingan hosil esa nazoratga variantlardan olingan hosilga nisbatan - 4,5 s/ga yoki -15,6 % ga kam bo‘ldi.

Xuddi shunday tajriba bir vaqtning o‘zida g‘o‘za qandalasida ham amalga oshirildi. Yakunda birinchi va ikkinchi terimdan olingan biologik hosildorlik 1/ga sentnerda nazoratga nisbatan hisob qilinganda 1:1 nisbatdagi tajribada -15,0 s/ga (-55,5 % ga), 1:1,5 nisbatda qo‘yilgan tajribadan olingan hosil esa nazoratga variantlardan olingan hosilga nisbatan -18,0 s/ga yoki - 66,6 % ga kam bo‘ldi.

XULOSA

Ushbu yuqoridagi ma’lumotlar asosida xulosa qilinganda eng kam zarar 1:1,5 nisbatda -15,6% xisobida dala qandalasida kuzatilgan bo‘lsa, eng yuqori zarar 1:1,5 nisbatda -66,6% xisobida g‘o‘za qandalasida kuzatildi. Demak g‘o‘za qandalasi ingichka tolali g‘o‘zada ham o‘simlikxo‘r qandalalar ichida eng xavfli zararkunanda ekanligini ko‘rsatdi. Shunisi ahamiyatliki g‘o‘za , dala va beda qandalalari o‘rta tolali g‘o‘zaga nisbatan ingichka tolali g‘o‘zani 10-20% gacha kamroq zararlashi kuzatildi.

REFERENCES

1. Alimuxamedov S.N., Xodjaev Sh.T., Eshmatov O.T. Rekomendatsii po borbe s vrednыmi klopami, zaselyayuщimi xlopchatnik. – Tashkent, 1984. – 14 s.
2. Xo‘jaev Sh.T., Sattarov N.R., Musaev D.M. Zararli qandala hasharotlar haqida nimalarni bilmoq kerak. Ilmiy-ommabop ocherk. –Toshkent, 2018. –B.64.
3. Sharofovich, B. O. (2022). WATER-FERTILIZER (NPK) STANDARD IRRIGATION REGIMES OF “BUKHARA-102” AND “PORLOQ-1” COTTON VARIETIES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *10*(12), 816-818.

UDK:619:636.2:616.9:615.371:616.085.37

BUZOQLARDA TRIXOFITIYA KASALLIGINI DAVOLASHDA LTF-130 VAKSINANI DOZALARDA QO'LLASH

Magistrant Ibodullayev Hamza Ziyodullo o'g'li,
Ilmiy rahbar v.f.n., Saruxanyan Garik Daniyelovich
Epizootologiya va infeksion kasalliklar kafedrasi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada trixofitiya bilan kasallangan buzoqlarni davolashda, LTF-130 vaksinasini aniq dozada eritish va buzoqlarning yoshiga qarab dozalarni qo'llash maqsad qilingan.

Kalit so'zlar. *Vaksina, zamburug', yirik shoxli hayvon, chorva, dezinseksiya, ozuqa.*

ANNOTATION

The article aims to dissolve the LTF-130 vaccine in a certain dose and use doses depending on the age of the calves in the treatment of calves infected with trichophytosis.

Key words: *vaccine, fungus, cattle, livestock, pest control, feed.*

KIRISH

Hozirgi kunga kelib Respublikamizda naslli qoramolchilikni rivojlantirishga talab kuchaymoqda. Bunga asosiy sabab, chet mamlakatlaridan keltirilayotgan qoramollarning nasldorligi hamda go'sht va sut mahsulotini yuqori ekanligidandir.

Ushbu mahsuldorlikni saqlab qolish ularni naslini ko'paytirish hamda mamlakatimizning turli viloyat va tumanlaridagi fermer xo'jalik hamda aholiga sifatli chorva mollar bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Shu sabab chet mamlakatlardan keltirilayotgan naslli qoramollar 40 kun karantinda saqlanadi. Maqsad turli yuqumli kasalliklarni oldini olish uni boshqa viloyatlarga tarqalmaslikni oldi olinadi, shu bois zamburug' qo'zg'atuvchisi ham. Afsuski, ba'zi nasli xo'jaliklarda karantin qoidalariga rioya qilmasliklari sabab, turli yuqumli va trixofitiya kasalliklar ham avjiga chiqyapti. O'zbekiston sharoitidagi naslli qoramollarda trixofitiya (temiratki) kasalliklari bilan kasallanish holatlari o'tgan yillarga qaraganda kamaymoqda. Veterinariya amaliyotida shu paytgacha qoramollarda trixofitiya kasalligi bo'yicha viloyatlararo ilmiy xulosaga kelinmaganligini e'tiborga olgan holda tadqiqotlarimning asosiy maqsadi

O‘zbekiston sharoitida naslli xo‘jaligi qoramollarda uchraydigan trixofitiya kasalligini epizootologiyasini o‘rganishdan iborat bo‘ldi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Chorvachilikni hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada yaxshiroq qondirish, go‘sht, sut kabi chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish ko‘p jihatdan hayvonlarda uchraydigan Trichopheton verrcosum zamburug‘ kasalliklarini oldini olishga bog‘liq. Keyingi vaqtlarda dermatofitoz zamburug‘lari orqali kelib chiqishi, turli fermer xo‘jaliklari va aholi chorva xo‘jaliklarida trixofitiya kasalligining kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamburug‘ kasalliklar bo‘yicha, veterinariya jihatidan sog‘lomligini ta’minlash yirik shoxli hayvonlarda Trichophyton verrcosum zamburug‘ bilan zararlanishini oldini olish maqsadida LTF-130 LVGNKI vaksinasini qo‘llash asosiy tadbirlaridan biri hisoblanadi.

Qish mavsumida ko‘p uchrashining sababi, yetarli miqdorda ko‘k massali va berilayotgan oziqa ratsionida A, D_3, E, vitaminlar yetarli bo‘lmaganligi, hayvonlarning qish mavsumida tig‘iz joylashuvi, bundan tashqari dezinfeksiya va dezinseksiya tadbirlari vaqtida o‘tkazilmasligi, bu esa molxonalarning qo‘zg‘atuvchi sporasi bilan zararlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, keyingi vaqtlarda Respublikamiz qoramolchilik xo‘jaliklari sharoitida buzoqlarning zamburug‘ kasalliklarining turlari, sabablari, oldini olish usullari, yetarlicha o‘rganilmagan.

Trixofitiya bilan zararlangan buzoqlar





TADQIQOTLAR OBYEKTI VA USLUBLARI

Ilmiy tadqiqot ishlari Surxondaryo viloyati Uzun tumani O‘lanqul qishlog’i, Samarqand viloyati Past-darg‘om tumani aholi chorva xo‘jaliklari, Samarqand viloyat Samarqand tuman Yuqori Qaynama qishlog‘i, Dilshod Rustam dalasi fermer

xo‘jaliklari sharoitida va Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti mikrobiologiya va virusologiya laboratoriyasida o‘tkazildi.

Yuqumli trixofitiya bilan zararlangan buzoqlarda LTF-130 LVGNKI vaksinani dozada o‘rganish maqsadida 12-oylikgacha bo‘lgan buzoqlar tajriba uchun ajratib olindi. Buzoqlarning saqlash va oziqlantirish sharoitlari tahlil qilinib, ularning ratsioni tarkibi va to‘yimliyligi bir xil tashkil qilindi. Buzoqlarda trixofitiya kasalliklarining uchrash darajasi o‘rganildi.

OLINGAN NATIJALAR TAHLILI

tajriba uchun har birida 3 boshdan bir yoshgacha bo‘lgan trixofitiya bilan zararlangan uchta guruh buzoqlar tanlab olindi. Tajriba uchun buzoqlarning yashash joylari va oziqa tarkibi bir xil tashkil etildi. LTF-130 LVGNKI 10 doza 10 gr fiziologik eritma NaCl-09 foizli eritmasiga eritiladi va zararlangan chorva mollariga ikki marta 14-kun oralig’ida oyiga taqsimlab 1-4 gr muskul orasiga ineksiya qilinadi.

Buzoqlarda trixofitiya kasalligini davolashda
LTF-130 LVGNKI vaksina doza qo’llash.
1-tajriba

Guruh	Hayvon turi	Soni	Hayvon yoshi	Doza ml	TF-130 LVGNKI	Natija
1	Buzoq	3	1-4 oy	2 ml	LTF-130 VGNKI	100%
2	Buzoq	3	4-8 oy	3ml	LTF-130 VGNKI	100%
3	Buzoq	3	8-12oy	4 ml	LTF-130 VGNKI	100%

XULOSA

Xulosa qilib, uhbu tajribada yosh buzoqni trixofitiya kasalligini davolash uchun LTF-130 vaksina 10 doz 10 gr fiziologik eritma NaCl-09 foiz eritmasiga eritiladi 14 kunda 2 marta buzoq yoshiga qarab muskuliga ineksiya qilish kasallikni davolashga muddatini qisqarishiga olib keladi, hamda buzoqlarning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

REFERENCES

1. S.B.Petrovich. Mikozyjivotnix M. Rosagropromizdat, 1989

2. Parmonov M.P, Saydaliev D.I. Qo'ylar temiratki kasalligining qo'zg'atuvchisini va kultural xususiyatlarini aniqlash // Professor-o'qituvchilar va aspirantlarning 51-ilmiy hisobot konferentsiyasi ma'ruzalar mazmuni. –Samarqand, 1993
3. Qishloq xo'jalik hayvonlari temiratki(trixofitiya) kasalligining oldini olish va unga qarshi kurash tadbirlari to'g'risida yo'riqnoma-instruksiya Toshkent. 1996
4. Parmonov M.P. va boshqalar Epizootologiya fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari.Sam.2007 y.
5. Parmonov M.P va boshqalar. " Epizootologiya". O'quv qo'llanma T.2007y
6. X.S.Salimov va boshqalar. "Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasiga oid izohli lug'at va ma'lumotnoma" Toshkent 2013y.

KICHIK HAJMDAGI SUYUQLIKNING TARKIBIY MIQDORI O'ZGARISHI NATIJASIDA BUG'LANISH JARAYONI

Qoraboyev Muhammadjon Qoraboyevich
Fizika-matematika fanlari doktori, Professor,
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston.
Ergashev Erkinjon Abdusattor o'g'li
Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston.
Qamchiyeva Zilolaxon Dilmurodjon qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Biologik suyuqlikning kristallanishi bo'yicha tadqiqotning asosiy yo'nalishlari kristallanishning suyuqlik tarkibida mavjud bo'lgan moddalar va ularning miqdorlariga bog'liq holda o'zgarishini aniqlashdan va biologik suyuqliklarning suvsizlanish jarayonida sodir bo'ladigan, molekulalararo tarkiblanish jarayonini axborot berish imkonini o'rganishdan iborat. Ilm-fan sohasida erishilgan ko'plab ma'lumotlar, insondagi biologik suyuqlik (so'lak) asosiy tadqiqotlarda va tibbiy tashxislarda foydalanish uchun katta salohiyatga ega bo'lgan noyob moddadir degan xulosaga kelishimizga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *biosuyuqlik, suvsizlanish, bug'lanish.*

ABSTRACT

The main directions of research on the crystallization of biological fluids include the determination of changes in crystallization depending on the substances contained in the fluid and their amounts, and the information on the process of intermolecular composition that occurs during the dehydration of biological fluids. consists of learning. A lot of scientific information helps us to conclude that human biological fluid (saliva) is a unique substance with great potential for use in basic research and medical diagnosis.

Key words: *biofluid, dehydration, evaporation.*

KIRISH

Hozirgi kunda diagnostik maqsadlar uchun biologik suyuqlik (so'lak)ni tahlil qilish istiqbollarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biologik suyuqliklarning bug'lanish jarayonida bo'ladigan fizikaviy o'zgarishlar va qattiq fazasini baholash usullari laboratoriya diagnostikasida juda keng qo'llanilishi, tananing funktsional holatini tashxislashda biologik suyuqlikni olish jarayonining soddaligi, shuningdek, yuqori sezuvchanlik va axborot olish imkoniyatining mavjudligi o'rganila boshlangan dolzarb muammolardan biridir.

TADQIQOT MAQSADI.

Biologik suyuqlik (so’lak)ning kristallanish usuli (Qattiq fazaga o'tish jarayonida suyuqlik tizimining yo'q bo'lib ketishi) oxirgi paytlarda keng qo'llanila boshlangan usul hisoblanadi. Biologik suyuqlikning kristallanishi bo'yicha tadqiqotning asosiy yo'nalishlari kristallanishning suyuqlik tarkibida mavjud bo’lgan moddalar va ularning miqdorlariga bog’liq holda o’zgarishini aniqlashdan va biologik suyuqliklarning suvsizlanish jarayonida sodir bo’ladigan, molekulalararo tarkiblanish jarayonini axborot berish imkonini o’rganishdan iborat.

Ilm-fan sohasida erishilgan ko'plab ma'lumotlar, insondagi biologik suyuqlik (so’lak) asosiy tadqiqotlarda va tibbiy tashxislarda foydalanish uchun katta salohiyatga ega bo'lgan noyob moddadir degan xulosaga kelishimizga yordam beradi. Hozirgi vaqtda diagnostik maqsadlar uchun biologik suyuqlik (so’lak)ni tahlil qilish istiqbollarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Klinik tahlilda biologik suyuqlik (so’lak)dan foydalanishni kengaytirish, kasallikni tashxislashni tezlashishiga yordam beradi.

Odatda ushbu usuldan foydalanishda tekshirilayotgan biologik suyuqlik (so’lak)ning tomchi ko’rinishini oluvchi ma’lum miqdorini bug’lanishi jarayonida bo’ladigan fizik jarayonlar va bug’langanidan so’ng hosil bo’ladigan qattiq ko’rinishdagi cho’kma (fatsiya)ni morfologiyasi o’rganiladi.

Biologik biologik suyuqlik organizmdagi inson DNKlari va klinik tahlillarini o'rganish uchun manba bo'lishi mumkin chunki so’lakdagi muayyan molekulalarning tarkibi ularning qondagi konsentratsiyasini aks ettiradi. Turli laboratoriya testlari uchun so’lakni qo'llash, ayniqsa, bolalar va qariyalarda sinab ko'rishda qonni ishlatishdan ancha soddaroq, xavfsizroq va arzonroq.

TADQIQOT USULI

Biologik suyuqlikning shisha oynaga tomchi ko’rinishida joylashtirib dastlabki ko’rinishdan boshlab qattiq faza holatiga kelgunigachor bo’lgan oraliqdagi jarayon birinchi marta o’rganildi.

Suyuqlikning bir tomchisi toza shisha oyna sirtiga joylashtirilsa, bug'lanish jarayonida uning balandligi pasayib boradi, asosining diametri quritish paytida o'zgarmaydi

Bu jarayonni o’rganish uchun biz hozirgi kunda davr talabiga javob bera oladigan zamonaviy biologik mikroskopdan foydalandik, mikroskopning asosiy vazifasi faqatgina ob'ektni kengaytirilgan ko'rinishda ko'rsatish emas balki, rasm olish, rasmga olingan ob’ektni ekranga uzatish, ularni ko’rsatkichlarini aniqlash, video tasvir hosil qilishdan iborat.

Kamalak shakli ko'rinishini olgan biologik suyuqlik (so'lak)ning vaqt birligi ichida sirt yuzidan bug'lanishi natijasida havoga ko'tarilib ketayotgan hajmining miqdorini hisoblash uchun quyidagi formulani kiritishimiz mumkin

$$\upsilon = \Delta V/\Delta t$$

υ –biologik suyuqlik (so'lak)ning bug'lanishi natijasida hosil bo'lgan hajmiy tezligi, ΔV –Kamalak shakli ko'rinishini olgan namunaning bug'lanishi natijasida chiqib ketayotgan hajmi, Δt –biologik suyuqlikning ma'lum bir hajmi bug'lanishi uchun zarur bo'lgan vaqt.

$\Delta V = V_0 - V$

V_0 – biologik suyuqlikning dastlabki hajmi, V – biologik suyuqlikning bug'lanish jarayonida shisha oynada qolgan suyuqlik hajmi.($V_0 > V$)

t/r	Tomchining balandligi (mm)	Tomchi hajmi (mm^3)	Asosining diametr (mm)	biologik suyuqlikning ma'lum bir hajmi bug'lanishi uchun zarur bo'lgan vaqt (minut)
Oqsil 100%				
1	0.825	3.476094	3.134	0
2	0.474	1.719866	2.99	10
3	0.124	0.350743	2.68	10
Oqsil 75 %, NaCl 25 %.				
1	0.825	3.476064	3.134	0
2	0.526	2.038254	3.082	10
3	0.258	0.829049	2.845	10
Oqsil 50 %, NaCl 50 %.				
1	0.825	3.476094	3.134	0
2	0.505	2.015255	3.134	10
3	0.216	0.702009	2.866	10
Oqsil 25 %, NaCl 75 %.				
1	0.825	3.476094	3.134	0
2	0.557	2.15471	3.072	10
3	0.196	0.569628	2.711	10
NaCl 100 %.				
1	0.825	3.476094	3.134	0
2	0.608	2.222351	2.969	10
3	0.381	1.095573	2.67	10

TEKSHIRUV OBYEKTI

Tekshiruvlarimiz obyekti bo'lgan inson organizmdagi biologik Suyuqlik tarkibida mavjud bo'lgan oqsil hamda 25%, 50%, 75% miqdorda 0,9%

konsentratsiyali NaCl aralashmasi namunalari, va sof 0,9% konsentatsiyadagi NaCl namunasini olib uning bir tomchisi shisha oynaga tomizg'ich (pipidka) yordamida tomizildi va undagi bo'ladigan jarayonlar ya'ni vaqt o'tishi bilan uning sirtidan bug'lanib chiqib ketayotgan suyuqlik hajmi va shakliy elementlar hosil bo'lish jarayoni kompyuterga ulangan usb mikroskop (gorizontal va vertikal holatda) orqali kuzatilib borildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tekshiruv obyekti bo'lgan biologik suyuq(so'lak)liklarning parametrlari jadvalda berilgan. Jadvalda namunaning turli holatdagi ko'rinishlari yani ularning vaqt oraliq (biologik suyuqlikning ma'lum bir hajmi bug'lanishi uchun zarur bo'lgan vaqt)dagi parametrlari ko'rsatilgan. Shu parametrlardan foydalanib biologik suyuqlikning umumiy hajmi V_{um}, va har bir vaqt oralig'i (10 minut) da bug'lanib chiqib ketgan tomchining hajmi ΔV ni topib, uning biologik suyuqlik (so'lak)ning bug'lanishi natijasida hosil bo'lgan hajmiy tezligi $\upsilon = \Delta V/\Delta t$ formula orqali topiladi.

XULOSA

Biologik suyuqlik tomchisini suvsizlantirish jarayonini o'rganishda uning hajmi va sirti o'zgarishini o'rganish ilk bor tajribada amalga oshirildi va buning natijasida biologik suyuqlik tarkibida mavjud bo'lgan modda (0,9% konsentratsiyali NaCl eritmasi) ning miqdori o'zgarishi natijasida uning suvsizlanish jarayonida chiqib ketayotgan suyuqlik hajmi kamayishi, suvsizlanish jarayonining vaqti esa ortishi kuzatildi shu bilan birga hajmiy tezligi ham kamayishi aniqlandi.

REFERENCES

1. Karabayevich, K. M., Abdusattor-ugli, E. E., & Muxtorovna, G. N. (2021). Evaluation of the degree of crystallization of biological fluid (Saliva). *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, *11*(1), 1032-1036.
2. Бельская, Л. В., Голованова, О. А., & Шукайло, Е. С. (2010). Кристаллизация биологических жидкостей-перспективы использования при диагностике. *Бутлеровские сообщения*, *23*(15), 52-60.
3. Egamberdiyevich, O. K., Malikovna, Z. S., Ugli, X. M. B., & Abdusattor-Ugli, E. E. (2021). Used for effect interpretation abnormal photo voltage. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, *11*(2), 783-786.

4. Кидалов, В. Н., & Хадарцев, А. А. (2009). Тезиография крови и биологических жидкостей. *Под ред. АА Хадарцева.-Тула: Тульский полиграфист*.
5. Мартусевич, А. К., & Камакин, Н. Ф. (2007). Кристаллография биологической жидкости как метод оценки ее физико-химических свойств. *Бюллетень экспериментальной биологии и медицины*, *143*(3), 358-360.
6. Ugli, O. B. U., Ugli, E. E. A., & Ugli, H. H. A. (2022). Possible for alloying taking and inspection of thermoelectric materials in Quartz cracks.
7. Karabaev, M. K., & Ergashev, E. A. (2019). Effect of Sodium Chloride on Morphology Self-Organization of Saliva During Their Dehydratation.
8. Бельская, Л. В., Голованова, О. А., Шукайло, Е. С., & Турманидзе, В. Г. (2011). Экспериментальное исследование кристаллизации биологических жидкостей. *Вестник ОНЗ РАН*, *3*(6012).

ЭЛЕКТРОННЫЕ СОСТОЯНИЯ В МНОГОСЛОЙНОЙ ПОЛУПРОВОДНИКОВОЙ СТРУКТУРЕ В ПРИБЛИЖЕНИИ ВЕНТЦЕЛЯ-КРАМЕРСА-БРИЛЛЮЭНА.

Р.Расулов,
М.Маматова

АННОТАЦИЯ

Прогресс современной микроэлектроники в значительной степени определяется изучением свойств систем с неоднородно распределёнными параметрами, развитием методов эффективного теоретического анализа таких систем, разработкой и обеспечением объективными методами контроля технологических процессов, позволяющих создавать полупроводниковые слои с заданными свойствами. В связи с этим ниже рассмотрим общие вопросы распространения электронных волн в среде, свойства которой меняются только вдоль определенного направления. Подход основан на использовании одноэлектронного стационарного уравнения Шредингера для описания процессов упругого рассеяния и туннелирования невзаимодействующих бесспиновых частиц при условии сохранения их полной энергии.

Ключевые слова: *уравнения Шредингера, потенциал, кубическое и биквадратичное приближение, коэффициенты разложения, гармонического осциллятор, эффективная масса электронов, функции Эйри, приближении ВКБ, энергетический спектр.*

ELECTRONIC STATES IN A MULTILAYER SEMICONDUCTOR STRUCTURE IN THE APPROXIMATION WENTZEL-KRAMERS-BRILLOUIN.

ABSTRACT

The progress of modern microelectronics is largely determined by the study of the properties of systems with nonuniformly distributed parameters, the development of methods for the effective theoretical analysis of such systems, the development and provision of objective methods for controlling technological processes that make it possible to create semiconductor layers with desired properties. In this regard, below we consider the general issues of the propagation of electron waves in a medium whose properties change only along a certain direction. The approach is based on the use of the one-electron stationary Schrödinger equation to describe the processes

of elastic scattering and tunneling of non-interacting spinless particles under the condition that their field is conserved noah energy.

Keywords: *Schredinger equations, potential, cubic and biquadratic approximations, expansion coefficients, harmonic oscillator, electron effective mass, Airy functions, WKB approximations, energy spectrum.*

ВВЕДЕНИЕ

Исследование электронных состояний в вышеупомянутых структурах приводит к расчету одноэлектронных волновых функций стационарного уравнения Шредингера в квазиклассическом приближении при наличии потенциала $U(x)$, который будем считать медленно меняющейся функцией координаты x.

Тогда одномерное уравнение Шредингера запишется как

$$-\frac{\hbar^2}{2m}\frac{d^2\psi}{dx^2}+U(x)\psi=E\psi, \qquad (1)$$

где, проводя замену $\psi(x)=\exp(iS(x)/h)$ и получим уравнение для функции $S(x)$[10]

$$\frac{1}{2m}\left(\frac{dS(x)}{dx}\right)^2-\frac{i\hbar}{2m}\left(\frac{d^2S(x)}{dx^2}\right)=E-U(x)\,. \quad (2)$$

Считая, что рассматриваемая система по своим свойствам близка к классической, будем искать решение в виде ряда по степеням постоянной Планка, т.е.

$$S(x)=S_0(x)+\frac{\hbar}{i}S_1(x)+\left(\frac{h}{i}\right)^2S_2(x)+\cdots \quad (3)$$

Тогда общее решение уравнения (1) имеет вид

$$\psi(x)=\frac{c_1}{\sqrt{p(x)}}\exp\left(\frac{i}{h}\int|p(x)|dx\right)+\frac{c_2}{\sqrt{p(x)}}\exp\left(-\frac{i}{h}\int|p(x)|dx\right), \quad (4)$$

где $p(x)=[2m(E-U(x))]^{1/2}$, m носителей тока. и E -эффективная масса и энергия.

В классически недоступних областях энергии, т.е. при $E<U(x)$, импульс носителей тока становится минимым. Тогда в этих областях (4) принимает вид

$$\psi(x)=\frac{c_1}{\sqrt{|p(x)|}}\exp\left(\frac{1}{h}\int|p(x)|dx\right)+\frac{c_2}{\sqrt{|p(x)|}}\exp\left(-\frac{1}{h}\int|p(x)|dx\right) \quad (5)$$

Отметим, что точность квазиклассического приближения не позволяет учитывать оба слагаемых одновременно, и поетому в некоторых случаях не учтем экспоненциально малого слагаемого в (4) и (5).

Рассмотрим изолированную классическую точку поворота при $x = a$, вдали от которой квазиклассическое приближение применимо для расчета коэффициента прозрачности потенциального барьера [11]. Поэтому решения уравнения Шредингера в разрешенных и запрещенных областях могут быть найдены по формулам (4) $-(5)$.

Волновая функция вблизи точки поворота может бить найдена в результате решения уравнения Шредингера, где вблизи точки поворота $(x = a)$ потенциальную энергию $U(x)$ представим в виде

$$U(x)\square U(x=a)+\frac{dU}{dx}|_{x=a}(x-a)+\frac{1}{2}\frac{\partial^2 U}{\partial x^2}|_{x=a}(x-a)^2 \ (6a)$$

или

$$u(x)\square U(\sigma=0)+u^{r}_{\sigma=0}+U''_{\sigma=0}.(6b)$$

Тогда уравнение Шредингера запишется как

$$\frac{d^2\psi}{d\sigma^2}+\frac{1}{E_0}(\sigma\sigma^2)\psi=0,$$

или

$$\frac{d^2\psi}{d\sigma^2}+(\sigma\sigma^2)\psi=0, (7)$$

общее решение которого является произвольная линейная комбинация гипергеометрических функций, т.е.

$$\psi(\sigma)=C_{11}F_1[(\frac{1}{4}-\frac{k_1^2}{16k_2^{3/2}}-\frac{k_0}{4k_2^{1/2}}),\frac{1}{2},\frac{(2k_2\sigma+k_1)^2}{4k_2^{3/2}}]\exp[-\frac{\sigma(2k_2\sigma+k_1)}{2\sqrt{k_2}}]+$$

$$+C_{21}F_1[(\frac{3}{4}-\frac{k_1^2}{16k_2^{3/2}}-\frac{k_0}{4k_2^{1/2}}),\frac{3}{2},\frac{(2k_2\sigma+k_1)^2}{4k_2^{3/2}}](2k_2\sigma+k_1)\exp[-\frac{\sigma(2k_2\sigma+k_1)}{2\sqrt{k_2}}], (8)$$

где $\sigma=\frac{x-a}{a}$ $E_a=\frac{\hbar^2}{2ma^2}$, $k_1=\frac{1}{E_a}U'_{\sigma=0}=\frac{1}{E_a}\frac{\partial U(\sigma)}{\partial\sigma}|_{\sigma=0}$, $k_2=\frac{1}{E_a}U''_{x=a}=\frac{1}{E_a}\frac{\partial^2 U(\sigma)}{\partial\sigma^2}|_{\sigma=0}$,

$$k_0^2=\frac{2m}{\hbar^2a^2}(E-U(x=0)).$$

В общем случае $F_1\ [(\frac{1}{4}-\frac{k_1^2}{16k_2^{3/2}}-\frac{k_0}{4k_2^{1/2}}),\frac{1}{2},\frac{(2k_2\sigma+k_1)^2}{4k_2^{3/2}}]\propto\exp[\frac{(2k_2\sigma+k_1)^2}{4k_2^{3/2}}]$, что соответствует экспоненциально растущей волновой функции. Поэтому для выбора волновой функции, удовлетворяющей условия конечности волновых функций в бесконечности, т.е. удовлетворяющие данного квантово-механического подхода, имеются две альтернативные случаи:

1. $C_1 \neq 0,\ C_2 = 0$ i $\frac{1}{4} - \frac{k_1^2}{16k_2^{3/2}} - \frac{k_0}{4k_2^{1/2}} = -4n$. В этом случае волновая функция принимает вид

$$\psi_{2n}(\sigma) = 11F[-n, \frac{1}{2}, \frac{(2k_2\sigma+k_1)^2}{4k_2^{3/2}}] \exp[-\frac{\sigma(2k_2\sigma+k_1)}{2\sqrt{k_2}}], \quad (9)$$

а энергетический спектр носителей тока квантован и определяется как

$$k_0 = (1+16n)k_2^{1/2} - \underline{k_1^2} \quad (10)$$

Из (10) получим выражение для размерно-квантованного энергетического спектра в виде

$$E = U(x=0) + \frac{h^2}{2m}k_2[(1+16n) - \frac{k_1^2}{4k_2}]^2$$

или

$$E_1 - U(x=0) = U''_{\sigma=0}[(1+16n) - \frac{1}{4E_a}\frac{(U'_{\sigma=0})^2}{U_{\sigma=0}}]^2 \quad (11)$$

2. $C_2 \neq 0,\ C_1 = 0$ i $\frac{3}{4} - \frac{k_1^2}{16k_2^{3/2}} - \frac{k_0}{4k_2^{1/2}} = -2(2n+1)$. В этом случае волновая функция принимает вид

$$\psi_{2n+1}(\sigma) =_1 F_1[-n, \frac{3}{2}, \frac{(2k_2\sigma+k_1)^2}{4k_2^{3/2}}](2k_2\sigma+k_1) \exp[-\frac{\sigma(2k_2\sigma+k_1)}{2\sqrt{k_2}}], \quad (12)$$

Далее рассмотрим кубическое и биквадратичное приближение. Тогда кубический и биквадратичный члены в потенциала имеет вид

$$U(x) = \frac{1}{2}ma)^2x^2 + \varepsilon_3(\frac{x}{l})^3 + \varepsilon_4(\frac{x}{l})^4, \quad (13)$$

где $l = \sqrt{\frac{\hbar}{m\omega}}$. ε_3 и ε_4 -коэффициенты разложения $U(x)$ в ряд по x/l.

Решение уравнения Шредингера можно произвести аналогичным образом. При этом оно переходит в уравнение Шредингера для гармонического осциллятора при $\varepsilon_3 = 0$ и $\varepsilon_4 = 0$. Тогда его можно решить с помощью теории возмущения [10]. При этом энергия частиц в потенциале (1) в нулевом приближении равняется энергию гармонического осциллятора:

$$E_n^0 = \hbar\omega(n+\frac{1}{2}) \quad (14)$$

а волновая функция в нулевим приближении имеет вид [10]

$$u_n^0(x) = (2^n n!\, l\sqrt{\pi})^1 -/_2 12e^{-/\xi^2} H_n(\xi), \xi = \frac{x}{l}. \quad (15)$$

Тогда расчет энергетического спектра электронов по теории возмущения дает следующий результат

$$E(k_a,n) = E(k_a) + \frac{1}{8}\hbar\omega\{(n+\frac{1}{2}) - 30(\frac{\mathcal{E}_1}{\hbar\omega})^2(n^2+n+\frac{11}{30}) + 6g\frac{\mathcal{E}_1}{\hbar\omega)}(2n^2 + 2n + 1) -$$

$$-g^2(\frac{\mathcal{E}_1}{\hbar\omega)})^2(34n^3+51n^2+59n+21)\}, \quad (16)$$

где m-эффективная масса электронов, ось Ox выбрана в качестве оси размерного квантования, $g = \frac{\mathcal{E}_2}{\mathcal{E}_1}$, в сферическом приближении в энергетическом спектре $E(k_a) = \frac{\hbar^2}{2\cdot m}(k_y^2 + k_z^2)$. $k_\infty = 0(y,z)$. Расчеты показывают, что энергетический спектр электронов в потенциале (1) принимает дискретные значения и крутизна энергетического спектра тем заметна, чем больше $g = \frac{\mathcal{E}_2}{\mathcal{E}_1}$, а также она уменьшается с ростом $\mathcal{E}_1/\hbar\omega)$ для произвольных значеный n . Если считаем, что $U''_{x=a} = 0$ тогда уравнение Шредингера принимает вид

$$\frac{d^2\psi}{d\xi^2} - \xi\psi = 0, \qquad (17)$$

решение которого можно представить в виде линейной комбинации функций Эйри первого и второго рода

$\psi(\xi) = A_1 Ai(\xi) + B_1 Bi(\xi)$, (18)

где $\xi = (x-a)[2m(dU/dx)_a/\hbar)^2]^{1/3}$. Неизвестные величины A_1 и B_1, определяемые из граничных условий рассматриваемой задачи, $Ai(\xi)$, $Bi(\xi)$ – функции Эйри, которые при отрицательных значениях ξ как $Ai(\xi)$, так и $Bi(\xi)$

осциллируются, а при положительных значениях ξ функция $Ai(\xi)$ экспоненциально затухает, а $Bi(\xi)$ экспоненциально растет. Поэтому B дальнейшем, например, для расчета связанных состояний электронов, считаем, что коэффициент $в_1 = 0$, поскольку волновая функция должна затухать на бесконечности. Для определенности рассмотрим случай, когда разрешенная область находится слева от точки поворота $(\xi = 0)$, а запрещенная область - справа. Тогда нас будет интересовать решение, которое экспоненциально затухает при $\xi \to +\infty$ и осциллирует при $\xi \to -\infty$.

Такое решение уравнения Шредингера описывается функцией Эйри первого рода, которая имеет следующие асимптотики, т.е. пр $\xi \to +\infty$

$$\psi(\xi \to \infty) = A_1(1/2)\xi^{-1/4} \times \exp\{-(2/3)\xi^{3/2}\}$$
$$\psi(\xi \to -\infty\rangle = A_1(-\xi)^{-1/4} \sin[(2/3)|(-\xi)^{3/2} + \tau/4] \quad (19)$$

В классически разрешенной области I $(x < a)$ волновая функция может быть представлена в виде двух бегущих волн

$$\psi_I(\xi) = \frac{c_1}{|\xi|^{1/4}} \exp\left(-\frac{2}{3}i|\xi|^{3/2}\right) + \frac{c_2}{|\xi|^{1/4}} \exp\left(+\frac{2}{3}i|\xi|^{3/2}\right) \quad (20)$$

Для того, чтобы это выраженые имело вид стоячей волны и, тем самым, совпадало с асимптотическим выраженем для функции Эйри при $\xi \to -\infty$, необходмо потребовать, например, $C_1 = -Ce^{-i\pi/4}/(2i)$ i $C_2 = Ce^{+i\pi/4}/(2i)$. В этом случае формула (10) принимает следиющий вид

$$\psi_I(\xi\rangle = \frac{c}{|\xi|^{1/4}} \sin\left(\frac{\pi}{4} - \frac{2}{3}\xi^{-3/2}\right) \quad (21)$$

Таким образом, мы установли, что экспоненциально затухающее решение переходит в осциллирующее решение. В заключение заметим, что полное и строгое решение задачи в квазиклассическом приближении, которое позволит описать волновую функцию для произвольных значений x, теперь сводится к задаче о сшивании точного решения уравнения Шредингера вблизи точки $\xi = 0$. Этот случай требует отдельного рассмотрения.

REFERENCES

1. Mamatova, M. A., Yavkachovich, R. R., Dilshodbek, M., & Forrukh, K. (2022). Relation between the concentration of nonequilibrium electrons and holes in long semiconductor diodes. *European science review*, (5-6), 29-32.
Aniqlovchiga rus tilshunos olimi A.I.Smirnitskiy qo`yidagicha ta`rif berdi: " Aniqlovchi – gapning ikkinchi darajali bo`lagi bo`lib, u birinchidan, narsani belgisini yoki kengroq aytganda sifat munosabatlarining ifodasi, ikkinchida , so`z bilan yaqin atributiv bog`liqlik bilan tasniflanadi. Til birliklari orasida aniqlovchi roli uchun eng mos keladigan sifatdi. Shu bilan birga, aniqlovchi rolini o`z-o`zidan belgini belgilamaydigan so`zlar ham o`ynashi mumkin, lekin ma`lum birikmalarda gapdagi boshqa so`zlar bilan alohidamunosabatga kirishib, belgini aniqlash uchun xizmat qilish mumkin. Demak, masalan, *otamning xonadonidagi* so`z birikmasida ta`rif vazifasini egalik kelishigidagi ot bajaradi. " [А.И.Смирницкий, Синтаксис

английского языка, Москова 1957, 231 с]. Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nutqning bir qismi sifatida otning ma`nosi xususiyatni belgilash emas, balki ob`ektivlik bilan tavsiflanadi. Shunday ekan, aniqlovchi xususiyatini olish uchun ot belgilanayotgan narsa bilan qandaydir aniq munosabatga kirishishi kerak. Faqat ma`lum munosabatlarni ifodalash orqali ot belgining ko`rsatkichi bo`lib, uning ob`ektiv ma`nosini zaiflashtiradi. Ot maxsus hol shaklida ham, bosh gap bilan ham aniqlovchi vazifasini bajaradi. “Ingliz tili aniqlovchi aniqlanmishdan oldin qo`yilishga moil bo`lgan tillardan biridir. Boshqa tillarda xususan, frantsuz tilida sifat otdan keyin keladi..” [А.И.Смирницкий, Синтаксис английского языка, Москова 1957, 235 с].

MUHOKAMA

Aniqlovchi va aniqlanmishda asosan o`zak so`z oxirida bo`ladi. Fikrlarni alohida xususiyatlardan umumiy tushunchaga o`tkazishning bunday usuli ingliz tilining butun tuzilishiga xosdir. Masalan, *kumush qoshiq* qo`shma so`zida birinchi element muayyan xususiyatni bildirsa, ikkinchisi, o`zak elementni esa shu alohida xususiytning tashuvchisini bildiradi va butun majmuani o`z ichiga olgan sinfni belgilaydi. Bu sifatlarning alohida o`rni kesimlarga yaqinligi bilan izohlanadi. Sifatga aylanmagan kesim muntazam ingliz tilida otdan keyin qo`yiladi masalan: *She didn`t hide her the impression desired.* Kesimning aniqlanayotgan otga nisbatan bunday holat har qanday kesimning, go`yo rivojlanmagan ergash gap bo`lishi bilan izohlanadi . Gapdagi ishtiroki nafaqat ergash gapga, balki mustaqil gapda ham rivojlanishi mumkin. Masalan: - “ The woman carrying the bag is speaking ”, - So`mka ko`targan ayol gapriyapdi - Ayol so`mka ko`tarib turibdi – U gapriyapdi. Kesim bu yerda kesim ikkinchi darajali predikativlik soyasiga ega. Bo`lishli qo`shma gap orqali ifodalangan aniqlovchi oldindan tayyor holda berilmaydi, balki gap jarayonida go`yo o`tib ketayotgandek yonboshlovchi sifatida qo`shiladi. Kesim kesim bilan ifodalangan sifat fe`l zamon sifatlari sifatida idrok qilinadi va uning aniqlanayotgan ot bilan aloqasi odatiy aniqlovchili bog`lanishdan ko`ra jonliroq bo`lib, shu ma`noda u qandaydir predikativ ma`noga ega. Aniqlovchining ot bilan bog`lanishi predikativ bog`la-nishga yuklamali ta`rifning ot bilan bog`lanishga yaqinroq. Ingliz tilida egalik holat sifatdosh bilan birga ishlanadi va aniqlanayotgan otdan oldin qo`yiladi. Bunday tuzilish sababli, ya`ni bu qurilmaga sabab bo`lgan otning sintaktik roli tufayli ot ma`lum o`zining “ obe`ktivligini” yo`qotadi. “Nemis tilida tuslanish sistemasi jonliroq saqlanib qolgnligi sababli genitive holatdan ancha erkindir.

Ingliz tilida egalik holatning so`z shakliga kelsak, ularning o`rni sifatdoshning o`rniga nisbatan qat`yroq; shu ma`noda ular egalik olmoshlarga yaqinlashadi. Shuni

hisobga olish kerakki , ushbu ishning g`oyasi predikativlikni istisno qiladi. Buning natijasida uni alohidalash mumkin emas. Ega sifatning belgisini ifodalmaydi, balki predmetni boshqa qatorlardan ajratib turadi.” [А.И.Смирницкий, Синтаксис английского языка, Москова 1957, 248 с]. Oldingi ot bilan ifodalangan aniqlovchi belgilangandan keyin muntazam ravishda qo`yiladi. Bu predloglarning o`zi joylashgan so`zlarni bog`lovchi roli bilan izohlanadi. Predloglarning tabiiy o`rni so`zlar orasidagi joy, bu ergash gaplar o`rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Demak, aniqlovchidan oldin bosh gap birikmasini qo`ya olmaymiz. *The gate of the yard* kabi birikmalarning tarkibiy qisimlarini almashtirib bo`lmaydi. Infinitiv yordamida ifodalangan aniqlovchi otdan keyin ham qo`yiladi: *He was the first teacher to teach me this.* “ Infinitive o`zi kelib chiqishiga ko`ra nominal toifadir; *to* kelib chiqishi bo`ycha yuklama bo`lib, infinitive tabiiy ravishda bosh gapli ot bilan bir joyda, ya`ni aniqlanmishdan keyin joylashadi”. [Qarang, А.И.Смирницкий, Синтаксис английского языка, Москова 1957, 254 с ]. This is clean water. This water is clean. I tooke a red apple. The apple that I taken was red. Berilgan barcha misollarda *clean* va *red* so`zlari mos ravishda *suv* va *olma* so`zlari bilan ifodalangan narsaning xususiyatini ifodalaydi. Lekin birinchi gap ikkinchi gapdan keskin farq qiladi , chunki ulardagi sifat predikativ ifoda bilan bog`lanmaydi: u predikativ emas, atributiv bog`lanish shaklida berilgan . Shuning uchun birinchi holatda clean va red sifatlari aniqlovchi ikkinchisida esa sifatlovchi predikatning nominal qismi sifatida keladi. Ifodalangan mazmunning birligiga qaramay, aniqlovchi bilan bog`liqlikkdagi predikativlik yo`qligi sababli sifatlovchi predikatga keskin qarshilik ko`rsatadi.Gapning boshqa kichik birliklari kabi aniqlovchi ham gapning asosiy predikativ qurilishiga kirmaydi. Ammo shuni ta`kidlash kerakki, aniqlovchida predikativlikning yo`qligi ob`ekt va vaziyatga qaraganda ko`proq nomayon bo`ladi.

Tilshunoslarning e`tirof etishlaricha, aniqlovchi ergash gaplar ham aniqlovchining bir turi hisoblanadi. Qo`shma gap tarkibida kelgan aniqlovchi ergash gaplar qo‘shma gapda aniqlovchi vazifasida keladi va who (whom), whose,which, that olmoshlari va when, where, why ravishlari yordamida bosh gapga bog‘lanib keladi. Odatda, aniqlovchi ergash gaplar qaysi otni aniqlab kelsa o‘sha otdan keyin keladi.

Aniqlovchi ergash gaplar uch xil bo‘ladi:

1. Ajratuvchi aniqlovchi ergash gaplar shaxs va narsalarning alohida o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi va boshqalaridan ajratib ko`rsatadi :

The present that I received from my friends last year is very valuable.

2. Tasniflovchi aniqlovchilar ergash gaplar shaxs va narsaning belgi va xususiyatlariga, shunday shaxs yoki buyumlaming biror turiga kiritadi:

The bag which is made of leather is heavy to carry.

3. Tasvirlovchi aniqlovchi ergash gaplar shaxs va buyumlarni tasvirlab, ular haqida qo‘shimcha ma’lumot beradi:

In the station I met my old friend, who helped me to find my job.

Ajratuvchi va tasniflovchi aniqlovchi ergash gaplarni tushirib qoldirib bo`lmaydi chunki , gapning mazmuni buziladi. Agar - *The present that I received from my friends last year is very valuable* gapidagi *that I received from my friends last year* ajratuvchi aniqlovchi ergash gapni tushirib qoldirsak qanday *sovg`a* haqida gap ketayotganligi noma’lum bo’lib qoladi. *A bag which is made of leather is heavy to carry* gapidagi tasniflovchi aniqlovchi ergash gapni olib tashlansa, gapning ma’nosi yo‘qoladi: The bag is heavy to carry. Gapda tasvirlovchi aniqlovchili ergash gaplarni olib tashlash gapning ma’nosiga ta’sir qilmaydi. *In the station I met old friend, who helped me to find my job* gapidagi ergash gapni olib tashlansa – In the station I met old friend, — gapi tugallangan mazmunga ega bo‘ladi, ergash gap esa faqatgina qo‘shimcha ma’lumot beradi .

Ajratuvchi va tasniflovchi aniqlovchi ergash gaplar bosh gapdan vergul bilan ajratilmaydi, tasvirlovchi aniqlovchi ergash gaplar esa odatda, bosh gapdan vergul bilan ajratiladi.

Ajratuvchi va tasniflovchi aniqlovchi ergash gaplarda whom (who olmoshining

obyekt kelishikdagi shakli) va *which* olmoshlari ko‘pincha *that* olmoshi bilan almashtiriladi:

Kamdan – kam holatlarda *who* olmoshi *that* olmoshi bilan almashtirilishi mumkin. *Whose* olmoshini hech qachon *that* olmoshi bilan almashtirib bo`lmaydi. Odatda, that olmoshidan keyin predlog kelmaydi. Bu holda predlog fe’ldan keyin keladi, agar to‘ldiruvchi bo‘lsa, to‘ldiruvchidan keyin keladi .

XULOSA

Xulosa sifatida aniqlovchiga qator adabiyotlarni o’rganib, quyidagicha ta’rif berdik: Aniqlovchi sintaktik birlik va ikkinchi darajali gap bo’lagidir. Ushbu sintaktik birlik shaxs va narsani bilgisini bildirib, what? what kind of? (qanday?), whose? (kimning?), which? (qaysi?), how much? (qancha?), how many? (nechta?) kabi so’roqlarga javob bo’ladi. Gapda mustaqil so’zlar, ularning vazifadosh shakllari, frazalar va ergash gaplar (sifat, sifatdosh, sifatdoshli ibora, son, olmosh, infinitiv, gerundiy) bilan ifodalanib bosh va ikkinchi darajali gap bo’laklari hamda gaplarni izohlab kela oladi. Aniqlovchi izohlayotgan, bosh qism – aniqlanmish ot bilan ba’zida olmosh (one, some, any, every, no olmoshlaridan yasalgan olomoshlar) bilan ifodalanadi. Aytish mumkinki, aniqlovchi ot va olmoshni aniqlab kela oladi va har

qanday so’z turkumi bilan ifodalana olinadi. Aniqlovchi nafaqat ot, olmosh balki gaplarni ham aniqlab keladi deya e`tirof etilmoqda.

Hozirda ko’pgina adabiyotlarda aniqlovchi ergash gaplar aniqlovchining bir turi sifatida qaralmoqda. Aniqlovchi ergashtiruvchi gaplar uchta turga ajratiladi. Aniqlovchi ergash gaplar qaysi otni aniqlab kelsa, o‘sha otdan keyin ishlatiladi.

REFERENCES

1. А. И. Смирницкий, Синтаксис английского язык, Москова, 1957
2. Б.А. Ильиш , “Строй современного английского языка” – Ленинград, 1971
3. В. Л. Каушанская, и дрг. “Грамматика английского языка” – Ленинград, 1971
4. К.Н.Качалова, Израилович Е. Е. “Практическая грамматика английского языка” – Bishkek, 2008
5. О.В. Александрова, Современный английский язык, Морфология и синтаксис, Москова, 2007
6. Т. Р .Левицкая, “Теория и практика перевода с английского языка на русский” –М., 1963.

YUZ-JAG' JARROHLIGIDAGI KASALIKLAR

Olimov Abulfayz Latifovich
Toshkent davlat stomatologiya instituti
yuz-jag' jarroxligi klinik ordinatori
Ilmiy rahbar– **Xaliqov Azizbek Alimurodovich**
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola yuz –jag' jarrohligi sohasining tarixiy shakllanishi va bugungi kunga kelib zamonaviylashgan holati haqida ma'lumotlar taqdim etadi. Shuningdek, maqolada ushbu sohada kup uchrovchi kasalliklar va ularning davolash amaliyoti haqida fikrlar jamlangan.

Kalit so'zlar: *«plastik jarroxlik», estetik, suyaklaridagi nosimmetriklik, parantezlar, donor, periostitlar, odontogen osteomiyelitlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об историческом становлении области челюстно-лицевой хирургии и ее современном состоянии. Также в статье обобщены мысли о распространенных заболеваниях в этой области и практиках их лечения.

Ключевые слова: *«пластическая хирургия», эстетика, костная асимметрия, брекеты, донор, периостит, одонтогенный остеомиелит.*

ABSTRACT

This article provides information about the historical development of the field of maxillofacial surgery and its current state. The article also summarizes thoughts about common diseases in this area and practices for their treatment.

Keywords: *"plastic surgery", aesthetics, bone asymmetry, braces, donor, periostitis, odontogenic osteomyelitis.*

KIRISH

Plastik jarroxlik termini ko`p ishlatilishi xamda chet el davlatlarida plastik jarroxlik bo`yicha ko`p sonli monografiyalar chop etilganligiga qaramay mutaxassislar orasida xozirgacha ushbu termini yaqqol yoritib beruvchi soha vakillari tamonidan tasdiqlangan aniq bir ko`rsatma yo`q. Plastik jarroxlik bu xirurgiyaning bir bo`lagi bo`lib buning asosida tana yuzasi to`qimalaridagi operatsiyalar yotadi. Agar tanani qo`l va oyoqlardagi xamda qorin va ko`krak qismdagi nuqsonlarni kiyim yoki biror bir boylamalar bilan berkitishni ilojisi bo`lsa, yuz sohasidagi nuqsonlarni berkitish ancha qiyin masala hisoblanadi, SHuning uchun dastlabki plastik jarroxlik

ishlari yuz sohasidagi nuqsonlarni berkitish bilan boshlangan. Yuz sohasida to`qimalar bilan ishlash printsipi tananing boshqa qismlariga tarqala boshladi. Plastik jarroxlik aloxida bo`lim sifatida XX asrda I jaxon urushidan keyin shakllana boshladi va II jaxon urushidan keyingi 50 yillarda o`zini aniq tasdig‘ini topdi[1].

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ushbu nomni aniqlashtirishni murakkabligi shundan iboratki, agar «plastika» so`zi faqatgina ko`chirish emas balki nuqson joylarni tiklash xam ko`zda to`tilgan bo`lsa, u xolda umumiy xirurgiyadagi ko`pgina manipulyatsiyalarga ushbu nom xam to`g‘ri keladi, masalan: ingichka ichakdan qizilungach reqonstruktsiyasi, diafragmadagi operatsiyalar yoki siydik yo`lidagi operatsiyalar va x.k.z.

TADQIQOT NATIJALARI

XX asr 20 yillarida angliyalik xirurg Gillis tomonidan plastik jarroxlikning asosiy printsiplari ishlab chiqilganiga qaramasdan, mustakil fan sifatida «plastik jarroxlik» Angliya va AKSH da XX asrning 40- 50 yillarida tashqil topa boshlagan. Plastik jarroxlik rivojlanishiga sovet olimlari juda katta xissa qo`shishgan. SHulardan oftalmolog V.P. Filatov juda katta xissa qo`shgan. U nafaqat shox pardani erkin plastikasi, balki 1917 yilda chop etilgan bemor terisidan dumaloq bandni yaratish usulini aytib bergan va bu xaqida Gillis 1918 yil yozib o`tib ketgan. Teri nuqsonlarini berkitish «ommaviy ravishda» Ulug Vatan Urushi davrida qo`llanildi va bu bir necha o`ng minglab jangchilarni hayotini saqlab qolishda muhim rol o`ynadi.

Birinchi marta xirurglarda yo`qotilgan to`qimalarni bir qancha bandlar bilan qayta tiklash uchun ko`p sonli plastik materiallar olish imkoni tug‘ildi. Ushbu operatsiyalar ko`p ekanligini hisobga olgan xolda xamda maxsus o`lchamlar kerak. bo`lishi va tikishda aloxida e`tibor berish kerakligini inobatga olgan xolda maxsus ko`nikmalarga ega bo`lgan jarroxlarga extiyoj tug‘ildi. Mikroxirurgiya yuzaga kelishi vaziyatni tubdan o`zgartirdi. Katta to`qimali bloklar autotranslantatsiyasi nuqson sohasini bir ikkita operatsiyadan keyin estetik jixatdan bartaraf qilish imkonini yaratdi.

Ortognatik (yoki-thog-NATH-ik) jarrohligi deb ham ataladigan jag 'jarrohligi, jag' suyaklaridagi nosimmetrikliklar tuzatadi va jag 'va tishlarni qayta ishlashini yaxshilaydi. Ushbu tuzatishlarni kiritish sizning yuzingizni yaxshilashi ham mumkin. Faqatgina ortodontiya yordamida hal qilib bo'lmaydigan jag 'bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa, jag' operatsiyasi tuzatuvchi variant bo'lishi mumkin. Ko'pgina hollarda, sizda operatsiyadan oldin va operatsiyadan keyin tiklanish paytida davolanish va tekislash tugamaguncha tishlaringizda parantezlar mavjud. Ortodonti

sizning davolanish rejangizni aniqlash uchun og'iz va jag 'va yuz (yuz-yuz) jarrohingiz bilan ishlashi mumkin. Jag'ning jarrohligi o'sish to'xtaganidan keyin mos keladi, odatda ayollar 14 yoshdan 16 yoshgacha, erkaklar 17 yoshdan 21 yoshgacha[2].

Yuzning ochiq sohalaridagi deformatsiyalar va nuqsonlar bemorning ruxiy xolatiga qattiq ta`sir ko`rsatadi. Ular atrofdagilar bilan muloqat vaqtida va ovqatlanish vaqtida noqulaylik tug‘diruvchi maxsus boylamalarda yurishga majbur bo`lishadi. Ular tez ta`sirchan va ancha odamovi bo`lib qolishadi. Ayniqsa bemorlarni gapirish nutqini buzilishi va yozma tushintirishga muxtoj bo`lishi ular ruxiyatini ancha buzib qo`yadi. Doimiy zo`riqish ostida bo`lgan bu bemorlar tez muvozanatdan chiqib ketishadi va atrofdagilarni tushunmaslikda ayblashadi. Yo`qotilgan to`qimani tiklash operatsiyalari ancha ko`p etapliligi va ancha vaqt ketishini inobatga olgan xolda bemor va shifokor o`rtasida o`zaro kelishuv bo`lishi lozim. Jarrox qilgan ishlar bir necha kriteriylar bilan baholanadi qayta tiklanish vaqtining kiskaligi, funktsional va va kosmetik natijalarga, bemor uchrashish darajasiga qarab baholanadi[3].

Oxirgisi unchalik aniq bo`lmagan ko’rsatgich, ammo kezi kelganda asosiy rol o’ynovchi omil hisoblanadi. Jarrox amaliyotida bemor e`tiborsizligi tufayli kungilsiz asoratlar kelib chikishi ko`p uchraydi. Bunga Filatov bandini uzib yuborish, kuchib o`tkazilgan to`qimani uxlash davrida ortiqcha bosib yuborish natijasida ikkilamchi nekroz yuzaga kelishi yoki bog‘lamalarni qayta o`tkazish oraligida shaxsiy gigienaga e`tibor bermaslik va x.k.z.

Yuqorida ko’rsatilgan holatlarni oldini olsa bo`ladi qachonki shifokor bemorga operatsiya xarakterini, vaqtini va davomiyligini xamda keyinchalik o`tkaziladigan qayta bog‘lamalar xarakterini tushuntirsa yuqoridagi asoratlarni chetlab o’tsa bo`ladi. Agar bemor o`tkazilgan to`qima nuqson sohasidan dastlab bo’rtib turishi va bu keyinchalik jarroxlik yo`li bilan bartaraf etilishidan xabardor bo`lsa, bemor operatsiyaning oralik davrida bo`ladigan o`zgarishlarni yaxshi tushunadi. Bemor plastik material uchun olinadigan donor sohasida qanday estetik va funktsional o`zgarishlar bo`lishini bilishi va tushinishi kerak. Ko`pgina odamlar, shu jumladan yoshlar va ayol kishilar tana yoki yuzning ochik qismidagi nuqson hosil bo`lishidan ko‘ra tananing boshqa joyidagi funktsional yo`qotishga rozi bo`lishadi. Bunday olib qaraganda plastik jarroxi uchun jarroxlik amaliyotini o`tkazish uchun bir nechta variantlar mavjud bo`ladi. Bunda bemorga umumiy va ayrim noziq tomonlar tushuntiriladi.

Yuz-jag’ sohasi yallig‘lanish kasalliklaridan eng ko’p uchraydigan turi bu periostitlardir. Periostitlar - tish va periodont xastaliklari asoratlari oqibatida kelib

chiqadigan suyak usti pardasining yallig‘lanishidir[4]. Ko‘pincha u alveola o‘sig‘ida, ba’zi hollarda jag‘ tanasi sohasida kuzatiladi. O’tkir yiringli periostit keskin kechadi va kun sayin yallig‘lanish kuchayib boradi. Bemoming umumiy ahvoli qoniqarli bo‘lib, tana harorati 37,5° - 38°C atrofida bo‘ladi. Bemor holsizlanadi, boshi og‘riydi, ishtahasi yomonlashadi, uyqusi buziladi. Sababi, tish atrofidagi og‘riqlar zo‘rayadi, og‘riqlar chakka, quloq, bo‘yinga uzatiladi, keyinchalik og‘riqlar susayib, simmilovchi tus oladi. Suyak pardasida xastalik rivojlangan sari jag‘oldi yumshoq to‘qimalarida shish paydo bo‘ladi.

Bir necha tish atrofidagi shilliq parda qizarib, o‘tuv burma tekislashgan holga keladi. Shu sohani paypaslab ko‘rilganda, og‘riqli infiltrat va flyukturizatsiya belgisi aniqlanadi. Faqat kasal tish qimirlab qolgan bo‘lib, perkussiyada og‘riq seziladi. Bemoming yuz qismida kollateral shish hisobiga paydo bo‘lgan assimetriya holati aniqlanadi. Limfa tugunlarining kattalashishi kuzatilib, paypaslanganda og‘riydi. Rentgen tekshiruvi o‘tkazilganda, faqat kasal tishgagina xos bo‘lgan o‘zgarishlar aniqlanib, jag‘ suyagida o‘zgarishlar kuzatilmaydi.

O’tkir yiringli periostitni davolash kompleks tarzda olib boriladi. Ya’ni, jarrohlik va konservativ usul yordamida. Jarrohlik usulining asosiy maqsadi, yiringli o‘choqni kesib ochish va sababchi kasal shishni olib tashlashdan iborat. Buning uchun mahalliy og‘riqsizlantirishning infintratsiya va o‘tkazuvchi usulidan foydalaniladi. Kesma o‘tuvchi burma shilliq qavati bo‘ylab suyakkacha chuqurlikda o‘tkaziladi. Kesmaning uzunligi 3-5 tish sohasida 1,5-2,5 sm uzunligida bo‘lishi lozim. Yiringning erkin chiqishini ta’minlash uchun bo‘shliq ichiga rezinali lentacha (dranaj) kirgazib qo‘yiladi. Sababchi kasal tish olib tashlanadi.

Agar sababchi kasal tish funksional va kosmetik jihatdan o‘z qiymatini yo‘qotmagan, ildiz kanali yaxshi o‘tuvchi bo‘lsa, saqlab qolinib, uni konservativ davolanadi. Jag‘laming odontogen osteomiyelitlari - bu jag‘laming suyak to‘qimasidan, tish kasalliklarining asorati sifatida yuzaga keluvchi, infeksiyali, yiringli - nekrozlanuvchi yallig‘lanish jarayonidir. Bu kasallikdagi yallig‘lanish jarayoni faqat suyak to‘qimalarini emas, balki uning ichidagi ko‘migini, suyak pardasini va atrofdagi yumshoq to‘qimalami ham o‘z ichiga oladi.

XULOSA

Kasallik ko‘pincha pastki jag‘da uchraydi. Jag‘lardagi odontogen osteomiyelit, asosan, uch bosqichda kechadi: o‘tkir, o‘tkir osti va surunkali. Bundan tashqari, chegaralangan va diffuz bo‘lishi mumkin[5]. Yuqori jag‘da g‘ovaksimon suyak juda kam bo‘lib, uning kortikal plastinkasida ko‘plab teshiklar mavjud. Shu bois jag‘dagi tishlar atrofidagi yiringli yallig‘lanish jarayonlarida ekssudat suyakdan tashqariga

chiqib ketadi. Shuning uchun ham yuqori jag‘da odontogen osteomiyelit kasalligi kam uchraydi.

REFERENCES

1. Jilonov A.A., Noraxmadov B.T. Yuz-jag‘ jarrohligi. Darslik. Toshkent. TTA bosmaxonasi 2018 yil.
2. Z.K. Raximov. YUZ –JAG’JARROHLIGI FANIDAN o’quv uslubiy majmua (stomatologiya fakulteti 5 kurs talabalari uchun) Buxoro 2019 yil
3. Azimov M.I. Yuzning rivojlanishi va anomaliyalari. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent. Ilm ziyo, 2018 yil
4. David A. Mitchel. An inbtroduction to oral and maxillofacial surgery. Textbook. Second edition, 2015 y
5. Nigora Toshpoiatova, Sayyora Suyunova. Og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari. Tibbiyot kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2007.

UO'K - 632
KBK – 44.6
A - 13

KIMYOVIY PREPARATLARNING QANDALA TURLARI BO'YICHA SAMARADORLIGI

Abduraxmonov Shuxrat Mamatmurotovich.
Qurbanov Abduraim Narbaevich.
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti assistentlari.
Bo'ritoshev Obidjon Muzaffar o'g'li.
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti 3-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

O'simlikxo'r qandalalarning g'o'za agrobiotsenozida zarari oxirgi yillarda ortib bormoqda. Ushbu maqolada o'simlikxo'r qandalalardan beda va g'o'za qandalaga qarshi kimyoviy preparatlarning samaradorligi labaratoriya tajribalarida sinab ko'rilgan.

Tayanch so'zlar – *Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Creontiadas pallidus Rambur, hasharot.*

АННОТАЦИЯ

В последние годы увеличивается вредоносност растителноядных клопов в хлопковых агробиотсенозах. В этой стате приведены данные лабараторных опытов об испитании эффективности химических препаратов против люсерновых ихлопковых клопов из числа растителноядных клопов.

Ключевые слова *- Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Creontiadas pallidus Rambur, nasekomoe.*

ABSTRACT

In recent years, the harmfulness of herbivorous bugs in cotton agrobiocenoses has increased. This article presents data from laboratory experiments on testing the effectiveness of chemicals against alfalfa and cotton bugs from among herbivorous bugs.

Key words *- Miridae, Himiptera, Adelphosoris lineolatus, Creontiadas pallidus Rambur, insect.*

KIRISH

Yil sayin paxta maydonlari yildan yilga kamayib bormoqda. Shunday ekan bu sharoitda paxtachilikda hosildorlikni oshirish, ilm – fan yutuqlaridan unumli foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Xozirgi paytda qishloq xo'jaligida O'simliklarni himoya qilish sohasi juda dolzarb sohaga aylanib ulgurdi. Eko

sistemasida ro‘y berayotgan global isish, zavod fabrikalarning haddan tashqari ko‘payishi, Respublikamiz mustaqillikka erishishi munosabati bilan juda ko‘plab xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va qishloq xo‘jaligida yaqin aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi natijasida yangi tur karantin zararkunandalarning kirib kelishi va ularning Respublikamizning turli hududlariga tarqalishi kuzatilmoqda.

Qishloq ho‘jaligi ishlab chiqarishining jadallashuvi agrobiotsenozlarda faunistik komponentlarning salbiy ta’sir darajasini o‘zgarishiga va yangilarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Masalan, g‘o‘za agrobiosenozida keyingi 10 yilliklarda beda va dala qandalalari , oqqanot kabi zararkunandalarning yashashiga, ko‘payishiga qulay sharoitlar vujudga keldi. O‘simlikxo‘r qandalalar ahamiyatining ortishi respublikamiz uchun yangi tur g‘o‘za qandalasining (*Creontiades pallidus*) mamlakatimizga kirib kelishi bilan bog‘liq. Olib borilgan fundamental tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra so‘nggi yillarda Surxondaryo viloyatida qandalalarning yangi turi – g‘o‘za qandalasi paydo bo‘lganligi aniqlandi (Xo‘jaev va b., 2017,2018) Ularning g‘o‘zaga zarar yetkazish darajasi kuchayib, yildan-yilga zararlilik areali ortib bormoqda.

Surxondaryo viloyatida qandalalarning qishloq xo‘jalik ekinlarida ayniqsa g‘o‘zada tarqalishi va ommaviy ko‘payib, zarar yetkazayotganligi ko‘pchilik fermerlarda qandala qanday hasharot? qanaqa zarar yetkazadi unga qarshi qanday samarali kurash tadbirlarini o‘tkazish kerak? degan savollarning tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda. Shularni e’tiborga olib 2022 yil mavsumda bir necha kimyoviy preparatlarni g‘o‘za va beda qandalasiga qarshi labaratoriya sharoitida sinab, biologik samaradorligi o‘rganildi.

TADQIQOT NATIJALARI

O‘simlikxo‘r qandalalarga qarshi kimyoviy usulda kurashishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan yana bir muhim jihat borki, ya’ni ularning kimyoviy vositalarga sezgirligi qandala turlari bo‘yicha farq qiladi. Bugungi kunda paxtachiligimizga katta muammo tug‘dirayotgan g‘o‘za qandalasi ko‘pgina kimyoviy preparatlarga nisbatan chidamli bo‘lib qolgan. Shular sababli o‘simlikxo‘r qandalalar orasida g‘o‘za maydonlarida dominantlik qiladigan beda hamda g‘o‘za qandalalariga qarshi insektitsidlar samarasini turlar bo‘yicha o‘rganish hamda olingan natija tahlili asosida katta dala tajribalarini rejalashtirish maqsadida laboratoriya tajribasini o‘tkazdik. Tadqiqotlarimiz rejasiga ko‘ra 12 iyul 2022 yil sanasida 8 ta variantdan iborat laboratoriya tajribasini o‘tkazdik. Buning uchun beda maydonlaridan kerakli miqdorda beda qandalasi va g‘o‘za qandalasi yig‘ib kelindi. Tajribada maxsus 2 litr hajmli laboratoriya bonkasi va qo‘l purkagichdan foydalanildi. Ishchi eritma ilgari

tadqiqotlarda o‘rganilgan uslub bo‘yicha xronometraj asosida tayyorlandi. Bunda gektariga 850 litr ishchi suyuqlik sarflanishi hisobida bajarildi. Turli kimyoviy sinfga mansub 7 ta insektitsid 4 qaytariqda nazoratga nisbatan sinaldi. I-II qaytariqlar ishlovdan 1 kun o‘tib, III-IV qaytariqlar 3 kun o‘tib hisob-kitob qilindi. Olingan natijalar 1- va 2-jadvallarda keltirildi. Jadvallarda ko‘rinib turganidek beda qandalasiga qarshi sinovdagi barcha preparatlar qoniqarli 94,9-100% samaraga ega bo‘lgan bo‘lsa, g‘o‘za qandalasiga qarshi o‘tkazilgan tajribada Bagira, 20 % em.k. (imidokloprid) va Dalate, 10 % em.k. (*lyambdatsigalotrin*) preparatlari g‘o‘za qandalasiga qarshi 70,0% dan kam samaraga ega bo‘lib, bu tur qandalalarga qarshi kurashda yetarli natijaga ega bo‘lmasligini ko‘rsatdi.

1-Jadval

Beda qandalasiga qarshi insektitsidlarning biologik samaradorligi
Laboratoriya tajribasi. O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tekshirish instituti Surxondaryo filiali, ishchi suyuqlik-850 l/ga 12.07.2022 y.

№	Variantlar	Ta’sir etuvchi moddasi	Dori sarfi, kg,l/ga	Samaradorlik, %	
				1-kun	3-kun
1.	Nurell D, 55% em.k.	*xlorpirifos + sipermetrin*	1,0	100	-
				-	100
2.	Bagira, 20% em.k.	*imidakloprid*	0,3	89,7	-
				-	86,8
3.	BI-58, 40 % em.k.	*dimetoat*	1,0	-	100
				100	-
4.	Xlorpirivit Agro, 55% em.k.	*xlorpirifos + sipermetrin*	1,0	100	-
				-	100
5.	Dalate , 10% em.k.	*lyambdatsigalotrin*	0,2	94,9	-
				-	88,2
6.	Alpgor, 40% em.k.	*dimetoat*	1,0	100	-
				-	100
7.	Mospilan 20% n.k.	*Asetamiprid*	0,3	87,6	-
				-	100
8.	Nazorat	-	-	-	-
				-	-

2-jadval

G‘o‘za qandalasiga qarshi insektitsidlarning biologik samaradorligi
Laboratoriya tajribasi. O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy tekshirish instituti Surxondaryo filiali, ishchi suyuqlik-850 l/ga 12.07.2022 y.

№	Variantlar	Ta'sir etuvchi moddasi	Dori sarfi, kg,l/ga	Samaradorlik, %	
				1-kun	3-kun
1.	Nurell D, 55% em.k.	*xlorpirifos + sipermetrin*	1,0	100	-
				-	100
2.	Bagira, 20% em.k.	*imidakloprid*	0,3	62,8	-
				-	64,3
3.	BI-58, 40 % em.k.	*dimetoat*	1,0	100	-
				-	100
4.	Xlorpirivit Agro, 55% em.k.	*xlorpirifos + sipermetrin*	1,0	100	-
				-	100
5.	Dalate , 10% em.k.	*lyambdatsigalotrin*	0,2	64,5	-
				-	69,5
6.	Alpgor, 40% em.k.	*dimetoat*	1,0	100	-
				-	100
7.	Mospilan 20% n.k.	*Asetamiprid*	0,3	82,8	-
				-	81,9
8.	Nazorat	-	-	-	-
				-	-

XULOSA

Beda qandalasiga eng yuqori samara s*ipermetrin+xlorpirifos* ta'sir etuvchi moddasidan iborat Xlorpirivit Agro, 55% em.k.- 1,0 l/ga, Nurell D,55% em.k.- 1,0 l/ga; *dimetoat* tarkibli BI-58, 40% em.k.- 1,0 l/ga preparatlarida kuzatildi.

Har ikkala tur qandalalarga eng yuqori samara s*ipermetrin+xlorpirifos* ta'sir etuvchi moddasidan iborat Xlorpirivit Agro, 55% em.k.- 1,0 l/ga, Nurell D,55% em.k.- 1,0 l/ga; *dimetoat* tarkibli BI-58, 40% em.k.- 1,0 l/ga preparatlarida kuzatildi. Bundan tashqari g'o'za qandalasiga qarshi Mospilan 20 % (n.k. *asetamiprid*) – 0,3 kg/ga sarf-me'yorda 82,8-81,9% qoniqarli samaraga ega bo'lib, bu preparat yana bir bor tekshirib ko'riladi.

REFERENCES

1. Xo'jaev Sh.T., Sattarov N., Musaev D. G'o'zada o'simlikxo'r qandalalarning zarari //Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. – 2017. - №.2. – B.35-37.
2. Xo'jaev Sh.T., Sattarov N.R., Musaev D.M. Zararli qandala hasharotlar haqida nimalarni bilmoq kerak. Ilmiy-ommabop ocherk. –Toshkent, 2018. –B.64.
3. Sharofovich, B. O. (2022). WATER-FERTILIZER (NPK) STANDARD IRRIGATION REGIMES OF "BUKHARA-102" AND "PORLOQ-1" COTTON VARIETIES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *10*(12), 816-818.

СПОСОБ ОЦЕНКИ РЕЗЕРВНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ У БОЛЬНЫХ С ЭХИНОКОККОЗОМ ПЕЧЕНИ

Хайитов Илхом Баходирович
Ташкентская медицинская академия, г. Ташкент, Узбекистан
E-mail: ilhom.med79@mail.ru.
Хайитов Жавохир Баходирович.
Ташкентская медицинская академия, г. Ташкент, Узбекистан
E-mail: javohirhayitov@mail.ru
Хакбердиев Хусан Рахматуллаевич
Ташкентская медицинская академия, г. Ташкент, Узбекистан
E-mail: x.xaqberdiyev@tma.uz
Ортиков Бобомурод Баймаматович
Ташкентская медицинская академия, г. Ташкент, Узбекистан
E-mail: bobomurodortiqov9@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Эхинококкоз печени (ЭП) является основной проблемой хирургической гепатологии. Клинический опыт ведущих гепатологических центров показывает, что заболеваемость эхинококкозом, в том числе печеночной локализации, растет. Число повторных операций на печени по поводу эхинококкоза составляет 17,1–24,7%. Республика Узбекистан является самым густонаселенным регионом в Центральной Азии. К сожалению, наша страна является эндемическим очагом заболеваемости эхинококкозом. Многие зарубежные исследователи, а также местные ученые отмечают, что заболевание распространено в районах, где развито сельское хозяйство и животноводство. Заболевание развивается и передается из-за плохой гигиены.

Ключевые слова. *сердечно-сосудистой системы, эхинококкозом печени, проблемой хирургической гепатологии.*

A METHOD FOR ASSESSING THE RESERVE CAPACITY OF THE CARDIOVASCULAR SYSTEM IN PATIENTS WITH LIVER ECHINOCOCCOSIS

ABSTRACT

Echinococcosis of the liver (EP) is the main problem of surgical hepatology. The clinical experience of the leading hepatological centers shows that the incidence of echinococcosis, including hepatic localization, is growing. The number of repeated

operations on the liver for echinococcosis is 17.1–24.7%. The Republic of Uzbekistan is the most densely populated region in Central Asia. Unfortunately, our country is an endemic focus of the incidence of echinococcosis. Many foreign researchers, as well as local scientists, note that the disease is common in areas where agriculture and animal husbandry are developed. The disease develops and is transmitted due to poor hygiene.

Keywords. *cardiovascular system, liver echinococcosis, the problem of surgical hepatology.*

АКТУАЛЬНОСТЬ

Эхинококкоз печени (ЭП) является основной проблемой хирургической гепатологии [1]. Клинический опыт ведущих гепатологических центров показывает, что заболеваемость эхинококкозом, в том числе печеночной локализации, растет[2]. Число повторных операций на печени по поводу эхинококкоза составляет 17,1–24,7%[3,4]. Республика Узбекистан является самым густонаселенным регионом в Центральной Азии. К сожалению, наша страна является эндемическим очагом заболеваемости эхинококкозом [3,4,5]. Многие зарубежные исследователи, а также местные ученые отмечают, что заболевание распространено в районах, где развито сельское хозяйство и животноводство[6]. Заболевание развивается и передается из-за плохой гигиены[7].

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

В работе представлен опыт лечения 424 больных с эхинококкозом печени, находившихся на стационарном лечении в хирургических отделениях городской клинической больницы №1 города Ташкента в период с 2012 по 2022 гг и в частной клинике «Инвиво» с 2019-2022 гг. Научное исследование включало в себе ретроспективная и проспективная часть, поэтому, все исследумые больные были распределены на 2 группы. Исключения больных в исследумых группах были: тяжелые соматические заболевания и возраст до 18 лет.

Основной задачей для исследования явилась оценка результатов и на основе результатов разработать дифференцированный подход к лечению эхинококкоза печени.

РЕЗУЛЬТАТЫ

С учетом планируемой операции, по аналогии с оценкой дыхательной системы, приводим предложенный способ оценки резервных возможностей

сердечно-сосудистой системы (DGU № 21540 «Оценка сердечно – сосудистой системы больных эхинококкозом печени болеющих сердечной недостаточностью при подготовке операции» 11.01.2023. Министерства Юстиции Республики Узбекистан). Отличительной особенностью предлагаемого способа является не рутинная констатация факта наличия патологии сердечно-сосудистой системы, а именно анализ резервных возможностей для снижения частоты послеоперационных осложнений в группе больных с высоким операционным риском.

Показатели сердечной деятельности, измеренные в покое, слабо коррелируют с функциональными способностями сердца во время нагрузки и не позволяют характеризовать резервные и адаптационные возможности сердечно-сосудистой системы. В настоящее время для определения данного показателя применяются различные пробы с физической нагрузкой, однако нет специального способа оценки резервных возможностей сердечно-сосудистой системы для больных с ЭП. В связи с этим мы предлагаем применять легкий и удобный способ определения функционального класса (ФК) для каждого пациента –шестиминутный тест ходьбы, оценку которого проводили по классификации сердечной недостаточности, предложенной Нью-Йоркской ассоциацией сердца (NYHA).

Таблица 1.

Классификация функционального класса сердечной недостаточности, предложенная Нью-Йоркской ассоциацией сердца

Класс	Описание
I	Ограничения отсутствуют: привычная физическая активность не сопровождается быстрой утомляемостью, появлением одышки или сердцебиения
II	Незначительное ограничение физической активности: в покое симптомы отсутствуют, привычная физическая активность сопровождается утомляемостью, одышкой или сердцебиением
III	Заметное ограничение физической активности: в покое симптомы отсутствуют, физическая активность меньшей интенсивности по сравнению с привычными нагрузками сопровождается появлением симптомов
IV	Невозможность выполнить какую-либо физическую нагрузку без появления дискомфорта; симптомы сердечной недостаточности присутствуют в покое и усиливаются при минимальной физической активности

Такая нагрузочная проба требует минимального технического обеспечения и может проводиться в условиях любых лечебно-диагностических учреждений.

Такой метод нагрузочного исследования легче других выполняется у пожилых пациентов.

Для проведения теста достаточно попросить пациента в течение шести минут походить в удобном для него темпе по больничному коридору известной длины и замерить потраченное на это время. Этого достаточно для расчета максимального потребления кислорода при нагрузке, и, как следствие, для правильного распознавания стадии сердечной недостаточности.

Пациенты, проходящие за 6 мин более 551 м, не имеют признаков сердечной недостаточности; проходящие расстояние от 426 до 550 м относятся к I ФК, проходящие расстояние от 301 до 425 м – ко II ФК, от 151 до 300 м – к III ФК, а пациенты, проходящие за 6 минут менее 150 м относятся к IV ФК.

Выше указанные пробы проводили Кроме этого, резервные возможности сердца оценивали с учетом сердечного выброса на ЭХО-кардиографии**.**

Проведенные исследования показали, что скрытая сердечная недостаточность выявлена у 8(33,3% из 24) больных в возрасте до 45 лет, от 45 до 60 лет – у 20 (42,6% из 47), и у 8 (61,5% из 13) пациентов в возрасте более 60 лет. Соответственно, распределение больных по ФК показало следующее: у 21 (25,0%) больных была выявлена сердечная недостаточность I ФК, у 11 (13,1%) – II ФК, у 3 (3,6%) – III ФК и у 1 (1,19%) больного IV ФК (табл. 3.4). В целом, у 36 (42,9%) пациентов было диагностировано наличие скрытой формы сердечной недостаточности, а без признаков этого осложнения до операции было только 48 (57,1%) больных.

При выявлении сердечной патологии все больные были осмотрены кардиологом, с проведением курса корригирующей терапии. С целью коррекции явлений сердечной недостаточности и повышения резервных возможностей сердца, согласно стандартам лечения хронической сердечной недостаточности были назначены ингибиторы АПФ, β-адреноблокаторы, антагонисты рецепторов к альдостерону (верошпирон), диуретики (фуросемид, урегит, торасемид), сердечные гликозиды, непрямые антикоагулянты и метаболические препараты. При этом на фоне рекомендованного предоперационного лечения в среднем в течение 10-14 дней удалось снизить показатель проявления сердечной недостаточности. Однако, повторное обследование пациентов именно с оценкой нагрузочной пробы и началом программы по дозированному бандажированию, все же показало сохранение снижения резервных возможностей сердечно-сосудистой системы в 19 (20,2%) случаях, при этом по стандартным обследованиям (ЭКГ, ЭХОКГ) полученные данные соответствовали нормальным значениям (в пределах возрастных изменений). Следует отметить, что из

исследования были исключены пациенты с тяжелыми проявлениями сопутствующей патологии для формирования сопоставимых групп для анализа. причиной такого высокого показателя наличия скрытой сердечной недостаточности в исследуемой группе

Таким образом, у больных с ЭП выявлена высокая частота сопутствующей скрытой сердечной недостаточности, определенной по результатам проведения нагрузочной пробы у 42,9% больных.

Таблица 2.

Распределение больных с ЭП основной группы в зависимости от функционального класса сердечной недостаточности (n=244 после проведения нагрузочной пробы

Функциональные классы	До лечения		После рекомендованного курса терапии		После продленного курса терапии с дозированным бандажированием	
	абс.	%	абс.	%	абс.	%
Нет признаков сердечной недостаточности	48	57,1%	67	79,8%	77	91,7%
I ФК	21	25,0%	12	14,3%	6	7,1%
II ФК	11	13,1%	4	4,8%	1	1,2%
III ФК	3	3,6%	1	1,2%	0	0,0%
IV ФК	1	1,2%	0	0,0%	0	0,0%
Всего	84	100,0%	84	100,0%	84	100,0%
Критерий χ^2	27,395; Df=5; p<0,001					

При этом, стандартный подход к диагностике состояния сердечно-сосудистой системы (ЭКГ, ЭХОКГ) у этой категории пациентов может констатировать факт возможности выполнения операции только при нормализации данных, полученных без оценки резервных возможностей. В свою очередь динамическое обследование пациентов с проведением нагрузочных проб без или с дозированным бандажированием показало, что даже после стандартной подготовки больных к операции в 20,2% случаев сохраняются признаки скрытой сердечной недостаточности. Соответственно, повышение процессов адаптации сердечно-сосудистой системы к предстоящему хирургическому вмешательству на фоне пролонгированной консервативной терапии в совокупности, с дозированным бандажированием может обусловить улучшение функционального состояния больных и сократить группу с потенциально высоким риском оперативного лечения по этому

критерию с 42,9% - на фоне исходного состояния до 20,2% - на фоне подготовительной терапии в течение 7-14 суток и еще до 8,3% - на фоне пролонгированной до нормализации показателей нагрузочной пробы (ФК-0) в сочетании с дозированной компрессией брюшной полости.

Критериями готовности больных с ЭП к проведению операции были:

1. Показатели клинико-биохимических анализов – в пределах возрастных изменений.
2. Результаты инструментальных исследований – без грубых нарушений.
3. Обязательная подготовка желудочно-кишечного тракта.
4. Исследование ФВД – отсутствие признаков ДН или ДН 1 степени на фоне подготовительной дозированной абдоминальной компрессии.
5. Проведение пробы с шести минутной ходьбой – отсутствие скрытой сердечной недостаточности либо наличие не более чем ФК - I.
6. Исключение сопутствующей хирургической абдоминальной патологии или при ее выявлении возможность симультанного вмешательства.

REFERENCES

1. Вишневский В.А., Ефанов М.Г., Икрамов Р.З., Назаренко Н.А., Чжао А.В. Эхинококкоз печени. Хирургическое лечение. *Доказательная гастроэнтерология.* 2013;(2):18-25.
2. Алиев М.Ж., Раимкулов К.М., Ниязбеков К.И., Мусаев А.И., Жумашов Т.М. Способ профилактики остаточной полости при эхинококкозе печени. *Вестник хирургии имени И.И. Грекова*. 2021;180(6):68-
3. Magistri P, Pecchi A, Franceschini E, Pesi B, Guadagni S, Catellani B, Assirati G, Guidetti C, Guerrini GP, Tarantino G, Ballarin R, Codeluppi M, Morelli L, Coratti A, Di Benedetto F. Not just minor resections: robotic approach for cystic echinococcosis of the liver. Infection. 2019 Dec;47(6):973-979. doi: 10.1007/s15010-019-01333-2. Epub 2019 Jun 24. PMID: 31236898.
4. Шамсиев А.М., Юсупов Ш.А., Курбаниязов З.Б., Рахманов К.Э., Совершенствование диагностики и лечения различных морфологических форм эхинококкоза печени // Здобутки клінічної і експериментальної медицини. – 2016. – №1. – С. 85-90.
5. Smego RA Jr, Bhatti S, Khaliq AA, Beg MA. Percutaneous aspiration-injection-reaspiration drainage plus albendazole or mebendazole for hepatic cystic echinococcosis: a meta-analysis. Clin Infect Dis. 2003 Oct 15;37(8):1073-83. doi: 10.1086/378275. Epub 2003 Sep 23. PMID: 14523772.

6. Nasseri-Moghaddam S, Abrishami A, Taefi A, Malekzadeh R. Percutaneous needle aspiration, injection, and re-aspiration with or without benzimidazole coverage for uncomplicated hepatic hydatid cysts. Cochrane Database Syst Rev. 2011 Jan 19;2011(1):CD003623. doi: 10.1002/14651858.CD003623.pub3. PMID: 21249654; PMCID: PMC7388288.
7. Crippa FG, Bruno R, Brunetti E, Filice C. Echinococcal liver cysts: treatment with echo-guided percutaneous puncture PAIR for echinococcal liver cysts. Ital J Gastroenterol Hepatol. 1999 Dec;31(9):884-92. PMID: 10669999.
8. Тешаев О.Р., Аталиев А.Е., Шукуров А.А. Материалы XXII международного конгресса ассоциации гепатопанкреатобилиарных хирургов стран СНГ «Актуаальные проблемы гепатопанкреатобилиарной хирургии». 2015; С- 110.
9. Хайитов, И., & Аминжанов, А. (2023). РОЛЬ ЛАПАРОСКОПИЧЕСКИХ ВМЕШАТЕЛЬСТВ В ЛЕЧЕНИИ ЭХИНОКОККОВОЙ БОЛЕЗНИ ПЕЧЕНИ. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(2), 33-37.
10. Хайитов, И., Аминжанов, А., & Бабажанов, А. (2022). СИМУЛЬТАННЫЕ ОПЕРАЦИИ ПРИ ЭХИНОКОККОЗЕ ПЕЧЕНИ КАФЕДРА ХИРУРГИЧЕСКИХ БОЛЕЗНЕЙ ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 2(9), 56-60.
11. Хайитов, И., Аминжанов, А., & Бабажанов, А. (2022). ЭХИНОКОККОЗ ПЕЧЕНИ: ПРОБЛЕМЫ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ PUBMED). International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 2(9), 63-70.
12. Хайитов, И., Аминжанов, А., & Бабажанов, А. (2022). СИМУЛЬТАННЫЕ ОПЕРАЦИИ ПРИ ЭХИНОКОККОЗЕ ПЕЧЕНИ. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(10), 14-18.
13. Хайитов, И., Ўринбоев, Ж., & Ўткиров, М. (2022). ЛАПАРОСКОПИЧЕСКАЯ ЭХИНОКОККЭКТОМИЯ ПРИ ЭХИНОКОККОЗЕ ПЕЧЕНИ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(7), 14-23.
14. Хайитов, И., Ўринбоев, Ж., & Ўткиров, М. (2022). ЛАПАРОСКОПИЧЕСКАЯ ЭХИНОКОККЭКТОМИЯ ПРИ ЭХИНОКОККОЗЕ ПЕЧЕНИ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(7), 14-23.
15. Хайитов, И. Б. (2016). Роль абдоминопластики при протезирующей герниопластике у больных с послеоперационными и вентральными грыжами с отвислым животом. Журнал теоретической и клинической медицины, (6), 78-80.

16. Ilkhom, K. (2016). Experimental modeling hernia of anterior abdominal wall with abdomino-visceral obesity. European journal of biomedical and life sciences, (3), 35-38.
17. Тешаев, О., Хайитов, И., Бобомурадов, Ж., & Оганесян, К. (2015). Пути улучшения результатов хирургического лечения послеоперационных вентральных грыж у больных с ожирением. Журнал проблемы биологии и медицины, (2 (83)), 125-128.
18. Ilhom, H. (2015). The quality of life of patients with postoperative and ventral hernias and abdominal obesity before and after surgery. European journal of biomedical and life sciences, (4), 30-35.
19. Абдурахимов, Б., Хайитов, Ж., Сафаров, Х., & Улмасов, Ж. (2023). ОСОБЕННОСТИ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ РАБОТНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕДНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.
20. Khaitov, J. B. (2022). HYGIENIC ASSESSMENT OF BOILED SAUSAGES AND SAUSAGES PRODUCED BY «ROZMETOV»(UZBEKISTAN). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(12), 1382-1384.
21. Шайхова, Г. И., & Хайитов, Ж. Б. (2020). Гигиеническая оценка фактического питания детей-спортсменов, занимающихся шахматами. *Медицинские новости*, (5 (308)), 75-78.
22. Khaitov, J., Khakberdiev, K., & Kamilova, A. (2022). MUNG BEANS ARE A SOURCE OF PROTEIN AND A HIGH ENERGY SOURCE. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, *2*(12), 61-63.
23. Ниязова, О. А., & Хайитов, Ж. Б. (2018). оСновнЫе ПРИчИнЫ ПИЩевЫх оТРавленИй у ДеТей. *Детская медицина Северо-Запада*, *7*(1), 234-234.
24. Ниязова, О. А., & Хайитов, Ж. Б. (2018). Гигиеническая оценка питания учащихся медицинских колледжей. *Прикладные информационные аспекты медицины*, *21*(3), 63-66.
25. Axmadaliyeva, N., Imamova, A., Nigmatullayeva, D., Jalolov, N., & Niyazova, O. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog ‘lom turmush tarzini shakllantirishning dasturiy platformasi.

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
(E)ISSN:2181-1784
www.oriens.uz
3(4/2), April, 2023

БАҒРИКЕНГЛИК - ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИ БАРҚАРОРЛИГИНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР

Боймирзаева Моҳира Шавкатжоновна
Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучлар Академияси доценти

АННОТАЦИЯ

Мақолада Ўзбекистон жамияти этник, тил ва диний жиҳатдан маданий хилма-хиллик билан ажралиб туради. Ўзбекистон жамияти ҳудудида яшовчи этник гуруҳлар бирлашиб, ўзларини Ўзбекистонликлар сифатида кўрсатадилар.

Калит сўзлар: *Ўзбекистон, тил, дин, бағрикенглик, фалсафий қарашлар, қадрият.*

ANNOTATION

In the article, the society of Uzbekistan is characterized by ethnic, linguistic, religious and cultural diversity. Ethnic groups living on the territory of Uzbek society unite and position themselves as Uzbeks.

Key words: *Uzbekistan, language, religion, tolerance, philosophical views, values.*

КИРИШ

Кўп маданиятли дунё шаклланишининг замонавий шароитида биз инсониятнинг космик ва табиий ҳодиса сифатидаги қадриятининг чуқур асосларини, бошқа, бошқа маданият ва шахсга ҳурмат ва қадрли муносабат ҳақиқатини тушунишга яқинлашмоқдамиз. Бағрикенглик маданиятлараро мулоқотнинг зарурий жиҳати ҳисобланади. Бу нафақат ўз маданиятида, балки бошқа маданиятда ҳам асосий нарсани тушуниш, бошқа, бировнинг эътиқодида қадрият тамойилларини кўриш қобилияти, шунингдек, маънавий ва ахлоқий қадриятларга зид бўлмаган мафкуравий асосларни ажратиб олиш қобилиятидир. Бағрикенгликни маданий-фалсафий ўрганишга мурожаат қилиш чуқур цивилизациявий сабабларга эга, чунки у нафақат инсониятни ноёб космик ҳодиса сифатида, балки чуқур гуманистик ва ахлоқий-маънавий мотивларни акс эттирувчи маданий ҳодиса сифатида ҳам сақлаб қолиш учун муҳимдир.

Ўзбекистон жамияти этник, тил ва диний жиҳатдан маданий хилма-хиллик билан ажралиб туради. Ўзбекистон жамияти ҳудудида яшовчи этник гуруҳлар бирлашиб, ўзларини Ўзбекистонликлар сифатида кўрсатадилар. Бир томондан, бунинг объектив сабаблари бор. Биринчидан, бу барқарорликка қаратилган

тарихий шаклланган ижтимоий воқеликдир. Мамлакатимизда миллатлараро барқарор муносабатларни сақлаш ва ривожлантиришда узвийлик мавжуд. Шунингдек, бугунги кунда яхлит мустақил давлат барпо этиш, давлат чегарасини сақлаш, савдо-иқтисодий алоқаларни, халқаро алоқаларни ривожлантириш ва кенгайтириш, йирик ва ўрта бизнеснинг иқтисодий фаолиятини ривожлантириш учун шарт-шароитларни шакллантириш, кичик бизнесни жонлантириш учун шарт-шароит яратиш буларнинг барчаси миллатлараро муносабатларнинг хавфсиз ва тинч яшаши ва ривожланиши, давлатнинг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий мустақиллигини мустаҳкамлаш учун шароит яратади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистонда бу борада анча самарали ишлар амалга оширилган. Чунончи, 1998 йил 1 майда Ўзбекистон Республикасининг “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги қонунининг янги таҳрирдаги кўриниши қабул қилинди. Қонунда Ўзбекистон Республикасида дин ва диний ташкилотлар давлатдан ажратилганлиги кўрсатилган. Бу дегани давлат диний масалалар билан шуғулланмайди, диний ташкилот ва диний бошқарма ишларига аралашмайди. Дин ва диний ташкилотлар ҳам давлат ишларига аралашмаслиги лозим. Лекин диний ташкилотлар жамоат ишларида иштирок этиш ҳуқуқига эгалар [59]. Қонуннинг 9-моддасида кўрсатилишича, диний ташкилотларнинг марказий бошқарув органлари руҳонийларни ва ўзларига зарур бўлган диний ходимларни тайёрлаш учун диний ўқув юртлари тузишга ҳақли. Диний ўқув юртлари Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида рўйхатдан ўтказилиб, тегишли лицензия олганидан кейин фаолият кўрсатиш ҳуқуқига эга бўлади[60]. Олий ва ўрта диний ўқув юртларида таълим олиш учун фуқаролар Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонунига мувофиқ умумий мажбурий ўрта таълим олганидан кейин қабул қилинади. Диний таълим берувчилар махсус диний маълумоти бор кишилар бўлиб, болаларни ўқитиш учун диний бошқарманинг ёки марказнинг рухсатномасига эга бўлиши керак. Хусусий диний таълим беришга йўл қўйилмайди. Бу қонун-қоидаларни бузганлар қонун олдида жавобгардирлар.

Ҳозирги даврга келиб Ўзбекистон жамиятида этник гуруҳларнинг ўзига хос ва ўзига мос маданиятини сақлаш, тилларни асраб-авайлаш ва ривожлантириш учун шароитлар яратилди. Шу муносабат билан олиб

[59] http://lex.uz/docs/65108 618-I-сон 01.05.1998. «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги қонун, 5-модда.
[60] http://lex.uz/docs/65108 618-I-сон 01.05.1998. «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги қонун, 5-модда.

борилаётган маданий сиёсат маданий-этник марказлар, мактаблар, турли маданият ташкилотларини ташкил этишни назарда тутди. АҚШнинг нуфузли “The Washington Times” газетасида эълон қилинган Л.Тод Вуднинг “Ўзбекистон диний бағрикенглик қарор топган юрт” мақоласида эътироф этилишича, “Исломнинг асл моҳиятини, уни араблар ёки радикаллар билан боғламасдан, чуқур тушуниш учун, албатта, сайёҳ сифатида ушбу заминга бориш керак. Шундан бир неча юз чақирим нарида - Афғонистонда бўлаётган уруш бир неча ўн йиллардан бери одамларнинг тинкасини қуритаётган бўлса, Ўзбекистонда христианлар, яҳудийлар ва мусулмонлар Самарқанд шаҳридаги ҳазрати Дониёр мақбараси муқаддас қадамжосида биргаликда дуо ўқишади, зиёрат қилишади”[61].

Ўзбекистон жамиятида бағрикенглик стратегияси шакллантирилмоқда, у сўнгги йилларда ижтимоий маданият ва муносабатларнинг сифат мезони, когнитив идеал, амалий, экзистенциал мотив ва ҳаракат йўриқномаси, шунингдек, цивилизация динамикасининг энг муҳим белгисига айланди.

Ўзбекистон жамиятининг ижтимоий-сиёсий ва маданий тузилишининг ўзига хос хусусияти шундаки, этник гуруҳларнинг бўлиниши уларнинг ҳудудий бўлиниши билан боғлиқ эмас. Шу нуқтаи назардан, цивилизациялар ўртасидаги фарқ диннинг тарихи, анъанаси, менталитетига бориб тақалишини эслаймиз. Бу фарқлар зўравонликка олиб келиши шарт эмас. Турли цивилизацияларда фалсафий қарашлар, фундаментал қадриятлар, ижтимоий муносабатлар, урф-одатлар ва ҳаётга умумий қарашлар сезиларли даражада фарқланади. Дунёнинг аксарият мамлакатларида диннинг қайта туғилиши бу маданий фарқларни кучайтирмоқда. С.Ҳантингтон цивилизациялар тўқнашувига сабаб бўладиган бир қанча омилларни белгилайди, улар орасида маданият, ахлоқ, қадрият соҳасидаги тафовутлар мавжуд. Ўзбекистон халқларининг маданий ва цивилизациявий бўлиниши этник ва бошқа низоларга олиб келмайди. Асосий этник гуруҳлар ўртасидаги "цивилизациявий" бўлиниш екстремал ва инқирозли шаклларни олмайди. Ўзбекистон жамиятида сиёсий, иқтисодий, маданий муносабатларнинг ривожланишига унинг "биполяр тузилиши" таъсир кўрсатади.

Асосий сиёсий стратегиялар, турли даражадаги ва миқёсдаги мумкин бўлган тўқнашувлар, шунингдек, этник гуруҳлар ўртасидаги рақобат республикада яшовчи икки асосий этник гуруҳ ўртасидаги муносабатлар ва ўзаро муносабатлар сиёсатига боғлиқ. Маданият ва тил соҳасидаги вазият "глобал" ўзгаришларга, қарама-қаршиликларга ва ижтимоий кескинликларга

[61] Интернет манба. http://dkm.gov.uz/uz/manaviat-va-bagrikenglik-kelazagimiz-va-takdirimiz-vazifasi

тобе эмас. Ўзбек тилининг ишлаши Ўзбекистон жамияти ҳаётининг барча асосий соҳаларида ҳали ҳам қўллаб-қувватланади. Бу миллий-маданий сиёсат Ўзбекистон жамиятида барқарорликни таъминлаш сифатида кўрилмоқда. Ушбу сиёсатни амалга ошириш ва унинг жамият онгида акс этишида давлатнинг ўзи, қабул қилаётган қонунчилик қарорлари, амалий чора-тадбирлари, асосий ижтимоий соҳа ва институтлардаги ислоҳотлар муҳим рол ўйнайди.

Бағрикенглик – Ўзбекистон Республикасидаги миллатлараро барқарорликнинг сиёсий-мафкуравий, ижтимоий-маданий, маънавий-аксиологик изоҳидир. Бағрикенглик элементлари Ўзбекистон жамиятидаги миллатлараро, маданий, ижтимоий-сиёсий муносабатларга хосдир. Бироқ бағрикенглик ҳар доим ҳам республикадаги миллатлараро барқарорликнинг якуний ёки асосий сабаби сифатида қабул қилинавермайди ва талқин этилмайди. Давлат ва жамиятдаги бағрикенглик меъёрларини “қисман”, маҳаллий институционаллаштириш ва умумлаштириш, ижтимоий тузилмаларнинг ўзгариши, демографик динамика, маданий глобаллашув, анъаналарни ўртачалаштириш ва тенглаштиришга қадриятлар йўналишининг ўзгариши, коммуникатив муҳитнинг глобаллашуви, ахборот оқимлари, ижтимоий ва маданий қадриятлар Ўзбекистон жамиятида бағрикенглик тамойилларини тушунтириш ва ривожлантиришга таъсир қилади. Замонавий Ўзбекистонда миллатлараро бағрикенгликнинг асосий сабаби ва номувофиқ этник гуруҳларни маданий ва тилда ассимиляция қилиш бўйича қатъий сиёсатнинг йўқлиги сифатида асосий этник гуруҳлар ўртасида ўзига хос ижтимоий шартноманинг сўзсиз келишуви мавжудлигини қайд этиш мумкин. Бу ижтимоий бутунлик таркибидаги анъаналар, этник қадриятларнинг асосий ижтимоий ва маданий функцияларини белгилайди.

Ўзбекистон жамияти ривожланишининг ҳозирги босқичидаги Ўзбекистон тажрибаси кўп миллатли жамият ҳаётининг ўзаро боғлиқлигини тушунишда алоҳида ҳолатлар ва баҳолар билан тавсифланади. Жамиятда кенг тарқалган ижтимоий ҳаётнинг кўп жиҳатдан диний соҳадан ташқарида бўлган мақсадлари ва шакллари этник ва конфессиявий гуруҳлар ўртасидаги мулоқотнинг чуқурлашишига олиб келади. Ўзбекистон жамиятида кўп жиҳатдан "умумий", яхлит ижтимоий тажриба, жамиятнинг қадриятлари ва умидлари, маданий эҳтиёжлар, хавфсизлик талаблари, модернизация ва трансформация эҳтиёжлари устуворлиги мавжуд. Ижтимоий муносабатлар ва ўзаро муносабатларнинг янги сифатини шакллантириш қисман ижтимоий ва этник фарқларни бартараф этиш орқали содир бўлади. Чунки, айнан “Бағрикенглик – ўзгаларнинг дунёқараши, диний эътиқоди, миллий ва этник хусусиятлари, анъана-маросимларига ҳурмат-

эҳтиромда бўлиш, муомала-муносабатида камситиш ва таҳқирлашларга йўл қўймаслик, инсонийликни ҳамма нарсадан устун ҳисоблаб, уларга риоя этишни англатади”[62].

Толерантлик маҳаллий аҳолининг бошқа миллат ва дин вакилларига хайрихоҳлиги, уларни таъқиб этмаслигидан далолатдир. Умумий бағрикенглик цивилизациялашган жамият ҳодисасидир. Маълумки, бундай фазилат бир кунда юзага келмайди. Бу халқ онги, урф-одатлари, маънавий бойлиги етуклигининг ёрқин ифодасидир. Шу нуқтаи назардан қараганда, Ўзбекистонда жамоатчилик билан алоқалар маълум даражада янги босқичга кўтарилганини кўрамиз.

Мамлакатимизда миллатлараро тинчлик тантанаси давлатимиз асоси бўлган ўзбек халқининг сиёсий маданияти юксаклигидан далолатдир. Бизга маълумки, бағрикенглик катта қадрият. Бу мустақиллик туфайли эришилган муҳим ютуқ, десак муболаға бўлмайди. Ўзбекистон Марказий Осиёда миллатлараро тинчликни сақлаган ва бўлинишнинг олдини олган ягона давлатдир. Бугун бепоён Ўзбекистон заминида ёшларга бир қанча тилларда таълим берадиган мактаблар фаолият кўрсатмоқда. Маълумки, бундай таълим муассасаларининг барча харажатларини ҳукуматимиз ўз зиммасига олади. Бундан мамлакатда бошқа миллат вакиллари учун яратилган шарт-шароитларга баҳо бериш мумкин. Яна шуни айтиш керакки, бундай мактаблар бошқа миллат ёшларининг ўзбек тилини ўрганишига ҳам асос бўлмоқда. Бундан ташқари, мамлакатда турли тилда радио дастурлари эфирга узатилаётгани маълум. Бу катта ютуқ, дейишимиз мумкин.

Ўзбекистонда этник озчиликларнинг эҳтиёжларини қондириш, миллатлараро муносабатларда тотувликни ўрнатиш учун энг яхши шарт-шароит яратилган. Таъкидлаш жоизки, барча халқларнинг фуқаролик, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича кўрилаётган чора-тадбирлар халқаро стандартларга жавоб беради ва бошқа давлатлар учун ҳам намуна бўла олади. Шу билан бирга, Ўзбекистонда олиб борилаётган ички сиёсатнинг яна бир афзаллиги фуқароларни турли динларга бағрикенглик руҳида тарбиялашдир. Мамлакатимизнинг турли ҳудудларида кейинги йилларда вужудга келган турли диний муассасаларнинг (масжидлар, православ черковлари, католик черковлари, ибодатхоналари ва бошқалар) жонланиши давлат томонидан жамиятнинг баркамол ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратилганидан далолат беради. Ўзбекистондаги ижтимоий-

[62] Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли луғати. - Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи. 2009 йил. 68-бет.

сиёсий вазият таҳлил қилинса, бу заминда ҳеч бир миллатга ксенофобик муносабат йўқлигини дарҳол кўрсатади. Совет Иттифоқи томонидан ўзбек халқи очлик ва репрессиялардан жуда кўп азоб чекди. Лекин биз СССРнинг ҳуқуқий вориси Россияга нисбатан нафрат кўрсатмадик. Бошқа мамлакатларда эса бунинг акси. Ҳатто Россия бугун ҳам Кавказ ва Марказий Осиёдаги айрим халқларга нисбатан салбий муносабатдан қутула олмаяпти. Ҳатто цивилизация чўққисига чиққан Францияда ҳам ислом динига қарама-қарши қарашлар мавжуд ва у катта муаммога айланиб бораётгани ҳеч кимга сир эмас. Шуларни ҳисобга олиб, юртимиздаги бағрикенг жамиятнинг маъно-мазмунини англай бошлайсиз. Шуларни ҳисобга олиб, юртимиздаги бағрикенг жамиятнинг маъно-мазмунини англай бошлайсиз.

Келажакда бағрикенглик халқимизнинг кундалик турмушида одат ва анъанага айланиши керак. Толерант жамият орқали миллий ўзлигимизни йўқ қилмаслигимиз кераклигини ҳам таъкидлашимиз керак. Аксинча, бағрикенг жамиятдан фойдаланиб, тил ва миллий устунликка эришиш йўлларини кўриб чиқишимиз керак. Шу билан бирга, Президентимизни тил сиёсатини қўллаб-қувватлашимиз, ўзбек тилини ривожлантиришга ҳисса қўшишимиз керак. Зеро, ўзбек маданияти жаҳон цивилизациясининг устунларидан биридир. Келажакда маданиятимиз инсоният цивилизацияси озуқасига айланиши керак. Ижтимоий тотувлик давлатнинг барқарор ривожланишининг кафолати эканлигини тўғри тушунимиз керак. Жамият бу жараёнда эркин танлов орқали иштирок этиши муҳим ҳисобланади. Ижтимоий тотувлик йўлида миллатлараро ва конфессияларо муносабатлар соҳасидаги йўналишларни белгилашда давлат ва фуқаролик жамияти институтларининг ҳамкорликда ишлаши муҳим аҳамиятга эга.

Кўриб турганимиздек, ижтимоий тотувлик муҳим сиёсий-мафкуравий қадриятга айланди. У миллий манфаатларимиздан чуқур илдиз отиб, жамиятнинг самарали иқтисодий ва сиёсий ривожланишининг асосий шарти бўлиб, унинг қиёфасини белгилайди. Шу маънода ижтимоий тотувлик тамойили “ижтимоий тотувлик ва сиёсий барқарорликни” таъминлашда давлат ва фуқаролик жамияти институтларининг ролини белгилаб берувчи Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг асл моҳиятини очиб беради. Ўз навбатида, Конституция жамият тараққиётида қудратли бирлаштирувчи куч бўлиб, фуқароларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётда тўлиқ иштирок этиши, ўз сиёсий қарорларига таъсир ўтказиш имконини беради.

ХУЛОСА

Хуллас, мамлакат бойлигини икки баравар оширишга қаратилган узоқни

кўзлаб олиб борилаётган сиёсат натижасида иқтисодий ўсиш билан бирга мамлакатимизда миллий бирлик, барқарор тараққиёт, тинчлик-осойишталик қадриятлари асосида янги Ўзбекистонда ўзига хос анъана ва менталитетнинг асоси шаклланди. Бу қадриятлар ижтимоий мафкуранинг асосини ташкил этади. Жамият буни чуқур қабул қилади ва шу билан яшайди. Асосий қадриятлар Янги Ўзбекистонни бирлаштирувчи омилга айланди. Дунёда кўп миллатли давлатлар мавжуд. Бироқ, бугунги кунда дунё сиёсий ва иқтисодий ҳаёт соҳасидаги сўнгги инқирозларнинг совуқлиги кўп миллатли мамлакатнинг фаровонлиги ва бирлигини бузмаган Ўзбекистон каби давлатни ҳодиса сифатида қабул қилмоқда.

REFERENCES

1. http://lex.uz/docs/65108 618-I-сон 01.05.1998. «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги қонун, 5-модда.
2. http://lex.uz/docs/65108 618-I-сон 01.05.1998. «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги қонун, 5-модда.
3. Интернет манба. http://dkm.gov.uz/uz/manaviat-va-bagrikenglik-kelazagimiz-va-takdirimiz-vazifasi
4. Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли луғати. - Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи. 2009 йил. 68-бет.

UMURTQASIZ HAYVONLAR ZOOLOGIYASI FANINING “JAG’SIZLAR” MODULINI O’QITISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH

Muqimov Muhammad Karim Adhamovich
Farg’ona davlat universiteti
Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi o’qituvchisi,
El.pochta. muqimovmuhammadkarim7@gmail.com
Tel: +998904080862

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi fanidan nostandart testlar tuzish va uni qo’llash uslubiyoti to’g’risida fikrlar va misollar bayon etiladi.

Kalit so’zlar. *Nostandart test, bilim, ko’nikma, malaka, integratsiya.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены идеи и примеры по методике создания и применения нестандартных тестов в науке о зоологии беспозвоночных.

Ключевые слова. *Нестандартный тест, знания, навыки, компетентность, интеграция.*

ANNOTATION

In this article, ideas and examples are presented on the method of creating and applying non-standard tests in the science of invertebrate zoology.

Key words*. Non-standard test, knowledge, skills, competence, integration.*

KIRISH

Nostandart testlar mazmuni bo’yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig’i savoli va to’g’ri va noto’g’ri javoblardan iborat bo’lsa, nostandart testlar o’zining mazmuni, tuzilishi va qo’llanish maqsadiga ko’ra muayyan darajada farq qiladi.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko’ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Integrativ testlar;

Adaptiv testlar;

Mezonli-mo’ljal olish testlari.

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo’yicha o’sib boruvchi, bitiruvchining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o`quvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabaning egallashi mumkin bo’lgan bali va test

natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, o`quvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin.Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mezonli-mo'ljal olish testlari o`quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur fanning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Mazkur test topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o'quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi,ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi, mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o'tkaziladi, pirovard natijada o`quvchilarning shu fanni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa tayyorlanadi. Mezonli-mo'ljal olish test sinovlari orqali o`quvchilarning bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi. Yuqorida qayd etilgan nostandart test topshiriqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni o`quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi.Shu sababli,test topshiriqlari mazmunini tanlash printsiplari haqida fikr yuritish lozim.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar:

Test topshirig'i mazmunining to'g'riligi;

Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi;

Test topshirig'i shaklining to'g'riligi;

Test topshirig'ining savol va javobning qisqaligi;

Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi;

Test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi;

O`quvchilarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi;

Ko'rsatmalarning test topshirig'i va mazmuniga mosligi.

Natijalar va muxokama. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, Farg'ona davlat universiteti biologiya yo'nalishi talabalari uchun "Jag'sizlar" modulini o'qitishda, talabalarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda nostandart testlar ishlab chiqildi.

1. Atamalar bilan ishlash uchun o‘quv topshiriqlari

Atamalar raqamini ularning ta’rifi bilan juftlang.

1.	ANAMNIA	A	Minoganing hidlash xaltasidan chiqqan kovak o’simta
2.	AGNATHA	B	Jinsiy maxsulot saqlovchi a’zo
3.	CYCLOSTOMATA	D	Murtak pardasiz umurtqalilar
4.	PITUITAR O’SIMTA	E	Oddiy miksina
5.	VOLF KANALI	F	Jag’sizlar katta sinfi
6.	GONADA	H	Siydik chiqaruv nayi
7.	MYXINEFORMES	G	To’garak og’izlilar sinfi
8.	PETROMYZONIFORMES	J	Minogalar turkumi
9.	MYXINA GLUTINOSA	K	Dengiz minogasi
10.	PETROMYZON MARINUS	L	Miksinalar turkumi

***Topshiriq javobi**: 1-D; 2-F; 3-G; 4- A; 5- H; 6 -B; 7 –L; 8 -J; 9 -E;10- K.*

2. Klaster vositasida nazorat qilish

Jag’sizlar katta sinfini sistematik guruhlarga ajrating. Raqamlar o‘rniga sinf, turkum va turlar nomlarni mos xolda yozing.



3. Talabalarning ob’ektlarni tanish va jarayonlarni tushunishi uchun rasmli topshiriqlar.

Rasmga izoh yozing. Minoganing skeleti:



JAVOBLARI: 1 — miya plastinkasi, 2 — hidlov kapsulasi, 3 — eshitish kapsulasi, 4 — ko‘z osti tog‘ay, 5 — xalqa tog‘ay, 6 — oldingi yuqori tog‘ay, 7 — keyingi yuqori tog‘ay, 8 — oldingi yon tog‘ay, 9 — orqa yon tog‘ay, 10 — tayoqsimon tog‘ay, 11 — o‘rta pastki tog‘ay, 12 — til osti tog‘ay, 13 — komissura, 14 — jabra yoylari, 15 — yurak oldi tog‘ay, 16 — xorda, 17 — umurtqalarning murtak holdagi ko‘rinishi.

4. Jarayonlarning ketma ketligini aniqlash uchun topshiriqlar.

To’garak og’izlilarda ovqat hazm qilish jarayonini ketma – ketlik zanjirini tuzing

1. og‘iz oldi voronkasi
2. og’iz teshigi
3. ikki qismga ajralgan halqum
4. qizilo’ngach
5.ichak.
6. jigar

Yuqoridagi nostandart testlar yordamida tashkillangan dars mashg’ulotlari talabalarning dars mshg’uloti paytida bo’sh qolishini oldini olish bilan bir qatorda bilim va ko’nikmalarini yanada mustahkamlashga hizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi nostandart test topshiriqlari yordamida talabalarning dars mashg’ulotiga bo’lgan qiziqishi ortdi hamda o’tilgan

dars yuzasidan bilim va ko'nikmalar shakllandi. Kelgusi dars mashg'ulotlari uchun ham shu ko'rinishdagi testlar ishlab chiqish rejalshtirib olindi.

REFERENCES

1. Diane Belcher, Ann M. Johns, Brian Paltridge. New directions in English for specific purposes research. The University of Michigan Press. 2011.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.–279b.
3. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Toshkent, "Ilm-Ziyo" nashriyoti, 2012. 12 b.t.
4. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedgogik oily ta'lim muassasalari uchun). – TDPU, 2013. 15,25 b.t.
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Toshkent, «Fan va texnologiyalar», 2013. 8 b.t.

BOLALAR BOSH MIYA FALAJI KASALLIGINI DAVOLASHDA ISHLATILADIGAN AYRIM SINTETIK VOSITALARNING KIMYOVIY TARKIBI

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
ADU Kimyo kafedrasi professori, k.f.d., O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, O‘zbekiston tibbiy-ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar “Tabobat” akademiyasi raisi.
Mamaraxmonov Muhamatdin Xomidovich
ADU Kimyo kafedrasi dotsentri, k.f.f.d. (PhD), O‘zbekiston tibbiy-ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar “Tabobat” akademiyasi a’zosi.
Qamchiyeva Sharifaxon Abduvahobovna
AndDU 2-kurs magistranti.
sharifaxonqamchiyeva1991@gmail.com.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalar miya falaji kasalligini davolashda ishlatiladigan ayrim sintetik dori vositalarning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar. *Bolalar miya falaji, miorelaksant, nootrop, fenibut, sirdalud, midokalm, pantogam.*

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ НЕКОТОРЫХ СИНТЕТИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ДЕТСКОГО ЦЕРЕБРАЛЬНОГО ПАРАЛИЗА

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о химическом составе и свойствах некоторых синтетических препаратов, применяемых при лечении детей с детским церебральным параличом.

Ключевые слова. *Детям с ДЦП, миорелаксанты, ноотропы, фенибут, сирдалуд, мидокалм, пантогам.*

CHEMICAL COMPOSITION OF SOME SYNTHETIC MEDICINES USED IN THE TREATMENT OF CHILDREN'S CEREBRAL PALSY DISEASE

ABSTRACT

This article provides information on the chemical composition and properties of some synthetic drugs used in the treatment of children with cerebral palsy.

Keywords. *Children with cerebral palsy, muscle relaxants, nootropics, phenibut, sirdalud, mydocalm, pantogam.*

KIRISH

Hozirgi kunda bolalar orasida eng ko`p tarqalgan kasalliklardan biri bosh miya falaji hisoblanadi. Bosh miya falaji – bola bosh miyasining ona homiladorlik davrida yoki tug`ruqning birinchi haftasida o`tkazilgan shikastlanishlari yoki ma`lum bir boshqa kasalliklar tufayli paydo bo`lgan harakat funksiyasini buzilishi bilan kechadigan surunkali va rivojlanmaydigan bosh miya kasalligi hisoblanadi.

Bolalar miya falajining barcha ko‘rinishlarida mushaklar tonusi oshib ketadi. Oyoq-qo‘llarda harakat chegaralanadi, bo‘g‘imlarda harakat yo‘qoladi, natijada oyoq qo‘llar mushaklari falajlikka uchraydi va ular tanaga nisbatan nomutanosib holatga keladi.

Bolalar miya falajini davolashda tibbiy davo faqatgina ayrim belgilarini bartaraf etish uchungina qo‘llaniladi. Masalan, epilepsiya holatlarida antikonvulsantlar, mushaklar tonusi oshgan vaqtida miorelaksantlar, og‘riq sindromini bartaraf etishda spazmolitik va og‘riq sizlantiruvchi preparatlar buyuriladi. Bundan tashqari bolalarga nootrop, metaboliklar (ATF, aminokislotalar, glitsin), neostigmin, antidepressantlar, trankvilizatorlar, neyroleptiklar, qon tomirlar devorini mustahkamlovchi preparatlar beriladi.

Hozirgi kunda farmaseftik firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan bolalar bosh miya falaji kasalligini davolash xususiyatiga ega bo`lgan “Fenibut”, “Andipal”, “Sirdalud”, “Pantogam”, “Midokalm”, “Diazepam”, “Baklofen”, “Vitamin B6”, “Alcheba”, “Korteksin” kabi bir nechta sintetik dori vositalari qo`llanilib kelinmoqda. Lekin, mazkur dori vositalari bolalar bosh miya falaji kasalligini davolash xususiyatiga ega, ammo ularning inson organizmida parchalanishi natijasida hosil bo`lgan yonaki birikmalar buyrak, jigar, taloq kabi muhim organlarning faoliyati buzilishiga olib kelmoqda. Quyida shunday sintetik dori vositalarining ayrimlari haqida ma`lumotlar keltirilgan:

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fenibut (γ-amino-β-fenilmoy kislota) — anksiolitik va nootrop vosita, γ-aminomoy neyromediatorining β-fenil unumi. Oq kristallik kukun. Ta’mi nordonroq. Suvda juda yaxshi eriydi, spirtda eriydigan; suvli (2,5%) eritmaning pH qiymati 2,3-2,7 ni tashkil qiladi.Ushbu birikma miya faolligida muhim rol o’ynaydi. Uni qabul qilish asab to’qimalarining modda almashinuvini va bir vaqtning o’zida neyronlar orasida signallar uzatilishini normallashtiradi. Xususan, fenibut kortiko-subkortikal

aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi, bu esa bosh miya po'stlog'ining turli bo'limlari orasidagi o'zaro ta'sir effektini oshiradi.



4-amino-3-fenilbutan kislota.

Ushbu dori vositasi 8 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga odatda kuniga 3 marta 250 mg dan kattalar dozasida beriladi.

Nojo`ya ta`siri: Preparatni har doim qabul qilish bolalarda ko'ngil aynishi, qusish, qon bosimining pasayishi, uyquchanlik, buyrak yetishmovchiligi, jigarning yog'li distrofiyasi kabi nojo`ya belgilarni keltirib chiqarishi mumkin.

Sirdalud – Tizanidin gidroxloridi ($C_9H_8ClN_5S$) kimyoviy formulaga ega bo`lib, oq rangli, chetlari qiya, riskali va bir tomonida "OZ" yozuvi bo'lgan yassi markaziy ta'sirga ega miorelaksantdir. Tizanidin tez so'riladi. Qon plazmasidagi maksimal konsentrasiyasiga preparatni qabul qilinganidan keyin taxminan 1 soat o'tgach erishiladi. Biologik kirisha olishligining o'rtacha mutloq ko'rsatkichi taxminan 34% ni tashkil qiladi.



(5-xlor-N-(4,5-digidro-1H-imidazol-2-il)-1,2,3-benzotiadazol-4-amingidroxloridi.

Nojo`ya ta`siri: Ushbu preparatni iste`mol qilgan bemorlarda uyquchanlik, charchoqlik, bosh aylanishi, og'izni qurishi, arterial bosimni pasayishi, ko'ngil aynishi, me'da-ichak yo'llari tomonidan buzilishlar va qon zardobida transaminaza darajasini oshishi,kam hollarda – o'tkir gepatit, jigar yetishmovchiligi kabi nojo'ya reaksiyalar kuzatiladi.

Midokalm – asosiy tarkibi tolperizon gidroxloridi ($C_{16}H_{23}NO*HCl$). Qobiq bilan qoplangan tabletkalar achchiq ta`mli, suvda yaxshi eriydi. Tolperizon markaziy ta`sir etuvchi miorelaksant bo`lib, mushaklardagi tonusni pasaytiruvchi samarali dori

vositasi hisoblanadi. Bolalar bosh miya falajini davolashda tana vazni 30 kg dan ortiq bolalarga tana vazniga 2-4 mg/kg sutkalik dozada uch marta qabul qilishga buyuriladi.



(2-metil-1-(4-metilfenil)-3-(1-piperinidil)-1-propanon gidroxloridi

Nojo`ya ta`siri: Ushbu dori preparati kuchli katalitik ta`sirga ega bo`lib, teri va teriosti to`qimalar tomonidan buzilishlar, umumiy, nevrologik va me`da-ichak, jigar, buyrak funksiyalarining buzilishiga olib keladi.

Pantogam – gopantenik kislota ($C_{10}H_{19}NO_5$). Nootrop vosita. Pantogamning ta‘sir doirasi uning strukturasida gamma-aminomoy kislotasining bo‘lishi bilan bog‘liq. Preparat nootrop va tirishishga qarshi ta‘sirlarga ega. Preparat miyaning gipoksiyaga va toksik moddalarning ta‘siriga chidamliligini oshiradi, neyronlarda anabolik jarayonlarni rag‘batlantiradi, o‘rtacha sedativ ta‘siri yengil rag‘batlantiruvchi samarasi bilan qo‘shiladi, motor qo‘zg‘aluvchanlikni kamaytiradi, aqliy va jismoniy ish qobiliyatini faollashtiradi. Preparat bolalarga, yoshi va nerv tizimining patologiyasiga qarab, quyidagi dozalar diapazoni tavsiya qilinadi.



(R)-4-(2,4-digidroksi-3,3-dimetil-1-oksobutil) aminobutan kislota.

Nojo`ya ta`siri: Bu dori vositasidan muntazam foydalanilganda allergik reaksiyalar, kam hollarda markaziy nerv tizimi tomonidan noxush reaksiyalar kuzatilishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, xulosa o`rnida “Bolalar bosh miya falaji” kasalligini davolashda ishlatiladigan sintetik dori vositalari organizm uchun zararliligi tufayli, ulardan foydalanishda juda ehtiyotkor bo`lish tavsiya etiladi.

Zamonaviy tibbiy davo choralariga qo`shimcha shaklda tabiiy vositalardan ham foydalanish mumkin. Bugungi kunda xalq tabobatidagi bir qator tavsiyalar falajlikni yengillashtirishda fizioterapevtik muolajalar bilan birgalikda qo`llanilmoqda. O`zbekiston respublikasi SSV da ro`yhatga olingan Shifoi bosim, Nishifo, Asdavo, Askalsiy, Antivir 101 kabi tabiiy, biologik faol oziq-ovqat qo`shilmalarini tartibli

ravishda iste`mol qilish falajlik va titroq kasalliklarini davolashda yaxshi samara beradi. Chunki mazkur oziq-ovqat qo`shilmalari tabiiyligi, inson organizmi uchun bezararligi bilan yuqorida aytib o`tilgan ayrim sintetik dori vositalaridan ustun ekanligi aniqlangan.

REFERENCES

1. Asqarov I.R. Tabobat qomusi. Toshkent. “Mumtoz so`z”. Toshkent-2019 y.
2. Asqarov I.R. Sirli tabobat. – T: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”,2021. (748-bet)
3. 3.https://uz.mwikipedia. https://avitsenna.uz. https://mymedic.uz.
4. Klyuyev M.A. Tabobatda ishlatiladigan dori-darmonlar. Toshkent.”Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi”,1995.
5. Машковский М.Д. Лекарственные средства I-II. Ташкент. “Медицина” 1989.
6. Справочник видаль. Лекарственные препараты в Узбекистане. “АстраФармСервис” 2008

DETERMINATION OF SPEED OF SOUND AS A FUNCTION OF TEMPERATURE USING BME280

Kuchkorov Akhlidin Mirzokhid ugli
Fergana State University, Fergana, Uzbekistan
ahliddin93@yahoo.com

ABSTRACT

The integration of coding and tinkering with various forms of art in learning strategies has become essential in education, including physics education. However, the lack of laboratory equipment and expensive instruments in most schools limits students' hands-on experience with physics. The emergence of Arduino provides a cost-effective solution to this problem. Arduino is an open-source platform composed of electronic boards, sensors, and expansion boards, initially developed in Italy by a team lead by Massimo Banzi. The platform has rapidly become an international standard for various projects worldwide due to its low cost and free availability of its hardware design and software. Arduino UNO board, the simplest and most widely used board in the platform, is suitable for the purpose of a physics laboratory. This article provides an overview of the Arduino platform and the most important programming tools for using it as a tool for doing physics, together with examples of experiments, illustrating how Arduino can be a useful tool for a physics teacher, even for those unfamiliar with it.

Key words. *arduino, physics education, laboratory equipment, open-source platform, electronic boards, sensors, expansion boards, programming tools, Arduino IDE software, experiments, speed of sound, temperature.*

INTRODUCTION

Determining the speed of sound as a function of temperature has always been a fascinating topic in physics education. The success of scientific methodology is a key factor in teaching physics, and integrating different disciplines in learning strategies has become very important. In this context, Arduino is an open-source platform that is emerging as a useful tool for physics teachers, as it allows each student to perform a lot of experiments and measurements with limited investment. In this article, we will describe the Arduino platform and the most important programming tools for using it as a tool for doing physics, together with examples of experiments. We will begin with an overview of Arduino, which is composed of electronic boards, sensors, and expansion boards, as well as a software development environment. The platform

is available at low cost, and the free availability of its hardware design and software has made it a popular tool for various kinds of projects, from fast prototyping to the Internet of Things (IoT) projects. The most widely used board is the Arduino UNO, which has 14 digital I/O pins, six analog inputs, and power ports providing a 5 V and 3.3 V source together with the ground reference. A USB connection allows a user to program the chip using the Integrated Development Environment (IDE) software, and the program is transferred to the Arduino memory that starts immediately executing it every time it is powered on. With the availability of such a platform, students can be encouraged to develop their abilities in applying similar strategies in everyday life, rather than expect them to be able to solve problems that they may never face. In this paper, we will illustrate how Arduino can be a useful tool for a physics teacher, and provide examples of how it can be used to determine the speed of sound as a function of temperature.

MATERIALS AND METHODS

In this study, we used an Arduino UNO board to determine the speed of sound as a function of temperature. The Arduino UNO board is a low-cost microcontroller board composed of electronic boards, sensors, and expansion boards. The board has 14 digital I/O pins, six of which can be used as Pulse Width Modulation (PWM) outputs, and six analog inputs. The board is powered by a USB cable connected to a PC or an external source. The programming of the board was done using the Arduino IDE software, which is freely available from the Arduino website.

To measure the speed of sound, we used a speaker connected to one of the PWM outputs of the board, and a microphone connected to one of the analog inputs. We placed the speaker and the microphone at a fixed distance from each other and measured the time it took for the sound to travel from the speaker to the microphone. We repeated this measurement at different temperatures ranging from 20°C to 40°C, using a temperature sensor connected to one of the analog inputs of the board. The temperature sensor was calibrated before use to ensure accurate temperature measurements.

We wrote a program in the Arduino IDE software that controlled the speaker and the microphone, and recorded the time it took for the sound to travel from the speaker to the microphone. The program also recorded the temperature measured by the temperature sensor. We repeated the measurements at each temperature three times to ensure the reliability of the results.

The data collected from the measurements were analyzed using Python programming language. We plotted the time it took for the sound to travel from the

speaker to the microphone as a function of temperature and used linear regression analysis to determine the slope of the line, which corresponds to the speed of sound as a function of temperature. The uncertainties in the measurements were estimated using the standard deviation of the three measurements at each temperature.

In conclusion, we used an Arduino UNO board and the Arduino IDE software to determine the speed of sound as a function of temperature. The experimental setup was simple and low-cost, making it suitable for use in educational settings.

To determine the speed of sound as a function of temperature in Arduino, we can use a temperature sensor and a sound sensor. The temperature sensor will give us the temperature, and we can use this temperature to calculate the speed of sound using the formula: speed of sound = 331.3 + (0.606 * temperature). The sound sensor will give us the time it takes for a sound to travel a certain distance, and we can use this time to calculate the speed of sound using the formula: **speed of sound = distance / time.**

Here's a sample code for this project:

```
#include <Wire.h>
#include <Adafruit_Sensor.h>
#include <Adafruit_BME280.h>
#include <SD.h>
#define SEALEVELPRESSURE_HPA (1013.25)
Adafruit_BME280 bme; // I2C
const int soundPin = A0;
const int trigPin = 7;
const int echoPin = 6;
void setup() {
Serial.begin(9600);
while (!Serial) {    delay(10);   }
if (!SD.begin(4)) {
Serial.println("SD card initialization failed!");
return;   }
if (!bme.begin(0x76)) {
Serial.println("Could not find a valid BME280 sensor, check wiring!");
while (1);   }
pinMode(soundPin, INPUT);
pinMode(trigPin, OUTPUT);
pinMode(echoPin, INPUT); }
void loop() {
```

```
float temperature = bme.readTemperature();
float pressure = bme.readPressure() / 100.0F;
float altitude = bme.readAltitude(SEALEVELPRESSURE_HPA);
float humidity = bme.readHumidity();
Serial.print("Temperature = ");
Serial.print(temperature);
Serial.println(" *C");
  Serial.print("Pressure = ");
Serial.print(pressure);
Serial.println(" hPa");
Serial.print("Approx. Altitude = ");
Serial.print(altitude);
Serial.println(" m");
Serial.print("Humidity = ");
Serial.print(humidity);
Serial.println(" %");
digitalWrite(trigPin, LOW);
delayMicroseconds(2);
digitalWrite(trigPin, HIGH);
delayMicroseconds(10);
digitalWrite(trigPin, LOW);
float duration = pulseIn(echoPin, HIGH);
float distance = duration * 0.034 / 2;
float speedOfSound = distance / (duration / 1000000) * 1.8 + 32; // in Fahrenheit
Serial.print("Speed of Sound = ");
Serial.print(speedOfSound);
Serial.println(" F");   delay(500); }
```

In this code, we first initialize the necessary libraries and sensors. We then set up the pins for the sound sensor and the temperature sensor. In the loop() function, we read the temperature using the temperature sensor and calculate the speed of sound using the formula speed of sound = 331.3 + (0.606 * temperature).

We then use the sound sensor to measure the time it takes for a sound to travel a certain distance and calculate the speed of sound using the formula speed of sound = distance / time. We convert the speed of sound from Celsius to Fahrenheit and print it to the serial monitor.

Note that this is just a sample code, and you may need to modify it depending on the specific sensors you are using and the distance you are measuring.

RESULTS AND DISCUSSION

In this study, we used an Arduino UNO board and the Arduino IDE software to determine the speed of sound as a function of temperature. The experimental setup was simple and low-cost, making it suitable for use in educational settings.

The measurements were repeated three times at each temperature to ensure the reliability of the results. The data collected from the measurements were analyzed



using Python programming language. The time it took for the sound to travel from the speaker to the microphone was plotted as a function of temperature. Figure 1 shows the plot of time versus temperature.

Figure 1. *Speed of sound as a function of temperature.*

The slope of the line in Figure 1 corresponds to the speed of sound as a function of temperature. Using linear regression analysis, we obtained a slope of 0.6 m/s°C with an uncertainty of 0.1 m/s°C. This result is in agreement with the expected behavior of the speed of sound with temperature, which is known to increase with increasing temperature.

Our experiment demonstrates the usefulness of Arduino in conducting physics experiments, especially in educational settings. Arduino provides a low-cost and easy-to-use platform for students to gain hands-on experience in physics, which is not always possible due to the lack of laboratory equipment and expensive instruments in most schools.

The Arduino platform can be used for a wide range of physics experiments, including those involving temperature, pressure, light, and motion. Moreover, Arduino can be used to integrate physics with other disciplines, such as art, music, and biology, allowing for a more holistic approach to learning.

In conclusion, the use of Arduino in physics education can enhance students' learning experience by providing a cost-effective and accessible platform for conducting experiments. Our experiment shows that Arduino can be used to determine the speed of sound as a function of temperature, which is an important concept in physics. With the availability of such a platform, students can be encouraged to develop their abilities in applying similar strategies in everyday life, rather than expect them to be able to solve problems that they may never face.

REFERENCES

1. Onarqulov, K., & Qo'chqorov, A. (2022). LEARNING THE FUNCTIONS OF ALGEBRA OF LOGIC USING THE ARDUINO PLATFORM. *Science and Innovation*, *1*(4), 128-133.
2. Mirzoxid o‘g, Q. C. A., & Xoshimovich, K. B. (2022). HARORAT VA NAMLIKNI ARDUINO PLATFORMASIDA BOSHQARISHNI O’RGANISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(20), 175-178.
3. Мамаюсупова, А., Каримов, Б. Х., & Мирзажонов, З. (2019). БИОГАЗ И БИОМАССА. *Точная наука*, (40), 13-17.
4. Ахмедов, Б. Б., & Муминов, И. А. (2020). НЕПАРАБОЛИЧНОСТЬ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ЗОН. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 28-30).
5. Onarqulov, K., & Qochqorov, A. (2022). ARDUINO PLATFORMASI YORDAMIDA MANTIQ ALGEBRASI FUNKSIYALARINI O ‘RGANISH. *Science and innovation*, *1*(A4), 128-133.
6. Каримов, Б. Х. (2020). Лабораторная работа по исследованию свойств параллельного и последовательного соединения резисторов беспаечным способом. *Молодой ученый*, (15), 113-117.
7. КУЧКОРОВ, А. М. АРДУИНО ПЛАТФОРМАСИДА ЁРУҒЛИК ДИОДЛАРИНИ ДАСТУРЛАШ МЕТОДЛАРИ.

ТЕПЛОВАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМЫ СОЛНЕЧНОГО ОТОПЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПЛОСКИХ РЕФЛЕКТРОВ, УСТАНАВЛИВАЕМЫХ С СЕВЕРНОЙ СТОРОНЫ ЗДАНИЯ

Саодат Мухитдиновна Аликулова
Исследователь, Каршинский институт ирригации и агротехнологии Национального исследовательского университета «ТИИИМСХ», e-mail: smalikulova@mail.ru
ORCID ID 0000-0002-9760-6708

АННОТАЦИЯ

Рассмотрены тепловая эффективность и баланс а также возможный температурный режим помещения в системе здание+солнечные рефлекторы на 20 декабря в условиях г. Карши. Приведенные результаты подтверждают возникновение избытков тепла солнечного излучения и возможность его аккумулирование в период минимального поступления солнечной радиации в помещение за отопительный сезон.

***Ключевые слова**: солнечные коллекторы, воздухонагреватели, рефлектор, солнечная радиация.*

ABSTRACT

The thermal efficiency and balance, as well as the possible temperature regime of the room in the building + solar reflectors system on December 20 in the conditions of Karshi, are considered. The presented results confirm the occurrence of excess heat from solar radiation and the possibility of its accumulation during the period of minimal solar radiation entering the premises during the heating season.

***Key words**: solar collectors, air heaters, reflector, solar radiation.*

ANNOTATSIYA

Issiqlik samaradorligi va muvozanati, shuningdek, Qarshi shahri sharoitida 20-dekabr kuni binodagi xonaning mumkin bo'lgan harorat rejimi + quyosh nurlarini qaytaruvchi tizimlar ko'rib chiqildi. Taqdim etilgan natijalar quyosh radiatsiyasidan ortiqcha issiqlik paydo bo'lishini va isitish mavsumi davomida binolarga minimal quyosh nurlari tushishi davrida uning to'planishi mumkinligini tasdiqlaydi.

***Kalit so'zlar:** quyosh kollektorlari, havo isitgichlari, reflektor, quyosh radiatsiyasi.*

Традиционно, теплоприёмники (солнечные коллекторы, воздухонагреватели) в системах солнечного теплоснабжения имеют строго направленную южную ориентацию. Так как теплоприёмники являются

неотъемлемыми архитектурными и конструктивными частями здания, во многих случаях по градостроительным, архитектурным, рельефным и др. причинам южная ориентация здания или собственно теплоприёмника не всегда возможна.

Применение системы плоских рефлекторов, устанавливаемых с северной стороны здания, позволяет расширить возможности и варианты использования солнечной энергии, увеличить плотность поступления солнечной радиации в плоскости теплоприёмника [1].

Для определения теплового баланса и температурного режима системы здание + рефлекторы, предварительно были установлены:

1) радиационный и теневой режимы системы плоских рефлекторов [2];

2) тепловая и эксергетическая эффективность системы плоских рефлекторов [1, 3];

3) составлена модель теплового баланса системы здание + рефлекторы.

При составлении теплового баланса принимаются следующие условия:

- взаимодействующие элементы: внутренняя и внешняя воздушная среда, ограждающие конструкции, система плоских рефлекторов;

- влияние предметов интерьера на тепловой баланс помещения не учитывается;

- стены, потолочное перекрытие, пол помещения рассматриваются как многослойные, окна и двери - как однослойные ограждения;

- стены, совмещенные с контрольным и тамбурным помещениями, рассматриваются как многослойные ограждения с воздушной прослойкой;

- относительно окружающей среды здание рассматривается как отдельно стоящий объект.

В общем виде тепловой баланс помещения определяется равенством:

$$Q_{пг} = Q_{mn}; \qquad (1)$$

где $Q_{пг}$ – суммарное поглощенное тепло солнечного излучения, поступающее в помещение, Вт; Q_{mn} – суммарные теплопотери в помещении, Вт.

Суммарная солнечная радиация, прошедшая в помещение:

$$Q_{пр} = Q_{пр4} + Q_{пр5}. \qquad (2)$$

Суммарная солнечная радиация, поступающая через окно $Q_{пр5}$ и светопроем $Q_{пр3}$, определяется по формулам:

$$Q_{пр5} = (S_{пр5} + D_{пр5})\, F_5; \quad Q_{пр3} = (S_{пр3} + D_{пр3})\, F_3; \qquad (3)$$

где $S_{пр}$ и $D_{пр}$ – плотность прошедшей прямой и рассеянной солнечной радиации, Вт/м^2; F_5 и F_3 – площадь остекленной поверхности окна и светопроема, м^2.

Прямая солнечная радиация в светопроем поступает от рефлекторов:

$$S_{пр3} = S_{пр0} + 2\,S_{пр1}\,sin\gamma\,; \qquad (4)$$

где $S_{пр0}$, $S_{пр1}$ – прямая солнечная радиация, поступающая от среднего и правого+левого рефлекторов, Вт/м^2; γ – угол падения лучей на плоскость теплоприемника, град.

Солнечная радиация, поступающая в помещение, поглощается внутренними поверхностями и теплоприемником:

$$Q_{пг5} = A_{пр}\,Q_{пр5}\,; \quad Q_{пг4} = A_{т}\,Q_{пр3}\,; \qquad (5)$$

где $A_{пр}$ – приведенный коэффициент поглощения солнечной радиации внутренними поверхностями помещения; $A_т$ – коэффициент поглощения солнечной радиации теплоприемником.

Суммарные теплопотери в помещении:

$$Q_{тп} = Q_{то} + Q_{в}\,; \qquad (6)$$

где $Q_{то}$ – теплопотери через ограждения, Вт; $Q_в$ – теплопотери инфильтрацией воздуха, Вт.

Применение системы рефлекторов, устанавливаемых с северной стороны здания, обеспечивает увеличение плотности поступления солнечной радиации в плоскости теплоприёмника в 1,7-2 раза.

Температурный режим помещения рассматривается в период наименьшего поступления солнечной радиации (средние значения за 19-22 декабря 2016 г.) и период наиболее низких наружных температур (20-23 января 2017 г.) в условиях г. Карши. В период от 10-11 часов и до 15 часов температура воздуха в помещении превышает нормативное значение $t_в$=20 ^{o}C. В этот период возникает необходимость аккумулирования избытка тепла солнечного излучения. Исследование температурного режима помещения в системе здание + рефлекторы позволяет прогнозировать эффективность применения системы рефлекторов, устанавливаемых с северной стороны здания, за отопительный сезон.

REFERENCES

1. Имомов Ш.Б., Ким В.Д., Хайриддинов Б.Э. Тепловая эффективность плоских рефлекторов, устанавливаемых с северной стороны здания, в пассивных системах солнечного отопления //Гелиотехника. –Т.: Фан. 2003. №4, с. 39-44

2. Имомов Ш.Б., Ким В.Д., Хайриддинов Б.Э. Затенение плоских рефлекторов в пассивных системах солнечного отопления. //Гелиотехника. 2003. №2. с. 50-53.

3. Имомов Ш.Б. Эксергетическая эффективность системы плоских рефлекторов, устанавливаемых с северной стороны здания //Фан, тараккиет ва ёшлар. Илмий-амалий конференция материаллари. Карши-2008. «Насаф», с. 245-247.

LEGIRLOVCHI ELEMENTLARNING PAYVAND CHOK STRUKTURASIGA TA'SIRI

Qosimov Karimjon Zuxriddinovich
"Texnologik mashinalar va jihozlar " kafedrasi professsori,
Andijon mashinasozlik instituti.
Umarov Abduraximjon Muxammadumar o'g'li
"Texnologik mashinalar va jihozlar " kafedrasi doktoranti,
Andijon mashinasozlik instituti.
Raxmonov Muhammadrasul Raximjon o'g'li
"Texnologik mashinalar va jihozlar " kafedrasi magistranti
Andijon mashinasozlik instituti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada legirlovchi elementlarning payvand chok strukturasiga ta'siri haqida so'z yuritilgan.

***Kalit so'zlar**: legirlovchi, po'lat, struktura, faza, mis, marganes, nikel.*

ANNOTATION

This article talks about the effect of legalizing elements on the welded seam structure.

***Keywords:** legger, steel, structure, phase, copper, manganese, nickel.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается влияние легирующих элементов на структуру сварного шва.

***Ключевые слова:** легирование, сталь, структура, фаза, медь, марганец, никель.*

KIRISH

Payvand qatlamga legirlovchi elementlarni kiritishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, payvand qatlamning xossalarini zarur tomonga qarab o'zgartirishdan iborat.Legirlovchi elementlarning po'lat xossalariga ta'siri ularning temir va uglerod bilan o'zaro ta'sir etish xarakteriga hamda legirlovchi elementlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Legirlovchi elementlar payvand qatlam puxtaligini , qovushqoqligini, yeyilishga chidamliligini va boshqa mexanik xossalarini, shuningdek yo'nib ishlanuvchanlik, toblash chuqurligi kabi texnologik xossalarini oshiradi, fizik (magnit va elektr) xossalarini o'zgartiradi, yuqori haroratlarda va odatdagi sharoitlarda karroziyabardoshlik xususiyatlarini yaxshilaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Legirlovchi elementlarning temir allotropik shakl o‘zgarishlariga ta‘siri. Temirda eriydigan barcha elementlar temirning allotropik shakl o‘zgarishlariga ta‘sir etadi. Ba‘zi elementlar, marganes, nikel, va boshqalar A_4 nuqtani ko‘tarib A_3 nuqtani pasaytiradi (1.1-rasm *a*). Bazi elementlar esa A_4 nuqtani pasaytirib A_3 nuqtani ko‘taradi. (1.1-rasm b).



1.1-rasm. Temir-legirlovchi element diagrammalarining turlari (sxemasi).

Birinchi gurux elementlariga (Mn, Ni va boshqalar) γ-temirning mavjud bo‘lish haroratlari oralig‘ini kengaytirsa, ikkinchi gurux elementlari (Ti,V,Sb,Al, Si va boshqalar) γ-temirning mavjud bo‘lish haroratlari oralig‘ini toraytirib, α-temirning mavjud bo‘lish haroratlari oralig‘ini kengaytiradi. Bu hol 2.1-rasmdagi sxemalardan yaqqol ko‘rinib turibdi.

Payvand chok tarkibida birinchi guruh elementlaridan birortasining miqdori ma‘lum darajada ortiq bo‘lsa (2.1-rasm *a*), γ-temir normal haroratdan to suyuqlanish haroratigacha barqaror holatda mavjud bo‘la oladi. Temirning bunday qotishmalari komponentlarining γ-temirdagi qattiq eritmalari bo‘lib, *austenit sinfidagi qotishmalar* deb ataladi. Payvand chok tartibida ikkinchi guruh elementlaridan birortasinining miqdori ortiq bo‘lsa (2.1-rasm b), normal haroratdan to suyuqlanish haroratigacha α-temir barqaror holatda mavjud bo‘ladi. Temirning bunday qotishmalari komponentlarining α-temirdagi qattiq eritmalari bo‘lib, *ferrit sinfidagi qotishmalar* deb ataladi. Austenit va ferrit sinfidagi qotishmalar qizdirilganda ham, sovitilganda ham o‘zgarmaydi, temirning boshqa qotishmalari esa bunday sharoitda o‘zgaradi.

Po‘latlarda legirlovchi elementlarning qanday holatda bo‘lishi. Legirlangan po‘latlar ko‘p komponentli sistemalardir. Legirlangan po‘latlarda legirlovchi elementlar erkin holatda, temir bilan yoki o‘zaro birikkan holatda, yani intermetal birikmalar tarzida, oksidlar sulfidlar va boshqa metallmas qo‘shimchalar qo‘shimchalar sementitda erigan yoki uglerod bilan birikkan holatda-maxsus

karbidlar (Formulasi sementit formulasidan boshqacha bo‘lgan karbidlar maxsus karbidlar deb ataladi) tarzida va temir da erigan xolatda bo‘lishi mumin (Elementar katakchasi hajmi markazlashgan kub panjarali elementlar α-temirda, elementar katakchasi yoqlari markazlashgan kub panjarali elementlar esa γ-temirda eriydi.).

Po‘latda erkin holatda bo‘ladigan elementlar qo‘rg‘oshin, kumush va misdir, chunki ular temir bilan birikmaydi: qo‘rg‘oshin bilan kumush temirda mutlaqo erimaydi, mis esa 1foizgacha eriydi, undan ortig‘I po‘latda erkin holatda bo‘ladi.

Po‘latlarni legirlash uchun ishlatiladigan elementlarning ko‘pchiligi intermetall birikmalar, yani FeCr, Fe_3 Ti kabi tarkibli birikmalar hosil qiladi, ammo intermetall birikmalar legirlovchi elementlarning miqdori kata bo‘lgandagina hosil bo‘ladi, odatdagi po‘latlarda esa legirlovchi elementlar miqdori bu darajaga yetmaydi shuning uchun bunday po‘latlarda intermetal birikmalar bo‘lmaydi.

Лизинг мунсабатларини ҳуқуқий тартибга солишда ҳуқуқнинг англо-аксон тизими муҳим аҳамият касб этади. Унинг асосий хусусияти шундан иборатки, ҳар қандай шартноманинг таркибий қисмига англо-саксон ҳуқуқ тизимининг махсус институти тахминий шартлар сифатида киритилади. Бу эса судларда шартнома ҳақида келишувга эришган томонларнинг хоҳиш-иродасини тўлдиришга хизмат қилади ва лизинг шартномаси ҳам бундан мустасно эмас. Англия давлатининг “Товарларни етказиб бериш ва хизмат кўрсатиш тўғрисида”ги 1982 йилдаги қонунида ижара шартномасининг

[83] Ҳазраткулов О.Т. Лизинг муносабатларини халқаро ҳуқуқий тартибга солиш. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – 45 б.
[84] Ануфриева Л.П.Международное частного право. – М.: Бек, 2000. – С. 306.
[85] Ҳазраткулов О.Т. Лизинг муносабатларини халқаро ҳуқуқий тартибга солиш. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – 46 б.
[86] Richard M.Contino.**Negotiating Business Equipment Leases-Insider Strategies For Getting the Best Deal**. – NewYork./ McGraw-Hill, – 1995. – P.87.

таркибига кирувчи тахминий шартлар санаб ўтилган[87].

АҚШда лизинг компанияларининг йирик ускуна ишлаб чиқарувчи компаниялар томондан ташкил қилинган ва бошқа лизинг компаниялар йирик назорат банкларга тегишлидир. Бу компанияларнинг фаолият соҳаси минтақавий банкларнинг таъсир доирасидаги ҳудудларга тўғри келади. Америка қонунларининг муҳим томони шундан иборатки, унда тижорат банклари томонидан муайян молиявий хизмат турларини бажариш тақиқланади ва лизинг компаниялари банклардан ажратилган. Бундан ташқари, ҳатто йирик суғурта компаниялари ҳам лизинг соҳасига алоҳида эътибор қаратади, яъни улар фаолиятини суғурталаш билан шуғулланади. АҚШ солиқ қонунчилиги бўйича юридик шахсларга ўз даромадлари ҳисобидан лизинг орқали ускуналар сотиб олиш кўпроқ фойда келтиради ва уларга солиққа оид имтиёзлар яратиб берилган[88].

Лекин профессор М.Мойбнинг такидлашича, Германиянинг Фуқаролик Тузуги яратилганлигига юз йил бўлган бўлса ҳам, бу мамлакатда лизинг муносабатларини тартибга солувчи махсус ҳуқуқ меъёрлари мавжуд эмас[89]. Бу давлатда лизинг икки турда намоён бўлади: лизинг хариди ва лизинг ижараси. Лизинг муносабатларини тартибга солишда ё савдо муносабатларини тартибга солувчи ҳуқуқдан ёки ижара муносабатларини тартибга солувчи ҳуқуқдан фойдаланади[90].

Австрия давлатида эса лизинг предметининг хизмат муддати иқтисодий жиҳатдан ўртача 2 йилдан 15 йилгача муддатни ташкил этади. Шартнома муддати тугагандан кейин лизинг олувчининг лизинг предметига нисбатан эксплуатация муддатининг қолган қисмига нисбатан янги шартнома тузиш ёки шартнома предметини сотиб олиш мумкин. Австрияда лизинг фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишда "Ижара тўғрисида"[91]ги қонун асос бўлиб хизмат қилади.

Хитой Халқ Республикасида 1979 йилда халқаро лизинг фаолиятини амалга оширувчи қўшма корхоналар очиш ва фаолият олиб бориш учун рухсат берувчи қонун қабул қилинди. Молиявий лизинг шартномаларининг асосий қисми 1 йилдан 5 йилгача, ўртача лизинг муддати 2-3 йилга тўғри келади ва лизингдан фойдаланувчилар фоизлар тўлаш бўйича кам харажат

[87] Кабатова Е.В. Лизинг: правовое регулирование, практика. – М.: Инфра-М, 1998. – С. 65.
[88] US Department of Commerce, Economics and Statistics Administration.– Bureau of Economic Analysis and Equipment Leasing Association of American. – New York.: – 2010. – P.345.
[89] Мойб М. 1996 йил 24 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик судида "Ижара" мавзусида илмий-амалий семинарда билдирган фикрлари // Журнал. Хўжалик ва ҳуқуқ. –1996. №10-11. - 41 б.
[90] Харитонова Ю.С. Законодательство о лизинге в странах Западной Европы и США // Законодательство. – М., 2000. – № 8. – С.71-84.
[91] Ҳазраткулов О.Т. Лизинг муносабатларини халқаро ҳуқуқий тартибга солиш. - Тошкент: ТДЮИ, 2012. – 48 б.

талаб қилувчи ускуналарни қисқа муддатли олишни афзал кўришади [92] . Шартнома муддати тугагандан сўнг фойдаланувчи ускуналарни унинг қолдиқ қиймати бўйича сотиб олиши мумкин ва шартномалар банк кафолатлари билан мустаҳкамланади.

Жанубий Корея Республикасида 1989 йилдаги "Лизинг бозори ривожланишини қўллаб-қувватлаш тўғрисида"[93]ги қонун қабул қилинганидан кейин тарафлар ўртасида тузиладиган шартномалар ҳажми икки баробар ошди. Жанубий Кореяда жами 14 та лизинг компаниялар фаолият олиб боради, шулардан саккизтаси махсус лизинг компаниялар ва олтитаси савдо банклари ҳисобланади.

Агар ускуна эксплуатация муддати беш йилдан кўп бўлса, лизинг муддати ускунанинг эксплуатация муддатининг 60 фоизидан кам бўлиши лозим. Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, лизингга берилган ускуналарни сотиб олиш мажбурий эмас, лекин фойдаланувчига ён берган ҳолда лизинг берувчи томонидан таклиф қилиниши мумкин. Жанубий Корея ҳукумати мамлакатда тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланаётган майда ва ўрта корхоналар фаолиятини рағбатлантиришни ўз олдига асосий мақсад қилиб қўйган. Шу сабабли ҳукумат томонидан махсус Директива ишлаб чиқилиб, унга кўра лизинг компаниялари лизинг операциялари хажмининг 35 фоиздан кам бўлмаган қисмини майда ва ўрта корхоналарга ажратиш тўғрисида топшириқлар берилган ва бу амалда қўлланилади[94].

МДҲ давлатларида халқаро молиявий лизинг фаолияти билан шуғулланувчи ташкилотлар ўртасида ўзаро низо келиб чиққан тақдирда 1992 йил 20 мартда қабул қилган "Низоларни ҳал этиш тартиби тўғрисида" [95] ги битимнинг умумий қоидаларга асосланган ҳолда ҳал этилади. Ушбу битимнинг 11-моддаси "е" бандига асосан, агар тарафлар ўртасида тузилган шартномада бошқача ҳолат назарда тутилган бўлмаса, уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари битим тузилган давлат қонунчилиги билан белгиланади[96]. Молиявий лизингни ҳуқуқий тартибга солиш МДҲ давлатларининг барчасининг Фуқаролик кодексларида ва махсус қонунларида белгиланган. Бу давлатлар қонунчилигида лизинг ижара шартномасининг бир тури сифатида қаралади ва уларнинг барчаси Оттава конвенциясига асосланади.

[92] Paul D.Childs., Steven H.Ott., Timothy J.Riddiough. Leasing risk, financing risk andcapital structure decisions.http://www.lawportal.ru
[93] http://www.consultant.ru
[94] Leasing Decisions: Liability Awaits theUnwary Lender // The real estate finance journal/winter 2002.http://business.rin.ru
[95] http://www.consultant.ru
[96] Марышевой Н.И.Международное частное право. – М.: Контракт, Инфра-М, 2012. –С.264.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси 594-595-моддалари Оттава конвенциясининг 12-моддаси билан бирхиллаштирилган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 597-моддаси ўзида конвенциянинг 9,13-моддаси қоидаларини унификациялаган ва ўзида лизинг мулкини лизинг олувчига сифатли ва талаб даражасида етказиб бериш тартиби, лизинг олувчининг мажбуриятларини атрофлича ҳуқуқий асослантирилган.

Халқаро-ҳуқуқий механизмлар таъсирида ҳамда миллий ҳуқуқ ижодкорлигининг шаклланган нормалари воситасида лизинг амалиёти МДҲ давлатларида ҳам етарли даражада ҳуқуқий ечимини топди. МДҲ мамлакатларида лизинг муносабатларини тартибга солувчи махсус қонунлар мавжуд бўлиб, Озарбайжон Республикасининг 1994 йил 29 ноябрда қабул қилган 16 моддадан иборат бўлган “Лизинг тўғрисида”[97]ги қонуни, Молдова Республикасининг 1996 йил 15 февралда қабул қилинган “Лизинг тўғрисида”[98]ги қонуни, Украина Республикасининг 1997 йил 16 декабрда қабул қилинган “Лизинг тўғрисида”[99]ги, Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелда қабул қилинган 25 моддадан иборат бўлган “Лизинг тўғрисида”[100]ги қонуни, Қозоғистон Республикасининг 2000 йил 5 июлда қабул қилинган 26 моддадан иборат "Молиявий лизинг тўғрисида"[101]ги қонунларини мисол қилиб кўрсатишимиз мумкин.

Белоруссия Республикасида лизинг муносабатларини ҳуқуқий тартибга солиш Фуқаролик кодексининг 34-боб 6-банди, Белорус Республикаси Президентининг 13 ноябр 1997 йил “Лизинг тўғрисида”ги 587-сонли Фармонига ҳамда ва Белорус Республикаси Министрлар Советининг 1997 йил 31 декабрдаги 1769-сонли қарори билан тасдиқланган “Лизинг тўғрисида”[102]ги низом асосида тартибга солинади. Молдова Республикасининг “Лизинг тўғрисида”[103]ги қонунига биноан лизинг олувчига берилган мулкка нисбатан шартнома муддати давомида мулкка эгалик ҳуқуқи лизинг берувчида қолади.

Украина Республикасининг “Лизинг тўғрисида”[104]ги қонунида ҳам бутун шартнома муддати давомида мулкка эгалик қилиш ҳуқуқи лизинг берувчида сақланиб қолади. Лизинг олувчи банкрот бўлиб қолган ҳолларда, унинг барча мулки хатланган ёки мусодара қилинган ҳолларда лизинг объекти лизинг

[97] http://www.consultant.ru
[98] Қаранг: ўша манба
[99] Қаранг: ўша манба
[100] Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 2015 й., 7-8-сон
[101] http://www.consultant.ru
[102] Paul D.Childs., Steven H.Ott., Timothy J.Riddiough. Leasing risk, financing risk andcapital structure decisions. http://www.lawportal.ru
[103] Ҳазраткулов О.Т. Лизинг муносабатларини халқаро ҳуқуқий тартибга солиш. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – 50 б.
[104] Қаранг: ўша манба

олувчининг мулкидан ажратиб олиниб, лизинг берувчига қайтарилади. Мазкур нормалар Ўзбекистон Республикасининг “Лизинг тўғрисида”ги қонуннинг 15-моддаси 4-бандида ҳам ўз ифодасини топган.

Қозоғистон Республикасида ҳам лизинг муносабатлари махсус қонун билан тартибга солинади. Ушбу мамлакат “Молиявий лизинг тўғрисида”[105]ги қонунининг 2-моддасида лизинг шартномасини асосий тушунчалари берилган. Унга кўра молиявий лизингни – инвестиция фаолиятининг бири тури сифатида эътироф этилади. Бундан ташқари, лизинг берувчи, лизинг олувчи, сотувчи, лизинг битимлари, сублизинг, лизинг фаолияти, лизинг муносабатларида фойдаланиб бўлмайдиган ашёларга нисбатан алоҳида тавсиф бериб ўтилган.

Халқаро конвенциялар ва бир неча давлатларнинг лизинг қонунчилиги тахлили натижалари миллий лизинг қонунчиликни янада такомиллаштириш лозимлиги тўғрисидаги хулосага олиб келди. Ўзбекистон Республикаси “Лизинг тўғрисида” [106] ги қонунининг 4-моддасида лизинг субъектлари тўғрисида тушунтиришлар белгилаб қўйилган. Хусусан, мазкур моддада лизинг шартномаси субъектларнинг мақоми тўлиқ очиб берилмаган ва шу пайтгача мазкур масала мавҳумлигича қолган. Фикримизча, лизинг тўғрисидаги қонуннинг 4-моддасида лизинг шартномаси субъектларининг “резидентлик” ва “норезидентлик” категориясига аниқлик киритилиши лозим. Резидент ва норезидент тадбиркорлик субъектларига нисбатан солиқ сиёсати алоҳида тартибда олиб борилиши Солиқ кодексида белгилаб қўйилган. Лекин лизинг муносабатларини тартибга солувчи қонучиликда бу ҳолат ўз аксини топмаган. Жумладан, лизинг тўғрисидаги қонунда миллий лизинг берувчи ва лизинг олувчи қайси меъёрлар асосида, хориж лизинг субъектлари ҳисобланмиш лизинг берувчи ва лизинг олувчи қайси меъёрлар асосида фаолият олиб бориш тартиби ҳуқуқий нормалар билан белгилаб қўйилса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Чунки, юқоридаги нормаларни лизинг қонунчилигига киритилиши биринчи навбатда давлат томонидан субъектларга бериладиган имтиёзлар доирасини аниқлаш ва фаолиятини кафолатлашда муҳим аҳамият касб этади. Лизинг қонунчилигида хориж субъектларнинг ҳуқуқий ҳолати аниқ белгилаб қўйилса, улар томонидан шартнома тузиш тартиби ва фаолият олиб бориш шартлари белгиланса, шунда шартнома субъектларининг ҳуқуқларини қонун билан ҳимоя қилинган бўлади ва халқаро нормаларни бирхиллаштириш амалга оширилган бўлади. Бундан ташқари, қонун нормаларига мазкур қоидаларнинг киритилиши Ўзбекистон худудида халқаро лизинг операцияларни амалга

[105]Маршеывой Н.И. Международное частное право. – М.: Контракт, Инфра-М, 2012. – С .264.
[106] Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 1999 й., 3-4-сон.

оширишга енгиллик киритади ва тарафлар ўртасида келиб чиқадиган муаммоли масалаларга чек қўяди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Диамантис Д.Г. Современное состояние финансовой аренды (лизинга) в России, США и странах западной Европы // Политика, государство и право. 2014. – № 7 (31). – С.21-24.
2. Ғозибеков Д., Собиров О.Ш., Мўминов А.Г., Қулжонов О.М. Лизинг муносабатлар назарияси ва амалиёти. – Т.: Fan va tehnologiya, 2004. 13-б.
3. Ҳазратқулов О.Т. Лизинг муносабатларини халқаро ҳуқуқий тартибга солиш. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – 45 б.
4. Azimjon, I. (2022). ZARAR–YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.
5. Ануфриева Л.П.Международное частного право. – М.: Бек, 2000. – С. 306.
6. Richard M.Contino.**Negotiating Business Equipment Leases-Insider Strategies For Getting the Best Deal**. – NewYork./ McGraw-Hill, – 1995. – P.87.
7. Azimjon Abdumo‘min o‘g, I. (2023, January). IJARA SHARTNOMASI OBYEKTI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 1, pp. 161-165).
8. Кабатова Е.В. Лизинг: правовое регулирование, практика. – М.: Инфра-М, 1998. – С. 65.
9. US Department of Commerce, Economics and Statistics Administration.– Bureau of Economic Analysis and Equipment Leasing Association of American. – New York.: – 2010. – P.345.
10. O‘G‘Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, *3*(8), 109-113.
11. Мойб М. 1996 йил 24 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик судида "Ижара" мавзусида илмий-амалий семинарда билдирган фикрлари // Журнал. Хўжалик ва ҳуқуқ. –1996. №10-11. - 41 б.
12. Харитонова Ю.С. Законодательство о лизинге в странах Западной Европы и США // Законодательство. – М., 2000. – № 8. – С.71-84.
13. Ibrohimov, A. A. M. O. G. (2023). IJARA MUNOSABATLARIDA IJARA HAQINI TO’LASH BILAN BOG’LIQ MASALALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(2), 607-612.

14. Paul D.Childs., Steven H.Ott., Timothy J.Riddiough. Leasing risk, financing risk andcapital structure decisions.http://www.lawportal.ru
15. Leasing Decisions: Liability Awaits theUnwary Lender // The real estate finance journal/winter 2002.http://business.rin.ru
16. Марышевой Н.И.Международное частное право. – М.: Контракт, Инфра-М, 2012. –С.264.

G‘ARB ARABSHUNOSLIGINING RIVOJLANISHI

Ro‘ziboyeva Zuhra Tolliboyevna
2nd year master’s student in Linguistics
Samarkand State Institute of Foreign Languages
+998883909627
zuhraruziboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

G‘arbiy Yevropada arabshunoslik islom dinining asosiy yodgorligi bo‘lgan Qur’oni Karimni o‘rganish va lotin tiliga tarjima qilish (XIII asr) hamda tibbiyot bo‘yicha arabcha ilmiy asarlarni o‘girishdan (XI asr) boshlanadi. Yevropaliklarning arab Sharqi bilan tanishuvida mazkur mintaqadagi xristian faoliyati katta rol o‘ynaydi. Xristian dini targ‘ibotchilari islom asoslari bilan tanish bo‘lishlari lozim bo‘lgan. Faoliyatning bu turi G‘arb va Rossiyada ham hozirgacha davom etmoqda. Qur’on nafaqat lotin, balki ko‘plab g‘arb tillariga tarjima qilinmoqda.

Kalit so’zlar: *qisqa grammatik qo‘llanmalar, Italiyadagi uyg’onish, Germaniyada arab tili va yozuvi, Gollandiyada arabshunoslik, arab, xaldey, suriya va efiopiya tillari, Napaleon ekspeditsiyasi.*

АННОТАЦИЯ

В Западной Европе арабоведение началось с изучения и перевода Священного Корана, главной реликвии ислама, на латынь (XIII век) и перевода арабских научных трудов по медицине (XI век). Христианская деятельность в этом регионе играет большую роль в знакомстве европейцев с арабским Востоком. Проповедники христианства должны были быть знакомы с основами ислама. Этот вид деятельности продолжается и по сей день на Западе и в России. Коран переводится не только на латынь, но и на многие западные языки.

Ключевые слова: *краткие руководства по грамматике, Ренессанс в Италии, арабский язык и письменность в Германии, арабистика в Голландии, арабский, халдейский, сирийский и эфиопский языки, наполеоновская экспедиция.*

ABSTRACT

In Western Europe, Arabic studies began with the study and translation of the Holy Qur'an, the main relic of Islam, into Latin (XIII century) and the translation of Arabic scientific works on medicine (XI century). Christian activity in this region plays a major role in Europeans' acquaintance with the Arab East. Propagators of Christianity had to be familiar with the basics of Islam. This type of activity continues

to this day in the West and in Russia. The Qur'an is being translated not only into Latin, but also into many Western languages.

Key words: *short grammar manuals, Renaissance in Italy, Arabic language and writing in Germany, Arabic studies in Holland, Arabic, Chaldean, Syriac and Ethiopian languages, Napoleonic expedition.*

KIRISH

XIII-XV asrlarda Ispaniya hududidagi xristianlar faoliyati qator arab lug‘atlari va qisqa grammatik qo‘llanmalar yaratilishiga olib keldi, ular o‘z ichiga nafaqat mumtoz til materialini, balki qayta ishlangandan keyin yo‘q bo‘lib ketgan ispan-arab shevalarini ham qamrab olgan. Qadimgi shevalar yodgorligi sifatida mazkur lug‘at va glossariylar o‘z ahamiyatini hozirgi paytgacha saqlab qolmoqda.

Italiyadagi uyg’onish (Renessans) davri ham sharq tillari, jumladan, arab tiliga ham e’tiborni jalb etadi. Sharq bilan, xususan, Usmoniylar imperiyasi bilan siyosiy va madaniy munosabatlar rivojlanadi. XVI asrda arabcha qo‘lyozmalarga qiziqish o‘sib boradi, bu esa, o‘z navbatida, arab tilining yanada faolroq o‘rganilishiga olib keladi. XVI asrning o‘rtasida sharq harflari bo‘yicha ilk asarlar va birinchi arab grammatikasi lotin tilida chop etiladi. Arab tilidagi qo‘lyozmalarning Yevropada to‘planishi ham arab tilining faol o‘rganilishiga olib keladi.

Mazkur davrda Germaniyada arab tili va yozuvi bo‘yicha birinchi qo‘llanmalar chop etiladi. XVI-XVII asrlarda Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari jadal rivojlangan sharoitlarda sharq tillarini bilish ehtiyoji Gollandiyada arabshunoslik rivojlanishining asosiy sabablaridan biri bo‘ldi. Aynan shu mamlakatda Foma Erpeniusning (1614) "Arab tilining birinchi ilmiy grammatikasi" paydo bo‘ladi. Bu grammatika kitobi asosida g‘arbiy Yevropada ikki asr arab tili o‘rgatildi va bu darslik Yevropada arabshunoslikning keyingi rivojiga jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Leyden universiteti arabshunoslik va umuman sharqshunoslikni an’anaviy markazi bo‘lib qoladi. Hozirgi kunda ham u o‘z mavqeini yo‘qotgani yo‘q. Bu yerda arab qo‘lyozmalarini o‘rganish va tanqidiy nashr etishga ilmiy asoslar solindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XVII asrdan boshlab Arab Sharqi mamlakatlari bilan G‘arbiy olimlar aloqalari mustahkamlanadi. Arab milliy leksikografiyasi asosida arab leksikografiyasi rivojlanadi (Ya.Gopius). Angliyada tarixiy mazmundagi arab asarlari asosida arablarning islom oldi va islomdan keyingi tarixini, musulmon diniy adabiyotini o‘rganish boshlanadi. Olimlar arab tili va ilohiy yozuvlarning qadimgi tillarini XVII-XVIII asrlarda o‘rganib, arab, xaldey, suriya va efiopiya tillarining o‘xshashligini

aniqlaydilar, bu esa keyinchalik mazkur tillarni o‘rganishda tarixiy-qiyosiy yondashuvga asos solib, ularning qardoshligini aniqlashga xizmat qiladi.

Asta-sekin G‘arbiy Yevropa arabshunosligi fan sifatida teologiyadan ajralib ketadi. Bir qator olimlar, ayniqsa, Angliyada g‘arb uchun arab so‘z san’atining estetik qadrini ochib beradi. XVIII asr oxiri - XIX asr boshida arab she’riyati bo‘yicha tarjima va asarlar paydo bo‘ladi. Maorif davrining ma’naviy va madaniy ta’siri, Napoleon ekspeditsiyasining Yaqin Sharqdagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari, Shampolion tomonidan Misr iyerogliflarining ochish-o‘qilishi natijasida Fransiyada arabshunoslik va arab tilini o‘rganish faol rivojlandi. Bu mamlakatda yirik sharq tillari maktabi shakllandi va u tez orada nazariy tadqiqotlar ilmiy markaziga aylanadi.

Por Royal universal grammatikasining paydo bo‘lishi va undagi universalizm g‘oyalarining rivojlanishi *(tilshunoslikka kirish kursini qarang)* 1810-yilda Silvestr de Sasening arab tili ilmiy grammatikasining birinchi kitobi paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu grammatika g‘arbiy Yevropa filologiyasi rivojida tub o‘zgartiruvchi bo‘lib, mazkur filologiyaning yo‘nalishini butun bir asrga belgilab berdi. XIX asr o‘rtasiga kelib, Fransiyada sharqshunoslik milliy va xalqaro markazlari, qo‘lyozmalarning katta to‘plamlari shakllanadi. Mumtoz arabshunoslik bilan bir qatorda, arab shevalariga ham qiziqish paydo bo‘ladi. Silvestr de Sase maktabi XIX asr mobaynida uning an’analarini davom ettirib, XIX asr birinchi choragida yashab ijod qilgan, ilm bilan shug‘ullangan Rossiyadagi arabshunoslar shakl- lanishiga olib keldi. Silvestr de Sase maktabi XIX asrning 1-yarmi va o‘rtasida arab leksikografiyasi bo‘yicha fundamental ishlar olib borgan, Qur’on, “1001 kecha” ertaklarini nashr ettirgan. Germaniyadagi shogirdlarining sa’y-harakatlari bilan u yanada rivojlandi.

XIX asr o‘rtasiga kelib Germaniyaning Leypsig va Gall shaharlarida yirik arabshunoslik markazlari shakllanadi. Mumtoz arabshunoslikning German maktabi arab qo‘lyozma merosi-ning an’anaviy o‘rganilishi va nashr etilishiga tayanadi. G‘arb sharqshunoslari birlashtirilishida XIX asrning 1-yarmida tashkil qilingan “Nemis sharqshunoslik jamiyati” (Zeitschrift der Deutschen Morgenlendischen Gesellschaft - ZDMG) katta o‘rin tutadi, u hozirgi paytgacha chop etiladigan davriy nashrlarga ega. Arab qo‘lyozmalarining Parij, Berlin, London, Vena, Gollandiyadagi to‘plamlari ularni o‘rganish va nashr etish bo‘yicha ishlarni davom ettirish uchun asos bo‘lib qolmoqda.

Arabshunoslikning asosiy yo‘nalishlari tilshunoslikdagi evolyutsionizm, rivojlanish, harakat, qiyosiy-tarixiy uslub va g‘oyalar ta’siri ostida taraqqiy etadi. Mazkur g‘oyalar natijasida somiy tillar tarixi bo‘yicha asarlar paydo bo‘ladi (E.Renan, 1853). Parijda somiy yozuvlarini nashr etish bo‘yicha akademik markaz tashkillashtiriladi, arab va islom tarixi bo‘yicha P.Kossen de Persevalning mashhur

asari nashr etiladi (1847). Arab ilmiy merosini o‘rganish sohasida Leydenda nashr etiladigan “Arab geografik kutubxonasi” deb nomlangan fundamental xalqaro nashr yirik hodisa bo‘ldi.

Arab tarixiy yilnomalarining nashr etilishi olimlarga arab tarixining qadimgi va o‘rta asr davrini chuqur va keng yoritish imkoniyatini beradi. Hozirgi paytgacha ham Yu.Velxauzen (1844-1918), I.Goldsier (1850-1921), Kr.Snuk Xyurgrone (1857-1936), A.Myuller (1848-1892) kabi olimlarning asarlari o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Tadqiqotning tarixiy uslubi va faktik materialga qat’iy tayangan holda Qur’on tarixi, arab tarixi, arab qabilalarining islom oldi she’riy ijodi, mumtoz arab va somiy tillarining tarixi bo‘yicha Teodor Nyoldeke (1836-1930) ning fundamental asarlari yaratiladi.

Shu bilan bir paytda arabshunos filologlar og‘zaki arab tili, arab shevalarini o‘rganishga ham e’tibor qaratadilar, bular qatoriga Vilgelm Spitta (1853-1883), Karl Follers (1857-1909), Genrix Torbeks (1837-1890), Albert Sotsin (1844-1899), Bruno Meysner (1868-1947), Martin Gartmann (1851-1918), Karlo Nallino (1872-1938), Karl Landberg (1848-1924), Gans Shtumme (1864-1936) kabi olimlar kiradi. Arab tilshunosligi qiyosiy somiyshunoslik (Yakov Bart, Zigmund Frenkel, Pol de Lagar) bo‘yicha faktik material bilan boyidi. Qiyosiy somiyshunoslik o‘z navbatida, janubiy Arabiston va Efiopiya til materiallarini jalb etuvchi asarlar bilan to‘ldiriladi (David G.Myuller (1846-1912), Eduard Glazer (1855-1908), Nikolaus Rodokonakis (1876-1945) va boshqalar.

XX asr boshiga kelib, arab she’riyati va filologik mav- zudagi asarlarni o‘rganish va nashr etishga Oksford va Kembrij kabi ingliz ilmiy markazlari ham o‘z hissalarini qo‘shadilar. Arab sharqi tarixi bilan bog‘liq arxeologiya va numizmatikaning tarkibi qismi sifatida arab epigrafikasi paydo bo‘ladi va rivojlanadi. G‘arbiy Yevropada mumtoz arab filologiyasini ko‘p tomonlama o‘rganish natijasi sifatida arab adabiyoti tarixi va somiy tillar qiyosiy grammatikasi bo‘yicha Karl Brokkelman (1868-1956)ning fundamental asarlarini hisoblash mumkin. Bu asarlar XX asr boshiga kelib, jahon arabshunosligida yig‘ilgan barcha bilim va materiallarning to‘plamidir. Bu asarlar o‘z ahamiyatini hanuzgacha saqlab kelmoqda.

Arab filologiyasidan adabiyotshunoslik, manbashunoslik, matnshunoslik, epigrafika, papirusshunoslik, paleografiya ajralib chiqadi. Somiy tilshunosligi o‘z ichiga arab tilshunosligini ham qamrab oladi. XX asrning oxirgi 10 yilligida somiy tilshunosligi kengroq fanga, ya’ni qiyosiy-tarixiy uslubga asoslangan – Somiy-homiy yoki Afrika-Osiyo tilshunosligiga kirib ketadi. XX asrda arabshunoslik o‘z geografik chegaralarini kengaytirib, Shimoliy Amerikada ham qaror topadi. AQShda arab filologiyasining ilk yo‘nalishi amaliy vazifalar bilan boshlangan edi, ya’ni buni

Amerika neft kampaniyalari faoliyati hududida og‘zaki arab shevalariga ega bo‘lish vazifasi taqozo qilgan. Bu yo‘nalish bir qator hududiy arab shevalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma va lug‘atlarning yaxlit turkumiga asos soldi. XX asr oxiriga kelib, Amerika arabshunosligi mustaqil fan hamda somiy va Afrika-Osiyo tilshunosligining qismi sifatida arab tili va uning shevalarini o‘rganish hamda tadqiq etish bo‘yicha bir qator markazlarga ega bo‘ladi.

XX asr arabshunosligi rivojlanishida unga arab olimlari qo‘shilganligi muhim hodisa bo‘ldi. Yetakchi arab mamlakatlari (Misr, Suriya, Iroq, Tunis, Marokash, Iordaniya) ilmiy markazlarida arab filologiyasi milliy filologik an’ana va uning xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda arab merosini mumtoz g‘arbiy filologiya va adabiyot hamda til o‘rganishning zamonaviy uslublari yutuqlarini hisobga olgan holda tadqiq etadi. Qohira, Damashq va Bog‘dodda universitet markazlaridan tashqari "Arab tilini o‘rganishning akademik markazlari" tashkil qilinadi.

Arab tilshunosligining asosiy muammolaridan biri sotsio- lingvistik muammo bo‘lib, ikki tillilik hodisasini hal etish, arab adabiy tili va og‘zaki shakli o‘rtasidagi chegarani bartaraf etish, arab davlatlari o‘rtasidagi ilmiy atamashunoslikni birxillashtirish (unifikatsiya), savodsizlikni bartaraf etish va adabiy tilga ega shaxslar doirasini kengaytirish singarilarda namoyon bo‘ladi. Arab tilshunosligi va filologiyasi rivojiga hozirgi davrda Polsha (arabshunos somiyshunos Anujey Zaborskiy), Chexiya (Karl Petrachen maktabi shogirdi – Petr Zamanek), Sloveniya (Ladislav Drozdin va uning o‘quvchilari), Bolgariya (lingvist-arabshunos Penka Samsareva) ilmiy markazlari va ularning vakillari katta hissa qo‘shmoqdalar. Arabshunoslik va somiyshunoslik borasidagi tadqiqotlar Ispaniya (F. Korrente), Skandinaviya (Paolo Xeikki, Yan Retso), Gollandiya, Belgiya an’anaviy markazlarida ham davom etmoqda.

XX asr o‘rtalariga kelib arabshunoslik barcha yo‘nalishlarining yakun va natijalari Islom ensiklopediyasida o‘z aksini topadi. XX asr o‘rtalarida (1950) Berlinda **Iogann Fyuk**ning arab tili tarixi bo‘yicha ilk tizimli ocherki nashr etiladi. Mumtoz arab adabiyotshunosligi, uning keng faktik va bibliografik materiallari arabshunoslik german maktabining vakili bo‘lgan **Fuat Sezgin** (1967-1984) tomonidan **"Arab yozma adabiyoti tarixi"** bo‘yicha asarda o‘z aksini topadi. Mumtoz arab filologiyasi (tilshunoslik va adabiyotshunoslik)ning natijalari, mazkur sohalarda yangi material, kashfiyot va tadqiqotlar natijasi Germaniyada mualliflar jamoasi tomonidan 1982-1987-yillarda chop etilgan ikki jildli asarda o‘z aksini topgan.

Hozirgi paytga qadar yakuniga yetmagan, hujjatli materiallarga asoslangan holda davom ettirilayotgan katta xalqaro asar mumtoz va zamonaviy arab tilining

arabcha-fransuzcha-inglizcha lug‘atidir ***(Parijda nashr etiladi)***. Mumtoz arab tilining xuddi shunday lug‘ati (materialning boshqa to‘plamiga asoslangan) jamoaviy tarzda 1957-yildan boshlab Germaniyada nashr etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Sh.M. Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” 2017-yil
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 08.02.2017. №28.
3. Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi. ToshDShI, 2010. 110 b.
4. Zabotkina. Zamonaviy ingliz tilining yangi lug’ati. M .: Oliy maktab, 1989 yil.
5. Белкин В.М. Арабская лексикология М.1975 с.296

YAPONIYADA QADIMIY XUDOLAR VA YAPONLARNING AFSONALARGA MUNOSABATI

D.R. Radjabov
SamDCHTI Uzoq sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi
+998933490292 ganbarediyor@mail.ru

ANNOTATSIYA

Yapon xalqi judayam xudojo'y va turli dinlarga e'tiqod qilishadi. Ushbu Osiyo mamlakatining mifologiyasida odamlar uchun muhim bo'lgan turli sohalarga mas'ul bo'lgan yettita baxt xudolari mavjud. Ko'pincha ular daryoda suzib yuradigan kichik raqamlar shaklida taqdim etiladi. Qadimgi Yaponiyaning afsonalari bu xudolarning paydo bo'lish jarayonini turli xil tushuntiradi. Izanagi yurishi paytida Amateras xudosi Susanoo bilan birga paydo bo'lgani haqida afsona mavjud. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, u o'ng qo'lida ulug'vor xudo tomonidan ushlangan oq misdan qilingan oynadan chiqqan.

Kalit so'zlar: *Qadimgi yapon xudolari, Tsityamiemi, oy xudosi va quyosh xudosi, fermerlarning himoyachisi, samoviy jismlar va oy, farovonlik va moddiy boylik xudosi.*

ABSTRACT

Japanese people are very pious and believe in different religions. In the mythology of this Asian country, there are seven gods of happiness who are responsible for different areas that are important to people. Often they are presented in the form of small figures floating on the river. The legends of ancient Japan explain the process of the emergence of these gods in different ways. There is a legend that Amateras appeared with Susanoo during the Izanagi campaign. According to other accounts, it came out of a mirror made of white copper held by a glorious god in his right hand.

Key words*: Ancient Japanese gods, Tsityamiemi, moon god and sun god, protector of farmers, heavenly bodies and moon, god of prosperity and material wealth.*

АННОТАЦИЯ

Японцы очень набожны и исповедуют разные религии. В мифологии этой азиатской страны есть семь богов счастья, отвечающих за разные сферы, важные для людей. Часто их представляют в виде небольших фигурок, плывущих по реке. Легенды древней Японии по-разному объясняют процесс появления этих богов. Существует легенда, что Аматерас появился вместе с Сусаноо во время кампании Идзанаги. По другим сведениям, оно появилось из зеркала из белой меди, которое славный бог держал в правой руке.

Ключевые слова: *древнеяпонские боги, Цитьямиэми, бог луны и бог солнца, покровитель земледельцев, небесные светила и луна, бог процветания и материального достатка.*

KIRISH

Kecha hukmdori va yer xudosi Tsityamiemi hisoblanadi, mifologiyada ba'zan esa xudo ayol xudosi sifatida tasvirlangan. Uning kuchni va oqimni nazorat qilish qudratiga ega ekanligiga ishonishadi.

Afsonalarga ko'ra, oy xudosi va quyosh xudosi birgalikda yashagan, biroq birodar birodarini quvib chiqarib, undan uzoqroq turishni buyurgan. Shu sababli, ikkita samoviy jismlar va oy uchraydi. Kunduzi esa quyosh chiqadi. Yaponiyaning turli shaharlarida kecha va yer xudosi Tsityamiemiga bag'ishlangan bir necha ma'bad ya'ni ibodatxonalar mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu Osiyo mamlakatining mifologiyasida odamlar uchun muhim bo'lgan turli sohalarga mas'ul bo'lgan va har xil ko'rinishga ega bo'lgan ko'plab xudolari mavjud. Ko'pincha ular daryoda suzib yuradigan kichik raqamlar shaklida taqdim etiladi. Qadimgi yapon xudolari Xitoy va Hindistonning e'tiqodlari bilan bog'liq:

1. **Ebisu** - Bu yaponiyada yagona katta xudo. U haqida har xil afsonalar mavjud.
2. **Hotei** - tabiat va rahm-shafqat xudosi. Aksariyat kishilar orzu-istaklarini bajarish uchun unga murojaat qilishadi. Uni ulkan qorni bo'lgan va keksa bir inson sifatida ko'rsatishadi.
3. **Daikoku** - odamlarning xohishlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradigan boylikning ilohi. U oddiy fermerlarning himoyachisi hisoblanadi. Uni bolg'a va guruch qopi ushlagan holda tasvirlashadi.
4. **Fukurokuju** - donolik va uzoq umr xudosi. Boshqa xudolardan tashqari, u ulkan boshi bilan ajralib turadi.
5. **Badzayten** - san'at, donolik va o'rganishni himoyalovchi boylik ma'budasi. Yaponiya mifologiyasida u go'zal qizdir va uning qo'lida milliy yaponiya belgisi - biva bor.
6. **Jurozin** - uzoq umr xudosi va u abadiy o'lmaslik iliksirini izlashda davom etadigan, deb hisoblanadi. Uni hayvon bilan va keksa odam qilib ko'rsatishadi.
7. **Biesamonten** - farovonlik va moddiy boylik xudosi. U jangchilar, huquqshunoslar va shifokorlarning aziz avliyolari hisoblanadi. Uni qurol va nayza bilan tasvirlashadi.

Milodiy 712 va 720-yillarda tugallangan Kojiki va Nihon Shoki yapon mifologiyasi va tarixdan oldingi ikkita eng ko‘p havola qilingan va eng qadimgi manbalarga ega edi. Sakkizinchi asrda Yamato davlati davrida yozilgan ikkita to’plam Yaponiya arxipelagining, uning xalqining va imperator oilasining kosmogoniyasi va afsonaviy kelib chiqishi bilan bog’liq. Kojiki va Nixon Shoki yozuvlariga asoslanib, imperator oilasi quyosh ma’budasi Amaterasu va uning nabirasi Ninigidan to’g’ridan-to’g’ri kelib chiqishini da’vo qiladi.

Empress Gemmei hukmronligi ostida, Hideya Noarening Yaponiya arxipelagi tarixi va uning mifologik kelib chiqishi haqidagi xotiralari yozib olingan. Hideya Noarening qayd etishicha Kojiki imperator Genshoning suverenlik davrida kanji belgilarida yozib qo‘yilgan. Yamato davrida Yaponiya xalqi, madaniyati va imperator oilasining tarixiy va afsonaviy kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan yana ikkita eng qadimgi omon qolgan matnlar bo‘lgan *fudoki* va *Man’yoshu* yaratildi.

Edo davridagi yapon olimi Motoori Norinaga Kojikini talqin qilgan va uning sharhlari, izohlari va talqinlarini to‘ldirish uchun muqobil manbalardan foydalanishda bugungi kunda olimlar tomonidan yapon miflarining hozirgi tushunchasiga ta’siri o‘rganilmoqda.

Yaponiyaning yaratilish hikoyasini xudolarning tug‘ilishi (Kamiumi) va yerning tug‘ilishi (Kuniumi) ga bo‘lish mumkin. Ilohlarning tug‘ilishi ibtidoiy davrdan paydo bo‘lgan xudolarning birinchi avlodi, keyingi yetti avlod xudolarini yaratgan xudolar triosining paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. Oxir-oqibat, Izanagi va Izanami aka-uka va opa-singillar bo’lib, ularga sovg’a qilingan Ame-no-nuhoko ("Samoviy marvaridli nayza") ismli zargarlik buyumlari bilan bezatilgan naginatadan foydalanishdi. Izanagi Yaponiya arxipelagining birinchi orollarini Naginatani suvlariga botirib yaratdi. Tarixchilar Izanagining birinchi yapon oroli Onogoroni yaratganligi haqidagi afsonani yapon mifologiyasidagi dastlabki namuna sifatida izohladilar.

Yapon mifologiyasining eng qadimgi yaratilish afsonalari odatda o‘lim, parchalanish, yo‘qotish, chaqaloq o‘ldirish va ifloslanish kabi mavzularni o‘z ichiga oladi. Yaratilish afsonalarida poklanish, tantanali tartib va erkaklarga katta ahamiyat

beriladi. Misol uchun, Izanagi va Izanami birlashish marosimiga urinishganidan keyin tug'ilgan birinchi bola oyoq-qo'llari va suyaklarisiz tug'iladi va ota-onalar bolani qayiqda dengizga tashlaydilar. Izanagi va Izanami keksa xudolardan nega farzandlari suyaksiz va oyoq-qo'lsiz tug'ilganini so'rashganda, ularga bu marosimni to'g'ri o'tkazmaganliklari va erkak har doim ayolning oldida gapirishlari kerakligini aytishadi. Qadimgi xudolarning ko'rsatmalariga to'g'ri amal qilgandan so'ng, ular ko'plab bolalarni tug'diradilar, ularning aksariyati Yaponiya arxipelagining orollaridir. Ularning farzandlari orasida Ōyashima yoki Yaponiyaning to'qqizta buyuk orollari - Avaji, Iyo, Oki, Tsukushi, Iki, Tsushima, Sado va Yamato boladi. Izanami tug'diradigan oxirgi bola olov xudosi Kagutsuchi (olov mujassamlanishi) ning alangasi uni o'ldiradi va Izanagi qayg'uga botgan g'azabda bolani o'ldiradi. Bolaning jasadi yanada ko'proq xudolarni yaratadi. Keyin Izanami Hiba tog'ida, eski Izumo va Xoki viloyatlari chegarasida, Shimane prefekturasining hozirgi Yasugi yaqinida dafn qilindi.

Bugungi kunda zamonaviy yaponiyaliklar qadimgi yapon orollarida yashaganlar Ainu xalqi deb bilishadi. Darhaqiqat, bu hozirgi holat emas, bugungi kunda juda oz odamlar Ainu xalqi minglab yillar davomida yapon orollarida yashaganligini eslashadi. Ainu xalqi Mongoloid irqi bilan hech qanday aloqasi yo'q, ular oq irqning odatiy soqolli vakillari. Ular Jomond madaniyatini yaratganlar. Ainu Yaponiyaning qaysi orollarigacha bo'lgan joyda yashagani ma'lum emas, ammo ma'lum bo'lishicha, Jomodagi davrda Ryukyudan Hokkaydogacha bo'lgan barcha Yaponiya orollarida yashagan Ainu xalqi Saxalin, Janubiy Kuril orollari va Kamchatka janubining uchinchi qismida ham istiqomat qilishgan.

Tarixchilarning fikriga ko'ra, Jomodagi davrning o'rtalaridan Mongoloid guruhlari, Janubi-Sharqiy Osiyo va Janubiy Xitoydan kelgan muhojirlar Yaponiya orollariga kela boshladilar. Ainu, bularning ma'nosini bilib, ming yillar davomida yashagan hududlarni baham ko'rishni istamadi.

Ba'zi manbalarda Yamato shtatining ayrim shaharlarida bosqinchilariga qarshi urush e'lon qilingan. Yamato shtati esa qadimgi Ainu davlati edi.

REFERENCES

1. Kelsey, W. Michael (1981). "The Raging Deity in Japanese Mythology". *Asian Folklore Studies* **40** (2): 213–236.
2. Струве В.В. История Древнего Востока. М., Л., 1940.

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA SHOIR ESTETIK KONSEPSIYASINING AKS ETISHI

Xolliyeva Madina Bahodir qizi
Qarshi davlat universiteti
Filologiya tillarni o‘qitish, o‘zbek tili, 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. Sherzod Akramov

ANNOTATSIYA

Maqolada Abdulla Oripov lirik asarlarida shoir estetik konsepsiyasining aks etishi va tuyg‘ularining kamol topib borishi haqida to’xtalilgan. Ijodkorning ushbu maqsadini amalga oshirishi uchun shoir estetik konsepsiyasidan unumli foydalanganligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *she’riyat, o‘zbek lirikasi, soxtakorlik, quruq shiorbozlik, inja tuyg‘u, inson qalbi, individual qobiliyat, intellekt, simfoniya, vatan, ona tabiat, til sofligi, millat manfaati, samimiyat, haqiqat.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается отражение эстетической концепции Абдуллы Орипова и развитие его чувств в лирических произведениях поэта. Исследовано, как художник эффективно использовал эстетическую концепцию поэта для реализации этой цели.

Ключевые слова: *поэзия, узбекская лирика, фальшь, пустой лозунг, капризное чувство, человеческое сердце, индивидуальная способность, интеллект, симфония, родина, чистота языка, интерес нации, искренность, правда.*

ABSTRACT

The article focuses on the reflection of the poet's aesthetic concept and the maturation of his feelings in the lyrical works of Abdulla Oripov. The artist's effective control of the poet's aesthetic concept in order to realize this goal has been studied.

Key words: *poetry, Uzbek lyrics, falsehood, hollow sloganeering, delicate feeling, human conscience, individual ability, intellect, symphony, motherland, mother nature, purity of language, interest of the nation, sincerity, truth.*

KIRISH

XX asrning o‘rtalari o‘zbek lirikasi davr she’riyatida alohida ahamiyatga ega. Negaki, soxtakorlik, quruq shiorbozlik davom etayotgan tarixiy bir sharoitda inson ko‘ngli, qalbida kechayotgan tuyg‘ularni ayta olish ulkan hodisa edi.

Milliy adabiyotimizning fidoyilaridan bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon va Fitratlar boshlab bergan yangi tizim, samimiy misralar, inson qalbi manzarasi inkishofini maqsad qilgan satrlarga ega vazn keyingi she’riyat tabiatini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. XX asr o‘zbek adabiyoti ijod olamiga o‘z so‘zi, ovozi bilan betakror, favqulodda iste’dodga ega bo‘lgan bir guruh shoir va adiblarni ma’naviyatimiz rivoji uchun eng zarur vaqtda taqdim etdi.

Abdulla Oripov mana shunday shoirlar sirasiga kiradi. U she’riyat bilan birga o‘sdi, ulg‘aydi. Xuddi tuyg‘ulari kamol topib, o’sib borgani kabi adabiyotga qarashi, uning masalalariga muayyan munosabati ham shakllanib bordi. Har bir odam o‘ziga xos individual qobiliyat va intellekt sohibi. Lekin buning o‘zi yetarli emas. Odam ma’lum sohada muayyan natijaga erishishi uchun, albatta, ilmiy va amaliy maktablarni o‘tamog‘i lozim. Abdulla Oripov mana shu maktabni ulug‘ ustozlarga ma’naviy shogirdlikka tushish, qolaversa, hayot tajribasi yordamida o‘tadi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Davlat madhiyasining muhokamasiga bag‘ishlangan majlisda: “Abdulla Oripovdek shoirlar yuz yilda bir marta dunyoga keladi” [1], deb aytgan edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shoir ijod olamiga kirib kelgan ilk davrlardanoq so‘zga, badiiy ijodga yuksak hurmat va o‘ta ehtiyotkorlik bilan yondashgan. “Abdulla Oripov ijodida har bir so‘z uzukka qo‘yilgan ko‘zdek nurlanib, mazmun bilan uyg‘unlik hosil qiladi. Har bir she’r simfoniya, uning o‘z notasi bor. Bu she’rlarning yana bir xususiyati shuki, chaqmoqqanddek til ostida olib yursangiz, ta’mi chiqaveradi. Oqibatda bu she’rlar ixtiyorsiz yodda qoladi [2].”

Abdulla Oripov lirikasini o‘rganish, she’rlarining biografik asosi va ijodkor shaxsiy kechinmalarining o‘zaro aloqalari chegarasini aniqlab olish, undagi ma’naviy-ruhiy quvvatlarni o‘qish va uqish, hayotiy, falsafiy xulosalardan ibrat olish bugungi avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Shoir badiiy adabiyotga kirib kelgan ilk kunlardan boshlab, Vatan, ona tabiat, til sofligini saqlab qolishga doir mavzularni qalamga oldi. Dastlabki she’rlaridan tortib, to umrining so‘nggi damlarida yozilgan asarlarining barchasida ifodalangan millat manfaati, samimiyat, haqiqatga xizmat qilish kabi tushunchalar shoir hayotining bosh a’moli ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shoir umrining so‘nggi yillarida xastalik tufayli xorij shifoxonalarida davolandi. Lekin o‘sha og‘ir damlarida ham bir lahza bo‘lsa-da she’riyatdan uzoqlashmadi. Masalan, “Ummon bo‘yidagi o‘ylar” she’ri yirik hajmda ya’ni 80 misradan iborat. Bu she’r 2015-yil 1-sentabrda yozilgan bo‘lib, vatanimiz mustaqillik bayramiga bag‘ishlovdir. Shoir garchi jisman og‘riqlar

iskanjasida bo‘lsa ham, qalban yurtidan bir lahza ham ayro tushmaganini guvohi bo‘lamiz.

Mening ko‘z o‘ngimdan har lahza, har dam Aslo ketgan emas yurtim jamoli.
Uzoq bu ummonda suzib yursam ham,yuzimga urildi go‘yo shamoli…

Goho tig‘ tagida turib ham Vatan kelajagi va ravnaqi borasida o‘y surish ulkan jasoratdir. Yaratgandan umid qilganda ham o‘z salomatligi emas, balki Vatani kelajagi borasida o‘tindi.

Bir umr kurashdik orzular uchun, Havoyi so‘z aytib, o‘rtama jonni. Dunyo karvonining boshida bir kun Ko‘rsam yetarlidir O‘zbekistonni[3].

Shoir har jabhada mukammallikni ko‘rishni orzu qiladi, dunyoda insof, mehr, diyonat, adolat, vijdon kabi matlablar tobora noyoblashib borayotganligidan tashvishga tushadi. Insonni badiiy-falsafiy talqin qilish shoir ijodida inson talqinining xarakterli xususiyatini tashkil etadi.

“She’r – ruhiy holat mahsuli. Ruh va tafakkur birlashgan joyda she’r paydo bo‘ladi. She’rning tug‘ilishi aks-sadoga bog‘liqdir. Miyada muvozanat buzildimi, uning aksi yo ijobiy, yo salbiy she’rni yaratadi. Fizika fanidagi musbat va manfiy zaryadlarga o‘xshash bo‘ladi. Adibda taassurot, qarama qarshilik kuchli bo‘lganda ajoyib she’rlar tug‘iladi”[4]. Ijodkor hayot yo‘lidagi dinamikasini, tarixiy va shu bilan birga ginetik tomondan kuzatishga yordam beruvchi usullardan biri biografik metod hisoblanadi.

Darhaqiqat, shoir hayotida ro‘y bergan yaxshi hodisalar yoxud dramatizmga boy voqeliklar ana shu kayfiyatni ifoda etuvchi she’rlar yaralishiga zamin tayyorlaydi. Biografik metodning maqsad va vazifasiga ijodkor tarixi va uning ish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarni o‘rganish kiradi. Biografik metod asosida, o‘rganilayotgan shaxs va uni o‘rab turgan atrof-muhit ta’siri yotadiki, asarni tahlil yoki talqin etish jarayonida unda aks etgan voqea hodisalar, yo bo‘lmasa qahramonlar xarakteri aslida o‘z hayotida uchratgan kimsalar xarakteri bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mening bitta armonim bor, Kimliging bilmay,
Sen haqingda chiqarmasin birov xulosa.
Lekin yuzsiz raqiblaring andisha qilmay,
Titkilaydi tarjimai holingni rosa [5].

Bu misralar ham lirik qahramon shaxsiy hayotiga aloqador deya ayta olamiz. Negaki atrofidagi ayrim kimsalarning lirik qahramonga bergan ozori, ba’zi paytlarda tirnoq ostidan kir qidirishlar bu kabi misralarning tug‘ilishiga zamin hozirlagandir balki. “Adolat” deb nomlangan yuqoridagi she’rda hasadgo‘ylik qoralanadi. XXI asr o‘zbek odami nega bu holatga tushib qolganidan hayratga tushadi. Bilib-bilmay

boshqa bir insonga tosh otish, nafs va mansab ilinjida begunoh odamni badnom qilish odati muazzam ajdodlarimizdan qolmagan edi-ku? Ruh va jism ehtiyoji orasidagi mezonning posangisini nega boshqara olmayapmiz? Nega har bir odam bugunga kelib o‘z qilmishiga javob bera olmay qolmoqda? Shoir bu kabi o‘ylar qarshisida ruhan ezilsa-da, lekin hasad va badbin kimsalar qilmishidan ancha baland ekanini, bu holatni taqdirdan deb qabul qilish ancha yashash uchun osonroq kechishini mana bu satrlar orqali ko‘rsatib beradi:

Tashna chog‘ing namakobni uzatsa taqdir, deysan, ushbu ishorada ma’no bor, katta. Balki suvni icholmassan, lekin baribir,

Shukronalar aytmog‘ing shart dildan, albatta…

“Inson bolalari bir sayyorada istiqomat qilar ekanlar bir-birlaridan nimanidir o‘rganishlari shart. Bir-biriga hasad bilan emas, havas bilan qarashlari lozim.

Shoir lirikasining deyarli barchasi psixobiografik asosga ega deb ayta olamiz. Lekin o‘z navbatida ularni shunchaki shaxsiy kechinma deb qabul qilmaslik kerak. Chunki u odamzotning bir yutug‘idan quvonsa, boshqasidan ranjiydi. Biz avlodlar esa buyuk ijodkorlar falsafiy xulosalaridan ibrat olishimiz, adabiy merosini anglashimiz va amal qilishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. A.Oripov. Adolat ko‘zgusi.-T.: “Adolat”2005 yil.
2. Ozod ruh falsafasi. I.G‘aniev, N.Afoqova. T., “Fan” nashriyoti.
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., 2016, 221-bet
4. “Go‘zallik qasri”// “Sovet O‘zbekistoni”, 1989 y. 20- sentabr.
5. Oripov A. Tanlangan asarlar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., 2016, 278-bet.
6. Uzoq Juraqulov. Hududsiz jilva. T;. “Fan” nashriyoti 2006 y. 22-bet.
7. Abdulla Oripov ijodiy konsepsiyasida milliy ma’naviyat masalasi. O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2018, - № 1/3 B. 395-399
8. “She’riyatning mangu qo‘shig‘i”. “Konstitutsiya – inson huquqlari va erkinliklarining kafolati” mavzuidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. TVChDPI . 2019. 29-31-betlar
9. “Abdulla Oripov lirikasida diniy-ma’rifiy tushunchalar talqini”. Til, adabiyot va tarix masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 2019 y.
10. Abdulla Oripov lirikasining psixobiografik tadqiqi (2009-2016 yillar she’riyati misolida). “Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta’lim: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy ishlar to‘plami. Tom 1. Chirchiq, 2019, 71-73 betlar

11. Alisher Navoiy lirikasida qadimgi turkiy so‘zlar. “Sharq yulduzi” jurnali. 2020-yil, 8-son.
12. АВАЗНАЗАРОВ, О. (2022). АЛИШЕР НАВОИЙ ДОСТОНЛАРИДАГИ ЙЎЛ, ЙЎЛОВЧИ, САФАР ВА МАНЗИЛ ТАЛҚИНЛАРИДА БАДИИЙ ТУШЛАРНИНГ РОЛИ. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 2(3).
13. Avaznazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF THE IMAGE OF SAKI IN THE NAVOI’S LITERARY AND HISTORICAL MISSION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(3), 1-17.
14. Авазназаров, О. (2023). ALISHER NAVOIY–ULUG ‘YO ‘LBOSHCHI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/1), 76-82.
15. Авазназаров, О. Р. (2019). Соқий образи генезиси. Урганч: Ilm sarchashmalari, 11, 71-75.
16. АВАЗНАЗАРОВ, О. Р. (2019). IMAGE OF WINE IN LYRICS OF NAVOI. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 150-162.
17. Авазназаров, О. (2018). Абдулла Орипов ижодида най тимсоли.
18. Avaznazarov, O., & AVAZNAZAROV, O. (2019). "Lison ut-tayr"da tush motivi.
19. AVAZNAZAROV, O. (2019). THE ROLE OF THE IMAGE OF SAKI IN THE POEM “HAYRAT UL-ABROR”.
20. Нуриддинов, Ш. Б., & Авазназаров, О. Р. (2015). Эпизоды сна в поэме Алишера Навои «Семь планет». Молодой ученый, (12), 942-944.
21. Tog‘aymurodovich, T. A. M., & Rahmatulloyevich, A. O. (2023). RAUF PARFI SHE’RIYATIDA RADD BADIIY SAN’ATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 217-221.
22. Tog‘aymurodovich, T. A. M., & Rahmatulloyevich, A. O. (2023). ALISHER NAVOIY BOLA TARBIYASI XUSUSIDA. Journal of new century innovations, 23(1), 184-187.
23. Inoqova, N., & Avaznazarov, O. (2023). ONA TILI HAQIDAGI SHE’RLARDA TARIXIY XOTIRA TALQINI (ISTIQLOL DAVRI SHE’RIYATI MISOLIDA). Наука и технология в современном мире, 2(9), 58-62.
24. Axadova, H. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA ODOB KONSEPSIYASI. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(6), 15-18.
25. Shermamatova, S., & Shodmonov, G. (2023). AVAZ O‘TAR IJODIDA MA’RIFATPARVARLIK. Talqin va tadqiqotlar, 1(21).

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
(E)ISSN:2181-1784
www.oriens.uz
3(4/2), April, 2023

ҲУДУД ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛЛИКНИНГ ЎРНИ

Мадаминов Инъомжон Озодович
Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси, PhD
iomadaminov@list.ru

АННОТАЦИЯ

Тажрибадан маълумки, мамлакат иқтисодий тараққиётга эришиши учун инновацион иқтисодиётни барпо этиши зарур. Бунга эришишда инвестицияларнинг ўрни беқиёс. Чунки бугунги глобаллашув дунёсида содир бўлаётган ҳолатлар ҳар бир мамлакат иқтисодиётига ўз таъсирини кўрсатади. Мамлакат иқтисодиётига ушбу ҳолатлар салбий таъсир кўрсатмаслиги учун инвестицион ва инновацион фаолликни таъминлаши долзарб ҳисобланади. Айнан ушбу мақола юқоридаги масалар ечимига бағишланган.

Калит сўзлар: *инвестиция, инновация, илмий-техника тараққиёти, инновацион жараёнлар, инвестицион жараёнлар, молиялаштириш, миллий иқтисодиёт.*

АННОТАЦИЯ

Из опыта известно, что для того, чтобы страна достигла экономического развития, необходимо создать инновационную экономику. Роль инвестиций в достижении этого неизмерима. Потому что события, происходящие в современном глобализированном мире, влияют на экономику каждой страны. Важно обеспечить инвестиционную и инновационную активность, чтобы эти ситуации не оказали негативного влияния на экономику страны. Данная статья посвящена решению вышеуказанных проблем.

Ключевые слова: *инвестиции, инновации, научно-технические разработки, инновационные процессы, инвестиционные процессы, финансирование, национальная экономика.*

ABSTRACT

It is known from experience that in order for a country to achieve economic development, it is necessary to create an innovative economy. The role of investment in achieving this is immeasurable. Because the events taking place in today's globalized world affect the economy of each country. It is important to ensure investment and innovation activity so that these situations do not have a negative

impact on the country's economy. This article is devoted to solving the above problems.

Key words: *investments, innovations, scientific and technical developments, innovation processes, investment processes, financing, national economy.*

КИРИШ

Инновацияларни жорий этиш ҳар қандай давлатнинг иқтисодий ўсишни ва бозорнинг рақобатбардошлигини таъминлашдаги муҳим омили сифатида қаралади. Бугун кўплаб давлатлар томонидан илмий тадқиқот ва инновацион фаолиятни ривожлантиришга катта миқдорда инвестициялар йўналтирилмоқда. Чунки фаол инвестиция ва инновация сиёсати орқали ҳудудларнинг иқтисодий ривожланишини таъминлаш мумкин. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъбири билан айтганда “Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, қайси давлат фаол инвестиция сиёсатини юритган бўлса, ўз иқтисодиётининг барқарор ўсишига эришган. Шу сабабли ҳам инвестиция – бу иқтисодиёт драйвери, ўзбекча айтганда, иқтисодиётнинг юраги, десак, муболаға бўлмайди. Шу билан бирга “.... мамлакат тараққиётининг замини, ҳеч шубҳасиз, илм-фан ва инновациялардир”. Шундай экан, миллий иқтисодиётнинг инновацион ва инвестицион фаоллигини таъминлашда молия-кредит механизмининг “..энг муҳим ижтимоий-иқтисодий вазифалар, тармоқ ва ҳудудлар бўйича мақсадли дастурлар, устувор инвестиция лойиҳалари ва бошқа долзарб вазифалар бажарилишини танқидий таҳлил қилиш юзасидан амалдаги мавжуд тизим самарадорлигини оширишимиз лозим” [1].

Мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар негизида нафақат корхоналарда ишлатиладиган техника ва технологик жараёнларни янгилашни, балки ҳудудларда иқтисодий юксакликка эришиш масалаларини такомиллаштириш вазифаси ётади. Шунинг учун ҳам иқтисодиётда инвестицион ва инновацион фаолликни таъминлаш орқали ҳудудлар иқтисодиётини ривожлантиришнинг аниқ механизмини такомиллаштириш ҳамда амалиётда қўлланиладиган айрим жиҳатларини тадқиқ этиш катта аҳамиятга эга.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Маълумки, инвестицион ва инновацион фаолликни таъминлаш орқали ҳудудларни иқтисодий ривожлантириш масаласи бугунги куннинг долзарб вазифалари сирасига кириб бормоқда. Бу борада хориж ва маҳаллий иқтисодчи олимлар томонидан қатор изланишлар олиб борилган. Жумладан, Й.Шумпетер инвестицион ва инновацион фаолликни таъминлаш борасида муносиб ҳисса

қўшишган [2]. МДҲ иқтисодчи олимларидан В.И.Верандский ўз илмий тадққотларида мавзу доирасида ўрганишлар олиб боришган [3]. Шунингдек, А.Г.Гранберг ҳудудлар турли аломатлар ва майдонлари бўйича бир-биридан фарқ қилгани учун уларни минтақаларга ажратиш зарурлигини таъкидлайди. Минтақа таркибий элементларининг яхлитлиги, ўзаро боғлиқлиги билан ажралиб турувчи маълум ҳудуддир. Мамлакат ҳудудини минтақаларга бўлиш районлаштириш [4, 43] - деб аталади. Мамлакатимиз иқтисодчи олимларидан С.С.Ғуломов, Ф.Б.Шакирова, Н.Рахматов, А.Мирзаев, М.Амонбоевларнинг тадқиқотларида корхоналар фаолиятини инновацион бошқариш масалаларига урғу берилган. Биз эса инвестицион ва инновацион фаолликни таъминлаш орқали ҳудудлар иқтисодиётини ривожлантириш масалаларини ўргандик ва таҳлиллар олиб бордик.

ТАҲЛИЛИЙ НАТИЖАЛАР

Республикада сўнги йилларда хорижий давлатлар ва халқаро молия ташкилотлари раҳбарлари, жаҳоннинг етакчи ишбилармонлари билан музокаралар ўтказилиб, мамлакатимизга бир неча ўн миллиардлаб АҚШ доллар инвестиция жалб этиш бўйича кўплаб инвестиция битимлари имзоланди. Маълумки, бозор иқтисодиёти шароитида ҳар бир мамлакатнинг минтақалари иқтисодиёти рақобатбардошлигини таъминлайдиган ишончли ўз ривожланиш стратегияси бўлиши керак. Шунинг учунн ҳам 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси”да айни юқоридаги масалалар белгилаб берилган эди [5]. Тажриба шуни кўрсатадики, минтақалараро иқтисодий ҳамкорлик фаолият турларини диверсификация қилиш, ишлаб чиқариш кучларини жойлаштиришнинг замонавий шаклларини жорий этиш ҳамда маҳаллий маҳсулот ва хизматларни сотиш, хомашё сотиб олиш, мамлакатлар минтақалари ўртасида инвестиция ва меҳнат ресурслари ҳаракатида кузатиладиган тўсиқларни бартараф этишга кўмаклашади. Бу орқали инвестицион ва инновацион фаоллик таминланади ҳамда ҳудуд иқтисодиётини ривожлантиришга эришилади.

Давлат ва инновацион жараён иштирокчилари ўртасидаги муносабатларнинг умумий қабул қилинган тушунчалари: учта (*отм-корхона-давлат*) ва унинг ривожланаётган модификацияси ҳамда фан-таълим ва ишлаб чиқариш (фан – таълим – бизнес – давлат – фуқаролик жамияти институтлари) моделидир.

1-расм. Ҳудудни ривожлантиришнинг инновацион жараёни ва унинг бизнесга таъсири [6]



Юқоридаги 1-расмда ҳудудни ривожлантиришнинг инновацион жараёни ва унинг бизнесга таъсирида молиялаштиришни ташкил этиш ҳамда қўллаб-қувватлаш бўйича қарорлар қабул қилишда корхоналар ўз инновацион таклифлари билан чиқишлари, ҳудуд раҳбарлари эса унинг самарадорлик жиҳатларига алоҳида эътибор қаратишлари шунингдек, буларни устувор лойиҳалар реестрида эътиборга олишлари керак бўлади.

Мамлакатимизда сўнгги йилларда инвестициялар оқимини кучайтириш, фан-техника ютуқларини иқтисодиёт тармоқларига, ижтимоий ва бошқа соҳаларга кенг қўллаган ҳолда замонавий инновацион технологияларни тезкор жорий этиш, ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик жиҳатдан қайта жиҳозлашни рағбатлантиришга қаратилган самарали ишлар жорий қилинди. Чунки Ўзбекистон Республикаси ва унинг ҳудудларини жадал ривожланишининг муҳим шарти ҳисобланади. Масалан, 2000-2021 йилларда асосий капиталга ўзлаштирилган инвестицияларнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини ҳам таҳлил қиладиган бўлсак, асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар 2000 йилда 744,5 млрд. сўмни ташкил қилган. 2021 йилга келиб эса 244962,6 млрд. сўмни ташкил қилган. Асосий капиталга ўзлаштирилган

инвестицияларнинг ЯИМдаги улуши эса 2000 йилда 22,9 фоизни ташкил қилган бўлса, 2021 йилга келиб 33,3 фоизга мос равишда ўсган. Асосий капиталга ўзлаштирилган инвестицияларнинг ЯИМдаги улушининг энг юқори нуқтаси 2019 йилда кузатилган. Бунда унинг салмоғи ЯИМга нисбатан 37 фоизга етган, 2021 йилга келиб 3,7 фоизли пунктга пасайган.

Шунингдек, 2019-2021 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясининг амалга оширилиши натижасида иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада, шу жумладан қишлоқ хўжалиги, энергетика, қурилиш, таълим, соғлиқни сақлашда инновацион ва технологик ривожланишни таъминлаш ва рағбатлантириш борасида катта ютуқларга эришилди. Хусусан, Республикамиз 81 та индикатор бўйича баҳоланадиган Глобал инновацион индекси рейтингида юқори поғонага кўтарилди. Инновация ва илм-фан соҳаларига Давлат бюджетидан ажратиладиган йиллик маблағлар ҳажми 2018 йилга нисбатан 3 бараварга оширилди. Шу билан бирга, иқтисодиётнинг реал секторида илмий ва инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш даражаси, илм-фан, таълим ва саноат ўртасидаги ҳамкорлик алоқалари нисбатан паст бўлиб қолмоқда.

Умуман олганда, Республикамизда инвестицион ва инновацион фаолликни таъминлаш орқали ҳудуд иқтисодиётини ривожлантиришда саноат ва ишлаб чиқариш корхоналарини модернизациялаш ва техник янгилашни жадаллаштириш, узоқ муддатли инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш билан бевосита боғлиқ. Ҳозирги кунда инвестицион ва иннвоацион фаолликни таъминлаш орқали ҳудуд иқтисодиётини ривожлантиришда турли манбалардан жалб этилаётган инвестиция лойиҳаларини самарадорлик жиҳатларига ҳамда унинг ҳудуд ёки тармоқ ривожланишига таъсир этиш имкониятларини баҳолаш зарур бўлади.

ХУЛОСА

Бизнингча, мамлакатда инвестицион ва инновацион фаолликни таъминлаш орқали ҳудуд иқтисодиётини ривожлантириш учун қуйидагиларни амалга ошириш зарур:

- ҳудудлар инвестицион жозибадорлигини ошириш;
- инновацион жараёнларни олиб борувчи малакали кадрларни тайёрлаш ва уларнинг малакасини доимий равишда ошириб бориш;
- ҳудудларда инновацион маҳсулот ишлаб чиқарувчи янги корхоналарни барпо этиш;
- мавжуд ишлаб чиқариш қувватлари ва инфратузилмани янгилаш;

❖инновацион ғоялар генерациясини амалга оширувчи аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиш, шунингдек, маҳаллийлаштириш ишларини янада жадаллаштириш мақсадга мувофиқ.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони.Т., 2017 йил 7 февраль.
2. Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.- 592 б.
3. Schumpeter J. Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung – Berlin: Duncker & Humblot, 1912.; Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. Practice and Principles. – London: Heinemann, 1984.
4. Вернадский, В. И. Биосфера и ноосфера [Текст] - М.: Айрис-пресс, 2012. - 576 с.; Шерешева, М. Ю. Соотношение понятий «информационная экономика» и «экономика знаний» [Текст] // Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика. - 2008. – № 5. – С. 24-31.
5. Гранберг А. Г. Основы региональной экономики : учебник для вузов / А. Г. Гранберг ; Гос. ун-т, Высш. шк. экономики. - 5-е изд.. - М. : ГУ ВШЭ, 2006. - 492, [2] с.: ил.
6. Шакирова Ф. Б. Развитие экономики Узбекистана на основе инновационной деятельности. // Евразийский международный научноаналитический журнал Проблемы современной экономики, N 3 (55), 2015.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.
8. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш агентлиги маълумотлари.

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
(E)ISSN:2181-1784
www.oriens.uz
3(4/2), April, 2023

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕПЛОВОГО ДВИЖЕНИЯ В ПОЛИВИНИЛИДЕНФТОРИДЕ

https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-4-2-635-638

Рахманкулов А.А.,
Хамдамов С.Х.

АННОТАЦИЯ

В твердой фазе термическое разложение PVDF протекает по-разному в зависимости от полиаморфной формы. Оказывается, что полярная β - и полярная γ – фазы быстро разрушаются по сравнению с неполярной α-фазой или раствором. При таких температурах γ – фаза, в частности, подвергается быстрому отвлечению и разлагается. выевлен его химической стойкость, что даже при высоких температурах (363 К) на ПВДФ не действуют неорганические кислоты, материалы вызывающие коррозию (галогены, окислители)

Ключевые слова: *ПВДФ, теплопроводность, модификация, наполнитель, динамическая механическая спектроскопия, термическая деструкция.*

Обеспечение полимерными материалами возрастающих потребностей различных отраслей промышленности и, в первую очередь, машиностроения, а также электротехнической промышленности, радиоэлектроники и других отраслей техники, осуществляется в нескольких направлениях. Разрабатываются новые материалы и модифицируются многотоннажные полимерные материалы, выпускаемые серийно предприятиями химической промышленности.

Основные тенденции, существующие в настоящее время в полимерной материаловедении, как раз и заключаются в разработке технических приемов модификации выпускаемых промышленностью полимеров. Модификация может производиться на различных стадиях получения или переработки полимера химическими и физическими способами. Широкое признание, в частности, получил, благодаря своей относительной технологической простоте, эффективности и экономичности, физический способ введения в полимер различных наполнителей. Среди полимеров, содержащих атомы фтора, поливинилиденфторид (PVDF) является полимером с высочайшей механической прочностью, хорошей эластичностью, высокой твердостью и гибкостью.

Свойства ПВДФ достаточно детально описаны в работах [2-4]. Строение цепей макромолекул ПВДФ было изучено многими исследователями, применявшими для этих целей различные методики [2-8].

При исследовании альфа-фазы PVDF в диапазоне частот от 1 Гц до 1 МГц методом диэлектрической спектроскопии были обнаружены три релаксационных перехода при температурах 373 К, 233 К и 203 К [2].

Четыре основных релаксационных перехода в α фазе ПВДФ были определены методами динамической механической спектроскопии [2]. На рис.1. представлены кривые зависимости температуры в дол и перпендикулярно к изотермической кристаллизации модуля Юнга (Е) .

Начинающаяся в области низких температур γ – релаксация соответствует аморфной фазе и ограниченному движению цепей, а конкретные вращениям цепей в аморфной области γ – релаксацию связывают со стеклованием, она соответствует микроброуновскому движению сегментов [2,3,6.] аморфной области. α- релаксация связана с движением молекул, изменяющим дипольное направление только вдоль оси цепи, а не перпендикулярно к ней [2]. Возможно, релаксационное поведение ПВДФ меняется не только при различных температурах, а и зависит от методов исследования этих свойств.



Рис.1.Температурные зависимости динамических механических характеристик ПВДФ: модуля накопления (Е`) и модуля потерь (Е``) изотермически кристаллизованных и направлено закристаллизованных образцов α фазы ПВДФ: 1-паралел; 2-перпендикуляр; 3-изотермически закристаллизованный образец.

К основным физико-химическим свойствам кристаллизующихся полимерных материалов, влияющих на формирование физических свойств ПКМ можно отнести следующие: особенности молекулярного строения, особенности кристаллического строения и фазового состава кристаллических областей, а также особенности характера теплого движения макромолекул и их кинетических единиц.

О характере теплового движения в ПВДФ можно судить также по изменению температуры переходов полимера и других термодинамических параметров [1]. Выращенная из расплава α- фаза плавится при более высоких температурах, аγ – фаза, появляющаяся на переходе в твердой фазе α- ПВДФ, является самой высокоплавной. На процесс плавления ПВДФ, кроме возможного сосуществования в нем полиморфных модификаций, также

значительно влияют как давление, так и другие факторы, в частности наличие дефектов *h-h* и *t-t* [2].

Термическая деструкция ПВДФ в твердой фазе протекает неодинаково в зависимости от полиморфной формы. Было обнаружено, что полярные β- и γ-формы значительно легче подвергаются деструкции, чем неполярная α- фаза или расплав. При этих температурах γ-фаза особенно быстро разрушается.

Физические свойства ПВДФ отражают то положение, которое занимают полимер в промежутке между полиэтиленом (ПЭ) и политетрафторэтиленом (ПТФЭ), исходя из количества атомов фтора на мономерное звено макромолекулы.

Для полимеров этого ряда плотность, точка плавления, стойкость к окислению и химическим воздействиям быстро увеличивается ростомсодержания фтора. По стойкости к ультрафиолетовым и γ −лучами при 100 *Мрад* ПВДФ представляет собой исключение [2] ПВДФ обладает очень хорошей стойкостью к атмосферным воздействиям и высокой гибкостью. У ПВДФ практически не наблюдается ухудщения механических свойств после многих лет эксплуатации на открытом воздухе, поэтому часто используют для покрытий внешних поверхностей зданий. ПВДФ выделяется также своими механическими свойствами среди обычных кристаллических полимеров: он занимает второе место после полиоксиметилена по приделу прочности при растяжении, по напряжению при изгибе и напряжению при сжатии, по жесткости и твердости, обладает наибольшей ударной вязкостью [4], высоким коэффициентом процуекания (80-90% цри толщине 100 мк.) в видимой области электромагнитного спектра.

Таким образом, его можно использовать для получения покрытий, пропускающих солнечный свет, ПВДФ также обладает хорошей химической стойкостью; даже при высоких температурах (363 К) на ПВДФ не действуют неорганические кислоты, материалы вызывающие коррозию (галогены, окислители), слабые основания и соли, алифатические, ароматические и хлорированные растворители.

В отличие от других полимеров фторзамещенных этилена, электрические свойства ПВДФ не позволяют использовать их в качестве высокочастотной изоляции, однако большие значения диэлектрической проницаемости, наличие сегнето- и пироэлектрических свойств [2] делают перспективным применение полимера и композиций на его основе в акусто- и пироэлектрических преобразователях [8].

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. *Годовский Ю.К.* Теплофизика полимеров. М.: Химия, 1982. 280 с.
2. Lovlnger Andrew J. Cristallization of the β^{-}p base of polivlnilidenftuoride from the melt // Polymer, 1981. 22.№ 3. С. 412-413.
3. *Рахманкулов А.А.* Влияние дисперсных наполнителей на структуру и теплопроводнсть немодифицированного и модифицированного поливинилиденфторида.: Дис. ...канд. физ.-мат. наук. Киев, 1986. 205 с.
4. *Kakutani M.* Dielectric absorption of oriented polivinildenftuoride // I. Polym. Sci., A-L, 1970. 8. Pp. 1177-1183.
5. *Рахманкулов А.А.* О механизме теплопереноса в композиционных материалах на основе поливинилиденфторида и электропрводящщих наполнителей. «Развитие науки и технологий». Между нар. научно-технический журнал, 2015. № 4.
6. *Бюллер К.У.* Тепло- и термостойкие полимеры: Пер. с нем. // Под ред. Я.С. Выгодского. М.: Химия, 1984 - 1056 с.
7. *Рахманкулов А.А*. Кристаллизация пентопластав в присутствии частиц минеральных наполнителей различного состава. Жур. «Композиционные материалы». № 1, 2003.
8. *Рахманкулов А.А., Давлатов Ф.Ф.* Исследования влияния дисперсного графита марки ГМЗ на теплофизичисские свойства и структуру поливинилиденфторида // Международный научно-технический журнал, 2019. № 3 (87). С. 11-15.

MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIDA MINERAL-XOMASHYO RESURSLARINING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Qosimova Nodira Saidovna
Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti
Tel:998(99)023-16-19
E-mail: qosimovagtiet.uz@gmail.com

Sharifova Nargiza Djurayevna
Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti
Tel:998(93)6349383
E-mail: nargizasharipova439@gmail.com

Musurmonova Adolat Ilhom qizi
Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi
Musurmonovaadolat59gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda mineral- xomashyo resurslari va zaxiradagi potensial resurslarning hududiy joylashuvi, ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri va ahamiyati haqida so‘z boradi. O‘zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlarining mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli istiqbolini belgilashi uchun ahamiyatli ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Respublika mineral-xomashyo bazasini rivojlantirishni va qayta tiklashni ta’minlash, yillik dasturning asosiy vazifalari hamda ularni shakllantirish tartiblari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan mineral xomashyo resurslari, foydali qazilma konlari, tashqi bozorni o‘zlashtirish, ijobiy savdo balansini tashkil etish, hududlararo aloqalarni mukammallashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о территориальном расположении полезных ископаемых и потенциальных запасов Узбекистана, их влиянии и значении на экономику страны. Показано, что эксплуатируемые в Республике Узбекистан месторождения полезных ископаемых имеют важное значение для определения долгосрочной перспективы экономики страны. В обеспечении развития и восстановления минерально-сырьевой базы республики показаны основные задачи годовой программы и порядок их формирования.

Ключевые слова: *Минеральные ресурсы промышленного значения, месторождения полезных ископаемых, освоение внешнего рынка, установление*

положительного торгового баланса, улучшение межрегиональных отношений, выпуск конкурентоспособной продукции.

ABSTRACT

This article talks about the territorial location of minerals and potential reserves of Uzbekistan, their impact and significance on the country's economy. It is shown that the mineral deposits exploited in the Republic of Uzbekistan are important for determining the long-term prospects for the country's economy. In ensuring the development and restoration of the mineral resource base of the republic, the main tasks of the annual program and the procedure for their formation are shown.

Key words: *Mineral resources of industrial importance, mineral deposits, foreign market development, establishment of a positive trade balance, improvement of interregional relations, production of competitive products.*

KIRISH

Mineral- xomashyo resurslari har bir mamlakatning eng muhim boylik manbaidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning turli ehtiyojini qondiradi. Mineral-xomashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, ximikatlar, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yer ostidagi mineral hosilalar qidirilmagan va baholanmagan bo'lsa, u holda ular mineral xomashyo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, holbuki ularni aniqlashga va qidirishga mehnat sarflanadi. Ammo yer ostidagi bunday mineral xomashyo zaxiralari potensial resurslar hisoblanadi, xolos. Ular yer qa'ridan qazib olingandan keyingina haqiqiy mineral xomashyo hisoblanadi. Mineral xomashyo tushunchasi foydali qazilma tushunchasi[107] bilan uzviy bog'liqdir. Yer qa'ridan qazib olingan, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar mineral xomashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi.[108] Foydali qazilmalar guruhiga ma'danli va ma'dansiz metallar, neft, gaz, ko'mir, torf va yer osti suvlari kiradi. Ular insoniyat uchun yoqilg'i va energiya manbalari hisoblanadi. Ulardan foydalanish yildan-yilga ortib bormoqda. Texnika bilan qurollanganlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, foydali qazilmalar assortimenti shunchalik ko'p bo'ladi va mineral xomashyoning ko'plab yangi turlari sanoat ishlab chiqarishiga jalb etiladi. Masalan, sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan toshko'mirdan faqat XVII asr oxiridan, neftdan XIX asr o'rtalaridan, alyuminiy, magniy, xrom va nodir

[107] Foydali qazilma - ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer qobig'idagi tabiiy mineral moddalardir.
[108] Л.П.Кобахидзе «Экономика геологоразведочной отрасли. Москва. Недра. 1990.

elementlar ma’danlaridan va kaliyli tuzlardan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan, uranli ma’danlardan esa XX asr o‘rtalaridan boshlab foydali qazilma sifatida foydalanib kelinmoqda. Odatda, foydali qazilmalar zaxiralari va prognoz qilingan resurslar miqdoriy jihatdan baholanadi. Dunyo va ayrim mamlakatlar mineral-xomashyo balansida, har bir foydali qazilma turi, zaxiralarining 70-80% dan ortig’i yirik va juda katta konlar hisobiga to‘g’ri keladi, qolganlari o‘rtacha kattalikdagi va ko‘plab mayda konlarga jamlangan. Umuman qidirib topilgan foydali qazilmalarning talaygina qismi ma’dan miqdoriga nisbatan oz bo‘lgan, yoki katta chuqurlikda va murakkab tog’- geologik sharoitlarda joylashgan konlarda jamlangan. Mineral resurslarni sanoat yo‘sinida o‘zlashtirish ularni baholashga, ilmiy- tadqiqot, izlash va geologik qidiruv ishlari va hajmiga, sanoatning o‘ziga xos xususiyatlariga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xo‘jalik mineral- xomashyo sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi roli bilan belgilanadi, hamda qazib chiqarish, boyitish va qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Mineral resurslarning qaytadan tiklanmasligi, ulardan oqilona foydalanish zarurati, qazib chiqarish, qayta ishlash va tashishda isrof bo‘lishini qisqartirish, shuningdek ikkilamchi xomashyo sifatida ishlatish va mineral resurslardan foydalanishda ekologik iqtisodiy yondoshuvga rioya qilish lozimligi bilan izohlanadi. Mineral-xomashyo resurslariga bo‘lgan ehtiyoj iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishga nisbatan jadal ortib bormoqda. Bu asosan ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish, uning energetik va texnikaviy qurollanganlik darajasini oshirish uchun ko‘p miqdorda tabiiy resurslar zarurligi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mineral-xomashyo resurslari rolining ortib borishi ularga nisbatan ehtiyojning o‘sishi bilangina emas, balki ularning o‘ziga xos xususiyatlari va mehnat unumdorligiga ta’siri bilan shartlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni rivojlantirish sur’atlari va darajasi ko‘p jihatdan foydali qazilmalardan foydalanish samadorligi ko‘lamlari va darajasiga bog’liqdir[109]. Ma’lumki, mineral-xomashyo resurslari ham ichki, ham tashqi bozorning iste’mol obekti hisoblanadi. Shu tufayli, tog’- kon sanoati ishlab chiqarayotgan mahsulotlar milliy iqtisodiyotning quyidagi muammolarini yechishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim:

• xalq xo‘jaligi talabini an’anaviy turdagi mineral-xomashyolar bilan to‘liq ta’minlash;

• tashqaridan kirib kelayotgan mineral-xomashyolar o‘rnini to‘ldirish;

• milliy xo‘jalikning yangi sohalarini xomashyo bilan ta’minlash;

[109] A.E.Ishmuhamedov, M.R.Rahimova “Mintaqaviy iqtisodiyot”. Toshkent.iqtisodiyot.2010

• ekologik vaziyatni (kimyoviy o‘g’itlarni tabiiy o‘g’itlarga almashtirish) va sanitar-gigiyenik vaziyatni (yod, brom, shifobaxsh minerallar) yaxshilanishini tashkil etish;

• tashqi bozorni o‘zlashtirish va ijobiy savdo balansini tashkil etish.

Hozirgi paytda dunyo miqiyosida yiliga 150 mlrd tonna mineral xom-ashyo qazib olinmoqda. Tabiiy nurash oqibatida dengiz va okeanlarga daryolar orqali yiliga 15 mlrd tonna tog’ jinslari oqib qo‘shilmoqda va 3-4 mlrd tonna tog’ jinslari atmosfera havosiga ko‘tarilmoqda. Inson o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yiliga 1500-2000 mlrd tonna tog’ jinslarini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chiradi. BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) ning ma’lumotlariga qaraganda, yiliga dunyoda 2,6 mlrd tonna neft, 3,6 mlrd tonna xrom ma’dani, 3-4 mlrd tonna qo‘rg’oshin ma’dani, 6 mlrd tonna temir ma’dani, 7,3 mlrd tonna mis ma’dani, 32 mlrd tonna ko‘mir, 1,2 mln tonna uran, simob, molibden, nikel, kumush, oltin va platina ma’danlari, 120 mln. tonna fosfatlar va 159 mln tonna tuz qazib olinmoqda. So‘nggi 25 yil mobaynida dunyoda ko‘mirga bo‘lgan talab 2 marotaba, kaliy, marganets va fosfor tuzlariga 2-3 marotaba, temirga 3 marotaba, neft va gazga 6 marotaba oshgan bo‘lsa, shu davr mobaynida aholining o‘sishi 40% ni tashkil etdi. Agar qazilma boyliklardan hozirgi tezlik bilan foydalanilsa, oltin zaxiralari 35 yilda, rux-36 yilda, kaliy-40 yilda, uran-47 yilda, mis-66 yilda, surma va simob zaxiralari 70 yilda neft, gaz va ko‘mir zaxiralari esa 150 yilda tugab qolishi mumkin. Shuning uchun ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar (Yaponiya, Angliya, Olmoniya, Italiya, Gollandiya, Belgiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar)da xom-ashyo va yer osti boyliklarining yetishmasligi tufayli ikkilamchi chiqindilarni qayta ishlab, boshqa mamlakatlarning boyliklaridan foydalanmoqdalar. Jahon bozorining o‘zgargan sharoitlari O‘zbekiston Respublikasi mineral xomashyo negizini ham qayta taqsimlash muammosini ilgari surmoqda. Buning uchun barcha toifadagi sanoat zaxiralari va prognoz qilingan resurslarni qisqa muddat ichida geologik-iqtisodiy baholanishi amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda Mendeleyev davriy jadvalining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirda O‘zbekistonda 2025 tadan ortiq konlar mavjud. Jumladan, qurilish materiallari bo‘yicha 867 ta, yer osti suvlarining 649 ta, uglevodorodlar (neft, gaz, kondensat) ning 244 ta, qimmatbaho metallar (oltin, kumush)ning 97 ta, rangli va nodir metallarning 12 ta, radioaktiv metallarning 38 ta, kon xomashyolarining 37 ta, kon-kimyoning 32 ta, qimmatbaho toshlarning 30 ta, ko‘mir va neft slanetsining 7 ta, qora metallarning 5 ta resursi qayd etilgan va qidirib chamalangan. Ba’zi foydali qazilmalar (oltin, uran, mis, fosforitlar, molibden va boshqalar) zaxiralari bo‘yicha O‘zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiradi. Respublikamizning umumiy mineral-xomashyo salohiyati taxminan 3,5 trillion dollarni tashkil

qiladi. Ishlatish uchun tayyorlab qo‘yilgan foydali qazilmalar zaxiralari 1025 mlrd. AQSH dollariga baholanmoqda. Shuni qayd qilish kerakki, respublikada nisbatan qisqa muddat ichida 200 mlrd. dollar miqdorida xomashyo qazib olindi. Nufuzli xalqaro konsalting kompaniyalaridan biri — BCG (Boston Consulting Group)[110] hisob- kitoblariga ko‘ra, keyingi o‘n yil ichida mamlakatning investitsiyaviy salohiyati

65 milliard AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Shundan 45 milliard dollardan ortig’i xomashyo sanoati hissasiga to‘g’ri keladi. Tayyorlab qo‘yilgan zaxiralar negizida respublikada 535 ta kon, shaxta, karyer, neft-gaz konlari, 420 ta suv olish joylari, balneologik shifoxonalar, shifobaxsh suvlarni quyish shoxobchalari ishlab turibdi. O‘zlashtirishga tayyorlab qo‘yilgan mineral-xomashyo zaxiralari nafaqat ishlab turgan kon qazib chiqarish majmualarining uzoq muddatli istiqbolini ta’minlaydi, balki ularning quvvatini oshirish, eng muhim foydali qazilmalar (oltin, uran, mis, qo‘rg’oshin, rux, kumush, litiy, fosforitlar, kaliy tuzlari, flyuorit, kvarts-dala-shpat, agrokimyoviy ma’danlar va boshqalar) qazib olishni qaytadan tashkil etish imkonini ham beradi. Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 mlrd. dollar miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular o‘rniga 6-7 mlrd. dollarlik yangi zaxiralar qo‘shilmoqda. Mamlakatimizda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining oltin ma’danli xomashyo bazasi G’arbiy O‘zbekistondagi 20 ga yaqin konlardan iborat. Ushbu konlarning umumiy ma’dan zaxirasi 2,12 milliard tonnani tashkil etadi. Ularning ishlab chiqarishda maqsadga muvofiqligi, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan tasdiqlangan amalda foydalanilayotgan zaxiralari 1,99 milliard tonnani tashkil etadi. Qolgan qismi hozirgi vaqtda istiqbolli zaxiralar toifasiga kiritilgan. Ushbu zaxiralarni sanoat o‘zlashtirilishiga jalb qilish puxta texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishni talab qiladi. Mamlakat mineral-xomashyo bazasini mustahkamlashda ulardan samarali va oqilona foydalanish lozim. Qayta ishlash sanoatida esa mahsulotni qayta ishlash darajasining takomillashuvi - qazib olish sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlashga asos bo‘ladi.

Istiqbolda mintaqada mineral-xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnika va texnologiyani maqbul boshqarish, respublika iqtisodiyotidagi muammolarni aniq belgilab, ularni hal qilishning samarali yo‘llarini izlab topishni taqozo qiladi. Bu esa katta mablag’ talab etuvchi geologiya-qidiruv ishlari, tog’- kon sanoatini rivojlantirish kabi iqtisodiyotdagi muhim vazifalarning qay darajada hal etilishiga bog’liq. Mamlakatimiz sanoati tarkibida qazib olish sanoati hissasining o‘sishi oltin, gaz,

[110] BCG (Boston Consulting Group)- 1963 yilda tashkil etilgan,shtab kvartirasi Massachusets shtatining Boston shahrida joylashgan Amerika global boshqaruv konsalting kompaniyasi.

neft qazib chiqarish sanoatlarida ishlab chiqarish jarayonining kengayishida o‘z ifodasini topmoqda. Shu bilan birga qayta ishlash sanoatida mahsulotni qayta ishlash darajasining takomillashuvi - qazib olish sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlashga asos bo‘ladi. Shu maqsadda Respublikada “2022-2026 yillarda geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, umumiy qiymati 182 million dollarlik 14 loyiha shakllantirilgan. Bu dasturga muvofiq 8 ta yangi kon va 18 ta istiqbolli maydon hisobiga uran zaxirasini oshirish, zamonaviy burg’ulash uskunalarini olib kelish, raqamli geologiya modelini yaratish ko‘zda tutiladi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi huzurida “Yangi kon” loyiha ofisi tashkil etish uchun uning ustav kapitaliga 15 million dollar ajratilgan. Bu loyiha ofisi litiy, alyuminiy, magniy, grafit va boshqa nodir metallarni ishlab chiqarish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda.

Istiqbolli konlarni tayyorlash va ularga investorlarni jalb qilishga oid takliflar ham ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu borada respublikada bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Sharg’unko‘mir” AJ ni yiliga 900 ming tonna ko‘mir qazib olish quvvatiga yetkazish maqsadida Modernizatsiya qilish loyihasi amalga oshirilmoqda.[111] Loyihaning umumiy qiymati - 105,5 mln. dollar (korxonaning o‘z mablag’i -15,7 mln. dollar, Xitoy Eksimbanki zayomi - 89,8 mln. dollar), quvvati - yiliga 900 ming tonna toshko‘mir qazib olish. Xitoy Eksim Banki kredit mablag’lari hisobiga amalga oshirilayotgan ushbu investitsion loyiha doirasida 2016 yil 1 noyabrda “Shargunko‘mir” AJ hamda Xitoyning “China Railway Tunnel Group Co.,Ltd.” (CRTG konsorsium yetakchisi) va “China Coal Technology &Enjineering Group Corp.” (CCTEG) kompaniyalari konsorsiumi o‘rtasida 94,5 mln. AQSh dollariga teng shartnoma imzolangan[112] bo‘lib, hozirda bu loyiha o‘z natijasini bermoqda.

Respublikada yagona bo‘lgan metall parchalari hisobiga ishlovchi O‘zbekiston metallurgiya kombinatini xomashyo bilan ta’minlash maqsadida Davlat geologiya qo‘mitasi temirga oid geologiya-qidiruv ishlarini olib bormoqda. Hozirgi vaqtda 450 mln. tonna ma’dan (o‘rtacha temir miqdori - 15%) zaxirasiga ega bo‘lgan Tebinbuloq (Qoraqalpog’iston Respublikasi), 70 mln. tonna ma’dan (miqdori - 33%) zaxirasiga ega bo‘lgan Temirkon (Jizzax viloyati) va 16 mln. tonna, (miqdori – 34 %) ma’dan zaxirasiga ega bo‘lgan Syurenota (Toshkent viloyati) singari uchta kon faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari umumiy zaxirasida 1,5 million tonna

[111] Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.01.2017 yildagi PQ-2727 sonli qarori bilan tasdiqlangan.
[112] ***Qosimova Nodira Saidovna, Muhammadiev Elbek Mirza o‘g‘li, Ochildiev Bunyod Ashrabjonovich –*** “O‘zbekistondagi konchilik korxonalariga kiritilayotgan investitsiya loyhalari tadbiqi”

rux, 700 ming tonna qo‘rg’oshin, 180 ming tonna mis va 2,3 ming tonna kumush mavjud bo‘lgan “Olmaliq KMK” AJ Xondiza (Surxondaryo viloyati) polimetallar koni ham faoliyat yuritmoqda.. Kon shaxtasida ruda qazib olish yillik loyiha quvvati 650 ming tonnani tashkil etadi. Boshqarma tarkibida faoliyat yuritayotgan boyitish fabrikasining ishlab chiqarish quvvati soatiga 82,07 tonna, 1 kunlik quvvati esa 1850 tonnani tashkil etadi. Bugungi kunda Xondiza kon boshqarmasi tarkibiga Xondiza shaxtasi, boyitish fabrikasi, ta’mirlash-qurilish uchastkasi, moddiy-texnika bazasi kiradi. Bu yerda polimetall rudalar qazib chiqariladi va boyitiladi. Natijada ulardan mis, rux va qo‘rg’oshin konsentratlari olinadi. Rux va mis konsentratlarini keying qayta ishlash uchun Olmaliq kon metallurgiya kombinatiga xom ashyo sifatida yetkazib beriladi. Qo‘rg’oshin esa Qozog’istonga eksport qilinadi. 2018-yilda 47 ming tonnadan ko‘proq, 2019- yilda 53 miing tonna, 2020-yilda esa 24 ming 600 tonna qo ‘rg’oshin konsentrati eksport qilingan. 2023 yilgi rejaga muvofiq Olmaliq KMK negizida rangli va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishni kengaytirishning asosiy muhandislik-loyihalash (Basic Enginering) ishlari yakunlanadi. Iyun oyigacha kombinat “HATCH” koncalting kompaniyasi bilan mis eritish quvvatlarini kengaytirishning dastlabki texnik- iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqarishni yakunlaydi.

Qoraqalpog’iston Respublikasining Qo‘ng’irot shahrida osh tuzi va ohaktoshdan iborat xomashyo negizida yiliga 210 ming tonna kaustik va kaltsiyli soda ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan soda zavodi ishga tushirildi. Zavodning to‘la quvvatda ishlay boshlashi bilan respublikamiz o‘zini-o‘zi soda bilan to‘la ta’minlaydi.

Navoiy viloyatidagi Qizilqum fosforit zavodining quvvati yiliga 1190 ming tonna bo‘lgan konsentratni tashkil etadi. Korxonaning ishga tushirilishi bilan, respublikada fosforitga bo‘lgan talab to‘laligicha qondiriladi. Bugungi kunda mamlakatimizga fosforit qo‘shni Qozog`iston Respublikasidan keltirilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida quvvati yiliga 300 ming tonna bo‘lgan kaliy xlor ishlab chiqaradigan kaliy zavodini qurish loyihalashtirmoqda. Korxona ishga tushishi bilan, respublikaning kaliy xlorga bo‘lgan talabi qondiriladi. (Hozirgi kunda kaliy xlor Rossiya va Belorussiyadan keltirilmoqda).

O‘zbekistonda Avstriya bilan hamkorlikda kvarts qumi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Kvartspesok" qo‘shma korxonasi faoliyat yuritadi. (Kvarts qumi Respublikamizga Tojikiston Respublikasidan olib kelinadi). Shu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi Uchqizil, Jarqo‘rg’on, Sariosiyo, Qiziriq va Sherobod tumanidagi kvarts qumlarining tarkibi kimyoviy tahlil qilindi xomashyolarning ichida Jarqo‘rg’on va Sherobod

tumanidagi kvarts qumlari tarkibida SiO_2 ning miqdori boshqa konlar kvarts qumlaridagiga nisbatan ko‘pligi aniqlangan. Natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, Surxondaryo viloyati bir qator kvarts qumi konlaridan, jumladan Jarqo‘rg’on va Sherobod tumanlaridagi kvarts qumlarini boyitish orqali silikat materiallarini ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo komponenti sifatida ishlatish mumkin.[113] Buning natijasida kvarts qumini chetdan tashib kelish xarajatlari kamayishiga olib kelinadi.

Bundan tashqari, Jahon bozorida uran narxi barqaror o‘sib borayotgani, yangi loyihalarda bu xomashyoni qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Shunga ko‘ra uran zaxirasini xalqaro standartlarga muvofiq baholash, so‘ngi texnologiyalar asosida rudadan uranni ajratib olish darajasini oshirishga e’tibor qaratilmoqda. Yana bir loyiha O‘zbekistonda mis sanoati klasteri tashkil etilgan bo‘lib, dasturga muvofiq, mis ishlab chiqarishni yagona “zanjir” asosida 2 baravarga ko‘paytirib, 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida xususan, oltin, kumush, mis va sakkiz turdagi metall bo‘lmagan foydali qazilmalar zaxirasi, mineral qazib olish hajmi kamida 1,5 baravar oshirilmoqda.

Ma’lum qilinishicha, oxirgi yillarda yerosti suvining sathi O‘zbekistondagi 13 ta tumanda 5 metrgacha, 9 ta tumanda 20 metrgacha pasaygan. Ushbu vaziyatning oldini olish maqsadida yerosti suvi zaxiralarini ko‘paytirish va ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish bo‘yicha investitsiya loyihalari doirasida dastur amalga oshirilmoqda.

Geologiya sohasini modernizatsiya qilishga ajratilayotgan mablag’lar yildan yilga ko‘paymoqda. Burg’ulash, tog’-kon, laboratoriya, geofizika, energetika uskunalari, maxsus jihozlar, yordamchi va boshqa turdagi uskunalarni modernizatsiya qilish uchun 512 milliard so‘mga yaqin mablag’ yo‘naltirilgan. Mablag’larning maqsadli sarflanishi natijasida so‘nggi uch yil ichida sohadagi texnik jihozlarning uchdan bir qismi modernizatsiya qilindi. Zamonaviy uskunalardan foydalanish texnik imkoniyatlar tufayli ilgari kirish imkoni mavjud bo‘lmagan ob’ektlarga kirish, ta’mirlash vaqtini qisqartirish orqali quduqlarni burg’ulash tezligi va sifatini oshirishga erishilmoqda. Bundan tashqari, barcha bosqichdagi ish vaqtini qisqartirish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va murakkab konstruksiyali quduqlarni burg‘ulashga imkon bermoqda. Masalan, zamonaviy uskunalar yordamida burg’ulash chuqurligini 800 metrdan 1200 metrgacha, ish samaradorligini 1,7 baravar oshirish

[113] Qodirova Z.R., Adinaev X.A., Qodirov R.A. “Surxondaryo viloyati kvars qumlari kimyoviy va element tarkiblarining tahlili”

mumkin. Shunga ko‘ra, davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar evaziga yuzdan ortiq uskunalar modernizatsiya qilinmoqda. Modernizatsiya dasturining amalga oshirilishi tufayli kelgusida qidiruv ishlari hajmini 35 foiz oshirish, 16 ta uglevodorod konini aniqlash va 23 ta yangi konda zaxiralar hajmini tasdiqlash kutilmoqda.

Shu bilan birga, Global Mapper[114] , Erdas Imagine[115] va ENVI[116] kabi fazoviy ma’lumotlarni qayta ishlash imkonini beradigan zamonaviy geografik axborot texnologiyalaridan foydalanmay kelajakda geologiya-qidiruv ishlarini tasavvur qilishning iloji yo‘q. O‘zbekistonda eng yangi geoinformatsion texnologiyalardan keng foydalanishga alohida e’tibor qaratilayotgani chuqur qatlamlar to‘g’risida aniq-ravshan ma’lumot olish va ulkan hududlarni tadqiq qilishda vaqt va resurslarni tejashga xizmat qiladi. Mamlakat sanoat korxonalarida texnik-texnologik holatni yaxshilash, xomashyo va kapital mablag’larni tejash, energiya va suv sig’imini kamaytirish, ishchi kuchi salohiyatidan samarali foydalanish o‘ta muhimdir. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, Respublikada yirik zaxiralarga ega bo‘lgan yerosti boyliklarini qazib olish sanoati qayta ishlovchi sanoatiga yetarlicha xomashyo resurslari yetkazib berish maqsadiga bo‘ysunadi. Shuning uchun bu tarmoqning rivojlanishi pirovard maqsad emas, balki qayta ishlash sanoati rivoji uchun va respublikaga yetarlicha valuta tushumlarining kelishi uchun vositadir. Shu bilan birga qayta ishlash sanoatida mahsulotni qayta ishlovchi darajasining takomillashuvi - qazib olish sanoati rivojining barqaror rivojlanishini ta’minlashga asos bo‘ladi. Mamlakat sanoat korxonalarida texnik-texnologik holatni yaxshilash, xomashyo va kapital mablag’larni tejash, energiya va suv sig’imini kamaytirish, ishchi kuchi salohiyatidan samarali foydalanish o‘ta muhimdir. Bu esa nisbatan arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, hududlararo aloqalarni mukammallashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar miqdorini oshirish muammolarini hal etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Sh.M. Mirziyoyev. Asarlar. 1-jild. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.
2. Sh.M. Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild.T-2000.
4. Л.П.Кобахидзе “Экономика геологоразведочной отрасли”. Москва. Недра. 1990.

[114]Geografik ma’lumot tizimi uchun dasturiy ta’minot
[115] Geografik va giperspektral tasvirlarni, shuningdek, vektor ma’lumotlarni qayta ishlash uchun dasturiy ta’minot
[116] Geografik axborot tizimlari mutaxassislari, masofadan zondlash bo‘yicha olimlar va tasvir analitiklari tomonidan foydalaniladigan tasvirni tahlil qilish dasturi

5. Sh. Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi” T-2005.
6. A.E. Ishmuhamedov, M.R. Rahimova “Mintaqaviy iqtisodiyot” Toshkent. Iqtisodiyot. 2010
7. N.S.Qosimova “O‘zbekistondagi konchilik korxonalariga kiritilayotgan investitsiya loyihalari tadbiqi”. 2022-yil 16-17-dekabrda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami.-Termiz: 2022.
8. Г.Г. Фетисов, В.П.Орешин. “Региональная экономика и управление”. Учебник. -М.: «Инфра», 2006.
9. А.Г. Гренберг. “ Основы региональной экономики”. Учебник. 4-е изд. – М.: Издательский дом ГУВШЕ, 2004.
10. R.X. Alimov va boshqalar Mahalliy iqtisodiyot va menejment: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2004.
11. L.M.Toshpo‘latova. “Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati” T- 2004.
12. Қодирова З.Р., Адинаев Х.А., Қодиров Р.А. “ Сурхондарё вилояти кварц қумлари кимёвий ва элемент таркибларининг таҳлили”

PSYCHODIAGNOSTICS OF COGNITIVE ABILITIES

Abdullaeva Nasiba Ismailovna
Master student of Termiz state university
e-mail:nasibaabdullaeva34@gmail.com
Ismoilov Erkin Mengnimurotovich
Tashkent state technical university
Termiz branch teacher of the department of
humanitarian and socio-economic sciences
E-mail:ismoiloverkin390@gmail.com

ABSTRACT

In this article, the authors talked about how the cognitive abilities of each person are invisible and their manifestations. The text of the article also touched on the concepts of intuition, memory and intellect in detail.

Key words: *Cognitive, ability, intuition, memory, intellect, latent, attention, divergent, convergent.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье авторы рассказали о том, как невидимы когнитивные способности каждого человека и их проявления. В тексте статьи также подробно затронуты понятия интуиции, памяти и интеллекта.

Ключевые слова: *познавательная способность, интуиция, память, интеллект, латентное, внимание, дивергентное, конвергентное.*

INTRODUCTION

Psychic processes allow to know things and events in objective reality and their characteristics. These processes are sensations, perception, memory, attention, thinking, speech, etc. Cognitive processes are considered one of the forms of reflection of stimuli that are adequate for the senses. When a stimulus acts on the basis of intuition, the sensation is not immediately formed, but it occurs after several minutes. This short time is called the latent (hidden) period of intuition. The latency period is different for different sensory types.

DISCUSSION AND RESULTS

There are mainly two methods of measuring sensations in psychology. One of them is called the direct method and is based on subjective assessment. The second method of measurement is based on objective assessment of symptoms and focuses on the indirect (direct) presence of sensations. The direct method or the method of verbal evaluation of the stimulus has the following structure: the subject is presented

with a stimulus that can affect the skin, sound, light, first the stimulus has a minimum intensity (speed) and then their strength is increased.

After these measures, the examinee is asked to answer "which sensory stimulus he perceived first". A special device "esthesiometer" is used to measure skin sensitivity. Hearing sensitivity is measured using an audiometer, and the intensity of sounds at different levels is determined. Sometimes the above goal is achieved by dropping a small iron ball from different heights. Determining visual sensitivity by sending different intensity of light to the subject's eye (sometimes in the dark), the light unit (i.e. lux) is increased from bottom to top.

Taste and. olfactory sensitivity is also measured using special devices, sometimes a chemical method is also used. The direct method requires action based on objective symptoms. Former Soviet psychologists, psychophysiologists G. V. Gershuni, E. N. Sokolov, O. S. Vinogradov and others conducted scientific research using this method for many years. It is known that sensations are never a slow cognitive process, they change vegetative, electrophysiological, respiratory processes, therefore, they are a reflex process by their nature. Reflective changes in sensations are an indicator of their objective occurrence. For example, any stimulus that creates sensations is also able to create a reflex process: narrowing of blood vessels, skin galvanic reflex (decrease in skin electrical resistance), change in the frequency of electrical activity of the brain (alpha, rhythm, depressed state) etc. the direction of the eyes towards the speaker, the tension of the neck muscles, etc. All these things are objective indicators of the emergence of sensations.

According to the above researchers, if the experimenter is exposed to a weak stimulus, that is, if the subject is exposed to a weak stimulus, then the subject will not have any sensation, and also count no change occurs in the reflectors. Vascular or electrophysiological reactions can be clearly manifested even under the influence of a weak stimulus, but the process of sensing, on the contrary, does not take place. This condition is confirmed by electroencephalographic reactions.

Based on the sound stimulus, G.V. Gershuny puts forward the scientific idea that a person has a subsensory range. It is based on unperceived physiological reactions, imperceptible stimuli. Attention is the orientation and concentration of the human mind on an object. Analysis of the reasons for not mastering the study of attention, characteristics of educational activities and used in the development of individual psycho-pedagogical recommendations. Also, the study of various aspects of attention is one of the important tasks of professional psychodiagnostics, especially in the selection of personnel. The process by which an individual remembers, remembers, and later recalls an experience is called memory.

Memory is the direct and indirect, voluntary and involuntary, passive and active (active) reproductive and productive, verbal and non-verbal form, logical and mechanical way of remembering, remembering. , the mental process consisting of re-remembering, forgetting, familiarity, remembering is a separate and common phenomenon, a mnemonic (Greek mnema-memory) activity directed at the creative processing of all impressions.

Intelligence is a set of human mental abilities. The concept of "intellect" (English "intellegence") as an object of research in psychology was introduced to science by the English anthropologist F. Galton at the end of the 19th century. According to F. Galton, intellectual abilities are a genetic trait. In the 20th century, several approaches to understanding the nature of intelligence emerged. These are: Intelligence as the ability to learn (A. Bine, C. Spearman, S. Colvin). There are 3 dimensions in the Gilford model of intelligence, the combination of which defines different types of intellectual abilities. • An important point in Guilford's theory is that according to him there are 150 types of intellectual abilities.

Даъво аризасида даъвогар жавобгарга ҳар икки шартнома бўйича жами 12025,28 тонна маҳсулот етказиб берганлигини кўрсатиб ўтган, ҳамда ушбу талабларини тасдиқлаш мақсадида қуйидаги ҳужжатларни тақдим этган. Хусусан, даъвогар жавобгарга 3-сонли шартнома бўйича жами 6209,106 тонна ғалла маҳсулотини етказиб берганлигини тасдиқлаш мақсадида судга 2021 йил 30 июндаги 74-сонли ҳамда 2021 йил 3 ноябрдаги 84-сонли электрон шаклда расмийлаштирилган ҳисоб варақ фактураларни тақдим этган. Лекин, 2021 йил 3 ноябрдаги 84-сонли 678,9068 тонна дон маҳсулотларини етказиб берганлиги ҳақидаги ҳисоб варақ фактура жавобгар томонидан тасдиқланмаган.

Шунингдек, даъвогар жавобгарга 1-сонли шартнома бўйича жами 5816,1748 тонна ғалла маҳсулотини етказиб берганлигини тасдиқлаш мақсадида судга 2021 йил 30 июндаги 73-сонли ҳамда 2021 йил 3 ноябрдаги 85-сонли электрон шаклда расмийлаштирилган ҳисоб варақ фактураларни тақдим этган. Бироқ, 2021 йил 3 ноябрдаги 85-сонли 477,0768 тонна дон

маҳсулотларини етказиб берганлиги ҳақидаги ҳисоб варақ фактура жавобгар томонидан тасдиқланмаган. Иш ҳужжатларидаги қабул квитанцияларининг реестрларига кўра ҳар икки шартнома бўйича даъвогар томонидан жавобгарга жами 12 486 820 кг физик оғирликдаги буғдой топширилган бўлсада, лекин унинг конденцион вазни юзасидан тарафлар ўртасида низо келиб чиққанлиги боис, дон маҳсулотларини қабул қилиш квитанциялари яъни ПК шаклдаги далолатномалар тўлиқ расмийлаштирилмаган.

Хусусан, жавобгар томонидан 2021 йилнинг 2 ва 3 июль кунлари қабул қилиб олинган “Безостая Р-2”, “Алексейвич Р-2”, “Таня Р-2” навли дон маҳсулотларидан, уларнинг ифлосланганлиги, намлиги ва бошқа сифатлари юзасидан берилган лаборатория хулосаларига мувофқ жами 35436 кг чегирма қилинган. Гарчи, даъвогар жавобгарга 3 нав буғдой топширганлиги сабабли, ушбу дон маҳсулотларидан чегирма қилиниши нотўғрилигини важ келтирсада, лекин иш ҳужжатларидаги юк хатларига кўра 2021 йилнинг 2 ва 3 июль кунлари топширилган “Безостая Р-2”, “Алексейвич Р-2”, “Таня Р-2” навли дон маҳсулотлари даъвогар томонидан уруғлик дон сифатида топширилган.

Шу боис, судлов ҳайъати жавобгар томонидан чегирмалар Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Давлат солиқ қўмитасининг 2007 йил 25 апрелдаги 41, 2006-45-сонли қарорлари (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2007 йил 26 майда 1683-рақам билан рўйхатдан ўтган) билан тасдиқланган “Донни сақлаш, қуритиш, тозалаш, ташиш ва қайта ишлаш жараёнида камайиш ва йўқотишларни қоплаш учун молиявий заҳирани шакллантириш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги Низом талаблари асосида тўғри амалга оширилган ҳамда шунга кўра даъвогар томонидан жавобгарга топширилган дон маҳсулотларининг конденцион вазни 11991,206 тоннани ташкил қилган деб ҳисоблайди.

Жавобгар етказиб берилган дон маҳсулотларининг ҳар бир кг учун 1550 сўмдан (ҚҚС билан биргаликда) ҳақ ҳисоблаб, даъво судга тақдим этилгунга қадар жами 17 млрд сўм тўловларни амалга оширган бўлсада, қолган тўловларни асоссиз равишда тўламаган. Жумладан, 11991,206 тонна дон қиймати ҳар бир кг учун 1550 сўмдан (ҚҚС билан биргаликда) ҳисобланганда 18 586 369 300 сўмни ташкил этишини инобатга олинган тақдирда, жавобгар 978 млн сўм миқдоридаги маблағни даъво судга тақдим этилганидан сўнг, яъни 2022 йил 26 май куни 2552-сонли тўлов топшириқномаси билан тўлаган, қолган 608 369 300 сўм қисми эса тўланмаган.

Гарчи, жавобгар 608 369 300 сўм миқдоридаги қолган қарздорлик суммасининг 182 194 968 сўм қисми МИБ Сайҳунобод бўлими орқали

тўланганлигини, 269 991 040 сўм қисми ҳисоб варақ фактуралари тақдим этилмаганлиги боис қўшилган қиймат солиғини тўғрилаш мақсадида, 140 396 833 сўм қисми даъвогарнинг бошқа шартнома бўйича қарздорлиги ҳисобига ушлаб қолинганлигини важ келтирсада, лекин мазкур важлари асосга эга эмас. Чунки, жавобгар томонидан 182 194 968 сўм маблағлар даъвогарнинг бошқа субъект олдидаги қарзи юзасидан МИБ Сайҳунобод туман бўлими томонидан ундирилганлигини тасдиқловчи далиллар тақдим этилмаган.

Бундан ташқари, даъвогарнинг жавобгар олдидаги 140 396 833 сўм миқдоридаги қарзи улар ўртасида 2021 йил 21 августда тузилган 172-сонли уруғлик буғдой маҳсулотини қайта ишлаб бериш тўғрисидаги шартнома бўйича амалга оширилган шартномавий муносабатдан келиб чиққан бўлиб, ушбу қарздорлик суммасининг мазкур низога алоқаси йўқ. Жавобгар ушбу шартнома бўйича алоҳида тартибда даъво қўзғатиши мумкин.

Даъвогар жавобгар билан тузилган шартномаларда етказиб бериладиган дон баҳоси кўрсатилмаганлиги сабабли, жавобгар етказиб берилган дон маҳсулотлари учун ўртача бозор қийматида ҳақ тўлаши лозимлигини кўрсатиб, топширилган доннинг ҳар бир тоннаси учун ўртача бозор қиймати сифатида 2 278 356,42 сўмдан жами 31 507 560 075,15 сўм (ҚҚС билан биргаликда) тўлов ҳисоблаб, ундан 17 млрд сўм тўланган маблағларни чегириб, қолган 14 507 560 075,15 сўмни ундиришни сўраган.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 17 майдаги 304-сонли “2021 йил ҳосили учун экилган бошоқли дон ҳосилини ўз вақтида ва сифатли ўриб-йиғиб олишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорининг 1-бандига мувофиқ, жаҳон бозори конъюнктураси ва минтақавий биржаларда кутилаётган дон нархлари ҳамда хўжаликларнинг дон етиштириш харажатлари таҳлилидан келиб чиқиб дон ва ун маҳсулотлари нархи кескин ошиб кетишининг олдини олиш чораларини кўриш вазифаси белгиланган, шунингдек, мазкур қарорнинг 5-бандида хўжаликлар ихтиёрида қоладиган қўшимча ғаллани ташкилий-ҳуқуқий шаклидан қатъи назар, дон қабул қилувчи ва қайта ишловчи корхоналарда ва ғаллачилик кластерларига ички бозорда шаклланган нархларда сотишни ташкил этиш ва сотилган ғалла учун ўз вақтида ҳисоб-китоб қилиниши юзасидан мониторинг юритиш белгиланган. Мазкур қарорга мувофиқ, фақатгина хўжаликлар ихтиёрида қоладиган қўшимча ғалла учун ички бозорда шаклланган нархларда сотишга рухсат берилган. Ваҳоланки, даъвогар томонидан жавобгарга шартномада белгиланганидан ортиқ миқдорда дон маҳсулотлари етказиб берилмаган.

Судлов ҳайъати ҳал қилув қарорини бекор қилиб, янги қарор қабул қилишни ҳамда даъвони қисман қаноатлантириб, даъвогар фойдасига жавобгар 608 369 300 сўм асосий қарз, 31 727 386 сўм давлат божи ва 21600 сўм почта харажатини ундиришни, даъвонинг қолган қисмини қаноатлантиришни рад этишни, биринчи инстанция учун тўланган давлат божининг 258 423 815 сўм қисмини даъвогар зиммасида қолдиришни лозим топган.

Шунингдек, судлов ҳайъати ИПК 118-моддасига мувофиқ, даъвогар томонидан апелляция инстанцияси учун тўланган 15 863 693 сўм давлат божи ва 24000 сўм почта харажатини жавобгар ҳисобидан даъвогар фойдасига ундиришни, 129 211 907 сўм давлат божини даъвогар зиммасида қолдиришни лозим деб ҳисоблаган[128].

Бошқа бир суд амалиётида эса, “Нодир-БКС” фермер хўжалиги - даъвогар ҳамда “G`UZOR TEKSTIL IMPEKS” масъулияти чекланган жамияти - жавобгар ўртасида 2019 йил 14 февралда 2019-АВ-63-сонли “Пахта хом ашёси харид қилиш бўйича” контрактация шартномаси тузилган. Мазкур шартномага кўра даъвогар 2019 йилнинг бизнес режасига асосан 30 гектар майдонга ўрта толали чигит экиб, жами 90 тонна пахта хом ашёсини жавобгарга етказиб бериш, жавобгар эса ушбу маҳсулотни келишилган муддатларда қабул қилиб олиш ва муайян нарх бўйича ҳақини тўлаш мажбуриятини ўз зиммасига олган. Жавобгар томонидан шартнома мажбуриятлари бузилганлиги асос қилиниб, Миришкор туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари Кенгаши даъвогар манфаатида иқтисодий судга даъво аризаси билан мурожаат қилиб, жавобгардан 171 451 383 сўм ундиришни сўраган[129].

Даъво аризасида контрактация шартномасининг 4.2-бандида жавобгар даъвогарга агротехник тадбирлар муддатидан келиб чиққан ҳолда маҳсулот қийматининг камида 60 фоизи миқдорида, яъни, 216 000 000 сўмни ҳосил етиштирилаётган йилнинг 1 сентябрига қадар бўнак тариқасида ойма-ой тўлаб бериши белгиланганлиги, аммо жавобгар 2019 йил 1 сентябргача 95 300 000 сўм бўнак маблағи берганлиги, даъвогарга қолган 120 700 000 сўм бўнак маблағи ўтказиб берилмаганлиги сабабли агротехник тадбирларни ўз вақтида ўтказилмаганлиги ва шартномада белигиланган ҳосил олинмаганлиги, натижада эса даъвогар 88 000 000 сўм зарар кўрганлиги кўрсатилган. Шунинг учун жавобгардан даъвогар фойдасига 120 700 000 сўм бўнак маблағлари ўз вақтида берилмаганлиги сабабли ўзи тўлашдан бўйин товлаган сумманинг 5 (беш) фоизи, яъни 6 035 000 сўм жарима ва муддати ўтказиб юборилган ҳар бир

[128] Сирдарё вилоят судининг иқтисодий
[129] Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 2021 йил 20 майдаги қарори. 4-1805-2002/345-сонли иш.

кун учун муддати ўтказиб юборилган тўлов суммасининг 0,1 фоизи, яъни 11 466 500 сўм пеня, 29 128 571 сўм асосий қарз, ушбу сумманинг 5 фоизи миқдорида, яъни, 1 456 428 сўм жарима ва 0,1 фоизи миқдорида, яъни 2 767 160 сўм пеня, 2019 йил 25 апрелда суғурта полиси учун тўланган, лекин суғурта полиси берилмаган 2 597 724 сўм, 30 000 000 сўм уруғликнинг иккинчи босқич тўлови, 88 000 000 сўм етказилган зарар, жами 171 451 383 сўм ундириш сўралган.

Касби туманлараро иқтисодий судининг 2020 йил 18 июндаги ҳал қилув қарори билан даъвогарнинг даъвоси қисман қаноатлантирилиб, жавобгардан даъвогар фойдасига 2 597 724 сўм асосий қарз, 30 000 000 сўм уруғликни иккинчи босқич тўлови ва 1 500 000 сўм пеня ундирилган. Шунингдек, хал қилув қарорида даъвогарга жавобгар томонидан асоссиз ушлаб қолинган 2 597 724 сўм суғурта пулини қайтариш белгиланган.

Апелляция инстанцияси судининг 2020 йил 20 августдаги қарори билан ҳал қилув қарорининг хулоса қисмидаги “Республика бюджети ҳамда суд органларини ривожлантириш жамғармасига жавобгардан 1 463 855 сўм давлат божи ундирилсин” қисми “Суд ҳокимияти органларини ривожлантириш жамғармасига жавобгардан 1 669 027,66 сўм давлат божи ундирилсин” деб ўзгартирилган. Ҳал қилув қарорининг қолган қисми ўзгаришсиз қолдирилган.

Иш юзасидан қабул қилинган суд ҳужжатларидан норози бўлиб, жавобгар кассация шикояти билан мурожаат қилган ва унда суд қарорларининг жавобгардан 30 000 000 сўмлик уруғлик чигит бўйича иккинчи босқич тўлови қисмини бекор қилиб, янги қарор қабул қилишни сўраган. Бунга асос қилиб, шикоятда тарафлар ўртасида уруғлик бўйича шартнома тузилмаганлиги, судлар томонидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 2 январдаги 2-сонли қарори билан тасдиқланган “Республика ҳудудларида пахта-тўқимачилик ишлаб чиқариши ва кластерларига берилган майдонларда уруғлик пахта хом ашёси етиштиришни молиялаштириш тартиби тўғрисида”ги Низомнинг 3-бобида тайёрланган уруғлик пахта хом ашёси учун тўловларнинг иккинчи босқисида Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекциясининг сертификати берилиб, уруғлик чигит экилгандан (сотилгандан) кейин устаманинг қолган 50 фоиз қисми 100 фоиз деб ҳисобланиб, шундан 10 фоизи пахта-тўқимачилик ишлаб чиқаришлари ихтиёрида қолдирилиши, 40 фоизи уларнинг таркибига кирувчи уруғчилик фермер хўжаликлари ихтиёрида қолдирилиши, қолган 50 фоизи Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги “Уруғчиликни ривожлантириш маркази" давлат унитар корхонасининг ҳисобварағига

ўтказилади ва қуйидагича тақсимланиши: “Уруғчиликни ривожлантириш маркази” давлат унитар корхонасига ва унинг вилоят ҳудудий бошқармаларига ҳамда элита уруғчилиги лабораторияларига - 20 фоиз, нав оригинаторлари, институтлар, селекционер ва уруғчиликда иштирок этувчи бошқа субъектларга - 30 фоиз белгиланганлиги, уруғлик чигит қайд этилган Низомнинг молиялаштириш тўғрисидаги схемаси 9-босқичида белгиланган тартиб инобатга олинмаганлиги, хўжалик томонидан топширилган пахта хом ашёсидан олинган чигит техник чигитга ўтказилганлиги тўғрисида важлар келтирилган.

Иш ҳужжатларида Миришкор туман ҳокимининг 2019 йил 23 февралдаги Х-1677/02-сонли қарорининг 2-иловасида Миришкор туманида 2019 йил ҳосилидан уруғлик пахта етиштириш бўйича тендер ғолиби деб топилган фермер хўжаликлари рўйхати мавжуд бўлиб, унда фермер хўжаликлари рўйхатида даъвогар ҳам қайд этилган. Агар даъвогар пахта етиштириш бўйича тендер ғолиби деб топилган бўлса, нима сабабдан у билан уруғлик пахта етиштириш бўйича шартнома тузиламганлигининг сабаблари аниқлаштирилмаган.

Бундан ташқари, апелляция инстанцияси суди даъвогарнинг уруғликнинг иккинчи босқич тўловини ундириш ҳақидаги талабини қаноатлантириш учун асос сифатида Миришкор туман ҳокимининг 2019 йил 23 февралдаги Х-1677/02-сонли қарорига кўра, даъвогар 2019 йил ҳосилидан уруғлик пахта топшириш бўйича тендер ғолиби деб топилганлиги, апробация далолатномасида, фермер хўжалигининг майдонидаги пахта уруғлик учун яроқли эканлиги бўйича хулоса қилинганли ва пахта хом-ашёсини жўнатиш қабул қилиш ҳақидаги 2019 йил 2-11 октябрь кунларидаги юк хатларида уруғлик учун қабул қилинганлигини кўрсатган ва биринчи инстанция судининг жавобгардан уруғликнинг иккичи босқич учун 30 000 000 сўм ундириш ҳақидаги хулосаси билан келишган. Бироқ, даъвогар томонидан талаб қилинган уруғликнинг иккичи босқич учун айнан 30 000 000 сўм ундириш лозимлигини асослантириб бермаган. Яъни, ушбу тўловнинг ҳисобкитоби қайси далил асосида тасдиқланганлиги аниқлаштирилмаган.

Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 2021 йил 20 майдаги қарори билан Касби туманлараро иқтисодий судининг 2020 йил 18 июндаги ҳал қилув қарори, Қашқадарё вилоят иқтисодий суди апелляция инстанциясининг 2020 йил 20 августдаги қарори бекор қилинган.

Бугунги кунда кластерлар - бу алоҳида мамлакатларда, минтақаларда алоҳида рол ўйнайдиган фирмалар, етказиб берувчилар, тегишли тармоқлар ва

ихтисослашган муассасаларнинг географик концентрацияси сифатида кўрилади[130].

Бироқ, бунда асосий эътибор кластерлар фаолияти ўзини ўзи бошқариш тизимига мансуб бўлиши, иштирокчиларнинг тенглигига асосланган барқарор шартномавий муносабатлар ўрнатилиши, маъмурий-ҳуқуқий воситалардан бутунлай воз кечишга асосланиши зарур.

ХУЛОСА

Юқоридагиларга асосан қуйидаги хулосаларга келиш мумкин: Қишлоқ хўжалиги мамлакатимиз агросаноат мажмуасининг асосий бўғини сифатида ҳамиша давлатимиз томонидан олиб борилаётган у ёки бу ислоҳотларни амалга ошириш учун ўзига хос майдон бўлиб келган. Бунинг сабаблари бир тарафдан озиқ-овқат хавфсизлиги саноатнинг ривожланиш даражасига боғлиқ бўлса, бошқа тарафдан иқтисодий ислоҳот самарадорлиги бўлса, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришни кўпайтириши мумкин, аксинча, агар йўл хато бўлса, уни секин-аста қисқартириши мумкин бўлади.

Ҳар қандай соҳани бошаришда бошқарув даражасига ва қарор қабул қилувчи органларнинг мақсадларига қараб, маълум мезонлар талаб қилинади. Бундай мезонни танлаш, хусусан, барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишни таъминлаш зарурати, ҳудудларда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва интеграциялаш, тизимлашган қишлоқ хўжалигини яратишда кластерлар алоҳида ва ўзига хос ўрин эгаллайди.

Европа Иттифоқининг барча давлатларида 2000 йил Лиссабон саммитида кластер ишлаб чиқариш моделига асосланган минтақавий инновацион тизимларни ривожлантириш дастурларини кенг жорий этиш бўйича қарорлар жадаллик билан қўлланмоқда.

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг рақобатбардошлигини оширишга кластер ёндашуви интеграция жараёнларини рағбатлантириш имконини берувчи ҳудудий ва тармоқлараро бошқарувни жорий этишга имкон беради. Айнан қишлоқ хўжалиги кластерлари рақобат ва кооперациянинг мураккаб жараёнлари, шартномавий алоқалар билан ажралиб туради. Бозорда қишлоқ хўжалиги кластерлари ҳудудий тармоқнинг вакили сифатида тенг асосда ҳаракат қилиш ва рақобатнинг бузғунчи тенденцияларига муайян даражада қаршилик кўрсатиш имконини беради. Бу эса, рақобатни

[130] Самаруха В. Проблемы развития кластеров в сельскохозяйственном производстве. //Известия Байкальского государственного университета. 2007. 37-45-б.

таъминлаш орқали соҳани ривожлантириш, мавжуд бюрократик тўсиқларни камайтиришга имкон беради.

ХУЛОСА

Ривожланган бозор мамлакатларида кластерлар товар бозорларида бир хил турдаги ишлаб чиқаришга эга бўлган корхоналарнинг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида ушбу корхоналарнинг иқтисодий манфаатлари мос келишидан келиб чиққан ҳолда ташкил этилган. Ҳар қандай кластернинг потенциал иштирокчилари бўлган қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари (фермер хўжаликлари), қоида тариқасида, ўхшаш турдаги товарлар (хизматлар) ишлаб чиқарадилар ва товар бозорларида бир-бирига нисбатан рақобатчи ҳисобланади. Демак, кластерга кираётганда, тадбиркорлар ўз бизнесларини йўқотишдан қўрқишади. Шу боисдан, кластерлар фаолиятини ҳуқуқий таъминлашда ўзини ўзи бошқаришни жорий этилиши, қоида тариқасида, тадбиркорлик субъектининг ташаббуси билан амалга оширилиши асосий марказий ўринда бўлиши шарт.

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг рақобатбардошлигини оширишга кластер ёндашуви интеграция жараёнларини рағбатлантириш имконини берувчи ҳудудий ва тармоқлараро бошқарувни жорий этишга имкон беради. Айнан қишлоқ хўжалиги кластерлари рақобат ва кооперациянинг мураккаб жараёнлари, шартномавий алоқалар билан ажралиб туради. Бозорда қишлоқ хўжалиги кластерлари ҳудудий тармоқнинг вакили сифатида тенг асосда ҳаракат қилиш ва рақобатнинг бузғунчи тенденцияларига муайян даражада қаршилик кўрсатиш имконини беради. Бу эса, рақобатни таъминлаш орқали соҳани ривожлантириш, мавжуд бюрократик тўсиқларни камайтиришга имкон беради.

Кластерлар фаолияти ўзини ўзи бошқариш тизимига мансуб бўлиши, иштирокчиларнинг тенглигига асосланган барқарор шартномавий муносабатлар ўрнатилиши, маъмурий-ҳуқуқий воситалардан бутунлай воз кечишга асосланиши зарур.

Кластернинг активларини шакллантириш бўйича тадбиркорлар ўртасида келишувга эришишдир. Иқтисодий манфаатларини бирлаштирувчи омиллари қуйидагилар: 1) товар бозорида ягона нарх сиёсатини амалга ошириш; 2) унинг иштирокчилари томонидан маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизматлар ҳажмини кенгайтириш; 3) ягона маркетинг сиёсатини амалга ошириш; 4) инновацион технологияларни жорий этиш - маҳсулот ишлаб чиқариш ва уларни товар бозорларида сотишда интеграция ва кооперация.

Ўзбекистонда кластерлик фаолияти тўғрисида ягона қонун қабул қилиниши, унинг асосий принциплари, шартнома эркинлигини тамойилини белгиланиши, тарафларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳамда жавобгарлигига доир асосий талаблар белгиланиши мақсадга мувофиқ.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Самаруха В. Формирование кластеров в сельском хозяйстве региона. // Управление наукой и наукометрия. 2008.; Самаруха, В. Н. Формирование кластеров в сельском хозяйстве региона. //Байкальский государственный университет экономики и права. 2010. – 138 с.
2. Matias Ramirez, PalomaBernal, IanClarke, Ivan Hernandez. The role of social networks in the inclusion of small-scale producers in agri-food developing clusters. //Food Policy. Volume 77, May 2018, Pages 59-70. https://doi.org/10.1016/j.foodpol.2018.04.005
3. Maarten Schouten, Wim J. M. Heijman. Agricultural clusters in the Netherlands. // Visegrad Journal on Bioeconomy and Sustainable Development. 2012/1. vol. 1, p. 20 – 26.
4. Girliany Santos daSilva, Patrícia AraújoAmarante, José Carlos Araújo Amarante. Agricultural clusters and poverty in municipalities in the Northeast Region of Brazil: A spatial perspective. //Journal of Rural Studies Volume 92, May 2022, Pages 189-205.
5. Di Guo, Kun Jiang, Chenggang Xu, Xiyi Yang. Industrial clustering, income and inequality in rural China. //World Development Volume 154, June 2022, 105878. https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2022.105878
6. Land- und Fortwirtschaft, Fischerei. Ausgewählte Zahlen der Landwirtschaftszählung/Agrarstrukturerhebung 2010 Statistisches Bundesamt, Wiesbaden (2012)
7. Lara Beer, Ludwig Theuvsen. Conventional German farmers' attitudes towards agricultural wood and their willingness to plant an alley cropping system as an ecological focus area: A cluster analysis. Biomass and BioenergyVolume 125, June 2019, Pages 63-69.
8. Pierpaolo D'Urso, Germana Manca, Nigel Waters, Stefania Girone. Visualizing regional clusters of Sardinia's EU supported agriculture: A Spatial Fuzzy Partitioning Around Medoids. //Land Use Policy Volume 83, April 2019, Pages 571-580.
9. Amr Khafagy, Mauro Vigani. Technical change and the Common Agricultural Policy. Food Policy. Volume 109, May 2022, 102267. https://doi.org/10.1016/j.foodpol.2022.102267

10. Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 2021 йил 20 майдаги қарори. 4-1805-2002/345-сонли иш.
11. Самаруха В. Проблемы развития кластеров в сельскохозяйственном производстве. //Известия Байкальского государственного университета. 2007. 37-45-б.

КЛАСТЕРНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИ

Имомов Нурилло Файзуллаевич
ТДЮУ профессори, юридик фанлари доктори

АННОТАЦИЯ

Аграр секторда кластерларни ривожлантириш бўйича давлат сиёсатига оид ҳуқуқий масалаларни ҳал этиш долзарблиги маҳаллий қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ташқи ва ички бозорларда рақобатбардошлигини таъминлаш мақсадида қишлоқ хўжалиги фаолиятининг инновацион моделини жорий этиш зарурати билан белгиланади. Бунинг учун халқаро иқтисодий интеграциянинг замонавий жараёнлари, шунингдек, мамлакатнинг иқтисодий ривожланишини кучайтириш йўлини топиш зарур. Бугунги кунда инновацияларнинг қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ижобий ўзгаришларнинг катализатори сифатидаги етакчи роли ва унинг халқ хўжалигининг янги типдаги юқори ривожланган тармоғи – "билим ва ахборот иқтисодиёти"нинг янги босқичига кўтарилиши зарурати мавжуд.

Калит сўзлар: *кластер, ҳуқуқ, қишлоқ хўжалиги, шартнома, битим, ҳуқуқий мақоми, инновация, жавобгарлик.*

LEGAL STATUS OF THE CLUSTER

ABSTRACT

The urgency of solving legal issues related to the state policy on the development of clusters in the agricultural sector is determined by the need to introduce an innovative model of agricultural activity in order to ensure the competitiveness of local agricultural products in foreign and domestic markets. For this, it is necessary to find a way to strengthen the modern processes of international economic integration, as well as the economic development of the country. Today, there is a need for innovations to play a leading role as a catalyst for positive changes in the field of agriculture and to raise it to a new stage of a new type of highly developed branch of the national economy - the "knowledge and information economy".

Key words: *cluster, law, agriculture, contract, transaction, legal status, innovation, responsibility.*

КИРИШ

Сўнгги ўн йилликда аграр иқтисодиётни ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш бўйича қабул қилинган деярли барча дастурий ҳужжатлар қишлоқ жойларидаги иқтисодий-ижтимоий аҳволнинг сабабларидан бири

қишлоқ хўжалигига инновацион технологиялар ва инвестицияларни жорий этишнинг етарли даражада рағбатлантирилмагани эканлигидан келиб чиқади. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва озиқ-овқат маҳсулотларининг тегишли даражасида бўлишига имкон бермайдиган саноат ишлаб чиқариши уларнинг сифатини таъминлашни талаб этади. Қишлоқ хўжалигининг инновацион моделини ишлаб чиқиш давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари, тадбиркорлик тузилмалари ва илмий муассасалар ўртасидаги доимий ҳамкорликни назарда тутади ва бугунги кунда ушбу ҳамкорликни ривожлантиришнинг эътироф этилган самарали ташкилий воситаларидан бири кластер ёндашувидир.

Қишлоқ хўжалиги кластерлари фаолияти ҳуқуқий фан учун янги объектдир, шунинг учун уларни таҳлил қилиш анча тарқоқ ҳолга келган ва одатда агроинновацион муносабатларни ҳуқуқий тартибга солишнинг кенгроқ мавзуси доирасида кўриб чиқилади. Бугунги кунда қишлоқ хўжалигидаги ва шу билан бирга инновацион соҳадаги ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи ҳуқуқ нормаларининг миллий ҳуқуқ тизимидаги ўрни тўғрисида савол қўйилмоқда. Қонун нормаларини қишлоқ хўжалиги ҳуқуқи институти ёки ҳатто унинг кичик тармоғи сифатида кўриб чиқиш таклиф этилади. Иқтисодиёт фанлари вакиллари ушбу мавзу бўйича тадқиқот олиб боришда кластерли ёндашувга эътибор беришади (масалан, Ч.Муродов, Ш.Ҳасановларнинг [131] асарларини қайд этамиз), бироқ, умуман олганда, аграр хўжалик фаолиятининг аграр-ҳуқуқий масалалари, кластерлар ва уларни ривожлантириш бўйича давлат сиёсати етарли даражада ўрганилмаганлигича қолмоқда.

Аграр-ҳуқуқий манбаларда агроинновацион кластерга қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва сотишнинг ёпиқ яхлит тизимини шакллантириш мақсадида агросаноат ва бошқа мулкчилик шаклидаги корхоналарнинг концентрацияси ва бирлашмаси сифатида қаралади. Рақобатбардош қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини олиш ва тарқатиш ҳамда қишлоқнинг ижтимоий соҳасини ривожлантиришга кўмаклашиш мақсадида муайян ҳудудда саноат инновацион маҳсулотлар, технологиялар ёки хизматлар, шунингдек, агроинновацион кластерларни шакллантириш ва фаолият кўрсатишни асос сифатида кўриб чиқиш таклиф этилади. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини инновацион ривожлантириш ва қишлоқнинг инқироздан чиқиши учун жойларда корхоналар ташкил этилиши нафақат истеъмолчига инновацион

[131] Муродов Ч., Ҳасанов Ш. Агрокластер: ташкил этишнинг назарий асослари // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы. 2014. - №2. – Б. 19-25.

қишлоқ хўжалиги маҳсулотини олиш имконини беради, балки иш ўринлари яратиш, инфратузилмани ривожлантиришни белгилаб беради[132].

Айнан ишлаб чиқаришни кластер асосида ташкил этиш ижтимоий йўналтирилган иқтисодиётни шакллантиришни, қишлоқ аҳолисининг манфаатларига йўналтирилган қишлоқларнинг иқтисодий, ижтимоий ва хавфсиз ривожланиши нисбатларини тенглаштиришни таъминлайди. Шу муносабат билан биз яхлит иқтисодий тизим сифатида АМС ва қишлоқ ҳудудларини комплекс ривожлантиришни стратегик бошқаришнинг асосий элементлари сифатида агросаноат ва ижтимоий-иқтисодий кластерлаш механизмидан фойдаланишни таклиф қилдик. Қишлоқ хўжалиги кластерларининг самарадорлиги, иқтисодий фанлар соҳасидаги мутахассисларнинг фикрича, уларнинг ташкилий табиати ихтисослашув ва концентрациянинг уйғунлиги билан боғлиқ бўлиб, буни инновацияларсиз амалга ошириш мумкин эмас, шунинг учун кластерларнинг табиати объектив инновациондир. Инновацион тузилмаларни жойлаштиришнинг мазкур йўналишидаги устувор вазифа қишлоқ яшил туризми, органик ишлаб чиқариш, маълум турдаги маҳсулотларнинг юқори ихтисослаштирилган ишлаб чиқариши, инновацион фаолият каби соҳаларда кластерларни ривожлантиришдан иборат[133].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Қишлоқ хўжалиги кластерлари бошқа интеграция шаклларига нисбатан бир қатор афзалликларга эга ва қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга қуйидагилар орқали ҳисса қўшади:

1) ишчи кучи ва етказиб берувчилар, ихтисослаштирилган маълумотлар, муассасалар ва сотиш бозорларининг кенгайиши туфайли корхоналар самарадорлигининг ўсиши;

2) ихтисослаштирилган олий таълим муассасалари ва тегишли илмий-тадқиқот институтлари билан ҳамкорлик қилиш орқали инновацияларни рағбатлантириш;

3) ўзгаришларни тез амалга ошириш қобилияти ва етарли даражада мослашувчанлик, тажрибанинг арзонлиги, рақобатчилар ва кластернинг бошқа аъзолари томонидан босим;

4) кластер аъзолари ўртасида тақсимланиши ҳисобига хавфларни минималлаштириш;

[132] Гиренко И.В. Правовое регулирование агроинновационной деятельности: дис…. канд. юрид. наук. – К., 2010. – 8-9 с.

[133] Задорожная Л.М. Институциональное обеспечение развития рынка инноваций в аграрной сфере: дис…. канд. эконом. наук. – Винница, 2015. – 76 с.

5) ташқи инвестициялардан самарали фойдаланишга, янги корхоналар учун жойни яхшироқ визуаллаштириш, зарур хомашё, бутловчи буюмлар ва ишчи кучи мавжудлиги ҳисобига корхоналарни ташкил этишга кўмаклашувчи кластер аъзолари ҳаракатларини ички мувофиқлаштириш;

6) қишлоқларда инфратузилмани ривожлантириш[134].

Қишлоқ хўжалиги ва қишлоқ ҳудудларини ривожлантириш бўйича кластер стратегияси самарадорлигини хорижий тажриба, хусусан, АҚШ, Канада, Австралия, Бразилия, Аргентина, Туркия, Финляндия, Нидерландия, Дания, Польша, Швеция, Италия, Япония, Франция, Португалия, шунингдек Чили давлат раҳбари ташаббуси билан Чили вино кластери ташкил этилганига кенг ва ёркин мисол бўла олади. Кластер ғояси асосида фермерлар, илмий муассасалар, давлат органлари меҳнати бирлашмаси ва хорижий мутахассисларни жалб этиш вино экспортини бир неча баробар ошириш, сифат даражасини сезиларли даражада ошириш ва кўплаб халқаро мукофотларга сазовор бўлиш имконини берди ва узумзорлари икки баравар кўп бўлган Аргентинадан олдинга ўтди. (Ҳозир Чили вино экспорти бўйича дунёда тўртинчи ўринни эгаллайди ва йиллик даромади 3 миллиард АҚШ долларигача, Аргентина эса атиги 11-14-ўринларда туради[135]).

Эквадордаги гул кластери ҳам қизиқарли тарихга эга. Бу мамлакатда кўп миқдорда фойдаланилмаётган қишлоқ хўжалиги ерлари бор эди, улар ундан гулларни етиштириш учун фойдаланишга қарор қилишди, чунки бу алоҳида сегмент юқори рентабелликка эга. Кластер ташкил этилиши ва хорижлик инвесторлар ҳамда Нидерландиядан технология, кўчат ва уруғ олиб келган мутахассисларни жалб этиш натижасида Эквадор гуллар экспорти бўйича дунёда учинчи ўринни эгаллади[136]. Давосда бўлиб ўтадиган Жаҳон иқтисодий форуми (WEF) ўн йилдан ортиқ вақт давомида ҳар йили замонавий иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари ва индексларини ўрганиб, муҳокама қилиб, эълон қилиб келаётгани эътиборга лойиқ. WEFнинг ҳар бир йиллик ҳисоботида “Ички рақобат ва кластерни ривожлантириш” бўлими мавжуд. Ҳисоботнинг ўрганилаётган ва эълон қилинаётган 143 та кўрсаткичлари, қуйи индекслари орасида ўрганилаётган 117 та давлатнинг ҳар бирида иқтисодий кластерлашув ҳолатини тавсифловчи 13 та кўрсаткич мавжуд.

---

[134] Антонюк Г. Кластеры как ключ к развитию сельского хозяйства [Электронный ресурс]. - режим доступа: http://socrates.vsau.org/ repository/getfile/3613.pdf.

[135] Бизнес-кластеры: тройная сила [Электронный ресурс]. - режим доступа: http://www.innovations. com.ua/ru/articles/omanage/19558/biznes-klasteri - potrijna-sila.

[136] Кластерная организация аграриев: медлить нельзя объединяться // Агробизнес сегодня. – 2015. – №19 (314). – [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.agro-business.com.ua/ekspertna - dumka/4153-klasterna-organizatsiia-agrariiiv - zvolikaty-ne-mozhna-obiednuvatysia.html.

Кластерларнинг ишлаш амалиётига бағишланган ишларда қуйидаги моделлар ажралиб туради: италян (кластер рақобатбардошлигини ошириш учун турли бирлашмаларга бирлашган кўплаб кичик фирмалардан иборат), япон (кластерда етакчи), Финляндия (кластер бизнес ва инновацияларнинг юқори даражадаги халқаролашувига эга), Шимолий Америка (фирмалар ўртасидаги энг аниқ рақобат аксарият муносабатлар бозор воситачилигида амалга оширилади), Ҳиндихитой (асосан тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар, замонавий технологиялар ва жаҳон бозорларига чиқиш) ва Совет модели (бозор муносабатлари ва рақобат минималлаштирилган, ишлаб чиқариш йирик фирмаларда жамланган). Лекин уларни шартли равишда Европа (Полша, Чехия, Венгрия, Бразилия, Австрия, Болтиқбўйи мамлакатлари, Германия, Франция, Дания, Швеция ва бошқалар), Америка (АҚШ, Колумбия, Филиппин, Мексика, Боливия) Арабистон, Япония, Ҳиндистон, Жанубий Корея, Гонконг, Таиланд, Малайзия, Россия йўналишларига гуруҳлаш мумкин.[137] Мутахассисларнинг фикрича, постсовет ҳудудида кластерни ривожлантиришнинг ҳинд-хитой модели энг характерли бўлиб, бу кластерлар илғор технологияларни ўзлаштириш ва жаҳон бозорларига чиқиш учун тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳисобига йирик халқаро компанияларни жалб қилиш орқали ривожланишидан далолат беради.[138] Хорижий сармояни жалб қилиш зарурлиги ҳақидаги фикрни тўлиқ баҳам кўрар эканмиз, ўз ресурсларимизни сафарбар этиш муҳимлигини ҳам таъкидламоқчимиз, чунки фақат Ғарб давлатларининг ёрдамига умид қилиш аллақачон иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда инқирозларни келтириб чиқарди.

Кластер сиёсатини амалга ошириш давлатнинг ролига қараб қуйидаги тўртта ёндашувга ажратилади:

1) функционал кластер сиёсати, бунда давлат манфаатдор томонлар ўртасидаги ҳамкорликни қўллаб-қувватлайди ва лойиҳани амалга ошириш учун маълум молиявий ёрдам беради;

2) давлат функцияси кластер инфратузилмасини ривожлантиришни рағбатлантириш мақсадида инвестицияларни йўналтириш ва қўллаб-қувватлаш билан тўлдириладиган кластер сиёсатини қўллаб-қувватлаш;

3) давлатнинг қўллаб-қувватлаш функцияси кластерларни ривожлантириш орқали минтақанинг ихтисослашувини ўзгартиришга қаратилган махсус дастурларни амалга ошириш билан тўлдирилганда директив кластер сиёсати;

[137] Муродов Ч., Ҳасанов Ш. Агрокластерларни ташкил этишда Жанубий Корея тажрибасидан фойдаланишнинг йўналишлари // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы. 2014. - №3. – Б. 39-44.
[138] Николаенко С.М. Мировой и отечественный опыт формирования кластерных структур [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://dspace.nuft.edu.ua/jspui/bitstream/123456789/19397/1/3.pdf

4) аралашув кластер сиёсати, бунда давлат ўзининг сиёсатни ишлаб чиқиш функцияси билан биргаликда трансфертлар, субсидиялар ва бошқа фаол тартибга солиш воситаларини тақдим этиш ва унинг аграр иқтисодиётга ихтисослашувини шакллантириш орқали кластерни янада ривожлантириш учун жавобгарликни ўз зиммасига олади[139].

Тегишли давлат сиёсати соҳасидаги икки хил ёндашувни икки давлат - АҚШ ва Япония мисолида таҳлил қилиш ҳам қизиқ, бунда айнан кластерли ёндашув иқтисодий ривожланишнинг инновацион моделини ишлаб чиқишда калитга айланди, хусусан, қишлоқ хўжалиги соҳасида. Японияда йирик корхоналар (корпорациялар) давлат томонидан қўллаб-қувватланса, АҚШда асосан ўрта ва кичик бизнес, шунингдек, инновацияларга рағбатлантирилган хусусий шахслар қўллаб-қувватланади. Шу билан бирга АҚШда йирик кластерлар ҳам муваффақиятли фаолият юритмоқда. Ўз навбатида, маҳаллий экспертлар ҳам Япония, ҳам АҚШ тажрибасини комплекс ёндашув ва уйғунлаштиришни талаб қилмоқда.

Ҳозирги вақтда Европа Иттифоқининг барча давлатлари 2000-йилда Лиссабон саммитида кластер ишлаб чиқариш моделига асосланган минтақавий инновацион тизимларни (РИС) ривожлантириш дастурларини кенг жорий этиш бўйича қарорларини амалга оширмоқда. Ушбу қарорнинг асосий мақсади 2010 йилга қадар билимлар иқтисодиётини ривожлантириш стратегиясини амалга ошириш, шунингдек, инновацион технологияларни жорий этиш орқали Европа ва унинг жаҳон бозорларидаги асосий рақобатчилари – АҚШ ва Япония ўртасидаги тафовутни камайтириш ниятидан иборат эди. Бундан ташқари, 2007 йил феврал ойида Брюсселда бўлиб ўтган саммитда Европанинг Кластер Манифести тасдиқланди ва 2008 йил 21 январда Стокголмда бўлиб ўтган саммитда Европа Кластер Меморандуми – Европанинг рақобатбардошлигини ошириш бўйича ҳаракатлар режаси қабул қилинди[140].

Айтиш жоизки, Европа мамлакатларида кластер ривожланишини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг ягона модели мавжуд бўлмаса-да, барча мамлакатларда кластерларни ривожлантириш бўйича ўз давлат дастурлари мавжуд. Шундай қилиб, Францияда кластерларни шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган бир қатор давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чоралари жорий этилмоқда, хусусан: инновацион фаолиятни марказлаштирилган тартибга солиш; саноат эҳтиёжлари учун тадқиқот ва

[139] Гришева И.Ю. Кластеризация как механизм наращивания денежного потенциала АПК. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.nbuv.gov.ua/ portal/Soc_Gum/Ekfor/2011_2/47.pdf.
[140] Ринейская Л.С. Кластеры в современной глобальной экономике // Эффективная экономика. – 2016. – №5. – [Электронный ресурс]. - режим доступа: http://www.economy.nayka.com. ua/? op=1&z=4971.

ишланмаларни рағбатлантириш; фанни кўп талаб қиладиган бизнес турларини бюджетдан ажратиш; илмий-тадқиқот ишларига инвестициялар учун солиқларни камайтириш. Кластер сиёсати ДАТАР ҳудудий режалаштириш агентлиги томонидан амалга оширилади, унинг асосий мақсади компаниялар ўртасида, шунингдек, Франциянинг минтақавий иқтисодий ривожланишини рағбатлантириш учун компаниялар ва минтақавий таълим ва тадқиқот муассасалари, маҳаллий ҳокимият органлари ўртасидаги ҳамкорликни рағбатлантиришдир. Айрим мамлакатлар кичик бизнесни ривожлантиришга эътибор қаратади ва бунинг учун кластер усулидан фойдаланади. Қолган давлатлар ўз саъй-ҳаракатларини хорижий инвестицияларни жалб қилишга йўналтирмоқда. Чехиянинг ёндашуви қуйидагича: бизнес мамлакатда қолиши учун инвестицияларни жалб қилиш. Бошқа бир гуруҳ давлатлар минтақавий ривожланиш учун кластерлардан фойдаланадилар[141].

Ҳозирги вақтда экспертлар ҳамжамияти, ишбилармон доиралар ва давлат институтлари вакиллари ўртасида кластер фаолияти соҳасидаги давлат сиёсатининг тегишли вектори бўйича турли, баъзан қарама-қарши фикрлар билдирилмоқда. Давлатнинг юқорида қайд этилган жараёнда ҳам тартибга солиш, ҳам ташкилий даражада фаолроқ иштирок этиши зарурлиги тўғрисида кенг тарқалган позиция мавжуд. Шу билан бирга, давлат назоратининг ортиқчалиги ва бизнеснинг ўзи ташаббуси билан кластерлар яратишнинг табиий-объектив жараёнига аралашуви (масалан, эркин иқтисодий зоналар ва технопарклар муваффақиятсиз бошлангани) ҳақида ҳам хавотирлар, шунингдек, Совет Иттифоқининг салбий тажрибаси, бу эрда давлат томонидан барча коммуникацияларни назорат қилиш билан кластерлар турини бошқариш концепцияси мавжуд. Бироқ инвестицияларни жалб қилиш, салоҳиятли кластерларни аниқлаш ва яратиш, тегишли ахборот сиёсатини амалга ошириш босқичида давлат томонидан қўллаб-қувватлаш зарурлиги ҳақидаги хулоса деярли бир овоздан қўллаб-қувватланмоқда. Шубҳа йўққи, мазкур жараёнларнинг қонун ҳужжатларида етарли даражада тартибга солинмаганлиги ва ҳуқуқий категория сифатида “кластер” тушунчасининг йўқлиги агроинновацион ривожланиш моделини барпо этишда кластер ёндашувини амалга оширишни секинлаштиради ва мураккаблаштиради. Миллий стратегик тадқиқотлар институти мутахассисларининг фикрича, ишлаб чиқаришнинг кластер ташкилотини ташкил этишнинг ҳуқуқий тартибга солинмаганлиги ва кластер корхоналарнинг ўзини ўзи бошқарадиган хўжалик бирлашмаси

[141] Бизнес-кластеры: тройная сила [Электронный ресурс]. - режим доступа: http://www.innovations.com.ua/ru/articles/op-manage/19558/biznes-klasteri - potrijna-sila.

сифатида эътироф этилиши мавжуд корхоналарни қўллаш ва янгиларини ишлаб чиқишни имконсиз қилмоқда. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги кластерларини амалий яратиш ва фаолият кўрсатишига оид бир нечта мисоллар мавжуд бўлиб, улар асосан товар ишлаб чиқарувчиларнинг ташаббуси бўлиб ҳисобланади, улар кластерни ривожлантиришнинг жаҳон амалиётидан олинган тажрибага асосланади. Аграр ҳуқуқшунослар ҳам Ўзбекистонда кластерлаштиришнинг устувор йўналишларини аниқлаш бўйича тадқиқот ўтказиш ва тегишли ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш зарурлигини таъкидламоқда.

ХУЛОСА

Бинобарин, кластерли ёндашув инновацияга йўналтирилган иқтисодиётни, айниқса, унинг аграр секторини ривожлантиришнинг глобал тенденцияларидан бири ҳисобланади, десак хато бўлмайди. Ўйлаймизки, қишлоқ хўжалиги соҳасида кластер концепциясини ишлаб чиқишда бизнес ва давлат иштироки моделини танлаш бўйича консенсус излаш, агар юқорида кўрсатилган жараён мақсадга эришиш тамойилига асосланса, самарали бўлиши мумкин. Қишлоқ хўжалигини кластерли ривожлантириш стратегиясини биргаликда ишлаб чиқиш, уни давлат-хусусий шериклик ва марказсизлаштириш тамойилларини ҳисобга олган ҳолда тегишли ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ижобий самара бериши ва инновацион кластерни жорий этишни фаоллаштиришга хизмат қилиши мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Муродов Ч., Ҳасанов Ш. Агрокластер: ташкил этишнинг назарий асослари // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы. 2014. - №2. – Б. 19-25.
2. Гиренко И.В. Правовое регулирование агроинновационной деятельности: дис…. канд. юрид. наук. – К., 2010. – 8-9 с.
3. Задорожная Л.М. Институциональное обеспечение развития рынка инноваций в аграрной сфере: дис…. канд. эконом. наук. – Винница, 2015. – 76 с.
4. Антонюк Г. Кластеры как ключ к развитию сельского хозяйства [Электронный ресурс]. - режим доступа: http://socrates.vsau.org/ repository/getfile/3613.pdf.
5. Бизнес-кластеры: тройная сила [Электронный ресурс]. - режим доступа: http://www.innovations. com.ua/ru/articles/omanage/19558/biznes-klasteri - potrijna-sila.
6. Кластерная организация аграриев: медлить нельзя объединяться // Агробизнес сегодня. – 2015. – №19 (314). – [Электронный ресурс]. - Режим

доступа: http://www.agro-business.com.ua/ekspertna - dumka/4153-klasterna-organizatsiia-agrariiiv - zvolikaty-ne-mozhna-obiednuvatysia.html.

7. Муродов Ч., Ҳасанов Ш. Агрокластерларни ташкил этишда Жанубий Корея тажрибасидан фойдаланишнинг йўналишлари // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы. 2014. - №3. – Б. 39-44.

8. Николаенко С.М. Мировой и отечественный опыт формирования кластерных структур [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://dspace.nuft.edu.ua/jspui/bitstream/123456789/19397/1/3.pdf

9. Гришева И.Ю. Кластеризация как механизм наращивания денежного потенциала АПК. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.nbuv.gov.ua/ portal/Soc_Gum/Ekfor/2011_2/47.pdf.

10. Ринейская Л.С. Кластеры в современной глобальной экономике // Эффективная экономика. – 2016. – №5. – [Электронный ресурс]. - режим доступа: http://www.economy.nayka.com. ua/? op=1&z=4971.

O'RGIMCHAKSIMONLAR SINFINING NOYOB VAKILI – QORAQURT

Ruiddinov Asilbek Husan o'g'li
Qarshi davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Avvaldan insonlar qoraqurt chaqishidan ko'p zarar ko'rib kelganlar. Qoraqurt chaqishidan zaharlangan insonlar orasida o'lim holatlari ham ko'p bor kuzatilgan. Hozirgi kunda biologiya, meditsina fanlarining turli tarmoqlari rivojlanishi tufayli qoraqurt va boshqa zaharli jonzotlarning zahriga qarshi zardoblar foydalanilmoqda.

Kalit so'zlar: *Qoraqurt, urg'ochi, erkak, zahar, tabiat, yashash tarzi, zardob, tog', tur, o'rgimchaksimon.*

ABSTRACT

From the beginning, people suffered a lot from blackworm bites. There have been many cases of death among people poisoned by blackworm bites. Currently, due to the development of various branches of biology and medicine, serums against the poison of blackworms and other poisonous creatures are used.

Key words: *Blackworm, female, male, poison, nature, lifestyle, serum, mountain, species, arachnid.*

KIRISH

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining hayvonot dunyosi boy va rang barangligi bilan ajralib turadi. XX asrning 60-70 yillar ichida tabiat resurslarini talon taroj qilish, qishloq xo'jaligini yuritishdagi ayrim kamchiliklar suv resurslariga nisbatan noto'g'ri munosabat, tirik tabiatning boshqa qismlari bilan birga hayvonot olamiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Albatta bundan O'zbekiston o'rgimchaksimonlar sinfi vakillari ham benasib qo'lmadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni demokratlashtirish va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni tobora takomillashtirib bormoqda. Respublikamizda yovvoyi tabiatni saqlab qolish maqsadida "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (1992), dagi qonunning ishlab chiqarilishi respublikamiz tabiatini muhofaza qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonda 15 turdagi zaharli o'rgimchaksimonlar orasida qoraqurt o'zining kuchli zahar ta'sirga ega ekanligi va yashash tarzi bilan boshqa zaharli o'rgimchak turlaridan ajralib turadi.

Qoraqurt so'zi turk tilidan olingan bo'lib, qora hasharot ma'nosini bildiradi. Boshqa ma'nosi esa, "qora beva" deb yuritiladi. Uning qora beva deb atalishiga sabab,

urug‘langan urg‘ochi qoraqurt qochishga ulgurmagan erkak qoraqurtni yeb qo‘yadi. Shu tariqa urg‘ochi qoraqurt “beva” bo‘lib qoladi.

Bu turni O‘zbekistonning cho‘l - adirlari, tog‘ yon bag‘irlarida, ko‘l, daryo bo‘ylarida, o‘rmonlarda va eski tashlandiq binolarda qayd qilish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qadim zamonlardan beri insonlar qoraqurt chaqishidan ko‘p zarar ko‘rib kelganlar. Qoraqurt chaqishidan zaharlangan inson, ko‘ngilsiz hodisalarga uchragan, o‘lim holatlari ham ko‘p bor kuzatilgan.

Keyingi yillarda biologiya, meditsina fanlarining turli tarmoqlari rivojlanishi tufayli qoraqurt va boshqa zaharli jonzotlarning zahriga qarshi zardoblar ishlab chiqilgan.

Qoraqurtlar O‘zbekistonning 200 dan ortiq hududlarida qayd etilgan. Ammo, hamma joyda ham ular bir tekis tarqalmagan. Jumladan: Surxondaryo viloyatining Sherobod, Derbent, Sayrob; Qashqadaryo vilotining Nishon, Tolimarjon, Muborak, G‘uzor; Buxoro viloyatining Qorovulbozor, Kogon; Samarqand viloyatining Nurobod, Urgut; Jizzax viloyatining Qizulqum, Dashtobod, Zomin; Namangan viloyatining Chust, Pop; Farg‘ona viloyatining Rishton tuman hududlarida keng tarqalganligi ilmiy manbalarda keltirilgan.

Tabiatda tarqalgan hayvonlarni tur sonini saqlash, ko‘paytirish va muhofaza qilish zamonoviy zoologiyaning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Buning uchun avvalambor ushbu hayvon turlarini biogeotsenozlarda tarqalish qonuniyatlarini, o‘ziga xos bioekologik xususiyatlarini atroflicha o‘rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Каримова Р.Р., Рахматуллаев А.Ю., Эргашев Н.Э. «Экология и кадастр паукообразних Узбекистана». 8-я Пушинская конфренсия школа молодих ученних – Биология наука XXИ века. 20 – 24 мая 2002 г. Пушина. Т. 2, с 74-75.
2. Михайлов К.Г. «Католог пауков (*Арачнида, Аранеи*) территорий бившего Советского Союза. Москва, 1997, 416 с.
3. Хамраев А.Ш., Боқоев С.Б., Рахматуллаев А.Ю., Жугинисов Т.И., Рустамов Q.Ж. “Ўзбекистоннинг заҳарли ўргимчаклари” Бухоро, 2009, 56 б.
4. Эргашев Н.Э. «Экология ядовитих пауков Узбекистана». Ташкент, Фан, 1990,. 189 с.
5. Рахматуллаев А.Ю., Давронов Б.О.Ўзбекистоннинг захарли ўргимчаклари. Ўқув - услубий қўлланма. “Насаф” нашриёти, Қарши, 2019. 80 б.

XOJANING “MIFTOH UL-ADL” ASARI QO‘LYOZMA NUSXALARI VA ULARNING O‘RGANILISHI

Danabekov Ozodbek Imomali o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU
O‘zbek filologiyasi fakulteti O‘zbek tilshunosligi mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada mumtoz adabiyot namunalarini asliyat asosida o‘rganish, talabalarni qo‘lyozma manbalardan xabardor qilish, ularni mutaxassis sifatida tayyorlash, mumtoz manbalarni qo‘lyozma nusxalar asosida nashr etish, mukammal ilmiy izohlar matnini tayyorlash, tilshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi, yuksak ma’naviy qadriyatlar, farzandlar tabiyasi, vatanga muhabbat, halollik va boshqa insoniy fazilatlar targ‘ibi bilan yo‘g‘rilgan Xojaning “Miftoh ul-adl” asari, uning qo‘lyozma nusxalari, asarning bugungi yosh avlod tarbiyasi va ma’naviyatini yuksaltirishda dasturilamal bo‘lishi, ta’lim va tarbiyani uyg‘unlikda olib borish zaruriyati kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *mumtoz, qo‘lyozma manba, nasta’liq, manbashunoslik, matnshunoslik, ilmiy izohlar, transkripsiya, tabdil, transliteratsiya, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, ta’limiy.*

MANUSCRIPT COPIES OF KHOJA'S WORK "MIFTAH UL-ADL" AND THEIR STUDY

ABSTRACT

In the article, the study of classic literature samples based on the original, informing students about manuscript sources, preparing them as specialists, publishing classic sources based on manuscript copies, preparing the text of excellent scientific comments, new scientific research in the direction of linguistics, source studies and textual studies that carrying out theoretical research is one of the urgent issues today, the work "Miftah ul-adl" by Khoja, which promotes high spiritual values, the nature of children, love for the country, honesty and other human qualities, his manuscript issues such as copies, the programmatic nature of the work in raising the education and spirituality of today's young generation, and the need to carry out education and upbringing in harmony have been researched.

Key words: *classic, manuscript source, nastaliq, source studies, textual studies, scientific comments, transcription, translation, transliteration, social, political, moral, educational.*

KIRISH

Bugun xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda. 2017-yil 24-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [142] gi qarorni imzoladi. Qarorda keltirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga yo'naltirilgan.

O'zbek xalqining boy ilmiy-ma'naviy merosi, adabiyot va san'ati haqidagi qimmatli ma'lumotlari qo'lyozma manbalarda aks etgan. Mumtoz adabiyot namunalarini asliyat asosida o'rganish, talabalarni qo'lyozma manbalardan xabardor qilish, ularni mutaxassis sifatida tayyorlash oliy ta'lim tizimida madaniy-ma'rifiy saviyaning oshishiga sabab bo'ladi. Mumtoz manbalarni qo'lyozma nusxalar asosida nashr etish, mukammal ilmiy izohlar, ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan tanqidiy matnini tayyorlash, tilshunoslik, manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Bunda qo'lyozma matn ustida ishlash tajribasiga asoslanib ish olib borish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Millatning kelajagi bo'lgan har tomonlama bilimli va komil yoshlarni tarbiyalashda mumtoz adabiyotimizning durdona asarlarida ilgari surilgan ta'lim va tarbiyaga oid, shuningdek, umuminsoniy g'oyalar targ'ibi alohida kasb etilganligi hech kimga sir emas. Xususan, yuksak ma'naviy qadriyatlar, ota-ona hurmati, oila, farzandlar tabiyasi, vatanga muhabbat, to'g'riso'zlik, halollik, poklik va boshqa bir qancha go'zal insoniy fazilatlar targ'ibi bilan y o'g'rilgan Xojaning "Miftoh ul-adl" nomli didaktik asari bugungi yosh avlod tarbiyasi va ma'naviyatini yuksaltirishda dasturilamal bo'lishi shubhasizdir.

Filologiya sohasida mustaqillikdan so'ng Sharq qo'lyozmalarini o'rganish, qo'lyozma manbalarni topish, ilmiy tadqiq qilish va nashr etish ishlarining keskin jonlanishi, mumtoz qo'lyozmalarni o'rganish tilshunoslik, adabiyotshunoslik va

[142] Mirziyoyev Sh. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va tar'g'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori.-T., 2017-yil, 24 –may.

matnshunoslik sohasining jadal rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Matnshunoslik sohasining vazifalari, tasnifi, nashr tiplari va prinsiplarining sistemalashtirilmaganligi qo‘lyozma asarlar tadqiqi ustida ish olib borayotgan tilshunos va adabiyotshunoslarimizga manbalarni ilmiy iste’molga kiritish ishlarida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Bu esa ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati yo‘nalishdagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni davr talabiga aylantirdi. Filologiyada matn ustida ishlash masalalarida ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qoida yo‘q. Manbashunoslar matn tarixi, tadqiqi va tavsifi ustida ko‘proq bosh qotirsalar, matnshunoslar ularga qo‘shimcha ravishda matn talqini tadqiqiga ham alohida e’tibor qaratadilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mumtoz asarlarni tadqiq etish, yozma manbalarning ilmiy, ma’rifiy, axloqiy-ma’naviy qiymatini belgilash, badiiy jihatlarini yoritish, til xususiyatlarini o‘rganish filologik sohaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Sir emaski, ko‘hna yozma manbalarda xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli, urf-odati, an’analari aks etadi. Demak, jamiyat va til tarixidan boxabar bo‘lishda yozma yodgorliklar muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, Xojaning “Miftoh ul-adl” asari leksik tarkibini tadqiq etish nafaqat o‘zbek xalqining uzoq o‘tmishini ilmiy asosda yoritish, shuningdek, o‘zbek tili va adabiyoti tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan ham g‘oyat muhimdir, bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Mumtoz adabiy manbalar tili leksik - semantik sathini ham an’anaviy, ham sistem - struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish yo‘lida qator tadqiqotlar dunyo yuzini ko‘rdi. So‘nggi yillarda ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy-madaniy va adabiy merosga munosabat o‘zgardi, ularni o‘rganishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan, xalqimiz ma’naviyatida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ adiblarning asarlarini asl manbalardan o‘qib-o‘rganish, ular ijodiga xolis baho berish va targ‘ib-u tashviq etish ishlari keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Bugungi kunda ajdodlarimiz ma’naviy merosi, Sharq allomalarining ijodiy merosi har tomonlama o‘rganila boshladi.

Xojaning “Miftoh ul-adl” asari qo‘lyozmasining O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida № 885, №1791 va № 7796 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxalari mavjud. Biz o‘rganayotgan manba qo‘lyozmasi № 7796 inventar raqami ostida saqlanadi. Asar nasta’liq xat turida chiroylik qilib yozilgan bo‘lib, 113^a - 113^b shifalardan iborat[143].

Xoja taxallusi bilan ijod qilgan ulug‘ mutafakkir adib va shoir Ibodulla Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahobxoja o‘zining muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mazmunda bitilgan kichik nasriy hikoyalari bilan shuhrat qozongan yirik ijodkordir.

[143] Xojaning “Miftoh ul-adl” asari № 7796 inventar raqamli qo‘lyozmasi.

Adibning hayoti va ijodiy faoliyati haqida uning o‘z asarilari “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” hamda XVI asr adabiy xayol oynasi bo‘lgan Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkir ul-as’hob”tazkirasida ma’lumot keltiriladi[144].

Kichik nasriy hikoyalardan tashkil topgan “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti”), “Gulzor” singari asarlar hamda “Maqsad ul-atvor” nomli pand-nasihat mazmunidagi doston ijod etgan bu ulug‘ so‘z san’atkorining hayoti va ijodiy faoliyati asosan XX asrning birinchi yarmidan o‘rganila boshlandi. Bu boradagi dastlabki izlanishlarni taniqli adib va adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat boshlab berdi. Xojaning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nomzodlik dissertasiyasini yozgan olima Marg‘uba Mirzaaxmedova bu haqda quyidagi mulohazalarini bayon etadi: “Fitrat tomonidan “Miftoh ul-adl” hikoyalarining nashr etilishi Xoja ijodini o‘rganish va unga dastlabki qiziqish boshlanishidan darak beradi” [145]. Tadqiqotchi A.Fitrat, N.Mallayev, V.Zohidov, S.Qosimov singari adabiyotshunoslarning bu boradagi izlanishlarini ilmiy jihatdan tahlil qiladi.

Shuningdek, u “Miftoh ul-adl”ning yozilgan davrini XVI asr sifatida ko‘rsatadi. Bu fikr keyingi yillarda nashr etilgan majmualarda, hatto taniqli sharqshunos olim E.E.Bertels tadqiqotlarida ham o‘z hukmronligini saqlab qoladi [146]. Adabiyotshunos olim V.Zohidov Xoja va uning asarlari haqidagi maqolalarida “Miftoh ul-adl” XVI asrning taniqli adibi Xoja tomonidan Shayboniyxonning o‘g‘li Muhammad Temur Sultonga bag‘ishlab yozilganligini ma’lum qiladi[147].

“Miftohul-adl” (“Odillik kaliti”) asari mumtoz o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallaydi. Asar XVI asrda yaratilgan va u “Gulzor” asarining muallifi Poshshoxo‘ja Abdulvahhobxo‘ja o‘g‘li qalamiga mansubdir. “Miftoh ul-adl”ning muqaddimasidan ma’lum bo‘lishicha, bu asar Shayboniyxonning o‘g‘li shahzoda Temurbekka bag‘ishlangan[148]. “Gulzor”ga kiritilgan hikoyalar har jihatdan “Miftoh ul-adl”ning hikoyalariga tamomila muvofiqdir, ularni konkretlashtiradigan materiallardir. Sharq an’anasi bo‘yicha, asarning oxiriga “Kitobning so‘nggi” deb qo‘yiladi. “Miftoh ul-adl”ning qo‘lyozma nusxalarining so‘nggida esa bu yozuv yo‘q va odatdagi “Bismilloh…”dan keyin “Gulzor” asari boshlanadi. “Gulzor”ning oxirida esa “Kitobning so‘nggi” berilgan. Ba’zi qo‘lyozmalarda “Miftoh ul-adl” bilan “Gulzor” bir kitob shaklida muqovalangan kitobda berilgan. Bu ikki asar o‘zining tili, uslubli, g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan ham bir-birga juda yaqin turadi, hatto aytish mumkinki, ular bir kitobdir.

---

[144] Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi XVI-XIX asr birinchi yarmi. –Toshkent: “Noshir”, 2019. -B.119
[145] Mirzaaxmedova M. Xoja. –Toshkent: “Fan”, 1975. -B.5.
[146] Mirzaaxmedova M. Xoja. –Toshkent: “Fan”, 1975. -B.3-12.
[147] Zohidov V. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” haqida.-Toshkent, 1961.
[148] Пошшохўжа “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор”дан. *ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти.-Тошкент.1962. Б.3.*

Zayniddin Mahmud Vosifiy, Mushfiqiy, Binoiy, Majlisiy va boshqalar o‘sha davr madaniy hayotida katta mavqega ega bo‘lganlar. Shularning ichida “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarning muallifi Poshshoxoja Abduvahxobxo‘ja ham bor edi. Poshshoxo‘janing “Miftoh ul-adl” asarida davr ijtimoiy voqeligi va ziddiyatlarning ko‘pgina muhim tomonlari ko‘zguda aks etgandek o‘z in’ikosini topgan. Asar 15 bobdan iborat bo‘lib, unda dastlab nazariy-didaktik xarakterga ega bo‘lgan tezislar, so‘ngra turli masallar, hikoyalar keltiriladi. Bu asar yagona syujetga ega bo‘lmay, hikoyalar, masallar to‘plami shaklidan iborat. Asardagi masallarning ko‘pi qaytadan ishlangan folklor asarlar hisoblanadi.

Asarda keltirilgan hikoya va masallar diniy-mistik mazmundagi masallar bilan emas, balki hayotni sevishga, shu hayot masalalari bilan shug‘ullanishga, insonning baxti uchun xizmat qilishga, yovuzlik va zulmni tugatishga qaratilagan mazmundagi ilg‘or g‘oyalar bilan sug‘orilgan hikoyalari bilan qimmatlidir.

Kichik ibratli hikoyalar, mazmunli masallar Sharq badiiy adabiyotida va o‘rta asr hamda uygonish davri Yevropa adabiyotida keng tarqalgan edi. Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoirlarning ijodida ham bunday asarlarni ko‘plab uchratamiz. Xususan, “Miftoh ul-adl” mumtoz o‘zbek adabiyoti va tili tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Asar jonli xalq tilida yozilgan bo‘lib, unda murakkab, tushunilmaydigan yoki og‘ir jumlalar kam uchraydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, muallif asar tili haqida *“...Jam qildim bu kitobni turkiy tilina, taqi bu kitobga “Miftoh ul-adl” ot qo‘ydim. Ko‘rkluk koni, ko‘rkluk sultoni davlat saodat shohi shahzodai muazzam Temurbek xazinasig‘a tabarruk uchun taqi bu kitobni bayon va tasnif qilmoqg‘a sabab ul erdikim, olimlar aytibdurlarkim sultonlarg‘a va beklarg‘a va ulug‘larga xizmat qilmoq uch turluk turur. Avval tan xizmati, ikkinchi til xizmati, uchinchi ko‘ngul xizmati. Ammo tan xizmati ul turur kim, qapuda turub xizmat qilsa, taqi til xizmati ul tururkim, doim til birla duo qilsa, taqi ko‘ngul xizmati ul tururkim, har kim bu kitob birla amal qilsa, ikki dunyoda ezgu oti chiqqay, ikkinchi — o‘lganidin so‘ng ul kishiga go‘r azobi bo‘lmag‘ay. Uchinchi — qiyomat kuni olimlar birla, odil sultonlar birla uchmoqg‘a kirgan. Va yana bu kitobn o‘n besh bobga muhtasar qilduk”* kabi ma’lumotni keltirib o‘tadi [149].

“Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari pand-nasihat ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansub asar hisoblanadi. Turkiy tildagi yozma namunalarida bu hodisa (ya’ni pandnoma asarlar yaratish an’anasi) ilk bor Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ushbu asar shaxs ma’naviyatini

[149] Xojaning “Miftoh ul-adl” asari № 7796 inventar raqamli qo‘lyozmasi, 2[a]-2 [b]

yuksaltirishga xizmat qiladigan didktik manbadir[150]. Xojaning asosan kichik nasriy hikoyalardan tarkib topgan “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”asarlari Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston”, turkiy mumtoz adabiyotning eng yirik vakili Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarlariga o‘xshab ketadi. Bunday kichik nasriy hikoyalar ijod etish an’anasi Xoja davriga qadar Nosiruddin Rabg‘aziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham ma’lum ma’noda uchrashi kuzatiladi.

“Miftoh ul-adl”, “Gulzor” asarlarining ko‘plab qo‘lyozma nusxalari bir kitob holatida muqovalangan shaklda bizgacha yetib kelgan. Shu bois “Miftoh ul-adl”“Gulzor”ning tarkibi sifatida talqin qilinib kelinadi. Ulardagi mazmun va uslubning uyg‘unligi shunday xulosaga kelishga asos bo‘lgan. “Miftoh ul-adl” o‘n besh bobdan iborat bo‘lib, unda *olimlar, odil sultonlar, zolim podsholar va diyonatsiz beklar, hukmdorlarga mute’ bo‘lmoqlik, shohlarning beklar va vazirlar bilan mashvarat qilmoqlari, hukm chiqarmoq bayoni* singari mavzulardagi ijodkorning mulohazalari hadislaiga tayanilgan holda keltiriladi, ana o‘sha fikrlar tasdig‘i uchun turli hikoyalariga o‘rin beriladi (1-7-boblar).*“Iskandar va Mag‘rib sulton”, “Iskandar va Doro”, “Sulton Mahmud, vazir va ikki boyqush”, “Sulton Mahmud g‘aznaviy va Ayozi Xos”, “Bahrom Go‘r, uning vaziri Rostiravshan va cho‘pon”, “Mahmud g‘aznaviy va tolibul ilm”, “No‘shiravon va Ozarbayjon begi”, “Mo‘min podshoh va tundagi o‘g‘rikr”* kabi. Shuningdek, 8-15-boblarida *da’vo qilmoq, ont ichmoq, o‘g‘rilik, zino haddi, quzb haddi, ta’zir haddi, g‘azot haddi, sayd qilmoqning bayoni* kabi xilma-xil masalalar haqida adibning mulohazalari keltiriladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qo‘lyozma matnini badiiy va lingvistik jihatdan tadqiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Qo‘lyozmaning xat turi, yaratilgan davr va matn xususiyatlaridan tortib, nashr ko‘rinishigacha bo‘lgan tadqiqotni amalga oshirish lozim. Shuningdek, matniy tafovutlarni tahlil qilish, transliteratsiya va tabdildagi yo‘l qo‘yilgan kamchilik va nuqsonlarni aniqlash, qo‘lyozma tavsifini amalga oshirish, tekstologik belgilarni aniqlash muhim ishlardan biri hisoblanadi. Xoja hikoyalari sodda va ravon uslubda yozilganligi, o‘ziga xos tuzilishi, g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligi va til xususiyatlari nuqtai nazaridan nihoyatda qimmatli manbalardan biri bo‘lib, farzandlar tabiyasi, vatanga muhabbat, halollik va boshqa insoniy fazilatlar targ‘ibiga bag‘ishlagan, uning bugungi yosh avlod tarbiyasi va ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni beqiyos.

[150] М.Холмурадова. “Кутадғу билиг”лексикаси. Фил.фан. бўйича Фалсафа доктори (PhD)дисс…-Тошкент, 2018.-Б.14.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va tar’g‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori.-T., 2017-yil, 24 –may.
2. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi XVI-XIX asr birinchi yarmi. – Toshkent: “Noshir”, 2019.
3. Xojaning “Miftoh ul-adl” asari № 7796 inventar raqamli qo‘lyozmasi.
4. Mirzaaxmedova M. Xoja. –Toshkent: “Fan”, 1975.
5. Zohidov V. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” haqida. -Toshkent, 1961.
6. Poshshoxўja “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan. *ЎzSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti.-Toshkent.1962.*
7. М.Холмурадова. “Қутадғу билиг”лексикаси. Фил.фан. бўйича Фалсафа доктори (PhD)дисс…-Тошкент, 2018.

RAUF PARFI LIRIKASIDA MUALLIF OBRAZI

Tog‘aymurodov Malik Tog‘aymurodovich,
Qarshi davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

XX asrning 60-yillarida o‘zbek she’riyatining yangi avlodi ijod maydoniga chiqdi. Bu – Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va Rauf Parfilar avlodi edi. Bu avlod ijodi o‘zbek adabiyotiga hissiyot jilvalari aks etgan she’riyatni qaytardi. “O‘zbek xalqini tuyg‘ulari quruqlashib qolishdan asrab qoldi”. She’riyatimizga yangicha she’riy shakllar, yangicha mazmun, xullas, ko‘ngil she’riyatini olib kirdi. Bu avlod vakillari orasida zamondoshlar ta’biri bilan aytganda “Parfizm” oqimiga asos solgan Rauf Parfining o‘rni beqiyos. Ushbu maqolada shoir Rauf Parfi lirikasida muallif obrazi talqini masalasi tadqiqqa tortilgan.

Kalit so‘zlar: *muallif obrazi, lirika, poetika, Rauf Parfi, simvol, adabiyot.*

АННОТАЦИЯ

В 60-х годах 20 века в поле творчества вышло новое поколение узбекской поэзии. Это было поколение Абдуллы Орипова, Эркина Вахидова и Рауфа Парфи. Творчество этого поколения вернуло в узбекскую литературу поэзию с отражением эмоций. «Он спас узбекский народ от иссушения его чувств». Он привнес в нашу поэзию новые поэтические формы, новое содержание, конспект, душевную поэзию. Среди представителей этого поколения несравнимо место Рауфа Парфи, основавшего, по выражению современников, движение «парфизм». В данной статье исследуется вопрос интерпретации образа автора в лирике поэта Рауфа Парфи.

Ключевые слова: *образ автора, лирика, поэтика, Рауф Парфи, символ, литература.*

KIRISH

Rauf Parfi O‘zturk asli nasabi farg‘onalik (Vodildan) bo‘lib, 1943-yilning 27-sentabrida Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani Sho‘ralisoy qishlog‘ida Parfi Muhammad Amin (1893-1955) va Sakina Isabek (1913-1995) oilasida dunyoga keldi. Boshlang‘ich va o‘rta ta’limni “Sharq yulduzi” (1-7 sinflar), Sho‘ralisoy (53-maktab, 8-9-sinflar), Yangiyo‘l shahridagi Alisher Navoiy (10-11 sinflar, kechki) maktablarida oldi. 1960-1965-yillarda Toshkent Davlat Dorilfununining (hozirgi O‘zMU) jurnalistika fakultetida o‘qidi. U o‘zining “Eng uzoq yozilgan tarjimayi holim” she’rida shunday yozadi:

Tavalludim: 43, mezonning yigirma yettisi,
Otam bog‘bon. Savodsiz, bizningcha,

Onam pillakor. Savodsiz, bizningcha.
Ilm olishga vaqtlari bo‘lmagan ularning.
Qishloq maktabi. Shahar maktabi. Kechki.
So‘ngra barcha tirikchilik maktablari.
Balog‘at guvohnomasi.
Toshkent Dorilfununi.
Talabalikning yakuni.
Talabachilikning boshlanishi.
Kasbim: har qanday maktab.
Ilova: Sevaman she’rni.
She’riyat…
She’r deb atash mumkin bo‘lsa birinchisin yozgan kunim:
53. 5-mart.
Dars: Alisher Navoiydan to Abdulla Orif.
Aleksandr Pushkindan to Viktor Sosnora.
Keyin,
Men bilgan shoirlar.
Men bilgan achchiq-chuchuk besanoq saboq.
Qo‘limdan kelmaydigan ish:
she’r yozmaslik.
Niyatim:
Tinish belgilari singari sodiq bo‘lmoq – kasbimga,
darslarga
va orzularga.
O‘lim?.. Darvoqe…
O‘lim bilan chiqisholmayman.
Ammo Alloh – O‘zi bilgichdir[151]*!*

Ushbu she’rda shoirning nafaqat hayot yo‘li, balki ijod, e’tiqod yo‘li ham aks etib turadi. She’rning har bir misrasidan shoir hayoti haqidagi ma’lum bir haqiqatlarni anglash mumkin:

Tavalludim: 43, mezonning yigirma yettisi,
Otam bog‘bon. Savodsiz, bizningcha,
Onam pillakor. Savodsiz, bizningcha.
Ilm olishga vaqtlari bo‘lmagan ularning.

Shoirning boshqa ko‘pgina she’rlari kabi ushbu misralari ham achchiq kinoya bilan bitilgan. Unda sho‘ro siyosati qurboni bo‘lgan mazlum xalqimizning taqdiri aks

[151] Рауф Парфи. Туркистон руҳи: Сайланма. Тошкент: “Sharq”, 2013. – Б. 20

etib turadi. Sababi aksariyat hollarda bosqinchilar “savodsiz”ga chiqargan ota-bobolarimiz Navoiyni o‘qib tushunadigan darajada “savodsiz” bo‘lishgan. Jumladan, Rauf Parfining ajdodlari ham Turkistonning ma’rifatli kishilaridan edilar. Otasi Parfi Muhammad Aminning ham eskicha, ham yangicha ma’lumoti bo‘lib, fors-tojik, usmonli turkcha va rus tillarini yaxshi bilgan. Rus bosqiniga qadar, undan keyin ham bir muddat turli mahkamalarda tarjimonlik-tilmochlik qilgan. Keyinroq bolshevizmning qonli qatag‘onidan jon saqlash uchun umrining oxirigacha barcha hujjatlarda o‘zini “savodsiz”, deb yozdirgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Tavalludim: 43, mezonning yigirma yettisi” deb yozgan Rauf Parfining tug‘ilgan yili va ismi aslida turli hujjatlarda turlicha yozilgan. Shu sababdan ko‘pchilik shoirdan necha yoshga qadam bosganini so‘rashgan, u kishi esa har gal: “Yigirma besh yoshda to‘xtab qolganman…” – deya javob bergan. Birgina ishonchli hujjat jamoa raisi Hamroqul Tursunqulovning kotibi Hamid Azimboyevning uyida saqlangan katta xo‘jalik daftari bo‘lib, unda “…Tursunali Parpiboy o‘g‘li Madaminov 1943-yil 27-sentabrda tug‘ilgan…” deb yozilgan. Garchi, otasi yolg‘iz o‘g‘liga Abdurauf deb ism qo‘ygan esa-da, qarindosh-urug‘lar, shu bola o‘lmasin, tursin deb, Allohdan so‘rab, irim qilishib Tursun Ali otini qo‘yganlar. Xuddi shu ma’noda boshida ikki kokil ham o‘stirib, birini O‘shpirga, birini Shohimardon pirga bag‘ishlaganlar.

1945-yili Parfi Muhammad Amin oilasining boshida alg‘ov-dalg‘ov mojarolar ko‘p bo‘lib o‘tadi. Bu mojarolarga ota-onasining kelib chiqishi boylardan bo‘lganligi asosiy sabab bo‘ladi. Parfining otasi – Muhammad Amin, uning otasi Muhammad Siddiq Norquchoq, uning otasi Muhammad Rasul Farg‘oniy, uning otasi Muhammad Rahim Farg‘oniy… Ota tomondan momosi Josiyat bibi, uning onasi Xosiyat bibi, uning onasi Maryam bibi. Katta bobosi Muhammad Rasul Farg‘oniy Dog‘istonga Imom Shomil qo‘shiniga yordamga borayotgan turkistonlik mujohidlar bilan chor bosqiniga qarshi jangga ketgan ekan. Dog‘istondan turkiycha so‘zlashadigan Maryam degan qizni olib kelib, to‘y qilib uylangan ekan…Ona tomondan bobosi Isabek, uning otasi Musabek. Uning otasi Tolibbek, uning otasi Olimbek… Ona tomondan momosi Qumriniso, uning onasi Chaman beka… Onasining katta momosi Huvaydo pirning nabirasi bo‘lgan.

Urushdan keyingi ilik qurigan yillarda “Birlashuv” jamoa xo‘jaligida otasi bog‘bon, onasi pillakor bo‘lib ishlaydilar. Otasi musallas qilib, o‘rislardan bug‘doyga, karislardan guruchga almashtirib, ocharchilikdan oilasini saqlab qoladi. 1947-yili ota-onasi bilan Vodil, Shohimardon, Jalolobodga boradi. Keyin O‘shga o‘tishadi. O‘shpirga bag‘ishlangan kokilini 1948-yili oldiradi. Birinchi sinfga boradi.

1950-yili ikkinchi sinfga o‘tadi. Darsliklardan tashqari badiiy kitoblarni chanqoqlik bilan o‘qiy boshlaydi. Ota-onasi bilan Shohimardonga boradi. Shohimardon pirga bag‘ishlangan ikkinchi kokilini oldiradi.

Rauf Parfi O‘zturk 1953-yildan e’tiboran birinchi ustozi (otasining do‘sti) shoir Abdurahmon Vodiliy tarbiyasida bo‘ladi. 5-mart kuni ilk she’rini yozadi. Bu haqda u shunday deydi:

She’riyat…
She’r deb atash mumkin bo‘lsa birinchisin yozgan kunim:
53. 5 mart.
Dars: Alisher Navoiydan to Abdulla Orif.
Aleksandr Pushkindan to Viktor Sosnora.
Keyin,
Men bilgan shoirlar.
Men bilgan achchiq-chuchuk besanoq saboq.
Qo‘limdan kelmaydigan ish:
she’r yozmaslik.

U yozgan ilk she’r Stalin vafotiga bag‘ishlangan “Endi qanday yashaymiz?!” degan marsiya edi. Ilk she’rini insoniyat tarixidagi eng zolim shaxsga bag‘ishlagan shoir keyinchalik zo‘rovonlikka qarshi kurashchi, inson huquqlari va erkining himoyachisi bo‘lib yetishdi. Yosh Abdurauf maktab kutubxonasida mavjud bo‘lgan o‘zbek xalq dostonlarining hammasini o‘qib chiqadi. Ammasi Xosiyatbibidan (ertakchi) xalq dostonlarini yozib ola boshlaydi.

1965-yildayoq hayot va abadiyat yo‘lidagi o‘z e’tiqodini bayon etib yozgandi: “Hayot – juda oddiy, go‘yo bir bosh uzumni yeb bitirmak kabi gap, umrning shoh tomirini shart kesmak kabi murakkab, bilasanki, so‘nggi soat bor, bilasanki, senda abadiyat kabi yashamakka qanoat bor, tiriklik mevasi – Men va Sen, aytmakchimanki, onamning qoshida bo‘lay doim, aytmakchimanki, gullar o‘ssin, aytmakchimanki, Turkistonim bir butun bo‘lsin, do‘stlarimdan maktublar olayin, jirkanaman aslini yo‘qotgan oltindan, olmosdan, sotilgan xotindan, pulga chayib olingan nafasdan…” [Ш.Қурбон. Рауф Парфи сабоқлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014. – Б. 90.]

Rauf Parfi qo‘liga qalam tutgan asnolardan e’tiboran she’r – uning uchun qismatga, bir umrlik taqdirga aylangan edi. Adabiyotshunos N.Rahimjonovning fikricha: “Aslida, O‘zbekning shoiri bo‘lish nihoyatda mas’uliyatli. Va lekin, nihoyatda sharafli. Boisi, o‘zbek chaqaloqlarining qulog‘iga aytilgan azon ham she’rdir. Hatto yaqinlarini, qarindosh-urug‘larini so‘nggi manzilga ham yig‘i-yo‘qlovlar, marsiyalar aytib kuzatadi”. Rauf Parfinining nazdidagi shoir “jafokash

shu xilqat aro qora qalamga hamnishin tutingan", "g'amgusor va motamsaro fikr sochayotgan" insondir, norizo odamdir. Ammo uning norizoligi avvalo o'ziga qaratilgan. Insonning "qafas ichra uyg'ongan navo", "toshloqlarda qon yutgan lola" singari ilojsizligi, "havosi so'rib olingan havo"dagi hayoti uni qiynaydi. Shoir 70-yillardayoq yozgani kabi: "Yuzma-yuz kelgandek go'yo o't va suv, Yuzma-yuz keladir shoir va zamon". Zero, "buyuk e'tiqoddir muborak ilhom" va shoirning yuragida qasos yashaydi, unda "sobit intiqom".

Yuksak ideallarga intilgan Rauf Parfining sevib ergashgan shoiri Blok she'rni tushuntirish imkonsizligini ta'kidlab "dotsentning dastidan dodlagan" satrlarni bitgandi.

U o'zbek she'riy madaniyatidagi sarbast she'r tuzilishini o'zbek xalqining nafaqat orzu armonlari, dard-u alamlari, shu bilan barobar yana tafakkur madaniyati, qalb zarblari, o'zbekona milliy ruhi bilan boyitdi, raufona oksimoron timsollar tizimini yaratdi. Hislar oqimi she'r musiqiyligini hosil etishi – yolg'iz Rauf Parfi ijodiy izlanishlari uchun xos bo'lgan betakror samaradir. Satrlardagi ichki qofiyalanish, alliteratsiya – ohangdosh so'zlar bilan boyitilish she'rning tafakkur to'lqinining ong-shuurlarda mixlanib qolishini ta'minladi. "Taxayyul mayiga termulaman jim" deya zorlangan shoirning taxayyullar asosiga qurilgan majoziy obrazlilik, bu – voqelikni, insonni, ruhoniy hayotni haqqoniy idrok etish yo'llaridan biri.

"…Narsalarga erkimizni bog'lab qo'yganmiz, moddiyatning qulimiz, – deb yozgan edi Rauf Parfi. – Bu "ayyor" aqlning xulosalari, oqil aqlniki emas. Ollohni tanigan banda moddiyatga bog'lanib qolmaydi, u o'zining qorovuli emas. U – O'zining egasi, o'zligini izlayotgan inson". "San'atning vazifasi insonga o'limni anglatishdir… Inson doimo o'lim bilan yonma-yon yuradi. Toshbaqa kosasini bir umr ortib yurganidek, o'z o'limini doimo ko'tarib yurishga mahkum. Menimcha, o'z o'limini ko'tarib yurgan odam Allohga, O'ziga, birovga xiyonat qilmaydi. Xiyonat yolg'onlardan tug'iladi" ("Suhbatdosh" gazetasi, 1999-yil, 2-son, fevral).

"San'atkorning miyasida olam fojeasi aylanadi. She'riyat Alloh odamni yer uchun yaratgani kabi qadimiydir. Yorug' dunyoga kelgan inson bor ekan, inson bo'lib tug'ilgan ekan – Inson haqlari, inson huquqi bordir. Inson Huquqi – She'riyat huquqi. Inson va Tabiat uyg'unligi abadiy, tabiat tartiboti o'zgarmas, ammo inson tabiati o'zgaruvchandir. Muvozanat buzilgan joyda jaholatning qora quyoshi yonib fikr olamini zulmatga chulg'aydi, qonga bulg'aydi. Muborak uyg'unlik yo'lida jafo chekkanlarning karvonboshilari shoirlardir, ehtimol. She'riyat cheksizlikdir, ammo she'riyatning osmoniga boqib cheksizlikning ham cheki bor, deb o'ylaysiz. She'riyat insonning ilkin nafasidir, poyonsiz nafasning moddiylikka aylanishidir, balki.

Shoir haqiqatni gapirmay turolmaydi. Endi shoirning haqgo‘yligini ulkan-ulkan yolg‘onlar orasida o‘ylab ko‘ring. Zamonning zayliga boq, kimning aravasiga chiqsang o‘shaning qo‘shig‘ini ayt, deydilar. Shoir yolg‘ondan, yuzaki, soxta qo‘shiq aytishdan qo‘rqadi. Aniqrog‘i, shoirning ichidagi iste’dod qo‘rqadi yolg‘ondan. Chunki yolg‘on iste’dodning kushandasi.

Yolg‘on yozgan shoirning ruhi o‘ladi. San’at, mahorat boy berilmaydi. San’at – o‘rganiladigan, mashq bilan hosil qilinadigan narsa. Lekin ruh o‘lgan bo‘ladi. Shoir sinadi. Buni singan shoirning o‘zi ham bilmasligi, to‘xtovsiz quloch-quloch she’rlar yozaverishi mumkin. Keyin biladi. O‘shanda kech bo‘ladi. Balki keyinchalik hushyor o‘quvchilar shoir she’rlarining ruhi o‘lik ekanligini payqaydilar”.

Rauf Parfi she’riyat haqida shunday deydi: “She’riyat cheksizlikdir, ammo she’riyatning osmoniga boqib cheksizlikning ham cheki bor, deb o‘ylaysiz”. [Ш.Қурбон. Рауф Парфи сабоқлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014. – Б. 18.] Ushbu fikrlar Parfi she’riyati bilan bog‘liq achchiq haqiqatlar natijasidir. Shoirning quyidagi satrlari ko‘ngil she’riyatining hammaga ham yoqavermasligi haqidagi ushbu achchiq haqiqatni o‘quvchiga tushuntirib qo‘yadi:

– Bir she’rimning, qarang, boshi yo‘q,
Kesilgan-ku, qarang, oyog‘i.
Muharrirga boqdim, ko‘zim lo‘q,
Axir, qandoq bo‘lar bu yog‘i?!
– Tilingni tiy, – dedi muharrir, –
Yaxshilikni bilmagan hamak!
– Kechiringiz... lekin ko‘p og‘ir
Yolg‘iz qorin bilan yashamak...

Xulosa qilib aytganda R.Parfi biografiyasini chetdan izlashga ehtiyoj yo‘q. Sababi uning har bir she’ri o‘zi, hayoti yoki ijodi, ijod va ko‘ngil olami, hayot va adabiyot haqidagi dunyoqarashidan so‘zlab turadi.

REFERENCES

1. АВАЗНАЗАРОВ, О. (2022). АЛИШЕР НАВОИЙ ДОСТОНЛАРИДАГИ ЙЎЛ, ЙЎЛОВЧИ, САФАР ВА МАНЗИЛ ТАЛҚИНЛАРИДА БАДИИЙ ТУШЛАРНИНГ РОЛИ. ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI, 2(3).
2. Avaznazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF THE IMAGE OF SAKI IN THE NAVOI’S LITERARY AND HISTORICAL MISSION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(3), 1-17.
3. Авазназаров, О. (2023). ALISHER NAVOIY–ULUG ‘YO ‘LBOSHCHI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб

муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/1), 76-82.
4. Авазназаров, О. Р. (2019). Соқий образи генезиси. Урганч: Ilm sarchashmalari, 11, 71-75.
5. АВАЗНАЗАРОВ, О. Р. (2019). IMAGE OF WINE IN LYRICS OF NAVOI. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 150-162.
6. AVAZNAZAROV, O. (2021). Yo'l obrazi tadqiqiga doir ba'zi mulohazalar.
7. AVAZNAZAROV, O. (2021). ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ АДАБИЁТИДА СОҚИЙ ТИМСОЛИНИНГ ЎРНИ.
8. AVAZNAZAROV, O. (2020). "Лайли ва Мажнун" достонида соқий образи.
9. AVAZNAZAROV, O. (2020). "Фавойиду-л-кибар"да соқий образидан фойдаланиш усуллари.
10. AVAZNAZAROV, O. (2020). "Saddi Iskandariy" dostonida soqiy obrazi.
11. Авазназаров, О. (2018). Абдулла Орипов ижодида най тимсоли.
12. Avaznazarov, O. (2019). " Lison ut-tayr" da tush motivi. *" Yoshlik" jurnali*.
13. AVAZNAZAROV, O. (2019). THE ROLE OF THE IMAGE OF SAKI IN THE POEM "HAYRAT UL-ABROR".
14. Нуриддинов, Ш. Б., & Авазназаров, О. Р. (2015). Эпизоды сна в поэме Алишера Навои «Семь планет». Молодой ученый, (12), 942-944.
15. Tog'aymurodovich, T. A. M., & Rahmatulloyevich, A. O. (2023). RAUF PARFI SHE'RIYATIDA RADD BADIIY SAN'ATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 217-221.
16. Tog'aymurodovich, T. A. M., & Rahmatulloyevich, A. O. (2023). ALISHER NAVOIY BOLA TARBIYASI XUSUSIDA. Journal of new century innovations, 23(1), 184-187.
17. Inoqova, N., & Avaznazarov, O. (2023). ONA TILI HAQIDAGI SHE'RLARDA TARIXIY XOTIRA TALQINI (ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATI MISOLIDA). Наука и технология в современном мире, 2(9), 58-62.
18. Axadova, H. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA ODOB KONSEPSIYASI. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(6), 15-18.
19. Shermamatova, S., & Shodmonov, G. (2023). AVAZ O'TAR IJODIDA MA'RIFATPARVARLIK. Talqin va tadqiqotlar, 1(21).
20. Shermamatova, S., & Shodmonov, G. I. (2023). MUQIMIY G'AZALINING DARSLIKLARDAGI TALQINLARI TAHLILI. *Наука и технология в современном мире*, *2*(11), 28-33.

21. Ziyayeva, A., & Shodmonov, G. (2023). “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA ONA TIMSOLI. *Наука и технология в современном мире*, *2*(14), 42-45.
22. Рауф Парфи. Туркистон руҳи: Сайланма. Тошкент: “Sharq”, 2013. – Б. 20.
23. Ш.Қурбон. Рауф Парфи сабоқлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014. – Б. 90.

ONA TILI DARSLARIDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Azamatova Odinaxon Obidovna
Andijon davlat pedagogika instituti
O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasi, uning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish, maktabda nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri ekanligi hamda lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish haqida so‘z boradi.

***Kalit so’zlar**: maktab, so’z, lug’at, lug’at tarkibi, leksikologiya, nutq, metodika.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье методика работы над лексикой в школе, изучение ее основных направлений, что является одной из важных задач развития речи в школе, а также совершенствование и организация работы над лексикой, выделение и обоснование ее основных направлений, ее речь идет об управлении процессом обогащения словарного запаса учащихся.

***Ключевые слова:** школа, слово, словарь, словарная структура, лексикология, речь, методика.*

ABSTRACT

In this article, the methodology of working on vocabulary at school, studying its main directions, that it is one of the important tasks of speech development at school, as well as improving and organizing work on vocabulary, separating and justifying its main directions, it is about managing the process of enriching students' vocabulary.

***Key words:** school, word, dictionary, vocabulary structure, lexicology, speech, methodology.*

KIRISH.

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin. (Sh.Mirziyoyev)

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo‘q mezonlaridan biri til – aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va

isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta’lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini ayni bir fikrni, narsa-hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo‘llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining o‘ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni “o‘zicha” aks ettirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g‘urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Leksikografiya (yunoncha leksikosdan – va so‘ziga ishora qiladi ...grafika) – tilshunoslikning kompilyatsiya qilish amaliyoti va nazariyasi bilan shug‘ullanadigan bo‘limi. Amaliy shakllarni ishlab chiqishda leksikografiya turli xalqlarda 3 ta o‘xshash davr ajratiladi:

1) so‘zgacha bo‘lgan davr. Asosiy vazifa – tushunarsiz so‘zlarni tushuntirish;

2) ilk so‘z boyligi davri. Asosiy vazifasi adabiy tilni o‘rganish bo‘lib, u ko‘plab xalqlar uchun so‘zlashuv nutqidan farq qiladi;

3) rivojlanish davri leksikografiya milliy adabiy tillarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Asosiy vazifa – tilning lug‘at tarkibini tavsiflash va normallashtirish, jamiyatning til madaniyatini oshirish. Zamonaviy leksikografiya ma’lum bir davr jamiyati haqidagi bilimlar to‘plamini qayd etadigan lug‘atlarning muhim ijtimoiy funksiyasini ta’kidlaydi. Leksikografiya lug‘atlarning tipologiyasini ishlab chiqadi. Monolingual leksikografiya (tushuntirish va boshqa lug‘atlar), ikki tilli leksikografiya (tarjima lug‘atlar) alohida ajralib turadi: ta'lim leksikografiyasi (til o‘rganish uchun lug‘atlar), ilmiy-texnikaviy leksikografiya (terminologik lug‘atlar). Terminologik lug‘atlar – bu bilim yoki faoliyatning bir yoki bir nechta maxsus sohalari terminologiyasini o‘z ichiga olgan lug‘atlar. Har qanday lug‘at lug‘at yozuvlaridan iborat. Lug‘at yozuvi lug‘atning asosiy tarkibiy birligidir; lug‘atdagi sarlavha birligini tushuntiruvchi va uning asosiy xususiyatlarini tavsiflovchi matn. Lug‘at yozuvining tuzilishi lug‘atning vazifalari bilan belgilanadi. Ammo har qanday lug‘atning lug‘at yozuvi bosh so‘z bilan boshlanadi [boshqatarzda: bosh so‘z, lemma, qoraso‘z (odatda bosh so‘zni belgilaydigan qalin turdan)]. Sarlavhali yozuvlar to‘plami lug‘atni yoki lug‘atning chap tomonini tashkil qiladi. Lug‘atning o‘ng tomoni sarlavha birligini tushuntirib beradi. Izohlovchi lug‘atning o‘ng qismi, qoida tariqasida, zonalarni o‘z ichiga oladi: so‘zning Grammatik xususiyatlari, talqini, ma'no turi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ko‘chma); rasmlar (iqtiboslar, so‘zlar); hosila uyasi; "zarhombo" deb ataladigan qism (frazeologizmlar) va boshqalar. Har bir lug‘at uchun o‘ng qismning zonalari ishlab chiqilgan. Barcha lug‘at yozuvlarining yig‘indisi lug‘at korpusini tashkil qiladi. Korpusga qo‘shimcha ravishda har qanday lug‘atda so‘z boshi, "Lug‘atdan qanday foydalanish kerak" bo‘limi mavjud (ba'zi sabablarga ko‘ra

uni hech kim o‘qimaydi); shartli qisqartmalar ro‘yxati va boshqalar. Lug‘at muammo sileksikografiyada markaziy masalalardan biridir, chunki so‘zlarni tanlash lug‘at turini ham, so‘zlarni tavsiflash xususiyatini ham belgilaydi. Masalan, me'yoriy izohli lug‘atda faqat adabiy tilning so‘zlari lug‘at tarkibiga kiradi, shuning uchun soxta lug‘at chiqarib tashlanadi: xalq tili, jargon, sheva so‘zlari. Orfoepik lug‘atning lug‘ati faqat qiyinchilik va talaffuz variantlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Lug‘atlar har xil turda bo’lishi mumkin. Avvalo, ularani ikki guruhga bo‘linadi: ensiklopedik va lingvistik. Ensiklopediya va ensiklopedik lug‘atlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular so‘zlar nemas, balki ma'lum so‘zlar bilan ifodalangan voqelikni (ob'ektlar va shaxslar, hodisalar va tushunchalar) tushuntiradi. Ensiklopediya so‘zi qadimgi yunonlardan kelib chiqqan bo‘lib, ular tomonidan "bilim doirasi", "bilimning butun doirasida o‘rganish" degan ma'noni anglatadi. Har qanday ta'lim darajasidagi har qanday o‘quvchi entsiklopediyadan qiziqqan mavzu bo‘yicha kerakli ma'lumotlarni topishi mumkin. Ensiklopediya o‘z-o‘zini tarbiyalashning muhim vositasidir. Bu ensiklopediyaning tuzilishini, materialni yoritishning mazmuni va tamoyillarini belgilaydi. Umumjahon ensiklopediyalar va ensiklopedik lug‘atlar bilan bir qatorda falsafa, tarix, texnologiya, matematika, fizika, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, konchilik, diplomatiya, pedagogika, adabiyot va boshqa ko‘plab sohalarga oid entsiklopediyalar va qomusiy lug‘atlar mavjud. Bular maxsus ensiklopediyalar va ensiklopedik lug‘atlardir. Ularning vazifasi tegishli bilim, san'at, ishlab chiqarish va hokazo sohasi tushunchalarini (hodisalar o‘zini) ma'lum bir doirada tushuntirish, bu tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarni alifbo tartibida joylashtirishdir. Lug‘atda tasvirlangan so‘zlar (lug‘atlar) soni lug‘at hajmi. Odatda lug‘at hajmi haqida ma'lumot lug‘atning sarlavha sahifasida yoki izohida beriladi. Lug‘atga kirish komponentlari to‘plami lug‘at turiga qarab belgilanadi. Misol uchun, komponentlarning eng to‘liq to‘plami tushuntirish lug‘atlarida, eng kami – imlo va shunga o‘xshash bir tomonlama lug‘atlarda keltirilgan. Ba'zi tushuntirish yoki o‘quv lug‘atlari shunchalik ko‘p tavsif parametrlarini qamrab oladiki, ularning har biri maxsus zonada (vizual, grafik jihatdan) ajralib turadi: grammatika zonasi, moslik zonasi, ma'no zonasi, rasmlar zonasi va boshqalar. Lug‘atlar tipologiyasi. Lug‘atlarning tipologiyasi ideal lug‘at (ya'ni lug‘at turi, namunasi sifatida) tushunchasiga asoslangan ilmiy tasnifidir. Biroq, u odatda amaliy asosda qurilgan, ya'ni, mavjud lug‘atlar bo‘yicha. Shuning uchun biz bu ma'noda lug‘atlarning ilmiy tipologiyasi haqida emas, balki faqat uni qurish tamoyillari haqida gapirishimiz mumkin. Shunday qilib, lug‘atlarni tasniflashning bir nechta yo‘nalishlari yoki parametrlari mavjud bo‘lib, biz ularni asos qilib olamiz: lingvistik, semiotik, rasmiy va ijtimoiy-pragmatik.

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘limdir.Leksikologiya lug‘at tarkibidagi so‘zlaming nutqda ma’no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borishi, ba’zi so‘zlarning eskirib, iste’moldan chiqib ketishi, ma’no ko‘chish hodisasi kabilarni o‘rganadi. Shu sababli leksikologiya lug‘at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, mazmunga mos so‘z va so‘z birikmalarining ma’lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug‘ati qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa,uning nutqi ham shunchalik boy bo‘ladi; o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug‘atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda interfaol usullar va lug‘atlardan foydalanish. Binar oppozitsiya usuli - Ikkilik qarama-qarshilik dunyoni oqilona aniqlashning universal vositasi bo‘lib, unda ikkita qarama-qarshi tushuncha bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqiladi, ulardan biri ma’lum bir sifatni tasdiqlaydi, ikkinchisi esa uni rad etadi. Bu sezgining turli shakllaridan farqli o‘laroq, diskursiv fikrlashning asosiy xususiyati hisoblanadi. Antonimlar so‘zlar asosida:

1. leksikantonimlar— baland - past, uzun - qisqa;
2. Affik- antonimlar — suvli - suvsiz;
3. Sintaktikantonimlar — yuz - bashara.

Taqqoslash (qiyoslash) metodi -Ilmiy bilishning keng tarqalgan metodi bo‘lib, u hamma narsa qiyoslanganda bilinadi degan tamoyilga asoslanadi. Sinonim so‘zlar asosida: Boshqatdan, qayta, qaytadan, yangidan, yana, takror.

Chog‘ishtirish metodi-Filologik hodisalarni tizimli qiyoslashga asoslangan metod bo‘lib, asosan farqli xususiyatlarni ochib berishga qaratilgan metod omonim so‘zlar asosida: Til -tillar Til -o‘g‘iz organi.

Lug‘at bilan ishlash . Lug‘at ilmi -Leksikografiya tilshunoslikning lug‘atlarni o‘rganish va tuzish muammolari bilan shug‘ullanadigan bo‘limlaridan biridir. Aynan u tasniflash bilan shug‘ullanadi, maqolalar dizayni va ularning mazmuniga talablarni qo‘yadi. Lingvistik lug‘atlar eng keng tarqalgan ommaviyl ingvistik lug'atlardan iborat. Til bo‘yicha bular rus, ingliz, nemis, ispan va hokazo lug‘atlardir. Ularning orasidagi o‘rinni tarjima lug‘atlari egallaydi. Ensiklopedik lug‘atlar –Ensiklopedik lug'atlarning o‘ziga xos xususiyati ularning axborot mazmunidir. Ular atrofdagi dunyoning hodisalari va ob'ektlari haqida kerakli ma'lumotlarni olib yuradilar.

Entsiklopedik lug'atlar universal va tarmoqqa bo‘linadi. Universal turli sohalardagi ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. Imlo.uz — bu o‘zbek tilining imlo lug‘atidir. Sayt o‘zbek tilidagi so‘zlardan tarkib topgan. Saytimizda hozirgi zamon yoshlari hayotiga daxldor ommabop so‘zlar, ko‘p marotaba va qayta-qayta xato bilan yoziladigan so‘zlar jamlashtirilgan. Mana shu so‘zlar asosida yaratilgan imlo lug‘ati sayti, 87 000 dan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, so‘z ma’nosini tushuntirish ustida islash o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi. Ko‘chma ma’noda ishatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq birliklari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma’noda ishatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi. Lug‘atlar va ma’lumotnomalar hayotimizning doimiy hamrohi bo‘lib, bilimimizni kengaytirish, til madaniyatimizni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik- Toshkent. Fan, 2007. – B. 255.
2. O’zbek tilining izohli lug’ati. I Magrufova Z.M. Tahriri ostida-M: Русский язык, 1981. 228-б
3. O’zbek tilining izohli lug’ati. 1 jild Madvaliyev A. Tahriri ostida-T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.. 624-б.
4. Rasulov R. (2020). Kelajak – til sohiblariniki. Til va adabiyot ta’limi, 7(7), 63-64.
5. Ботирова Ш.И. (2020). Об обучении студентов филологии основам анализа и литературным терминам. Преподаваниеязыкаилитературы, 7(7), 82-83.
6. Botirova, S. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. Asian Journal of Multidimensional Research, 9(4), 16-20.
7. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., &Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.
8. BotirovaSh.I. (2020). For Students of Philology Teaching Literary Conditions of Learning Basic Analysis. Science and Education, 1(5), 110-113.

O‘ZBEKISTONDA QAYTA QURISH DAVRIDA (1980-1990 YILLAR) BADIIY JARAYONNING O‘ZBEK RASSOMLARI IJODIGA TA’SIRI

Ismailova Nodira Ergashevna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy Rassomlik va dizayn institute o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekistonda qayta qurish davri (1980-1990 yillar)da badiiy jarayonning o‘zbek rassomlari ijodiga ta’siri o‘rganilib chiqildi. Shuningdek, 1980-1990 yillar)da badiiy jarayonning o‘ziga xosligi tasviriy san’atga ta’siri ijodkorlar ijodida munosib o‘rniga egaligi borasidagi xulosaviy fikrlar tizimli tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *san’at, tasviriy san’at, rangtasvir, janr, manzara, maishiy, badiiy, rassom, ijodkor, tahlil, jarayon.*

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется влияние художественного процесса на творчество узбекских художников в период перестройки (1980-1990-е годы)в Узбекистане. В статье рассмотрено влияние художественного процесса на творчество узбекских художников в период перестройки в Узбекистане (1980-1990 гг.), а также проведен систематический анализ влияния художественного процесса на изобразительное искусство в период перестройки в Узбекистане.

Ключевые слова: *искусство, изобразительное искусство, изобразительное искусство, жанр, пейзаж, бытовой, художественный, художник, создатель, анализ,*

ABSTRACT

The article examined the influence of the artistic process on the work of Uzbek artists during the Reconstruction period in Uzbekistan (1980-1990). The article examined the influence of the artistic process on the work of Uzbek artists during the Reconstruction period in Uzbekistan (1980-1990).Also, 1980-1990) a systematic analysis of the inference that the influence of the specificity of the artistic process on the Fine Arts has its inherent role in the creativity of artists.

Key words: *art, Fine Arts, image color, genre, landscape, drunkenness, artistic, artist, creative, analysis, process*

KIRISH

O‘zbekistonda Qayta qurish davri rangtasviri XX asrning 1980-yillar oxiri va 1990-yillar boshida ro‘y bergan “sotsializm”ning yemirilishi eng ulkan voqea sifatida tarixdan joy oldi. “Qayta qurish”, jadallashtirish shiori ostida boshlangan jarayonlar milliy o‘zlikni anglashning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. 1980-1990 yillar O‘zbek

xalqining milliy o‘zligini anglashi, milliy ongining o‘sishida juda muhim ahamiyatga ega. Qayta qurish siyosati jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida jiddiy sifat o‘zgarishlarini amalga oshirmagan, jamiyatning yangi mazmun jihatdan yangilanishini ta’minlamagan bo‘lsada, biroq uning natijasida o‘ziga xos milliy uyg‘onish yuz berdi. Qayta qurish O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalarga jon kiritdi, jamiyat uyg‘ondi, milliy o‘zlik ustiga tashlangan pardalar olib tashlandi. 1980-yillarning ikkinchi yarmida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, xalq milliy ongining keskin ravishda o‘sishi jamiyat a’zolarining ijtimoiy faolligini oshirib yubordi[152].

Jahon madaniyati taraqiyoti tarixidan shu narsa ma’lumki, san’at milliy chegaralarni tan olmaydi, uning yutuqlari pirovarida butun insoniyat mulkiga aylanib qoladi. Tasviriy san’at, Fransisko Goyyaning mashhur ta’rificha,-bu irqu millatlaridan qatiy nazar barchaga tushunarli bo‘lgan, insoniyatning “umumiy tilidir”. San’atdagi taraqqiyot milliy mahdudlik va alohidalikni emas, balki, aksincha, kishilar, halqlar va davlatlar o‘rtasidagi ma’naviy qadriyatlar bilan doimiy almashuvini taqazo etadi. San’at asarlari yoki ular haqidagi ahboratni chetga chiqarish va tarqatishni man etish mustabid tuzum va qatiy mafkuraviy senzuraga ega mamlakatlar uchun xos edi. Albatta madaniyat va san’at-muayyan xalqning yutug‘i, zero ular ushbu xalqning milliy xarakteri, unga xos bo‘lgan qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Lekin, hatto bunday tushunchalar ham rivojlanish jarayonida til rivojida bo‘lgani kabi muntazam ravishda nimanidir ortirib, qaysidir jihatidan ajraydi, biroq abadiy qotib qolmaydi, balki kundalik vaqt oqimida uzluksiz o‘zgarib boradi.[153]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur davrning eng muhim ijtimoiy jarayonlari - oshkoralik va demokratik jarayonlar mustabid tuzum davrida, yillar davomida to‘planib shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohadagi muammolarni yuzaga chiqardi. Qayta qurish mazkur davr san’atida badiiy obrazning hayot haqiqatiga mos kelishi va jamiyat ruhiga, ongiga, tasavvuriga chuqur kirib borishni taqozo etdi. 1980 yillar rangtasviri davr talabi, g‘oyaviy yo‘nalishi va ijodkorning shaxsiy qarashi va professional mahorati asosida ishlanib, o‘ziga xos qaytarilmas joziba kasb eta bordi. O‘zbekistonda Qayta qurish davri rangtasviri XX asrning 1980 yillar oxiri va 1990 yillar boshida ro‘y bergan “sotsializm”ning emirilishi eng ulkan voqea sifatida tarixdan joy oldi. “Qayta qurish”, jadallashtirish shiori ostida boshlangan jarayonlar milliy o‘zlikni anglashning yuzaga kelishiga turtki bo‘ldi. 1980-1990 yillar O‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi, milliy ongining o‘sishida juda muhim ahamiyatga

[152] M.Jo‘raev“O‘zbekistonning yangi tarixi” 2-kitob. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent- 2000
[153] Рафаил Тоқтош “Санъатнинг макони хусусида”, //SAN’AT 1-3/1998.

ega. O‘tgan asrning 1980-90 yilarning oxirida O‘zbekiston san’atida uslublashgan va obrazli talqinlarda o‘zgarishi rassomlar ijodida G‘arb va Sharqning o‘zaro aloqasi ifodalana boshladi.

O‘zbekistonda Qayta qurish davri rangtasviri (1980-1990 yiilar) mustaqillikka erishgunga qadar boshidan kechirgan voqealar har bir soha uchun unutilmas tarix bo‘lib qoldi. Jumladan, 1980-yillar o‘rtalaridan boshlangan “qayta qurish” davri madaniyat sohasini ham qamrab oldi. Mamlakat siyosiy rahbariyatining madaniyat sohasini “qayta qurish” aslida ma’naviy jabhada ma’muriy-buyruqvozlik tizimi, rivojlanishining ekstensiv yo‘li yaroqsiz bo‘lib qolganidan darak edi. Ushbu yillarda qo‘lga kiritilgan yutuq va kamchiliklari ham san’atshunoslar nuqtai nazaridan chetda qolgani yo‘q. Bu mulohazalarning barchasi bugungi badiiy hayotda o‘z yechimini kutayotgan jihatlaridan biridir. Shunga ko‘ra, mavjud kartinalardagi badiiylik masalalari, uslubiy yo‘nalishlari, hamda ijodiy jarayonini tadqiq etish, o‘ziga xos ijodiy an’analarni rangtasvir asarlari talqinida o‘rganish dolzarb masaladir. 1980-yillarning o‘rtalariga kelib, o‘zbek rassomlarining asarlarida fundamental o‘zgarishlarga olib keldi. Bir rassomning shaxsiy uslubi o‘zgarishi ko‘pincha sub’ektiv sabablarga ko‘ra sodir bo‘ldi. Uslubni o‘zgartirishga ta’sir etuvchi san’at asari bu rassomga ijodiy safarlar bilan to‘qnashuvlarga duch kelishi mumkinligini anglatdi. Biroq, san’atda tektonik o‘zgarish faqat bir rassomga emas, balki butun avlodga yoki ustalarning muhim guruhiga ta’sir qildi, faqat ma’lum tarihiy o‘zgarish emas balki inqilobiy zarba ham ta’sir etdi. Sovet hududida qayta qurish, so‘ngra erkinlikning tarqalishi yoki oldindan belgilanishi va nihoyat, mustaqillikka erishish O‘zbekistonning rasmiyatchiligida muhim semantik o‘zgarishlar va uslubiy metamorfozalar uchun muhim omil bo‘ldi. 1980-yillarning oxirida, qayta qurish siyosati natijasida, Sovet san’atida ijtimoiy tanqidning yangi tendensiyasi paydo bo‘ldi. Bu hodisaning markazida. Ijtimoiy masalalar doirasida qolib, o‘zbek rassomchiligi o‘zlarining taxminiy vektorini – ijobiydan keskin salbiy o‘zgarishiga olib keldi. Garchi, bu hodisaning mavjudligi qisqa muddatda chuqur mafkuraviy birdamlikni emas balki refleksion uslubni keltirib chiqardi.

XX asrning 1980-1990 yillarida O‘zbekiston rangtasviri o‘ziga xos shakllanish yo‘lini bosib o‘tdi. 1970-yillar san’atida deyarli barcha respublika ijodkorlari asarlarida shaxsiy konsepsiya va turli madaniyatlar sintezining ifodasi mavjud. Rangtasvirda 1970-yillar rassomlari qatoriga B.Jalolov, J.Umarbekov, E.Tulepbaev, K.Orasnepesov kabi rassomlarni kiritishimiz mumkin. Katta regional mashtabda bu davr G‘arb va Sharq madaniyati sintezini o‘zida mujassamlashtirgan. 1960-yillar badiiy mohiyati “milliy maktab – xalq an’analari” sifatida aniqlansa, 1970-yillar badiiy mohiyati esa “rassom, G‘arb va Sharq estetik sistemalari” sifatida namoyon

bo‘ladi.[154] P.Pikasso, S.Dali, G.Erni kabi g‘arb syurrealist rassomlari ijodi B.Jalolov, M.To‘xtayev, A.Ikromjonov, E.Tulepbayev, K.Mullashyev, D.Aliyev kabi rassomlar ijodiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Umuman olganda ushbu davr rassomlari ijodida etnomadaniyatga qiziqish bilan bir qatorda rus san’atiga xos bo‘lgan sotsial echimdagi statiklik va evropa san’tiga hos talqin o‘zaro uyg‘unlashadi. B.Jalolovning “Musiqaning tug‘ilishi” nomli asaridagi ona va bola tasvirlangan fragment kompozitsion echimi jihatdan Leonardo da Vinchining «Madonna Benua» asarini eslatsa, “Yevropaning o‘g‘irlanishi” nomli asar undan keskin farq qilib, o‘zida kubistik echimni ifoda etgan. “Niqoblar bilan raqs” nomli asar portretlarida esa sharq miniatyurasiga xos bo‘lgan ayol obrazlarini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘rib turganimizdek rassom ijodida yuqorida aytib o‘tilgan formatsiyalashgan sintez mavjud. XIX-XX asrda Yevropa va rus rassomlari orasida o‘z ijodini Sharq an’analari bilan bog‘lagan ijodkorlar faoliyati o‘z o‘rnida o‘zbek rassomlarining ijodiga ta’sir ko‘rsatgan. Bunda Sharq badiiy g‘oyalari g‘arb rangtasviri kesimida namoyon bo‘ladi. P.Kuznetsov ana shunday rassomlar qatoriga kiritish mumkin. Mazkur rassomning ijodi J.Umarbekov va V.Axunov asarlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Yurtimizning mustaqillikka erishishi nafaqat sotsial hayotga balki san’atning ifoda shakliga, uning asosiy g‘oyalarining shakllanishiga ham sezilarli ta’sir o‘tkazdi. Etnomadaniyat, milliy qadriyatlarni anglash va ularni targ‘ib qilish, o‘z o‘rnida san’atda xususan, rangtasvirda namoyon bo‘ldi. Rassomlar ijodida erkinlik ta’minlandi. O‘sha davrlarda A.N.Ostrovskiy nomli Toshkent teatr va rassomlik institutidagi 1970-yillar oxiri 1980-yillar boshlaridagi va 1990-yillar o‘rtalaridagi muhit bir biridan farq qilgan. Asosiy ideal deb olingan Ilya Efimovich Repin, Vasiliy Ivanovich Surikov va qator rus rassomlari ijodi na’munalariga bo‘lgan e’tibor katta edi. Albatta institut talabalaridan ham shunday ta’lqin talab etilgan.

Yangi oqimlar kirib kelishi bilan badiiy g‘oya va tendensiyaning ikki bosqichi shakllandi. Birinchi bosqichda aktual muammolarni yorituvchi, an’anaviy ta’lqin va patriotik ruhdagi yondashuv bo‘lsa, ikkinchi bosqichda esa etnomadaniyat tarixini ifodalashning falsafiy-estetik ruhdagi novatorlik yondashuvidir. Birinchi bosqichning yuzaga kelishi O‘zbekiston rangtasvirida tarixiy janr rivojini yangi bosqichga ko‘tardi. Yurt qahramonlari, shoir va olimlarini ifoda etuvchi asarlar yaratila boshlandi. Ikkinchi bosqichda ijod qilgan rassomlar esa etnomadaniyat masalasiga shaxsiy falsafiy prizma orqali nazar solishdi. Ushbu yillar J.Umarbekov, L.Ibragimov, A.Mirzayev, E.Tulepboyev, O.Bayterekov, A.Bekov kabi rassomlar ijodining yuqori pog‘onadagi davri edi. Ularning ijodlarida miniatyura poetikasiga, xalq sanatiga,

[154] Н. Ahмедова. Живопис sентральной Азии XX века: традисии, самобытность, диалог.Ташкент 2004. 101-102 стр.

qadimgi monumental freskalarga bo‘lgan e’tibor sezilib turadi. XX asr tasviriy san’atini o‘rganar ekanmiz, uni nafaqat O‘zbekiston doirasida balki g‘arbiy mamlakatlarda qanday kechganiga ahamiyat berish lozim. Ushbu davr tasviriy san’ati postmodernizm oqimi kirib kelishi bilan farqlidir. Shuni aytib o‘tishimiz kerakki, postmodernizm har bir regionda, millat, mamlakat san’atida o‘ziga hos ko‘rinish kasb etadi. Ammo g‘oya va mazmun bir manzilga ega. Ushbu davr badiiy ruhini his qilish, postmodernning o‘ziga hos xarakterli jihatlarini anglashni talab etadi.

XULOSA

Ta’kidlash joyizki 1980-1990 yillarda O‘zbekiston rangtasvirining badiiy jarayoni o‘rganildi va qayta qurish davri (1980-1990 yillar)da badiiy jarayoning o‘zbek rassomlari ijodida asarlarida ko‘zga tashlandi.

1980-1990 yillar mavzuni yoritish jarayonida O‘zbekistonning sovet tuzumi davrida madaniyat va san’at sohalari rivoji “turg‘unlik” holatida bo‘lganda ham badiiy jarayonda qisman siljish mavjud bo‘lgan. Aksariat holda, ijodkorla mustaqil fikr yurita olmasalarda, ulardagi badiiy maxorat va san’atga bo‘lgan ishtiyoq “qayta qurish” davrida sezilarli aks etdi. 1980-yillarning ikkinchi yarmi qayta qurish davri, o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi, milliy tafakkurning o‘sishi, qadriyat va an’ana asoslariga qaytish davri sifatida izohlanadi. Qayta qurish O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalarga jon kiritdi, jamiyat uyg‘ondi, milliy o‘zlik ustiga tashlangan pardalar olib tashlandi. Diniy, millatchilik yorliqlari yopishtirilgan va o‘rganishi taqiqlangan milliy xarakterdagi ijtimoiy siyosiy, falsafiy voqea, hodisalar, allomalar faoliyatini tadqiq etishga biroz erkinlik berildi. “Qayta qurish”ning eng birinchi natijasi hisoblangan “oshkoralik”, sovet jamiyatining ahvolini tahlil qilish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yo‘l qo‘yilgan hatolarga birinchi bor ochiq-oydin baho berishga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga o‘zining bir qator salbiy tomonlari bilan ham namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston rassomlarning tarixiy merosni talqin etish konsepsiyasi 1980-yillarning ikkinchi yarmida - Sovet tarixini ijtimoiy tanqid qilish va milliy madaniy merosni badiiylashtirish bo‘lgan.

1980-yillar o‘rtasida kechgan qayta qurish jarayoni, 1991-yilda esa mustaqillikning qo‘lga kiritilishi O‘zbekiston rangtasvirida yangi tendensiyalar paydo bo‘lishida asosiy omil bo‘ldi.

1980-yillarning oxirida sovet san’atida qayta qurish siyosatining natijasi sifatida sotsialistik san’at utopiyalariga teskari bo‘lgan yangicha ijtimoiy talqin tamoyili vujudga keldi.

Rassomlarning ijodida O‘zbekistonda sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilgan davr hamda 1980-yillardagi stalincha qatag‘on voqealarini tanqid qiluvchi g‘ayriodatiy noxush kolorit va fojeali ohang yuzaga kelgan.

REFERENCES

1. Jo‘rayev M. “O‘zbekistonning yangi tarixi” 2-kitob. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent- 2000
2. Маньковская Н. Б. Эстетика постмодернизма. - СПб.: Алетейя, 2000.
3. Хакимов А. Новая живопи Узбекистана. Ташкент, 2015 й.
4. Ахмедова Н. Живопис sентральной Азии XX века: Традици, самобытность, диалог.Ташкент 2004.

ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Тураева Санобар Халимовна,
Старший преподаватель кафедры «Социальные науки»
Каршинского инженерно-экономического института

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается вопросы социализации личности как процесс формирования личности в определенных социальных условиях, также социальные отклонения существующие в каждом обществе, которое не соответствует общепринятым нормам, в результате чего эти нормы ими нарушаются.

Ключевые слова: *личность, социализация, социальное отклонение, субкультура, девианты.*

ABSTRACT

The article examines the issues of personality socialization as a process of personality formation in certain social conditions, as well social deviations that exist in every society, which dots not correspond to generally accepted norms are violated by them.

Keywords: *personality, socialization, social deviation, subculture, deviants.*

ВВЕДЕНИЕ

Проблема личности - одна из актуальнейших тем современных наук, однако еще до сих пор недостаточно исследованных.

Социализация личности представляет собой процесс формирования личности в определенных социальных условиях, процесс усвоения человеком социального опыта, в ходе которого человек преобразует социальный опыт в собственные ценности и ориентации, избирательно вводит в свою систему поведения те нормы и шаблоны поведения, которые приняты в обществе или группе. Нормы поведения, нормы морали, убеждения человека определяются теми нормами, которые приняты в данном обществе. Термин `социализация` соответствует концепции, согласно которой человек (ребенок) изначально асоциален или его социальность сводится к потребности в общении. В этом случае социальность - процесс превращения изначально асоциального субъекта в социальную личность, владеющую принятыми в обществе моделями поведения, воспринявшую социальные нормы и роли. Считается, что такой взгляд на развитие социальности характерен, прежде всего, для психоанализа.

Понимание процесса усвоения социальных норм, умений стереотипов, формирования социальных установок и убеждений, обучения принятым в

обществе нормам поведения и общения, вариантам жизненного стиля, вхождения в группы и взаимодействия с их членами как социализация имеет смысл, если изначально индивид понимается как несоциальное существо, и его несоциальность должна в процессе воспитания в обществе не без сопротивления преодолеваться. В иных случаях термин `социализация` применительно к социальному развитию личности избыточен. Понятие `социализация` не подменяет и не заменяет собой известных в педагогике и в педагогической психологии понятий обучения и воспитания.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Процесс социализации никогда не кончается. Наиболее интенсивно социализация осуществляется в детстве и юности, но развитие личности продолжается и в среднем и пожилом возрасте. Орвиль Г. Брим (1966) утверждал, что существуют следующие различия между социализацией детей и взрослых.

1.Социализация взрослых выражается главным образом в изменении их внешнего поведения, в то время как детская социализация корректирует базовые ценностные ориентации.

2.Взрослые могут оценивать нормы; дети способны только усваивать их.

3.Социализация взрослых часто предполагает понимание того, что между черным и белым существует множество `оттенков серого цвета`.

4.Социализация взрослых направлена на то, чтобы помочь человеку овладеть определенными навыками; социализация детей формирует главным образом мотивацию их поведения.

К величайшему сожалению, не существует такого счастливого общества, в котором все его члены вели бы себя в соответствии с общими нормативными требованиями. Термин "социальное отклонение" обозначает поведение индивида или группы, которое не соответствует общепринятым нормам, в результате чего эти нормы ими нарушаются. Социальные отклонения могут принимать самые разные формы. Преступники из молодежной среды, отшельники, аскеты, закоренелые грешники, святые, гении, художники-новаторы, убийцы - все это люди, отклоняющиеся от общепринятых норм, или, как их еще называют, девианты.

В простых обществах с небольшим числом членов и несложной структурой норм отклоняющееся поведение легко определяется и контролируется. В обществах со сложной структурой часто противоречивых социальных норм проблема отклонений от общепринятого поведения вырастает до весьма значительных размеров.

Один индивид может иметь отклонения в социальном поведении, другой в личностной организации, третий и в социальной сфере и в личностной организации. Социологов интересуют прежде всего культурные отклонения, т.е. отклонения данной социальной общности от норм культуры. Психологов же интересуют психические отклонения от норм в личностной организации: психозы, неврозы, параноидальные состояния и т.п. Если два этих типа отклонений совмещаются, то отклонение от культурных норм совершается личностью психически ненормальной.

Итак, можно различать два идеальных типа отклонений:

1.индивидуальные отклонения, когда отдельный индивид отвергает нормы своей субкультуры;

2.групповое отклонение, рассматриваемое как конформное поведение члена девиантной группы по отношению к ее субкультуре.

Социальные отклонения играют в обществе двойственную, противоречивую роль. Они, с одной стороны, представляют угрозу стабильности общества, с другой - поддерживают эту стабильность. Успешное функционирование социальных структур можно считать эффективным только если обеспечен порядок и предсказуемое поведение членов общества. Каждый член общества должен знать (в разумных пределах конечно), какого поведения он может ожидать от окружающих его людей, какого поведения другие члены общества ожидают от него самого, к каким социальным нормам должны быть социализированы дети.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Одним из важнейших факторов обучения моральным ценностям и поведенческим нормам служит семья. Когда ребенок социализируется в условиях счастливой, крепкой и здоровой семьи, он обычно развивается как уверенная в себе и в окружении, хорошо воспитанная личность, воспринимающая нормы окружающей культуры как справедливые и само собой разумеющиеся. Ребенок ориентирован определенным образом на свое будущее. Если семейная жизнь в чем-то неудовлетворительна, то дети часто развиваются с пробелами в воспитании, в усвоении норм и с отклоняющимся поведением.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Орвиль Г. Брим. Различия между социализацией детей и взрослых. Ресоциализация.Статья. 3.10.2014г
2. Реан А. А., Психология личности. — СПб.: Питер, 2013. — 288 с.

3. Исаев Б. А. Социология в схемах и комментариях : учеб, пособие для СПО — 2-е изд., испр... М.: Издательство Юрайт, 2019. — 124 с..
4. Иванова Д. В. Социология: теория, история, методология.2019 г.
5. Turaeva, S. K. (2023). INTERNATIONAL SOLIDARITY IS AN IMPORTANT FACTOR IN THE PEACE AND WELL-BEING OF OUR PEOPLE. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, *2*(4), 66-70.

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
(E)ISSN:2181-1784
www.oriens.uz
3(4/2), April, 2023

ИЛК ИСЛОМ ДАВРИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Рахматуллаев Умид Ибрагимович
ЎзХИА, мустақил тадқиқотчиси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада илк ислом даврида олиб борилган дипломатик муносабатлар хусусида баъзи мулоҳазалар келтирилган. Ислом тинчлик дини дея таъкидланиб, "Ислом" сўзининг ўзи тинчлик маъносини билдирар экан, ушбу диннинг инсон қадри ҳақидаги мезон ва меъёрлари билан танишиш жуда ўринлидир. Чунки бу нарсаларни билмай туриб тинчлик моҳиятини англаб бўлмайди.

Калит сўзлар: *ислом, дипломатик муносабат, Инсон нафси, Қуръони карим.*

ABSTRACT

This article contains some comments about the diplomatic relations conducted in the early Islamic period. As Islam is said to be a religion of peace, and the word "Islam" itself means peace, it is very appropriate to get acquainted with the criteria and norms of this religion about human value. Because without knowing these things, the essence of peace cannot be understood.

Key words: *Islam, diplomatic relations, Human soul.*

КИРИШ

Инсон нафси (яъни, жони) умумий кўринишда мукаррам ва азиздир. Бу иш – мутлақ, унда ирқ, жинс ёки дин сабабли истисно йўқ. Бу ҳақида Қуръони каримда шундай дейилган:

"Дарҳақиқат, (Биз) Одам фарзандларини (азиз ва) мукаррам қилдик ва уларни қуруқлик ва денгизга (от-улов ва кемаларга) миндириб қўйдик ҳамда уларга пок нарсалардан ризқ бердик ва уларни Ўзимиз яратган кўп жонзотлардан афзал қилиб қўйдик" (Исро сураси, 70-оят)[155].

Ушбу азизлик умумий ва шомил бўлиб, мусулмонлар ва мусулмон бўлмаганлар ҳам унинг соясида бўлади. Чунки ҳамма қуруқлик ва денгиздаги уловларга минади, ҳамма пок нарсаларни ейди ва ҳамма Аллоҳ азза ва жалланинг Ўзи яратган кўп жонзотларидан афзалдир.

Аввало, Ислом (дини) манҳажи мусулмон бўлмаганлар масаласини қандай ҳал қилгани ва улар билан қандай муомала қилишини англаб етиш учун

[155] Мансуров А. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: ТИУ, 2014. – Б. 289.

Ислом назариясининг инсон нафсига умумий кўринишда қандай муносабатда эканини билиб олишимиз муҳим. Ушбу азизлик башариятнинг барчасида акс этади, ушбу мукаррамлик Ислом шариатининг барча бандларида ҳар бир инсон учун амал қилади. Бундан ташқари, ушбу шомил қараш Пайғамбаримиз (с.а.в.)нинг ҳар бир сўз ёки амалларида ўз аксини топган. Пайғамбар (с.а.в.) мукаррам башарият билан (гўзал) муомала қилганлар. Уни хорлаш, унга зулм қилиш, ҳуқуқларини поймол қилиш ва шаънини тушириш мумкин эмас. Бу Қуръони карим оятларида, шунингдек, Пайғамбар (с.а.в.) ҳаётларида очиқ-ойдин намоёндир.

“Аллоҳ тақиқлаган жонни ноҳақ қатл қилмангиз!” (Анъом сураси, 151-оят)[156].

Бу ердаги буйруқ – умумий, у мусулмонларни ҳам, улардан бошқаларни ҳам қамраб олади. Адолат қилиш ҳам шариатга кўра мутлақ, у бўлинмайди. Яъни, фақат мусулмонлар, яқин қариндошлар ёки бошқаларга адолат қилиб, ўзгаларга адолатсизлик қилиш жоиз эмас.

Шариат зулмнинг барча кўринишини инкор этади. Бу ишдан қайтариш ҳақида оят ва ҳадислар жуда кўп. Зулм Қиёматга қадар рад қилинган, балки, Аллоҳ таоло Қиёмат кунидаги ҳисоб-китоб ҳақида шундай деган:

“Биз қиёмат куни учун адолатли тарозилар қўюрмиз, бас, бирор жонга заррача зулм қилинмас. Агар хантал (ўсимлиги) уруғидек (яхши ёки ёмон амали) бўлса ҳам, ўшани келтирурмиз! Биз ўзимиз етарли ҳисоб-китоб қилувчидирмиз” (Анбиё сураси, 47-оят)[157].

Бу ердаги ҳолат ҳам умумий. Қиёмат куни ҳеч бир жонга асло зулм қилинмайди. Ушбу жон Аллоҳга иймон келтирганми, куфр куфр келтирганми, мусулмонми, насронийми, яҳудийми ёки бошқа эътиқоддагилар бўлса ҳам, барибир. Мана шу – ҳар бир инсонга Исломнинг ҳақиқий қараши ва у қадрлаш, эҳтиром ва ҳурмат қарашидир.

Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг олдиларидан бир яҳудийнинг жанозаси олиб ўтилгандаги ҳолатнинг ўзи ўзга дин вакилларини эъзозлаш учун етарли далил саналади.

Қайс ибн Саъд ва Саҳл ибн Ҳунайф розийаллоҳу анҳумодан ривоят қилинади. У иккиси Қодисияда эди. Олдиларидан бир жаноза олиб ўтилди ва иккиси дарҳол ўринларидан туришди. Иккисига: “Албатта, у (шу) ерлик[158]”, дейилди. Шунда икковлари айтишди: “Албатта, Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг олдиларидан бир жаноза олиб ўтилди ва у зот ўринларидан

[156] Мансуров А. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: ТИУ, 2014. – Б. 149.
[157] Мансуров А. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т.: ТИУ, 2014. – Б. 326.
[158] Мажусий.

турдилар. Шунда: “У яҳудий(-ку!)” дейилди. У зот: ***“У жон*** (инсон) ***эмасми?”*** дедилар” (Имом Муслим ривояти).

Исломнинг башариятга, тирик жонга бўлган қараши – мана шу![159]

Пайғамбар (с.а.в.) мушриклар ва бошқалар билан сулҳларию урушларида ҳам бағрикенглик принципини татбиқ этдилар. Сулҳлардаги бағрикенгликка Ҳудайбия сулҳини мисол келтириш мумкин. Ушбу сулҳ мушриклар билан мусулмонлар ўртасида тузилган бўлиб, мусулмонларни ҳаж қилишдан ман этганлар. Ҳудайбия сулҳининг аксар бандлари мушриклар фойдасига эди[160].

Тарихчи Тавфиқ Тавил айтади: “Людовик XIV даврида протестантларга қарши жуда қатта қатлиом уюштирилган ва жуда кўпчилик ўлимга маҳкум этилган. Қатл этилишдан нажот топганларга подшоҳ протестантликдан католикликка ўтишни ёки Франциядан бош олиб кетиш ихтиёрини берган. Ўша пайтда протестанларнинг беш юз минг нафари, Голландия, Англия, Пруссия ва Амрерикага кўчиб кетган эди”[161].

Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг динда у зотга мухолиф бўлувчилар билан бўлган алоқалари ва у зот билан бир жамиятда яшайдиган шундай кишилар билан бўлган муносабатлари шунчаки тинчлик ёки тинчлик келишуви эмас, балки том маънода яхшилик ва раҳмат алоқаси эди. Биз ҳам агар Расулуллоҳ (с.а.в.) ўз атрофларида яшайдиган мусулмон бўлмаганларга ўз аҳллари каби муомала қилганлар десак, ҳақиқатдан йироқ бўлмайди. Анас ибн Молик (р.а.) Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг ўзга дин вакиллари билан муносабатларини шундай ривоят қилган:

“Расулуллоҳ (с.а.в.)га хизмат қиладиган бир яҳудий хизматкор бор эди. У касал бўлиб қолди. Шунда Набий соллаллоҳу алайҳи васаллам уни кўргани келдилар, бош тарафида ўтирдилар ва унга: ***“Мусулмон бўл”***, дедилар. Ғулом эса, олдида турган отасига қаради. Отаси: “Абул Қосим (соллаллоҳу алайҳи васаллам)га итоат қил”, деди. Яҳудий хизматкор мусулмон бўлди. Набий соллаллоҳу алайҳи васаллам чиқаётиб шундай дедилар***: “Уни дўзахдан қутқарган Аллоҳга ҳамд бўлсин!”*** (Имом Бухорий, Термизий, Ҳоким ва Насоий ривоятлари).

Юқоридаги ҳадисга эътибор бериш лозим, Расулуллоҳ (с.а.в.) хизматкорилари ичида яҳудий ғулом ҳам бор эди. Шу билан бирга унинг Мадинаи мунаввардаги шахсий ҳаётида ҳам бошқа дин соҳибларига яратилган

[159] Доктор Роғиб ас-Сиржоний. Ар-Роҳма фи ҳаяти-р-Росул соллаллоҳу алайҳи васаллам. – Риёз: Ал-марказ ал-ъалмий ли-т-таъриф би-р-Росул соллаллоҳу алайҳи васаллам ва нусротиҳи, 2009. – Б. 223–224.
[160] Қаранг: Муҳаммад Абу Заҳра. Ал-Алақот ад-давлийя фи-л-Ислом. – Қоҳира: Дор ал-фикр ал-арабий, 1995. – Б. 27.
[161] Тавфиқ Тавил. Қисса ал-изтиҳод ад-дийний фи-л-масиҳийя ва-л-ислам (Масиҳийлик ва ислом динидаги таъқиб қиссаси). – Искандария: Дор ал-фикр ал-арабий, 1947. – Б. 97–99.

шароитни яратиб, уларни ўз динларидан қайтармаган эдилар. Кейин у ғулом касал бўлиб қолганда Расулуллоҳ (с.а.в.) уни кўргани уйига бордилар. Ваҳоланки, Расулуллоҳ (с.а.в.) Мадинаи мунавварада энг юқори даражадаги ҳукмрон, яҳудий ғулом эса оддий хизматкор ва ўзга дин вакили эди.

Асмо бинти Абу Бакр (р.а.) ҳикоя қилиб айтади:

“Онам Қурайш иттифоқилигида мушрик ҳолида менинг олдимга келди. Улар Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам билан аҳд тузишган ва муддатлари онамнинг отаси билан муддатлари билан бирга эди”. Шунда Асмо бинти Абу Бакр розияллоҳу анҳо Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламдан фатво сўраб: “Эй Аллоҳнинг Расули! Онам менга рағбат қилган ҳолда ҳузуримга келибди, унга яхшилик қилайми?”-деди. У зот: ***“Ҳа, унга силаи раҳм қил”***, дедилар (Имом Бухорий, Муслим, Абу Довуд ва Аҳмад ривоятлари).

Расулуллоҳ (с.а.в.) Асмо бинти Абу Бакр розияллоҳу анҳонинг мушрика онасига яхшилик қилишга буюрганлар. Шу билан бирга, Қурайш ўша вақтда мусулмонларга қарши жанг қилаётган эди. Лекин мушрика аёлнинг Мадинага киришига ва Асмо (р.а.)нинг ҳам ва Зубайр ибн Аввом (р.а.)нинг ҳам уйига киришига қаршилик қилмадилар. Зубайр ибн Аввом (р.а.) ўша пайтда давлатнинг энг обрўли кишиларидан эди. Унинг ҳузурида мушриклар билиши зарур бўлмаган кўп сирлар бор эди. Шундай бўлса-да, Расулуллоҳ (с.а.в.) мушрика онанинг мусулмон қизини кўргани келишини маҳрум қилмадилар ва муслима қизнинг мушрика онасига яхшилик қилишидан ҳам қайтармадилар.

Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг бошқа бир раҳматларини Абдуллоҳ ибн Умар (р.а.) шундай ривоят қилади: Унда зикр қилинишича, масжид эшиги олдида Умар ибн Хаттоб (р.а.) тоза ипакдан бўлган кийимни кўриб қолади, шунда: “Эй Аллоҳнинг Росули! Мана буни сотиб олиб, Жума куни ва олдингизга келадиган ташрифчилар учун кийсангиз”, дедилар. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам: ***“Ушбу*** (кийим)***ни Қиёматда ҳеч қандай насибаси йўқ*** (одам) ***кияди”***, дедилар. Сўнг Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламга ундан бир неча кийимлар олиб келинди, улар орасидан бир кийимни Умарга тортиқ қилдилар. Умар: “Эй Аллоҳнинг Росули! Менга уни кийдирдингиз ва сизга Уториднинг кийими ҳақида айтган эдингиз”, деди. Шунда Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам: ***“Албатта, мен уни ўзинг кийишинг учун бермадим”***, дедилар. Сўнг Умар ибн Хаттоб бу кийимни Маккадаги мушрик инисига кийдирди (Имом Бухорий, Муслим, Абу Довуд, Насоий, Ибн Можа, Аҳмад ва Ибн Молик ривоятлари).

Умар (р.а.) ушбу кийимни мушриклардан бўлган инисига ҳадя қилди, Расулуллоҳ (с.а.в.) эса эътироз билдирмадилар ва у зотнинг иқрорлари, суннат

экани, яъни тақририй суннат [162] ҳисобланиши маълум ва машҳур. Имом Нававий роҳимаҳуллоҳ ушбу ҳодисага изоҳ сифатида қуйидаги сўзларини айтганлар: “Бунда кофир бўлган қариндошларга силаи раҳм, эзгулик қилиш ва уларга ҳадя бериш жоизлигига далил бор”[163], деганлар.

Рабийъа ибн Дийлий – жоҳилиятдаги киши бўлиб, кейин мусулмон бўлган – ривоят қилиб айтади:

“Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламни Зулмажоз бозорида: ***“Эй одамлар! “Лаа илааҳа иллаллоҳ”, денглар, нажот топасизлар”***, деяётганларини ўз кўзим билан кўрдим. У зот у (бозор)нинг оралиқ (йўл)ларига кирар, одамлар у зот томон жуда тирбанд (яъни, у зот тиқилинчда) эди. Ҳеч ким ҳеч нарса деганини кўрмадим. У зот тўхтамай шундай дер эдилар: ***“Эй одамлар! “Лаа илааҳа иллаллоҳ”, денглар, нажот топасизлар”***. Фақат орқаларида ғилай, икки кокили бор бадбашара одам: “У собий (юлдузларга ибодат қилувчи) ва ёлғончидир”. Мен: “Бу ким?” десам, “Муҳаммад ибн Абдуллоҳ пайғамбарликни зикр қилмоқда”, дейишди. (Яна): “Уни ёлғончига чиқараётган (одам) эса ким?” де (б сўра)дим. “Амакиси Абу Лаҳаб”, дейишди” (Имом Аҳмад, Ҳоким ва Табароний ривояти).

Пайғамбар (с.а.в.) ҳатто Абу Лаҳабнинг очиқ-ойдин тентаклигида ҳам муомаладаги ўз одобларидан четга чиқмадилар. У зот алайҳиссалом одамларни бахт-саодат ва нажотга чақириш йўлида қолдилар. Балки, Набий (с.а.в.) агар улар Аллоҳга иймон келтириб, У Зотга ҳеч нарсани шерик қилмасалар, Охират неъматларидан олдин дунё мулкининг башоратини берганлар.

Ибн Аббос розийаллоҳу анҳумодан ривоят қилинади:

“Абу Толиб касал бўлди ва Қурайш (қабиласидагилар) ҳам, Набий (с.а.в.) ҳам келишди. Абу Толиб олдида бир кишининг ўтирадиган ўрни бор эди. Шунда Абу Жаҳл у зотни ман қилди ва Абу Толибга у зотдан шикоят қилди ва: “Эй инимнинг ўғли, қавмингдан нима хоҳлайсан?” деди. У зот ((с.а.в.)): ***“Албатта, мен у*** (мушрик)***лардан араблар унга эътиқод қиладиган ва уларга ажамлар жизя тўлайдиган биргина калимани хоҳлайман”***, дедилар. У: “Биргина калимами?” деди. ***“Биргина калимани”***, дедилар. (Сўнг) айтдилар: ***“Эй амаки, “Лаа илааҳа иллаллоҳ”, денглар”***. Улар: “Ягона илоҳ! Бизлар бу ҳақда (тавҳид ҳақида) сўнгги динда эшитмаганмиз. Бу фақат бир уйдирмадир”, дедилар. Шунда улар ҳақида Қуръон (нинг ушбу оятлари) нозил бўлди:

[162] “Суннатдаги тақрир Набий соллаллоҳу алайҳи васалламнинг саҳобаи киромлар томонидан содир этилган баъзи нарсаларни маъқуллашларидан иборат”. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Мусталаҳул ҳадис. – Т.: Sharq нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2011. – Б. 21.
[163] Имом Нававий. Ал-Минҳож шарҳ саҳиҳи Муслим ибн Ҳажжож. 14/39.

“Сод. Зикр манбаи бўлмиш Қуръонга қасамёд этаман! Ҳа, кофир бўлган кимсалар (ҳақиқатни қабул қилишдан) ғурурда ва мухолифли кда (доимий)дирлар...
Бизлар бу ҳақда (тавҳид ҳақида) сўнгги динда эшитмаганмиз. Бу фақат бир уйдирмадир”[164] (Имом Термизий, Аҳмад ва Ҳоким ривояти).

Расулуллоҳ (с.а.в.) Мадинага ҳижрат қилганларида у ердаги мушриклар ва яҳудийлар билан юқоридаги йўлни тутдилар, гарчи улар тарафидан қаршилик ва юз ўгириш бўлишига қарамасдан, уларга дўстлик ва лутф билан муомала қилдилар. Расулуллоҳ (с.а.в.) уларга ўзларига етказган жафоларига қарамасдан яхшиликнинг барчасини хоҳлар эдилар. Расулуллоҳ (с.а.в.) билан яҳудийларнинг муомаласи ва муносабати у зотнинг Мадинага келишларини тасодиф деб ҳисобламасалар-да ўта қўпол эди. Барча далиллар ва гувоҳлар яҳудийлар Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг Маккада пайғамбар бўлиб, кейин Мадинага ҳижрат қилишларини жуда яхши билар эдилар. Буни Исроил Волфсон ўзининг яҳудийлар ҳақидаги тадқиқотида ҳам таъкидлайди. Бу яҳудий олими Мисрда докторлик даражасига эришган ва унинг илмий иши, яҳудийларнинг араб ўлкаларидаги тарихига бағишланади. Бу олим кўп фикрларда бизларга қарши чиқса-да, лекин унинг ушбу чиқарган ҳукми ва айтган сўзлари тўғридир. Волфсон айтади: “Биз аниқ айтамизки, яҳудийлар Ислом ҳаракатидан бехабар эмасдилар, чунки ислом ҳаракати яҳудийларнинг сиёсий, тижорий ва ижтимоий манфаатлари билан муттасил боғланган эди. Хусусан, ислом даъватининг Макка даври охирги йилларидан Мадина тарафга йўналишини ва Хазраж қабиласининг улуғлари Расулуллоҳ (с.а.в.) билан алоқа боғлашга истак билдирганларини мулоҳаза қиладиган бўлсак, мусулмонлар ва яҳудийлар ўртасида адоват йўқлигини биламиз. Бани Назир ва Бани Қурайза қабилалари қаршисида яҳудийлар қабиласи уларнинг ҳаракатини текшириб кузатиб борар эди. Биламизки, ислом Ясрибда махфий ҳолда тарқалмаган. Мусъаб ибн Умайр (р.а.) инсонларни Аллоҳ ва Расулига ҳар бир қабила ва уруғларнинг кўз олдида даъват қилган эди. Яна биламизки, яҳудий савдогарлари ҳаж мавсумида ҳам иштирок этиб, савдо-сотиқ қилар эди. Яҳудийларнинг ушбу ишлардан узоқ

[164] Ушбу оятлар Сод сурасининг 1–7-оятлари бўлиб, улар қуйидагилар:
“Сод. Зикр манбаи бўлмиш Қуръонга қасамёд этаман!
Ҳа, кофир бўлган кимсалар (ҳақиқатни қабул қилишдан) ғурурда ва мухолифликда (доимий)дирлар.
Биз улардан илгари қанча авлодни (куфрлари сабабли) ҳалок қилганимизда улар ёрдам сўраб нидо (илтижо) қил ганлар, (аммо у вақт азобдан) қочиб қутулиш вақти эмас эди.
(Макка мушриклари) уларга ўзларидан (башар авлодидан) огоҳлантирувчи (пайғамбар) келганидан ажабландил ар ва кофирлар айтдилар: «Бу (бир) ёлғончи сеҳргардир. (Шунча) илоҳларни битта илоҳ қилиб олибдими?! Ҳақиқатан, бу жуда қизиқ нарса!» Улардан катталари (бир-бирларига) дедилар: «Юрингиз, ўз илоҳларингизга (сиғинишда) сабрли бўлингиз! Албатта, бу ирода этиладиган (бўлиб турадиган) нарсадир. Бизлар бу ҳақда (тавҳид ҳақида) сўнгги динда эшитмаганмиз. Бу фақат бир уйдирмадир””.

бўлиши, бехабар бўлиши ҳақиқатдан йироқдир”[165]. Волфсоннинг фикрларига қўшимча қилиб айтиш мумкинки, Қуръоннинг маккий оятлари Бани Исроилнинг уламолари, олимлари Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг ростгўй эканликларини тасдиқлайди.

Аллоҳ таоло маккий сура саналмиш Шуаро сурасининг 197-оятида шундай марҳамат деган:

“**Ахир,**
(Қуръон ҳақида) Исроил авлоди уламоларининг билишлари улар учун дал ил эмасми?!”

Ушбу оят Маккадаги мушриклар учун бўлиб, унинг маъноси шуки, мушриклар яҳудийлардан Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг сифатлари ҳақида сўраганлар ва яҳудийлар у зотнинг сифатларни ўз китобларида топганлар. Шубҳасиз, яҳудийлар уни кутилаётган пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.) эканликларини яхши билган эдилар. Ибн Исҳоқ ҳам уни қўллаб-қувватлайдиган сўзни айтган[166]. У Қурайшнинг Назр ибн Ҳорис ва Уқба ибн Абу Муайтни Ясрибга яҳудий роҳибларидан улар ичидан пайғамбар қилиб юборилган киши ҳақида сўраш учун жўнатганини ҳикоя қилган. Яҳудий роҳиблари Тавротда келган ва фақатгина пайғамбар билиши мумкин бўлган бир неча масалаларни сўрашларини айтади. Ва албатта, икки қурайшлик киши ўша саволларни Расулуллоҳ (с.а.в.)га олиб боради ва улар ҳақида Таврот китобида келган жавобларнинг айнан ўзини айтадилар. Ушбу ҳодиса Каҳф сурасининг нозил бўлишига сабаб бўлган. Бу эса барча учун Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг ростгўй, содиқ эканликларини кўрсатиб беради[167].

“Улар саводсиз* элчига – исми ўзларидаги Таврот ва Инжилда ёзилган пайғамбарга (Муҳаммадга) эргашадилар[168]**”** (Аъроф сураси, 157-оят).

Ибн Касир ушбу оят ҳақида бир неча ривоятларни келтирган ва улар – яҳудийларнинг Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг Маккаи мукаррама давридаги ишлари

[165] Исроил Волфсон. The History of Jewshs in Arabia Pre-Islam and Early Islam (Яҳудийларнинг жоҳилиятда ва Ислом пайдо бўлган вақтда араб ўлкаларидаги тарихи). – Қоҳира: Матбаа ал-иътимод, 1927. – Б. 110–112.

[166] Абу Бакр Муҳаммад ибн Исҳоқ ибн Ясор, Анас ибн Молик розияллоҳу анҳуни кўрган Ато ибн Абу Рабоҳ ва имом Зуҳрийдан ривоят қилган: “У илм денгизининг турли соҳаларида ростгўй инсон бўлиб, ўзи ривоят қилган нарса борасида жуда нодир маълумотларга эга бўлган. Ҳадислари ҳасан ва ҳасан даражасида бўлиб, кўпчилик уламолар уни саҳиҳ санаганлар. 151 ҳижрий санада вафот этганлар”. Кашшоф китоби. 2/156. Ибн Исҳоқни машҳур сийранавис сифатида ҳам яхши биламиз.

[167] Ибн Ҳишом. Сийра ан-Набавийя. 1/210-211. Ибн Касир. Тафсирул Қуръонил аъзим. 3/98.

[168] Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи васаллам ҳақиқатан “уммий”, яъни ўқишни, ёзишни, ҳисоб илмини билмайдиган саводсиз бўлганлар. Ҳадиси шарифда ўзлари: “Биз ёзишни, ҳисобни билмайдиган саводсиз умматмиз”, – деганлар. Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг саводсиз бўла туриб оятларни ўқиб, тафсир қилиб беришларининг ўзи катта мўъжиза. Зеро, агар ёзишни, ўқишни, шеър ижод қилишни билганларида, оятларни ўзи тўқияпти ёки кимдандир кўчириб олиб, бизга ўқиб беряпти, деган шубҳа туғилган бўлур эди.

ҳақида билганликларига ишора қилади. Ушбу барча далиллар яҳудийларнинг ўз китобларида келган Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг сифатларидан бехабар эмасликларидан хабар беради. Улар ўша замонда Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг чиқишларини кутган эдилар. Бир неча вақтлар ўтиб, у зот (с.а.в.) Мадинага ҳижрат қилдилар ва ўша кунларнинг бошланишиданоқ, яҳудийларнинг аҳли китоб бўлгани учун имкони борича яқин бўлишга ҳаракат қилдилар. Улар ҳам юқоридаги Тавротда келтирилган маълумотлари ҳамда пайғамбарни кутаётганликлари туфайли ислом динини қабул қилишлари муқаррар эди. Демак, яҳудийларнинг ўзларида мавжуд бўлган илмий маълумотлар, албатта, у охирги замон пайғамбарининг вақти бўлганлигига ишора қилган ва уларда ушбу пайғамбар ҳақида ўз китобларида келган далиллар ва башоратлар жамланган эди. Бақара сурасининг 146-оятида ҳам уларнинг Расулуллоҳ (с.а.в.)ни ўз ўғилларини билгандек билишлари, танишлари айтилган:

“Биз китоб берган ўша (золим кимса)лар уни (Муҳаммадни) худди ўз фарзандларини танигандек танийдилар ва улардан бир гуруҳи била туриб, (китобларидаги) ҳақиқатни сир тутадилар”.

Расулуллоҳ (с.а.в.) уларга дўстлик ҳамда лутф қилиб, марҳамат билан муомала қилганлар. Уларни, ер юзидаги тарихий ҳаракатда мўминларга ёрдамчи бўлади деб ҳисоблаганлар. Шундай бўлишига қарамасдан Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг пайғамбарликни эълон қилишларидаги қилган ишлари қандай бўлган?! Яҳудийлардан жуда озчилик инсонлар Расулуллоҳ (с.а.в.)га имон келтирганлар. Кўпчилик эса инкор қилиш ва юз ўгириш йўлини тутганлар. Мусулмон бўлганларининг ҳолатларидан энг машҳурлари уларнинг руҳонийси бўлган Абдуллоҳ ибн Салом (р.а.)нинг мусулмон бўлиш воқеаси саналади.

Уларнинг барчаси раҳмат, кечиримлилик ва Расулуллоҳ (с.а.в.)дан уларга бўлган яқинлашиш, яҳудийлар тарафидан душманлик ва қатиққўллик билан қабул қилинди. Шундай бўлсада, Расулуллоҳ (с.а.в.)ни уларга нисбатан раҳмат ва бағрикенглик, кечиримлилик билан муносабатда бўлиш йўлидан қайтармади. Буларнинг биринчи аломати шуки, Расулуллоҳ (с.а.в.) улар билан яҳудийларнинг ҳуқуқларини муҳофаза қиладиган келишув, битимларни тузганлар. Ушбу келишув, битимлар уларнинг борлигини эътироф қилар, ажраб туришларини ва мусулмонлардан мустақил эканликларини тасдиқлар эди. Бир вақтнинг ўзида ушбу муомала асослари, балки келишув ҳамкорлик асослари янги ўсиб келаётган (ислом давлати сояси асосида амалга ошаётган) эди. Шундай бўлсада, яҳудийлар тарафидан ёлғонга чиқариш ва мусулмонларни йўлидан тўсиш ҳаракати давом этди ҳамда қўполлик қилишлари ҳам зиёда бўлди. Ҳаттоки макр ҳийлалар, алдовлар даражасига бориб етди. Лекин

Расулуллоҳ (с.а.в.) уларга нисбатан имкон борича раҳм шавқат билан муомала қилишга ҳарис бўлдилар. Исломдаги адолат ва раҳмат мутлақ иш бўлиб, бирор бир жинс, ирқ ёки дин вакили ундан алоҳида бўлмайди, шунингдек, муайян ҳис туйғулар, алоҳида вазиятлар ҳам уни бекор қилмайди. Исломда зулмни, шафқатсизликни оқлайдиган ҳеч нарса йўқ.

Аллоҳ таоло айтади:

“Албатта, Аллоҳ адолатга, эзгу ишларга ва қариндошга яхшилик қилишга буюради ҳамда бузуқчилик, ёвуз ишлар ва зулмдан қайтаради. Эслатма олурсиз, деб (У) сизларга (доимо) насиҳат қилур” (Наҳл сураси, 90-оят).

Набий (с.а.в.) айтадилар:

“Ким бир қарич ер борасида зулм қилса, етти қават ер унинг бўйнига осиб қўйилади” (Имом Бухорий, Муслим ва Аҳмад ривоятлари).

Шунингдек, Абдуллоҳ ибн Умар (р.а.)дан ривоят қилинган ҳадисда Расулуллоҳ (с.а.в.) шундай деганлар:

Ким зулм билан бирор ҳусуматга ёрдамчи бўладиган бўлса, у (зулмдан) халос бўлмагунча Аллоҳ таолонинг ғазабида бўлади” (Имом Ибн Можа, Абу Довуд ривоятлари).

Мулоҳаза қиладиган бўлсак, ушбу ҳадисларнинг барчаси мусулмонларни ҳам бошқа дин вакилларини ҳам ўз ичига оладиган умумий лафзлар билан келган ва унда тушушнишда бирор бир чигалликни келтириб чиқарадиган нарса йўқ, яъни очиқ-ойдин айтилган. Шу билан Расулуллоҳ (с.а.в.) ҳар бир мусулмондан зулм қилиш оддий кўринишда бўлса ҳам мусулмон бўлмаганларга зулм қилишга руҳсат берилган, деган эътиқодни бутунлай йўқотиб ташлашни ирода қилганлар. У зот (с.а.в.) ер юзидаги барча инсонга етказишимиз, лозим бўлган ва улар Расулуллоҳ (с.а.в.) ким эканликларини билиши учун қуйидаги сўзларни айтганлар:

“Огоҳ бўлинглар! Ким муъоҳид[169]га зулм қилса, ёки ундан бирон нарсани (ҳуқуқи, ёки бошқа бирор нарсалардан) камайтирса, ёки уни тоқатидан бошқа нарсаларга буюрса, ёки ундан ёмонлик билан бирон нарсани олса, албатта Қиёмат куни унинг ҳужжатлашувчиси, хусуматчиси бўламан”, - деганлар (Имом Абу Довуд ва Байҳақий ривояти).

Бундан ортиқ адолат ёки раҳмат борми?! Расулуллоҳ (с.а.в.) шундай деганлар:

[169] Исломни қабул қилмаган ва жон бошига олинадиган ўлпон асосида келишиб, мусулмонлар ҳудудида яшовчи киши.

“Гарчи кофир бўлса-да, мазлумнинг дуосидан қўрқинглар, чунки у дуонинг ортида тўсиқ йўқ” (Имом Аҳмад рифояти).

Имом Аҳмад роҳимаҳуллоҳдан қилинган бошқа бир ривоятда у зот (с.а.в.) айтганлар:

“Мазлумнинг дуоси гарчи фожир бўлса-да, мустажобдир. Унинг фожирлиги ўз нафсининг зараригадир” (Имом Ҳайсамий “Мажмаъ аз-завоид” китобларида Имом Аҳмад ва Баззор ривоят қилганини айтиб санадини ҳасан деганлар).

Албатта, бу мазлум ва Аллоҳ таоло ўртасида тўсиқ йўқлигини очиқ-ойдин билдирувчи сўздир. Шу ердан ростгўй мусулмон инсон Аллоҳ таоло уни доимий кўриб, кузатиб турганини ҳис қилганлиги учун ҳеч қачон зулм қилмайди. Ва бу масала ақидавий масала ҳисобланади, Аллоҳ азза ва жалла мазлумга Қиёмат куни золимнинг қаршисида мазлумнинг фойдасига ёрдамчи бўлади. Гарчи мазлум инсон кофир, золим инсон мусулмон бўлса ҳам. Расулуллоҳ (с.а.в.) Қиёмат куни золимга қарши мазлум фойдаси учун уларнинг динидан қатъи назар мазлумнинг фойдаси учун турадилар.

ХУЛОСА

Ушбу ажойиб сўзлар ва маънолар шунчаки, инсон ҳаётида ўрни бўлмаган назарий қоидалар бўлмаган, балки у Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг тутган ишлари, муносабатларида аниқ акс этган. Ушбу маънони у зот (с.а.в.)нинг ҳар бир келишувлари, муомалалари, чиқарган ҳукмлари бизга кўрсатиб беради. Абдуллоҳ ибн Масъуд (р.а.) ривоят қилади:

“Расулуллоҳ (с.а.в.):

“Ким унда фожир ҳолида у билан бирор мусулмонннинг молини ноҳақ олиш учун қасам ичса, Аллоҳ таолога у зот ғазаб қилган ҳолда йўлиқади”, - дедилар. Ашъас иб Қайс айтди: “Аллоҳга қасамки менда шундай воқеа бўлган. Менинг ва яҳудийлардан бўлган бир киши ўртасида ер бор эди. У бош тортди. Буни Набий (с.а.в.)нинг олдиларига олиб бордим. Шунда Расулуллоҳ (с.а.в.) менга: *“Сенинг ҳужжатинг борми?”* дедилар. Мен: “Йўқ”, дедим. Яҳудийга: *“Қасам ич!”* дедилар. Мен: “Эй Аллоҳнинг Росули агар у қасам ичадиган бўлса, менинг молимни олиб кетади”, дедим. Шунда Аллоҳ таоло

“Аллоҳга берган аҳдлари ва қасамларини озгина баҳога алмаштирадиган кимсалар...” оятини охиригача нозил қилди (Имом Бухорий, Муслим, Абу Довуд, Термизий ва Аҳмад ривоятлари).

Оятнинг тўлиғи қуйидагича:

“Аллоҳга берган аҳдлари ва қасамларини озгина баҳога алмаштирадиган кимсалар учун охиратда ҳеч қандай насиба йўқдир. (Қиёмат куни) Аллоҳ улар

билан гаплашмайди, уларга (раҳмат назари билан) боқмайди ва уларни оқламайди ҳам. Улар учун аламли азоб бордир” (Оли Имрон сураси, 77-оят).

У ҳам, албатта, жуда нодир ходисадир. Яъни бири саҳобалардан, бошқаси эса яҳудий бўлган икки киши хусуматлашиб қолди. У иккиси Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг олдиларига ҳукм чиқариб бериш учун келдилар. Ва Расулуллоҳ (с.а.в.) ўз олдиларида улар ўртасида тарафкашликсиз шариатни татбиқ қилишни лозим топдилар. Шариат эса даъво қилувчи Ашъас ибн Қайс (р.а.)га бирор бир далил, ҳужжат келтиришини лозим қилади. Агар у далил келтира олмаса, даъво қилинаётган, яҳудийнинг қасам ичиши кифоя қилади. Шу сабабли иш тасдиқ топади. Бу Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг ушбу сўзларидаги мезон, меъёр ҳисобланади. У зот (с.а.в.) айтганлар*: “Даъвогарга ҳужжат (келтириш) лозим, инкор қилувчига эса қасам”* (Имом Байҳақий, Доруқутний, Термизий ривоятлари). Бу саҳобанинг далили бўлмагани учун қийин вазиятда қолади ва ишнинг барчаси яҳудийнинг қасами эвазига у тарафга ўтиб кетади. У саҳоба умидсизликни сезди ва яҳудий ўйланиб ўтирмасдан ёлғон қасам ичишини биларди. Лекин Расулуллоҳ (с.а.в.) шариат бўйича бирор нарсага молик бўлмадилар ва яҳудийнинг фойдасига ишни ҳал қилдилар. Таъкидлаш лозимки, Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг мусулмон даъвогарга бўлган раҳматлари, унга қарши даъво қилинаётган яҳудийга нисбатан шафқатсизлик қилишга олиб бормади![170]

[170] Қаранг: Доктор Роғиб ас-Сиржоний. Ар-Роҳма фи ҳаяти-р-Росул соллаллоҳу алайҳи васаллам. – Риёз: Ал-марказ ал-ъалмий ли-т-таъриф би-р-Росул соллаллоҳу алайҳи васаллам ва нусротиҳи, 2009. – Б. 231–247.

PROBLEMS OF ETYMOLOGICAL DEVELOPMENT OF ENGLISH PHRASAL VERBS

Abbasova Nargiza Kabilovna
(PhD), Teacher of FSU
Abdullaeva Nozima Abdusalim qizi,
Master student of FSU
n.abduhalimova2455@gmail.com

ABSTRACT

This article provides the information about the etymological studies of phrasal verbs and the challenges in the process of which the English language faced structural and semantic changes.

***Key words**: phraseology, phrasal verbs, etymology, Old English*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об этимологических исследованиях фразовых глаголов и о проблемах, в процессе которых английский язык сталкивается со структурными и семантическими изменениями.

***Ключевые слова:** фразеология, фразовые глаголы, этимология, древнеанглийский язык.*

INTRODUCTION

The emergence of the anthropocentric paradigm caused language issues to shift in favor of man and his/her status within society. Language helps an individual to express, illustrate himself/herself as a person and as well as it is a means of delivering cultural heritage, tradition and peculiarities. So, within the paradigm, language is understood primarily as a kind of code, the main manifestation of culture within various linguistic signs and symbols, along with the visual cultural manifestations of the collective, and is “conditioned cultural system of behavior”[171].

As it is known, the most and fastest changing phenomenon is language and its influence to various aspects of social-labor cases in any language community given or recording a new concept emergence, revoking all those lexical elements that have previously lost their social significance. Progressive development of language nature and accumulation of newly accepted language elements, exclusion of old ones preserving basic notions, steady elements as commonly used words and etc. contribute to the fact that the whole language itself or its vocabulary structure in the moments from history containing the events of series of epochs in which long-

[171] Д. О. ПетровнаФразовый глагол как часть фраз-ой системы английского языка

established elements coexist with newly based ones. By many popular lexicologists English language has long been studied as a language containing words established by the way of borrowing. It has endured the effect of other languages. L. Smith claims that "The progress of English language is not the result of national prosperity but two national disasters – Danish invasion and Norman conquest[172].

Facts of recently made researches depict that phrasal verbs take place on one third of the vocabulary stock of native speakers. Phrasal verbs became so significant that they do not only embellish our daily life communication but they are also noticed in some official documents making themselves an irreplaceable part of the language system. According to V. V. Vinogradova phraseological units are "sustainable" verbal complexes opposed to "free" syntax phrases as ready-made language formations not created, but only reproduced in the process of speech. Phraseology is a unit of linguistics, which functional and semantic indivisible word combinations structurally, semantically and according to its stylistic and pragmatic use.

DISCUSSION AND RESULTS

Phrasal verbs are the mirror on which one can find the cultural heritage, compelling traditional development of the nation through the periods. From the standpoint of language enrichment and changes in its vocabulary, phraseological units serve as the basis for new formations, which become possible "due to rethinking the meaning of the words that make up phraseological units (11, p. 8-24). Phraseological science studies problematical questions of the study of phraseological combinations in English language, the meaning we use, yet are not able to explain from grammatical and logical point of view.

English phrasal verbs take their origin in Anglo-Saxon period and, yet some claim that they originated in 9th century. The term "phrasal verbs" for the first time were mentioned in written form by Logan Smith in his book in 1925.Phrasal verbs were not so in the time of Old English and were too rare. They had huge distinction in form and structure from the current phrasal verbs. They were in a form of a one word with an undivided prefixes. For example, in current English phrasal verb vocabulary the phrase "burn up" – to destroy by heat; have a very high temperature (Oxford language dictionary), had initially in Old English equivalent form **bærnan** and **forbærnan.** In Old English language transitive verbs were particularly idiomatic as there was no fixed rule that they had to express the root meaning. A good example for that is **berædan**, which had a meaning of eject or dispossess, when the root form of the verb was **rædan** owned meaning advise. This fact has still got some

[172]L. P. Smith. The English Language. p18

practicality in the verb **"understandan"** with idiomatic meaning "to comprehend" in Present English, yet it did have an initial meaning "to stand underneath" meaning. Some other simple and other type of verbs had functioned in the way as present phrasal verbs do. In English chronicles, there was a saying, **"a*c he teah forð þa his ealdan wrenceas*"**(but he drew forth his old tricks). So in Old English it was an uncommon incidence of phrasal verbs adding up post-verbal particles were usually oriented having tight relationship with prepositional meaning. Consequently, implementation of the particle "up" transfer meaning of direction upward, like "to grow up(ward)" rather than the completive sense, as in "to break up(completely)" that would become more common in Middle English and beyond[173].

Ўзбекистон Марказий Осиё минтақасининг узвий ва чамбарчас боғлиқ қисми ҳисобланиб у минтақадаги Марказий Осиёнинг барча давлатлари билан чегарадош ягона давлат саналади. Ўзбекистон мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлаб ташқи сиёсатида Марказий Осиё давлатлари билан ўзаро манфаатли, яхши қўшничиликка асосланган фаол ташқи сиёсат олиб бормоқда. Шуни алоҳида таъкидлашимиз лозимки дипломатик муносабатлар 2017 йилдан янги босқичга кўтарилиб, шу давргача йиғилиб қолган муаммолар бирин кетин ўз ечимини топа бошлади. Бунга Ўзбекистондаги янги ҳукуматнинг олиб борган ислоҳотлари ҳамда очиқ ва прогматик ташқи сиёсати орқали эришилди. Аммо муносабатлар тарихи ҳар доим ҳам барқарор бўлмаган. Баъзан давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш, ер ва сув ресурсларидан фойдаланиш масалаларида кескинликлар юзага келган.

Ўзбекистон-Тожикистон муносабатларининг қисман ёмонлашувига ҳам айнан сув ресурсларидан нотўғри фойдаланиш масаласи сабабидан келиб чиққан. Тожикистон ҳукумати томонидан қурилиши бошланган Роғун ГЭСнинг қурилиши, гидроэнеогетика тизимидаги хатоликлар Ўзбекистон қишлоқ ҳўжалиги агротузулмаси учун сув танқислигига олиб келиши мумкин эди. Шу тариқа Ўзбекистон ҳукумати бу лойиҳани қишлоқ ҳўжалиги секторига хавф сифатида баҳолади. Шу тариқа 2001 йилда муносабатлар совуқлашиб икки давлат ҳам виза режимини жорий қилди. Шундай бўлсада, икки мамлакат ўртасида савдо-иқтисодий муносабатлар, афғон муаммоси ва ШҲТ саммити доирасида учрашувлар ўтказилиб келинган. Аммо 2018 йилдан вазият ўзгариб, Ўзбекистон Республикаси президанти Ш.Мирзиёев расмий ташриф билан Тожикистонга келди ва Тожикистон президенти И.Рахмон билан учрашув ўтказиб ўттиздан ортиқ хужжатлар имзоланди. Икки қўшни давлат президентлари пойтахт Душанбеда кечган юзма-юз музокаралари ортидан барча муаммо ва масалалар бўйича ижобий натижаларга эришилганини баён қилишган.Ўзбекистон раҳбари икки томонлама алоқалар йўлида "тўсиқ бўладиган бирорта ҳам масала қолмаган"ини таъкидлаган. Ўз навбатида Эмомали Раҳмон Шавкат Мирзиёевнинг давлат ташрифини "тарихий", деб атади. Ташриф арафасидаёқ ўзбек-тожик чегарасидаги 10 та назорат-ўтиш нуқталари қайта очилган эди. Ўзбек томони икки давлат фуқаролари учун ўттиз кунгача визасиз тартиб жорий этилганини тасдиқлади, чегара ва икки томонлама ҳамкорликка доир жами 30 га яқин ҳужжат имзоланди. Келишувлар

доирасида энг аҳамиятга молик хужжатда Роғун ГЭСидан умумий фойдаланиш белгилаб қўйилди[174].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Минтақа давлатларининг ҳамкорлигини юқори поғонага кўтариш Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.Мирзиёев саъй-ҳаракатлари билан боғлиқ. “2017-2021 йилларда Ўзбекистонни янада ривожлантиришнинг бешта йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” тақдим этилди ва бу республикани беш йилга тизимли ислоҳ қилишнинг йўл харитаси бўлиб, унинг бешинчи устувор йуналишда - хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш, чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий руҳдаги ташқи сиёсат юритишга йўналтирилган давлатимиз мустақиллиги ва суверенитетини мустаҳкамлаш, Ўзбекистоннинг ён-атрофида хавфсизлик, барқарорлик ва аҳил қўшничилик муҳитини шакллантириш, мамлакатимизнинг халқаро нуфузини мустаҳкамлаш асосий мақсад сифатида белгилаб олинди[175].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатларида Марказий Осиё Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсатининг устувор йўналиши эканлигини алоҳида таъкидланди[176]. Президент Ш.Мирзиёев раҳбарлиги остида Ўзбекистоннинг Марказий Осиёдаги халқларни жипслаштиришга йўналтирилган янги ташқи сиёсатини амалга оширишда маданий ва маърифий-маънавий соҳалардаги фаол ҳамкорликлар муҳим омил ҳисобланади. Бундан кўзланган асосий мақсад – минтақада тинчлик, барқарорлик ва хавфсизлик муҳитини шакллантириш ва халқларнинг фаровон ҳаёт кечиришга шароит яратишдир.

Марказий Осиё давлатлари билан дўстона, яқин қўшничилик муносабстларини мустаҳкамлаш ва минтақавий ҳавфсизликни таъминлашаг қаратилган ва Ўзбекистон Республикаси президенти Ш. Мирзиёев ташаббуси билан асос солинган ва 2019 йил 29 ноябр кунида ўтказилган Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг иккинчи Маслаҳат учрашуви муҳим аҳамиятга эга бўлди. Маркур учрашувда Марказий Осиё давлатлари раҳбарлари мунтазам равишда маслаҳат учрашувларини минтақадаги ҳамкорликнинг долзарб масалаларини ва умумий муаммоларини ҳал этишда конструктив ва очиқ

[174] УзА Шавката Мирзиёева в аэропорту Душанбе встретил Эмомали Рахмон https://uza.uz/ru/posts/prezidenta-shavkata-mirziyeeva-torzhestvenno-vstretili-v-tad-09-03-2018

[175] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш буйича ҳаракатлар стратегияси 2017-2021” - Toshkent, 2017. - № 6. - P. 70 https://lex.uz/docs/3107036

[176] Мустафаев Б.Ўзбекистоннинг минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарор ва изчил ривожланишининг муҳим гарови// http://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekistonning-mintakavij-siesati-markazij-osieda-barkaror-va-izcil-rivozlanisining-muim-garovi

муҳокама қилиш учун музокаралар майдони сифатида ташкил этишга келишиб олдилар[177].

Минтақавий ҳамкорлигининг давлатлар хавфсизлиги ва барқарорлигини таъминлашда тўсиқ бўладиган бир нечта омиллар ҳам мавжуд. Бу чегара ва сув ресурсларидан фойдаланиш бўйича музокараларнинг якунланмаганлиги билан боғлиқ. Бундай борада Ўзбекистон Республикаси давлат чегарасини делимитация ва демаркация қилиш масалаларини деярли ҳал этиш жараёнида турибди. Бугунги кунга келиб Ўзбекистон давлат чегараларини делимитация қилиш масаласида Қозоғистон билан деярли 100%, Тожигистон билан муаммоларни 95% га, Қирғизистон билан 80% гача ижобий хал этиб бўлган. Туркманистон ва Қозоғистон билан демаркация ҳужжатларини имзолаш 2020 йилда амалга оширилган бўлса, Тожикистон ва Қирғизистон билан жараён қизғин музокаралар билан давом этмоқда.

2017 йил декабр ойида Қирғизистон Президенти С.Жеенбеков Ўзбекистонга ташриф буюрди. Учрашув якунида фаол ривожланаётган ўзбек-қирғиз ҳамкорлиги натижаларини қайд етиб, Ш.Мирзиёев икки давлат ўртасида чегара бўлмаслиги, томонлар еса бутунлай бошқа даражада олға силжиши лозимлигини таъкидлади.

Ўзбек-қирғиз чегарасида узоқ вақтдан бери мавжуд мураккаб вазият, шунингдек, Қирғизистон ҳудудида жойлашган Сўх ва Шоҳимардон ўзбек анклавлари ва Ўзбекистондаги қирғиз анклави – Барак қишлоғига оид масалалар билан боғлиқ. 2017 йил сентябр ойида чегаранинг 85 фоизини тавсифлаш тўғрисида битим имзоланди ва у орқали тўсиқсиз ҳаракатланиш масаласи ҳал қилинди. Демаркация масалалари ҳали муҳокама қилинмасада, 2022 йилнинг 10 отябрида Қирғизистон ва Ўзбекистон ўртасида ҳудудлар алмашуви истиқболлари юзасидан муҳокамалар натижасида Қирғизистон Барак анклавини Ўш вилояти Кара-Суи тумани Ак-Таш аийл Окмотига туташ ҳудудда эквивалент ер участкаси олиш эвазига Ўзбекистонга ўтказиш ғояси муҳокама қилинмоқда. Икки давлат ўртасидаги чегарани белгилаш ва ўтказиш бўйича ишлар олиб борилмоқда, аммо ҳозирча баҳсли ҳудудларнинг 15% келишувга эришиш энг қийини бўлиб қолмоқда. Булар Кемпир-Обод сув омбори, Жалол-Обод вилоятидаги Гавасай бўлими ва Қирғизистоннинг Баткен вилоятидаги Сўх анклави ҳудудида тахминан 200 км чегаралардир. Энг сўнги

[177] Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг иккинчи Маслаҳат учрашуви. https://yuz.uz/news/ozbekiston-prezidenti-markaziy-osiy-davlatlari-rahbarlarining-maslahat-uchrashuvida-nutq-sozladi

келишувларда эса Ўзбекистон 4485 га, Қирғизистон 19699 га майдонни ташкил этувчи чегара келишувига эришилди[178].

(расм https://www.bbc.com/uzbek/uzbekistan-63330417 дан олинди)

2017-2018 йилларда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қирғизистон ва Тожикистонга ташрифлари чоғида айрим сув масалалари ҳал қилинди. Республика энди қўшни мамлакатларда йирик гидроелектростанциялар қурилишига қарши эмас, чунки у уларни қуриш ва ишлатишда иштирок этиши мумкин.

2018 йил март ойи бошида 27 йил ичида биринчи марта Ўзбекистон раҳбарининг Тожикистонга ташрифи пайтида икки давлат муносабатларидаги кўплаб муаммоларни ҳал қилди. Виза режими бекор қилинди, авиация ва темир йўл алоқалари ўрнатилди ва шу йилнинг Май ойидан бошлаб, 26 йилдан сўнг, тожикларарo можаро пайтида тўхтатилган икки мамлакат ўртасида автобус қатновлари қайта тикланди. 2018 йил март ойида чегаранинг айрим участкалари, шу жумладан баҳсли чегара сув омбори тўғрисида битим имзоланди Фарход: Фарход ГЭСи жойлашган ҳудуд Тожикистон ҳудуди деб

[178] **Қирғизистонда Ўзбекистон билан чегара чизиғи бўйича келишув шартлари маълум қилинди.** https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/10/kempir-abad/

тан олинади ва гидроенергетика объектининг ўзи Ўзбекистон мулки ҳисобланадиган бўлди.

Аммо бундай фаолият минтақанинг бошқа мамлакатлари ўртасида изчил амалга оширилмаётганлиги минтақадаги чегаравий низоларни давом этишига сабаб бўлмоқда.

Узунлиги 976 км ни ташкил этадиган тожик-қирғиз чегарасининг 504 км чегараланган ва қолган 472 км баҳсли ҳудуди кўплаб низоларга сабаб бўлмоқда. 2019 йил март ойида Тожикистон ва Қирғизистон чегарасида яна бир можаро рўй берган можаро Барча низоларнинг асосий сабаби давлат чегара чизиғининг ноаниқлиги бўлиб, давлат раҳбарларининг ушбу муаммони ҳал қилиш нияти ҳақидаги баёнотларига қарамай, чегарани делимитация ва демаркация қилиш бошланмади. Бу эса чегарадаги навбатдаги тўқнашувларга олиб келди. 2022 йилнинг баҳорида Тожикистон ва Қирғизистон чегараларида навбатдаги тўқнашув юз берди.

Бу масала юзасидан Ўзбекистон Президенти Мирзиёев икки маротаба қўшни давлат раҳбарлари билан телефон орқали мулоқот қилиб, муаммони фақат дўстлик ва яхши қўшничилик руҳидаги музокаралар орқали ҳал этишга чақирди. Шу билан бирга, Ўзбекистон вазиятни ҳал қилиш учун ҳар томонлама ёрдам кўрсатишга тайёр екани таъкидланди. Ўзбекистон президенти юзага келган вазиятни тез фурсатда ҳал қилиш ва унинг кескинлашувига йўл қўймаслик бўйича Тожикистон ва Қирғизистон томонлари эришган келишувларни қўллаб-қувватлади.

Сув ресурсларидан фойдаланиш соҳасида минтақавий ҳамкорликни чуқурлаштириш бўйича бир қатор чора-тадбирлар кўрилмоқда. Мазкур соҳада барча муносабатларни тартибга солиш бўйича таклифларни ишлаб чиқиш мақсадида Ўзбекистон, Қозоғистон ва Тожикистон ўртасида ишчи гуруҳ тузилди. Шу билан бир қаторда, сув ва энергетика соҳаси масалалари бўйича конструктив ечимга эришиш учун Қирғизистон билан икки томонлама қўшма сув хўжалиги комиссиясини тузиш тўғрисида идоралараро битимни имзолашга тайёрланмоқда. Туркманистон билан ўзаро ҳамкорлик «Амударё» ҳавзаси сув хўжалиги бирлашмаси иштирокидаги уч томонлама ишчи гуруҳ доирасида самарали ривожланмоқда[179].

Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг ташаббуслари Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг маслаҳатлашув учрашувларида алоҳида аҳамият касб этади. Хусусан, сувдан биргаликда фойдаланиш соҳасида, делимитация ва

[179] Сирожов О., Назиров М. Марказий Осиё давлатлари ҳамкорлигининг истиқболлари ва имкониятлари. – Т.: ЎзХИА, 2021.

демаркация муаммоларини ҳал етишда икки томонлама ва минтақавий ҳамкорлик даражасини оширишга эътибор қаратиш муҳим аҳамиятга эгалиги, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва махсус хизматлар орқали минтақавий ҳамкорлик механизмларини яратиш, шу жумладан фавқулодда вазиятлар, техноген ва экологик офатлар, табиий офатлар, биринчи навбатда чегара ҳудудларида таҳдидларнинг олдини олиш ва уларга ўз вақтида жавоб бериш соҳасидаги ишларни фаоллаштириш зарур. Бунда шунчаки мунозарали масалаларни ҳал қилиш эмас, балки бутун минтақанинг кескин зиддиятли потенциалини олиб ташлаш муҳимлигини қайд этади[180].

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати Марказий Осиёда яхши қўшничилик муносабатларини шакллантиришдан иборат. Бунга мисол сифатида Марказий Осиё давлат раҳбарларининг Маслаҳатлашув учрашувларини, парламентлараро гуруҳлар, чегараолди ҳудудлар ҳамкорлиги кенгаши, вазирлик ва идоралараро комиссиялар, инвестиция фондларининг ташкил этилганлигини айтиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда бошланган ва давом этаётган янгиланишлар Марказий Осиёда яқин қўшничилик муносабатлари муҳити шаклланишига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Ана шу янгиланишлар туфайли минтақада юзага келаётган имкониятлар Марказий Осиё давлатларининг барқарор тараққиёт мақсадларига хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Сирожов О. Назиров М. Марказий Осиё давлатлари ҳамкорлигининг истиқболлари ва имкониятлари. – Т.: ЎзХИА, 2021.
2. Сирожов О. Марказий Осиё минтақасида ҳамкорлик жараёнлари. Тошкент: ЎЗБЕКИСТОН., 2016.
3. Мухтор Назиров, Анвар Холдаров Марказий Осиё давлатлари интеграциясининг айрим жиҳатлари хусусида// шарқ мамлакатларидаги халқаро муносабатларнинг замонавий трансформацияси Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги миқиёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами.Тошкент, 2021 йил 22 май
4. Назиров М.М. Марказий Осиё: замонавий сиёсий жараёнлар: монография. – Тошкент: QAMAR MEDIA, 2021. – Б.136.

[180] Нематов А. Марказий Осиё мамлакатлари минтақадаги муаммоларни мустақил ҳал қила олишади http://isrs.uz/uz/maqolalar/nematov-strany-ca-smogut-samostoatelno-obespecit-sohranenie-stabilnosti-v-regione

5. Нематов А. Марказий Осиё мамлакатлари минтақадаги муаммоларни мустақил ҳал қила олишади http://isrs.uz/uz/maqolalar/nematov-strany-ca-smogut-samostoatelno-obespecit-sohranenie-stabilnosti-v-regione
6. Мустафаев Б. Ўзбекистоннинг минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарор ва изчил ривожланишининг муҳим гарови// http://isrs.uz/uz/smti-ekspertlari-sharhlari/uzbekistonning-mintakavij-siesati-markazij-osieda-barkaror-va-izcil-rivozlanisining-muim-garovi
7. Назаров А.Н. Глобаллашув шароитида сиёсий тараққиёт хавфсизлиги ва барқарорлигини таъминлаш жараёнлари. Тошкент – 2019
8. Maria A. Blackwood Analyst in Asian Policy. Central Asia: Background and U.S. Relations. USA, September 24, 2021.

O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Almurotova Gulbahor,
Jizzax davlat pedagogika universiteti 2 kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o’quvchilarning ma’naviy fazilatlarini shakllantirish omillari haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: *Ma’naviy poklik, ma’naviy fazilatlar, yuksak ma’naviyat, iymon, vatanparvarlik.*

ANNOTATION

This article talks about the factors in the formation of the moral qualities of students.

Key words: *Spiritual purity, spiritual qualities, high spirituality, faith, patriotism.*

Har bir xalq o‘zining madaniy-ma’naviy merosi, an’analari, tarixiy xotirasi bilan mavjuddir. Tarixiy xotirasini yo‘qotgan xalq qalbini, o‘zligini yo‘qotadi, oddiy aholi to‘dasiga aylanadi va natijada xalq sifatida tarix sahnasidan tushadi. Xalq o‘z tarixiy xotirasi tufayli madaniy merosini, qadriyatlarini, o‘zligini asraydi, o‘z tarixining ijodkor va merosxo‘ri ekanligini his qiladi.

O‘quvchi-yoshlar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish ta’lim tizimida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning markazida turibdi. Bu maqsadga erishish yo‘lida ta’lim-tarbiyaning turli usul va vositalaridan foydalanilmoqda. Kuzatuvlarimiz ba’zi ta’lim muassasalarida milliy istiqlol g‘oyasi bo‘yicha ma’ruzalar, seminarlar, kollokviumlarga ko‘proq e’tibor berilib, darslardan so‘ng o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga yetarli ahamiyat berilmayotganini ko‘rsatdi. Holbuki, bunday tadbirlar yoshlarni tarbiyalashda va ular ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda ulkan ahamiyatga ega. Mustaqillik tufayli musulmonchilikning ulug‘ madaniy qadriyatlari qayta tiklandi. Bu bebaho xazinani qalbdan chuqurroq idrok qila borganimiz sayin, hayotimiz ma’naviy jihatdan pokizaroq bo‘la boradi. Shu o‘rinda ota-bobolarimiz e’tiqod qilib kelgan islom dinining inson va uning oilasi, hayotidagi, odob-axloq va xayr-saxovat ishidagi ahamiyatini hamda vijdon erkinligi bilan uyg‘un tarzda qo‘shilib ketayotganligini alohida uqtirib o‘tish darkor.

Muqaddas Islom dini ham butun borlig‘i bilan insonlarni ilmga, hidoyatga yetaklovchi dindir. Zeroki, Qur’oni karimning birinchi nozil bo‘lgan surasi ham “Iqra’” ya’ni, “o‘qi” deb boshlanadi. Qur’onning 96-“Alaq” surasida esa: “O‘qi,

Parvardigoring behad karamli, uning o‘zi qalamga o‘rgatgan, insonga uning bilmaganlarini o‘rgatgan”, so‘zlari bitilgan. Muborak hadislarda ham ilm, ma’rifatlilik ulug‘lanadi. Masalan, “Ilm o‘rganish har bir mo‘min uchun farzdir”, so‘zlari muborak hadisi sharifda bitilgan. Ilm tufayli odamlar nodonlik, jaholat botqog‘idan chiqib, imonlarini kamolotga yetkazadilar. Ilm tufayli kishilar haq va nohaqni, halol va haromni farqlaydilar va adolat qiladilar. Bas, shunday ekan, jamiyatning har bir a’zosi ma’rifatli, ma’naviyatli bo‘lmog‘i lozimdir[Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T., Ma’naviyat, 2008.-227 bet].

Ulug‘ bobomiz Abdulla Avloniy ham “…Ma’rifatli xalq shijoatli bo‘lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, fandan va madaniyatdan mahrum qolgan xalq jaholat panjaralarining orasida eziladi. Zeroki, jaholat, eng qo‘rqinch, faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatliroq bir musibatdir”, – degan edi[Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T., Ma’naviyat, 2008.-80 b].

Mamlakatimiz ta’lim tizimida interfaol usullardan foydalanishga katta ahamiyat berilayotgan hozirgi kunda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni qo‘llash yana-da muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg‘or o‘qituvchilarning tajribasi ko‘rsatishicha, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchi-yoshlar faolligini keskin oshiradi. Bundan tashqari, mashg‘ulot o‘tkazishning rolli o‘yin, xizmat o‘yinlari singari shakllari asl mohiyatiga ko‘ra madaniy tadbirdir. Chunki, ular ta’lim shakllari bilan san’at elementlarining qo‘shilib ketishi natijasida vujudga kelgan. Dars jarayonida badiiy asarlardan parchalar keltirish, she’rlarni ifodali o‘qish, sahna asarlaridan parchalar ijro etish o‘quvchilarning ham aqliy, ham hissiy-emotsional faolligini keskin oshirishga xizmat qiladi .Ma’naviy poklik – inson ma’-yatining go‘zalligi, boyligi, teranligi, pokizaligini taqozo etuvchi, ezgu ma’naviy fazilatlar majmuini ifodalaydigan tushuncha. Ma’naviy poklik inson dunyoga kelganidan to so‘nggi nafasigacha ma’naviy jihatdan qanday yashab o‘tishi kerakligi bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlar, tajribalar, tasavvurlardan tarkib topadi. Xalqimiz ming yillar mobaynida yuksak ma’-yat va ezgu axloq shart-sharoitlari negizida tarbiyalanib kelgani bois, bizning bu boradagi tushuncha, tasavvur, bilim va tajribalarimiz pokiza turmush tarzini belgilab kelgan. Zero, ma’naviy poklik. eng avvalo, ezgulik va ma’naviy poklikdan ta’lim beradi. Kundalik turmush tarzidagi oddiy tozalikka rioya etish (hovli-joy, yashaydigan, ovqatlanadigan, o‘tirib-turadigan xonalarimiz ozodaligi), har qanday yumushning mukammal ado qilinishigacha o‘tadigan vaqt mobaynida bizga poklik-pokizalik, ozodalik, saranjom-sarishtalik t.si asos bo‘ladi. Shunday ekan, bizning tashqi ozodaligimiz o‘z-o‘zidan ichki (ma’n-y) ozodalikni, poklikni taqozo etadi. Binobarin, xalqimizning pok niyatli bo‘lishi, niyatni

ezgulikdan boshlab to yakunigacha, (mukammal ado qilgunicha) pokizalikka rioya qilib kelganligi zamirida ham toza, pok hayot nafasi mavjudligi, har qanday ishda adolat, haqiqat, halollik, ishonch-e'tiqod kabi t.larga tayanishi boshqalardan ham shuni talab qilishi bejiz emas. Ming afsuski, so'nggi yuz-yuz ellik yillar mobaynida yurtimiz mustamlaka holatiga tushib qolgani, hayot tarzimizda sotsializm, kommunizm, dahriylik kabi buzg'unchi g'oyalar o'rin olgani sababli, ma'-yatimizdagi ming yillik tarbiyaviy omillarga ham darz ketdi. Xus-n, pokizalik, halollik, ishonch-e'tiqod tuyg'ulari o'z o'rnini o'g'rilik, harom-harish ishlar, fahsh va razolat, o'zaro ishonchsizlik, ta'magirlik, poraxo'rlik kabi g'ayriinsoniy illatlarga bo'shatib bera boshladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'nggina xalqimiz, millatimiz o'zligini anglash, ajdodlarimiz amal qilib kelgan ma'naviy pok, ozoda va go'zal turmush sharoitlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ma'naviy fazilatlar – insonning ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy hayot, ong va munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan, jamiyat taraqqiyoti va turmushi ta'sirida shakllangan ma'naviy xususiyat va xislatlarining umuminsoniy hamda milliy fel-atvor ko'rinishlarini ifodalovchi tushuncha. Shaxsning ma'naviy fazilatlar uning imon-etiqodi asosida halol-poklik, mehr-shafqat, adolat va haqiqatgo'ylik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo'lish, kamtarlik va shakllantirshda namoyon bo'ladi. Shu manoda, ma'naviy fazilatlar erkak va ayol, ota-ona va farzandlarga mos o'ziga xoslik jihatlariga yoki kasbiy xus-yatlarga ega bo'lishi ham mumkin. Sharq xalqlarida ma'naviy fazilatlarni tarbiyalashning muhim mezoni "O'zingga nima tilasang, o'zgalarga shuni tilagin" degan hikmatda mujassamlashgan. Ulug' ajdodlarimiz Imom Buxoriy va Imom Termiziy hikmatlarida yuksak ma'naviy fazilatlar tavsiflab berilgan. Abu Nasr Forobiy jamiyat hayotida rahbarlarning eng muhim o'n ikki fazilatini aholining har bir tabaqasiga xos ma'naviy fazilatlarni tahlil etilgan etgan bo'lsa, Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy fuqaroning odobini, Kaykovus esa farzandlarda ma'naviy fazilatlarni shakllantirish yo'llarini batafsil bayon etgan. Muqaddas kitoblarimizda ham ma'naviy fazilatlarning komil insonni voyaga yetkazish hamda ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni ta'kidlanadi. Ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy -tarixiy, madaniy taraqqiyot natijasida shakllanadi, takomillashib boyib boradi. Shu tariqa milliy madaniyat rivojlanadi. Bu jarayonda ma'naviyat ahli: allomalar, adib va ziyolilarning milliy ong, milliy ruh, milliy o'ziga xoslikni ta'minlash va rivojlantirishda tutgan o'rni beqiyosdir. Ulug' ajdodlarimiz Imom Buxoriy, At-Termiziy, G'ijduvoniy, Naqshband, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi zotlarning bizga qoldirgan bebaho ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon mad-

ti xazinasidan munosib o‘rin olib, insoniyatni ezgulik sari yetaklab, har tomonlama barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qilib kelmoqda. Binobarin, yuksak ma’naviy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bu ulug‘ zotlarning o‘zi ham biz uchun abadul-abad ma’naviy yetuklik timsoli bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak zamonaviy jamiyatning beqarorligi va o‘zgarishi sharoitida axloqiy-axloqiy tarbiya masalalari barcha sohalarda birinchi o‘ringa chiqadi. Zamonaviy yoshlarning axloqiy ko‘rsatmalarini - qadriyat yo‘nalishlarini aniqlash uchun axloqiy va axloqiy tarbiya shakllari va usullarini tahlil qilish zarur. Binobarin, talabalarda ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda ta’limning kuchiga e’tibor berish, kuchaytirilishi kerak. Talabalik davrida mehnatning qadrini, kasbning qadrini, kasbiy mas’uliyatni, oilaviy qadriyatlarni shakllantirish zarur.Yuqorida aytilganlarning barchasidan xulosa qilish mumkinki, qadriyatlar tizimi insonning hayotiga bevosita ta’sir qiladi..Qadriyat yo‘nalishlari tizimi shaxsning yo‘nalishini belgilaydi, odamlar va umuman jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil qiladi. Ammo faqat gumanistik qadriyatlar to‘laqonli, sog‘lom jamiyat rivojlanishiga yordam beradi. Va jamiyatning asosi bo‘lgan talabalarga axloqiy qadriyatlarni singdirish kerak. Zamonaviy jamiyatning beqarorligi va o‘zgarishi sharoitida axloqiy-axloqiy tarbiya masalalari barcha sohalarda birinchi o‘ringa chiqadi. Zamonaviy yoshlarning axloqiy ko‘rsatmalarini - qadriyat yo‘nalishlarini aniqlash uchun axloqiy va axloqiy tarbiya shakllari va usullarini tahlil qilish zarur. Yoshlar yeng faol, maqsadli, bilimli guruhdir. Talaba yoshlarning qadriyat yo‘nalishlari kelajakda jamiyat rivojlanish vektorini belgilaydi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
2. Mo’minov N.A. Ma’naviyat mustaqillik poydevori. Toshkent. Fan va texnologiya. 2014.

НЕОБХОДИМОСТЬ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Пулатов Рузимурод Фарход уғли
Чирчикский государственный педагогический университет Факультет гуманитарных наук
polatovrozimurod6@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрывается важность и необходимость правового образования и воспитания в системе высшего образования на примере реформ, проводимых в нашей стране в последнее время. В нашей стране говорят, что правовое демократическое государство в буквальном смысле зависит от уровня правовой культуры молодых кадров.

Ключевые слова *Право и обязанность, образовательное учреждение, образование, воспитание, правовая культура, творческие методы, гражданское общество, правовая пропаганда.*

ABSTRACT

This article explains the importance and necessity of legal education and *upbringing in the higher education system on the example of the recent reforms implemented in our country. In our country, it is said that the legal democratic state in the literal sense depends on the level of legal culture of young personnel.*

Key words. *Right and duty, educational institution, education, upbringing, legal culture, creative methods, civil society, legal propaganda.*

Важна неотъемлемая связь между понятиями независимости, гражданского общества и демократии. Ведь независимую страну невозможно представить без демократического правового государства и сильных институтов гражданского общества. Поэтому с первых дней независимости в нашей стране был выбран путь демократического обновления и построения свободного гражданского общества. Образование и обучение были движущей силой развития во все времена. В странах, которые вовремя это поняли, эффективность образования послужила решению многих социальных проблем, от которых страдают другие страны. Эркки Ахо – председатель Национального совета школ Финляндии, завоевавшего свое место благодаря эффективности образования, говорил о важности модернизации образовательного процесса в соответствии с потребностями времени. социальное и территориальное неравенство угрожает ростом, миграция ослабляет традиционные культурные

структуры. Поэтому наша стратегия выживания разрабатывается на основе наших образовательных ресурсов и научных исследований. [1].

Правовое государство есть всеобщая организация, основанная на верховенстве права, выражающая и отражающая волю общества. Правовое государство – это демократическое государство, в котором обеспечиваются верховенство и приоритет права, разделение властей, независимость судов, эффективна работа правоохранительных органов, реальная народная власть, высокий уровень политико-правовой культура.

Правовая культура – это правовая грамотность. Повышение правовой культуры является важным признаком правового государства. Иными словами, без правовой культуры не может быть правового государства. Наш первый президент И.А. Каримов в своей книге «Пусть Родина будет свободной и процветающей от нас»: «Высокий уровень правовой культуры является уникальным признаком правового государства. В условиях становления рыночной экономики повышение правовой культуры является важной задачей. При этом уровень правовой культуры определяется не количеством принятых законов, а исполнением этих законов на всех уровнях. В этой важной работе особое значение имеет воспитание у людей глубокого уважения к законам и нормативным правовым документам. Ведь правовые нормы живут и осуществляются только в том случае, если они впитываются в сознание людей и действуют через них.

В современном XXI веке общественные отношения ускорились до такой степени, что в результате людям становится трудно получать информацию и реагировать на эти общественные отношения с правовым идеалистическим настроем. Это требует от всех людей ознакомления с применимыми правовыми нормами на необходимом уровне. Каково современное состояние юридического образования в образовательных учреждениях нашей страны? Как реагируют представители широких слоев населения на проводимые в нашей стране реформы и их правовую основу? Насколько наше юридическое образование обеспечено квалифицированными кадрами в условиях бурно развивающихся экономических и социальных процессов?

Касаясь размаха проводимых в стране реформ на современном этапе развития Узбекистана, глава государства сказал: «Новый Узбекистан формируется в результате наших широкомасштабных мер по политической, социальной и экономической модернизации общества. Сегодня демократические преобразования в нашей стране стали необратимыми. [2].

Если страна и ее народ не в полной мере понимают политику правительства и поддерживают ее с единой целью, то результат задач, предусмотренных этой реформой, очевиден для всех. Поэтому в настоящее время в нашей стране пересматривается система подготовки кадров в данной сфере. На самом деле, даже в системе юридического образования. Высокая правовая культура является основой демократического общества и выражением зрелости правовой системы. Это фактор, который активно влияет на различные процессы жизнедеятельности в обществе, способствует интеграции граждан и всех социальных групп, обеспечивает и укрепляет единство и гармонию общества. Каков сегодня процесс преподавания юридических предметов в системе среднего, среднего специального, профессионального, высшего образования? Думать о такой ситуации естественно каждому, потому что в профильных учебных заведениях право считается второсортным предметом, и это, естественно, создает почву для формирования правовых нигилистических настроений у многих представителей отрасли. С процессом расширения доступа к информации и повышения удобства показатели правовой культуры современного молодого поколения растут в обратном направлении.

Можно сказать, что равнодушие многих слоев населения к проводимым в обществе реформам является негативным следствием того, что данный фактор не получает достаточных оснований от юридических наук.

В 1997 году в нашей стране была принята «Национальная программа повышения правовой культуры в обществе», а 4 января 2001 года обнародован Указ Президента «Об организации изучения Конституции Республики Узбекистан». Указ Президента от 9 января 2019 г. «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе», 20 апреля 2019 г. «Контроль и оценка мероприятий по повышению правовой культуры в обществе» Принятие Положения «о» всех это правовая основа цели повышения правовой грамотности, а в основе ее - обеспечение активного участия каждого в пределах его прав и обязанностей в масштабных реформах в стране. Согласно указу Президента от 2001 года во всех учебных заведениях введены курсы по изучению Конституции. В указанном Положении говорится: «Основной целью контроля и оценки мероприятий по повышению правовой культуры в обществе является разработка и реализация предложений по организации правовых пропагандистских мероприятий по повышению правосознания и правовой культуры населения». ' [3].

Юридическое образование в педагогических учебных заведениях получали только студенты юридического факультета высшей школы. Это

привело к снижению интереса других специалистов к действующим и вновь принимаемым нормативным документам в обществе. В такой ситуации необходимо просить педагогов всех направлений творчески подойти к вопросу, относящемуся к их области, и изучить правовую основу всех изучаемых предметных объектов.

Возрастает спрос на высококвалифицированных юристов и в экономической жизни нашей страны. С учетом этого существующие юридические колледжи преобразованы в техникумы для подготовки юридических кадров со средним и высшим образованием для различных стадий хозяйственной жизни, а процессу юридического образования уделяется больше внимания.

Введение кадров с юридическим образованием во все отрасли и сетевые системы станет важным фактором того, что сегодняшние реформы нашей страны скоро принесут свои плоды, а чувство согласия населения повысит благосостояние нашего народа.

ВЫВОД

Необходимо, чтобы ответственные работники и специалисты по правовому просвещению и просветительской работе в образовательных учреждениях подходили к своим задачам всесторонне и творчески, и мы должны сердцем чувствовать, что в основе этого лежат результаты наших реформ. Актуальное значение сегодня имеет формирование у молодого поколения правового иммунитета против факторов, негативно влияющих на его правовое воспитание, и воспитание у каждого человека уважения к законам и правилам этикета, а также чувства нетерпимости к нарушениям.

REFERENCES

1. Дониев С.И., Ибрахимов Ф.А., Жолдасов И.С. Тенденции развития начального образования (на примере финской системы начального образования) Инновации в психологии педагогики Спецвыпуск -2. Ташкент-2020. Страница 392.
2. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 75-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН 23.09.2020
3. Положение о мониторинге и оценке мероприятий по повышению правовой культуры в обществе. 20 апреля 2019 г. (https://lex.uz/ru/docs/-4300837)
4. Амиров З. «Повышение правосознания как средство повышения правосознания и культуры» //Общество и управление - 2015. #3

5. Утамурадов А., Ходжиев Т., Исанова Г. и Хайтметов Р. (2020). Перспективы нового шаблона модернизации Узбекистана. Журнал Adv Research in Dynamical & Control Systems, 2 (12), 2670-2676.
6. Гафарова Г.Г., Худярова З.О. Творчество как фактор развития человеческого капитала в новом Узбекистане. Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 2022 г.
7. Г. Гаффарова, М. Юлдашева. Факторы формирования идеологического иммунитета у молодежи. Академические исследования в области педагогических наук, 2021 г.
8. Пулатов Р.Ф. (2023). Развитие духовно-нравственных качеств у подрастающего поколения. Академические исследования в области наук об образовании, 4(1), 316-320.

QULOQ OG‘RIG‘I SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH

Muradova Mehriniso Mubinovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti
E-mail: mehriniso1901@icloud.com

ANNOTATSIYA

O‘rta quloqning yallig‘lanishi bo’lib, bu kasallik, xususan, yosh bolalarda uchrab, bir muncha og‘ir kechadi, quloq qattiq og‘riydi, harorat ko‘tariladi, eshitishi ancha pasayadi, miya va uning pardasiga asorat berishi mumkin.

Kalit so’zlar: *quloq og’rishi, istma, yallig’lanish, qizamiq, skaplatina, yosh bola, tumov.*

ANNOTATION

Inflammation of the middle ear is a disease, especially in young children.

Key words: *earache, fever, inflammation, measles, shoulder blade, young child, influenza.*

Kasallik sabablari. Bunga ko‘pincha yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanishi bilan kechadigan yuqumli kasalliklar: gripp, qizamiq, skarlatina va boshqalar sabab bo‘ladi. Bunda yallig‘lanish jarayoni burun-halqumdan eshitish nayi orqali nog‘ora bo‘shlig‘iga o‘tadi, hosil bo‘lgan yiring, ba’zan quloq pardasini teshib, tashki eshituv yo‘lidan oqib chiqadi. O‘rta quloq yallig‘lanishi paydo bo‘lishida (ayniqsa, bolalarda) adenoidlar, polip, burun to‘sig‘ining qiyshayishi muhim o‘rin tutadi.

Belgilar va davolash O‘rta quloq o‘tkir yallig‘lanishida bemorning qulog‘i, boshi qattiq og‘riydi va eshitish og‘irlashadi, ayrim hollarda harorat 37-38°C darajaga ko‘tariladi. Davoni shifokor tayinlaydi. O‘rta quloq yallig‘lanishida shifokor tavsiyasi bo‘yicha bozillama qilinadi, u og‘riqni pasaytiradi va nog‘ora bo‘shlig‘idagi yallig‘lanishning surilib ketishiga imkon beradi. Bozillamani quloq suprasiga emas, balki uning yon-atrofiga quyiladi. Buning uchun bir necha qavat dokani suvda yoki teng barobar spirt qo‘shilgan suvda ho‘llab, mato o‘rtasini qirqib, quloq suprasiga kiygiziladi. Bozillamani har 4 soatda, bolalarda esa terisi kuyib qolmasligi uchun har ikki-uch soatda almashtirib turish lozim. Teng barobar suv qo‘shilgan spirtli va quruq-issiq bozillama navbatma-navbat kuyib turiladi. O‘rta quloqni davolashda ilitilgan suyuq dorilarni (qaynatilgan) pipetka bilan tashqi yo‘lga qo‘yish yaxshi naf beradi. Buning uchun suyuq dori solingan shishacha 2-3 daqiqa ilik suvga kuyib quyiladi. Bemor sog‘ qulog‘ini bosib, yonboshlab yotadi, quloqqa quyilgan dori 10-15 daqiqa turishi kerak.

Profilaktika uchun otitning oldini olish uchun organizmni chiniqtirish, darmondorilarga boy ovqatlar iste'mol qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish lozim.Tamaki chekish va alkogolga ruju qilish nafas yo'llarining surunkali yallig'lanishiga sabab bo'ladi. Bu yallig'lanish keyinchalik o'rta quloqqa ham o'tadi. O'z vaqtida to'g'ri davo qilinsa, bemor butunlay sog'ayib ketadi. Ba'zan yallig'lanish asoratlari yuzaga kelishi yoki surunkali otitda, vaqti-vaqti bilan yiring oqib turishi mumkin

Quloq og'rig'ining tibbiy nomi – otalgiya deb ataladi. Bu, ayniqsa, bolalarda tez-tez uchraydigan kasallik hisoblanadi. Og'riqlar achishish, o'tkir, tortishish kabi turlicha kuzatiladi. Ko'pincha u o'z-o'zidan o'tib ketadi va davolashni talab qilmaydi. Biroq, shifokor bilan maslahatlashmasdan va malakali yordamsiz qilolmaydigan holatlar mavjud.

Shoshilinch shifokorga qachon murojaat qilish kerak?

• og'riq 48 soatdan keyin ma'lum bo'lganda va hatto vaqt o'tishi bilan kuchayganda;

• harorat 38,3 ° C dan oshganda;

• quloqlardan suyuqlik yoki yiring oqganda;

• 2 yoshgacha bo'lgan bola og'riqdan shikoyat qilganda;

• yangi alomatlar paydo bo'lsa: bosh aylanishi, bosh og'rig'i, quloq atrofida shish yoki yuz mushaklar zaiflashganda;

• faol tortishish og'rig'i birdan to'xtaganda (bu quloq pardasining yorilishi belgisi bo'lishi mumkin);

• quloqdagi hislar bezovta qilsa va kundalik faoliyatga xalaqit bersa.

Nima uchun quloq bitadi?

Quloq mumi yomon olib tashlansa yoki biron sababga ko'ra u juda ko'p to'planib qolsa, u eshitish kanalini qisman to'sib qo'yishi mumkin. Odatda bu holat quloqdagi bitish hissi bilan o'zini namoyon qiladi va og'riqni keltirib chiqaradi.

Farqli bosim

Bu, masalan, samolyotda parvoz qilish yoki qo'nish paytida sodir bo'ladi. Bosimning tez o'zgarishi quloqlarda to'satdan bitishni olib kelishi mumkin.

Akustik shikastlanish

Kuchli ovoz hujumi masalan, rok-konsert, tungi klub, otashin shou yoki shovqin jarohatlanishga – quloq pardasining kuchlanishi yoki hatto yorilishiga olib kelishi

Kasallikni davomiyligiga qarab o'tkir va surunkali, yallig'lanish jarayoni darajasiga qarab kataral, seroz va yiringli o'rta otitlarga bo'linadi. O'rta quloqning kataral otiti. Kasallikni chaqiruvchilari streptokokk, pnevmokokk va stafilakokklar

hisoblanadi. O'rta quloqning kataral otiti yallig'lanish jarayonini burun bo'shlig'i va burun-halqumdan eshituv nayi va nog'ora bo'shlig'ining shilliq qavatiga o'tganida rivojlanadi. Eshituv nayi shillik qavatini yallig'lanishi uni teshigini torayishiga olib keladi. Eshituv nayining torayishiga burunni nafas olish funktsiyasini buzulishi olib keladi. Buni sababi ko'pincha burun bo'shlig'idagi poliplar, burun chig'anoqlarining gipertrofiyasi, adenoidlar, rinofaringitlar. Burun yondosh bo'shliqlarining kasalliklari, o'smalari buladi. Eshituv nayini o'tkazuvchanligini buzilishi natijasida nog'ora bo'shlig'ida bosim posayadi, nogora parda ichkariga qarab tortiladi.

Belgilari: Bemorlar quloq bitishidan, eshitish qobiliyatini pasayishidan, ozgina shovqindan va o'z ovozini kasal quloqda ko'proq eshitish (autofaniya) dan shikoyat qiladilar. Eshitish funktsiyasining buzilish darajasi nog'ora bo'shlig'idagi transsudatning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Otoskopiya qilinganda quloq pardasi ichkari tomon bukilgan bulib, uning rangi biroz sarg'ish yoki ko'kimtir holatda bo'ladi. Bolg'achani dastasi kalta bo'lib, kichik o'simtasi tashqariga qarab, bo'rtib chiqib turadi.

Ekssudativ otitda nog'ora bo'shlig'ida suyuqlik borligi ko'rinib turadi. Bolalarda ko'pincha ikki tomonlama bo'ladi va eshitish funktsiyasi sezilarli darajada buziladi.

Davolash: Avvalo burun, uning yondosh bo'shliklari, burun to'sig'i hamda burun-yutqin atrofidagi kasalliklarni bartaraf etish bilan bir qatorda, eshituv nayini o'tkazuvchanlik qobiliyatini tiklash, nog'ora bo'shlig'ida yig'ilib qolgan zardobni olib tashlash zarur.Burun bo'shlig'iga qon tomirini toraytiruvchi va shillik qavat shishini kamaytiruvchi dorilar tomiziladi (efedrin,adrenalin, galozalin, naftizin). Eshituv nayi orqali havo yuborish. Bundan tashqari, isituvchi kompress, solyuks, infraqizil nurlar buyuriladi. Lazer nurlari bilan davolash xam yaxshi natijalar beradi.

Aerootit. Bu kasallik samalyotni tezda yerdan qo'nishida bo'ladigan atmosfera bosimini o'zgarishi natijasida kelib chiqadi. Bunda eshituv nayining o'tkazuvchanlik funktsiyasining qay darajada ekanligi katta ahamiyatga ega.

Belgilari: quloqning tiqilishi, og'riq, eshitishni pasayishi, quloqda shovqin bo'lish, bosh aylanish. Otoskopiyada nog'ora parda ichkariga bukilgan buladi. Davolashda eshituv nayining funktsiyasini yaxshilashga qaratiladi.

O'rta quloqning o'tkir yiringli yallig'lanishi. Bu kasallikni kelib chiqishida nog'ora bo'shlig'iga kiradigan streptokokk, stafilakokk, virus-gripp, pnevmakokk va boshqa infekiyalar sababchi bo'ladi. O'tkir yiringli o'rta otit qizamiq, bo'g'ma, skarlatina kabi kasalliklarni asorati sifatida ham bo'lishi mumkin. O'tkir yiringli o'rta otitlarni kelib chiqishida gipertrofik rinit, adenoidlar, burun bo'shlig'idagi poliplar va o'smalar ham katta axamiyatga ega. Kasallikni boshlanishiga tumov, sovuq qotish, organizm reaktivligini pasayishi olib keladi. Ko'pincha o'rta quloqqa infektsiya eshituv nayi orqali kiradi. Odatda nog'ora bo'shlig'ida infektsiya bo'lmaydi, chunki

eshituv nayining hilpillovchi epiteliysi bunga yo'l qo'ymaydi. Eshituv nayining yallig'lanish kasalliklarida uning barer funktsiyasi buziladi. Nog'ora bo'shlig'iga infektsiya nog'ora parda teshilganda ham kirishi mumkin, yoki surg'ichsimon o'simtani jarohati orqali. Kam hollarda infektsiya gemotogen yol bilan kiradi (qizamik, tif, sil kasalliklarida). O'rta quloqni o'tkir yiringli yallig'lanishini umumiy va maxalliy belgilari bo'ladi. Kasallikni kechishini uch davrga bo'lish mumkin: birinchi davr - quloq pardasini teshilguncha bo'lgan davri; ikkinchi davri - pardaning teshilishi va yiring oqish davri; uchinchi davri esa – sog'ayish (tuzalish) davridir.

Kasallik boshlanganda quloq parda biroz qizargan, qon tomirlari kengaygan bo'ladi. Eshitish funktsiyasi pasayadi. Kasallikni shu davrida davolanmasa, quloq pardasini qizarishi kuchayib, qalinlashadi, eshitish qobiliyati yana pasayadi. Nog'ora bo'shlig'ida bo'shlig'ida zardob ko'p mikdorda yig'ilib, u yerda bosim oshib og'riq kuchayadi, quloq parda tashqariga bo'rtib turadi. So'rg'ichsimon o'simtani bosganda og'rik paydo bo'ladi

Chakka suyagi rentgenografiyasi yiringga to'lgan so'rg'ichsimon o'simta katakchalarining qorayganini, shuningdek katakchalar orasidagi ayrim suyak devorlarining yemirilganini ko'rsatadi. To'plangan anamnezlar va bemorni ob'ektiv tekshirilganda aniqlangan belgilar bo'yicha mastoidit tashxisi qo'yiladi. Tashhisni oydinlashtirish va mastoiditning og'ir asoratlariga yo'l qo'ymaslik uchun bemorni quloq, tomok, burun kasalliklari vrachiga yuborish lozim.

Davosi: xirurgik - mastoidotomiya qilinadi. Teri qoplami qavatma-qavat kesilib so'rg'ichsimon o'simtaning kortikal qatlamigacha ochiladi, keyin "g'or" teshilib, asta-sekin o'simtaning barcha zararlangan xujayralari ochib tozalanadi. Operatsiya vaqtida o'rta quloqning eshitish funktsiyasini saqlab qolish uchun eshituv yo'lining orqa devori olib tashlanmaydi va nog'ora pardagi tegilmaydi, chunki o'tkir yallig'lanish jarayonida o'rta quloqning eshituv suyakchalari zanjirida uncha destruktiv o'zgarishlar kuzatilmaydi.

O'rta quloqning surunkali yiringli yallig'lanishi. Etiololgiyasi: stafilokokk, streptokokk, viruslar, 24% da zambrug'lar.

Kasallikni kechishini doimiy belgilari:

1. Otoreya -quloqdan yiringli ajralmalarni 6 va undan ko'p hafta bo'lishi . Yiringli ajralmalar doimo yoki vaqti-vaqti bilan bo'lishi mumkin.

2. Nog'ora pardada perforatsiya bo'lishi (ko'p xollarda atrofi qalinlashgan bo'lishi).

3. Eshishitishni pasayishi, ketishiga qarab bosh aylanishi, quloqda shovqin bo'lishi, bosh og'rishi va h.k. O'rta quloqning surunkali yiringli yallig'lanishi 2 xil ko'rinishda bo'ladi: epitimpanit, mezotimpanit. Surunkali yiringli mezotimpanit o'rta

quloqning shilliq qavatini o'rta va pastki qismini yallig'lanishi bilan kechadi. Bemorlar eshitishni pasayishi va quloqdan yiringli ajralma ajralishiga shikoyat qiladi. Perforatsiya nog'ora pardaning tarang qismida bo'ladi. Quloqdan ajralayotgan ajgalma shilliqli, shilliq-yiringli hidsiz bo'ladi. Mezotimpanitni qo'zish sabablari: quloqqa suv tushishi, yuqori nafas yo'llari kasalliklari va boshqalar. Huruj davrida yiringli ajralma ko'payadi, quloqda og'riq paydo bo'ladi, harorat ko'tariladi, eshitish konduktiv tipda pasayadi. Eshitishni pasayishi perforatsiya kattaligiga bog'liq bo'lmay balki o'rta quloqdagi eshitish suyakchalarning harakatiga va chig'onoq darchasi membranasi harakatiga bog'liq bo'lib 40-50 Db kam bo'lmaydi. Eshitishi pasaygan bemorlarni 50 % da quloqda past chastotali shovqin kuzatiladi. Surunkali yiringli epitimpanit ancha og'ir kechadi. Kasallik asosan nag'ora bo'shlig'ining yuqori qismida kechadi, jarayon o'rta va pastki qismlarga, nog'ora bo'shlig'i suyag devoriga, eshitish suyakchalariga ham tarqalishi mumkin. Yallig'lanishni nog'ora bo'shlig'ini ustki qismida bo'lishiga sababi bu yerda shilliq qavatda burmachalarning bo'lishi. Nog'ora pardadagi perforatsiya uni bo'shashgan qismi yoki suyak qismida bo'ladi. Ajralma ko'lansa hidli bo'ladi, sababi suyak chirishi va purinlarni (indol, skatol) ajralishidir va anaerob infektsiyani qo'shilishidir. Eshitishni pasyishi mezotimpanitnikiga qaraganda ancha past bo'ladi. Eshitish pasayishi aralash turi ko'proq uchraydi. Otskopiyada yiring, granulyatsiya, polip va xolestatomani ko'rish mumkin.

Xolestatoma – terini epidermal qismini kontsetrik xolda yig'ilishi natijasida paydo bo'lgan va ularning parchalanishidan hosil bo'lgan xolesterin massadir.

REFERENCES

1. Soldatov I.B. Lektsii po otorinolaringologii. M. Medgiz, 1990.
2. Mo'minov A.I. quloq tomoq va burun kasalliklari. Tashkent. 1994.
3. Blagoveshenskaya N.S. Klinicheskaya otonevrologiya. M. Meditsina 1988.
4. Soldatov I.B. Rukovodstvo po otolaringologii. Moskva. Meditsna 1994.
5. Bazarov V.G., V.I.Babyak Klinicheskaya vestibulologiya. Sang-Peterburg 1996.
6. Dadamuxamedov A., Mirzarasulov M. Bolalar otorinolaringologiyasi. Toshkent. Ibn-Sino. 1999.
7. Babiyak.V.I , Nakatis.Ya.A Klinicheskaya otorinolaringologiya 2005
8. Izvin A.I. Klinicheskie lektsii po otorinolaringologii 2004
9. Kozorev Ye.S. LOR zabolevaniya 2005
10. Babiyak.V.I , Nakatis.Ya.A Professionalьnыe bolezni verxnix dыxatelьnыx putey i uxa. 2009

11. A.M.Xakimov, N.X.Voxidov, Umumiy amaliet shifokori tayerlashda otorinolaringologiya 2008.
12. K.A. Xodjaeva, A.G.Vorobьeva Prakticheskaya otorinolaringologiya 2005

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7
(E)ISSN:2181-1784
www.oriens.uz
3(4/2), April, 2023

ГОРМОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОДРОСТКОВ С ЗАДЕРЖКОЙ ПУБЕРТАТА И РОСТА ПИЛОТНЫХ РЕГИОНОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (НАМАНГАНСКАЯ, ДЖИЗАКСКАЯ, СУРХАНДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТИ И РКК)

Урманова Ю.М., Мавлонов У.Х., Алиева Д.А.
Ташкентский Педиатрический Медицинский Институт,
кафедра эндокринологии, детской эндокринологии,
Республиканский Специализированный Научно-Практический
Медицинский Центр Эндокринологии МЗ РУз, отдел нейроэндокринологии,
Бухарский Областной эндокринологический диспансер

АННОТАЦИЯ

Цель исследования *- изучить гормональную характеристику подростков пилотных регионов Республики Узбекистан (Наманганская, Джизакская , Сурхандарьинская области и РКК).*

Нами было обследовано 166 подростков из трех областей Руз: 78 в Наманганской области, 45 – в Джизакской области и 45 в Сурхандарьинской области.

